

L. OLIMOV, A. NAZAROV



**XULQI
OG'ISHGAN
BOLALAR
PSIXOLOGIIYASI**

O'quv qo'llanma

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

L.YA.OLIMOV, A.M.NAZAROV

XULQI OG'ISHGAN BOLALAR PSIXOLOGIYASI

Oliy va o'рта maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy o'quv yurtlarining 5110900-Pedagogika va psixologiya bakalavriyat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

**Toshkent
«Tafakkur avlodi»**

UO'K: 159.9.019.43-053.5(075.8)

KBK: 88.8ya73

O-49

O-49 Olimov L.Ya.

Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi [Matn]: o'quv qo'llanma / L.Ya. Olimov, A.M. Nazarov. – Toshkent: «Tafakkur avlodi», 2020. – 496 b.

Mazkur o'quv qo'llanma 5110900-Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishining o'quv rejasidagi "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi" nomli fan dasturi asosida yaratilgan bo'lib, deviant xulq-atvor muammosi va deviant xulqli bolalarni psixodiagnostika qilish usullari hamda psixokorreksion, psixoprofilaktik, psixokonsultativ tadbirlar xususida mulohaza yuritiladi. O'quv qo'llanma Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari, amaliyotchi psixologlar, pedagoglar, magistrantlar va shu sohaga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

Sh.R.Barotov – Psixologiya fanlari doktori, professor,
Xalqaro Psixologiya Fanlari Akademiyasi haqiqiy a'zosi
(akademigi)

A.M.Jabborov – Psixologiya fanlari doktori, professor.

UO'K: 159.9.019.43-053.5(075.8)

KBK: 88.8ya73

ISBN 978-9943-6691-2-3



© L.Ya. Olimov, A.M. Nazarov

© «Tafakkur avlodi», 2020

KIRISH

Ma'lumki, jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etishga mo'lgallangan fanlardan biri psixologiya hisoblanadi. Psixologik bilimlarni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida tadqiq etish ko'lami kengayib borishi uning mas'uliyati va nufuzi ortayotganligidan dalolat beradi. Xuddi shu bois psixolog mutaxassislariga nisbatan ijtimoiy buyurtmaning ko'payishi ularning hozirgi zamon talablariga javob beradigan darajada tayyorlashni taqozo qilmoqda.

Inson xulq-atvori, psixologik xususiyatlari bilan bog'liq masala insoniyatni qadim zamonlardan buyon qiziqtirib kelgan. Bu sohada izlanish olib borgan ko'plab olimlar insonning tug'ilganidan boshlab shakllanishi bilan bog'liq barcha hodisalarni o'rganishni tadqiq qilish orqali, uning o'ta murakkab jihatlarini kashf etgan. Haqiqatdan ham, inson xulq-atvorining jamiyatda belgilangan hayotiy normal mezonlardan og'ishi, buzilishi bilan bog'liq muammoni psixologiya fani o'rganadi.

Deviantlik, og'ishgan xulq muammosi psixologlar, shifokorlar, pedagoglar, huquq-tartibot organlari xodimlari, sotsiologlar, faylasuflarda qiziqish uyg'otib kelgan. Og'ishgan xulq mavzusi sohalararo va munozarali xarakterga ega. Yondashuvlarning turli-tumanligi shaxs xulqini og'ishganligini tashhis qilish, uni profilaktika qilish va ijtimoiy psixologik yordam ko'rsatish jarayonida uni bartaraf etish kabi amaliy vazifalarni yechishda ham ko'zga tashlanadi.

Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi fanining asosiy maqsadi talabalarda shaxs og'ishgan xulqi muammolarining zamonaviy holati haqida ilmiy asoslangan, yaxlit tasavvurning shakllanishida yordamlashishda ko'rinadi.

Mazkur o'quv qo'llanma "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi" fani dasturiga asoslangan holda yaratilgan bo'lib, talabalar uchun zarur materiallar izchil ravishda, muayyan tartibda joylashtirilgan. Nazariy va amaliy materiallar nisbati maqsadga muvofiq taqsimlangan bo'lib, nazariya bilan amaliyot birligi prinsipiga to'la rioya qilingan holda, mahalliy va xorijiy adabiyotlardan unumli foydalanilgan.

I BOB. XULQI OG'ISHGAN BOLALAR PSIXOLOGIYASI KURSINING SHAKLLANISH TARIXI

Tayanch tushunchalar: «deviatsiya», «og'ishgan xulq», «ijtimoiy og'ish», «noijtimoiy axloq», «antiijtimoiy axloq», «autodestruktiv axloq», «moslashmaganlik», «desotsializatsiya».

1.1. Fanning predmeti, maqsad, vazifalari

Psixologiyada axloq atamasidan tur va inson faolligi darajasini uning faoliyati, mushoqadasi, tafakkuri, muloqoti kabi ko'rinishlari bilan bir qatorda belgilash uchun keng foydalaniladi. Inson axloqi to'qrisidagi ilmiy tasavvurlar XX asrning boshlarida bixevioristlar uni psixologik fanning predmeti deb e'lon qilgan vaqtdan boshlab, ayniqsa, shiddatli rivojlanish tusini oldi. Dastlab axloq tushunchasi ostida shaxsning istalgan tashqi kuzatiluvchi, "stimul-reaksiya" sxemasi bo'yicha ishlaydigan reaksiyasini (harakatlanuvchan, vegetativ, nutqiy) tushundilar. Empirik ma'lumotlarning to'planish darajasi bo'yicha inson axloqining tabiati yanada chuqurlashdi. 1931 yilda esa axloqiy psixologiyaning asoschilaridan biri Djon Uotson axloq to'g'risida "tuxumni mahsuldor qilish lahzasida dunyoga keluvchi va organizmning rivojlanishi darajasi bo'yicha yanada murakkablashib boruvchi faollikning uzluksiz oqimi" ekanligini ta'kidlagan edi.

Axloqning zamonaviy talqini tashqi stimulgacha reaksiyalar to'plami doirasidan ancha chetga chiqadi. Shunday qilib, psixologik lug'atda axloq "tirik mavjudotga xos bo'lgan, ularning ichki va tashqi faolligi vositasidagi atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirdir", deb talqin qilingan. Odamning tashqi faolligi ostida har qanday tashqi ko'rinish: harakat, faoliyat, muomala, mulohaza, vegetativ reaksiyalar tushuniladi. Quyidagilar axloqning ichki tarkibi bo'lib hisoblanadi: motivatsiya va maqsad qo'yish, kognitiv ishlov berish, hissiy reaksiyalar, o'z-o'zini boshqarish jarayonlari kabilar. Kelgusi muhokamalarda axloq tushunchasi ostida biz shaxsning individual xususiyatlari va shaxsning tashqi harakat hamda muomalasi shaklida ifodalanuvchi ichki faolligi bilan ijtimoiy muhit bilan o'zaro harakati jarayonini tushunamiz.

Inson axloqining birmuncha muhim xususiyatlaridan biri – bu uning o'z mohiyati bo'yicha ijtimoiyligidir, u jamiyatga shakllanadi va amalga oshadi. Inson axloqining boshqa barqaror xususiyati – bu

uning nutqiy boshqaruv va maqsad qo'yilganligi bilan mustahkam aloqasi hisoblanadi. Umuman, insonning axloqi uning ijtimoiylashuvi jarayonini – jamiyatga integratsiyasini aks ettiradi. Ijtimoiylashuv, o'z rivaftida, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda ijtimoiy muhitga moslashishni ko'zda tutadi. Moslashuv – individuallashuv jarayonlarining nisbati bo'yicha, shuningdek, jamiyatda shaxs mavqei yuzasidan ijtimoiy moslashuvning quyidagi variantlarini ajratish mumkin:

✚ radikal moslashuv – shaxsning mavjud ijtimoiy hayotda o'zgarishi orqali o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi;

✚ gipermoslashuv – shaxsning o'z oliy yutuqlari vositasida ijtimoiy hayotga ta'siri orqali o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi;

✚ uyg'unlashgan moslashuv – shaxsning jamiyatda ijtimoiy talablarga orientatsiyasi vositasida o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi;

✚ konformistik moslashuv – individuallikni bostirish, o'z-o'zini ro'yobga chiqarishni birlashish hisobiga;

✚ deviant moslashuv – mavjud bo'lgan ijtimoiy talab(me'yor)lardan chiqish vositasida o'z-o'zini ro'yobga chiqarish;

✚ ijtimoiy psixologik moslashmaganlik (dezadaptatsiya) – o'z-o'zini ro'yobga chiqarish va moslashish jarayonlarini blokirovkalash holati.

Muayyan inson axloqida ijtimoiylashuvning istalgan variantida axloqning umumiy tavsifnomasidan foydalanib, quyidagilarni ifodalash mumkin:

✓ asoslanganlik – shaxsning ehtiyojlari va maqsadlariga yo'naltirilgan harakatlanishga ichki tayyorlik;

✓ o'xshashlik – aniq vaziyat bilan kelishish;

✓ moslashish – ijtimoiy muhitning yetakchi talablariga muvofiqlik;

✓ haqqoniylik – individuallik axloqining mosligi, uning ushbu shaxs uchun tabiiy ekanligi;

✓ mahsuldorlik – ongli maqsadlarni amalga oshirish. Shaxs xulqining shunday belgilari borki, ular anchagina xususiy, biroq kam bo'lmagan ahamiyatga egadir:

✓ faollik darajasi (energiyalilik va tashabbuskorlik);

✓ hissiy ifodalanganlik (namoyon etilayotgan affektlarning kuchi va xarakteri);

✓ jo'shqinlik;

✓ turg'unlik (turli vaqt va turlicha vaziyatlarda ko'rinishlarning doimiyligi);

✓ onglilik (o'z axloqini tushunish uni so'z bilan tushuntira olish qobiliyati);

✓ ixtiyoriylik (o'z-o'zini nazorat);

✓ egiluvchanlik (muhitning o'zgarishiga javoban axloqni o'zgartirish).

“Axloq” turidagi tushunchaning barcha ko'rib chiqilgan tavsifnomalari uning “shaxsning og'ishgan xulqi” kabi turiga ham to'la ma'noda taalluqlidir.

1.2. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi va fanlar tizimida tutgan o'rni

Ko'pgina fanlarda ushbu tushunchaning ko'rinishlarini “me'yoriy” va “anomal”ga bo'lish qabul qilingan. J.Godfruaning haqqoniy e'tirozi bo'yicha “qanday axloqni me'yoriy deb hisoblash mumkin” degan savol inson axloqini, shu jumladan, og'ishgan xulqni tushuntirish uchun markaziy tushuncha hisoblanadi. “Normal” va “anomal” axloq tushunchasining ma'nosiga qat'iy ta'rif berish murakkab, ular orasidagi chegara esa o'ta noaniq.

Shunga qaramay, fanda va kundalik hayotda ushbu tushunchalar birgalikda foydalaniladi. Bunda normal axloq atamasi ostida, qoidadagidek, og'riqli xafagarchilik bilan bog'liq bo'lmagan, shu bilan birgalikda, ko'pchilik odamlar uchun xarakterli bo'lgan me'yoriy-ma'qullangan axloq tushuniladi. Shunga o'xshash, nome'yoriy axloqni quyidagicha bo'lish mumkin: me'yoriy-ma'qullanmagan, patologik, nostandart.

“Me'yoriy” deb qat'iy mazmunda ushbu fanda ayni vaqtda qabul qilingan me'yor-etalonga muvofiq keluvchi barcha narsa hisoblanadi. Me'yorlarni olish usullarini ko'pincha mezon deb ataydilar. Eng ko'p tarqalgan va umumiy hisoblangan mezonlardan biri – populyatsiyada uchraydigan chastotalarni hisoblash yordamida istalgan ko'rinish uchun me'yorni aniqlashga imkon beruvchi statistik mezon (usul) hisoblanadi. Matematik statistika nuqtai nazaridan tez-tez, ya'ni 50 foizdan kam bo'lmagan hollarda uchraydigan hamma narsa me'yoriydir. Me'yoriy taqsimot qonuniga muvofiq ravishda 2-3 foiz odamlar “me'yoriy”dan ikki tomon bo'yicha ko'pchilik muayyan bir sifat bo'yicha (intellekt, hissiy turg'unlik) axloqning yaqqol

buzilishiga, har ikki tomondan 20 foizi esa nisbatan katta bo'lmagan og'ishlarga ega.

Statistik mezonda ifodalanish va hayot uchun xatar darajasi bo'yicha axloqning sifat-miqdoriy bahosi bilan uyg'unlashadi. Masalan, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish aql chegaralarda (katta bo'lmagan miqdor va chastotada) me'yoriy ko'rinish deb tan olinadi, biroq uni suiste'mol qilish og'ishganlikni anglatadi. Boshqa tomondan odamning o'zi yoki atrofdagilar hayoti uchun to'g'ridan-to'g'ri xavf tug'diruvchi axloq uning chastotasi, ba'zan esa ifodalanganlik darajasidan qat'iy nazar og'ishgan sifatida baholanadi, masalan, suitsid yoki jinoyat ko'rinishida va hokazo.

Gumanitar fanlar statistika bilan bir qatorda shaxs axloqining me'yoriyligi yoki nome'yoriyligini baholashning maxsus mezonlaridan ham foydalaniladi: psixopatologik, ijtimoiy-me'yoriy va individual-psixologik.

Psixopatologik mezonlardan tibbiyotda foydalaniladi. Uni shaxsning og'ishgan xulqi va boshqa sohalarida qo'llashga qiziqtiradigan narsa mavjud. Ehtimol, bu deviant xulq tadqiqotlarining an'anaviy ravishda klinik sharoitlarda olib borilishi bilan bog'liqdir, medikamentoz terapiya esa bunday hollarda keng tarqalgan.

Psixopatologik mezon nuqtai nazaridan barcha axloqiy ko'rinishlarni ikkiga: "sog'lik – kasallik" ma'nosida me'yoriy va patologikka ajratish mumkin. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining nizomida sog'lik "kasallik va jismoniy nuqsonlarning yo'qligi sifatidagina emas, balki to'liq jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy farovonlik holati" sifatida ta'riflanadi. Kasallik – "organizmning tuzilmasi va funksiyasidagi zararlar uning to'ldiruvchi-moslashuvchi mexanizmlarida sifatli - o'ziga xos shaklida reaktiv mobillashuv davrida ichki va tashqi omillar ta'siri ostida o'z oqimida buzilgan hayot; kasallik ko'pincha bemor hayotiy faoliyatida ozodlikning cheklanishi va muhitga moslashuvning umuman yoki qisman susayishi bilan xarakterlanadi". Bunda patologiya – tibbiy me'yorlar mazmunida "me'yordan har qanday og'ishdir". Yoki boshqacha aytganda "bu aniq nozologik birliklarning umumiy nomi", ya'ni kasallik va uning belgilari tasnifida sanab o'tilgan hollardan biriga mos tushadi.

Kasalliklar tasnifida og'ishgan xulq alohida nozologik birlik sifatida ajratilmagan, shubhasiz, u na patologiyaning shakli, na qat'iy belgilangan tibbiy tushuncha hisoblanadi. Ayni damda og'ishgan xulq

me'yor va xarakter aksentuatsiyasi, vaziyatli reaksiya, rivojlanishning buzilishi, kasallik oldi kabi patologiya o'rtasida yotuvchi ko'rinishlar qatorida keng ko'rib chiqiladi.

Sanab o'tilgan shakllar muammoning xarakteri bilan uyg'unlashgan murakkabliklar va tashxisiy belgilarning noaniqligi bilan xarakterlanadi. Masalan, "xarakter aksentuatsiyasi – bu uning me'yorida boshqalarga nisbatan yaxshi va hatto ko'tarinki mustahkamlikda psixogen ta'sirlarning muayyan turiga munosabatda tanlangan zaiflik ma'lum bo'ladigan alohida chiziqlari o'ta kuchaytirilgan oxirgi variant. Ma'lumki, qator hollarda aksentuatsiya qonunga qarshi harakat, suitsidal axloq, giyohvand moddalarni iste'mol qilish kabi og'ishgan xulq bilan uyg'unlashadi. Ayni damda aksentuatsiyalangan xarakterli ko'pchilik odamlarning axloqi og'ishgan hisoblanmaydi. K.Leongardning fikriga ko'ra rivojlangan davlatlarda aholining 50 foizi aksentuatsiyali shaxsga taalluqlidir. Bunda ularning ko'pchilik qismi me'yoriy axloqni namoyish qiladi va qatto jamiyat oldida alohida xizmatlarga ega.

Shunga o'xshash psixik patologiya (psixopatiya, nevrozlar, psixozlar va h.k.) sohasidagi istalgan parokandalik har doim ham og'ishgan xulq bilan bog'liq emas. Navbatdagi ijtimoiy-me'yoriy mezon jamiyat hayotining turli sohalarida o'ta muhim ahamiyatga ega. Har bir odamning axloqi har kuni baholanadi va turli-tuman ijtimoiy me'yorlar yordamida boshqariladi. Ijtimoiy-me'yoriy mezonlarga muvofiq axloqning ayni damda jamiyat talablariga mos tushishi me'yoriy deb anglanadi va ma'qullanadi. Og'ishgan xulq esa aksincha, asosiy jamoaviy ko'rsatmalar va qadriyatlarga ziddir.

Ijtimoiy-me'yoriy mezon nuqtai nazaridan axloq me'yoriyligining yetakchi ko'rsatkichi shaxsning ijtimoiy moslashganlik darajasi hisoblanadi. Bunda me'yordagi, muvaffaqiyatli moslashuv qadriyatlararo, individning xususiyatlari va uni o'rab turgan ijtimoiy muhitdagi talablar, qoidalarning maqbul muvozanati bilan xarakterlanadi. Shubhasiz, ijtimoiy talablarni yaqqol inkor etish kabi individuallikni tenglashtirish, masalan, konformizm shaklida – shaxs manfaatlarini muhit bosimiga to'liq bo'ysundirish ham birdek muammo hisoblanadi. Moslashmaganlik – bu shaxsiy ahamiyatli bo'lgani kabi muhit talablarini qabul qilish va bajarishga shuningdek, o'z individualligini aniq ijtimoiy sharoitlarda ro'yobga chiqarish sust layoqat holatidir.

Moslasmaganlikning ijtimoiy va individual ko'rinishlarini ajratish mumkin. Moslasmaganlikning ijtimoiy ko'rinishlari quyidagilar hisoblanadi:

– past o'zlashtirish, o'z mehnati bilan mablag' ishlab topishga layoqatsizlik;

– hayotiy muhim sohalarda surunkali yoki yaqqol ifodalangan omadsizlik (oilada, ishda, shaxslararo munosabatlarda);

– qonun bilan nizolar;

– yakkalanib qolish.

Moslasmaganlikning individual ko'rinishlari sifatida quyidagilarni ko'rib chiqish mumkin:

– ijtimoiy talablarga munosabati yuzasidan salbiy ichki tartib (ular bilan kelishmaslik, tushunmaslik, norozilik, qarshi harakat);

– o'zining mas'uliyatdan qochishga intilishida atrofdagilarga ko'tarinki e'tiroz bildirish, egosentrizm;

– surunkali hissiy noqulaylik;

– o'z-o'zini boshqarishning besamarligi;

– janjalkashlik va kommunikativ ko'nikmalarning zaifligi;

– reallikni kognitiv buzib ko'rsatish.

Odam turlicha tuyg'ularni – yengil xavotir va o'ziga ishonchsizlikdan tortib, chidab bo'lmas darajadagi nochorlik, qo'rquv, umidsizlik jazavalarigacha boshidan kechirishi mumkin. Bunda shaxsning real ijtimoiy maqomi va uning individual ongi o'rtasida bo'linishi yuzaga kelishi mumkin.

So'nggi mezon – individual psixologik mezon har bir shaxs, uning individualligining o'sib boruvchi barcha qadriyatlarini aks ettiradi.

Ushbu mezonga muvofiq insonga zamonaviy talablar ijtimoiy me'yorlarni bajarishga uning qobiliyatini cheklamaydi, biroq shaxsning o'z-o'zini anglashi va o'ziga xosligini ham ko'zda tutadi. Shu bilan bog'liq ravishda bizning zamonda shaxsning asos soluvchi sifatleri deb quyidagilarni aytish mumkin: tashqi olam va o'ziga nisbatan uning ichki pozitsiyasi, qaror qabul qilish va tanlash layoqati, shuningdek, shaxsiy axloqiga mas'uliyati. Ijtimoiy borliqda o'z-o'zini aniqlash va shaxsiy potensialining o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi unda individual rivojlanishning yetakchi vazifasi deb tan olinadi.

Ma'lumki, maxsus adabiyotlarda "og'ishgan xulq" atamasi ko'pincha deviant axloq (deviatio – lotin tilida og'ishgan) sinonimi bilan almashtiriladi. Kelgusida biz o'zaro bir-birining o'rmini

to'ldiruvchi sifatida har ikkala atamani qo'llaymiz – "og'ishgan", "deviant", bunda birinchi atama aniq va o'rganilgan bo'lgani sababli afzal ko'riladi.

O'rganilayotgan tushunchaning yaqqol ko'rinib turgan murakkabligiga hammadan avval uning fanlararo xarakteri sababdir. Hozirgi vaqtda bu tushuncha ikki asosiy mazmunda foydalaniladi. Deviant axloq "rasman o'rnatilgan yoki haqiqatda ushbu jamiyatda yuzaga kelgan me'yorlarga mos kelmaydigan munosabat, inson harakati" ma'nosida psixologiya, pedagogika va psixiatriyaning predmeti sifatida yuzaga chiqadi. "Inson faoliyatining ommaviy va mustahkam shakllariga nisbatan ifodalanuvchi va rasman o'rnatilgan yoki ushbu jamiyatda haqiqatda mavjud bo'lgan me'yorlar va qarashlarga mos tushuvchi ijtimoiy ko'rinish" ma'nosida sotsiologiya, huquq, ijtimoiy psixologiya predmeti hisoblanadi. Og'ishgan xulqni birinchi aspektidagi afzalligi – individual faollikning ko'rinishi sifatida ko'rib chiqamiz.

Shaxsning og'ishgan xulqining shunday maxsus xususiyatlarini ajratish maqsadga muvofiqki, u bizga bu xulqni boshqa fenomenlardan farqlashda, shuningdek, aniq bir odamda uning mavjudligi hamda dinamikasini aniqlash zaruratida yordam bersin:

1. Shaxsning og'ishgan xulqi – bu umumqabul qilingan yoki rasman o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlarga mos tushmaydigan axloq. Boshqacha aytganda, bu harakat mavjud qonunlar, qoidalar, an'analar va ijtimoiy buyruqlarga mos tushmaydigan harakatdir. Deviant axloqni me'yordan og'ishgan axloq sifatida baholashda ijtimoiy me'yorlar o'zgarishini inobatga olish lozim.

2. Shaxs va deviant axloq, uning namoyon bo'lishi boshqa odamlar tomonidan salbiy baholanadi. Salbiy baho jamoatchilik muhokamasi yoki ijtimoiy sanksiya, shu jumladan, jinoiy jazo shakliga ega bo'lishi mumkin. Dastavval, sanksiyalar istalmagan axloqning oldini olish vazifasini bajaradi. Biroq, boshqa tomondan ular shaxs stigmatizatsiyasi – unga tamg'a osish kabi salbiy ko'rinishga olib keladi. Masalan, jazo muddatini o'tab, "me'yoriy" hayotga qaytgan odamning moslashuvdagi qiyinchiliklari yaxshi ma'lum.

Insonning yangi hayot boshlashga intilishi ko'pincha atrofdagi odamlarning ishonmasligi va ularni rad etishi natijasida barbod bo'ladi. Deviant (giyohvand, jinoyatchi, o'z-o'zini o'ldiruvchi va h.k.) tamg'asi sekin-asta deviant tenglikni (o'z-o'zini his qilish)

shakllantiradi. Shunday qilib, axmoqona shuhrat xavfli yakkalanishni kuchaytiradi, ijobiy o'zgarishlarga to'sqinlik qiladi va deviant axloqning takrorlanishini chaqiradi.

3. Og'ishgan xulqning xususiyatlari shaxsning o'zi yoki atrofdagilarga ahamiyatli tarzda hayot sifatini pasaytirgan holda real zarar keltirishi hisoblanadi. Bu mavjud tartibning noturg'unligi, ma'naviy va moddiy zarar keltirish, jismoniy zo'rlik va dard-alam yetkazish, sog'ligining yomonlashishi bo'lishi mumkin. Deviant axloq o'zining eng so'nggi ko'rinishlarida hayot uchun bevosita xavf tug'diradi, masalan, suitsidal axloq, zo'ravonlik jinoyatlari, "og'ir" giyohvand moddalar iste'mol qilish kabilar. Zaraming psixologik namoyon bo'lishi o'sha odamning o'zi yoki uning atrofida qilarning aziyat chekishidir.

Ushbu belgi shaklan – destruktiv yoki autodestruktiv bo'lishidan qat'iy nazar og'ishgan xulqning parchalovchi ekanini bildiradi. Bizning nazarimizda radikallik, kreativlik va marginallik kabi yaqin ijtimoiy ko'rinishlar og'ishgan xulq bo'la olmaydi va ifodalay olmaydi. Garchi ular ham umumqabul qilingan me'yorlardan cheklanib, aholining konservativ holatga mayli bo'lgan qismida g'ashlik uyg'otsa-da, bu fenomenlar jamiyat uchun xatardan ko'ra foydaliroq bo'lishi ham mumkin. Xullas, radikal moyil bo'lgan shaxslar jamiyatni tubdan yangilashni maqsad qiladilar, bu esa ularda istiqbolli o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Kreatorlar nostandartligi bilan farqlanib, tadqiqotchilar va ilk ochuvchilar sifatida chiqadilar. Marginallar ijtimoiy me'yorlarning chegaralarini kengaytirgan holda o'zlarini ko'pchilikka qarshi qo'yadilar. Sanab o'tilgan tushunchalarni uyg'unlashishi mumkin. Masalan, ko'pincha o'smirlar axloqi barcha uchta tendensiyani o'zida aks ettiradi Pirsing, tatuirovka yoki hatto chandiq bilan eksperiment o'tkazgan o'smirni, albatta, deviantlar guruhiga kiritish mumkin emas. Biroq heroin iste'mol qiluvchi o'smir hayot uchun yuqori xatarli og'ishgan xulqni yaqqol namoyish qiladi. Shunday qilib, og'ishgan xulq o'z mohiyati bo'yicha destruktivdir.

4. Ko'rib chiqilayotgan axloqni muhim takrorlanuvchi (ko'p marotaba yoki uzoq muddatli) deb xarakterlash mumkin. Agar yetti yoshli bola ota-onasidan so'ramay shirinliklar uchun uncha katta

bo'lmagan mablag'ni olgan bo'lsa, kelgusida ijtimoiy tartibni buzmasa, ushbu axloqni og'ishgan sifatida ta'riflash odobdan bo'lmaydi.

Aksincha, o'smir tomonidan sistematik tarzda anglangan holda pul o'g'irligi sodir etilsa – bu og'ishgan xulq shakllaridan biri hisoblanadi. Boshqa misol: hodisalar qatorida spirtli ichimlik iste'mol qilish to'liq yo'l qo'yilgan yoki hatto foydali deb tan olinadi. Ushbu qoida istisnoga ega. Masalan, hatto bir martalik suitsidal urinish jiddiy xavf tug'diradi va shaxsning og'ishgan xulqi sifatida baholanishi mumkin.

5. Axloqni og'ishgan deb kvalifikatsiya qilish uchun u shaxsning umumiy yo'nalganligi bilan muvofiqlashishi zarur. Bunda axloq nostandart vaziyatlar oqibati (masalan, jarohatdan keyingi sindrom doirasidagi axloq), krizisli vaziyat oqibati (masalan, yaqin odamining o'limi tufayli birinchi oy davomidagi qayg'u reaksiyasi) yoki o'z-o'zini muhofazalash oqibati (masalan, hayot uchun real xavfning mavjudligida) bo'lmasligi lozim.

6. Og'ishgan xulqning xususiyatlaridan biri u tibbiy me'yorlar chegarasida ko'rib chiqiladi. U garchi patologik holat bilan uyg'unlashsa-da, psixik kasalliklar yoki patologik holat bilan tenglashtirilmasligi darkor. Psixik parokandalik holida psixik kasal odamning patologik axloqiga o'rin bor. Patologik axloq tibbiy me'yorlardan og'ishadi, birinchi darajasi tibbiy aralashuvni talab qiladi va psixiatriyada, masalan, psixik kasallarning deviant axloqi sifatida o'rganiladi. Patologik axloq kasallik holati ta'siri ostida shaxsning o'z harakatlarini anglash va nazorat qilish qobiliyati ahamiyatli tarzda pasayishini nazarda tutadi.

Ayni damda muayyan sharoitlarda og'ishgan xulq patologikka o'tishi mumkin. Masalan, muhtoj bo'lib qolgan axloq tizimli kasallikka o'sib o'tishi mumkin – pionyotalik, giyohvandlik. Shunday qilib, og'ishgan xulqli shaxs "sog'liq – kasallik oldi – kasallik" psixopatologik o'qida istalgan joyni egallashi mumkin.

7. Og'ishgan xulqning xususiyatlaridan biri u ijtimoiy moslashmaganlikning turlicha ko'rinishlari bilan birga boradi. Ushbu axloq kasallik yoki o'limga olib kelishi shart emas, biroq u tabiiy suratda ijtimoiy moslashmaganlik holatini uyg'otadi yoki kuchaytiradi. Moslashmaganlik (dezadaptatsiya) holati, o'z navbatida, shaxsning og'ishgan xulqini mustaqil sababi bo'lishi mumkin.

8. Og'ishgan xulqning oxirgi belgisi sifatida uning ifodalangan individual va yosh-jinsiy o'ziga xosligini ta'kidlash mumkin. Og'ishgan xulq dastavval, shaxsning jamiyatda tashqi mavjudligini aks ettiradi. U "ichki" jihatdan o'ta turli-tuman bo'lishi mumkin. Deviant axloqning bir xil turlari har xil odamlarda turli yoshda turlicha ko'zga tashlanadi.

Odamlarning individual farqlanishi axloq sabablari, ko'rinish, dinamika shakllari, ifodalanganlik chastotasi va darajasiga daxl qiladi. Masalan, deviatsiya shakli va uning ifodalanganlik darajasi shaxsning og'ishgan xulqini birmuncha yaqqol tavsiflash hisoblanadi. Ular to'la beozor ko'rinishdan shaxsning hayotiy faoliyatini total buzilishigacha o'zgartirishi mumkin.

Boshqa muhim individual xususiyat odamning og'ishgan xulqni qanday- o'zi uchun begona, istalmagan xulq sifatidami, vaqtinchalik qoniqtiruvchi yoki oddiy va maftunkor xulq sifatida qarashiga taalluqli. Shaxsning og'ishgan xulqqa munosabati (shaxsiy nuqtai nazari) ko'p holda uning taqdirini belgilaydi.

Deviant axloqning yosh va jinsiy farqlanishi garchi asosiy mavzularni ko'rib chiqishda inobatga olinsa-da, fanning predmeti hisoblanadi. Shuni ta'kidlash zarurki, "og'ishgan xulq" atamasini 5 yoshdan kichik bo'lmagan bolalarga nisbatan qo'llash mumkin, qat'iy ma'noda esa – 9 yoshdan keyin. 5 yoshdan oldin bolaning ongida ijtimoiy me'yorlar haqidagi zaruriy tasavvurlar bo'lmaydi, o'z-o'zini nazorat qilish esa kattalar yordamida amalga oshiriladi. Faqat 9-10 yoshidagina bolada ijtimoiy me'yorlarga mustaqil rioya qilish qobiliyatining mavjudligi haqida gapirish mumkin. Agar 5 yoshdan kichik bo'lgan bolalarda axloqi yosh me'yoridan ahamiyatli tarzda og'sa, bunda uni yetilmaganlikning, asabiy reaksiya yoki psixik rivojlanish buzilishining bir ko'rinishi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Barcha yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, og'ishgan (deviant) xulqqa quyidagicha ta'rif berish mumkin – *bu shaxsning birmuncha muhim ijtimoiy me'yorlardan og'uvchi, jamiyat yoki uning o'ziga real zarar yetkazuvchi, shuningdek, uning ijtimoiy moslashmaganligi bilan birga boruvchi turg'un axloqidir.*

Ushbu ta'rif deskriptiv (tasviriy) xarakterga ega va dastavval og'ishgan xulqi mavjud bo'lgan odamlar bilan amaliy ishlashga mo'ljallangan. Bu ta'rif aniq hollarda og'ishgan xulqni tashxis qilish,

professional ta'sirni loyihalash, shaxs axloqining dinamikasini va u bilan ishlash samaradorligini baholash kabi professional maqsadlarni amalga oshirishda yordam berishi mumkin. Bundan tashqari, u boshqa axloqiy fenomenlarda deviant axloqni differensiyalash imkonini beradi.

Deviant axloqni ko'rib chiqayotib, biz yaqqol salbiy assotsiatsiyani uyg'otuvchi so'zni qo'llashga majburiy: deviant, addikt, noijtimoiy va ijtimoiy xulqqa qarshi va h.k. Shu bilan birgalikda, aniq shaxs bilan ishlashda biz ongli ravishda kamsituvchi ohangli atamalardan foydalanishdan, shuningdek, tang'a osishdan tiyilmog'imiz kerak. Shuni esda tutish lozimki, birinchidan, axloqiy muammolar o'ta keng tarqalgan. Ikkinchidan, og'ishgan xulq chegaralarini aniqlash ko'pincha murakkab. Jamiyatdagi o'zgarishlar me'yorlarning, albatta, axloqiy deviansiya turlarining o'zgarishiga olib keladi. Biroq, me'yorlarning o'zi va ulardan og'ishish har qanday ijtimoiy tizimning ajralmas qismidir. Binobarin, ijtimoiy darajada og'ishgan xulq – bu faqat jamiyat va shaxs orasidagi o'zaro munosabatning mumkin bo'lgan shakllaridan biri. Og'ishgan xulqni ijtimoiy ko'rinish sifatida “tugatish” ehtimoli dargumon.

Individual darajada deviant axloq anchagina muammoli ko'rinadi, chunki shaxsning o'zi va atrofdagi odamlar hayoti uchun real zarar, deviant shaxsning ijtimoiy muhit bilan nizosi, uning ijtimoiy moslashmaganligi kabi salbiy fenomenlar bilan bog'liqdir.

Xususan, og'ishgan xulq shaxsiy darajada – bu shaxsning deviant usul va hayot tarzi shaklida yuzaga chiquvchi ijtimoiy nuqtai nazar. Ma'lumki, ko'pchilik odamlar istasalar jamiyatga nisbatan o'z nuqtai nazarlarini o'zgartirishlari mumkin¹.

Nazorat savollari:

1. “Axloq” atamasining mazmunini ochib bering va inson axloqining asosiy tavsifanomasini sanab o'ting.
2. “Og'ishgan xulq” tushunchasini ta'riflashning mezonlari qanday?
3. “Shaxsning moslashmaganligi” tushunchasining ahamiyatini ochib bering.

¹ N.G.Kamilova. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi T., TDPU, 2013

4. “Og‘ishgan xulq” va “patologik axloq” tushunchalarining o‘xshash va farqli tomonlari nimada?

5. Moslashmaganlikning ijtimoiy va individual ko‘rinishlari qaysilar?

6. Autodestruktiv axloqni izohlab bering?

7. Xarakter aksentuatsiyasi deganda nimani tushunasiz?

8. Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi va fanlar tizimida tutgan o‘rnini tushuntirib bering.

II BOB. IJTIMOY ME'YORLARNING SHAXS XULQ-ATVORIGA TA'SIRI

Tayanch tushunchalar: *Ijtimoiy norma jamiyatdagi tarixiy shakllangan xulq-atvor me'vori sifatida. Inson va jamiyat uchun ijtimoiy normalar ahamiyati. Ijtimoiy normalar funkstiyalari. Ijtimoiy normalar klassifikastiyasi. Normaning morfologik tuzilmasi: dispozistiya va imperativ. Ijtimoiy normalar aksiologiyasi. Norma inson xulqi va munosabatlarini boshqaruvchi sifatida. Shaxs va ijtimoiy normalar.*


2.1. Ijtimoiy me'yor haqida tushuncha

Bugungi kunda deviant xulq-atvor muammosi sotsiologiya, psixologiya, tibbiyot fani sohalarning tadqiqot obyektiga aylangan. Deviant xulq-atvor asosan ijtimoiy muhitda shakllanadi, ijtimoiy muhit normalari asosida tartibga solinadi. Muammoni o'rganishda alohida e'tibor qaratsak, asos me'yor (ijtimoiy me'yor) termini o'zagini tashkil etadi. Me'yor xulq-atvorni tartibga soladi va ijtimoiy nazoratni amalga oshiradi. Bunda faqatgina fikr emas, iroda ham ifodalanadi. Irodaning individual ifodalanishidan farq qilib, me'yor tipik ijtimoiy aloqalarni ifodalaydi. Me'yor g'oyalar, ideallar kabi baholab, yo'naltirib qolmaydi, balki, buyruq, farmoyish ham beradi. Uning xarakterli xususiyati qat'iylik va keskinlik hisoblanadi. Ijtimoiy me'yor boshqa qadriyatlar kabi shaxs va umumiylikni baholash funksiyasini bajaradi. Ijtimoiy me'yor jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan ijtimoiy muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir. Ijtimoiy me'yorning bir necha turlari mavjud bo'lib, huquqiy, axloqiy, diniy hamda urf-odatlariga oid me'yorlar shular jumlasidandir. Ijtimoiy me'yorning afzalligi shundaki, yoshligidanoq muayyan me'yorga moslashtirib borilgan shaxslar umumjamiyat tomonidan qabul qilingan tamoyillar doirasidan chetga chiqmaydi va boshqalardan ham shuni kutadi. Jamiyat taraqqiy etib borgan sari o'rnatilgan me'yorlar ham eskirib boradi va yangi me'yorlar o'rnatiladi. Yangi me'yorlarni o'rnatish jarayoni jamiyatda o'rnatilgan mavjud me'yorlar doirasini kengaytirish va o'zlashtirishdan iboratdir. Jamiyat a'zolarini mazkur ijtimoiy me'yorlarga amal qilib yashashlarini nazorat qilib boruvchi institutlar ijtimoiy nazorat institutlari deyiladi. Ushbu institutlarga oila, maktab,

mahalla, huquqni muhofaza qilish organlari va hokozolar kiradi. Insonlar bolalarga ijtimoiy me'yorlarni o'rgatib borish bilan birga, xulq-atvor me'yoriy talablarning to'g'ri bajarilishni nazorat etishadi va bu bilan ijtimoiy nazorat vakili vazifasini bajaradi. Nazoratni yakka shaxs amalga oshirsa, bu individual tavsifga ega bo'ladi, agar butun bir jamoa, oila, do'stlar, maktab, mahalla (qo'ni-qo'shnilar) tomonidan amalga oshirilsa, ijtimoiy tavsif ega bo'ladi, hamda u ijtimoiy nazorat deyiladi. Ijtimoiy nazorat vakillari insonlar xulq-atvorini boshqarishning eng muhim vositasi bo'lib, deviant xulq-atvorning oldini olishda ham ushbu jamoalarning o'rni katta bo'ladi. Inson tarbiyasidagi eng birinchi muhim nazorat instituti bu – oiladir. Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishda sog'lom oila muhitining o'rni kattadir. Afsuski, oramizda shunday insonlar ham borki, ular jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmasdan, balki unga to'siq bo'luvchi me'yordan og'ish holatlarini yuzaga keltiradi. Jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqish holatlari psixologiyada "deviantlik holati" undan tug'uluvchi xulq-atvorni "deviant xulq-atvor" deb nomlanadi. Deviant xulq-atvor – jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yolariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki hatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo'lib, yolg'onchilik, dangasalik, o'g'irlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishabozlik, o'z joniga qasd qilish va boshqa ko'plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi.

2.2. Ijtimoiy me'yorga ta'sir etuvchi omillar

Jamiyat hayotidagi sodir bo'layotgan turli o'zgarishlar, barcha (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, diniy) tizimlarga nafaqat ijobiy balki, sezilarli darajadagi ijtimoiy-salbiy ta'sir qilmoqda. Bugungi kunda dunyo miqyosida kuzatlayotgan iqtisodiy inqiroz, ijtimoiy anomiya, turmush darajasidagi tafovutlar bu deviant muammolardir. Salbiy omillar natijasida jamiyat a'zolari o'zlarini ojiz va xo'rlangan, ijtimoiy loqayd, jismoniy va ma'naviy zararlangan hisoblashadi. Deviant xulq-atvor tip bu ko'pincha yoshlar hisoblanadi. Yoshlar o'rtasida og'ish holatlariga esa ota-onalarning o'z bolalariga e'tiborsizligi, nazoratsiz va qarovsiz bolalarning ko'payishi sabab bo'ladi. Yuqoridagi salbiy omillar ta'sirida yoshlarimizda giyohvandlik, ichkilikbozlik, fohishabozlik, jinoyatchilik kabi illatlar tobora avj olib bormoqda. Yoshlarimiz orasida bunday holatlarning kuzatilishi jamiyati



taraqqiyoti, mamlakat mustaqilligi oilalar forovonligiga jiddiy xavf deyish mumkin. Deviant xulq-atvorning bir qancha salbiy jihatlari eslash lozim (tibbiyot nuqtai nazaridan simptomlarning “xastalanishi”, huquqiy jihatdan “huquqbuzarlik”). Mavjud ijtimoiy normalar jamiyat tarixi taraqqiyoti davomida o‘zining aniq, murakkab xususiyatiga ega bo‘lib, inson faoliyati davomida ijtimoiy guruh, ijtimoiy tashkilotlarda turli uzilishlar orqali shakllanib boradi. Tabiyki, ijtimoiy normalar biologik normalardan farqlanib, ijtimoiy guruh yoki tizimning individ xulqiga ijtimoiy ijobiy yoki salbiy tomonga o‘zgarishiga nisbatan reaksiyasi tushuniladi. Ijtimoiy norma jamiyat hayotini boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, shaxsning ijobiy hatti-harakati uchun rag‘batlantirish yoki yomon salbiy hatti-harakati uchun jazo belgilash bilan ijtimoiy nazorat vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ijtimoiy norma jamiyat boshqaruvining boshqa normalaridan farqlanib, aniq holatlar va yagona tizimga keltirishi bilan, aniq ijtimoiy qadriyatlarining boshqarish vositasi, aniq ijtimoiy normlarda aks etish shakliga ko‘ra tashqi (misol uchun, huquqiy norma huquqiy aktlarda, jamoatchilik fikri xulqida, an‘analarda, odatlarda, diniy – muqaddas manbalarda nasihatlarida, estetik ijodiy prinsiplarda, jamiyat me‘yorlarida davlat tashkilotlarida va muassasalarida - qonunlar, nizom) bilan farqlanadi. Ijtimoiy norma ko‘pincha ijtimoiy munosabatlarda aks etib (ishlab chiqarish, huquqiy, boshqaruv, ma‘naviy, ideologik), shaxs shakllanishiga hal qiluvchi ta’sir qiladi. Ijtimoiy normalarni o‘zlashtirish natijasida kundalik turmush talablari jamiyat orqali ochib beriladi (sinf, guruh, jamoa). Shaxs xulqi u yoki bu guruh, sinf, ijtimoiy institut bilan a‘loqalari natijasida shakllanadi. Har bir ijtimoiy norma imkoniyat beradi, ta’qiqalaydi, talab qiladi yoki xohish istaklarni ifodalaydi. Shaxs hayoti davomiligini ijtimoiy me‘yorlar asosida shakllantirib, ijtimoiy muhitga moslasha boradi.

Jamiyatda insonlar faoliyati hatti-harakatlari va xulq-atvorlarini ijtimoiy me‘yorlar boshqaradi. Ijtimoiy me‘yor jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo‘lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan ijtimoiy muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir. Ijtimoiy me‘yorning xulqiy, axloqiy, diniy hamda urf-odatlariga oid turlari mavjud. Ijtimoiy me‘yorning afzalligi shundaki, yoshligidanoq muayyan moslashtirib borilgan shaxslar ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan tamoyillar doirasidan chetga chiqmaydi va boshqalardan ham shuni kutadi. Jamiyat taraqqiyotiga xizmat

qilmasdan, balki unga to'liq bo'luvchi me'yordan og'ish holatlari ham mavjud bo'lib, psixologiyada bu narsa "deviantlik holatlari", undan tug'iluvchi xulq-atvorni "deviant xulq-atvor" deb nomlanadi. Deviant xulq-atvor jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlarga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki hatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo'lib, yolg'onchilik, dangasalik, o'g'rilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish va boshqa ko'plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi. Deviant xulq-atvor deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

A) Jinoyatchilik. Muayyan davlatda o'rnatilgan qonun va me'yorlarga nisbatan ayrim shaxslarning salbiy munosabati jinoyat, mazkur shaxs esa jinoyatchi hisoblanadi.

B) Ichkilikbozlik. 1) Alkogolni har zamonda iste'mol qilish. 2) Alkogolni ko'p istemol qilish. 3) Alkogolizm, spirtli ichimliklarga patologik o'rganib qolish bilan tavsiflanuvchi kasallik.

C) Giyohvandlik. Giyohvand yoki unga tenglashtirilgan vositalarga doimiy ruju qo'yish va tibbiy ko'rsatmalarsiz iste'mol qilish.

D) Fohishabozlik. U ikki turga bo'linadi. 1-komkubinat – nikohsiz birga yashash. 2-fohishabozlik – pul uchun o'z tanasini sotish. G'arb mamlakatlarida asosan ikkinchisi qoralansa-da, sharqda ikkala holatga ham me'yordan og'ish sifatida qoralanadi. Ulardan tashqari, xalqimizni mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, boqimandalik kabi salbiy holatlar ham me'yordan chekinishning diqqat talab qiladigan ko'rinishlaridan hisoblanadi. Deviant xulq-atvor bir shaxsning salbiy xulq-atvordan iborat faoliyatini, shuningdek, muayyan guruhni og'ma xulq-atvorlarini ham ifodalovchi tushunchadir.

Ma'lumki, ijtimoiy me'yorlik va ulardan chekinishlar haqidagi qarashlar insonning ijtimoiylashuv jarayoni bilan bir vaqtda paydo bo'lgan. Qadimgi xalqlarning diniy-mifologik tasavvurlari, xususan Misr, Hindiston va Xitoy diniy qonun-qoidalaridagi axloqiy me'yorlar bu sohada dastlabki qarashlar edi. O'rta asrlarda axloq me'yorlari diniy qarashlar ta'siri ostida rivojlandi va ulardan chekinish diniy nuqtai nazardan baholangan. Yevropada xristian dini barcha sohada hukmronlik qilgan bo'lsa, sharq dunyosida axloqiy-huquqiy me'yorlar va ular haqidagi ta'limotlar rivojlandi. XVIII asr mutafakkirlari ijtimoiy me'yoriy va undan chekinish muammosini yanada chuqurroq tahlil qildilar. Monteske, Russo, Bekkorio, Gelvesey, Didro, Golbax,

Morelli va Furelar o'z ilmiy izlanishlaridan ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarini topishga intildilar. XIX-asr oxirlarida tabiiy fanlarda erishilgan ilmiy yutuqlar ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xususan, sotsiologiyada ijtimoiy me'yordan og'ish holatlarini tushunturuvchi dastlabki ta'limot E.Dyurkgeymning "anomiya" g'oyasi edi. Dyurkgeym fanga o'zi kiritgan "anomiya" atamasi orqali qonunchilikni, qonunlarning tan olinmasligi va ularga amal qilinmaslikni tushunadi.

Deviant xulq-atvor muammolarini tahlil qilishda R.Merton ishlab chiqqan ta'limot sotsiologiyada yetakchi o'rin tutadi. Dyurkgeymning "anomiya" g'oyasini rivojlantirib, R.Merton deviant xulq-atvoriga quyidagicha ta'rif beradi: "Deviant xulq-atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvor motivlari hamda mavjud imkoniyatlarni bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir".

2.3. Ijtimoiy og'ishish va uning sababalari

Shaxslarda yuz beruvchi deviant holatlarning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan uchta omilni ko'rsatish mumkin. Bular shaxs xususiyatlari, muammoli holat va ijtimoiy nazorat institutlaridir :a) shaxs xususiyatlarining shakllanishida asosan uchta omil muhim ahamiyat kasb etadi, bular: irsiy omillar; psixofiziologik omillar; shaxsining bilim darajasi: b) muammoli vaziyat shunday holatki, u subyektdan yechimini talab qiladi, uning yechimi ijtimoiy me'yorlarda ko'rsatilgan bo'lsa-da, u yoki u sabablarga ko'ra, ushbu me'yorlarni qo'llash qiyinroq bo'ladi.

Eng katta muammoli vaziyat ziddiyatli holatlarda, ya'ni turli shaxslar yoki guruhlarning manfaatlari bir-birilariga to'qnash kelganda yuz beradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'z joniga qasd qilishlarning 40 foizi oilaviy mojarolardan paydo bo'ladigan ziddiyatlar oqibatida sodir etiladi. Jamiyatda shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi muammoning va uni hal qilish inkoniyatlarining murakkabligi darajasiga ko'ra muammoli holatning to'rtta asosiy holati ko'zga tashlanadi:

Hech qanday muammo yo'q holat, bunday holat hech qanaqa qaror qabul qilishni talab qilmaydi;

Muammo bor, qiyinroq yoki osonroq bo'lsada, unug yechimi ham ijtimoiy me'yorlarda ko'rsatilgan holat;

Mavjud muammoni sub'ekt ijtimoiy me'yorlar doirasida hal qila olmaydigan holat;

Muammoni hech qanaqasiga hal qila olmaydigan holat. Ushbu turlicha holat keng ko'lamda birinchisidan ikkinchisiga o'tib turadi.

Jamiyat a'zolari shaxsiy nuqtai nazarlarining shakllanishiga, ularning deviant xulq-atvorga nisbatan ijtimoiy faol munosabatlarini tarkib topishiga tarbiyaviy jarayonlar uchun bevosita mutasaddi shaxslar, tashkilotlar rahbarlarining o'rni va roli kattadir. "Ba'zilarga mumkin, boshqalarga mumkin emas», «Hozir yaxshi ertaga yomon" va shu kabi munosabat holatlarining ikkilamchi fe'l-atvor shaklida, ya'ni parallel standartlar yo'nalishida amal qilishiga izn berish juda xavflidir, shu boisdan har qanday holatlarda ham mansabdor shaxslar turli jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalarining rahbarlari, pedagog tarbiyachilar, qonunni himoya qiluvchi tashkilotlar vakillarining xulq-atvor me'yorlarini buzishi qat'iy qoralanadi.

Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'zini-o'zi o'ldirishlar bilan bog'liq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va ijtimoiy oqibatlariga ko'ra mohiyatan farqli jihatlarga egadir:

Birinchi farq, ijtimoiy zararli odatlarning uzoq davom etishi deviant xulqi turmush tarzining uzviy bo'lagiga aylanib ketishidan iborat bo'ladi. Doimiy oilaviy kelishmovchiliklar, oila va atrof-muhitdan norozilik, ishdagi tushunmovchiliklar va hokazolar, bularning u mavjud vaziyatni o'zgartirishga urindi. Bu o'rinda ijtimoiy institutlardagi kamchiliklar, shu jumladan, ziddiyatlar rivojlanishining oldini oluvchi va ularga qarshi kurashuvchi ijtimoiy nazorat tizimlari ham salbiy rol o'ynaydi;

Ikkinchi farq, yuqoridagi holatlarni hal qilishning ma'lum qiyinchiliklarga egaligidir.

Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni jamiyatning va atrof-dagi odamlarning qat'iy nazorati ostida amalga oshadi. Insonlar bolalarni faqat o'rgatibgina qolmasdan, xulq-atvor me'yoriy talablarining to'g'ri

bajarilishini nazorat etishadi va bu bilan ijtimoiy nazorat vakili vazifasini bajarishadi. Agar nazoratni yakka shaxs amalga oshirsa, bu individual tavsifga ega bo'ladi va agar butun bir jamoa, oila, do'stlar, maktab, mahalla tomonidan amalga oshirilsa, ijtimoiy tavsifga ega bo'ladi, bu holat ijtimoiy nazorat deyiladi. Ijtimoiy nazorat vakillari insonlar xulq-atvorini boshqarishning eng muhim vositasi bo'lib, deviant xulq-atvorining oldini olishda ham ushbu jamoalarning o'rnini katta bo'ladi. Inson tarbiyasida eng birinchi va eng muhim ijtimoiy nazorat instituti bu – oiladir. Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishda sog'lom oila muhitning o'rnini beqiyosdir.

Og'uvchi xulq (deviant, lot. deviatio - og'ish) deb, kishining qilmishlari, faoliyati turi odatiy, umume'tirof etilgan me'yorlardan farq qiladigan yoki u o'zi a'zosi bo'lgan jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlarga mos kelmay, barqaror ravishda ularning ijtimoiy me'yorlaridan og'ishida namoyon bo'ladigan axloqqa aytiladi.

Nazorat savollari:

1. Inson va jamiyat uchun ijtimoiy normalar ahamiyati qanday?
2. Ijtimoiy normalar funkstiyalarini sanang.
3. Ijtimoiy normalar klassifikatsiyasi.
4. Norma va shaxsdagi motivatsion tizimini tushuntiring.
5. Ijtimoiy normalarni klassifikatsiya qiling.
6. Normaning morfologik tuzilmasini tushuntiring.
7. Norma inson xulqi va munosabatlarini boshqaruvchi sifatida qanday namoyon bo'ladi.
8. Shaxs va ijtimoiy normalar.

III-BOB. SHAXS OG'ISHGAN XULQNING MEXANIZMLARI

Tayanch tushunchalar: "Normadan og'ish" va "deviant xulq-atvor tushunchalari ta'rifi. Deviant xulq-atvor ta'rifi va klassifikatsiyasi. Agressiv, addiktiv, o'zini o'zi mahkum qiluvchi, suidal, delinkvent, kriminal xulq-atvor, psixik buzilishlar va seksual deviastiyalar. Deviastiya turlari va ularning xarakteristikasi. Deviant xulq-atvorga ekzistensial-gumanistik yondashish. Ekzistensial vakum va noogen nevroz. Og'ma xulq-atvorning psixodinamik jihatlari.

3.1. Shaxs og'ishgan xulqining determinatsiyasida ijtimoiy va tabiiy birlik

3.1.1. Psixologiyada shaxs fenomeni

Inson tabiatining o'ziga xos tomonlaridan biri - uning jamiyat hayoti bilan bog'liq tomoni bo'lib, bu shaxs muammosini o'rganishni taqozo etuvchi jihati hisoblanadi. Inson mavjudligining turli jabhalardan o'rganish uzoq tarixiy davrli an'analarga ega. Bu esa insonning shaxslilik aspektidagi ko'p o'lchamlilik, ko'pqirralilik va xilma-xillik uning o'ziga xosligini belgilaydi. Ular quyidagi jihatlardan bilan xarakterlanadi:

-shaxs fenomenining tushunish asosida qarashlar, e'tiqod, fikrlash uslublari bilan bog'liqligi.

-shaxs tushunchasining fanlararo statusga egaligi.

-shaxsni tavsiflashning imkoniyatlari keng va boy ekanligi.

-individ, individuallik, faoliyat subyekti va shaxs tushunchalarining o'zaro o'xshashligi va o'zaro aloqadorligi.

-shaxs tushunchasi etimologiyasining xilma-xilligi.

Psixologiya fanida inson zotiga xoslik masalasi individ (lotincha individ - ajralmas, alohida zot degan ma'no anglatadi), shaxs, individuallik (yakkahollik) tushunchalari orqali aks ettiriladi. Katta yoshdagi ruhiy sog'lom (es-hushi joyida) odamlar ham, chaqaloq ham, nutqi yo'q, oddiy malakalarni o'zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham individlar deb ataladi. Biroq, bulardan birinchisiningina shaxs deb atash an'ana tusiga kirib qolgan, chunki o'sha zotgina ijtimoiy mavjudod, ijtimoiy munosabatlar mahsuli, ijtimoiy taraqqiyotning faol qatnashchisi bo'la oladi. Individ sifatida yorug' dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta'sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun

bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir. Ilk bolalik chog'idanoq individ muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimi doirasiga tortiladi, bunday shaxslararo munosabatlar tarzi tarixiy shakllangan bo'lib, u yoshligidanoq shu tayyor (ajdodlar yaratgan) ijtimoiy munosabat, muomala, muloqot tizimi bilan tanisha boradi. Ijtimoiy qurshov (oila a'zolari, mahalla ahli, jamoatchilik, ishlab chiqarish jamoasi), ijtimoiy guruh ichida (kishilarning og'ushida, ularning qalb to'rida) odamning bundan keyingi rivojlanishi uni shaxs sifatida shakllantiruvchi, uning ongi va irodasining xususiyatlariga mutlaqo bog'liq bo'lmagan har xil xususiyatli munosabatlar majmuasini vujudga keltiradi.

Bir xil turmush sharoitlari shaxs faolligining turli shakllarini yaratish, hamda har xil hayotiy vaziyatni vujudga keltirish imkoniyatiga ega. Hayotda biron bir tanbeh berishning o'zi kimgadir ruhiy hisni uyg'otsa, boshqa birining sirtiga ham yuqmasligi uchraydi. Shunday qilib, odamga ta'sir qiluvchi barcha tashqi qo'zg'atuvchilar ijtimoiy shart-sharoitlarga, faoliyatning ichki tarbiyaviy qismlari (tomonlari, jihatlari, jabhalari, tarkiblari) tuzilishi yig'indisi bilan boyitilishi evaziga shaxs degan tushuncha hosil bo'ladi.

Shaxsning eng muhim xususiyatli jihatlaridan biri - bu uning individualligidir, ya'ni yakkaholligidir. Individuallik deganda, insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig'indisi, iroda, faoliyat motivlari, inson maslagi, dunyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyatlari va shu kabilar kiradi. Psixik xususiyatlarning birikmasi aynan o'xshash tarzda aks ettiruvchi inson mavjud emas. Masalan, yaqin odamdan ayrilganligi qayg'u-alam, uning bilan birga esa hayotda tiklab bo'lmaydigan va boshqalarda takrorlanuvchi fazilatlar murakkab voqelikning mangulikka yo'nalishi bilan izohlash mumkin. Shaxs o'zining qadr-qimmatini va nuqsonlari bilan ijtimoiy turmushda faol ishtirok qilishi, ta'lim va tarbiya yordamida yuzaga kelgan o'zining kuchli va kuchsiz jihatlari bilan yaqqol, betakror oliy zotdir.

Shaxsning tarkib topishi bir qator omillarga bog'liq degan nazariyaning namoyandalari bo'lmish hozirgi zamon uzoq chet el (AQSH, Angliya, Fransiya, Germaniya, Shvetsariya va boshqalar) psixologlari oqibat natijasida shaxsning tuzilishini o'sha ikkita asosiy

omillarga, ya'ni biologik va ijtimoiy (sotsial) voqeliklarning ta'siriga bog'liq bo'lgan tuzilishining mavjudligidan manfaatdordirlar.

Har bir shaxsning hayotda erishgan yutuqlari, baxtini xarakterlovchi ma'lum mezonlar borki, uni o'rganishda alohida fan yo'nalishiga zarurat tug'iladi. Bu esa insonning ijtimoiy faolligini ta'minlovchi shaxs tushunchasi bilan xarakterlanadi. Shaxs faol faoliyat subyekti bo'lib, u hayotining barcha bosqichlarida shakllanib, rivojlanib boradi.

Shaxsning qanday tarkib topishi uning yaxshi oila a'zosi yoki otana bo'lishi, uning salomatligi ham hayotda egallaydigan karerasiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Shaxs hayotda o'zining imkoniyati va tanlovlarini cheklashi yoki kengaytirishi mumkin. U shaxsning boshqa insonlar bilan ma'lum tajribalar almashuviga xalaqit berishi yoki boshqalar uchun ko'proq xizmat qilishiga olib keladi.

Hayotda shunday toifa insonlar uchraydiki, ular boshqalarni o'ziga jalb eta oladigan yoqimli va xushmuomala bo'ladilar. Bunday insonlar bilan do'stlashishi, ular bilan do'st, qo'shni yoki hamkasb bo'lish xohishi paydo bo'ladi.

Agar siz boshqaruvchi bo'lsangiz, u holda uni xodim sifatda tanlagan bo'lardingiz. Agar siz biror bir hayotiy qarorni qabul qilishga harakat qilsangiz munosabat o'rnatayotgan kishingizni idrok etishingizga ko'ra muomala o'rnatasiz. Siz biladigan shunday mashhur insonlar borki, ular bilan munosabat o'rnatish ba'zan og'ir kechadi. Bunday qiyofali insonlar dushmanona, tajovuzkor, nodo'stona, yoqimsiz yoki qiyin munosabat o'rnatuvchilardir. Siz ular bilan muomala qilishda, xodim sifatida tanlashda o'zingizni chetga olasiz.

Bunday sharoitda siz shaxs haqida qanday xulosaga kelganingiz singari, boshqalar ham sizga xuddi shunday xulosalarga kelishlari shubhasiz. Bunday o'zaro o'rinalmashuvchi mulohazalarga doimiy ravishda yangi insonlar bilan tanishish zarurat tug'ilgan sotsial vaziyatlarda duch kelinadi. Bu esa shaxsning o'ziga bo'lgan xos xislatlarini aniqlashga olib keladi, masalan, tanishingiz kirishimli yoki tortinchoq. Bu faktorlarni tahlil eta olish shaxs haqidagi umumiy tasavvurlarga ega bo'lishga yetarlicha imkon beradi.

Shaxsni izohlash. Shaxs psixologiyasining predmeti uni izohlashga nisbatan anchagina murakkab xarakterga ega, chunki insonlar xilma xil bo'lganligi bois har xil vaziyatlarga qarab, o'zgarib

turadilar. Shu sababli shaxsni tushunarli tilda izohlash uchun mos aniqlik va izohga ega bo'lish lozim. O'z navbatida shaxsni mos tarzda izohlashga mos keladigan tilga ham ega bo'lish kerak. Oqibatda shaxsni o'rganishning o'ziga xos prinsiplari va baholash vositalari-testlarni shakllantirishga olib keldi.

Psixologiyada shaxsni tushunishda uning xarakterlovchi bir qator tushunchalarni qo'llashga olib keldi:

№	Sifatlar
1.	Yoqimli-jizzaki
2.	Tirishqoq- maqtanchoq
3.	Quvnoq -surbet
4.	Talabchant-hukmron
5.	Xavotirlanuvchan -irodali
6.	Qo'zg'aluvchan-betoqat
7.	Ziyrak- beozor
8.	Injiq- nekbin
9.	O'ziga ishongan - bardoshli
10.	Jiddiy- bo'shang
11.	Zaharxanda- sezgir
12.	Muloqotmand-hokisor
13.	Sabr-bardoshli-ishonuvchan
14.	Erkin -qasoskor

1-jadval. Shaxsni baholash sifatlarining namunasi

Yuqorida keltirilgan xususiyatlarni mavjudlik holati va sizga yoqimliliği, siz erishishingiz zarur bo'lganlarini ro'yxatini tuzish talab etiladi. Ushbu sifatarni o'qituvchi yoki ota-ona misolida va real baholashingiz mumkin bo'ladi. Ushbu toifa sifatlarining kengaytirilgan varianti 300 ta sifatdan iborat (Gough & Heilbrun, 1983). Bu esa shaxsni yanada kengroq baholash imkoni beradi.

Shaxs psixologiyasida o'rganiladigan asosiy muammolardan biri shaxs rivojlanishining psixologik tahlilidir. Shaxs psixologiyada tahlil qilishda uning hayotining barcha bosqichlari, ongsizlik ta'sir ko'rsatadimi yoki bolalikdan keyingi davrlarda shaxs sifatida o'zgarish yuz beradimi? Ushbu tarzdagi savollarga javob izlash zarur bo'ladi.

Mazkur masalalarni shaxs psixologiyasining metodologik masalalaridan hal etish uchun qator shaxs nazariyalarni ko'rib chiqish zarur bo'ladi.

Shaxsni o'rganishga doir yondashuvlarning har bir muammoning o'ziga xos boshqotirma sifatida uning hal etishga e'tibor qaratganliklarini guvohi bo'lamiz.

Hattoki, ayrim yondashuvlarni o'rganish esa o'nlab yillarni taqozo etadi. Shaxs psixologiyasi esa mazkur masalalarga javob topishga intiladi.

Ongni o'rganish. Shaxs muammosini o'rganishga yondashuvning bir jihati uning *ongini o'rganishga* yo'nalganligidir. Psixologiya shaxsning ushbu jihatini o'rganishda tabiiy fanlarning metodlarini modifikatsiya qilish asosida erishdi. *V.Vundt* va boshqa psixologlar inson tabiatini o'rganishda tabiiy-ilmiy fanlar ta'sirida uni insonning aqlini o'rganishda foydalandilar. Ushbu tadqiqotlarda psixik jarayonlar eksperimental o'rganilgan bo'lsa-da, ammo ularda cheklanishlar bor edi.

Xulq-atvorni o'rganish. XX asming dastlabki o'n yilligida amerikalik olim Djon B.Uotson biologik masalalarni o'rganishga e'tibor qaratdi va bu esa shaxs xulq-atvorini o'rganishga qaratilgan bo'lib, Vilgelm Vundtning qarashlariga zid edi. Uotsonning bu harakatlari bixeviorizm deb nomlandi. U psixologiya inson tabiatining moddiy jabhalarini o'rganishga qaratilgan bo'lishi kerak degan g'oyani ilgari surdi. Uning g'oyasida tashqi xulq-atvor psixologiyaning o'rganish asosi bo'la oladi. Bu esa xulq-atvorni o'rganishga ehtiyoj tug'diradi. Bixeviorizm esa inson tabiatini mexanik tasvirini o'zida ifoda etdi. Keyinchalik bu g'oyani Skinner boyitdi.

Shaxs psixologiyasining metodologik masalalarini boshlang'ich bo'g'inidan biri sifatida Z.Freyd faoliyatini qayd etish mumkin. Venalik vrach Zugmunt Freyd psixoanalizga asos soldi. Bu esa uning vrachlik faoliyatida emotsional buzilishlardan aziyat chekkan insonlarni o'rgauish orqali o'zining ilmiy yondashuviga asos soldi. U o'zining uzoq vaqtli seanslari asosida uning hayotiy to'g'risidagi ijodiy talqinlari taqdim etdi. Uning yondashuvi eksperimental o'rganishdan keskin tafovut qildi. Freydning psixoanalitik yondashuvi inson tabiati haqidagi noyob qarashlarni ishlab chiqishga sabab bo'ldi.

G.Ollportning xizmatlari hisobida o'tgan asrning 30-yillariga qadar Garvard universitetida shaxs psixologiyasi amerika

psixologiyasida bir tizimga keltirishga erishildi. Buning uchun tadqiqot ishlari, o'quv kurslari va ilmiy jurnallar nashr etishga erishildi.

Shaxsni baholash metodlari. Shaxsni nazariy o'rganish oqibatda uni baholash metodlari shakllantrildi. Ushbu metodlar o'zining obyektivligi, ishonchliligi va aniqligi bilan farq qiladi. Metodlar o'z navbatida shaxsni o'rganish nazariyalariga muvofiqdir.

Bugungi kunda shaxsni baholashda asosiy yondashuvlar quyidagi tadqiqot metodlariga tayanadi:

O'zi haqida hisob berish yoki obyektiv materiallar orqali baholash;

– proyektiv metodlar;

– klinik intervyu;

– xulq-atvorni baholash vositalari;

Shaxsni o'rganish yoki qiyoslash:

– Shaxsning tipi va qirrasini bir insonning boshqasidan farq qilish imkoniyatini beradi.

– **Nomotetik yondashuv** - guruhdagi insonlarni bir-birini biror bir xususiyati yoki shaxslilik qirrasiga ko'ra qiyosiy o'rganish.

– **Ideografik yondashuv** - bir insonni boshqa kishilar bilan qiyoslamasdan o'rganish.

Shaxs nazariyalarini ijobiy baholash mezonlari:

–verifikatsiya - nazariyaning empirik jihatdan tekshirilganligi va uning tasdiqlanganligi.

–Keng qamrovli ekanligi - yaxshi nazariya boshqalari bilan bir xil sharoitda xulq-atvor fenomenlarini keng spektrda tushuntirishi.

–tadbiqiy qimmatga egalik - nazariya, inson hayotiy imkoniyatlarini oshirish uchun amaliy istiqbollarni tavsiya etish.

–nazariya bilan tadqiqot o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.

Shaxsning uzoq hayot yo'lida turli xil toifa insonlar hayot yo'lini tanlashda bir biridan farq qiluvchi faoliyat yo'nalishiga ega bo'ladi. Bu esa insonning o'ziga bo'lgan ishonchi, doimiy ravishda quvnoq bo'lishi boshlagan ishining qanday tarzda yakunlashiga sabab bo'ladi. Shaxsning maqsadiga erishishida uning optimistligi, emotsional barqarorligi uning ishonch va e'tiqodidan og'ishidan saqlaydi. Yana murakkab yo'lga duch kelganda unda Tolkina Sem Gemji o'zining tafovutli va ishonchli xulq-atvor modelini namoyish etadi. Bu shaxs modeli shaxsning tafakkur, tuyg'ulari va harakatlar modelini

tavsiflovchi hisoblanadi (buni Den Mak Adams va Djennifer Pals (2006) taqdim etgan), unda sotsial vaziyatlar va o'zining qirralarida ifoda etuvchi shaxs tabiatining noyob ko'rinishi sanaladi.

Shu bois navbatdagi masalalar insoniyat tarixining madaniy merosi sifatida xizmat qiladigan shaxs nazariyalariga qaratiladi. Tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan istiqbollar shaxs psixologiyasining muammolari yo'nalishini aniqlashga yordam beradi va bugungi kun tadqiqotlarda hal etilishi kerak bo'lgan masalalarning yechimini topishga xizmat qiladi.

Xorijiy psixologiyadagi shaxs muammosiga doir ilmiy manbalarni tahliliy jihatlarida quyidagi ilmiy g'oyalar mazmuniga e'tibor qaratiladi:

- Z.Freydning psixoanalitik nazariyasi bo'lib, uning metodologik asosida bolalik va ongsiz shahvoniylik motivlari shaxsga ta'sir ko'rsatishi tahlili taqdim etilgan.

- Gumanistik psixologiya yondashuvida esa shaxsning o'sishi va o'zining "Men"ini shakllantirishida ichki imkoniyatlarning o'rni yuqori ekanligi ilgari suriladi.

Bunday klassik yondashuvlar inson tabiatini yoritishning keng istiqbolini taqdim etadiki, ular yaqqol shaxslilik aspektdan ilmiy izlanishlar olib borishga xizmat qilmoqda. Shaxs muammosini o'rganayotgan doir zamonaviy tadqiqotlar muammoni shaxslilik, biologik jihatdan o'rganayapdilar. Ularning asosiy mezonlari inson bilan atrof muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuviga ham tayanadi. Shuningdek, ular qadr-qimmat, og'ishlar, madaniy muhit ta'siri va boshqa jihatlar, xususan, ongsizlikni ham o'rganmoqdalar².

3.1.2. Klassik psixoanaliz va uning modifikatsiyalari

Z.Freydning psixoanalitik nazariyasi³. Z.Freyd g'arb madaniyatiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Freydning klinik psixologiya va psixiatriyadagi ilmiy qarashlarini alohida o'ringa ega. Z.Freyd nimani o'rgandi? U she'riyat, piesa va falsafaga juda qiziqishi bo'lganligi sababli, o'z tadqiqotlari uchun vaqtni bekorga sarflamadi. U tibbiyot yo'nalishida tahsil olgandan so'ng xususiy amaliyot bilan shug'ullandi. U amaliyotda nevrologik sababga ega bo'lmagan ruhiy

² Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 553.

³ Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 554.

o'zgarishga ega bo'lgan mijozlarga duch keldi. Masalan, baqquvvat bo'lsa-da, mijoz qo'ldagi sezgilarni yo'qolishining sababini Z.Freyd insonning aqliga bog'liqligini aniqladi. Bunday holatda mijozni davolash yo'li uning o'z-o'ziga munosabatini o'zgartirishda degan xulosaga keldi.

Freydning kuzatishlari qator nevrologik buzilishlarning psixologik sabablari mavjudligi to'g'risidagi xulosaga olib keldi. Bu orqali Freyd ongsizlikni kashif qildi. Uning fikricha ko'zi ojizlik yoki karlik, beixtiyor ko'rmaslik va eshitmaslik xohishi insonga keskin xavotlikni uyg'otar ekan. Freyd gipnoz ongsizlikka yo'l deydi va patsientlarni davolashda undan foydalandi. Gipnoz patsientlari gipnoz tufayli o'zlarining anglab bo'lmas qobiliyatlarini ochdilar. So'ngra u patsientlar o'zlarini ruhiy yengillashishlariga imkon beruvchi erkin assotsiatsiya usulini olib kirdi. Ushbu usulga ko'ra patsient o'zining dardlarini bayon etadi. Bu esa patsientlarga ruhiy yengillik olib keldi. Freyd ruhiy buzilishlarning zamini, bugungi bezovtalanishlarning sababi patsientlarning o'tmishi bilan bog'liq. bolalikdagi tuyg'ulariga borib bog'lanishini ta'kidladi. Kasalliklarning ongsizlik sabablariga tayangan shaxs nazariyasini psixoanaliz davolash metodi bilan bog'ladi.

Freyd topografik modeldan foydalanib, psixik hayotni uch darajasini ajratdi:

- Ong;
- Ongoldi;
- Ongsizlik;

Ong darajasi – aniq damdagi insonning ma'lumotlarini sezgi va kechinmalaridan tashkil topadi. Ong miyada saqlanuvchi ma'lum kam foizli axborotlarni qamrab oladi. So'ngra ma'lumotlar ong oldi yoki ongsizlik sohada yuklanadi.

Ongsizlik soha – inson psixikasining eng chuqur va ahamiyatli qatlami ongsizlikdir. Bu onga qanchalik bosim o'tkazuvchi emotsiya va xotiralar orqali instinktiv qo'zg'alishlarini saqlovchi, ammo ushbu anglashilmagan materiallar ko'pincha insonning kundalik faoliyatini belgilaydi.

• **Ongoldi soha**, ba'zan xotiraga kirish mumkin bo'lgan, o'zida barcha tajribani kiritadi, ayni damda anglanilmagan, ammo tasodifiy yoki minimal kuch sarflash natijasida onga tez qaytishi mumkinligi.

• U- psixikaning ongsizlik qismi bo'lib, biologik instiktli mayllardan iborat: agressiya va jinsiy mayllar. U jinsiy mayl - libido bilan to'yingan. Insonda yashirin energetik tizim bo'lib, bu quvvat har bir kishida miqdori - doimiy o'lchamga ega. Ongsiz va irratsional bo'ladi. U qoniqish, ya'ni so'ngida baxt, eng asosi inson hayotidagi asosiy maqsad tamoyiliga bo'ysunadi.

• **MEN** - ikkinchi tamoyil – gomeostaz - ichki muvozanatni saqlash tendensiyasi. Men (Ego)-ong – doimiy ravishda U bilan nizoda bo'ladi, jinsiy mayllar ta'sirida bo'ladi. U jamiyat ta'siri ostida shakllanadi. Menga uch ta kuch ta'sir ko'rsatadi: U, Kayvoniy (yuqori) Men va insonga o'z talabalarini qo'yuvchi jamiyat. MEN ular o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga harakat qiladi, qoniqish emas, balki reallik tamoyiliga bo'ysunadi.

• **KAYVONIY MEN** (*Super Ego*) - axloqiy standartlarni tashuvchi. shaxsning bu qismi tanqid, senzora, vijdon roli bajaradi. Agar Men U ga mos harakatni amalga oshirsa yoki unga mos qaror qabul qilsa, Kayvoniy Men unga qarshi chiqadi. Natijada aybdorlik, uyat, vidjon ta'nalari ko'rinishidagi jazoni boshdan kechiradi.

Psixoanaliz atamasi

- Shaxs nazariyasi va psixopatologiyasi;
- Shaxsdagi buzilishlarning davolash metodi;
- Insonning anglashilmagan fikr va tuy-g'ularini o'rganish metodi bilan tushuntiriladi.

Shaxs strukturasi⁴

Psixologiyada shaxsning himoya mexanizmlar to'g'risidagi qarashlarning tub ildizi Z.Freydning shaxs nazariyasi borasidagi izlanishlariga borib taqaladi. Freydning psixodinamik konsepsiyasiga ko'ra shaxs tuzilmasi va himoya mexanizmlari ma'lum tizimlashtirilgan. Z.Freyd bo'yicha shaxs tuzilmasi uchta tarkibiy komponentlardan iborat:

“**Id**” sohasi - bu shaxsning instinktli jihati bo'lib, unda shaxsning eng kuchli instiktlari o'rin olgan. Ular shaxs xulq-atvorini to'g'ri va chet yo'llar bilan aniqlash va namoyon bo'lishini ifodalaydi. “**Id**” sohasi vazifalarini *qoniqish tamoyiliga* asosan bajaradi.

⁴ C. George Boeree: Personality Theories. Original E-Text
Site:<http://www.ship.edu/%7Ecgboeree/perscontents.html> P 5.

Z.Freyd psixoanalitik nazariyasida qayd etishicha, psixik jarayonlar qoniqish tamoyiliga ko'ra avtomatik tarzda boshqarilar ekan. Hech qondirilmaganlik ichki ruhiy zo'riqishni keltirib chiqaradi. O'z navbatida u psixik faollikni vujudga kelishiga olib keladi. Bu faollik zo'riqishni va qoniqmaganlikni susayishiga yoki qoniqishga olib keladi.

Hayot va o'lim instiktlari⁵

Freydning psixodinamik nazariyasida ikkita asosiy instiktlarga ajratiladi: hayot instinkti (libido, eros) sifatida jinsiy instinkt; vayrongarchilik, buzg'unchilik sifatida e'tirof etiluvchi o'lim instiktlari (mortido, tanatos). Inson xulq-atvorining bu shakli shaxsning destruktiv instinkti sifatida namoyon bo'lib, agressiyani ham instinkt natijasi deb baholaydi. Ularning hayotiy zarurat sifatida namoyon bo'lishini to'sib qo'yish shaxsda jiddiy salbiy oqibatlariga olib kelishi kuzatiladi. Bu esa nevrozning asosi hisoblanadi. Asarlarining birida Freyd motido instinkti haqida to'xtalgan bo'lib, unda shaxs o'zini o'zi saqlash uchun (yo'q qilmaslik) o'zga kishini yoki o'zgalarni yo'qotishga intiladi. Freyd uchun eng hal etuvchi jihat, bu inson xulq-atvorida jamiyat rivojlanishidagi qonunlarini emas, irratsional psixik kuchlarning namoyon bo'lishini hisobga olgan, unda intellekt voqelikni faol aks ettiruvchisi vosita emas, balki bu kuchlarni maskirovka qiluvchisi hisoblanadi. Individ bilan ijtimoiy muhit abadiy va yashirin kurashda bo'ladi. Uning psixoanalitik qarashlarida kuchaytiruvchi holatda instiktdan intellektning kuchlirog'i deb baholanadi.

“Ego” sohasi – bu shaxsning ougli tomonini ifodalovchi ratsional qismidir. “Ego” doimiy ravishda “Id” sohasi bilan o'zaro ta'sirlashuvda bo'ladi, ikki asosiy instiktlar:

Men tomonidan tanlanadigan mexanizm hali aniq ta'biri mavjud emas;

Siqib chiqarish jinsiy xohishlar bilan kurashishda foydalaniladi.

“Men” va “Ono”ning titib ko'rish va “Ustun menning” shakllanishiga qadar bir necha himoya mexanizmidan foydalaniladi.

⁵ C. George Boeree: Personality Theories. Original E-Text Site:<http://www.ship.edu/%7Ecgboree/perscontents.html> P 6.

Barcha himoya mexanizmlarining maqsadi “Men”ga yordam berishdan iborat. Shu sababli ham u uchta asosiy bezovtalanishga yo‘naltirilgan, ya’ni Menni zararlashi mumkin bo‘lgan nevroitik , axloqiy, va real.

Biroq Men ichdan chiqadigan norozilikdan himoyalaniq qolmasdan, ilk davrlarda Men xavfli instinktiv stimullar bilan tanishadi, shuningdek u norozilikni kechiradi .

Agar tashqi qoniqish yoki manfaatning asosiy manbai tashqi obyekt bo‘lgan holda unda shunchalik yuqori norozilikni kechirishga sabab bo‘lib qoladi.

Yosh bolaning Meni ko‘proq qoniqish prinsipi bilan yashaydi. U tashqaridan bo‘ladigan norozilikni hali ko‘p kechirmaydi.

Shaxsning rivojlanishi⁶ Z.Freyd mijozlarining hayotini kuzatish asosida shaxs shakllanishini dastlab besh yilda amalga oshirishni xulosaladi. Bolalar shaxs sifatida shakllanishida qator psixoseksual davrlarni boshdan kechirishini va bu bosqichlar alohida quvvat manbai erogen zonalarining o‘rniga bog‘liq deb ko‘rsatdi. Freyd ishonch bilan o‘g‘il bolalarning fallik bosqichdagi genetil ta’sir tufayli onasiga nisbatan otasini rashk qilishini qayd etdi. Buning sababini grek afsonasi “Shox Edip” afsonasiga tayanib, “Edip kompleksi” orqali tushuntirdi. Edip o‘zi bilmagan holda otasini o‘ldirib, Onasiga uylanadi.

Freyd psixoseksual rivojlanish bosqichlarini 5 davrini keltirib o‘tadi. U quyidagi 2-jadvalda o‘z aksini topgan:

2-jadval

Psixoseksual bosqichlar

№	Bosqichlar	Yosh davrlari	Libido yo‘naltiriladigan zona
1	Oral	0-1,5	Og‘iz
2	Anal	1,5-3	Anus
3	Fallik	3-6	Jinsiy a‘zolar
4	Latent	6-12	Mavjud emas
5	Genital	12-18	Jinsiy a‘zolar

⁶ Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 556.

*Himoya mexanizmlari*⁷

Z.Freyd o'z nazariyasida shaxsning himoya mexanizmlarini ajratishga ham erishdi.

Ko'pincha nizoli zonalar psixika strukturasi U, salbiy emotsiya va kechinmalarda kuzatiluvchi (ta'sirlanish, bezovtalanish va umidsizlik) frustratsiyaga olib keldi. Frustratsiya "MEN"ni har xil "chiqarish klapan"lari yordamida zo'riqishlarni olib tashlashga undaydi. Bular psixologik himoya mexanizmlari deyiladi.

– repressiya: tashvish sabab narsa mavjudligiga behush inkorni o'z ichiga oladi;

– rad etish, ya'ni noma'qul ma'lumotni ochiq rad etish, qo'shilmaslik;

– reaksiya: biri qarama-qarshi bo'lgan id turki ifodani o'z ichiga oladi;

– proeksiya – o'zidagi hissiyot va kechinmalarni tashqi obyektlarga ko'chirish orqali paydo bo'lgan holatning sabablarini tashqaridan qidirishga moyillik;

– identifikatsiya – o'zini axborot egasiga o'xshatish, uning o'rniga o'zini qo'yish orqali qadriyatlarni rad etish yoki tanqidsiz o'zlashtirish;

– regressiya – ilgari hayotida, masalan, yoshligida bo'lib o'tgan qaysidir voqelarga qaytish, ularning yaxshi va ma'qullarini yana xotirada tiklash va xulqda qaytarish orqali o'zida psixologik himoya yoki oqlovni tashkil etish;

– yolg'izlanish – jamiyatdan o'zini olib qochish, o'zidagi o'zgarishlarni boshqalarga bildirmaslikka intilish, bunda shaxsning faoliyati passiv tus oladi;

– ratsionalizatsiya – mulohaza va fikr yuritish orqali o'zida himoya instinktlarini paydo etish;

– sublimatsiya – o'zgartirish yoki tabiatan energiya qiziq tomonidan id impulslarini o'z ichiga oladi va uni ijtimoiy maqbul xulqda ifodalashga yo'naltiriladi.

Z.Freydning izlanishlari undan keyin bir qator yangi yo'nalishlarni vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

⁷ Duane P.Schults. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright © 2005.-P59..

3.1.3. K.Yung va uning Analitik psixologiyasi

Freydning izdoshlari sifatida faoliyat olib borgan olimlardan biri K.Yung. Yungning shaxs muammosiga doir yondashuvi “Analitik psixologiya” deb nomlanib, u o‘ziga xos yondashuvni ifoda etadi.

Shaxs tipologiyasiga doir yondashuvi:

Ekstraversiya – «ichkaridan tashqariga yo‘naltirilgan» degan ma‘noni anglatib, bu tipga moyil shaxslar ko‘proq odamlar ichida bo‘lishni yoqtirishadi, o‘z kechinmalarini ko‘proq atrofdagilar bilan baham ko‘radi. Muloqotga kirishuvchan, tanishlari doirasi keng. Ba‘zi hollarda jiddiylik yetishmaydi. Odamlarni tez ishonchini qozona oladi va shuningdek, tez xafa qilishga ham moyil shaxslar.

Introversiya – «tashqaridan ichkariga yo‘naltirilgan» degan ma‘noni anglatib, bu tipga xos shaxslar og‘ir, vazmin, ko‘ngli nozik, beparvo, do‘stlik qoidalari qat‘iy amal qiladigan bo‘lishadi. Muloqot doirasi cheklangan, tortinchoq, ko‘proq o‘zlarining ichki dunyolari bilan band va yolg‘izlikni yoqtiradigan shaxslardir.

To‘rta asosiy psixik funksiyaga e‘tibor qaratdi:

– Tafakkur-ratsional;

– Hissiyot-ratsional;

– Sezgi-irratsional;

– Intuitsiya-irratsional;

– Fikrlovchi tip – biror narsaning qadr-qimmatini aniq faktlar va mantiqiy mulohazaga tayanib baholaydi;

– Hissiyotli tip – yaxshi-yomon, go‘zal-xunuk tamoyiliga asoslanib emotsional baholaydi;

– Intuitiv tip – hayotiy voqealarning mazmunini ongsizlikda, tuyg‘usi va taxminlariga ko‘ra baholaydi.

– Sezgiga asoslanuvchi tip – sezgi a‘zolariga tushuvchi, tashqi olam haqidagi axborotlarga tayanadi;

Psixikaning tuzilishi:

• Ong.

• Shaxsiy ongsizlik – o‘zida qachonlardir anglangan, hozir siqib chiqarilgan va unutilgan nizo va taassurotlar, yetarlicha ifodalanmagan hissiy taassurotlarni qamrab oladi. Shaxsiy ongsizlik – o‘zida emotsional zaryadlangan, bir fikr, tuyg‘u va taassurotlarning ustuvor bo‘lib qolishidan iborat komplekslarni tashkil etadi.

• Kollektiv ongsizlik – insoniyat va avlodlarning xotira izlarining yashirin saqlanishidir . Unda bizning o‘tmish emotsiyalarimiz va insoniyatga xos fikrlar va tuyg‘ular aks etgan.

Arxetiplar

• Arxetiplar – birlamchi model yoki kollektiv ongsizlikning tarkibiy elementi hisoblanadi. Ular o‘zida insonlar idrok etganlarini, kechinmlari va voqealar ta’siriga javob berishini ma’lum obrazlarda ilgari surishlari tug‘malik shaklini namoyon etadi.

• Eng asosiy arxetiplardan biri Men arxetipi, ota, ona, Xudo, donishmand va boshqa arxetiplaridir. Arxetiplar o‘zida simvollar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Masalan, Mariya, Mona Liza va boshqalar. Xoch, oltitomonli yulduz, budda g‘ildiragi.

Shaxs strukturasi

• Shaxs strukturasi quyidagi tuzilmalardan iborat: ego, person, anima (animus), soya va o‘zlik.

• Ego – ongning markazi bo‘lib, o‘z-o‘zining anglashning asosi hisoblanadi.

• Person – bu jamoa kishisi bo‘lib, inson o‘zini boshqalar bilan o‘zaro munosabatda namoyon qiladi.

• Salbiy va ijobiy personlar mavjud. Birinchi navbatda u individuallikni ifodalab, kommunikatsiyaga muvofiqlashtiradi. Ikkinchidan – person individuallikni bo‘g‘ib qo‘yishi mumkin. Shu bois person – ongning yuqori qatlami, ego ancha chuqurlashuv, botiq qismi hisoblanadi.

• Soya – o‘zida shaxsning siqib chiqarilgan tomonini ifoda etadi. Soya egoning aks ettirilishida namoyon bo‘ladi. Soya shaxsning sotsial standartlar mavjudligi bilan murosaga qila olmasligini ifodalovchi xohishlarini qamrab olgan. Soya - hayot quvvati, ijod manbaini saqlovchi sanaladi. Shu sababli ego soya quvvatini zarur oqimga yo‘naltiradi.

Anima va animus

• Anima – erkakdagi ayolning ichki timsoli, ya’ni ongsiz namoyon bo‘luvchi ayollik tomoni;

• Animus – ayollardagi erkakning ichki timsoli, uning ongsiz namoyon bo‘luvchi ayollik timsoli. Yung anima va animus inson xulq-atvorida uyg‘unlashagan tarzda namoyon bo‘lishi kerak, bu uning har tomonlama muvofiqlashuvini ta’minlaydi.

O'zlik

O'zlik – shaxsning yaxlitlik arxetipi.

O'zlik onglilik va ongsizlikni birlashtirib, boshqa barcha elementlar uyushuvini tashkil etuvchi aynlana markazi hisoblanadi. Ruhning barcha jabhalarini integratsiyasiga erishganda, inson uyg'unlikni sezadi. Shu sababli, o'zlikni rivojlanishi inson hayotining bosh maqsadidir.

3.1.4. A.Adlerning "Individual psixologiyasi"

Alfred Adler (1870-1937) individual psixologiyaning asoschisi hisoblanadi. Uning asosiy asarlari: «Nerv xarakteri haqida» (1912), «Individual psixologiyaning nazariyasi va amaliyoti» (1920), «Insonshunoslik» (1927), «Hayotning mazmuni» (1933).

Inson tabiati. Inson - yagona va o'zini o'zi muvofiqlashtiruvchi organizm; individuum (lot.) – bo'linmas. Inson hayotiy faolligining hech bir namoyon bo'lishini izolyatsiyada ko'rib bo'lmaydi, lekin faqat shaxsga munosabatda to'liq ko'rib chiqish mumkin.

Inson hayoti – shaxs uchun ahamiyatli maqsadlar yo'nalishidagi o'sish va rivojlanishga uzluksiz harakat hayot maqsadlari insonning taqdirini belgilaydi.

Inson xulq-atvori – irsiyat va muhit ta'siri natijasigina emas, balki insonning o'z hayotining arxitektori sanalgan ijod kuchidan ham iborat.

Individni jamiyatdan tashqari ko'rib bo'lmaydi, uning xulq-atvori esa sotsial kontekstdan tashqarida namoyon bo'lmaydi. Har bir insonda umumiylik va sotsial qiziqishning tabiiy tuyg'usi mavjud, ya'ni hamkorlikning sotsial munosabatlariga tug'ma ravishda intilish mavjud.

Inson xulq-atvori o'zi va atrof olam haqidagi tasavvurlari bilan belgilanadi. Erishilmagan maqsad yoki vazifalar inson xulq-atvorini yo'naltirib, harakatlantirib turadi. Insonga yagona, yaxlit, unsurlari bir-biri bilan o'zaro muvofiq keluvchi mavjudod sifatida qaraydi.

Individuum miya va tana, onglilik bilan ongsizlik, tafakkur, tuyg'u, harakat, shaxsda namoyon bo'luvchilar yagonadir.

Shaxsning strukturasi hayot uslubi bilan aniqlash mumkiuligini tavsiya etadi. Shaxsiy ahamiyatga ega maqsadlarga talpinish, kamolotga intilish, individuum organik jihatdan yaxlitlikni ifodalaydi

va o'zining hayotini boshqaradi, ijodiy kuchini va erkinlikni tanlashini namoyon qiladi.

Shaxsning strukturasi hayot uslubi bilan aniqlash mumkinligini tavsiya etadi. Shaxsiy ahamiyatga ega maqsadlarga talpinish, kamolotga intilish, individuum organik jihatdan yaxlitlikni ifodalaydi va o'zining hayotini boshqaradi, ijodiy kuchini va erkinlikni tanlashini namoyon qiladi.

Individuum jamiyatdan, boshqa insonlardan xoli holda bo'lmaydi, insonning xulq-atvori sotsial determinantlar bilan aniqlangan sotsial (ijtimoiy) mazmunda sodir bo'ladi, oqibatda insonda boshqa insonlar bilan hamkorlikda sotsial o'zaro munosabatlarda ishtirok etishga intilishni ifodalovchi sotsial qiziqishlar shakllanadi.

Nomukammallik kompleksi atamasini A.Adler fanga olib kirib, ushbu tuyg'uni barcha bolalar jismoniy o'lchamlari, kam kuchligi va imkoniyatlarining pastligi oqibatida boshdan kechiradilar.

Kelajakda juda kuchli, kompleksga aylantirish, ijobiy o'sish va rivojlanishni qiyinlashtirishi mumkin. Biroq, o'rtacha darajali nomukamallik bolada "kuchli bo'lish yoki boshqalardan kuchli bo'lish"ga, kamolotga, ustunlikka, o'zining qobiliyatlarini rivojlantirishga undash mumkin.

Kamolotga intilish tug'ma bo'lib, bu hayotning bir bo'lagi, hayotga intilishning bo'lmasligi ma'nosiz, deydi, A.Adler.

Mukammallik maqsad ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Agar u ijtimoiy manfaatga va boshqalarning foydasiga yo'naltirilgan bo'lsa, rivojlanish konstruktiv va sog'lom yo'nalishga ega bo'lib, bu rivojlanish, ko'nikma va malakalarning kamol toptirish, mukammal hayot uslubiga ega bo'lish uchun ishlashga intilish kabilarda namoyon bo'ladi. Biroq, ayrimlar mukammallikka boshqlar ustidan humkronlik qilish orqali erishishga urinadi. Bu esa hokimiyat va agressiyada namoyon bo'ladi.

Har bir inson intilish va erishishiga mujassamlashuvchi o'zining hayot uslubini ishlab chiqadi. Ularning shakllanishi bolalikdan boshlanib, nomukammallik, ishonchsizlik, kattalar olamida bo'lishga ojizlik kompleksi sifatida shakllanib boshlaydi. Hayotning maqsadi bundan himoyalani, qondirilmagan bugungi hayot bilan yorqin, mukammal kelajak o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi.

Hayot uslubi va shaxs tiplari

Boshqaruvchi tip. Bu tip insonlar o'ziga ishongan va g'ayratli. Ular faol, ularga boshqalarning baxt-saodati ahamiyasiz, tashqi olam ustidan hukmronlik qilish xos. Ular asosiy hayotiy muammolarini dushmanlikka asoslangan holda antisotsial hal etadilar (jinoyatchilar, narkomanlar, qonunbuzarlar).

Oluvchi tip. Tashqi olamga tekinxo'rlik va o'zining ehtiyojlarining ko'p qismini boshqalar hisobiga qondirishga intiluvchi odamlar. Ularda sotsial manfaatlar yo'q, ular boshqalardan ko'proq narsa olishga intiladilar. Ularning faolligi yuqori emas, ularning boshqalarga azob-uqubat keltirish ehtimoli kamroq.

Qochuvchi tip. Bu insonlarning sotsial qiziqishlari, shaxsiy muammolarni hal etishdagi majburiy faolligi past, ular muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqadilar va hayotiy muammolarini yechishdan qochadilar. Ular qiyinchilik yoki omadsizlik tug'diradigan barchasidan qochadilar.

Sotsial tip. Bu yetuk talabga javob beradigan, sotsial manfaatlar bog'lab turadi va yuqori faollikka ega. Bu inson boshqa insonlarga g'amxo'rlik ko'rsatuvchi, ular bilan munosabatga qiziquvchi, insonlarning asosiy hayotiy muammolarini hal etuvchi muammolarni - ish, sevgi, do'stlik-hamkorlikni, shaxsiy mardlikni, mas'uliyatni talab etishini biladi va boshqa insonlarning rohat-farog'atida o'zining hissasini qo'shishga tayyor.

3.1.5. Bixeviorizmning asosiy g'oyasi⁸

XX asrda amerikalik psixologiya maktabining haqiqiy qiyofasi sifatida maydonga chiqdi. Uning asoschisi Djon Uotson (1878-1958) bu yo'nalishning haqiqiy yo'l boshchisi sifatida shakllanishiga sabab bo'ldi. "Bixevio" - tushunchasi (behavior) inglizchadan tarjima qilganda "xulq-atvor" - degan ma'noni anglatadi. Bixeviorizm tushunchasi tarjima qilganda - xulq-atvor psixologiyasi ma'nosini anglatadi.

Xulq-atvorni tahlil qilish to'liq obyektiv xarakterga ega bo'lib, tashqi kuzatiladigan reaksiyalar bilan cheklanadi. Insonning fikri, ongini ko'rib bo'lmaydi, ularni o'lchash mumkin emas, bundan ko'rinadiki barchasini obyektiv qayd etish imkoniyati bo'lmaydi.

⁸ Myers. D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. - P. 554.

Insonning ichki olamida kechayotganlarni o'rganish imkoni yo'q. Demak, shaxs "qora quti" sifatida ishtirok etadi. Inson harakatining tashqi ifodalashining obyektivligini stimullar va vaziyatlar shartlaydi. Shunday ekan psixologiyaning vazifasini stimullar bo'yicha namoyon bo'ladigan ma'lum reaksiyalar belgilaydi.

Bixevioristlar nuqtai nazaricha shaxs mazkur insonga xos xulqiy reaksiyalarning majmuidan iborat. Stimul-reaksiya (S-R) formulasi bixeviorizmida yetakchi hisoblanadi. **Torndayk effekti** qonuni S va R o'rtasidagi aloqalarni aniqlashtiradi, qaysiki, mustahkamlanish bo'lganda, u ijobiy bo'ladi, og'riq, jazolash, omadsizlik, tanqidiy ogohlantirish yuz berganda rag'batlantirish, kutilgan natija olinganda, moddiy rag'batlantirish yoki salbiy bo'ladi. Insonning xulq-atvori ko'pincha ijobiy qo'llab-quvvatlashni kutgandan, ba'zan salbiy kuchlar undan qochishga sabab bo'ladi.

Shunday qilib, bixeviorizm yo'nalishiga ko'ra shaxs individga nisbatan ongli tartibga solingan instiktlar, sotsiallashgan emotsiyalar, yangi ko'nikmalarni shakllanishiga ko'maklashuvchi plastiklik, muhitga moslashuviga ko'maklashuvchi va ularni saqlashga xizmat qiluvchi qobiliyatlarni o'zlashtirishida namoyon bo'ladi.

Bu shaxsning uyushgan va nisbatan barqaror ko'nikmalar tizimidan iborat ekanligini anglatadi. Oxirgi barqaror xulq-atvor asosini ularning yangi hayotiy vaziyatlarga moslashuvi, o'zgarishi yangi ko'nikmalarni shakllanishiga olib keluvchilar tashkil etadi.

Bixevioristlar odamni u yoki bu harakatlar, reaksiyalar, xulq-atvorni dasturlashgan, aniqlovchi, o'rganuvchi mavjudotdir. O'zgarishlar va mustahkamlash o'zgarganda uni talab etiladigan xulq-atvorga dasturlash mumkin.

Bixeviorizm mazmuniga psixolog Tolmen S-R reaksiyaga shubha bilan qarash orqali, unga o'zgarish kiritishga erishdi. U ushbu sxemaga o'zgarish kiritdi va uni S-I-R tarzda ifodalashga olib keldi. Bu yerda I-individning irsiyatiga, fiziologik holatlari, oldingi tajribasiga bog'liq bo'lgan psixik jarayonlar hisoblanadi.

B.Skinnerning operant bixeviorizmi

Berris Frederik Skinner 1904 yil Pensilvaniya shtatidagi, Saskuexanneda tug'ilgan. Uning oilaviy muhiti samimiy va erkin, intizom qattiq bo'lgan, hamda munosib xizmat ko'rsatganda rag'batlantirilgan. Skinner butun yoshligi davrida roliklik samakatlarni, korusellarni, aravalarni konstruksiya qilish bilan ko'p

shug'llangan. Bu yoshlikdagi ixtirolar kelajakda uni harakatlarini kuzatish modifikatsiyasiga qiziqishidan darak berardi. Uni shuningdek, maktabda o'qishga qiziqishi katta bo'lgan, hamda unga bilim bergan o'qituvchilarini iliqlik bilan xotiralaydi.

Skinner 1926-yilda Gamilton kollejida o'qib, gumanitar fanlar, ya'ni ingliz adabiyoti bo'yicha bakalavr darajasini olgan. Skinner o'z xotiralarida talabalik hayotiga haqiqiy moslasha olmaganligini aytadi. Kollejni bitirgach u ota-onasining uyiga qaytib kelgan va yozuvchilik bilan shug'ullanishga harakat qilgan, lekin bu orzusi ro'yobga chiqmagan. Skinner xotirasida maqsadsiz o'qiganligi, kemalar modelini yasaganligi, royalda royal chalganligini, o'zi ixtiro qilgan radiosini eshitganligini, mahalliy gazetalarda yumor maqolalar chop etganligini, ammo boshqa hech narsa yozmaganligini va psixiatrga ko'rinishni o'ylab ko'rganligini aytgan.

Skinner yozuvchi bo'lishdan voz kechib Garvard Universitetiga psixologiyani o'rganish uchun o'qishga kiradi. U bu sohada hammadan orqada ekanligini tushunib, o'ziga qattiy o'quv jadvali belgilaydi va bunga ikki yil davomida qat'iy amal qilib keladi. 1931-yilda doktor darajasiga loyiq topiladi. 1931-1936-yillarda Skinner Garvardda ilmiy ish bilan shug'ullanadi, u o'zini ilmiy qarashlarini hayvonlarning asab tizimini o'rganishga qaratgan. 1936-45 yillarda u Minisotta Universiteti o'qituvchisi bo'lib ishladi. Bu davrda Skinner juda ko'p ijodiy ishlar bilan shug'ullangan va AQShda yetakchi bixeviorist sifatida tanilgan. 1945-47 yillarda u Indiana shtati universiteti psixologiya kafedراسi mudiri lavozimida ishlagan, 1947-74 yilga qadar Garvardda notiq bo'lib ishlagan va nafaqaga chiqqan. Skinnerning ilmiy faoliyati juda ko'p taqdirlangan. Jumladan, ilmiy faoliyatlari uchun prezident medalini olgan. 1971-yilda Amerika psixologlari assotsiatsiyasining quyidagi yozuvlari bitilgan "Xulq-atvorni o'rganish revolyutsiyasini amalga oshirishda psixologik tekshiruvchilar pioneri, nazariya lideri, texnologiya ustasi "oltin medali"ga sazovor bo'lgan. 1990-yilda Amerika psixologlari assotsiatsiyasi prezidenti Skinnerga tashakkur bildirgan. Skinner ko'pgina kitoblar muallifi bo'lgan. U "Organizmning harakati" (1938-yil), "Uoldin-2" (1948-yil), "Insonning xulq-atvori va fan" (1953-yil), "Verbal xulq-atvor" (1957-yil) va boshqa bir qator asarlarini yozgan. Uning yozgan asarlaridan "Uoldin-2" romani kollej talabalari orasida keng tarqalgan. Uning tarjimaiy holi "Tarjimai hol psixologiyasi

tarixi" asarining 5-tomida yoritilgan. Skinner 1990-yilda Leykemiya kasalligi orqali vafot etgan.

Skinnerning nazariyasiga yondashuvlari: Bixeviorizm uchun "xulq" asosiy tushunchaga aylanib, uning psixikasi bilan aloqasi chetlab o'tilgan. Ko'pgina insonparvar nazariyotchilar ikki xil yo'nalishda izlanish olib boradilar:

1) Albatta, insonlarning barqaror va bir-birlaridan farqli xususiyatlarini o'rganish;

2) Shaxslarning xulq-atvorini turlichaligi va murakkabligini gipotetik tushuntirish.

Bu yo'nalishlar ko'pgina konsepsiyalarning asosini tashkil qilgan. Skinner fikricha mavhum (abstrakt) nazariya majburiy emas.

Individning xulq-atvorini unga tashqi muhitning ta'sirini o'rgatish yo'li bilan aniqlash mumkin.

Skinnerning ta'kidlashicha; psixologiya, ayniqsa uni o'qitish yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli ulkan masshtabli nazariya mavjud bo'lmagan. Shuningdek u, nazariy yo'nalishda tekshiruvlar o'tkazish lozim emasligini, chunki ular kuzatuv faktorlariga tushuncha berib, hodisalarni turli tushunchalar va o'lchamlar asosida ta'kidlab, ularni turli me'yorlarda o'lchab bo'lmaydi, degan.

Skinner o'zini nazariyotchi deb hisoblagan va shaxsni o'rganish nazariyasini yaratgan.

Skinner o'z intervyusida: "men o'zga dunyo, aql va asab tizimi nazariyasini yaratib, xulq-atvorni tushuntirishga harakat qilaman. Bunday nazariyani muhim va foydali deb hisoblayman. Bundan tashqari bular, xavfli hamdir, chunki bezovtalanishga asos bo'ladi. Men shaxs xulq-atvorini umumiy nazariyasini xush ko'raman, chunki ko'p faktorlarni birlashtirib umumiy tushuncha beradi", - degan.

Tashabbuskor shaxs doira tashqarisida, Skinner radikal bixeviorist sifatida, insonlar tashabbuskorligini va xulq-atvorini ichki faktorlar bilan bog'liq ekanligini inkor etib, (masalan: ongsiz impulslar) bu konsepsiyalar to fikrlar bo'lishi, hozirda ham mavjud bo'lib kelmoqda, chunki xulq-atvorni boshqarayotgan atrof-muhit sharoiti inkor etilmoqda.

Shaxsni bilish uchun tashabbuskor shaxsni aqli, sezgi, xarakteri, reja, maqsadi va boshqalarni bilish, xulq-atvorni ilmiy analiz qilishga yordam beradi.

U nazariyasi orqali faqatgina shaxsni emas, balki butun xulq-atvorni tushuntirishga harakat qildi. Skinner psixologiya aniq dalillar asosida va tadqiqotlar laboratoriya sharoitida amalga oshirilishi kerakligini ta'kidladi. Skinner psixologiya xulq haqidagi, organizm nima qilishi haqidagi fan ekanligini ta'kidladi. Uning xulq-atvorni o'rganishi psixoanalitikka, ekzistensial, kognitiv, gumanistik yondashuvlarga qarshidir. Uning yondashuvi nafaqat fanning predmeti, balki metodologiya va maqsadi bilan tafovutlanadi.

Shaxsni tushuntirishda ko'pgina boshqa nazariyalar insoning ichki olamiga nazar soladi. Sabablar, motivlar insonning kamoloti va xulq-atvorini yo'naltiradi hamda har bir insonning ichida kechadi.

Bunga teskari ravishda Skinner xulq-atvorni tushuntirishda ichki tomon bilan bog'liq biror bir xulosaga kelmadi. Ongsiz ta'sirlar, himoya mexanizmlari, qirralar va boshqa harakatga keltiruvchi kuchlar ilmiy psixologiyada o'rin olmaydigan jihatlar ham mavjudligini ta'kidladi.

Skinner ham o'z navbatida fan uchun foydaligidan ichki kuchlar mavjud bo'lishini inkor etmadi. Skinner aniq kuzatib bo'lmaydigan va fanga aloqador bo'lmagan fiziologik jarayonlarga analogik mulohazalarni qo'lladi.

Inson bilan bog'liq bahsli vaziyatlarda Skinner atrof-olam yoki vaziyatlarni e'tiborga oldi. Eksperimental o'rganish predmeti jihatidan Skinnerning yondashuvi boshqa nazariyachilardan keskin farq qildi. Bir qator tadqiqotchilar emotsional beqaror, boshqalar esa me'yordagi yoki o'rtacha barqarorlikdagi shaxslarga e'tibor qaratadilar.

Skinnerning xulq-atvor haqidagi insonlarga qo'llagan g'oyalari kalamush va kabutarlarni xulqini o'rganish uchun qo'llanilgan. Inson shaxsi haqida xulosalash uchun kabutarni o'rganish kerakmi? Skinnerning qiziqishlari bolalar kechinmasi yoki katta yoshdagilarning tuyg'ularini emas, qo'zg'atuvchilarga nisbatan xulqiy reaksiyalarni aniqlashga qaratilganligini unutmash lozim. Stimullarga nisbatan ba'zan odamlar, ba'zan hayvonlar yaxshi javob berishlari (reaksiya) mumkin. Skinner inson xulq-atvori boshqa jonzotlar bilan solishtirganda murakkab ekanligini e'tirof etdi. Tafovutlar esa darajali, tabiiy shaklda emas, balki fundamental jarayonlarda o'xshashdir, deb xulosa qildi. Shu bois fan oddiydan murakkabga qarab o'rganib, dastlab oddiy jarayonlarni o'rganishi kerak. Shunday qilib, u

jonivorlarning xulq-atvorini o'rganishga jazm qildi. Bu esa inson xulq-atvoriga qaraganda soddaroqdir, deb o'rganishga kirishgan.

Skinnerning ishi amaliy jihatdan yo'lga qo'yilgan. Uning tadqiqotlardan olgan terapevtik metodlari har xil kasalliklar, xususan, psixoz, aqliy taraqqiyotdan ortda qolish va autizmni davolashda foydalanildi. Uning xulq-atvoriga bag'ishlangan g'oyalari bo'yicha modifikatsiya qilgan metodlari maktab, tashkilot, tuzatish muassasalari va kasalxonalarda tatbiq etildi.

Asosiy xulq-atvor

Skinner ikki xil xulq-atvorni o'rganishga e'tibor qaratdi: shartsiz reflektor –shartli reflektor va operant xulq-atvor. Javob (reaksiya) xulq-atvor o'zida maxsus stimullarga javob sifatida namoyon bo'ladi. Aynan reflektor xarakterdagi xulq-atvor sifatida tizza refleksini misol sifatida keltirish mumkin. Impulslar tatbiq etiladi va javob yuzaga keladi. Bu avtomatik tarzda yuz beradi.

Operant xulq-atvor organizm atrofdagi faol ta'sir ko'rsatadi va bu faol harakat ta'sirida ular mustahkamlanishi yoki inkor etilishi mumkinligini ifodalaydi. Skinner bo'yicha aynan mavjudotlarning moslashuvida egallanuvchi ushbu reaksiyalar ixtiyoriy xulq-atvor shakli hisobalanadi. Konkida uchish, fortepianoda kuy chalish, xat yozishni o'rganishning barchasi insonning operant harakatlariga misoldir. Organizm uchun ularning oxiri yoqimli bo'lishi, operant reaksiyalarni takrorlash ehtimoli ortadi.

3.1.6. Sotsial o'rganishlar nazariyasi

Keyingi davrda klassik bixeviorizm rivojlanib, natijada yangi sotsial-kognitiv yo'nalish shakllandi. Uning vakillari Albert Bandura va Djulian Rotterdir. Ularning yondashuviga ko'ra insonning xulq-atvoriga atrof muhit ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida inson ham sotsial atrof-muhitni shakllanishiga faol ta'sir ko'rsatadi. O'rganishlarning yuz berishi faqat to'g'ridan to'g'ri va tashqi qo'llab-quvvatlashda emas, xulq-atvor kuzatishlar va namunalar asosida shakllanadi. Sotsial kognitiv nazariya ahamiyatiga ko'ra Skinnerning klassik bixeviorizmdan farq qildi. Ular keskin ilmiy va eksperimental metodologiyaga tayandi.

Dj.Rotter sotsial xulq-atvorni quyidagi tushunchalar orqali ifodaladi:

1. Xulq-atvor potentsiali: har bir inson butun hayoti davomida shakllanadigan ma'lum harakat, xulq-atvor to'plamini egallaydi.

2. Insonning xulq-atvoriga uning kutilmasi, subyektiv ehtimollari, ya'ni insonning fikricha ma'lum vaziyatlarda u yoki bu xulq-atvorni yuz bergandan keyin ma'lum mustahkamlash bo'ladi, degan fikriga ko'ra ta'sir ko'rsatadi.

3. Insonning xulq-atvoriga inson uchun ahamiyatli bo'lgan mustahkamlash (chet ta'sirlar), qadriyatlar ta'sir ko'rsatadi.

4. Insonning xulq-atvoriga uning shaxs tipi, uning lokus nazorati ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, DJ.Rotterning ta'kidlashicha, xulqiy potensial "texnik mavjud" bo'lgan beshta asosiy reaksiyalar blokini o'ziga qamrab oladi:

1. Muvaffaqiyatga erishishga yo'naltirilgan, natijada ijtimoiy e'tirof etishni asoslashga xizmat qiladigan xulqiy reaksiyalar.

2. Ijtimoiy me'yorlar, boshqa insonlarning talablariga moslashish bilan bog'liq adaptatsiyani ta'minlovchi xulqiy reaksiyalar.

3. Ayni damdagi vaziyatning ta'sirida foydalaniladigan himoyalovchi xulq-atvor reaksiyalari.

4. "Zo'riqish maydonidan chiqish", qochish, dam olishga yo'nalgan qochish texnikasini ifodalovchi xulq-atvor reaksiyalari.

5. Agressiv xulq-atvor reaksiyalari – boshqalarning tanqidi, kinoyasi, pichingi, qiziqish va manfatariga zid harakatiga nisbatan jismoniy agressiyaning namoyon bo'lishi.

DJ.Rotter singari A.Bandura ham shaxs muammosiga o'ziga xos yondashuvlarini taqdim eta oldi. A.Bandura bixeviorizmining S–R sxemasiga o'zining to'rtta oraliq reaksiyasini kiritdi:

1. Taqlid uchun harakat namunasiga bolaning e'tibori. Aniqlik, farqlanuvchanlik, emotsional jozibadorlik, funksional ahamiyatga egalik namunaga qo'ladigan talablardir.

2. Namuna, xulq-atvor modeli ta'siri haqidagi ma'lumotlarni saqlovchi xotira.

3. Bolaning taqlid namunasini idrok qilishi uchun sensor inkoniyatlar va harakat ko'nikmalariga ega bo'lishi.

4. Bolaning taqlid modelini bajarishi uchun xohish-istaklarini belgilovchi motivatsiya.

Bola ilk davrlaridagi uning shaxsiy muvaffaqiyatlari o'zining boshqalar kutayotgandek tutishiga tayyorligiga bog'liq. U ota-onasi

kutayotgandek va unga qoniqish keltiradigan harakatlarni amalga oshirib boshlaydi va boshqalarnikidek harakatlanishni boshlaydi.

Bandura taqdim etgan sotsial kognitiv nazariyaga ko'ra tashqi va sotsial muhit insonning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi, u inson faoliyatining mahsuli sanaladi. Demak, inson o'zining xulq-atvori tufayli atrof olamni o'zgartiradi, o'zining muhitiga va shaxsiy xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. Inson o'zining xulq-atvor oqibatlarini ko'ra oladi, oldindan kutish mumkin bo'lgan xavf-xatarning oldini olishga harakat qiladi va bo'lg'usi natijalarni timsolini hosil qiladi.

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinadiki, klassik bixeviorizm, ularning zamonaviy izdoshlari – sotsial kognitiv nazariya vakillari shaxs muammosiga nisbatan yondashuvlari bilan boshqa shaxs nazariyalaridan o'zlarining g'oyalaridagi metodologik masalalar va tadqiqot metodlari bilan farq qiladilar.

3.1.7. Gumanistik psixologiyada shaxs

Gumanistik psixologiya inson tabiatini tushuntirishda o'zining yondashuvi bilan boshqa psixologiya fanidagi yo'nalishlardan farq qiladi. Bu borada mazkur yo'nalishning vakillari sifatida G.Ollportning shaxs qirralari, A.Maslouning shaxsnining o'zini o'zi kamol toptirish, K.Rodjersning inderiktiv psixoterapiyasi, R.Meyning shaxsning hayot yo'li haqidagi g'oyalarini e'tirof etish mumkin.

Mazkur yo'nalishning har bir nazariyasi o'zining ilmiy tushunchasi, insonning ichki olamini tushunishga yo'naltirilgan tadqiqot usullari va psixoterapevtik yondashuvlari mavjud.

Shunga ko'ra gumanistik psixologiyaning umumiy prinsiplari mavjud:

- Inson doimo yangi maqsadga intiluvchi, o'zini o'zi kamol toptirish va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni ifodalovchi taraqqiyot prinsipi.

- Inson o'z tabiatiga ko'ra erkin va mehribonlikni ifodalovchi insonparparlik printspi.

- Maqsadli determinizm prinsipi. Shaxsning intilishlari kelajakka yo'naltirilganligi bilan uning maqsad, qadriyatlari va kutilmalarini ifodalovchi sababiy determinizmni tasdiqlashi.

- Inson mustaqil fikrlovchi va harakat qiluvchi mavjudod sifatida o'zining subyekt sifatida namoyon qilishini ifodalovchi faollik prinsipi.

- Shaxsni alohida fragmentlar bo'yicha o'rganib bo'lmasligi, balki uni yaxlit o'rganishga undovchi shaxsni noeksperimental tadqiqot etish prinsipi.

- Gumanistik psixologiyada tadqiqot maqsadi va obyektining mosligi insonni sog'lom, o'zini o'zi ro'yobga chiqarib borishini ta'minlovchi me'yorda va to'laqonli faoliyat olib boruvchi shaxsni o'rganish vazifasini ifodalovchi reprezentativlik prinsipi.

G.Ollportning shaxs nazariyasi. Taniqli AQSH psixologi G.Ollportning fikricha, shaxs "ichki tizim", "dinamik qurilma", "Men", "qandaydir metapsixologik Men" o'zida oldindan maqsad va dispozitsiyani aks ettiruvchi, inson tafakkuri va xulq-atvorida mutanosib ravishda qaror toptiruvchi jonzotdir". Xuddi shu boisdan shaxsning sinfiy-tarixiy jihatdan yaqqol baholanishi ochilmay qoladi, ijtimoiy tahlil o'rnini psixologik talqin egallaydi chamamda.

Shaxsning uni muhim xususiyatli jihatlaridan biri bu uning individualligidir yani yakka hokimligidir.

Uning ko'rsatilishicha nuqtai nazardan dispazitsional yaqinlashish bu ikkita bir xil inson bulinmaydi deyiladi. Har bir inson o'zini har xil holatlari bilan o'zgachadir. Bunga Ollport o'zini nazariyasini "xarakter"ni yani "umuniy analizini" ko'rsatadi. Har bir shaxsni bir-biridan farqlaydigan xarakteri mavjud. Ollport xarakterni xuddi introsixik jarayonda belgilaydi, unda hajmi ekspressiv xulq-atvoridir. Masalan, agar insonlar ishlarini xotirjam qilsalar, har xil vaziyatlarda o'zlarini erkin tutadilar. Ollportning takidlashicha inson xulq-atvori uning o'zini qilayotgan ishida o'zini boshqara olishidir.

Ijtimoiy turmushda hayot va faoliyat ko'rsatyotgan har bir shaxs o'zining individual psixologik xususiyatlari bilan boshqa insonlardan ajralib turadi, bu farqlar uning xarakter xususiyatlarida o'z ifodasini topadi. Xarakter tushunchasi yunoncha so'z bo'lib xarakter, "bosilgan tang'a" yoki "xislat" degan ma'noni anglatsada, lekin u psixologiyada torroq mazmunda qo'llaniladi. Xuddi shu boisdan insonning barcha individual xususiyatlarini xarakter xislati tarkibiga bo'linadi, chunonchi aqlning tiygakligi va topqirligi, xotiraning barqarorligi ko'rishning o'tkirligi, idrokning tanlovchanligi singari individual psixologik xususiyatlar bunga yorqin misoldir.

Shaxs xarakterining xususiyati ro'yobga chiqadigan har qanday vaziyat, sharoit, holat, muhit hissiy kechilmalarining individual o'ziga xos xislati uning munosabatlariga bog'liq.

Shaxs motivatsiyasi

Ollportning fikricha uning motivlari avtonomligi darajasiga va uning biologik ehtiyojlaridan xolos bo'lishga bog'liq. Shaxslar ishning mexanizmi sifatida Ollport hatti-harakatlarini ko'rsatdi.

Harakat tushunchasi xarakter harakati emas, balki "harakat motiv", "harakat qiziqish"dir.

Ollport belgilagan harakat motiv hisoblanadi. U kattalarning motivlari kichkina bolalarnikidan keskin farq qilishini e'tirof etish bilan birga, ularning biologik holat emasligi, shuningdek, ular ruhiy ma'naviy holat ham emasligini ta'kidlagan. Ollportning fikricha, inson harakatining motivi haqida "u qayerdan paydo bo'ladi", degan savol bizga kishi tabiiy bir tomondan u harakat motivi biologik faktor emas desa, ikkinchi tomondan har bir inson ma'lum harakatlar to'plami bilan dunyoga keladi, degan xulosaga keladi.

1937 yili G.Ollport sotsial intellektni odamlarning to'g'ri baholay bilish, ularning xulqini to'g'ri bashorat qilish va shundan kelib chiqqan holda ular bilan munosabatga kirishish qobiliyati deb tavsiflaydi. U boshqa odamlarni yaxshi tushinishini ta'minlovchi bir qator sifatlarni ajratib ko'rsatgan: bu sifatlarning tarkibiga sotsial intellekt alohida qobiliyat sifatida kiritilgan.

Shaxs tiplari:

- nazariyotchi;
- iqtisodchi;
- estetik;
- sotsial;
- siyosatchi;

A.Maslouning shaxs nazariyasi. Maslou Abraxam Xarold (1908-1970) gumanistik psixologiya asoschilaridan biri hisoblangan amerikalik psixolog bo'lib, u psixologiyaga motivatsiyalarning ierarxik modelining muallifi sifatida kirib kelgan. Bu ierarxiya asosida uning tug'ma va universalligi haqidagi postulat yotadi.

Maslou ierarxiyasi asosiy mazmuniga ko'ra, ehtiyojlarni hech qachon "hamma narsa yoki hech narsa" prinsipi asosida qondirib bo'lmaydi. Ehtiyojlar bir-biriga qisman mos keladi va insonda bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq pog'onadagi ehtiyojlarga motivatsiya uyg'onishi mumkin. Maslouning ehtiyojlarining ierarxik modeli doirasida o'rtacha insonning qondirishi kerak bo'lgan 5 ta ehtiyojlarini ko'rsatib o'tgan:

Ehtiyojlar bir-biriga qisman mos keladi va insonda bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq pog'onadagi ehtiyojlarga motivatsiya uyg'onishi mumkin.

- Fiziologik – 85%,
- Xavfsizlik va himoya – 70%,
- Muhabbatga va aniq sotsial guruhga bog'liqlik – 50%,
- Hurmat va e'tibor – 40%,
- O'zida ehtiyojlar perarxiasining yuqori pog'onasini namoyon qiluvchi o'zini o'zi aktualashtirish pog'onasi – 10 %.

Maslouning fikricha, inson pastroq pog'onadagi ehtiyojlarini qondirmaguncha, yuqori pog'onadagi ehtiyojlarga erisha olmaydi. Shuning uchun yuqori pog'onadagilar ehtiyojlarga juda ozchilik, ya'ni aholining 1 % igina erishadi. Maslou yana shuni ta'kidlab o'tadiki, o'z o'zini aktualashtiruvchi insonlar uchun mustaqillik, kreativlik, mahsuldorlik, dunyoni falsafiy anglash va erkin muloqandmandlik xos.

1960-yillar boshlarida Maslou qo'l ostida bir qancha gumanistik yondashuv vakillari birlashib, psixologiyadagi ikki muhim intellektual oqim bo'lgan psixoanaliz va bixeviorizmga qarshi gumanistik psixologiyani yaratadilar. Gumanistik psixologiya kuchli tashkil qilingan nazariy tizim bo'lmasdan, uni shaxsga va klinik psixologiyaga nazariy munosabat bildiruvchi o'ziga xos guruh desa ham bo'ladi. Maslou o'z yo'nalishini psixologiyadagi uchinchi kuch deb nomlagan. Bu yondashuv vakillari inson tabiatining aniq kelib chiqish konsepsiyalarini ajratib o'rganishgan. Amaliy jihatdan esa bu yondashuvlar g'arb falsafiy tafakkuri tarixida o'zining chuqur ildiziga ega. Gumanistik psixologiyaning ildizi ekzistensial falsafa ildizlariga borib taqaladi. Uni Seren Kerkegor (1813-1855), Karl Yaspers (1883-1969), Martin Xaydegger (1889-1976) va Jan-Pol Sartr (1905-1980) kabi bir qancha Yevropalik faylasuf yozuvchilar hisoblanadi.

Gumanistik psixologiyani namoyondalari Erik Fromm, Gordon Ollport, Karl Rodjers, Viktor Frankl va Rollo Mey kabi mashhur psixologlar hisoblanadi. Gumanistik psixologiya namoyondalarining fikricha, inson hech qachon bir joyda qotib qolmaydi, u har doim rivojlanishga imkon topadi. Kollejning yuqori kurs talabasi o'zining to'rt yil avvalgi o'spirinlik davriga qaraganda hozir boshqacha. Uning fikrlashi, dunyoqarashi o'zgargan. Uni yana to'rt yildan so'ng uchratsangiz u o'z xayotining yangi yo'llarini egallagan, masalan,

o'zining kasbiy kar'erasiga ega bo'lgan yoki oilali, farzandli bo'lgan bo'lishi mumkin. Shu yo'sinda erkin mavjudot bo'lmish inson bu xayotda yashashi uchun o'zining ko'pgina imkoniyatlarini ochishi zarur.

O'z o'rniga ega bo'lish oson emas. Insonlar o'z taqdirini tanlash va unga o'zlarini yo'naltirishga o'zlari mas'uldirlar. Bu dunyoga kelgan ekanlar ular faqat birgina insonning, ya'ni o'zlarining hayotlariga mas'uldirlar. Mas'ullik va erkinlikdan qochish bu o'zini soxta tutish bo'lib, oxiri umidsizlik va tashvishli hayotga olib keladi. Maslou shaxsning gumanistik nazariyasini ishlab chiqqan bo'lib, bu 50 yil davomida o'z kuchini yo'qotmagan. Maslouning fikricha Individ bu bir butunlikdir. Har bir insonni unikal, tashkillashgan, bir butunlikda o'rganishi kerak. U psixologiyada shuncha yildan beri insonning alohida hodisalarini detali analiz qilishganini ta'kidlaydi.

Maslou uchun shaxsning markaziy xususiyati bu uning umumiyligi va bir butunligidadir. Yaxshi teoriyada oshqozon yoki tish yoki bosh og'rig'i kabi reallik mavjud emas. Faqatgina individium ehtiyoji mavjud. Agar bir kishi och deydik. Uning o'zi nimanidir yegisi keladi, oshqozoni emas, agar u kishi biror narsa tanavvul qilsa, o'zi yegan bo'ladi. Uning oshqozoni emas. Demak u kishi o'zi butunlikda ehtiyojini qoniqtirgan bo'ladi, faqatgina oshqozonining ehtiyojini emas.

Ya'ni Maslouning fikriga ko'ra, motivatsiya bitta butun insonga ta'sir qiladi, uning alohida organizmiga emas.

K.Rodjersning shaxs nazariyasi. K.Rodjersning shaxs nazariyasi boshqa psixologlardan keskin farq qiladi. Rodjers shaxs nazariyasini uchta prinsip bo'yicha yoritdi:

1) inson xulq-atvorini obyektiv kuzatishlar orqali tushunish mumkin, shaxs esa subyektiv idroki va voqelikni bilishi orqali baholaydi;

2) inson o'z taqdirini o'zi belgilaydi, tanlov va qaror qabul qilishda erkin;

3) inson o'z tabiatiga ko'ra mehribon va o'zini o'zi kamol toptirishga intiluvchan.

Men tuzilmasida har xil qadriyatlar kiradi:

1) bilvosita organizmda kechadi ("Men o'z ota-onamni inson sifatida idrok etaman") va

2) boshqalarda introetsirlovchilar xususiy, bilvosita idrok etishga sabab bo'ladi ("Men o'z xulq-atvorimni qoniqmagan holda idrok etaman").

"Men konsepsiya"si xarakterlovchi jihatlar:

1) Barcha shaxs xususiyatlari "Men konsepsiya"da o'z aksini topadi (jismoniy, sotsial, jinsiy, tuyg'u va emotsiya, tab va psixologik qirralar va boshqalar);

2) "Men konsepsiya"ning qismlari o'rtasida tuzilmaviy va tiplar bo'yicha bog'lanish mavjud;

3) kongruentlik-nokongruentlik, ya'ni "Men konsepsiya" insonning real kechinmalarini muvofiq/nomuvofiqligidir.

4) Himoya yoki kuch "Men konsepsiya"ning mos emasligini ifodalaydi;

5) Zo'riqshlar, ya'ni himoya pozitsiyasida qayd etish oqibatidagi holat;

6) O'zini o'zi hurmatlash darajasi yoki barcha xususiyatlari bo'yicha o'zini qabul qilish;

7) Faol tushuvchi axborotlardan kelib chiqib o'zini baholash qobiliyati.

Shaxs markazlashgan psixoterapiyaning asosiy prinsipi:

1) Mijoz haqidagi faqat faol axborotlardan foydalaniladi;

2) Psixoanalizning zarur atributlari inkor etiladi, ular empatiyani yaqinlashuvi va o'rnatilishiga xalaqit beradi. O'zaro ta'sirlashuv "yuzma yuz" amalga oshiriladi:

3) Talqin, baholash va maslahatlar mavjud emas;

4) Mijozga shartsiz ijobiy munosabatdan tashqari salbiy emotsiyaga yo'l qo'yiladi;

5) Mijoz terapevtidan mustaqil, avtonom;

6) Natijalar ongning kengaytirishga xizmat qiladi.

7) Psixoterapiyada qadriyat va ideallarning muhimligi qayd etiladi.

R.Meylining shaxs xislatlari:

1. O'ziga ishonish - ishonchsizlik.

2. Aql-zakovat bilan mulohazalash - tor fikrlovchi.

3. Ongli dunyoqarash - kelajakni o'ylamaslik.

4. Mulohaza qilish, o'zini tuta bilish, barqarorlik - soxtalik, tez beriluvchanlik.

5. Xotirjamlik - tajanglik.

6. Ko'ngilchanlik - ayyorlik, surbetlik.

7. Yaxshilik, sabr-toqatlilik - xudbin, o'zboshimchalik.
8. Do'stona, gapga kiradigan, epchil - bir narsaga qattiq yopishib oladigan, zolim. maydagap.
9. Samimiylilik, ko'ngilchanlik - yovuzlik surbetlik.
10. Haqiqatparvarlik - haybarakachilik.
11. Irodalilik - irodasizlik.
12. Sof vijdonlilik, tartiblilik - vijdonsizlik, betartiblik.
13. Izchillik, mantiqiylik, intizomlilik - oqibatni o'ylamaslik, tarqoqlik.
14. Ishonchlilik - ishonchsizlik.
15. Ulg'ayish - organizmning yetilmay qolishi.
16. Odoblilik - odobsizlik.
17. Kirishimlilik - odamovi.
18. Quvnoqlik - g'amginlik.
19. Maftunkorlik - ixlosi qaytganlilik.
20. Dilkashlik - pismiq.
21. Faollik - sustkashlik.
22. Mustaqillik - konformlilik.
23. Ekspressivlik - vazminlik.
24. Xilma-xil qiziqishlar - tor qiziqish.
25. Ta'sirchanlik - sovuqqonlik.
26. Jiddiylik - betayinlik.
27. Halollik - aldamchilik.
28. Tajovuzkorlik - oq ko'ngillilik.
29. Tetiklik - quvnoqlik.
30. Optimizm - umidsizlik (pessimizm).
31. Botirlik - qo'rqoqlik.
32. Oliy himmatlilik - ziqnalik;
33. Erkinlik - tobelik.

3.1.8. Shaxsning ekzistensial psixologiyasi

Ekzistensial psixologiyada shaxs. An'anaviy hayot mazmunining muammolari falsafaning predmeti hisoblanadi. Faylasuflar odam hayotining mazmuni nima va u qanday bo'lishi kerakligi masalasini yechadilar va h.k. Mavjud psixologiya fanlari tizimi doirasida, hozircha qat'iy hayotiy - mazmuniy muammolarga yo'naltirilgan aniq ta'riflangan, maxsus intizom yo'q. (bunga o'xshaganlarning bir qismi biologik sababdan tortib g'oyaviy sababgacha bo'lgan barcha

bosqichlarni ko'rib chiqadigan ruhlanish (motivatsiya) nazariyasini o'z ichiga oladi). Shuning uchun hayot mazmunining muammosi bilan alohida maktab - ekzistensial psixologiya shug'ullanadi. "Ekzistensiya" tushunchasining o'zi, so'zma-so'z tarjima qilganda "paydo bo'lish", "vujudga kelish", "shakllanish" ma'nolarini anglatadi. Bu butun ekzistensializmning mohiyatini nafaqat psixologiya va psixoterapiyada, balki falsafa, san'at, adabiyot va hokozalarda ham aniq aks ettiradi. Unda odam psixodinamik mexanizmlari, xulq-atvor shakli, tabiiy va shaxsiy sifatlarining statik to'plami sifatida emas, balki doim bor bo'lgan va bo'luvchi mavjudot sifatida asosiy rol o'ynaydi.

Psixologiyada ekzistensial yo'nalish XX asrning birinchi yarmida Yevropada ikkita g'oyaning chegarasida vujudga keldi: bir tomondan bu o'sha paytda odamning xolis va ilmiy tahlilining ko'rsatmasi va deterministik qarashlari bilan hukmronlik qilgan ko'plab psixolog va terapevtlarning qanoatlanmasligi bo'lsa, ikkinchi tomondan bu psixologiya va psixiatriyaga katta qiziqish uyg'otgan ekzistensial falsafaning shiddatli rivojidir. Natijada psixologiyada Karl Yaspers, Lyudvig Binsvanger, Medard Boss, Viktor Frankl kabilar tomonidan taqdim etilgan yangi - ekzistensial oqim vujudga keldi. Ekzistensializmning psixologiyaga ta'siri asl ekzistensializm yo'nalishining shakllanishi bilan chegaralanib qolmadi. Juda ko'plab psixologik maktablar u yoki bu miqyosda mana shu g'oyalarni o'ziga singdirdilar.

Ayniqsa, E.Fromm, F.Perls, K.Xorni, S.L.Rubinshteynlarning ekzistensial motivlari juda kuchli. Shunday qilib ekzistensial psixologiya quyidagilarni o'rganadi:

- 1) o'lim, hayot va vaqt muammolarini;
- 2) tanlash va javobgarlik erkinligi muammolarini;
- 3) yolg'izlik, sevgi va muloqot muammolarini;
- 4) mavjudlikning mazmunini qidirish muammolarini.

Ekzistensial psixologiyaning asosiy predmeti - odamzod hayotining mazmuni, uni yo'qotish, o'zgartirish va erishishning shart-sharoitlaridan iborat. Viktor Frankl, Rollo Mey, Djejms Byudjental kabi mualliflar tomonidan ekzistensial falsafa asosida ishlab chiqilgan umumpsixologik nazariyalar va psixologik amaliyotning metodologik asoslari bugungi kunda ekzistensial psixologiyaning cho'qqilari hisoblanadi.

V.Frankl: ekzistensial tahlil va logoterapiya nazariyasi. Psixologiyada V.Frankl yaratgan ekzistensial tahlil va logoterapiya nazariyasi odam tabiatiga, shaxsning normal rivojining mexanizmlari va patologiya (g'ayritabiiylik)ga, shaxs rivojidagi anomallarni yaxshilash yo'li va uslubiga bo'lgan tibbiy, falsafiy va psixologik qarashlarning murakkab tizimini o'z ichigi oladi.

Psixolog Franklning nazariyasi uch asosiy qismga bo'linadi: mazmunga intilish haqidagi ta'limot, hayot mazmuni haqidagi ta'limot va erkinlik irodasi haqidagi ta'limot. Mazmunga intilishni va odam o'z hayotining mazmunini anglashini V.Frankl barcha insonlarda mavjud bo'lgan va shaxs rivoji va fe'l-atvorini harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo'lgan tug'ma motivatsion g'oya sifatida ko'rib chiqadi. V.Franklning fikricha, hayotiy kuzatuvlar, klinik amaliyotlar va empirik ma'lumotlar shuni o'z ichiga oladiki, odam yashashi va faol harakat qilishi uchun o'zining qilmishlari ega bo'lgan mazmunga ishonishi kerak.

Biroq, sevgi ham hayotni anglashning zarur sharti yoki eng yaxshi variant hisoblanmaydi. Hech qachon sevmagan va sevilmanagan individ ham o'z hayotini ancha ma'no-mazmunli etib tashkil qilishi mumkin.

Inson o'zgartirishga qodir bo'lmagan sharoitlar iskanjasida qolganda munosabatlar qadriyatiga murojaat qiladi. Ammo, har qanday shart-sharoitda insonda ularga nisbatan ongli pozitsiyaga ega bo'lish va o'z uqubatlariga chuqur hayotiy ma'no berish erki mavjud.

O'z asarlarida Frankl butun hayotning ma'nosi emas, balki muayyan insonning muayyan momentdagi hayotining ma'nosi masalasi muhim ekanligini ta'kidlaydi. Insonning qanday qilib o'z mohiyatini anglashini logoterapiya amaliyotida hal qiluvchi masaladir. Ma'nolar bizga berilmagan, biz o'zimizga ma'nolarni tanlab ololmaymiz, biz faqatgina ma'noni anglab yetishga zamin yaratuvchi chorlovni tanlashimiz mumkin. Biroq, ma'noni topish bu yarim ish; uni amalga oshirish ham kerak. Inson o'z hayotining unikal ma'nosini amalga oshirishga ma'sul.

Shunday qilib, Frankl ta'limotining bosh ma'nosi: inson hayoti hech qanday shart-sharoitda ma'nosini yo'qotmaydi; hayot mohiyati har doim topilishi mumkin.

Franklning uchinchi ta'limoti - iroda erkinligi haqidagi ta'limotning asosiy tezisiga ko'ra inson hattoki erki obyektiv sharoitlar bilan chegaralangan holatda ham o'z hayot ma'nosini topishi va

amalga oshirishga erkindir. Frankl insonning o'z qiziqishlari, irsiyati va tashqi muhit sharoitlariga nisbatan erki haqida so'z yuritadi.

Qiziqishlarga nisbatan erkinlik ularga "yo'q" deyish, ularni qabul qilish yoki rad etish imkoniyatida namoyon bo'ladi. Iroda erkinligi ta'limotining muhim masalasi bu inson nimaga erkinlikka egaligidir. Bu o'z taqdiri uchun ma'suliyatni o'z bo'yniga olish, vijdoniga quloq tutish va taqdiri bo'yicha qaror qabul qilish erkinligidir.

Ko'pgina mualliflarning asarlarida Viktor Frankl ma'no va be'manolik masalasiga eng katta hissa qo'shganligi ta'kidlanadi. U klinik amaliyotda uchraydigan nervozlarning 20 foizi noogen xususiyatga ega ekanligi ya'ni hayot ma'nosining yo'qligi orqali vujudga kelganligiga alohida urg'u beradi. Shu bois ham aynan ekzistensial terapiya nazariya va amaliyoti boshqa tadqiqotchilar izlanishlarida o'z rivojini topgan.⁹

L.Binsvanger va M.Boss: shaxsning ekzistensial nazariyasi. Psixologiya va psixoterapiyada ekzistensial yo'nalishning yorqin vakillari shvetsariyalik psixiatrlar Lyudvig Binsvanger va Medard Boss. Ular o'z konsepsiyasini nemis faylasufi Martin Xaydeggerning ekzistensial nazariyasi asosida ishlab chiqishgan.

Binsvanger va Boss talqinidagi ekzistensial psixologiya bir qator o'ziga xosliklar bilan ajralib turadi. Avvalo, ular psixologiyaga tabiiy fanlardan sababiylik tamoyilining olib kirilishiga qarshi chiqdilar. Ular fikricha, inson hayotida hech qanday sabab-oqibatga asosiangan munosabatlar yo'q. Asosan, xulq-atvorning ketma-ketligi mavjud bo'lib, bu ketma-ketlik orqali sababiylikni keltirib chiqarib bo'lmaydi¹⁰.

Shunday qilib, Binsvanger va Boss talqinidagi ekzistensial psixologiya kazuallikni rad etgan holda, pozitivizm, determinizm va materializmni ham inkor qiladi. Ushbu olimlar ta'kidlashicha psixologiya boshqa fanlarga o'xshamaydi va ular kabi model asosida qurilishi kerak emas. U o'z metodini (fenomenologiya) va tushunchalarini (hayotdagi mavjudlik, mavjudlik moduslari, erkinlik, ma'suliyat, aylanish, transtendensiya, makoniylik, temporallik va b.q.) talab qiladi. Binsvanger va Boss ekzistensial nazariyasining markaziy

⁹ Boeree C. G. Viktor Frankl/ Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.8

¹⁰ Boeree C. G. Medard Boss/ Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.3

tushunchalaridan biri motivatsiyadir. Motivatsiya doim sabab va oqibat munosabatlarini to'g'ri yoki noto'g'ri tushunishni talab qiladi. Bir xil voqea turi sabablar oqibatida yuzaga kelishi mumkin, shu jumladan tabiiy omillar tufayli, lekin faqat insongina mazkur harakatni amalga oshirish, biror bir maqsadga erishish uchun motivatsiyaga ega bo'ladi. Turli individlar turli maqsadlarga erishish uchun bir xil harakatlarni amalga oshirishlari mumkin. Shu bilan birga inson tomonidan u yoki bu maqsadga erishish bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin va bu bosqichning har biri o'z oqibatiga ega bo'ladi. Umuman olganda, mazkur holatda inson motivatsiyasini tushunish inson xulq-atvori, hatti-harakatini anglashning bosh mezonini bo'ladi. Binsvanger va Boss konsepsiyasi subyekt (ruh) va obyekt (tana, muhit, materiya) o'rtasidagi dualizmga salbiy qaraydi. Ushbu fikrni birinchi bo'lib Dekart ilgari surgan va keyinchalik inson kechinmalari va harakatlarini muhit stimullari hamda tana holati nuqtai nazardan ko'rib chiqishda keng qo'llanila boshlandi. Ekzistensial nazariya individning dunyoda birligini ta'kidlaydi va bu birlikni buzuvchi har qanday qarashni falsifikatsiya va inson voqeligini yagona oqimini bo'lib tashlashga bo'lgan urinish deya baholaydi. Boss so'zlariga ko'ra, ekzistensial psixologiya maqsadi – insonning bog'liqlik strukturasi yuzaga chiqarishdir.

Ekzistensial psixologiyaning uhu yo'nalishi shuningdek, fenomenlar ortida ularni tushuntirib berishi yoki aniqlab berishi mumkin bo'lgan nimadir bor, degan farazni ham inkor etadi. U inson xulq-atvorini an'anaviy bo'lgan "Men-konsepsiya", ongsiz, psixik va jismoniy energiya, instinktlar, miya elektrik jarayonlari, arxetiplar va boshqalar orqali talqin qilishni tan olmaydi. Binsvanger va Boss fenomen mohiyatini tushuntirib berishmaydi, ular faqat fenomen borligini tan olishadi va psixologiyaning bosh vazifasini ularni chuqur yoritish, tushuntirish yoki isbotlash emas, deb aytib o'tadi. Bu tadqiqotchilar har qanday psixologik nazariyalarga salbiy munosabatda bo'lganlar, zero, nazariya ostida doim u yoki bu faraz yotadi, mazkur olimlar uchun esa inson tomonidan his qilingan, uning boshidan o'tgan va anglab yetilgan hodisalar haqiqiydir, ilmiy farazlar emas. Bu yo'nalish tarafdorlari fikricha o'rganish bu hech qanday gipoteza va stereotiplarsiz ko'ra olishdir.

Binsvanger va Boss individga xuddu buyumdek qarashga qarshi chiqdilar. Ularning fikricha, insonga bunday munosabat nafaqat

psixologiyaga insonlarni hayotdagi mavjudligi pozitsiyasidan anglash imkonini bermaydi, balkim alal oqibat shaxs degumanizatiyasi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ular insonlarning texnisizm, byurokatiya, mexanizatsiya natijasida chetga chiqib qolishi, uzlatga chekinishi va buzilishi haqida so'z yuritgan. Olimlar nuqtai nazariga ko'ra, insonlar bilan buyum kabi munosabatda bo'lganda, ular ham o'zlarini ega bo'lish, nazorat qilish, forma berish, ishlatish mumkin bo'lgan buyum deb hisoblay boshlashadi. Natijada bunday insonlar haqiqiy inson hayotini yashab o'tishga qodir bo'lmay qoladilar. Inson o'z hatti-harakati uchun erkin va ma'suldir. Boss aytadiki, erk (mustaqillik) bu insonlar ega bo'lgan nimadir emas, bu shundoq ham mavjud hodisadir. Binsvanger va Boss ekzistensial falsafasida juda katta o'rin inson o'limi mavzusiga ajratilgan. Mazkur mutaxassislar asarlarida o'lim oldidan qo'rquv hayot masalasidan kam o'rganilmagan. Binsvanger va Boss konsepsiyasining fundamental tushunchasi "dunyoda mavjudlik" (Dasein) dir.¹¹

Inson mavjudligi dunyosining 3 darajasi bor: 1) biologik yoki jismoniy atrof-muhit (landshaft); 2) insoniyat muhiti 3) insonning o'zi, uning tanasi. Inson mavjudligining mohiyati masalasiga to'xtalar ekan, Binsvanger va Boss insonlarning o'zi dunyo mohiyati ekanligini, ular o'z dunyosiga ega ekanligini, ammo doimo bu dunyo chegarasidan chiqishga harakat qilishini aytib o'tadi. Mazkur holatda, dunyo chegarasi ortidagi mavjudlik haqida so'z borar ekan, olimlar o'zga – narigi olamda yashashni nazarda tutmaganlar, balki mavjud bo'lgan muhitidan yangi dunyoga, muhitga o'tish haqida fikr yuritganlar.

3.1.9. Turli xil psixologiya maktablarining shaxs nazariyalari

G.Ayzenkning shaxs tiplari nazariyasi. Ayzenk Kettelning: "psixologiyaning maqsadi xulq-atvorni oldindan aytib berishdir", - degan fikriga qo'shilib, uning shaxsni tavsiflashda faktorli analizdan foydalanganligini ma'qullaydi. Lekin, Ayzenk faktorli analizni Kettelga nisbatan o'zgacharoq qo'llagan. Ayzenk fikricha, tadqiqot strategiyasi tadqiqotchini qiziqtirgan qandaydir shaxs xususiyatini belgilab, to'liq asoslangan ilmiy farazdan boshlanishi kerak. Unga qarama-qarshi o'laroq, Kettelning aytishicha, shaxsni tashkil qiluvchi asosiy elementlar batareya testlari handa ma'lumotlarni qayta ishlash

¹¹ Boeree C. G. Medard Boss/ Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.3

orqali namoyon qilinadi. Shunday qilib, Ayzenk nazariyasi Kettelnikiga qaraganda ancha shafqatsiz yondashuvga ega. Ketteldan farqli o'laroq, Ayzenkning ta'kidlashicha, shaxs xulq-atvori namoyon bo'lishini tushuntirish uchun uchta superbelgi (u ularni tiplar deb ataydi) zarurdir. Esingizda bo'lsa, Kettel shaxs strukturasi tashkil qiluvchi 16 ta belgi yoki faktorni belgilagan edi. Va nihoyat, Ayzenk individ rivojlanishida asosiy e'tiborni genetik omillarga qaratadi. Bu bilan, Ayzenk tashqi muhit ta'sirini inkor qilmagan, balki shaxs xususiyatlari va tiplari avvalo, irsiyatga aloqador ekanligini ko'rsatmoqchi bo'lgan. Hozirgi paytgacha, genetikaning shaxs xulq-atvoriga qay darajada ta'sir etishi aniqlanmagan bo'lsa-da, ko'p psixologlar bu borada Ayzenkning fikrlariga qo'shilishadi.¹²

Ayzenk nazariyasining mohiyati shundan iboratki, shaxs elementlari ierarxik joylashishi mumkin. Uning sxemasida (6-4 rasm) ekstraversiya singari ma'lum bir shaxs xususiyatlari yoki tiplari keltirilgan bo'lib, ular xulq-atvoriga kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, har bir keltirilgan superbelgilar bir qancha tarkibiy belgilardan tashkil topganini ko'rsatgan. Bu tarkibiy belgilar asosiy tipning yuzaki aksi bo'lishi yoki bo'lmasam, shu tipga tegishli o'ziga xos xususiyat sifatida ko'rilishi mumkin. Va nihoyat, belgilar ko'p sonli odatiy reaksiyalar dan tarkib topgan bo'lib, ular o'z navbatida, ko'plab o'ziga xos reaksiyalardan shakllanadi. Misol uchun, biron shaxsni kuzatadigan bo'lsak, agar u boshqa bir inson bilan iliq yuz va samimiy tabassum bilan qo'l uzatib ko'rishsa va bu holat har safar kim bilandur uchrashganda sodir bo'laversa, bu uning odatiy reaksiyasi hisoblanadi. Ushbu odatiy reaksiya boshqa odatiy reaksiyalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bularga misol qilib, boshqa odamlar bilan suhbatlashish, turli bazmlarga borishni yoqtirish va hakazolarni aytish mumkin. Bu odatiy reaksiyalar guruhi kirishimlilik xususiyatini shakllantiradi. Kirishimlilik bosqichida aktiv va o'ziga ishongan hatti-harakat asosiy hisoblanadi. Umumiy holatda bu xususiyatlar superbelgi yoki tipni tashkil qiladi. Ayzenk uni ekstraversiya deb ataydi.

Shaxsning asosiy tiplari. Ayzenk insonlar haqida ma'lumotlar olish uchun o'z-o'zini kuzatish, ekspert baholash, biografik ma'lumotlar tahlili, fizik va fiziologik parametrlar, shuningdek, obyektiv psixologik testlar singari ko'plab metodlardan foydalangan.

¹² Boeree C.G.G. Hans Eysenck /Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. P.5

Olingan ma'lumotlar shaxs strukturasi aniqlash uchun faktorli analizda qo'llanilgan¹³. O'zining dastlabki tadqiqotlarida Ayzenk ikki asosiy tipni ajratgan – introversiya/ekstraversiya va neyrotizm/barqarorlik (ba'zi holatlarda bu faktor beqarorlik/barqarorlik deb ham ataladi). Shaxsning bu ikki o'lchovi ortogonal bo'lib, ular statistik jihatdan bir-biriga bog'liq emas. Shunga muvofiq, insonlarni to'rt guruhga ajratish mumkin. Bunda shaxs o'zida yuqori yo quyi diapazondagi bir tip bilan yuqori yo quyi diapazondagi ikkinchi bir tip kombinatsiyasini namoyon etadi. Jadvalda ko'rsatilishicha, har qaysi tip bilan shaxs belgilarini izohlaydigan nomlar birlashtiriladi. Bu 4 guruhni ko'rib chiqishda 2 ta narsani inobatga olish kerak. Birinchidan, ikkala masofa (diapazon) tiplari me'yoriy taqsimotga ega, uzluksiz hisoblanadi va keng individual farqlar spektrini ko'rib chiqadi. Ikkinchidan, har bir tipga mos belgi ta'rifi boshqa hodisalarni o'z ichiga oladi. Ko'plab odamlar o'rta nuqtaga yaqin bo'lishga moyil – ikkala tip masofalarida – va shuning uchun jadvaldagi kabi ekstremal tavsifga uncha ega bo'lishmaydi.

Ayzenk tomonidan ikki mustaqil parametrlar asosida shaxslarning to'rt kategoriyasi ta'rifi:

Har bir kategoriya o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, introversiya va ekstraversiyaning yuqori va quyi darajasi hamda barqarorlik va neyrotizmning yuqori yoki quyi darajasi kombinatsiyasi natijasi hisoblanadi.

3-jadval

	Barqaror	Neyrotizm
Introvert	Xotirjam, muvozanatlashgan, ishonchli, nazorat qiluvchan, tinchliksevar, e'tiborli, g'amxo'r, passiv	Kayfiyati tez o'zgaruvchan. xavotirlanuvchan, rigid, mulohazali, pessimist, mahdud, muloqotchan emas, indamas
Ekstravert	Lider, beg'am, quvnoq, ko'ngilchan, hozirjavob, muloqotchan, do'stliksevar, kirishimli	Jizzaki, halovatsiz, agressiv, qo'zg'aluvchan, o'zgaruvchan, impulsiv, optimist, aktiv

¹³Boeree C. G. G. Hans Eysenck /Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.6

Jadvaldan shuni ko'rish mumkinki, introvert va barqaror shaxslar, qonun-qoidalarga amal qiladigan, g'amxo'r va e'tiborli insonlardir. Va aksincha, introvert va neyrotizm kombinatsiyasi individ hatti-harakatlarida xavotirlanish, pessimistik kayfiyat va mahdudlikka sabab bo'ladi. Ekstravert va barqaror shaxsning xulq-atvorida mehribonlik, ko'ngilchanlik va kirishimlilik ko'zga tashlanadi. Va nihoyat, ekstravert va neyrotizmga moyil shaxslarda agressiv xulq-atvor, impulsivlik hamda tez qo'zg'aluvchanlik singari xususiyatlar namoyon bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Ayzenk asosiy e'tiborini individual farqlarga qaratgan. Demak, bu kombinatsiyalar ichida birini ikkinchisidan afzallik tarafi yo'q. Ularning har birini ijobiy va salbiy jihatlari mavjuddir.

Keyinchalik Ayzenk o'z nazariyasiga shaxsni o'lchashdagi uchinchi tipni, ya'ni *psixotizm – Super-ego kuchini* kiritgan. Bu xususiyatga ega shaxslar egotsentrik, impulsiv, boshqalarga nisbatan befarq, jamiyat normalariga qarshilik qilishga moyil bo'ladi. Ular ko'pincha xavotirda bo'lishadi, insonlar bilan muloqotga kirishishga qiynalishadi va boshqalarga ko'ngilsizliklar olib kelishadi. Ayzenkning fikricha, psixotizm genetik xususiyatga ega bo'lib, bu holat ayollarga nisbatan erkaklarda ko'proq uchraydi¹⁴.

Xususiyat va tiplarning neyrofiziologik asoslari. Ayzenk ishlaridagi eng e'tiborga loyiq jihatlardan biri – bu uning shaxs xususiyatlari yoki tiplarining neyrofiziologik asoslarini topishga harakat qilishi bo'ldi. Introversiya-ekstraversiya bosh miya qobig'i aktivatsiyasi bilan bog'liq. Bu narsa elektroensefalografik tadqiqotlarda ko'rilgan. Ayzenk "aktivatsiya" terminini qo'zg'alish darajasini aniqlash maqsadida qo'llagan. Bu qo'zg'alish darajasi quyi chegaradan (uyqu holati) yuqori chegaragacha (vahimalanish holati) o'zgarishi mumkin. Uning fikricha, introvertlar o'ta qo'zg'aluvchan, ya'ni tashqi stimullarga nisbatan yuqori darajada sezgir bo'lishadi. Shu sababdan ham, introvertlar ularga kuchli ta'sir qiluvchi holatlardan qochishga harakat qilishadi. Va aksincha, ekstravertlar esa unchalik qo'zg'aluvchan bo'lmay, tashqi stimullarga nisbatan sezgir emas. Shuning uchun ham ekstravertlar doimo ularni qo'zg'ata olishi mumkin bo'lgan holatlarni qidirishadi.

¹⁴ Boeree C. G. G. Hans Eysenck /Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.7

Ayzenkning fikricha, barqarorlik-neyrotizm bo'yicha individual farqlar avtonom nerv sistemasining stimullarga bo'lgan reaksiyasi kuchini aks ettiradi. Xususan, u bu holatni motivatsiya va emotsional xulqqa ta'sir qiluvchi limbik tizim bilan bog'laydi. Neyrotizm yuqori bo'lgan shaxslarda barqaror shaxslarga nisbatan kasalliklarga, xavotirli vaziyatlarga reaksiya tezroq bo'ladi. Bunday toifa shaxslarda stimullar yo'qolishiga qaramay reaksiya uzoq muddat davom etishi ham mumkin.

Psixotizm sabablarini aniqlashga bag'ishlangan tadqiqotlar hali nihoyasiga yetmagan. Lekin shunga qaramay, Ayzenk gipotezesiga ko'ra, bu holat anrogen ishlab chiqarish tizimi (ichki sekretiya bezlari ishlab chiqaradigan kimyoviy moddalar bo'lib, qonga tushganda erkaklarning jinsiy belgilari rivojlanishi va saqlanishini boshqaradi) bilan bog'liqdir. Ammo bu sohadagi empirik tadqiqotlar juda kam bo'lib, jinsiy gormonlar va psixotizm aloqasi haqidagi Ayzenk gipotezasini tasdiqlash yetarli emas.

Ayzenk tomonidan taklif etilgan shaxs xulq-atvorining neyrofiziologik interpretatsiyasi uning psixopatologik nazariyasi bilan bog'liqdir. Turli xil simptomlar va buzilishlar shaxs nerv sistemasining funksiyasiga bog'liq. Misol uchun, yuqori darajadagi introversiya va neyrotizmga ega shaxsda obsessiv-kompulsiv buzilishlar, shuningdek, fobiyalar kabi xavotirli holatlar bilan bog'liq kasalliklarning rivojlanish ehtimoli yuqoridir. Aksincha, yuqori darajadagi ekstraversiya va neyrotizmga ega shaxslarda psixopatik (antisotsial) kasalliklarga chalinish ehtimoli kuchli. Lekin, Ayzenk shuni qo'shimcha qilib aytadi-ki, insondagi psixik buzilishlar uning genetik tuzilishining avtomatik natijasi emas. Genetik irsiylik shaxs ma'lum bir vaziyatlarga tushganda o'zini qanday tutishiga sababchi bo'ladi. Ayzenkning fikricha, psixik buzilishlar genetik asosga ega bo'ladi, lekin atrof-muhit omillari uni rivojlanishini ma'lum darajada o'zgartirishi mumkin.

Shaxs xususiyatlarini o'lchash. Kettel singari Ayzenk ham shaxsning uchta super xususiyatidagi individual farqlarni aniqlash uchun ko'plab o'zini-o'zi baholash so'rovnomalarini ishlab chiqqan¹⁵. Ularning eng oxirgisi "Ayzenk shaxs so'rovnomasi" hisoblanadi

¹⁵ Boeree C. G. G. Hans Eysenck /Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.5

(Eysenck Personality Questionnaire, EPQ). EPQ punktlaridan namunalar keyingi jadvalda berilgan. Shuni e'tiborga olish kerakki, bu so'rovnomama shaxs strukturasi shakllantirishda muhim hisoblangan mazkur uch faktorli punktdan iborat. Bundan tashqari, EPQ o'z ichiga yolg'on shkalasini ham kiritgan bo'lib, uning yordamida shaxs o'zini yaxshi ko'rsatish maqsadida yolg'on ishlatishini aniqlash mumkin bo'ladi. Shuningdek, 7-15 yoshdagi bolalarni test qilish uchun "O'smir shaxs so'rovnomasi" (Junior EPQ) ham ishlab chiqilgan.

4-jadval

Ayzenkning shaxs so'rovnomasi punktlaridan namuna

<i>Ekstraversiya-Introversiya</i>	
1. Jamoat joylarida bo'lishni yoqtirasizmi?	Ha Yo'q
2. Odamlar bilan muloqot qilishni yoqtirasizmi?	Ha Yo'q
3. O'zingizni omadli deb hisoblaysizmi?	Ha Yo'q
<i>Barqarorlik/beqarorlik</i>	
1. Sizning kayfiyatingiz tez-tez o'zgarib turadimi?	Ha Yo'q
2. Siz tez hayajonga tushadigan shaxsmisiz?	Ha Yo'q
4. Siz ko'pincha tushkun kayfiyatda bo'lasizmi ?	Ha Yo'q
<i>Psixopatiya</i>	
1. Siz uchun yaxshi xulq va ozodalik muhimmi?	Ha Yo'q
2. Siz insonlar bilan qo'pol muomalada bo'lmaslikka intilasizmi?	Ha Yo'q
3. Siz boshqa kishilar bilan hamkorlik qilishni yoqtirasizmi?	Ha Yo'q
<i>Yolg'on shkalasi</i>	
1. Siz ba'zida uyatsiz hazillar ustidan kulishni yoqtirasizmi?	Ha Yo'q
2. Bolaligingizda sizga buyurilgan ishlarni hech qanday norozilik va shikoyatlarsiz bajarganmisiz?	Ha Yo'q

Ayzenk va Kettel faktorlashtirishda turli xil shaxs so'rovnomalaridan foydalanishi, shaxsni ta'riflashda muhim hisoblangan xususiyatlar sonida farqlar yuzaga kelishining asosiy sababi hisoblanadi. Bu yerda faktorli analiz natijalari bevosita olinayotgan ma'lumotlar tipi va manbaasiga bog'liqdir. Ayzenkning shu narsaga ishshonchi komil ediki, uning ikki kriteriyasi – introversiya/ekstraversiya va barqarorlik/neyrotizm boshqa ko'plab shaxs so'rovnomalarini o'tkazgan bir qancha tadqiqotchilar tomonidan

empirik jihatdan tasdiqlangan. Ushbu nuqtai nazar to'g'ri ekanligini isbotlovchi asosiy dalillar ekstravert va introvertlar xulq-atvorini tadqiq etilishi natijasida olingan.

Introvert va ekstravertlar o'rtasidagi farqlar

Ayzenk o'zining nazariy konsepsiyalarida katta e'tiborni aniq o'lchovlarga qaratdi. Bugungi kunga qadar uning ishlarini katta qismi introversiya-ekstraversiyaga bog'liq ravishda shaxs xulq-atvorida farqlar mavjud bo'lish yoki bo'lmasligini aniqlashga qaratilgan edi¹⁶.

Ayzenkning ta'kidlashicha, xulq-atvordagi individual farqlar faktorli analiz orqali aniqlanishi, so'rovnomalar hamda laboratoriya sharoitlarida o'lchanishi mumkin.

Ayzenk nazariyasi doirasidagi test natijalari orqali olingan tadqiqotlarga ko'ra, bir qator e'tiborga loyiq faktlar keltirilgan. Masalan, ekstravertlar introvertlarga qaraganda, og'riqqa ancha chidamli bo'lib, ish paytida suhbat qurish va kofe ichish uchun ko'proq pauza qilishadi. Ulardagi qo'zg'alish harakat va faoliyatlarini samarali bo'lishini ta'minlasa, bu narsa introvertlarga to'sqinlik qiladi¹⁷.

Ekstravertlar va introvertlar o'rtasidagi ba'zi bir empirik o'rnatilgan farqlar quyida keltiriladi.

- Introvertlar nazariy va ilmiy ko'rinishga ega bo'lgan faoliyat turlari bilan shug'ullanishni yoqtirishsa (masalan, injenerlik ishlari va kimyo kabi), ekstravertlar esa insonlar bilan ishlashni ma'qul ko'rishadi (masalan, savdo-sotiq ishlari, ijtimoiy xizmat).

- Ta'lim muassasasida introvertlar ekstravertlarga qaraganda ko'proq muvaffaqiyatlarga erishishadi. Ta'lim muassasasini psixiatrik sabablarga ko'ra qoldiradigan talabalarning aksariyati introvertlar bo'lsa, akademik sabablarga ko'ra qoldiradiganlarining asosiy qismini ekstravertlar tashkil qiladi.

- Introvertlar ertalab o'zlarini ancha tetik his qilishsa, ekstravertlarda bunday holat kechqurun kuzatiladi. Bundan tashqari, introvertlar ertalablari yaxshi ishlashadi, ekstravertlar esa kunning ikkinchi yarmida.

¹⁶ Boeree C. G. G. Hans Eysenck /Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.6

¹⁷ Boeree C. G. G. Hans Eysenck /Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.6

Introvertlar va ekstravertlar o'rtasidagi asosiy farqlardan biri ularning stimullarga bo'lgan sezgirligidir. Bu farq "limon tomchisi testi" yordamida oson aniqlanishi mumkin. Agar bir odamning og'ziga 4 tomchi limon suvi tomizilsa, introvertlarda ekstravertlarga qaraganda ikki baravar ko'p so'lak ajralar ekan. Bu holat introvert va ekstravertlar fiziologik faoliyati bilan bog'liq hisoblanadi. Ayzenkning fikricha, introvert hamda ekstravertlarning stimullarga bo'lgan reaksiyasidagi farqning asosiy sababi ularning bosh miya stvolidagi retikulyar formatsiyaning faoliyatiga bog'liq.

Ayzenkning shaxsning to'liq suratini yaratishda qilgan sa'y-harakatalari tahsinga sazovordir. Ko'pchilik psixologlar uni ilmiy asoslangan shaxs strukturasi modelini yaratishda birinchi darajali mutaxassis deb hisoblashadi. O'zining har bir ishida Ayzenk, individual xulqdagi farqlarni tushuntirishda neyrofiziologik hamda genetik omillar roliga e'tibor qaratgan. Bundan tashqari, uning ta'kidlashicha, ishonchli shaxs nazariyasi yaratishdagi asos – bu aniq o'lchov ishlari hisoblanadi. Shuningdek, uning kriminologiya, ta'lim, psixopatologiya va xulqdagi o'zgarishlar sohalaridagi tadqiqotlarini alohida tahkidlab o'tish joiz. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ayzenk nazariyasining shuhrati hali bundanda yuqoriga ko'tarilib, olimlar tomonidan uni ham nazariy, ham amaliy jihatdan mukammallashtirish davom etadi.

Dj.Kellining shaxs konstruktleri nazariyasi. Djordj Kelli (1905-1966 yy.) - amerikalik psixolog, Ogayo universiteti professori. 1955 yilda nashr etilgan, o'zining asosiy ishi bo'lgan "Shaxs konstruktleri psixologiyasi" ustida Kelli 20 yil ishlagan. Uning nazariy konsepsiyasi E.Erikson, A.Maslou va boshqalar psixologlarniki singari boy amaliy va psixoterapevtik tajribaga tayanadi. Eng asosiysi, ularni bir fikr birlashtiradi. Unga ko'ra, shaxsga alohida elementlarga bo'lib bo'lmaydigan, bir butun tizim sifatida qarash kerak. Shunga qaramasdan, Kellining nazariyasi psixoanaliz va gumanistik psixologiya doirasida ishlab chiqilgan klassik ishlardan ajralib qoldi¹⁸.

Har bir shaxs nazariyasi o'zining konkret tushuntirish prinsipi ga asoslangan markaziy nuqtasiga ega. Misol uchun, psixoanalizda markaziy tushuncha – bu "ongsizlik ta'siri" hisoblanib, shaxs modeli

¹⁸ Boeree C. G. George Kelly/Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.3

ikki asosga ko'ra quriladi. Bular ongsizlik holati va jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalaridir. Z.Freyd instinktiv kuchlar (ong osti, ong oldi va ong) shakllanish darajasiga e'tibor qaratib, shaxs podsistemasini uchga bo'ladi (Id, Ego, Super-Ego). Shaxs dinamikasi ong osti faoliyat natijasi hisoblanadi. K.Rodjers nazariyasining asosini shaxs o'zi haqida tasavvurga ega bo'lishi va o'z-o'ziga baho berishi tashkil etsa, K.Levinda esa maydon tushunchasi yetakchi o'rinda turadi. Ko'pchilik zamonaviy psixologlar uchun shaxs tahlilining asosiy obyekti – shaxsning motivatsion sohasi, uning yo'nalganligi, prinsipi esa psixik determinatsiya hisoblanadi.

Ba'zi bir ishlarda shaxsning individual xususiyati sifatida barqaror kognitiv strukturalari qabul qilingan. Bu – shaxs bilish jarayonining tarkibiy elementi hisoblanadi.

Odatda, an'anaviy shaxs konsepsiyalarida kognitiv (ong oldi) xarakteristika boshqa tushunchalar yordamida ifodalangan. Bir necha o'n yillar avval Amerika, shuning bilan birga jahon psixologiyasining bir qismini bixeviorizm maktabiga tegishli deb hisoblashgan. XX asrning 50-yillaridan chet el psixologiyasida psixika tuzilishining asosi ong deb qaralgan. Shu bilan birga, G'arbda eksperimental psixologiya sohasida yangi yo'nalish – kognitiv psixologiya vujudga kelishi bilan bog'liq o'ziga xos revolyusiya sodir. Bilish jarayonlari – idrok, tafakkur, diqqat va xotira bilan bog'liq tadqiqot ishlari soni ko'paydi.

Psixologiyaning predmet va metodlari yangicha talqin etila boshladi. Kognitivistlarning fikricha, shaxsning xulq-atvorini uning bilimlari boshqaradi. Bilimlar rolini ajratish tadqiqotchilarning umumiy yo'nalishini belgilab berdi. Endi tashqi shart-sharoitlar va stimullarni tasniflash birdan bir maqsad bo'lmay, bilimlar tizimini, ya'ni obyektlar, holatlar va boshqa insonlarning ichki reprezentativlari (tasavvurlari)ni namoyon qiluvchi vosita sifatida chiqdi.

Shunday qilib, kognitiv psixologiya, zamonaviy psixologiyaning yetakchi yo'nalishlaridan biriga aylanib, bixevioristlar tomonidan psixologik jarayonlar shakllanishining ichki strukturasini rad etilishi va psixoanaliz tomonidan shaxs faoliyatida bilinning rolini pasaytirilishiga qarshi reaksiya sifatida vujudga keldi.

Kognitiv psixologiya psixik jarayonlar kechishidagi va shaxs xulq-atvoridagi bilimlar, kognitiv strukturalar va sxemalarning hal qiluvchi rolga asoslangan holda shakllanadi. Kognitiv psixologiya rivojlanishining birinchi bosqichi D.Brodhent, U.Naysser, R.Atkinson

va boshqa olimlar tadqiqotlari bilan bog'liqdir. Dj.Bruner, S.Shexterlar emotsiyaning kognitiv nazariyasi asoschilari hisoblanadi. Ayzenk esa individual farqlarning kognitiv nazariyasini taklif etgan bo'lsa, Dj.Kelli, M.Makoni va Tomslar shaxs muammolari bilan shug'ullanishgan.

Biz faqat Dj.Kellining shaxs kognitiv nazariyasiga to'xtalib o'tamiz. U yerda shaxs konstruktlar sistemasi sifatida talqin etiladi.

"Ong" kategoriyasi ichidagi xulq-atvor ko'rsatkichlari sifatida yo bizning tasavvurlarimiz tarkibi (o'z-o'zini baholash, sotsial tarkib), yoki bo'lmasam ongning formal xarakteristikasi (kognitiv maydon strukturasi, kognitiv balansning mavjudligi yoki dissonans) qabul qilinadi. Ongning formal xarakteristikasi (masalan, kognitiv dissonans, konsonans) bilan Leon Festinger shug'ullangan. U ishlab chiqqan maxsus nazariyaga ko'ra, individning ongida biron-bir obyekt yoki hodisa haqida qarama-qarshi ma'lumotlarga duch kelinsa, unda noqulaylik hissi vujudga keladi. Subyekt bu noqulaylikdan qutilish uchun ushbu obyekt haqidagi bilimlarini qaytadan yangilashga, yoki bo'lmasam o'zining sotsial ustanovkalarini o'zgartirishga intiladi. Qarama-qarshilikdan qutilish konsonans holatiga olib keladi.

Kellining konsepsiyasi kognitiv deb nomlanishiga, unda insonning unga ta'sir qiluvchi stimullarni idrok etishi, ushbu stimullarni o'z xulq-atvorida talqin qilish va o'zgartirish yo'llari e'tiborga olinishi sabab bo'lgan. L.Festingerdan farqli o'laroq, Dj.Kelli ongning nafaqat formal, balki mazmuniy xarakteristikasini tadqiq qilishga harakat qilgan¹⁹.

U o'zining tadqiqot metodi va nazariyasini ishlab chiqishga 20 yildan ko'proq vaqt sarflagan. 1955 yilda uning "Shaxs konstruktleri psixologiyasi" nomli kitobi nashrdan chiqqanida unchalik muvaffaqiyatga erisholmagan. Chunki, o'sha paytda faqat kamdankam nazariyalardagina psixika analizi birligi sifatida "kategoriya" tushunchasi ishlatilgan (ularning ichida I.Tolmen va Dj.Brunerlar bo'lgan). Hozir esa shaxs konstruktleri nazariyasi psixologiyadagi asosiy fundamental nazariyalardan biri hisoblanadi.

Kellining fikricha, insonning bilish bilan bog'liq faoliyati real faktlarning klassifikatsiyasi hamda interpretatsiyasi bilan boshlanadi.

¹⁹ Boeree C. G. George Kelly/Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.4-5

oxirgisi o'z holicha emas, balki faoliyat subyektiga bo'lgan munosabatidagi reallik sifatida o'rganiladi. Interpretatsiya tushunchasining o'rniga, u "konstruktlash" so'zini ishlatadi. Inson faktlar ma'noga ega bo'lgan konstruktlar sistemasidan foydalangan holda reallikni konstruktlaydi (uni tushuntiradi, talqin qiladi). Allaqachon qurib bo'lingan konstruktlar sistemasiga asoslanib, inson voqea va hodisalarni prognoz qilishga harakat qiladi. Shaxs psixikasining asosiy funksiyasi – kelajakni prognoz qilish hamda xulq-atvorni boshqarish maqsadida realikni tadqiq etishdir. Dj.Kelli nazariyasining asosiy postulati ham aynan shunda.

Konstrukt tushunchasi. Shaxs mohiyatini interpretatsiya qilish uchun maxsus analiz birligi – konstrukt ishlatiladi. "Konstrukt" termini tushuncha so'ziga o'xshash bo'lib, materialni umumlashtiradi va voqea-hodisalarni oldindan aytib berish imkonini yaratadi.

Ilmiy tushuncha – bu aloqaning mantiqiy tasdig'i bo'lib, deduksiya yo'li bilan hodisalarning haqiqiy aloqasini tushuntirib berish mumkin. Ilmiy tushunchaning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- voqea-hodisalarni umumlashtirish;
- ular o'rtasidagi aloqani tasdiqlash;
- yangi hodisalarni oldindan aytib berish imkoniyati.

Shaxs konstrukt tushunchasi Kelli tomonidan kiritilgan.

Shaxs konstrukt alohida olingan mavjud narsalardagi o'xshashlik va ularning boshqa elementlardan farqli jihatlarini namoyon etishi bilan xarakterlanadi. Konstruktlar bipolyar tushunchalar shakliga ega (oq-qora, egoist-altruist va b.). Shunisi bilan ular ilmiy tushunchadan ajralib turadi. Bundan tashqari, ilmiy tushuncha tabiatda mavjud bo'lgan voqea-hodisalarga tegishli bo'lsa, shaxs konstruktleri esa subyekt tomonidan yaratilgan hisoblanadi.

Konstrukt – tajribani mantiqiy shakllantirish vositasi. U shakllanadigan va tushuntirishda foydalaniladigan elementlar turli xil predmetlar, ularning xususiyatlari, shuningdek, odamlar va ularning munosabatlari bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, konstruktlar olamni tushuntirish usuli va vositasi hisoblanadi. Turli hil faktlar kuzatuvchi nuqtai nazariga, uning konstruktlariga muvofiq qarab chiqiladi. Masalan, baland va past, mehribon va yovuz odamlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni tasdiqlash konstrukt shakllanishiga olib keladi.

Konstruktlarning paydo bo'lishi va ularning tiplari. Konstruktlar shakllanishining umumiy usuli shundan iborat-ki, unga ko'ra ularning tashkil topishi uchun uch element zarurdir. Bu elementlardan ikkitasi o'xshash, uchinchi esa ulardan farqli bo'lishi kerak. Ikki elementning o'xshashlik belgisi – o'xshashlik qutbini, ularning uchinchi elementga qarama-qarshi belgisi esa kontrast qutbni shakllantiradi. Bu yerda elementlar – olamdagi mavjud narsalar va obyektlar. Obyektlar turli xil xususiyatlarga ega bo'lib, ularni tushunish subyekt tomonidan tanlangan konstruktg bog'liqdir.

Konstruktlar uch turga bo'linadi:

- 1) cheklangan;
- 2) konstellyator;
- 3) propozitsional.

Cheklangan konstrukt – elementlarni faqat konstruktning o'z ichidagina tushuntirishga imkon beradi. Misol uchun, agar bu – kitob bo'lsa, demak bu faqat kitobdir.

Konstellyator konstruktlar – uning elementlari bilan bog'liq qanchadir miqdordagi muqobillarni qayd etadi. Bu turdagi konstruktlar stereotip tafakkurni ta'minlaydi: “agar bu kitob bo'lsa, u holda u bir qancha sahifalar va matnlardan iborat bo'lib, ustida muqovasi bo'ladi”.

Propozitsional konstruktor alohida xususiyatlarni boshqa elementlarga tegishli hisoblamaydi. Shu konstruktor hisobiga obyektga nisbatan falsafiy yondashuv ifodalanadi: “Kitob – bu bilim manbai”.

Konstruktlarning asosiy xarakteristikasi

Konstrukt bipolyarligi hamda qo'llanilish diapazoni va individualligi bilan xarakterlanadi.

Konstruktning bipolyarligi, uch element o'rtasida o'xshashlik va farqlarni topish yo'li bilan olingan ikki qutbning mavjudligini ifodalaydi. Konstruktning qutblari individual bo'lib, ular bir-biriga aynan antonimdek qarama-qarshi bo'lishi shart emas. Shunday qilib, bir shaxsdagi “beparvolik” qutbiga qarama-qarshi qilib “qayg'urish”, “rahumdillik” qutblarini, boshqasida esa aynan “beparvolik”ka – “emotsionallik”, “zavqlanish”ni ko'rsatish mumkin. Shaxs konstruktlarini namoyon etishda sinaluvchida qutblardan birining verbalizatsiyasida qiyinchilik tug'ilishi mumkin. V.V.Stolin ta'kidlashicha, bir qutbli konstruktlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z ongida boshqa bir voqea-hodisa tafakkur jarayonidan tashqariga

chiqarib yuboradi. Dj.Kellining fikricha, bu yashirin konstruktlar bo'lib, ongda namoyon bo'lmaydi.

Qo'llanilish diapazoni – bu ushbu konstrukt yordamida talqin etilishi mumkin bo'lgan obyektlar.

Individuallik shaxsning anglashi bilan bog'liq bo'lib, shaxs reallikning aktiv tadqiqotchisi sifatida tayyor bilimlarni shunchaki o'zlashtiribgina qolmay, ularni tadqiq etadi, konstruktlaydi hamda gipotezalar chiqaradi. Hodisalarni effektiv talqin eta oladigan konstruktlar saqlani, effektiv bo'lmaganlari esa buzilib ketadi. Har bir shaxs o'zining shaxsiy, unikal konstruktini yaratadi.

Bundan tashqari, har bir konstrukt o'zining fokusi va maydoniga ega bo'lib, uni chegarasidan tashqarida prognoz uchun ishlatish effektiv hisoblanmaydi. Konstrukt maydoni – inson ushbu konstrukt yordamida talqin qiladigan barcha voqea-hodisalardir. Fokus esa mazkur konstrukt yordamida tavsiflash effektli hisoblangan voqea-hodisalar bo'lib, yanada aniq prognoz qilishga olib keladi.

Konstruktlar tizimining rivojlanishi

Kellining fikriga ko'ra, har qanday konstrukt motiv va bilish jarayonlarining rolini bajaruvchi funksiyaga ega bo'lib, hodisani oldindan aytib berishga xizmat qiladi. Konstruktlash va prognozlashning aloqasini tasdiqlash – shaxs konstruktleri psixologiyasining markaziy bo'g'ini hisoblanadi.

Konstruktiv tizimni takomillashtirishning ikki xil yo'nalishi bo'lib, ulardan biri aniqlash prinsipiga ko'ra, ya'ni kam sonli hodisalar haqida aniq fikrga ega bo'lish bo'lsa, ikkinchisi kengaytirish prinsipiga ko'ra, hech bo'lmaganda noaniq tasavvurlar bo'lsa ham, lekin narsalar doirasi yetarlicha keng bo'lishi kerakligi haqidagi ustanovkalar shakllanadi.

Tajriba yig'ish yangi konstruktlar shakllanishi hisobiga amalga oshadi. Sotsial o'zaro ta'sir jarayonlari konstruktlar o'zgarishining asosiy sababi sifatida ko'riladi va bunda konstruktlar o'zgarishi xulq-atvor o'zgarishiga olib keladi.

Konstruktarning o'zgarish xarakteri ularning o'tkazuvchanligiga bog'liqdir. O'tkazuvchan konstruktlar deb, ularga yangi elementlar joriy etilishi mumkin bo'lgan konstruktlar tushuniladi. O'tkazmas konstruktlardan o'tgan voqealarni tushuntirishda foydalaniladi.

Repertuar panjaralar testi

Shaxs konstruktleri diagnostikasida repertuar panjaralar testi qo'llaniladi²⁰. Testning birinchi bosqichida tadqiq etiluvchi qism tanlanib, obyektlar nabori (elementlar repertuari) beriladi. Elementlar tadqiqot vazifasiga ko'ra turlarga bo'linadi. Bu konkret elementlar nabori (real insonlar ismi, adabiy qahramonlar, predmetlar nomi, rasmlar), rollar ro'yxati (ota, ona, Men 10 yildan so'ng, ijobiy baholanuvchi erkak va b.) yoki tadqiq etilayotgan mavzuga oid boshqa ixtiyoriy elementlar sanab o'tilishi mumkin. Elementlar soni 8 tadan kam va 25 tadan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida konstruktlar aktualizatsiyasi qo'llaniladi. Bunga misol qilib, triad metodi yoki minimal kontekst metodini aytish mumkin. Repertuar to'plamdan 3 ta element tanlanadi. Har bir uchtalikda 2 ta o'xshash obyekt ajratiladi va ularning o'xshashlik belgisi aytiladi. Keyin uchinchi obyektning avvalgi ikkisidan farqli jihati topiladi. Agar elementlar kam bo'lsa, 30 ta uchtalikdan keyin kamdan-kam holatda yangi konstruktlar chiqishi ehtimolligini hisobga olgan holda uchchallasini ham olish mumkin. Elementlarning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlovchi parametrlar konstruktarning qutblari hisoblanadi.

Test natijalarini analiz qilishda konstruktarning mazmuniy tomoni, ularning soni va bir-biri bilan aloqasi hisobga olinadi. Konstruktlar ierarxik sistema bo'lib shakllangan va ikki prinsipga ko'ra o'zaro bo'ysunadi:

a) qismaniy o'zaro bo'ysunish. Bunda bo'ysunuvchi konstrukt qutbi o'zidan yuqori ierarxiyadagi konstrukt qutbining bir elementi sifatida namoyon bo'ladi ("aqli-axmoq" konstrukt o'z qutblari bilan "yaxshiyomon" konstrukt ichiga kiradi);

b) ko'ndalang – bo'ysunuvchi konstruktning ikkala qutbi o'zidan yuqori konstrukt qutblaridan birining tarkibiga kiradi ("aqli-axmoq" konstruktning ikkala qutbi "baholovchi-tavsiflovchi" konstruktning "baholovchi" qutbiga kiradi).

Shaxsiy jarayonlar konstruktlar boshqaruvi orqali yo'naladi va ular hodisalarni oldindan ko'ra bilishga xizmat qiladi. Bu sistema harakatchan, o'zgaruvchan, lekin strukturalashgan hisoblanadi. Har bir

²⁰ Boeree C. G. *George Kelly/Personality Theories*. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.14-15

konstrukt o'zida ikki yo'nalishda harakat qila olish mumkin bo'lgan bir ko'cha singari namoyon bo'ladi. Yangi konstrukt yangi harakatni belgilab beradi. Stress holatida inson yangisini qo'llamay, eski konstrukt yordamida boshqa yo'nalishda harakat qiladi.

Konstruktlar va boshqa psixik hodisalar

Shaxs yadrosi konstruktlar sistemasi tomonidan ko'rsatilgan. Boshqa barcha – shaxsiy va bilish xususiyatlari – bevosita konstrukt fenomeni orqali tavsiflanadi. Shunday qilib, bezovtalik holati konstruktlar o'zgarishi natijasida vujudga keladi, deb qaraladi. Konstruktiv sistemaning biron hodisaga fokusirovkalanishi diqqatni anglatasa, konstruktiv sistemaga bog'langan hodisa – xotira, strukturalanmagan hodisa esa unutishni bildiradi.

Kelli shaxsni ong va prognozlashtirishning dastlabki faol subyekti sifatida qarab, unda motivatsiya tushunchasidan foydalanmaydi. Bu termin, uning fikricha, shaxs qachonki tadqiqotchi tomonidan passiv mavjudot sifatida qaralsagina ma'noga ega bo'ladi.

Oxirgi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, konstruktiv tizim shaklanishining murakkabligi berilayotgan stimullarning murakkabligiga bog'liqdir. Bunda bola va kattalar o'rtasidagi munosabatlar muhim rol o'ynaydi. Lekin hanuzgacha bolaning konstruktiv tizimi rivojlanish jarayoni to'liq ochilmagan.

Shaxsni rekonstruksiya qilishda mijoz bilan psixoterapevtik ishni amalga oshirish muhimdir. Kellining fikricha, psixoterapiyaning maqsadi – konstruktlar tizimini qayta tiklashdir. Bu tiklanish keyinchalik faoliyatda, tadqiqot jarayonida va reallikni prognoz qilishda sinovdan o'tadi²¹.

3.2. Deviant axloqqa ekzistensial-gumanistik yondashuvlar

Biz xulq-atvor deviatsiyalarining shakllanishiga ko'maklashuvchi ijtimoiy va biologik shart-sharoitlarini o'rganib chiqib, natijada shaxs og'ma xulq-atvorining psixologik mexanizmlari masalasida alohida to'xtalib o'tmoqchimiz. Nima uchun bir sharoitda odamlar turli xulq-atvorni namoyish etadilar (nafaqat oddiy insonlar, balki genetik o'xshash egizaklar ham)? Qanday psixologik mexanizmlar deviant xulq-atvorni harakatga keltiradi va qo'llab quvvatlaydi? Qanday shaxs

²¹ Boeree C. G. GeorgeKelly/Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997. – P.13.

sifatlari va tuzilmalari og‘ma xulq-atvor uchun javobgardir? Nihoyat, qanday shaxs sifatleri xulq-atvorda chetlashish shakllanishiga to‘sqinlik qiladi? Ushbu bobda biz shaxs og‘ma xulq-atvorining mohiyatini yoritib beruvchi yetakchi psixologik konsepsiyalardan foydalangan holda, qo‘yilgan savollarga aniq javob berishga harakat qildik.

Shaxs va uning xulq-atvorini insonning tub xarakteristikallari aspektida ko‘rib chiquvchi, ekzistensial-gumanistik yondashuvni tahlil qilar ekanmiz, bu borada avstriyalik psixiatr va psixolog V.Franklning (1905-1997) konsepsiyasi bu borada katta qiziqish uyg‘otganligini ko‘rishimiz mumkin. V.Franklning fikricha, o‘ziga xos insoniy xususiyatlar - bular avvalo, ma‘naviyat, erkinlik va ma‘suliyat hisoblanadi. Insonning ma‘naviy boyligi, qadriyatlar olamida o‘zini erkin anglagan holda oqilona turmush tarzini tahmin qiladi (albatta uning hayotidagi obyektiv holatlarni inobatga olgan holda), buning uchun inson o‘z vijdoni va Ollah oldida javobgarligidir. Xulq-atvor muammolari yuqorida ko‘rsatilgan sifatlar tanqisligi yoxud ma‘naviyatsizlik namoyishlari bilan uzviy bog‘liqligi mavjud.

V.Frankl fikricha, insonlardagi fundamental motivatsion kuch – bu ma‘no-mazmunga qarab intilish hisoblanadi. Insonlar nima uchun yashashi kerak va hamma narsada ma‘no-mazmun topishga harakat qiladilar? “Ma‘no-mazmunni berib bo‘lmaydi, uni topish kerak”, chunki u har bir inson uchun noyob hisoblanadi va faqatgina o‘zi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Agar inson o‘zidan tashqari boshqa hech narsada ma‘no-mazmun topa olmasa, ekstremal vaziyatdan sog‘-omon chiqish uchun hech qanday imkon, ma‘no va maqsad yo‘qdir. Giperrefleksiya (me‘yoridan ko‘p o‘zini refleksiyaga oldirib qo‘yish) va giperintensiya (o‘z xohishini qondirish uchun me‘yoridan ko‘p e‘tibor berish) - inson tomonidan o‘zining “Menlik” doirasidan chiqmaslik uchun qo‘llaydigan ikkita asosiy usul bor. O‘zidan tashqari biror narsada ma‘no-mazmun topish uchun uchta har xil usul bor:

- 1) hayotda nimadir qilish, nimadir berish (ijod mahsuli);
- 2) hayotdan nimadir olmoq (kechinmalar ahamiyati);
- 3) taqdirga nisbatan ma‘lum munosabatda bo‘lish. masalan: o‘zgartirib bilmaslik, og‘ir kasal bo‘lgan vaziyatda (munosabatlar ahamiyati).

Bundan tashqari, o'tmishdagi kechinmalar va din - ushbu ikkita sohada inson ma'no-mazmunni topa olishi mumkin.

O'sha vaziyatda, ma'no-mazmunga (mohiyat) intilish, nimadir bilan to'silgan bo'lsa, ekzistensial frustratsiya holati paydo bo'ladi. Apatiya va zerikish - uning asosiy belgilari. Ekzistensial frustratsiya o'zidan o'zi na patalogik, na patogen hisoblanadi. Odamlarning behuda hayoti, ma'no-mazmunni qidirish bilan bog'liq xavotirlanishi, hattoki ularning nochorligi, bular hammasi - kasallik emas, balki ma'naviy ofatdir. Hayotning ma'no-mazmunsizligini his etish, bir paytning o'zida intellektual samimiylig va haqiqatparvarlik belgisi.

V.Frankl fikricha, shaxsning anomal va normal holati, uning hayot, o'lim va o'z taqdiriga munosabati bilan belgilanadi. V.Frankl ta'kidlaganidek, "Azob-istirob, gunohkorlik va o'lim - inson borlig'ining ajralmas uchligi bo'lsa ham, hayot ma'no-mazmunini kamaytirmaydi, balki biror bir ijobiy narsaga ham aylanib ketishi mumkin". Ma'no-mazmunni amalga oshirib, inson o'zini ko'rsata oladi. "Azob istirobdagi ma'no-mazmunni amalga oshirib, biz insondagi eng insoniy xislatlarni ro'yobga chiqaramiz".

Anomal shaxs pozitsiyasi V.Frankl tomonidan fatalistik deb belgilangan. Bu holatda inson o'zini qadriyatlarini anglab olishda mas'ul deb hisoblamaydi, shunday ekan o'z hayotining faol ishtirokchisi sifatida ham qabul qila olmaydi. Natijada u turli ijtimoiy, tabiiy va psixologik determinantlarga, o'z hayot yo'lini aniqlashda inkoniyat yaratib beradi. Insonni o'zi esa bo'shliq, mazmunsizlik va nochorligini sezishidan azoblanadi. Ichki bo'shlik holatini V.Frankl - ekzistensial vakuum (bo'shliq) deb atagan. Ekzistensial vakuum va ekzistensial frustratsiya - maxsus "noogen nevrozlar"ning bevosita sababidir. V.Frankl e'tirof etganidek, "noogen nevroz - ma'naviy muammo, yetik yoki axloqiy mojarodan paydo bo'ladi".

Ekzistensial vakuum (bo'shliq) ba'zi bir insonlarda nafaqat, nevroz va mazmunsizlik hissini, balki depressiya, giyohvandlik va agressiya kabi ijtimoiy ofatlar paydo bo'lishiga olib keladi, bularni muallif "jamoaviy nevrozik uchlik (triada)" deb atagan. Masalan, V.Frankl fikricha, depressiya natijasi bo'lmish o'z joniga qasd qilish 85 foizga ekzistensial frustratsiya natijasidir. Giyohvandlikka esa, mazmunli va aniq maqsadli hayot kechirayotgan insonlarga nisbatan, ko'proq juda past hayotiy maqsadlari mavjud bo'lgan (yoki maqsadsiz hayot kechirayotgan) insonlar chalinadilar. Bo'shliq va mazmunsizlik

hissiyoti egallab olganda, insonlarda agressiv holat paydo bo'ladi. V.Frankl ta'kidlashicha, ekzistensial vakuum va ekzistensial frustratsiya yildan yilga ancha keng tarqalib bormoqda. Yoshlarga ibrat bo'la oladigan ijobiy obrazlar tanqisligi seziladi (o'z hayotida ma'no-mazmun topa olgan tarbiyachilar va ibratli shaxslar).

Shunday qilib, V.Frankl ta'limotiga muvofiq, og'ma xulq-atvor – odamlar ma'no-mazmun topish uchun javobgarlikdan qochib, o'z ma'naviyatini ezib qo'yish natijasida paydo bo'ladi. Og'ma xulq-atvorga ega insonga yordam berish - bu uning ma'anaviy "menligini" anglash, o'z taqdiri uchun ma'suliyatini sezishdir, keyinchalik o'z borlig'ining ma'no-mazmunini anglab yetishdir.

Ekzistensial psixologiya bilan chambarchas bog'liq gumanistik nazariyalaridan biri, bu K.Rodjersning (1902-1987) mijozga yo'naltirilgan psixologiya (psixoterapiya) nazariyasidir. Ushbu tizimda asosiy o'rin "o'zlik" va "o'zini faollashtirish" tushunchalariga ajratilgan. O'zlik yoxud "Menlik" konsepsiyasi – bu hayoti davomida doimiy o'zgarib turadigan va tajriba mahsuli bo'lmish, insonning o'zi haqida tasavvurlar majmuidir. O'zini faollashtirish esa - shaxsda mavjud bo'lgan potensial imkoniyatlariga muvofiq, shaxsning o'sishiga va rivojlanishiga intilishdir. Insondagi o'zini faollashtirish tendensiyasi yaqqol namoyon bo'ladi va bu shaxsning farovonligi belgisidir. O'zini faollashtiruvchi shaxs bir qator xususiyatlarga ega: yangi tajriba orttirishga ochiqligi, o'z organizmiga ishonch, nazorat etishning ichki lokusi (mustaqillik, erkinlik, javobgarlik), jarayonda ishtirok etishga intilish (o'sish va rivojlanish). Normal (sog'lom) shaxs - o'zini faollashtiruvchi shaxs idealiga yaqindir.

Anomal shaxsda o'zini faollashtirish jarayoni zaiflashgan bo'lib, faqat imkoniyat darajasida mavjuddir. K.Rodjers fikricha, asosiy to'siqning ildizi shartli qadriyatlar tizimidadir. Shartli qadriyatlar faqatgina, qandaydir shartli ideallar bilan muvofiqlik holatidagina insonni o'ziga va boshqalarga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga undaydi. Shartsiz ijobiy munosabat holatida inson - oliy qadriyat sifatida qabul qilinadi va hech qanday ideal talablari va shartlariga javob berishi shart emas.

Maqsadli qadriyatlar bolalik chog'ida oilada shakllanadi, masalan, ona, bolaning muhabbat va hurmatga bo'lgan ehtiyojini qo'llagan holda, biror bir aniq topshiriqni bajarmasligi tufayli bolaga nisbatan salbiy munosabat bildiradi. Keyinchalik bolaning o'ziga nisbatan

hurmati ona tomonidan singdirilgan qadriyatlarga va ularga munosib bo'lish qobiliyatiga bog'liq bo'lib qoladi. Singdirilgan shartli qadriyatlar ta'sirida bo'la turib, shaxs o'zi sezmaganda holda shaxsniqobiga aylanib qoladi.

Shunday qilib, me'yorida rivojlanishi uchun inson o'z fikrini ifoda etish tajribasiga ega bo'lishi lozim. Aksincha, o'zi haqida yolg'on, nohaq yoki noto'g'ri tasavvurlar, qarama-qarshi tajriba, o'zini joriy etish talabi va tashqi baholashdan qaramlik o'rtasidagi ichki mojaro, - bularning hammasi muayyan muammoli xulq-atvorni keltirib chiqaradi. Demak, shaxs va xulq-atvor muammolarini yechish uchun maxsus sharoitlar yaratib, faollashish jarayonini qo'llab quvvatlash zarurdir. Masalan, mijozga yo'naltirilgan terapiya jarayonida – bu shaxsга nisbatan chindan qiziqish, insonni shartsiz ijobiy qabul qila olish, unga baho berish munosabatida bo'lmaslik.

Shaxs o'zini faollashtirish tushanchasi A.Maslou (1908-1970) uchun ham asosiy deb hisoblanadi. Uning qarashlariga binoan, inson yaxlit tizim sifatida ijtimoiy sharoitlar ta'siri ostida amalga oshirilib, tug'ma ehtiyojlariga muvofiq faoliyat yuritadi. Ehtiyojlar pastdan yuqoriga qarab ierarxiya tashkil etadi:

1. Fiziologik ehtiyojlar;
2. Xavfsizlik ehtiyojlari;
3. Ijtimoiy ehtiyojlar;
4. Hurmat va e'tibor ehtiyojlari;
5. O'z o'zini optimallashtirish (imkoniyatlarini ishga solish) ehtiyojlari.

Yuqori ehtiyojlar, faqatgina pastlari qoniqtirilganda, faollashadi. O'zini faollashtirish qobiliyat sifatida ko'pchilik insonlarda mavjud, ammo kamchilik shaxslarda u ma'lum darajada amalga oshirilgan bo'ladi. Bunday insonlar, o'zini faollashtiruvchi shaxslar - me'yorida rivojlanish namunasi sifatida qabul qilinadilar, chunki inson borlig'ini maksimal darajada namoyish eta oladilar.

O'zini faollashtirish konsepsiyasidan quyidagi xulosalar kelib chiqadi. Og'ma xulq-atvorning sabablaridan biri, o'zini faollashtirishga to'siq bo'lishi mumkin. Bu esa tayanch ehtiyojlarni frustratsiyasini bildirishi mumkin (ularni qondirish yo'lidagi to'siqlar); past darajadagi ehtiyojlarga individual yondashish, yuqori ehtiyojlarni rivojlanmasligi yoki yomon ijtimoiy sharoitlar. Agar turli sabablar tufayli ma'naviyat, ijod va muhabbat orqali me'yorida o'zini

faollashtirish imkoni bo'lmasa, uni deviant xulq-atvor orqali o'zini namoyish etish bilan almashtirishi mumkin.

E.Fromm (1900-1980) tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan g'oyalar bilan hamohangdir (uning "neofreydizmga" rasmiy tegishligini inobatga olmasak). E.Fromm fikricha, inson o'zi va tabiat o'rtasida uyg'unlikka intilib, ekzistensial qarama-qarshiliklarni yengib o'tishga majburdir. Bu - hayot va o'lim dixotomiyasi; bor imkoniyatlarini amalga oshirishga intilish va bu uchun hayot qisqaligi va uning o'rtasidagi nizodir; yolg'izlik hissiyoti va boshqa insonlarga yaqinlik o'rtasidagi qarama-qarshilik.

Ushbu obyektiv qarama-qarshiliklarni inson bartaraf eta olmaydi, ammo ularga nisbatan turlicha munosabat bildirishi mumkin. Inson o'zini dunyoga qarshi chiqishini, yolg'izlik va kuchsizlik hissiyatini turli mexanizmlar yordamida yengib o'tadi. Bu mexanizmlar "erkinlikdan qochishga" olib keladi. Ular, "pozitiv erkinlikka" - muhabbat va mehnat orqali dunyo bilan haqiqiy aloqaga qarshi chiqadilar.

E.Fromm birinchi mexanizmni "avtoritar" deb belgiladi. Avtoritar shaxs erkinlik yuki, erkinlik va o'zining "menligidan" voz kechadi. Ushbu tip ko'proq totalitar davlatlarda kuzatiladi, ko'pchilik o'z lideri bilan simbiotik tarzda birlashadi. Ikkinchi mexanizmi - avtomatlashtiruvchi konformizm, bu holatda inson o'z individualligini yo'qotib, ijtimoiy sifatida taklif etilgan shaxs tipini to'liq o'zlashtirib oladi. Uchinchi yo'l - destruktivizm - dunyoni buzish orqali undan uzoqlashishi bilan bog'liq. Sadizmdan farqliroq, destruktivizm hukmronlikka intilmaydi, ammo u bor tiriklikni o'likka aylantiradi.

Shunday qilib, ekzistensial psixologiya o'zini faollashtirish va ma'naviy turmush kabi inson shaxsining yuqori namoyishlariga urg'u beradi. Ma'naviy turmush shaxsiyat chegarasidan chiqishni nazarda tutadi. U insoniy qadriyatlarda o'zini anglash, individuallik va o'zini namoyish eta olish muhimligini tan olish bilan bog'liqdir. U erkinlik, ma'suliyat, burch, mehr-shavqat, hurmat, qiziqish, muhabbat, ishonch, ijod quvonchi kabi yuqori darajadagi hissiyotlarda namoyon bo'ladi. Deviantlik holatida biz mutlaqo boshqa manzarani kuzatamiz. Shuning uchun og'ma xulq-atvorni shubhasiz, shaxsning ekzistensial muammolari va uning ma'naviy rivojlanishida buzilishlar mahsuli sifatida ko'rib chiqish mumkin.

3.3. Og‘ma xulq-atvorning psixodinamik aspektlari

Z.Freyd (1835-1939) psixoanalizidan kelib chiqqan psixodinamik nazariyalar inson xulq-atvorining ongsiz mexanizmlarini ochib beradi.

Og‘ma xulq-atvorni psixoanalitik atamalar yordamida sharhlash, eng avvalo psixik hayotning modellari va asosiy tushunchalari haqida ma‘lumot berishni talab qiladi.

Dastavval shaxs rivojlanishi haqida Freyd nazariyasi, biologik asoslangan va ichki ehtiyojlar – instinkt jarayonlarini birlamchiligini ta’kidlagan. Z.Freyd ikkita asosiy instinkt turini farqlab ko‘rsatadi: hayot instinkti va o‘lim instinkti. Agressiv instinkt esa o‘lim instinktinin asosiy namoyishi va mahsuli deb tan olingan, agressiyaga moyillik esa - barcha insonlarga xos, yakunlovchi instinktiv tendensiyadir.

Z.Freyd inson hayotida ong va ongsiz tushunchalarini ajratdi. Ongsiz – o‘ziga to‘siq tufayli ong uchun noqulayliklarni qamrab olgan (xususan ongsiz) va osongina ongsizlikdan ongga ko‘chib oladigan (ongoldi). Ongli qarash tashqi va ichki turkilarni his-tuyg‘uday qabul qilish, ularni nutq yordamida ongli qabul qilish markazi sifatida keladi.

Boshqa asosiy bosqich psixik aparat tuzilishini kiritish. Z.Freyd tomonidan tavsiya etilgan tuzilish modeli, uch tizim yoki uchta kuchdan iborat: *Id*, *Ego* va *SuperEgo*. Shaxsning psixologik farovonligi ushbu uchta tuzilmaning samarali faoliyatiga bog‘liq.

Id atamasini Freyd primitiv tilaklar, impulslar, irrasional intilishlar, “qo‘rqish-tilak” juftliklari va fantaziyalardan iborat bo‘lgan psixikaning katta qismlarini belgilash uchun qo‘llagan. Bu “xaos, jo‘sh urib turgan emotsiyalar bilan qaynab turgan qozon”. *Id* faoliyati qo‘zg‘alishning, rohatlanish prinsipiga muvofiq, erkin amalga oshirilishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan. *Id* o‘zini verbal tarzda ramzlar va obrazlarda aks etadi, unda vaqt, odob, chegaralanish yoki qarama-qarshiliklar birga mavjud bo‘lmasligi haqida tushuncha umuman yo‘q.

Z.Freyd bilish jarayonining primitiv darajasini, gallyutsinatsiyalar, tushlar va hazillar tilida mavjud bo‘lgan, fikrlashning ilk jarayoni deb atadi. *Id* - nisbatan o‘zgarmas va to‘liq ongsiz shaklda bo‘ladi, ammo uning borligi va hukmi – fikrlar, harakatlar va emotsiya derivatlaridan ajralib turadi.

Ego – bu bir oila doirasida hayot talablariga moslashish, hal etish yo‘llarini topish, *Id* intilishlarini boshqarish uchun funksiyalar nomi.

Ego – butun hayot davomida rivojlanib boradi, ayniqsa tezkor bolalikning ilk davrlarida rivojlanadi. Ego reallik prinsipiga muvofiq faoliyat yuritadi va ikkinchi fikrlash jarayonining negizi hisoblanadi (mantiqiy, bosqichma-bosqich, yo‘naltirilgan). Shunday qilib, Ego - Id talablari va muhit chegaralanishlari o‘rtasida vositachi deb hisoblanadi. Unda ongli va ongsiz aspektlari mavjud. Ongli Ego - bu ko‘pchilik insonlar tushunchasidagi “Menlik”, ongsiz Ego esa o‘ziga muhofaza jarayonlarini qamrab olgan.

Odatda, *Ego Id*-ga nisbatan zaifroq, kuchsizroq bo‘lib, shuning uchun Ego Id tilaklarini harakatlarga aylantiradi, Id tilaklarini o‘z tilaklari sifatida namoyon etadi. Ro‘yobga chiqolmagan his-tuyg‘ular ichki zo‘riqish manbaiga aylanadi, u o‘z navbatida xavotirlanish shaklida namoyon bo‘lib, bo‘shashni talab qiladi. Z.Freyd xavotirlanishni - rohat olmaslikning maxsus holati, yohud xavfga nisbatan real yoki potensial umumiy reaksiya deb belgilagan. Xavotirlanish: realistik (tashqi dunyodagi xavfdan kelib chiqqan); ruhiy (super Ego bilan nizodan kelib chiqqan); nevrotik (Id ning instiktiv impulslari bilan mojarodan kelib chiqqan). Xavotir, ko‘pgina xulq-atvor va shaxs muammolari negizida yotgan tuzilgan nizo mavjudligi haqida xabar beradi.

Id va Ego tushunchalaridan tashqari, ota-ona ta’sirining qoldiq aksi bo‘lmish psixik aparatining qolgan qismi uchun Super Ego tushunchasi kiritilgan. Z.Freyd fikricha, Super Egoning asosiy vazifasi Id talablarini Egoga ruhiy ta’sir o‘tkazish orqali bartaraf etish. Ushbu markazning asosiy funksiyalari: ideal, o‘zini kuzatish va vijdon.

Ichki standartlar va ta’qiqlar negizida albatta ota-onaning ibrati turadi. Bola boshidan, muhabbatni yo‘qotish qo‘rquvi tufayli yoki tashqi, ota-ona avtoriteti tomonidan agressiya xavfi tufayli o‘zini chegaralashga kelib qoladi. Natijada esa, u Super Ego - ichki avtoritet oldidagi qo‘rqish hissidan kelib chiqib, harakatlana boshlaydi. Vijdonga qarshi qilingan harakatlar, jazoga muhtojlik, gunohkorlik yoki bo‘shlik hislarini paydo bo‘lishiga olib keladi. Shaxsiy muammolarni, haddan tashqari qat’iy Super Ego ning namoyishi, uning to‘liq shakllanmaganligining natijasi bilan tenglashtirish mumkin. Masalan, suitsidal xulq-atvor sevimli kishisini yo‘qotishi natijasida depressiv holat fonida shakllanadi. Ba’zi bir insonlar ushbu vaziyatda normal g‘am-qayg‘u o‘rniga, “menlik” zaiflanishi va sog‘ligini keskin yomonlanishi bilan melanxoliyaning maxsus holati

“depressiya”ni o‘z boshlaridan kechadilar. Muhabbat obyektining real o‘limi emas, balki insonning ichki dunyosidagi o‘lishi. Z.Freyd yozganidek, “obyekt muhabbat obyektini sifatida yo‘qotildi. G‘am tufayli ichki dunyo zaiflashdi, melanxoliya tufayli esa - “menlik””. “Men” nomunosib, hech narsaga yaroqsiz, o‘ziga nisbatan hurmatini yo‘qotgan, chunki u Super Ego ning ayovsiz tanqidiga uchraydi. Bunday vaziyatda haqiqatdan, insonni o‘z shaxsiyatiga nisbatan tanbeh berish to‘g‘ri kelmaydi, ammo diqqat bilan kuzatilganda, yaxshi ko‘rgan shaxsiga nisbatan ham qo‘llanilishi mumkin. “Menlik”ni qoldirilgan obyekt bilan ham qiyoslash - identifikatsiya qilish ham o‘rinli. Obyekt yo‘qotilishi “menlik”ni yo‘qotishga, tanqid esa o‘zini tanqid qilishga aylanadi. Agar kechib bo‘lmaydigan muhabbat (o‘sha payt real obyektidan vos kechish bilan) o‘zining yechimni narsistik qiyoslashda topgan bo‘lsa, bu obyektga nisbatan nafrat bildiriladi. Aynan shu obyektga sadistik qoniqish darajasigacha azob beriladi.

Z.Freyd ta‘kidlaganidek, “Faqatgina shu sadizm o‘z joniga qasd qilish moyilligi muammosining yechimini topib beradi”.

Shaxs ulg‘ayishi, Z.Freyd tomonidan, psixoseksual rivojlanish bosqichlari sifatida o‘rganilgan. Bu bosqichlarning ketma-ket o‘tish jarayonida asosiy e‘tibor tananing alohida qismlariga qaratilgan bo‘ladi - oral fazasidan boshlab, anal va fallik fazalar orqali genital (jinsiy organlar) fazasigacha. Drayvlar klassik nazariyasida (instinktlarning psixik namoyishi) ta‘kidlaganidek: agar bola haddan tashqari frustratsiyaga chalingan bo‘lsa yoki psixoseksual rivojlanishining biror bir bosqichida me‘yordan ortiq qoniqish hosil qilsa, u o‘sha bosqichda to‘xtab qoladi.

Xarakter (fe‘l-atvor) bunday to‘xtab qolishning namoyishi sifatida izohlangan. Inson fe‘l-atvorida buzilishlar, natijada xulq-atvorning ham buzilishi, ushbu holat orqali izohlab berilgan. Masalan, agar inson bir yarim yoshligida (oral fazasi) ushbu bosqichda me‘yordan ortiq to‘xtab qolsa yoki e‘tibor berilmasa, bu shaxsning depressiv turi shakllanishiga olib keladi. Inson nimada to‘xtab qolishi va uning asosini nima tashkil etishiga qarab, uning fe‘l-atvorini oral, aual yoki fallik deb ta‘riflash mumkin.

Z.Freydning so‘nggi asarlari - psixoanalizda “Egopsixologiya” kabi yo‘nalishning rivojlanishida turtki vazifasini bajardi. Ushbu yo‘nalish bugungi kunda “muhofoza” umumiy tushunchasi birlashtirgan jarayonlarni o‘rganadi. Rivojlanishning nizo fazasidan

kelib chiqqan holda, biz insonni tushunishga harakat qilganimizdek, insonlarni ham ularga xos bo'lgan xavotirni bartaraf etish usullariga muvofiq turlashimiz mumkin.

Tug'ilgan chog'idan boshlab, uzoq vaqt davomida bola tobe va yordamga muhtoj ahvolda bo'ladi, natijada, obyektни yo'qotish qo'rqishi bilan bog'liq xavf sezilishi paydo bo'ladi (katta kishisini yo'qotish). Bu qo'rqish esa o'z navbatida sevimli bo'lishga muhtojlikni olib keladi. Bolaning "Ego"si nisbatan zaif, kuchsiz bo'ladi, ushbu bosqichda obyektни yo'qotish yoki muhabbatni yo'qotish, so'nggi bosqichlarda saqlanib qoluvchi, xavotir paydo bo'lishiga olib keladi. Keyinchalik xavotirning asosiy manbaalari (fallik bosqichida) kastratsiya qo'rquvi va Super Ego oldidagi qo'rquv (latent bosqichida va u tugashidan so'ng) paydo bo'ladi.

Egoning asosiy funksiyasi o'zining "menligidan" muhofaza etish haqidagi tasavvur, Anna Freyd (1895-1936) tomonidan "Menlik psixologiyasi va muhofaza mexanizmlari" (1936) deb nomlangan klassik asarida o'rganib chiqilgan. Muhofaza mexanizmlari ongsiz tarzda ishlaydi va qiyinchiliklarni yengishning individual usuliga aylanib qoladi.

Insonda qanday muhofaza turlari ustivorlik qilishi quyidagi omillar hamkorligiga bog'liq:

- 1) bolaning tug'ma temperamentini;
- 2) ilk bolalik davrida kechirgan stresslar mazmuni;
- 3) ota-ona va boshqa ahamiyatli insonlarning himoya usullari;
- 4) himoya qilish tajribasini hayotda qo'llash.

Eng asoiy muhofaza qilish mexanizmlari deb, quyidagilar tan olingan:

– bosim o'tkazish - ushbu jarayon orqali qabul qilinmagan impuls yoki g'oya ongsizga aylanib qoladi (ikkita keyingi muhofaza turi negizida yotgan asosiy yashirin mexanizm);

– rad etish – tashqi dunyo biror bir talablarini pisand qilmaslik, individ uchun uning og'irligi tufayli;

– proeksiya - ushbu jarayon orqali individ qabul qilmagan intilishlar yoki tasavvurlar tashqi dunyo hisobiga o'tkaziladi;

– reaksiyani shakllantirish - ushbu jarayonda impulsni uning qarama-qarshi tomoniga o'tkazish (masalan, onaga nisbatan nafratning me'yoridan ortiq ona haqida qayg'urish bilan almashishi);

– regress - balog'at rivojlanishining past darajasiga qaytish;

– sublimatsiya - instinktiv impulslarni kerakli ijtimoiy sohaga yo‘naltirish, masalan: intellektual sohaga, ijodga yo‘naltirish.

Muhofaza turlarini primitiv (birinchi, ilk, arxaik) va pishiq (ikkinchi) turlariga bo‘linishi qabul qilingan. Arxaik himoyalar orasida quyidagilar ajratilgan: primitiv izolyatsiya, rad etish, cheksiz nazorat, primitiv ideallashtirish va qadrsizlanish, proeksiya, introeksiya va proektiv identifikatsiya, bo‘laklanish, dissotsiatsiya.

Primitiv izolyatsiya misoli sifatida quyidagi holatni keltirish mumkin, bola uxlab qoladi yoki avtomatik tarzda ongning boshqa holatiga o‘tadi, qoniqmaslik yoki qo‘zg‘alish. Yoshi ulg‘ayganda zo‘riqish holatidan qochish uchun kimyoviy vositalarni ongsiz ravishda qo‘llashga moyillik paydo bo‘lishi mumkin.

Alkogolizmga (narkotiklarga) berilish insonning xulq-atvorining boshqa misol sifatida keltirish mumkin. Bu holatda inson muammo borligini qat‘iy rad etadi va “men vaziyatni nazorat qilyapman” degan xulosaga keladi. Bu yerda rad etish kabi muhofaza mexanizmi ishga solinadi. Ushbu reaksiya – arxaik jarayonning sadosidir, bu vaziyatda bilish jaryonini mantiqoldi ishonch boshqaradi: “Agar men buni tan olmasam, bu sodir bo‘lmagan”.

O‘z navbatida, sadizm, eksplozivlik (portlanuvchanlik), yaqin kishining o‘limi holatida, depressiya kabi holatlar, proeksiya va introeksiya namoyishlarning negizida yotishi mumkin. Xuddi shunday qo‘rquv holatida, insonlar negativ hissiyotlarni egallab olishga harakat qiladilar va azob berayotgan insonning xislatlarini o‘zlashtiradilar (proektiv identifikatsiya).

Shunday qilib, xavotirlanishni bartaraf etish uchun ongsiz mexanizm sifatida arxaik himoyani qo‘llash psixologik chetlanish yoki hayotdagi bezovta qiluvchi omillarni samarasiz rad etilishiga olib keladi.

Ikki lamchi, ancha pishiq muhofaza mexanizmlari taxminan, psixoseksual rivojlanishning kechki bosqichlarida shakllanadi va nisbatan ancha samarali hisoblanadi, ular ichki nizolarni bartaraf etishda va real borliqqa moslashishga ko‘maklashadi. Bular - chetga chiqarish, regressiya, izolyatsiya, intellektuallashtirish, ratsionallashtirish, ruhlantirish, alohida fikrlash, o‘ziga qarshi aylanish, chetlashish, reaktiv ta‘lim, somatizatsiyalash, bekor qilish, reverslash, identifikatsiyalash, seksualizatsiya, tashqi munosabat bildirish, sublimatsiyadir.

Umuman olganda, psixologik muhofaza deb atalmish fenomenlar ko'pgina foydali funksiyalarga ega. Ular sog'lom adaptatsiya (moslashish) va ijod shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Ular shuningdek, "menlik"ni turli xavflardan muhofaza qilishi mumkin. Shaxs, kimning xulq-atvorida muhofaza xarakterini kuzatsa, ongsiz tarzda quyidagi vazifalardan birini bajarishga intiladi:

1) xavf soluvchi kuchli affektdan qochish (masalan, xavotirlanish yoki g'amdan) yoki uni egallash;

2) o'ziga hurmatni saqlab qolish;

3) tashqi xavfni chetlatish.

Shaxs rivojlanish jarayonida Ego ning muhim rolini "Egoning kuchi" tushunchasida aks ettirilgan. Ego ning kuchi - bu shaxsning real borliqni, qanchalik u yoqimsiz bo'lsa ham, qabul qila olishi (rad etishga o'xshagan, primitiv himoya vositalarni qo'llamagan holda). O.Kernberg fikricha, Ego ning kuchi - xavotirlanishga nisbatan yaxshi munosabatda, impulslarni nazorat qilishda va sublimator faoliyatda namoyon bo'ladi.

Shaxs muammolari (shu bilan birga xulq-atvor) muhofazalanish, noadekvat va yoki me'yorida moslashish tanqisligida paydo bo'ladi. Z.Freyd eng so'nggi asarlarida psixopatologiyani, xavotir sezilishi paytida, odatdagi kurash vositalarni qo'llanishiga qaramasdan va xavotirni yashirib turgan xulq-atvor, keng ma'noda o'zini tor-mor etganda, muhofaza umuman ish berrnayotgan holat sifatida ko'rib chiqqan.

Psixoanalitik tasavvurlarga muvofiq ichki nizolar dinamikasida, bola dunyosidagi asosiy obyekt bo'lib kelayotgan ota-ona asosiy rol o'ynaydilar. Psixoanalizdagi so'nggi yo'nalish - obyektiv munosabatlar nazariyasi namoyondalari ketma-ketlik bilan obyektiv munosabatlarda baxtsizlikning psixologik muammolar bilan aloqadorligi haqida g'oyani rivojlantir-moqdalar. Bola ota-onasi bilan munosabatlari qanday kechadi, qanday hissiyotlar bola tomonidan o'zlashtiriladi, shaxsning butun hayoti davomida uning xulq-atvoriga ta'sir qilib turgan, qanday ota-onaning obrazlari uning ongsiz dunyosida mavjud - bularning hammasi katta ahamiyatga ega.

Self psixologiyasi (shaxsan "menlik psixologiyasi") doirasida muhofaza shaxsan "menlik"ka zid bo'lmagan, pozitiv hisning qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida o'rganiladi. Masalan, bir xil suitsidal qasd qilgan ikkita inson o'zining subyektiv kechinmalari bilan farqlanishi

mumkin. Bittasi o'zini yomon his qilib, maqsadsiz yashashi uchun gunohkorligini sezadi. Nazariya tilida u, uni yomon deb turgan, internallashgan obyektlar bilan to'lib ketgan. Boshqasi o'zini unchalik axloqsiz emas, balki ichki bo'shligini, nuqsonligini, badbasharaligini sezadi. Subyektiv nazarda u, yo'naltirib turuvchi, internallashgan subyektiv obyektlardan mustasno.

Psixoanalizdan (neofreydizm) kelib chiqqan, psixoanalitik yondashuvlar va oqimlar ichida insonning xulq-atvori va xarakterining zamonaviy tushunchasiga katta ta'sir ko'rsatgan, bir nechta nazariya mavjud. Ular qamrab olgan g'oyalar: Karl Yungning analitik psixologiyasi; Alfred Adlerning individual psixologiyasi; Otto Rankning tug'ilish shikastlari nazariyalari; Bernning transakt tahlili. Shaxsning xulq-atvoridagi chetlanishlarini asoslash uchun Adler nazariyasi eng foydali bo'lib chiqdi.

Alfred Adlerning (1878-1937) individual psixologiyasi - og'ma xulq-atvorda ko'pgina shakllarning psixologik sabablarini tushunib anglashga ko'maklashadi. A.Adler, asosiy hayotiy maqsadini - individual rivojlanishning aniqlovchi va asosiy omili deb hisoblagan. Umumiy ko'rinishda - boshqalar ustidan ustivorlikka yetish maqsadi. Uning aniq maqsadi nihoyatda xilma xil: hokimiyatga, go'zallikka, boylikka, kuchga, mashhurlikka, bilimdonlikka intilish va hokazo. Ustivorlikka yetish maqsadi norasolik hissiyotiga reaksiya sifatida, hayotning ilk davrida paydo bo'ladi, u esa o'z navbatida zaifligining kechinmalaridan kelib chiqadi. Zaiflik norasolik hissi sifatida boshidan o'tadi. Adler fikricha, norasolik hissi dastavval 4-5 yoshida paydo bo'ladi-yu, uni ikkita asosiy omil kuchaytiradi. Birinchidan - bular tug'ma nuqsonlar (sog'lik yo'qligi, jismoniy nuqsonlar, haddan tashqari past bo'yi). Ikkinchidan - oilada bolaning noto'g'ri tarbiyasi (me'yoridan ortiq erkalatish, muhabbat yetmasligi). Norasolik hissiyoti, bola tomonidan muhit talablarini bajara olishiga nisbatan qarama-qarshidir.

Ustivorlikka erishish maqsadiga yo'naltirish boshqa odamlar bilan hamkorlikka yo'naltirish bilan uzviyligi muhrida hisoblanadi (jamoa hissi asosida). Shuning uchun, insonning shaxsiy yutuqlari odamlarning ijtimoiy hayotini umuman yaxshilashga xizmat qiladi. Har qanday to'g'ri insonda norasolik hissiyoti va undan paydo bo'lgan o'zini tasdiqlashga intilish o'rtasidagi nizo borligi ma'lumdir. Norasolikni sezishni bartaraf etishning ikkita asosiy usuli bor: o'rni

to'ldirish (kompensatsiya) (saqlangan xususiyatlarni keskin rivojlantirish hisobidan buzilgan xususiyatlar namoyishini kamaytirish) va yuqoridagi o'rnini to'ldirish (superkompensatsiya) (faoliyat darajasini ko'tarish uchun buzilgan xususiyat ustida ish olib borish). Tug'ma ijtimoiy hissiyot inson zaifligini o'rnini to'ldiradi. Norasolik hissiyotini o'rnini bosish uchun insonlar turli usullardan foydalanidilar. Ba'zi birlari boshqalarga bosim o'tkazish yoki zo'ravonlikni qo'llaydilar, boshqalari ruxsat etilgan usullardan foydalanidilar – yutuqqa erishish, hokimlik, guruhlarga birlashish.

Norasolik hissining o'rni yetarli darajada bosilmasa, u norasolik kompleksiga aylanadi. Bu - norasolik hissini yashirin ko'rinishdagi tasavvurlar, harakatlar va yo'riqlamalar majmui. A.Adler ushbu mexanizmni anomal va normal hodisalarning katta qismiga tarqatdi. Norasolik kompleksi bir vaqtning o'zida jiddiy muammolar sababi bo'la turib, shaxs rivojlanishi uchun ichki turki deb ham hisoblanadi.

Buzilgan xulq-atvor holatida norasolik kompleksi noadekvat hayotiy yo'riqlamalar va rivojlanmagan ijtimoiy hissiyoti bilan birlashadi. Anomal shaxsda ustivor hayot yo'nalishi bu ustivorlikka erishish intilishidir. Bu hissiyot shu darajada rivojlanganki, jamoa hissiyotining paydo bo'lishi va rivojlanishiga katta to'sqinlik qiladi. Bunday inson odamlarni o'zining shaxsiy manfaatlariga yetish vositasi sifatida qabul qiladi, jamiyatga dushman kuchi sifatida qaraydi, boshqalar bilan hamkorlik qilishni xohlamaydi va qilmaydi. Ushbu ziddiyat jamiyatning turli talablariga qarshi chiqish, gipertroflashgan reaksiyasida namoyon bo'ladi: boshqalarni hurmat qilish, haqiqatni aytish, bilim olish va mehnat qilish, boshqalar haq ekanligini tan olish, minnatdor bo'lmoq..... Ustivorlik g'oyasi boshqalarni - bo'ysindirish, kamsitish va diskreditatsiya harakatlariga undaydi. Natijada shaxsning xulq-atvorini va umuman hayot yo'lini aniqlovchi, shaxsning mustahkam negativ qirralari shakllantiradi - sabrsizlik, hasad, manmanlik, shubha uyg'otish va boshqalarni aytish mumkin.

3.4. Og'ma xulq-atvor – o'rganish mahsuli sifatida

Agar psixoanalitik yondashuv asosan shaxs rivojlanishining ichki dinamikasini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lsa, bixeviorizmdan kelib chiqqan nazariyalar bevosita kuzatilayotgan xulq-atvorni o'rganishga yo'naltirilgan. Ushbu yo'nalish bizlarda alohida qiziqish uyg'otadi,

chunki bizning tadqiqotimiz obyektini ham shaxs xulq-atvoridir (garchi u ogʻma boʻlsa ham).

Bixeviorizm (xulq-atvor psixologiyasi) - mustaqil yoʻnalish sifatida XX asrning boshida ajralib chiqqan. Uning asoslanishi E.Torndayk, Dj.Uotson, B.Skinner kabi olimlar bilan bogʻliq.

Xulq-atvor psixologiyasining asosiy tamoyillarini quyidagi qoidalar bilan izohlash mumkin:

1. Psixologiya - insonning real xulq-atvorini tahmin qilish va boshqarish bilan shugʻullanmogʻi lozim;

2. Har qanday xulq-atvorning maqsadi – muhitga moslashish;

3. Xulq-atvor – asosan shaxsning tashqi harakatlarida namoyon boʻladigan, individual xususiyatlar va ichki faollik bilan taʼminlangan, muhit va shaxs oʻrtasidagi oʻzaro munosabat; (Dastavval xulq-atvor deganda, faqatgina - harakat, emotsional, vegetativ va nutqning tashqi namoyishlari nazarda tutilgan);

4. Ushbu jarayon quyidagi chizma asosida amalga oshiriladi: stimul(turtki) - oʻrtadagi oʻzgarishlar – reaksiya. Hozirgi vaqtda oʻzgarishlar ostida reaksiya ortidagi barcha yashirin narsalarni tushunadilar. Bu - emotsional jarayonlar (ayniqsa xavotirlanish), ushbu xulq-atvor shaklining sabablari (undov omillar), kognitiv jarayonlar (qabul qilish va vaziyat xususiyatlari va h.), oʻzini boshqarish jarayonlari;

5. Xulq-atvor – shartsiz refleklar va instinktiv dasturlar asosida shakllanadi (nasliy birlik sifatida organizmning qolib (stereotip) reaksiyalari);

6. Insonning xulq-atvorini shakllantirishning asosiy mexanizmi – oʻrgatish. Oʻrgatish – paydo boʻlgan vaziyat reaksiyasi asosida xulq-atvorning maʼlum turlarini oʻzlashtirish va saqlash jarayoni hisoblanadi. Vaqtinchalik holatlar (charchoq, giyohvandlik) yoki balogʻat, tugʻma refleklar bilan bogʻliq faollkning oʻzgarish holatlari bundan mustasno.

Bixevioral nazariya - inson xulq-atvorining prinsiplari yoki qonunlarini tajribalar asosida sharhlaydigan katta hajmli nazariya hisoblanadi.

Klassik shartlash, I.P.Pavlov (1849-1936) tomonidan kashf etilgan boʻlib, xulq-atvor psixologiyasida birinchi qonunga aylandi va keyinchalik ishlab chiqilgan xulq-atvor qonuniyatlarining tadqiqotlariga katta taʼsir koʻrsatgan. Klassik shartlash (shartli yoki

aniq refleksdir) - shartli reaksiyani o'rgatish (indifferent stimulga reaksiya), shartsiz stimul bilan vaqt va masofali bog'langan (organizmning tug'ma reaksiyalarini olib keluvchi). Masalan, mazali ovqatning tasviri (shartli stimul) so'lak ajralishiga olib kelishi mumkin, ovqat og'izga tushgani kabi (shartsiz stimul). Har bir harakat takrorlanish tendensiyasiga ega, agar u shartli va shartsiz reflekslarga asoslangan va taqdirlangan bo'lsa. Takroriy harakatlar odatga aylanib qoladi. Agar harakatlar takrorlanmasa yoki mustahkamlanmasa, ular yo'qoladi.

Dj.B.Uotson (1878-1958) – xulq-atvor psixologiyasining asoschilaridan biri hisoblanadi. U xulq-atvor psixologiyasi prinsiplarini va shartlash qonunlarini aniqlab belgilagan.

Dj.B.Uotson nazariyasiga muvofiq, inson ham, hayvon ham atrof-muhitga nasliy ko'nikmalari va odatlar zahirasidan foydalanish asosida moslashadilar. Reaksiya chaqiradigan stimul yohud predmet tashqi yoki ichki muhitda mavjud bo'lgan obyektidan kelib chiqadi. Insonlar reaksiya bildiradigan stimullar diapazoni shartlash orqali yanada kengayadi. Hamma reaksiyalarni ochiq yoki yopiq, tug'ma yoki orttirilgan reaksiyalarga ajratishi mumkin. Tug'ma reaksiyalar kam va odam bolasi birinchi kunlaridanoq bajaradigan hamma narsani qamrab olgan. Xususan, bularga tegishli qon aylanishi va nafas olish hamda odatlarning shakllanishi va shartlanishi. Tug'ma reaksiyalar tug'ilgandan keyin shartli bo'lib qoladi. Bolalarni kuzatish shuni ko'rsatadiki, odatda instinkt deb atalgan barcha narsalar, ma'lum darajada o'rgatish yoki shartlash mahsulidir va bu sifatida inson orttirgan xulq-atvorining bir qismi bo'lib keladi.

Dj.Uotson fikricha, stimullarga orttirilmagan emotsional javoblarning uchta turi mavjud - qo'rqish (masalan, baland ovozga bolaning tug'ma qo'rqishi), jahl va muhabbat.

B.F.Skinner (1904-1990) xulq-atvor psixologiyasi rivojlanishiga alohida hissa qo'shgan, chunki u xulq-atvorga uning oqibatlari katta ta'sir o'tkazishini aniqlagan. Shu bois B.Skinner operant shartlanish mexanizmini taklif etgan. Operant xulq-atvorda moslashish - xulq-atvor stimuliga javob shaklida emas, balki insonning xususan faolligi yo'li bilan sodir bo'ladi. Masalan, sinov va xatolar natijasida muvaffaqiyatga erishish mumkin, u esa rohatlanish yoki noqulayliklarni bartaraf etishga olib keladi, yoxud xulq-atvorning aniq shakli qo'llab-quvvatlanadi.

B.Skinner ta'kidlashicha, reaksiyani tahmin qilib yoki nazorat qilib bo'lmaydi, birgina taxmin qilinadigan holat – bu reaksiyaning kelajakda paydo bo'lish ehtimoli. Xulq-atvor haqida fanning birligi – bu operant, keltirilgan (o'zining) oqibati bilan aniqlangan xulq-atvor. Operant xulq-atvor – oqibatlarni olib keluvchi va atrof-muhitda harakatlanayotgan xulq-atvordir.

Garchi I.P.Pavlov, uning itlarning xulq-atvorini kuchaytiradigan barcha hodisalarni “qo'llab-quvvatlash” deb, ushbu voqealar bilan shartlangan xulq-atvordagi o'zgarishlarni “shartlanish” deb atagan (qo'llab-quvvatlashning stimuli bilan aloqadorligi). Xolbuki, operant xulq-atvor konsepsiyasiga muvofiq, qo'llab-quvvatlash javobga bog'liq (qo'llab-quvvatlashning stimulgacha bo'lgan reaksiya bilan aloqadorligi). Klassik shartlanish va operant shartlanish – shartlanishning ikkita yagona mavjud bo'lgan turi hisoblanadi.

Xulq-atvorning qo'llab-quvvatlanishida va shakllanishida atrof-muhit ham katta rol o'ynaydi, xulq-atvorni o'zi ham ma'lum oqibatlariga olib keluvchi, atrof-muhitga ta'sir o'tkazadi va shu bilan birga atrof-muhitning oqibatlariga o'zi ham bog'liqdir. Atrof-muhit va organizm o'rtasidagi har qanday adekvat sharxlashida uchta element mavjud bo'lishi shart:

- a) ushbu reaksiyada hosil bo'lgan vaziyat;
- b) javobning o'zi;
- c) qo'llab-quvvatlovchi oqibatlar.

Ushbu uchta elementning o'zaro bog'liqligi qo'sha qo'llab-quvvatlash asosida yotadi.

Reaksiyaning paydo bo'lish ehtimoli ham negativ, ham pozitiv qo'llab-quvvatlashdan keyin oshadi. Pozitiv qo'llab-quvvatlash – maqtash yoki sovrinni (rag'batlantirishni) nazarda tutadi. Negativ qo'llab-quvvatlash ushbu vaziyatda yoqimsiz biror narsadan qochishni nazarda tutadi (masalan, jazolashdan qochish). Og'ma xulq-atvoriga nisbatan, alkogol iste'mol qilish, misol uchun bir vaqtdayoq rohat (huzur) olish bilan qo'llab-quvvatlanadi (issiqlikni sezish, mazali ovqatdan rohatlanish, kuch berishi, do'stlar e'tibori, bayramona kayfiyat) va muammolardan qochish (zo'riqishni olinishi, o'ziga ishonchning oshishi, ma'suliyat va tashvishlardan chalg'itish).

Umuman olganda, xulq-atvor ehtimoli quyidagi qo'llab-quvvatlashlardan kuchayadi:

- muammolarni bartaraf etish;

- e'tiborni jalb qilish (B.Skinner fikricha, faqatgina bizga e'tiborli bo'lgan insonlar, bizning xulq-atvorimizni qo'llab-quvvatlaydilar);
- affekt holati (kuchli emotsiyalar namoyishi);
- tabassum yoki ma'qullashning turli shakllari;
- sevimli faoliyati bilan shug'ullanishga imkoniyat yaratish;
- hukmronlikni taqdim etish;
- rohatlanish - universal sovrin (shirinlik, ovqat, jinsiy aloqa va h.).

Bu qo'llab-quvvatlovchi stimullarni biz odatda rag'batlantirish deb atashga o'rganganmiz.

B.Skinner fikricha, barcha qo'llab-quvvatlash vositalari o'zining kuch-quvvatini evolyutsion saralash jarayonida egallab oladi va insonlar uchun qo'llab-quvvatlashni ma'lum usullari orqali, aniq narsalar yordamida qabul qilib olish xosdir. Masalan, ovqatdan pozitiv qo'llab-quvvatlash ham, xavfdan qochishdan negativ qo'llab-quvvatlash ham, shubhasiz sog'-omon qolish uchun muhimdir. Faqatgina xulq-atvorning kichik qismi ovqatdan, suvdan, jinsiy yaqinlikdan yoki biologik ahamiyatga ega boshqa omillardan tezda kuch oladi. (Bunday qo'llab-quvvatlashlar, yuqorida ta'kidlaganidek, shartsiz yoki ilk qo'llab-quvvatlashlar deb ataladi).

Xulq-atvorning katta qismi - ilk qo'llab-quvvatlashlarga o'xshash, bog'liq yoki ular bilan shartlangan reaksiyadir. Masalan, agar har bayramda yaxshi ulfatlar davrasida tamaki chekilsa, o'sha davra shartlangan qo'llab-quvvatlovchi stimuli bo'lib qoladi.

Shartlangan qo'llab-quvvatlash bittadan ortiq qo'llab-quvvatlash bilan birlashib qolsa, asosiyga aylanib qoladi. Ushbu ma'lumot katta ahamiyatga ega, chunki asosiy shartlangan qo'llab-quvvatlash, masalan pul shaklida, foydalidir, chunki u aniq bitta deprivatsiya holatiga emas (misol uchun, ochlik holati), balki ko'pgina holatlarga qo'llanilishi mumkin. Shunday ekan, bunday qo'llab-quvvatlash turida reaksiya paydo bo'lish ehtimoli kattaroqdir. Boshqa asosiy shartlangan qo'llab-quvvatlovchi stimullar - e'tibor, bog'lanib qolish va maqtov.

Shunday qilib, xulq-atvor oqibatlariga ega, agar bu oqibatlar yoki qo'llab-quvvatlash mavjud bo'lmasa, bu vaziyat xulq-atvorni yo'qolishiga olib keladi. Masalan, agar bola injiqliklariga ketma-ketlik bilan e'tibor berilmasa, nihoyat uning individliklari kamayadi. Xuddi shunday, kattalar foydali oqibatlari mavjud bo'lmagan xulq-atvoriga kirishmasa, ular bunday o'zini tutishni to'xtatadi. Qo'llab-quvvatlash tartiblarining yo'qolib ketishga aloqadorligi mavjud. Masalan, onda-

sonda qo'llab-quvvatlashdan kelib chiqqan xulq-atvor yo'qolishi, doimiy qo'llab-quvvatlashdan chiqqan xulq-atvorga nisbatan qiyin kechishi mumkin.

B.Skinner fikricha, psixologiyaning vazifalaridan muhimi - xulq-atvor, uni qo'llab-quvvatlash va yo'qolish tarixini inobatga olgan holda izohlab berishdan iborat. Masalan, qaram xulq-atvor holatida bir narsani tushunish muhimdir, qanday sharoitda u paydo bo'lgan, nima bilan va qanday qo'llab-quvvatlangan, qanday o'zini tez-tez namoyish etadi, nima bilan birlashadi va nima bilan kuzatiladi, har bir aniq vaziyatda nimalarga olib keladi, ushbu xulq-atvorga atrof-dagilarning reaksiyasi qanday, ushbu xulq-atvor insonga qanday psixologik foyda yetkazadi va hokazo. Bu nuqtai nazardan psixoterapiyani - kerakli yo'qolgan xulq-atvorni qayta tiklash uchun mo'ljallangan, qo'llab-quvvatlash tizimi sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Xulq-atvorni kerakli javobga ketma-ketlik bilan qo'llab-quvvatlash orqali shakllantirish mumkin. B.Skinner quyidagi misolni keltiradi: kabutarga yog'och sharni yurg'izishni o'rgatdilar, sharni kuch bilan urib kichkina yo'lakchadagi mixlarga qarab xarakatlantiradilar. Tadqiqotchilar va ularning hamkasblari kabutardan kerakli reaksiya kutdilar, bu reaksiyani yegulik bilan mukofotlamoqchi bo'ldilar, biroq hech qanday natija bermadi. Keyin tadqiqotchilar kuchli zarbaga o'xshash har bir reaksiyani qo'llab-quvvatlashga qaror qildilar va bundan keyin kerakli reaksiyaga ko'proq o'xshaganini tanladilar. Bu taktika eng samarali bo'lib chiqdi.

Qachonki bir stimulni qo'llab-quvvatlash effekti boshqalariga tarqalsa, asosiy bo'lish effekti yoki induksiya hodisasi kuzatiladi. Kundalik hayotdagi stimulning asosiy bo'lish misoli - bu biror bir tanishiga o'xshash insonni uchrab qolganda ma'lum reaksiya bildirish.

B.Skinner shaxsni qo'llab-quvvatlash to'plamiga muvofiq, yondashuvchi sabablarga bog'liq xulq-atvor turlari repertuari deb ta'riflagan. Agar xulq-atvorning sabab shartlanishiga an'anaviy nuqtai nazaridan qarasa, insonlar o'z hayoti uchun javobgar avtonom tarzda harakatlanayotgan individlar vazifasini bajaradilar. Ilmiy tasavvurga muvofiq, insonlar evolyutsiyaga bog'liq, tirik qolish sharoitlarida shakllangan bitta tur a'zolari; inson xulq-atvori - ular yashayotgan atrof-muhit nazoratida bo'ladi. Dunyoni qabul qilish va anglash usullari atrof-muhitga yondashuvchi sabablar yordamida aniqlanadi. Ong - atrof-muhit tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy hodisa.

Tafakkur deb atalgan murakkab faoliyat mexanizmiga ham, qo'llab-quvvatlashning yondashuvchi sabablarining ta'sirini inobatga olsangiz aniqlik kiritish mumkin.

O'zini nazorat qilganda, insonlar xulq-atvorini boshqarish uchun voqealarni boshqaradilar. Bu esa avvalo, xulq-atvorga ta'sir ko'rsatadigan atrof-muhit nazoratidir. Masalan, katta kishi ketish reaksiyasini shunday qo'llashi mumkinki, u o'zining jahl reaksiyasini boshqarishga qodir bo'lib qoladi. Xuddi shunday ovqat ko'ziga ko'rinmasa, me'yoridan ko'p ovqatlanish odatidan voz kechishga ko'maklashadi. Boshqa tomondan nazar solganda, ba'zi bir stimullar mavjudligi kerakli xulq-atvor paydo bo'lishini oshiradi. Masalan, aniq bitta stol o'quv xulq-atvori uchun stimul bo'lishi mumkin, ro'molchada bog'langan tugun esa qolib ketgan harakatni qo'llab-quvvatlashni eslatishi mumkin.

Shunday qilib, klassik bioxeviorizm namoyondalari shaxsning atrof-muhit bilan o'zaro hamkorlik jarayoni sifatida inson xulq-atvorining asosiy mexanizmlari va prinsiplarini taqdim etdilar. Birinchidan bu – negativ qo'llab-quvvatlash (biror bir muhim narsani yo'qotish). Ikkinchidan – emotsional-negativ shartlanish. Masalan, qo'rquvga asoslangan jazolash. Odatda u ancha samarali bo'ladi, ammo, ba'zi bir vaziyatlarda jazolash boshqa hissiyotlarni olib keladi – qiziquvchanlik, agressorga tenglashish, sadomazoxistik rohatlanish. Bu vaziyatlarda jazolash keraksiz xulq-atvorni qo'llab-quvvatlab, kuchaytiradi. Bir qator vaziyatlarda jazolash shartlarini nazorat qilish qiyin. Buning eng yorqin namunasi jazoni ijro etish muassasalari, maxsus sharoitlar tufayli shaxsning xulq-atvori 5-7 yil ichida tuzatib bo'lmas darajada o'zgaradi.

Bundan tashqari, jazolash samaradorligi bir qator shartlarga bog'liq: nomunosib xulq-atvordan keyin tezda jazoni qo'llash kerak; qilmishiga yarasha bo'lishi kerak va imkon qadar guvohsiz amalga oshirilishi kerak..... Ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, jazolash har doim ham nomunosib xulq-atvorni oldini olmaydi.

Xulq-atvor yo'qotishning uchinchi usuli - operant yo'qotish reaksiyasi, u shunchaki pisand qilinmaydi yoki inson ushbu xulq-atvorini ta'qiqlangan boshqa muhitga o'tkazadi. Ushbu usul bilan reaksiya yo'qotishi, negativ qo'llab-quvvatlashga yoki jazolashga nisbatan samarali natija berishi isbotlangan.

Xulq-atvor borasidagi yondashuvning zamonaviy namoyondalaridan biri – D.Volpe (1915-1997) resiprok tormozlanish (resiproknogo tormojeniya), hamkorlik mexanizmini analogik hodisa sifatida maxsus o'rganib chiqqan. Og'ishga ko'maklovchi jarayonlarini o'rganib chiqqan D.Volpe "qachonki eski odatlar yo'qoladi, agar yangi odatlarga xuddi shunday vaziyatlarda rivojlanish imkoni berilsa"² deb ta'kidlaydi. Resiprok tormozlanish doim o'rindidir, qachonki ma'lum negativ reaksiya (masalan, xavotirlanish) bilan qo'shilmaydigan ijobiy reaksiya (masalan, relaksatsiya – dam olish), ushbu shartli reaksiyani sekinlashtirsa, keyinchalik uning zaiflashishiga olib kelgan holda namoyon bo'ladi. Xavotirlanish tez-tez muammoli xulq-atvor bilan qo'shiladi, mutaxassisning vazifasi - xavotirni keltirib chiqargan stimullar borligida, xavotirga qarshi reaksiyani shakllantirish.

D.Volpe insonlar xulq-atvorini o'zgartira oladigan, xavotirlanish bilan qo'shilmaydigan reaksiyalarni sanab o'tgan:

- assertiv reaksiyalar (boshqa insonga nisbatan emotsiyalarni ochiq bildirish);
- seksual reaksiyalar;
- relaksatsiya (dam olish) reaksiyalari;
- nafas olish reaksiyalari;
- "xavotirlanishning yengillashish" reaksiyasi;
- musobaqa sifatida shartlangan motorik reaksiyalar;
- turli hayotiy vaziyatlarda paydo bo'ladigan yoqimli reaksiyalar (masalan, dorilar ta'sirida);
- suhbatdan kelib chiqqan emotsional reaksiyalar;
- to'qnashuv vaziyatini og'zaki yoki rollashtirilgan holda ijro etish.

Xulq-atvor psixologiyasining yana bir mashhur namoyondalaridan biri G.Yu.Ayzenk (1916-1997) - Dj.Uotson va B.Skinner qonunlari barcha xulq-atvor fenomenlarini tavsiflab berishga o'z e'tiborini qaratgan. Masalan, bir qator vaziyatlarda xavotirlanish shartli reaksiya sifatida stimuly taqdim etilganda kuchayadi, bu vaziyatda natijalarni hech qanday qo'llab-quvvatlash amalga oshirilmagan bo'lsa ham. Bundan tashqari, G.Ayzenk "haqiqatdan ham salbiy oqibatlariga ega nevroitik xulq-atvor, mantiqqa qarshi hech qayerga yo'qolmaydi" – deb hisoblaydi. Shu bois, xavotirlanish reaksiyalarining inkubatsiya nazariyasini ishlab chiqqan G.Ayzenk tahmin qilganki, ba'zi bir shartli

reflekslar (eng avvalo xavotirlanish), ichki impuls xususiyatiga ega (o'zini qo'llab-quvvatlash) va shu sababli faqat bittagina stimuly (qo'llab-quvvatlashsiz) ta'siri natijasida shartsiz refleksga (maxsus qo'llab-quvvatlash talab qilmaydigan) o'xshash xavotirlanish shartli reaksiyasi hosil bo'ladi. Shunday qilib, qo'rqish shartli reaksiyasi faqatgina yo'qotishga qarshilik ko'rsatmaydi, balki qayta aloqaning ijobiy siklini tashkil etib, har bir shartli stimuly taqdim etilishida kuchayadi (o'z- o'zidan).

G.Ayzenk insonlarda qo'rqish (xavotirlanish) nevroitik reaksiyalarning to'rtta manbaini ajratgan:

1) tug'ma moyillik (qo'rqish individ va obyekt o'rtasidagi birinchi to'qnashuvdan paydo bo'ladi);

2) "tayyorlanganligi"- insonlarda qo'rqish reaksiyasi shartlanishining yengilligi (insonlarning ba'zi bir qo'rquvlari);

3) imitatsiya (o'xshatish) - taqlid qilish orqali qo'rqishlarni o'rganish mumkin;

4) klassik shartlanish (bunda qo'rqish reaksiyasini paydo qiluvchi asosiy shartsiz stimuly og'riq emas, qo'llab-quvvatlashni yo'qotish emas, jismoniy chegaralanish emas, balki frustratsiya yoki frustratsion rag'batlantirishning yo'qligi).

Ijtimoiy kognitiv nazariyasi, yoki ijtimoiy o'rgatish nazariyasi A.Bandura tomonidan ishlab chiqilgan. Bu o'rgatish klassik nazariyasining samarali rivojlanishidir. Ijtimoiy o'rgatish nazariyasiga muvofiq, faqatgina elementar reflekslar va inson imkoniyatlarining chegaralari tug'ma hisoblanadi. Insonning har qanday xulq-atvori ijtimoiy shartlangan bo'lib, uning ortida maxsus o'rgatish talab qiladigan juda murakkab ko'nikmalar turadi. Shunday ekan, masalan, agressiv xulq-atvorni shakllantirish uchun bir qator shartlarni bajarish zarurdir. Harakatni o'zlashtirish usullari mavjud bo'lishi kerak, harakatni mustahkamlovchi shartlar bo'lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, agressiv xulq-atvorni o'rganadilar, chunki agressiv xulqli shaxs bilishi zarurki: u birovga og'riq beryapti, uni qanday va qaysi sharoitda qilishi kerak. Nasliy va psixologik mexanizmlarning ta'siri o'rindir, ammo asosiy rolga ega emas.

Ijtimoiy-kognitiv nazariyaga muvofiq, insonning stimulyga reaksiyasi kognitiv jarayonlar bilan asoslangan.

A.Bandura insonni tavsiflaydigan beshta asosiy kognitiv qobiliyatni ajratgan:

❖ ramzlashtirish (sensor tajribasi chegarasidan chiqadigan obraz va ramzlarni yaratish);

❖ kelajakni ko'zlash (ko'pgina vaziyatlarda insonlar o'zining xulq-atvor natijalarini ko'zlagan holda maqsadlar qo'yadilar, shunchaki atrof-muhitga reaksiya bildirmasdan);

❖ modellarga asoslanish (insonlar bevosita ishtirok etish orqali emas, ko'proq boshqa insonlarni kuzatish orqali o'rganadilar);

❖ o'zini chegaralash (o'z xulq-atvorini yo'naltirish va baholash uchun ichki standartlar mavjudligi);

❖ o'zini tahlil qilish (o'z tajribasi va fikrlash jarayonlarining baholanishi).

Inson xulq-atvorining faol xarakterini ta'kidlagan holda, A.Bandura inson agentligi tushunchasini olib kiradi. Inson agentligi - bu o'zining fikrlash jarayonlari, motivatsiyalari va harakatlarini nazorat qilish orqali o'zini-o'zi boshqarishni amalga oshirish qobiliyati. Inson xulq-atvori (C), kognitiv va shaxs onillari (R) va tashqi muhit ta'siri (Ye) o'zaro determinlashgan (uchlikda o'zaro determinizm). Nihoyat xulq-atvor bu ichki shaxs determinantlarining va tashqi voqealarning o'zaro murakkab hamkorligining mahsulidir: nasliy xususiyatlar, orttirilgan ko'nikmalar, refleksiv fikrlash va o'zidagi tashabbuskorlik.

Ijtimoiy o'rganish (sotsial kognitiv) nazariyasiga muvofiq quyidagilar xulq-atvor shakllanishining asosiy mexanizmlaridir:

1. Kuzatish orqali o'rganish (vikar o'rganish) – bu yetakchi usuldir. Insonlar xulq-atvorni va kognitiv ko'nikmalarni asosan modellarni (boshqa insonlar) kuzatish orqali o'rganadilar. Bandura fikricha, vikar o'rganish samaraliroqdir, chunki u xavfsiz ekanligini ta'kidlaydi. Faqat hayotdan lavhalarni kuzatmasdan turib, balki ularning badiiy va ramziy namoyishlarini, masalan, kino yoki adabiyot orqali ham kuzatish mumkin. Kuzatuvchi namoyish etilayotgan xulq-atvorni namunadek qabul qila oladi, agar: u haqiqatdan ham tashqi foyda keltira olsa; ichki kuzatuvchi tomonidan ijobiy baholansa; modelga foyda keltiradi va uni kuzatishi mumkin. Bu vaziyatda verbal va nonverbal modellashtirish juftligi samaraliroqdir. Masalan, salbiy qahramon obrazi yuqumli bo'lishi mumkin, agar aktyor (qahramon) o'ziga jalb qila olsa va idealga yaqin bo'lsa yoki negativ harakatlar orqali u jazosiz hukmronlik, pul, rohatlanishga erishsa....

Kuzatuv orqali o'rgatish tashqi mukofotlash (rag'batlantirish) talab qilmaydi, chunki u vositachi orqali amalga oshiriladi va kuzatuvchining kognitiv jarayonlari bilan taqdirlanadi (masalan, voqeani u tomonidan baholash, bunday xulq-atvorning oqibatlari haqida uning tasavvurlari).

2. Harakatda o'rgatish, yoki keng tarqalgan, tajriba orqali o'rganish. Bilim va ko'nikma o'rtasida farq mavjud. Ko'nikmalar (harakatlar) maqsadli tuzilmalar bilan bog'liq. Harakat sodir etib, insonlar ularning oqibatlari ta'sirini sezadilar (operant shartlanish). Shuning uchun oqibatlarni inson qanday qabul qilishi xulq-atvoriga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, agar reaksiya oqibatlari yuqori baholansa, bu bunday xulq-atvor sodir etish ehtimolini ko'taradi yoxud uni kuchaytiradi. Shunday qilib, mexanistik tasavvurga qarshi, oqibatlar xulq-atvorni o'zidan-o'zi belgilamasdan, balki fikrlar orqali belgilaydilar.

A.Bandura fikricha, "qo'llab-quvvatlash" atamasi avtomatik reaksiya bildirish va reaksiyalar kuchayishini anglatadi deganda, adashadi. Bir vaqtdayoq samarali faoliyat yuritish uchun ham, insonlarning voqealarni tahmin qilishni va turli harakatlarni taxminiy natijalarini baholashni talab qiladi. Masalan, bolalar o'zini ko'ngilchan ota-onani oldida, talabchan ota-onaga nisbatan erkinroq sezadilar. Aniq taxminiy fikrlar yaratish – e'tibor, xotira va integrativ kognitiv ko'nikmalarni talab qiladi.

A.Bandura uchta boshqaradigan motivatsion tizimlarni ajratadi - bu tizimlar tashqi, bilvosita va o'zini to'ldiradigan natijalarga asoslangan.

Tashqi motivatorlar - inson harakatlarining tashqi oqibatlari, ushbu harakatlarni keyinchalik kuchaytiradigan yoki zaiflashtiradigan. Ular: jismoniy zo'riqish (deprivatsiya) va og'riq; moddiy stimullar (masalan, ovqat); sensor stimullar (yoqimli/yoqimsiz sezgilar); ijtimoiy stimullar (pul, baholash, mansab); faoliyat stimullari (ijod ham); mavqe va hukmronlik stimullari.

Bilvosita motivatorlar (vositali motivatorlar) – boshqa insonlar reaksiyalarining oqibatlarini kuzatish natijasida olingan bilimlar. Boshqa insonlar xulq-atvori qanday taqdirlashini kuzatish, kuzatuvchilar ham o'zini shunday tutishi ehtimolini oshiradi. Ta'kidlash joizki, noma'qul xulq-atvorni tahlil qilishning eng samarali usuli - bu xulq-atvorning konstruktiv, alternativ shakllarini

o'rganishdir. Boshqalar xulq-atvorini kuzatish umuman olganda ma'lumot beradi, emotsional qo'zg'aydi, shaxsiy standartlar va baholarga ta'sir qiladi.

Ichki motivatorlar (o'zini boshqarish motivatorlari) juda muhimdir, chunki inson xulq-atvori bevosita taqdirlashsiz amalga oshiriladi. Xulq-atvorning ichki standartlari ichki stimullar sifatida ishlashi mumkin. Xulq-atvorni o'zini boshqarish o'ziga uchta jarayon osti harakatlarni qamrab olgan: o'zini kuzatish (o'z xulq-atvori haqida ma'lumot olish), baholash jarayoni (shaxsiy standartlar nuqtai nazaridan o'z xulq-atvorining salbiyligi yoki ijobiyligini baholash) va o'zini boshqarish (o'z xulq-atvoriga ta'sir qilish).

Muvaffaqiyatli xulq-atvor uchun, ayniqsa, shaxs konsepsiyalari ahamiyatlidir - shaxsning ijro etish ma'lum darajasiga yetish imkoniyati haqida fikrlashlari (o'zining samaradorligiga ishonch). Samaradorlik konsepsiyalari quyidagilar natijasidir: shaxsiy tajriba yutuqlari; vositali tajriba (boshqalarning yutuqqa erishishi va yutqazishlarini kuzatish); verbal ishontirish (nutq orqali); fiziologik va emotsional holatlar (emotsional qo'zg'alish, kayfiyat, charchoq, og'riq, azoblanish). Avvalo insonlar o'zini standart o'rnanish orqali o'zini motivatsiya qiladi, yoki muvozanat buzilishiga olib keluvchi ijro etish darajalari, keyin esa bu darajalarga yetishga harakat qiladilar. Shaxsni o'zi oldiga qo'ygan maqsadlari, maqsadlarni amalga oshirish uchun o'zini qoniqtirish prinsipi bo'yicha, ichki motivatorlar sifatida harakatlanadi. Ayniqsa, sekin murakkablashib borayotgan qisqa muddatli oraliq maqsadlarni qo'yish uchun foydalidir.

O'rganish nazariyasi bilan yonma-yon bioxeaviorizm zamirida rivojlangan kognitiv yo'nalish turadi. Aaron Bekning kognitiv modeli va Albert Ellisning ratsional - emotiv nazariyasiga muvofiq, og'ma xulq-atvor asosida noadaptiv (yoki dezadaptatsiya) fikrlash sxemalari yotadi. Noadekvat kognitsiyalar noadekvat his va harakatlarni jonlantiradi. Insonlar stress vaziyatlarni qanday izohlab tasavvur qilishi, ularning xulq-atvorini belgilaydi. Masalan, depressiya holatida "me'yorida" g'am, butunlay yo'qotish va mag'lubiyat umumlashtirilgan hissiyotga aylanadi. Xulq-atvor darajasida bu vaziyatda faollikdan voz kechish, ketishning dezadaptiv reaksiyalari paydo bo'ladi. Boshqa vaziyat haddan tashqari xavfli qabul qilinishi mumkin, bu esa o'z navbatida jahl va xavotirlanishni, keyinchalik aggressiya yoki undan qochishni olib keladi. Shunday qilib, ma'lumotni

noadekvat qayta ishlanishi, hamda hayotiy vaziyatlarni tuzishda muvaffaqiyatsizliklar xulq-atvordagi buzilishlarning alohida sababi sifatida namoyan bo'lishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlaganidek, shaxsning og'ma xulq-atvori stressga chidamligi kabi individual xususiyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Hozirgi vaqtda kognitiv xulq-atvor yondashish doirasida faollik bilan ekstremal yoki stress vaziyatlarida insonning xulq-atvori o'rganilmoqda. Shu bois koping-xulq-atvor o'rganilmoqda. Koping (coping) - bu stress vaziyatidan keyin keladigan vositali moslashish jarayonidir. Ilk bor bu atama 1962 yilda L.Merfi tomonidan bolalar yosh krizislari bilan bog'liq qiyinchiliklarni yechish usullarining tadqiqotida qo'llanilgan. Hozirgi vaqtda koping ijtimoiy adaptatsiyaning muhim jarayoni sifatida o'rganilmoqda. Moslashish uchta komponent bilan aniqlanadi:

1) organizmning tashqi ta'sirga adekvat reaksiya bildirish qobiliyati va ko'nikmasi;

2) motivatsiya - atrof-muhit sharoitlariga moslashish xohishi bilan;

3) psixik muvozanatni saqlash qobiliyati bilan.

Koping-xulq-atvor stress vaziyatlaridan o'tishning ongli strategiyasi (psixologik muhofazaning ongsiz mexanizmalari bilan birga) hisoblanadi.

R.Lazarusning koping xulq-atvorni tadqiq etgan modeliga muvofiq, muhit va shaxsning o'zaro hamkorligi ikki jarayon bilan boshqariladi: kognitiv baholash va koping. Kognitiv baholashning ikkita turi ajratiladi - birlamchi va ikkilamchi. Birlamchi baholash - qabul qilinayotgan xavfning darajasi, stressor xususiyatlari, individning psixologik xususiyatlari bilan aniqlanadi. Uning natijasi xavfli yoki o'zgarish vaziyati deb baholash degan xulosani chiqarish. Ikkilamchi baholash tanqidiy bo'lib, birinchini to'ldiradi va aniqlaydi, negativ hodisalarga biz qanday ta'sir ko'rsata olamiz va stressdan o'tish uchun zahiralarni qanday ahvolda. Vaziyatni kognitiv baholashdan so'ng individ adaptatsiya maqsadida stressdan o'tish mexanizmlarini ishlab chiqishga kirishadi.

Koping bu yahlit mexanizmdir. Tadqiqot maqsadlarida uning kognitiv, emotsional, xulq-atvor aspektlari haqida so'z yuritish maqsadga muvofiq. Koping aniq vaziyatda shaxs adaptatsiyasiga, xulq-atvor samaradorligiga yordam berishi yoki yordam bermasligi

mumkin. Shunday qilib, koping-xulq-atvor egiluvchan va passiv, sermahsul yoki natijasiz bo'lishi mumkin.

Koping strategiyalari bilan birga (egallash harakatlari) shaxsning koping-resurslarini ham ajratadilar, bular stressdan o'tishga ko'maklovchi sharoitlar majmuidir. Koping – resurslarning quyidagi turlarini ajratadilar: jismoniy (chidamlilik, sog'lik); ijtimoiy (individual ijtimoiy tarmoq, ijtimoiy qo'llab-quvvatlaydigan tizimlar); psixologik (ishontirish, mustahkam o'zini baholash, kirishuvchanlik, intellekt, ma'naviyat, hazilkashlik) va moddiy resurslar (pul, jihozlar).

Koping tushunchasi, stress markazi bo'lmish og'ir kasallik bilan bog'liq, krizis vaziyatlar misollarida ishlab chiqilgan. Ye.Xeym, onkologik kasallarning koping jarayonlarini o'rganib turib, turli tadqiqotchilar tavsiflagan egallash shakllarini neytral tushunchalar tizimiga o'tkazdi va 26 ta koping xulq-atvor shaklini ajratdi.

Koping xulq-atvorning adaptiv variantlari – muammoli tahlil, o'z qadrini bilish ko'rsatmasi, o'zini qo'lga olib bilishni saqlash kabi kognitiv elementlarni qamrab olgan. Xulq-atvorning keltirilgan shakllari paydo bo'lgan qiyinchiliklarni va ularning yechim yo'llarini tahlil qilishga, o'zini baholashda o'sish va o'zini boshqarish, shaxs sifatida o'z qadrini chuqurroq anglashga, qiyin vaziyatlardan chiqib ketishda o'z zahiralarga ishonch mavjudligiga qaratilgan. Samarali emotsional strategiyalar orasidan – qarshi chiqish va optimizm-qiyinchiliklarga nisbatan faol, kuchli g'azab va qarshi chiqish emotsional holatlari va turli eng qiyin vaziyatlardan ham chiqib ketish yo'li mavjudligiga ishonch kabi strategiyalarni aytib o'tish mumkin. Muvaffaqiyatli xulq-atvor koping strategiyalari - hamkorlik, murojaat etish, altruizm. Shaxs xulq-atvorining bunday shakllarida u kattaroq (tajribali) insonlar bilan hamkorlikka kirishadi, yaqin ijtimoiy atrofdan qo'llab-quvvatlashni qidiradi yoki qiyinchiliklardan o'tish uchun yaqinlariga uni tavsiya etadi.

Hayot ko'rsatadiki, og'ma xulq-atvor vaziyatida insonlar odatda ko'proq koping xulq-atvorning kam moslashgan varianatlarini qo'llaydilar. Past natijali kognitiv strategiyalar orasida ko'nikish, o'zini yo'qotib qo'yish, dissimulyatsiya, pisand qilmaslik, o'zining kuchi va intellektual salohiyatiga ishonmaslik yoki qiyinchiliklarni noto'g'ri baholash tufayli, qiyinchiliklarni yengishdan voz kechish bilan tavsiflanagan xulq-atvorning passiv shakllari. Past natijali emotsional koping-strategiyalar orasida - emotsiyalarga bosim

o'tkazish, bo'ysinish, o'zini gunohkor sezish, agressivlik – xulq-atvor variantlari. Bular to'siqlangan emotsional holat bilan, umidsizlik holati, bo'ysinish va boshqa hissiyotlarga berilmaslik, jahlni kechib o'tish va o'zini va boshqalarni ayblash. Past natijali xulq-atvor strategiyalari orasida – faollik bilan qochish, chetlanish - xulq-atvori, bular passivlik, yolg'iz qolish, izolyatsiya, muammolarni yechishdan voz kechishni olib keladi.

Koping xulq-atvorning nisbatan adaptiv variantlari ham o'rinalidir, ularning tizimlashtirilgani o'tish vaziyatining ahamiyati va namoyishiga bog'liq. Kognitiv strategiyalar orasida bularga tegishli: nisbiylik, ahamiyat berilishi, dindorlik - boshqalar bilan taqqoslaganda qiyinchiliklarni baholashga yo'naltirilgan, ularning yechimiga alohida ahamiyat berilishi, hauda Xudoga ishonish, xulq-atvor shakllari kiradi. Emotsional coping strategiyalar orasida emotsional xordiq chiqarish, passiv kooperatsiya - zo'riqishdan o'tish yoki qiyinchiliklarni yechimi bilan bog'liq javobgarlikni boshqalarga o'tkazishga yo'naltirilgan xulq-atvor. Xulq-atvor strategiyalari orasida o'rini qoplash, chetlashish, konstruktiv faollik – muammolar yechimidan vaqtinchalik kechish bilan tavsiflangan xulq-atvor. Masalan, alkohol, dori-darmon yordamida, sevimli ishi bilan shug'ullanish, sayohat qilish, o'zining orzu tilaklarini amalga oshirish.

Stress holati ko'pchilik insonlar uchun oddiy hodisadir. Hayot davomida har bir inson uchun odatiy coping-strategiyalar shakllanadi. Har bir inson xulq-atvori turli strategiyalarni qamrab olgan bo'lsa ham, zamonaviy ma'lumotlarga qaraganda, "sog'lom" insonlar odatda ko'proq coping xulq-atvorning adaptiv shakllarini qo'llab, konstruktivlashmagan shakllarini kamroq qo'llaydilar. Muammoli xulq-atvorga ega shaxslar esa, masalan past natijali strategiyalarga moyil, bog'liqdir, bular muammolar va qiyinchiliklardan qochish, rad etish va izolyatsiya.

XX asrning 60-yillarda kibernetika va nazariyalar tizimlarining rivojlanishi, psixologiyada tizimlashtirilgan maslahat berish (konsultativ psixologiya) va tizimlashtirilgan oilaviy psixoterapiya yo'nalishining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ushbu yondashuv doirasida shaxs biror bir ijtimoiy tizim elementi sifatida o'rganiladi. Masalan, inson xulq-atvorining shakllanishi va namoyon bo'lishiga uning oilasi ta'sir qiladi, chunki u oila tizimiga kiritilgan. Tizimli oilaviy xarakteristikalar: ierarxiya, chegaralar, tizim osti, qoidalar,

muloqot usullari va h. Oilaviy tizim ichki va tashqi o'zgarishlarga egiluvchan va tez moslashuvchan bo'lishi kerak. Disfunktsional oila stressorlarni bartaraf etolmaydi va har bir a'zosi uchun shaxs sifatida o'sishi uchun sharoit yarata berolmaydi. Stressorlar - bular oila tizimida o'zgarish talab qiladigan turli voqealar hisoblanadi. Masalan, bola tug'ilishi, kasbni o'zgartirish, oilaning ko'chishi, bolaning o'smir yoshiga yetishi, bolalarning uydan ketishi va boshqalar.

Oilaviy terapiya nuqtai nazaridan oilaviy jarayonning har bir ishtirokchisi ma'lum rol ijro etadi, tizim esa umuman olganda mustahkam muvozanat saqlashga intiladi. Og'ma xulq-atvor oila muammolarining belgisidir. Umuman olganda, belgi oilani buzilishdan va odatiy muvozanatni saqlab qolishga xizmat qiladi. Masalan, o'smirning giyohvandlikka qaramligi ota-onani ajaralishdan saqlab qoladi, chunki ota-ona bu vaziyatda real xavf bilan kurashish uchun birlashadilar.

Simptom tashuvchi aniqlangan bemor deb belgilanadi. Simptomatik xulq-atvor quyidagi belgilari bilan tavsiflanadi:

- u oila a'zolariga qattiq ta'sir qiladi;
- simptom tasodifiy va uning tashuvchisi tomonidan nazoratga bo'ysunmaydi;
- simptom oila a'zolar tomonidan mustahkamianadi va qo'llab-quvvatlanadi;
- simptomatik xulq-atvor oilaviy jarayonning ishtirokchilariga psixologik foyda keltiradi.

S.A.Kulakov quyidagi holatlarni simptomatik xulq-atvorning odatdagi sabablari sifatida ajratgan:

- oila a'zolari muammoni inkor etadilar va simptom uchun javobgarlikni bo'lishmaydilar;
- yopiq tashqi chegaralar muammo yechimi uchun tashqaridan yordam olishga imkon bermaydi, oila tizimining me'yorida rivojlanishiga to'sqinlik qiladi;
- oila tizim osti orasida aniq chegaralar yo'qligi, barcha oila a'zolarida surunkali zaiflik jarayonini qo'llanilishi, ayniqsa "aniqlangan bemorlarda";
- stereotip bo'lib qolgan "qotgan" rollarning o'zaro hamkorligi;
- oilada hissiyotlarni ochiq ifoda etish muammosi (odatda simptom tomonidan tashkil qilingan krizis emotsiya his etishning yagona usuli bo'lib qoladi).

Agar oila o'zini boshqaradigan tizim sifatida simptomatik xulq-atvor esa uni boshqarish mexanizmi deb ko'rib chiqilsa, simptomni bartaraf etish vaziyatida butun tizim vaqtinchalik boshqarib bo'lmaydigan bo'lib qoladi. Shuning uchun, faqatgina simptom tashuvchi emas, balki butun oila ongsiz tarzda, og'ma xulq-atvorni qo'llagan holda, pozitiv o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatadi. Psixologik konsepsiyalarning tahlili tufayli biz yana bir bor shunga amin bo'ldikki, biz o'rganayotgan reallik shaxsning og'ma xulq-atvori qanchalik murakkab va xilma xil. Og'ma xulq-atvor ma'naviy muammolar natijasi bo'lishi ham mumkin, u shu bilan birga ichki shaxsiy nizolar va noadekvat psixologik himoya bilan ham, u oilaviy disfunktsiya natijasi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Va nihoyat, xayrixoh xulq-atvor - ichki yoki tashqi foyda bilan rag'batlantirilgan va bir necha bor takrorlangan oddiy odat-harakat ham bo'lishi mumkin. Bu bir narsa yoki birdaniga hammasi bo'lishi mumkin.

Shunday ekan, og'ma xulq-atvorning tavsifini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

-ma'naviy muammolar - hayot mazmunining yo'qligi yoki yo'qotilishi, shakllanmagan ma'naviy qadriyatlar, redutsiyalashgan oliy hissiyot (tuyg'u)lar (vijdon, ma'suliyatlik, haqqoniylik) ichki bo'shlik, o'zini ko'rsata olishga to'siqlik qilish;

-shaxsning motivatsion qadriyatlar tizimida o'zgarishlar - deviant qadriyatlar, vaziyatga qarab egotsentrik yo'naltirish, ehtiyojlar frustratsiyasi, ichki nizolar, psixologik muhofazaning past natijali mexanizmlari;

-o'zini boshqarish muammolari - maqsadlar qo'yish va ularni bajarish qobiliyatining buzilishi; noadekvat o'zini baholash, me'yoridan ortiq yoki yetarlicha o'zini namoyon qilish, past refleksiya, stressni egallab oluvchi past natijali mexanizmlar, past adaptiv imkoniyatlar, shaxsning pozitiv zahiralarning topilmasligi;

-emotsional muammolar - xavotirlanish, depressiya, negativ emotsiyalar, emotsiyalarni bildirish va tushunish qiyinchiliklari;

-kognitiv buzilishlar - disfunktsional fikrlar, fikrlash stereotiplari, chegaralangan bilimlar, afsonalar, noadekvat o'rgatishlar, bid'atlar;

-negativ hayot tajribasi - salbiy odatlar va ko'nikmalar, deviant tajriba, rigid xulq-atvor stereotiplari, psixik jarohatlar, zo'ravonlik tajribasi.

Og'ma xulq-atvor vaziyatida odatda sanab o'tilgan muammolardan bir nechtasi mavjud bo'ladi. Oxirigacha aniqlik kiritilmagan bitta savol qoladi - qachon va nima uchun ko'rib chiqilgan shaxs xususiyatlari me'yoridan oshib, xulq-atvor buzilishlarini olib kelgan? Haqiqatdan aytish joizki, psixologik qiyinchiliklar u yoki bu darajada har bir insonga xosdir (masalan, o'ziga ishonmaslik). Ammo ma'lum sabablar tufayli (masalan, shaxsiy ma'no-mazmun tizimi) bir vaziyatda shaxs muammolari insonni pozitiv faollikka undaydi (ijodga, halqqa xizmat qilishga, yutuqlarga erishishga), boshqa vaziyatda esa ular og'ma xulq-atvorga olib keladi.

Umuman, to'plangan klinik va tajriba ma'lumotlariga qaraganda, deviant harakatlar va qanaqadir aniq omil yoki harakat o'rtasida to'g'ri bog'liqlik yo'qligini tahmin qilish mumkin. Odatda, shaxsning og'ma xulq-atvori bu - ijtimoiy xulq-atvorning murakkab shakli, o'zaro bog'liq omillar - shartlar va psixologik sabablarning determinlashgan tizimidir.

Qaramlik xulq-atvorning ajratilgan omillarini tahlil uchun ishchi sxema shaklida tasavvur qilish mumkin. Ushbu sxema shaxsning eng zaif nuqtalarini o'z vaqtida aniqlab olishga imkon beradi, ular bir vaqtdayoq muammoli xulq-atvorning ham sabablari, ham stabilizatorlari bo'lishi mumkin.

Ushbu tahlil natijalariga ko'ra oldini olish individual dasturini yoki og'ma xulq-atvorni kesib o'tish yo'llarini tuzish mumkin.

3.5. Og'ma xulq-atvorning tahlil qilish sxemasi

1. Individual tipologik ko'tarolmaslik:

- senzitivlik (har qanday tashqi ta'sirga yuqori seziluvchanlik);
- emotsional holati (emotsiyalar yorqinligi) va emotsional labil holat (kayfiyatning keskin o'zgarishi);
- kayfiyatning past foni;
- impulsivlik (tez, nazoratsiz, o'ylamay qilingan reaksiyalarga moyillik);
- past adaptatsiya (vaziyat o'zgarishiga qarab o'zining xulq-atvorini tez va samarali o'zgartira olmaslik);
- qattiq xulq-atvor stereotiplarini tez shakllantirishga moyillik (odatlarning juda mustahkamligi yoki ularning tez shakllantirilishi);

– rigidlik - qaysidir faollik nuqtasida to‘xtab qolish (fikrlar, hissiyotlar, harakatlar);

– somatizatsiyaga moyillik (yoqimsiz omillarga tananing reaksiya bildirishi, masalan, tana zo‘riqishi, allergiya, somatik kasalliklar).

Ushbu xususiyatlarni tug‘ma (tabiiy) deb hisoblash mumkin. Ular shaxsning butun hayoti davomida saqlanadi. Agar bir insonda bir-nechta bunday xususiyatlar mavjud bo‘lsa, qaramlik xulq-atvorida tipologik moyillik haqida so‘z yuritish maqsadga muvofiq. (Ushbu bosqichga fiziologik va genetik moyillik peshvoz chiqadilar. Ularning tahlili uchun oddiy kuzatish yetarli emas, diagnostikaning maxsus usullari zarurdir.)

2. Shaxsning o‘zini boshqarishidagi buzilishlar:

–negativ emotsional holatlarning ustivorligi (xavotirlanish, umidsizlik, og‘riq, gunohkorlik, agressiya, depressiya, zaiflik) va ichki nizolar;

–aleksitimiya – kuchsiz nutq boshqarilishi (o‘z kechinmalarini tushunmasligi va gapda uni ifoda etolmasligi, affektiv harakatlarni ijro etishga moyillik, refleksiyaning past rivojlanishi);

–assertiv xulq-atvorning shakllanmaganligi (o‘z hissiyotlarini ochiq ifoda etolmasligi; o‘z qiziqishlarini himoya qilolmasligi);

– stressni egallab olishning samarasiz usullari (ketish, izolyatsiya, rad etish, proeksiya);

– maqsad qo‘yishning tanqisligi (maqsad qo‘ya olmasligi, reja tuza olmasligi, o‘z rejasini qunt bilan amalga oshirilmasligi);

– yolg‘ondan o‘zini identifikatsiya qilishi va o‘zini past baholash;

– ijtimoiy qoidalar va me‘yorlardan individual qadriyatlarining chetlanishi (deviant qadriyatlar);

– hayot mazmunining yo‘qligi yoki yo‘qolishi.

Sanab o‘tilgan o‘zini boshqarish xususiyatlari hayot davomida shakllanadi. Bir nechta muammoning birligi og‘ma xulq-atvoriga psixologik moyillikni belgilaydi.

3. Shaxs resurslari tanqisligi (uning muhim hayotiy xususiyatlari va o‘rnini bosuvchi imkoniyatlari):

– ma‘naviyat;

– sog‘lik va sog‘lom hayot tarzi qadriyatlari;

– o‘ziga jalb qiladigan tashqi ko‘rinish;

– kirishuvchanlik, hamkorlik qobiliyati;

– faollik;

- intellekt, maxsus qobiliyatlar;
- intiluvchanlik va o'ziga bino qo'yimoq;
- yuqori hissiyotlar (vijdon, ma'suliyat, burchlik, hamdardlik, ishonch);
- ijod, xobbi;
- kasbiy malaka, ish, o'qish;
- yutuqlar;
- muhabbat, do'stlik, ahamiyatli shaxsiy munosabatlar;
- hayotiy tajriba.

Sanab o'tilgan resurslarning aniq shaxsda mavjudligi shaxsiy yoki hayotiy muammolarning o'rnini bosish uchun real imkoniyatni anglatadi. Ular shaxsning og'ma xulq-atvoriga nisbatan tolerantligini (mustahkamligi) ta'minlaydi. Shu bilan birga, ular shaxsning qaramlikka moyillik bilan kurashish qobiliyatini aniqlaydi. Ularning yo'qligi yoki past ifodalanishi ichki resurslar tanqisligi va qaramlikka qarshi kurashish qobiliyatining zaifligi uning oldida himoyasiz ekanligini bildiradi.

4. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlovchi tizimlarning tanqisligi (yoki yetishmovchilikning):

- ota-ona, oilasining yo'qligi;
- to'liqsiz oila (otaning yoki onaning yo'qligi);
- qaram oila;
- deviant oila;
- oilaning past ijtimoiy mavqei;
- krizis kechayotgan oila (ajralish, moliya krizisi, ko'chish, oila a'zosining o'limi, oila a'zosining jiddiy kasallanishi);
- ijtimoiy izolyatsiya;
- tengdoshlarining qo'llab-quvvatlovchi guruhining yo'qligi;
- referent ijtimoiy guruhda past shaxsiy mavqei (ish joyida, o'quv guruhida);
- yaqin do'stlarining yo'qligi;
- seksual (jinsiy aloqa) juftligining yo'qligi;
- ijtimoiy band bo'lmashligi;
- muammoli ulfatlar;
- muammoli do'stlar (og'ma xulq-atvori bilan ham).

5. Og'ma xulq-atvorni yurg'izuvchi va qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy psixologik shartlar:

- ijtimoiy psixologik dezadaptatsiya holati;

–hayotiy muhim ehtiyojlarining frustratsiya holati;

–referent guruhda o'rgatish;

–chetdan bosim o'tkazish.

6. Og'ma xulq-atvorning xususiyatlari:

–og'ma xulq-atvor mavjud bo'lgan vaziyat;

–hozirgi vaqtda og'ma xulq-atvor namoyon bo'lgan vaziyatlar;

– xulq-atvornig ifodalanish darajasi (usuli, takrorlanishi, sharoitlari, individual ritm);

–og'ma xulq-atvor jaryonidagi holat (inasalan, mast bo'lish yoki o'yin vaqtida);

–og'ma xulq-atvordan oldin nima keladi (yurg'izuvchi mexanizmlar);

–keyingi voqealar (holatlar, fikrlar, harakatlar);

–atrofdagilarning reaksiyasi;

– bunday xulq-atvorga nima to'siqlik qiladi (nima tufayli u sodir bo'lmaydi).

7. Xulosa:

–og'ma xulq-atvor ifodalanish darajasi va shakli;

–ijtimoiy dezadaptatsiya darajasi;

–og'ma xulq-atvorga nisbatan shaxsning o'z munosabati;

–qo'llab-quvvatlovchi tashqi sharoitlar (qo'llab-quvvatlovchi stimullar);

–qo'llab-quvvatlovchi ichki sharoitlar (individual shaxsiy moyillik va psixologik foyda);

–ingibitorlar (to'siqlovchi sharoitlar);

–shaxs resurslari;

–bartaraf etishning ehtimol yo'llari (o'zgarish strategiyasi);

–ijtimoiy psixologik yordam usullari va shakllarini keltirishimiz mumkin.

Nazorat savollari:

1. Og'ma xulq-atvornig sabablarini aytib bering.

2. Xulq-atvor deviatsiyalarining biologik belgilari qanday?

3. Og'ma xulq-atvorni ekzistensial gumanistik yondashuv nuqtai nazaridan tushuntirib bering.

4. Ekzistensial vakum va noogen nevroz o'zi nima?

5. Og'ma xulq-atvornig qanday psixodinamik mexanizmlarini bilasiz?

6. "Psixologik muhofaza" tushunchasini izohlab bering va uning asosiy shakllarini sanab o'ting.

7. Xulq-atvor psixologiyasining asosiy tamoyillarini sanab bering.

8. Xulq-atvor psixologiyasi nuqtai nazaridan og'ma xulq-atvorning qanday omillari mavjud?

IV BOB. SHAXS OG'ISHGAN XULQINI PSIXOLOGIK TASNIFLASH

Tayanch tushunchalar: buzilgan me'yor, giyohvandlik, o'z-o'zini o'ldirish, axloqsiz xulq, daydilik, fog'ishabozlik, bezorilik, boqimanda bo'lish, sotqin, rasmiyatchilik, terrorism, irqchilik, genotsid, destruktiv madaniyat

4.1. Og'ishgan xulqni psixologik tasniflash

Psixologik reallikni tahlil ilmiy qilish shakllaridan biri uning ko'rinishlari tasnifi hisoblanadi. Tadqiqotchilarning axloqiy og'ishlarni tizimlashtirishdagi ko'p sonli urinishlari qali yagona tasnif yaratishga olib kelmadi. Murakkabliklarni bir necha sharoitlar bilan tushuntirish mumkin.

Axloqiy deviatsiyaning muammosiga asosiy sabab uning fanlararo xarakterda ekanligidadir. Modomiki, "deviant (og'ishgan) xulq" atamasi turli fanlarda turli ma'noda ishlatilarkan, shu sabab axloqiy og'ishlarning ko'p turli xil tasniflari mavjud.

Muammo mavjudligini tushuntiruvchi boshqa sabablar orasida inson axloqining o'ta turli-tuman shakllari va "me'yor" tushunchasining o'zi noaniq ekanligini aytish mumkin. Bularning barchasi umumiy mezonlarni ajratishdek, og'ishgan xulqning har xil ko'rinishlarining yagona tasnifini yaratishda ham qiyinchilik tuqdiradi.

Ayni damda tizimlashtirish mavjud va alohida fanlar doirasida keng foydalaniladi. Shartli ravishda axloqiy og'ishlar tasniflash muammosida uchta asosiy yondoshuvni ajratish mumkin: ijtimoiy-huquqiy, klinik va psixologik.

Ijtimoiy-huquqiy yondoshuv doirasida, o'z navbatida, sotsiologik va huquqiy yo'nalishni ajratish mumkin.

Sotsiologiya axloqiy deviatsiyani bir necha asoslar bo'yicha guruhlanadigan ijtimoiy ko'rinish sifatida ko'rib chiqadi:

a) masshtabdan qat'i nazar ommaviy va shaxsiy og'ishlar ajratiladi;

b) oqibatlar aqamiyati bo'yicha – salbiy (zararli oqibatlar keltirib chiqaruvchi va potentsial xavf tuqdiruvchi) va ijobiy;

c) sub'ekt bo'yicha – aniq shaxslar, norasmiy guruhlar (masalan, yo'lto'sar guruhlar faoliyati), rasmiy tuzilmalar, shartli ijtimoiy guruhlar (masalan, ayollar piyonistaligi) og'ishi;

d) obyekt bo'yicha – iqtisodiy, maishiy, mulkiy buzilishlar va boshqalar;

e) muddati bo'yicha – bir vaqtli va davomli;

f) buzilgan me'yor turi bo'yicha – jinoyatchilik, ichkilik (piyonistalik) giyohvandlik, o'z-o'zini o'ldirish, axloqsiz xulq, daydilik, fog'ishabozlik, bezorilik, boqimanda bo'lish, sotqin, rasmiyatchilik, terrorism, irqchilik, genotsid, destruktiv madaniyatlar.

Huquqda og'ishgan xulq atamasi ostida hozirgi vaqtda qabul qilingan va jazolash xavfi bilan ta'qiqlangan qonuniy me'yorlarga qarshilik qiluvchi barcha narsa tushuniladi. Shaxs harakatlarini huquqiy baholashdagi yetakchi mezon ularning jamiyatga xavf solish darajasi hisoblanadi. harakatlarning jamiyatga xavf solish xarakteri va darajasi bo'yicha ularni jinoyat, ma'muriy va fuqarolik-huquqiy delinktlar, intizomiy qiliqlarga bo'linadi.

Jinoyatlar, o'z navbatida, jamiyatga xavf tug'dirish darajasiga ko'ra quyidagi kategoriyalarga bo'linadi: uncha og'ir bo'lmagan – ikki yilgacha ozodlikdan mahrum etish; o'rtacha og'ir – besh yilgacha ozodlikdan mahrum etish; og'ir jinoyatlar – o'n yilgacha ozodlikdan mahrum etish; alohida og'ir – ikki yilgacha ozodlikdan mahrum etish yoki ancha qat'iy jazo belgilash.

Jinoyatlar harakatlarning xarakteri bo'yicha ham bo'linadi: shaxsga qarshi jinoyat, iqtisod soqasidagi jinoyat, davlat qokimiyatiga qarshi jinoyatlar, qarbiy xizmatga qarshi jinoyat, insoniyat tinchligi va xavfsizligiga qarshi jinoyat. Shunday qilib, Jinoyat va Fuqarolik kodekslari qonuniy nuqtai nazardan og'ishgan xulqning turli shakllari tasnifi hisoblanadi.

Vaqt huquqiy og'ishning yanada yangi shakllarini tug'dirimoqda, masalan, reket, uyushgan jinoyatchilik, xakerlik. Bu, o'z navbatida, qonunchilikka doimiy o'zgartirish kiritish zaruriyatini tuqdiradi.

Ko'rib chiqilgan tasniflarga axloqiy deviatsiyaga pedagogik yondoshuvni qo'shimcha qilish mumkin. Bizning fikrimizcha, pedagogik tasniflar kamroq differensiyalangan va ko'pincha boshqa fanlardan o'zlashtirilgan. Ko'pincha "og'ishgan xulq" tushunchasini "moslashmaganlik" tushunchasi bilan tenglashtiriladi. O'quvchini tarbiyalash va o'qitishning asosiy pedagogik vazifalari olamida maktab o'quvchisining og'ishgan xulqi maktabga moslashmaganlik kabi ijtimoiy moslashmaganlik xarakteriga ham ega.

Maktabga moslashmaganlik tuzilmasiga o'zlashtirmaslik, tengdoshlari bilan o'zaro munosabatning buzilishi, hissiy buzilishlar kabi uning ko'rinishlari qatorida axloqiy og'ish ham kiradi.

Pedagoglar bilan hamkorlik tajribasi maktabga moslashmaganlik bilan uyg'unlashuvchi birmuncha keng tarqalgan quyidagi axloqiy og'ishlar haqida gapirishga imkon beradi. Bu intizom buzilishi, sababsiz maktab kelmaslik, giperfaol axloq, tajovuzkor axloq, oppozitsion axloq, chekish, bezorilik, o'g'rilik, yolg'on.

Ijtimoiy moslashmaganlikning maktab yoshida anchagina masshtabli belgilari bo'lib quyidagilar chiqishi mumkin: psixofaol moddalarni muntazam iste'mol qilish (uchuvchi eritmalar, ichkilik, giyohvand moddalar), jinsiy deviatsiyalar, fohishabozlik, daydilik, jinoyat sodir etish. Oxirgi vaqtlarda maktab o'quvchilarining og'ishgan xulqida nisbatan kompyuter o'yinlari yoki diniy sektalarga tobe bo'lib qolish bilan bog'liq bo'lgan yangi shakl kuzatilmoqda.

Juda yoshlikdan va maktab yoshidan og'ishgan xulq ko'rinishlari haqidagi masala yanada chalkash. Pedagoglar va ota-onalar ko'pincha kichik bolalarda zararli odatlar (barmoqini so'rish, tirnoqini chaynash), ovqat yeyishdan bosh tortish, quloq solmaslik, tajovuzkor axloq, giperfaol axloq kabi axloqning shunday salbiy ko'rinishlari bilan to'qnashadilar.

Afsuski, jamiyatda og'ishgan xulqqa nosog'lomlik kabi munosabatda bo'lish ustundir. Uning ko'zga ko'ringan shakllari bilan to'qnashgach, odamlar avvalo tibbiy tashhis va unga tegishli tibbiy yordam olishga harakat qiladilar.

Deviant axloq masalalari bo'yicha ilmiy adabiyotlarda birmuncha ishlab chiqilgan va anchagina odatlangan klinik yondoshuv qukmronlik qiladi. Ayni damda ma'lumki, shaxs axloqiga psixologik jiqatdan – shaxsning o'ziga nasiqat qilib ta'sir ko'rsatish mumkin.

4.2. Axloqiy og'ishishlarni tasniflash muammosi

Psixologik yondoshuv shaxsning og'ishgan xulqidagi alohida ko'rinishlarni ijtimoiy-psixologik tafovutini ajratishga asoslangan. Psixologik tasniflar quyidagi mezonlar asosida quriladi:

- ✓ buzilgan me'yor turi;
- ✓ axloq va uning motivatsiyada psixologik maqsad;
- ✓ ushbu axloq oqibati va u keltirgan zarar;
- ✓ axloqning shaxsiy-uslubiy tavsifnomasi.

Psixologik yondoshuv doirasida og'ishgan xulqning turli tipologiyasidan foydalaniladi. Ko'pchilik mualliflar, masalan, Yu.A.Kleyberg axloqiy devitsiyaning uchta asosiy guruhini ajratadi: salbiy (masalan, giyohvand moddalar iste'mol qilish), ijobiy (masalan, ijtimoiy ijodkorlik) va ijtimoiy-xolis (masalan, tilanchilik).

Shaxs og'ishgan xulqining ko'rinishlarini tizimlashtirishning birmuncha to'liq va qiziqarli variantlaridan biri bizning nazarimizda S.P.Korolenko va T.A.Donskixga tegishli. Mualliflar barcha axloqiy devitsiyaning ikkita katta guruhga bo'ladilar: nostandart va destruktiv axloq. Nostandart axloq tafakkurning yangi shakli, yangi g'oyalar, shuningdek, axloqning ijtimoiy stereotiplari doirasidan chiquvchi harakatlarga ega bo'lishi mumkin. Bunday shakl garchi aniq tarixiy sharoitlarda qabul qilingan me'yorlardan chetga chiqsa-da, biroq jamiyatning kelgusidagi rivojlanishida ijobiy rol o'ynovchi faollikni ko'zda tutadi. Nostandart axloqqa misol qilib, novatorlar, inqilobchilar, oppozitsionerlar, bilimning qaysidir sohasini ilk ochuvchilarni keltirish mumkin. Ushbu guruh qat'iy ma'noda og'ishgan xulq deb tan olinishi mumkin emas.

Destruktiv axloq tipologiyasi uning maqsadlariga muvofiq tiziladi. Bir holatda bu ijtimoiy me'yorlarni (qonuniy, ma'naviy-etik, madaniy) buzishga yo'naltirilgan tashqi destruktiv maqsadlar va munosib ravishda tashqi destruktiv axloq. Ikkinchi holda – shaxsning o'zini dezintegratsiyaga yo'naltirilgan ichki destruktiv maqsadlar, uning regressi va munosib ravishda ichki destruktiv axloq namoyon bo'ladi.

Tashqi destruktiv axloq, o'z navbatida, addiktiv va antiijtimoiyga bo'linadi. Addiktiv axloq reallikdan ketish va istalgan hissiyotni olish maqsadida maxsus faollik yoki qandaydir moddalardan foydalanishni ko'zda tutadi. Antiijtimoiy axloq mavjud qonun va boshqa odamlar huquqlarini qonunga qarshi, asotsial, axloqsiz-beadab axloqlar shaklida buzuvchi harakatlardan iborat.

Ichki destruktiv axloq guruhida S.P.Korolenko va T.A.Donskix quyidagilarni ajratadilar: suitsid, konformistik, nartsissik, fanatik va autistik axloq. Suitsid axloq o'z-o'zini o'ldirishning yuqori xavfi bilan xarakterlanadi. Konformistik – individuallikka muqtoj, faqat tashqi avtoritetga yo'naltirilgan axloq. Nartsissik – shaxsiy buyukligi tuyg'usi bilan boshqariladi. Fanatik – qandaydir g'oya, nuqtai nazarga ko'r-ko'rona berilgan shaklda yuzaga chiqadi. Autistik – odamlar va atrofdagi harakatlardan bevosita chegaralanganlik, shaxsiy fantaziyasi olamiga sho'ng'iganlikda ko'zga tashlanadi

Destruktiv axloqning barcha sanab o'tilgan shakllari, olimlar fikriga ko'ra, hayot sifatining yomonlashishi, o'z axloqiga tanqidni pasaytirish, kognitiv xatolar (sodir bo'lganlarni qabul qilish va tushunishda) o'z-o'zini baholash va hissiy buzilishlar kabi deviant mezorlarga javob beradi. Nihoyat, ular katta ehtimol bilan shaxsning yakkalanib qolishigacha bo'lgan ijtimoiy moslashmasligiga olib keladi.

Psixologik adabiyotlarda shaxs og'ishgan xulqining ko'rinishlarini tasniflashda boshqa yondoshuvlarni ham uchratish mumkin.

Kelgusida biz axloqiy og'ishlarning og'ishgan xulqning salbiy oqibatlari va buzilgan me'yor ko'rinishlari kabi yetakchi mezonlarga asoslangan shaxsiy tasnifimizga suyanamiz.

Sanab o'tilgan mezonlarga muvofiq og'ishgan xulqning uchta asosiy guruhini ajratamiz: antiijtimoiy (delinkvent) axloq, asotsial (axloqsiz) axloq, autodestruktiv (o'z-o'zini parchalovchi) axloq.

Antiijtimoiy (delinkvent) axloq – bu qonun me'yorlariga qarshi chiquvchi, ijtimoiy tartib va atrofda odamlar farovonligiga xavf soluvchi axloq. U qonunchilik bilan taqiqlangan istalgan harakat yoki harakatsizlikni o'z ichiga oladi.

Katta odamlar (18 yoshdan kattalar)da delinkvent axloq, ayniqsa, o'z ortidan jinoiy yoki fuqarolik javobgarligi va tegishli jazoni boshlab keluvchi qonunbuzarlik shaklida namoyon bo'ladi. O'smirlarda (13 yoshdan boshlab) delinkvent axloqning quyidagi turlari ustunlik qiladi: bezorilik, mayda o'g'rilik, o'g'rilik, vandalizm, jismoniy zo'rlik, giyohvand moddalarni sotish. Bola yoshida (5 yoshdan 12 yoshgacha) o'zidan kichik yoshdagi bolalar va tengdoshlariga nisbatan zo'ravonlik, hayvonlarga shafqatsiz munosabat, o'g'rilik, mayda bezorilik, mulkni buzish, yondirish kabi shakllari birmuncha keng tarqalgan.

Asotsial axloq – bu shaxslararo munosabatlarning tinchligiga bevosita xavf soluvchi, axloqiy-ma'naviy me'yorlarni bajarishdan qochuvchi axloq. U tajovuzkor axloq, jinsiy deviatsiya (tartibsiz jinsiy aloqalar, fog'ishabozlik, yomon yo'lga kirish, vuayerizm, ekskibitsionlik va boshqalar), pulga azart o'yinlarga tortilish, daydilik, boqimandalik sifatida namoyon bo'ladi.

O'smir yoshida uydan chiqib ketish, daydilik qilish, maktabga bormaslik yoki ta'lim olishdan bosh tortish, tajovuzkor axloq, promiskuitet (tartibsiz jinsiy aloqa), graffiti (devorga uyatsiz

xarakterdagi rasmlar chizish va yozuvlar yozish), submadaniy deviatsiyalar (sleng, shramlash, tatuirovkalar) birmuncha tarqalgan.

Bolalarda esa uydan qochib ketish, daydilik, maktabga bormaslik, tajovuzkor axloq, g'iybat qilish, yolqon, o'g'rilik, ta'magirlik (tilanchilik) kabi ko'rinishlarda uchraydi.

Asotsial axloqning chegaralari, ayniqsa, o'zgaruvchan, chunki u boshqa axloqiy deviatsiyalardan ko'ra madaniyat va vaqtning ta'siri ostidadir.

Autodestruktiv (o'z-o'zini parchalovchi axloq) – bu tibbiy va psixologik me'yorlardan og'ishgan, shaxsning rivojlanishi hamda umuman o'ziga xavf soluvchi axloq. O'z-o'zini parchalovchi axloq zamonaviy dunyoda quyidagi asosiy shakllarda yuzaga chiqadi: suitsidal axloq, ozuqaga muhtojlik, kimyoviy moddalarga muhtojlik (psixofaol moddalarni suiste'mol qilish), fanatik axloq (masalan, destruktiv-diniy madaniyatga tortilish), autik axloq, viktim axloq (jabrlanuvchining axloqi), hayot uchun aniq ko'rinib xatarli faoliyat (sportning ekstremal turlari, avtomobilda yurganda tezlikni o'ta oshirish va boshqalar).

O'smir yoshda autodestruktiv axloqning xususiyati (avvalgi shakliga o'xshash) uning guruhli qadriyatlar bilan bilvosita bog'liqligi hisoblanadi. O'smir kiritilgan guruh autodestruktsiyaning quyidagi shakllarini tug'diradi: giyohvandlikka tobe bo'lib qolgan axloq, o'z-o'zini kesish, kompyuterga bog'lanib qolish, ozuqa addiktsiyalari, kamroq – suitsidal axloq kabilar.

Bolalik yoshida tekish va toksikomaniyaga o'rin bor, biroq umuman olganda ushbu yoshdagilar uchun autodestruktsiya davri kam karakterlidir.

Biz shaxs og'ishgan xulqining turli ko'rinishlari ikkita – o'ziga yoki boshqalarga qarama-qarshi yo'nalishli "destruktiv axloq"ning yagona o'qida joylashganini ko'ramiz.

Destruktiv ifodalanganlikning yo'nalishi va darajasi bo'yicha og'ishgan xulqning quyidagi shkala bo'yicha taqdim etish mumkin: antiijtimoiy (faol-destruktiv) – proijtimoiy (antiijtimoiy guruhlar me'yoriga moslashgan, nisbatan destruktiv) – asotsial (passiv-destruktiv) – o'z-o'zini parchalovchi (passiv-autodestruktiv) – o'z-o'zini o'ldiruvchi (faol-autodestruktiv).

Og'ishgan xulqning alohida turlarini ajratish va ularni o'xshash belgilar bo'yicha tizimlashtirish garchi ilmiy tahlil maqsadida

oqlangan bo'lsa-da, shartli hisoblanadi. Real hayotda alohida shakllar ko'pincha uyg'unlashadi yoki kesishadi, og'ishgan xulqning alohida aniq hollari individual bo'yalgan va takrorlanmas bo'ladi.

Og'ishgan xulqning ba'zi turlari me'yorning so'nggi chegarasidan kasallikka o'tishi va tibiyotni o'rganish predmeti bo'lishini aytib o'tish mumkin. Xullas, masalan, tibbiy maqsadlarda giyohvand moddalarni epizodik iste'mol qilish suiste'mol qilish shakliga (psixologik bog'liqlik) o'tishi va jismoniy bog'liqlik (giyohvandlik) belgilari bilan dardchil ishtiyoq rivojlanishi mumkin. Tibbiy bo'lmagan kasblar mutaxassisleri o'z vakolatlari chegarasidan chiqmasliklari va shifokor ishtiroksiz axloqning patologik shakli bilan shug'ullanmasliklari lozim.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgandek, og'riqli, shu jumladan, axloqiy buzilish kasalliklar tasnifida sanab o'tilgan va yoritib berilgan. Shuning uchun kim og'ishgan xulq bilan professional tarzda shug'ullanayotgan bo'lsa eng kam darajada tibbiy me'yorlar bilan boshqariladigan axloqning turlari haqida umumiy tasavvurga ega bo'lishi kerak.

Axloqiy buzilishlarning tibbiy tasnifi psixopatologik va yosh mezonlariga asoslangan. Ularga muvofiq tibbiy tashhisiy mezonlarga munosib, ya'ni kasallik darajasiga yetgan axloqiy buzilishlar ajratiladi. Kasalliklar xalqaro tasnifining o'ninchi qayta ko'rib chiqishdagi (MKB-10) "Psixik va axloqiy buzilishlar tasnifi" bo'limida quyidagilarni axloqiy buzilish (katta yoshdagilar uchun) deb aytadi:

F10-19 – psixik va axloqiy buzilish oqibatida psixofaol moddalarni (spirtli ichimliklar, opioidlar, kannabinoidlar, sedativ va uxlatuvchi moddalar, kokain, kofeinni kiritgan holda qo'zqatuvchilar, gallyutsinogenlar, tamaki, boshqa psixofaol moddalardan foydalanish yoki iste'mol qilish bilan uyg'unlashgan uchuvchi eritmalar) iste'mol qilish;

F50-59 – fiziologik buzilish va jismoniy omillar (ovqat qabul qilishning buzilishi; noorganik tabiatda uyquning buzilishi, organik buzilish yoki kasallik sabab bo'lmagan jinsiy disfunktsiya, tug'ishdan keyingi davr bilan bog'liq bo'lgan psixik va axloqiy buzilishlar, bog'liqlik chaqirmaydigan moddalarni suiste'mol qilish, masalan, setroidlar, vitaminlar) bilan bog'liq bo'lgan axloqiy sindromlar;

F63 – odatlar va intilishlarning (azart o'yinlarga patologik moyillik; piromaniya – patologik kuyishlar; patologik o'g'rilik –

kleptomaniya; soch yulish – trixotilomaniya; odatlar va intilishlarning boshqa buzilishlari) buzilishi;

F65 – jinsiy afzal ko‘rish bo‘lishi (fetishizm; fetishistik transvestizm; eksqubitsionizm; vuayerizm; pedofillik; sadomazoxizm; jinsiy afzal ko‘rish ko‘plab buzilishlari). Aytib o‘tish lozimki, ushbu taqrida gomoseksualizm yo‘q.

Ko‘rsatilgan bo‘limlar ushbu axloq tegishli bo‘lishi mumkin bo‘lgan kasalli buzilishlarga muvofiq belgilar va aniq tashhisiy mezonlardan iborat. Masalan, «Patologik o‘g‘irlik (kleptomaniya)» rubrikasi quyidagi tashhisiy belgilardan iborat: a) yoki shaxs yoki boshqa odam uchun ko‘rinmas sabablarsiz ikki yoki undan ortiq o‘g‘irlik hollari; b) individ o‘g‘irlikka kuchli intilish harakatni sodir etish oldidan zo‘riqish tuyg‘usi va undan keyingi yengillikni yoritib beradi.

MKB-10, shuningdek, bolalar va o‘smir yoshidagilar uchun xarakterli bo‘lgan boshlanish bilan axloqiy buzilish tipologiyasini ham o‘z ichiga oladi.

F90 – giperkinetik buzilishlar;

F91 – axloq buzilishi (F91.0 – oilaviy muhit bilan chegaralangan axloqning buzilishi; F91.1 – axloqning ijtimoiylashmagan buzilishi; F91.2 – axloqning ijtimoiylashgan buzilishi; F91.3 – oppozitsionchaqiruvchi axloq; F91.8 – boshqalar; F91.9 – aniqlanmagan axloq buzilishi);

F92 – axloq va hissiyotlarning kulgili buzilishi;

F94 – ijtimoiy ishlashning buzilishi;

F95 – tikoqli buzilish;

F98.0 – noorganik enurez;

F98.1 – noorganik enkoprez;

F98.2 – ilk yoshdagi bolalarda oziqlanishning buzilishi;

F98.3 – tanovul qilib bo‘lmaydigan narsani eyish;

F98.4 – stereotipli harakatlanuvchan buzilish;

F98.5 – duduqlanish;

F98.6 – shoshilib gapirish.

Ushbu axloqiy buzilishlar 6 oydan kam bo‘lmagan muddatda saqlanishi zarur bo‘lgan bir necha xarakterli simptomlarga ega bo‘lganda tashxis qo‘yiladi. Masalan, axloq buzilishiga quyidagi simptomlarni o‘z ichiga oluvchi takrorlanuvchi va turg‘un axloq taalluqlidir:

- 1) bemor o'z yoshi uchun g'ayrioddiy tarzda jahlning tez-tez yoki og'ir ko'tarilishini namoyon qiladi;
- 2) kattalar bilan tez-tez bahslashadi;
- 3) tez-tez kattalarning talablarini bajarishdan faol bosh tortadi yoki ularning qoidalarini buzadi;
- 4) ko'pincha ataylab shunday ishlarni qiladiki, boshqa odamlarning xo'riligini keltiradi;
- 5) o'z xatolari yoki axloqida ko'pincha boshqalarni ayblaydi;
- 6) ko'pinchi xafa bo'ladi yoki uni osongina o'ksitadilar;
- 7) ko'pincha hazablanadi yoki achchiqlanadi;
- 8) ko'pincha g'azabnok yoki qasoskor;
- ko'pincha foyda olish yoki majburiyatdan qochish maqsadida aldaydi yoki va'dasini buzadi;
- 10) ko'pincha mushtlashuv chiqaradi (bunga sibslar – aka-ukalar va opa-singillar bilan mushtlashish kirmaydi);
- 11) boshqa odamlarga jiddiy jismoniy zarar yetkazishga qodir bo'lgan qurollardan foydalanadi (masalan, chavgan, g'isht, singan butilka, pichoq, o'qotar qurollar);
- 12) ota-onasining ma'n etishiga qaramay kech qorong'igacha ko'chada qoladi (agar og'ishning boshlanishi bo'lsa – 13 yoshgacha);
- 13) boshqa odamlarga nisbatan jismoniy shafqatsizlikni namoyon etadi (masalan, qurbonni bog'laydi, uni kesadi, kuydiradi);
- 14) hayvonlarga nisbatan jismoniy shafqatsizlikni namoyish etadi;
- 15) begonalar mulkini g'araz bilan buzadi;
- 16) qasddan xatar yoki jiddiy zarar yetkazish maqsadida olov yoqadi;
- 17) uydan yoki boshqa joydan qimmatbaho buyumlarini o'g'irlaydi;
- 18) tez-tez dars qoldiradi;
- 19) uydan kamida ikki marta yoki bir marta qochgan, biroq bir kechaga (zo'ravonlikdan qochish holatidan tashqari);
- 20) jabrlanuvchining ko'z o'ngida jinoyat sodir etadi (hamyonni yulib olish, sumkani qirqishni kiritgan holda);
- 21) boshqa birovni jinsiy faoliyatga majburlaydi;
- 22) tegajoq axloqni tez-tez namoyish etadi (qasddan og'riq, kamsitish, qiynov yetkazish);
- 23) begona uy va avtomobillar ichiga kiradi. Izoh. 11, 13, 15, 16-simptomlar konstatsiyasi uchun.

20, 21, 23-bandlar uchun ularning loaqal bir marotaba yuzaga kelishi talab etiladi. Axloq buzilishi faqat agar buzilish shaxsning disijtimoiy buzilishi, shizofreniya, maniakal epizod, giperkinetik buzilish, ruhiy azoblanish holatidagi epizod, hissiy buzilish kabi boshqa buzilishlar mezoniga javob bermagan taqdirda tashhislanadi.

Asosiy tizimlashtirishga qo'shimcha ravishda hiyla xususiy tasniflardan ham foydalaniladi. M.Ratter bola yoshidagi axloq buzilishini ikkita asosiy guruhchalarga bo'ladi: jamiyatga qarshi axloqning ijtimoiylashgan shakllari va ijtimoiylashmagan tajovuzkor axloq. Birinchi guruhdagi bolalar va o'smirlar jamiyatga qarshi guruhlar ichida yaxshi moslashadilar, guruhda antiijtimoiy harakatlar sodir etayotib, hissiy buzilishlar belgilarini namoyish etmaydilar. Ijtimoiylashmagan tajovuzkor axloq vakillari, aksincha, yaqin atrofdagilar – boshqa bolalar va oilalari bilan juda yomon munosabatda bo'ladilar. Ular uchun dushmanlik, salbiylik, qo'pollik va qasoskorlik xarakterlidir.

D.N.Oudxorn bolalar yoshidagi axloqiy buzilishni giperfaollik va antiijtimoiy tajovuzkor(yoki oppozitsion) axloqqa bo'lishni taklif qiladi. O'smir yoshidagilar uchun antiijtimoiy (delinkvent) axloq, giyohvand moddalarni suiste'mol qilish, nomaqbul jinsiy axloq xarakterlidir.

A.E.Lichko fikri bo'yicha bola va o'smir yoshida axloq buzilishining 7 turini o'z ichiga olgan R.Djenkins tasnifi tarqalgan: giperkinetik reaksiya, ketish reaksiyasi, autistik tipdagi reaksiya, xavotir reaksiyasi, qochoqlik reaksiyasi, «ijtimoiylashmagan tajovuzkorlik», guruhli qonunbuzarlik.

O'smirlarning deviant axloqi mahalliy tibbiy adabiyotlarda yetarlicha yoritilgan. U, qoidadagidek, delinkvent axloq, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni barvaqt iste'mol qilish, jinsiy axloq deviatsiyasi, suitsidal axloq, uydan qochib ketish va daydilik kabi shakllarni o'z ichiga oladi. Bunda o'smir buzilgan axloqining, ayniqsa, klinik aspektlarini ishlab chiqib, tadqiqotchilar uning ijtimoiy-psixologik determinantining yetakchi rolini ta'kidlaydi.

4.3. Axloqiy fenomenlarni qiyosiy tavsifnomasi

Axloqiy deviatsiya tasniflarini taqqoslab, biz turli axloqiy fenomenlarning farqli xususiyatlarini anchagina aniq ifodalashi mumkin.

Ijtimoiy axloqning asosiy variantlari:

Me'yoriy («standart») axloq – ko'pchilik odamlar uchun xarakterli bo'lgan ijtimoiy me'yorlarga mos tushadi, atrofdegilarning ma'qullashini uyg'otadi va me'yoriy moslashuvga olib keladi. Unuman olganda, u garchi individuallikdan maqrum bo'lsa-da, vaziyatga teng, mahsuldor.

Marginal (cheklangan) axloq – ijtimoiy me'yorlarning eng oxirgi chegarasida turadi, me'yor chegaralarini yuvadi va kengaytiradi, atrofdegi odamlarda zo'riqish tuqdiradi.

Nostandart («nome'yoriy») axloq – ushbu jamiyatda ushbu vaqtda qabul qilingan kamchilik odamlarga xos me'yorlar chegarasidan chiqadi. Ikki asosiy shaklda namoyon bo'ladi:

– kreativ (ijodiy) axloq – yangi g'oyalarni amalga oshiradi, o'ziga xos, mahsuldor, taraqqiyparvar, me'yorning o'zini o'zgartirishga olib kelishi mumkin, biroq qator hollarda atrofdegilarning qarshiligini uyg'otadi;

– deviant (og'ishgan) axloq – mahsuldor emas, destruktiv yoki autodestruktiv, atrofdegilarning ma'qullamasligini uyqotadi.

4. Patologik axloq – tibbiy me'yorlardan og'ishadi, aniq simptomlar shaklida namoyon bo'ladi, mahsuldorlik va shaxsning ishga layoqati tushib ketadi, atrofdegilarning g'ayrixoqligi yoki qo'rquvini. Patologik axloq vaziyatga teng emas, u shaxsning o'z harakatlarini anglash va ularni boshqarish qobiliyatining pasayishi bilan birga boradi.

Nazorat savollari:

1. Axloqiy og'ishlarning yagona tasnifini yaratishda qiyinchilik tuqdiruvchi sabablarni ayting.

2. Ijtimoiy og'ishishlarning asosiy turini sanab bering.

3. Axloqiy buzilishlarning (kattalar va bola-o'smir yoshidagilar uchun) kasallarni o'ninchi qayta ko'rish xalqaro tasnifiga muvofiq asosiy ko'rinishlarini ayting.

4. Shaxsning og'ishgan xulqini psixologik tizimlashtirishdagi asosiy yutuqlar va kamchiliklarni ifodalang.

5. Axloqiy og'ishlarning ishchi tasnifini yodga oling.

6. Og'ishgan axloq ko'rinishlarida o'z tasnifingizni taklif qiling.

7. Turli axloqiy fenomenlarni sanab bering va taqqoslang.

8. Patologik axloqni tushuntiring.

V BOB. SHAXS TAJOVUZKOR AXLOQINING SHAKILLANISH SHART-SHAROITLARI VA NAZARIYALARI

Tayanch tushunchalar: Agressiya va agressiv xulq-atvor. Shaxsning agressiv xulq-atvorining shakllanish sharoitlari. Agressiya va delinkvent xulq.

5.1. Tajovuz va tajovuzkor axloq

Xulq-atvor deviatsiyalarining turlanishi bilan tanishib, biz uning xilma-xilligiga amin bo'ldik. Og'ma xulq-atvorning turli shakllarining umumiy xususiyatlarini deviatsiya guruhlariga tegishlilik me'yorlari bo'lib keladi. Bunday muhim xususiyatlarning bittasi destruktivlik – vayron qilishdir. Haqiqatdan ham, deviant xulq-atvor umuman olganda, biror narsaning vayronagarchiligiga olib keladi (sog'likning, munosabatlarning, shaxsning, jamoa tartibining va hattoki hayotdan ko'z yumish).

Ma'lumki, destruktivlik o'z navbatida agressiya (tajovuz) kabi asosiy insoniy xususiyat bilan bog'liq. Bizning fikrimizcha, agressiv xulq-atvor – og'ma xulq-atvorning alohida turi emas, u boshqalarga yoki o'ziga yo'naltirilgan, xulq-atvor deviatsiyalarining turli shakllarida bevosita ishtirok etadi va maxsus tadqiq etishni talab qiladi.

Insoniyatning butun tarixi shuni ko'rsatadikidiki, agressiya shaxs va jamiyat hayotining ajralmas bo'lagidir. Bundan tashqari, agressiya kuchli jalb qilish kuchiga ega va yuqumlidir - ko'pchilik insonlar agressiyani og'zaki rad etsada, ammo o'zlarining kundalik hayotida uni keng namoyon qiladilar. Lotin tilidan tarjima qilganda "agressiya" – "tajovuz qilish" ma'nosini angalatadi. Hozirgi vaqtda agressiya atamasi juda keng qo'llaniladi. Ushbu fenomenni negativ emotsiyalar bilan (masalan, jahl bilan) va negativ motivlar bilan (masalan, zarar yetkazish bilan), hamda negativ qarashlar bilan (masalan, ratsizm belgilari bilan) va vayron etish xarakatlari bilan bog'laydilar.

Psixologiyada agressiya deganda, boshqalarni o'ziga bo'ysindirish yoki ularning ustidan hukmronlik qilish maqsadida, fantaziyasida (xayol surish) yoki real xulq-atvorda namoyon bo'ladigan tendensiyani (intilishni) tushunadilar. Ushbu tendensiya universal xarakterga ega, ammo "agressiya" atamasining o'zi umuman neytral ma'noga ega.

Aslida, agressiya hayot va yashash qiziqishlariga xizmat qiladigan, pozitiv, hamda o'zining agressiv xohishini qoniqtirishga yo'naltirilgan, negativ ham bo'lishi mumkin.

Agressiya psixik reallik sifatida aniq xarakteristikalariga ega: yo'naltirilganligi, namoyish etish shakllari, intensivlik kabilar. Agressiyaning maqsadi - xususan jabrlanuvchiga azob (zarar) yetkazish (dushmanlik agressiyasi), hamda agressiyani boshqa maqsadlarga erishish vositasi sifatida qo'llash (instrumental agressiya) hisoblanadi. Agressiya tashqi obyektlarga ham yo'naltiriladi (insonlar yoki predmetlar) yoki o'ziga (tanasi yoki shaxsiyatiga) qaratilgan bo'lishi mumkin. Boshqa insonlarga yo'naltirilgan agressiya jamiyat uchun maxsus xavfni tashkil etadi. A. Bandura va R. Uolter uni asotsial agressiya deb ataganlar va uni ijtimoiy-destruktiv xarakterli xarakatlar bilan bog'laydilar, buning natijasida boshqa shaxs yoki mulkga zarar yetkazilishi mumkin, biroq bu harakatlar qonun tomonidan jazolanmasligi ham mumkin.

Agressiya turlicha shakllarga ega bo'lishi mumkin - ochiq va latent. "Agressiya" atamasini vayron etish niyatlarini belgilash uchun qo'llanilishiga qaramasdan, uni pozitiv namoyishlarini atash uchun ham keng qo'llaydilar, masalan, manmanlikdan kelib chiqqan faollik uchun. Bunday harakatlarni o'z mavqeini o'rnatish deb belgilaydilar, shu bilan bu harakatlar do'stona motivatsiya yordamida paydo bo'lganini ta'kidlaydilar. Ular raqobat, yutuqlarga intilish, hazil, sport musobaqalari va boshqa shakllarda namoyon bo'ladi.

Agressiyaning odatiy ko'rinishlari quyidagilar hisoblanadi: nizo chiqarish, bosim o'tkazish, majburlash, tilining yomonligi, negativ baholash, hamla qilish yoki jismoniy kuchni qo'llash. Agressiyaning yashirin shakllari aloqadan qochish, kimgadir zarar yetkazish maqsadiga befarqlik, o'ziga ziyon yetkazish va o'z joniga qasd qilish kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Agressiyaning ichki reprezentatsiyalari turli agressiv affektlar orqali namoyon bo'lishi mumkin, bular (intensivlik va chuqurligi tartibida) asabiylashish, hasad, nafrat, g'azab, chidamlilik, vahshiylik, jinnilik va qutirish. Agressiv affektlar intensivligi ularning psixologik funksiyasi bilan hamjihat. Agressiya individ uchun avtonomiyani saqlab qolish, azob yoki xavf manbaini yo'qotish, ehtiyojlarini qondirish yo'lida to'siqlarni yo'q qilish, ichki nizoning yechimi, o'zini baholashning o'sishi kabi muhim funksiyalarni bajarishi mumkin. Bu

vaziyatda agressiyani shaxs to'la-to'kis yoki qisman anglamasligi mumkin.

Eng murakkab agressiv va intensiv affektlardan biri – nafratdir. Nafratga chalingan insonning asosiy maqsadi agressiya obyektini yo'qotishga qaratiladi. (Shubhasiz, nafrat jiddiy xavfni bartaraf etishga yo'naltirilgan, g'azabning normal reaksiyasi bo'lishi ham mumkin). Ma'lum sharoitda nafrat va qasoskorlik noadekvat kuchayishi mumkin. Agar ular mustahkam karakterologik ahamiyat kasb etsa, fe'l-atvorning psixopatologiya darajasiga yetish haqida gapirish mumkin.

Psixopatologiyaning “yengilroq” vaziyatlarida nafrat qattiq ma'naviy ta'qiqlar shaklini va shaxsiy ideallarni agressiv mustahkamlashni o'zlashtiradi. Shu bilan birga nafrat hokimiyatga erishish, bo'ysindirish yoki kamsitish kabi xohishlarida ham namoyon bo'lishi mumkin. Eng og'ir shakllarida sadistik moyilliklar paydo bo'ladi - obyektни azoblanishidan rohat olish. Nafrat namoyishining oxirgi shakli - yo'qotishga intilish (qotillik) va o'z joniga qasd qilish, masalan, qachonki “menlik” yoqimsiz obyekt bilan taqqoslansa va o'zini o'ldirish obyektini yo'qotishining yagona yo'li bo'lsa namoyon bo'ladi.

Nafrat obyektini bilan munosabatlar agressor shaxsiyati uchun muhim qadriyatga ega. U nafrat obyektini chin dildan yo'qotishni istaydi va shu bilan birga u bilan munosabatlarni saqlab qolishga intiladi.

Shaxsdagi og'ishning bir qancha omillarini ko'rsatish mumkin. Buni turli fanlar o'z yo'nalishlariga qarab turlicha tadqiq qiladilar. Bu sotsiologik, biologik, psixologik, evolyutsion, nazariy psixologik nazariyalarga bo'linadi.

Agressiyaga biologik yondashuv

Biologlar asosan muammoning murakkab va ahamiyati yuqori turlariga to'xtalishni o'zlariga maqsad qilib olishgan. Biologik nazariyalar deviant holatlarni ta'qiq qilishda deviant xulq-atvorning agressivlik va jinoyatchilik turlarini tadqiq qilishga harakat qilishadi. Lekin devyatsiya muammosi keng ko'lamdagi ijtimoiy muammo hisoblanib, jamiyatda mavjud jamiyat tomonidan qabul qilinmagan har bir harakatni o'z ichiga oladi. XIX ikkinchi yarmida italiyalik Ch.Lombroz biologik nazariya yo'nalishda dastlab deviant xulq-atvor

muammosi bilan shug'ullangan. Ch.Lombroz jinoyatchilikning asosiy sababi bu irsiy-biologik omillar deb uqtiradi. Jinoiy (kriminal) xulq-atvorning paydo bo'lishiga dastlab ob-havo, tabiat va tug'ma omillardan tortib iqtisodiy, madaniy va genderlargacha bo'lgan ijtimoiy omillar ham sabab bo'lishi mumkin, deb ta'kidlaydi. Keyinchalik sotsiologiya va psixologiya fanlarining deviant xulq-atvor muammosini o'rganish ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlari biologik yo'nalishdagi nazariyalarning yetarli darajada ilmiy asoslanmagani, muammoni hal qilish chog'ida faqat bir tomondangina yondashilganligi, tadqiqot metodlarining samarasizligi ma'lum bo'ldi.

Ekologik yondashuv

Ushbu yondashuv Z.Freyd nuqtai nazariga o'xshash bo'lgan agressiyaga evolyutsion yondashuv tarafdori K.Lorens tadqiqotlarida yangicha mazmun kasb etdi. Lorensning fikriga ko'ra, tajovuzkorlik barcha jonzotlarda bo'lgani kabi, insonda ham mavjud bo'ladi. U yashash uchun kurash instinktiga asoslanuvchi agressiv energiya organizmda uzoq vaqt davomida muntazam yig'ilib borib, uzluksiz ravishda, qo'qqisdan paydo bo'ladi, deb hisoblagan. Shu tariqa, aniq tajovuzkor hatti-harakat quyidagi ikkita vazifani bajarish natijasida yuzaga keladi:

1. Jamlangan tajovuzkor energiyaning miqdori;
2. Agressiyani bo'shashini yengillashtiruvchi stimullarning mavjudligi.

Tajovuzkorlik nazariyasining fundamental tadqiqotlari aynan K.Lorensqa tegishlidir. Birinchidan, u hayvonlardagi o'z turdoshlariga nisbatan tajovuzkorlikni zararli emas, balki turning saqlanib qolishi uchun foydali, deb hisoblagan. Agressiyani turni saqlanib qolishi uchun lozim bo'lgan tabiiy instinkt sifatida anglash uning xavfini tushunish imkonini beradi. Uning xavfi kutilmaganda yuz berishidadir. Aksariyat sotsiologlar va psixologlar o'ylaganlaridek, agressiya tashqi ta'sirlarga bog'liq bo'lmaydi. Ikkinchidan, Lorensning fikriga ko'ra, guruh a'zolari bir-birlari bilan qanchalik yaqin bo'lsalar, qanchalik bir-birlarini tushunsalar hamda yaxshi ko'rsalar, agressiya shunchalik xavfli bo'ladi.

Uchinchidan, Lorens tajovuzkorlikka qarshi ijtimoiylashuvning quyidagi usullarini ko'rsatdi: almashtirish, hujum mo'ljalini o'zgartirish. Lorens buni evolyutsiya natijasida erishilgan ajoyib ixtiro,

tajovuzni xavfsiz yo'nalishga burib yuborish vositasi deb yozgan. Sherer ham, modomiki agressiya instinkt ekan, uni boshqa faoliyat bilan almashtirish lozim deb hisoblagan. Shu o'rinda an'analarning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqidagi Lorens g'oyalari diqqatga sazovor. Xususan, u o'zining dastlabki kommunikatsiya vazifasini o'zgartirib, yangi ikkita vazifani bajarishga kirishadi: agressiyadan saqlanish hamda bir tur a'zolari ichidagi aloqalarni saqlab qolish. Uchinchi muhim vazifasi bir turni qobiq ichida saqlab, boshqa turlardan himoyalash. Bu bugungi kundagi me'yorlarning aniq ifodasidir. Ijtimoiy me'yorlar va an'analarning mustahkamligi eng dahshatli urush – dinlararo urushga olib kelishi mumkin va bu bugungi kunda kuzatilmoqda.

5.2. Agressivlik (tajovuzkorlik) barcha asoslarning asosi sifatida

Kundalik hayotda ishlatilayotgan tushuncha bilan ilmiy atama har doim ham bir-biriga mos kelavermaydi. Kundalik hayotda agressiya deganda biz ko'proq adolatsiz, asossiz hujumni tushunamiz. Etologiyada agressivlik tushunchasi g'azab, jahl, nafratni anglatadi. U hech qanaqa, ijobiy ham salbiy ham ko'rinishga ega emas. U neytraldir. Bu ta'rifni K.Lorens "G'azab: agressiv xulq-atvorning tabiiy tarixi" nomli kitobida keltirib o'tadi. Agressiya ko'pincha hujum qilganda ko'zga tashlanadi, biroq, g'azabsiz hujumni etologlar agressiya deb atamaydilar. Tabiatda bir tur ikkinchi turga hujum qiladi. Bo'ri quyonga hujum qilsa, agressiya emas, ov hisoblanadi. Shu kabi, ovchining o'rdak otishi yoki baliqchining qarmoq tashlashi agressiya emas. Chunki ular o'ljaga nisbatan qo'rquv, g'azab yoki nafrat hissini tuymaydi. Agressiv xulq-atvorni esa, ushbu tuyg'ular yuzaga keltiradi. Itning begona odamga tashlanishi agressiyadir. Odamning itga javoban tosh otishi ham agressiyadir. Chunki, shu vaqtda ikkala tomon ham bir-biridan qo'rqib va bir-biridan nafratlanib, harakatlanadilar. Bir hayvon ikkinchisining jahlini chiqarsa yoki xavf tug'dirsa (o'ziga, hududiga, uyiga, bolalariga) yoki shunchaki notanish hamda shubhali ko'rinsa, agressiyaga duch keladi. Agressivlik hayvonlarda hudud bilan bog'liq ravishda yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu holat Govard tomonidan 1920 yilda kashf qilinganidan so'ng, ma'lum bo'ldiki, bu holat juda keng tarqalgan ekan. Ko'p hayvonlar o'z hayotlarining bir bo'lagi sifatida o'z hududlarini qattiq himoya qiladilar. Hududlar ayrim hayvonlarda, ko'proq yovvoyi hayvonlarda, individual bo'lsa,

aksar hayvonlar to‘da yoki podaning umumiy hududiga egadirlar. Agar biron bir hayvonga tegishli hududga boshqasi, o‘sha turning vakili bo‘lsa ham, tashrif buyuradigan bo‘lsa, xo‘jayinning qarshiligiga uchraydi va bu qarshilik hududning markaziga yaqinlashgan sari ortib boraveradi. Aksincha, boshqa hayvon hududida agressivlik pasayib, begona hayvon qochishga harakat qiladi (Buni yaxshi bilgan hayvon o‘rgatuvchilar qafasga birinchi bo‘lib o‘zlari kiradilar. Ikkinchi bo‘lib kirgan hayvon qafasni hayvon o‘rgatuvchining hududi sifatida qabul qiladi va uning agressivligi yo‘qoladi). Aslida esa, hayvonlarda hudud agressiya natijasida yuzaga keluvchi tushunchadir. Lorensning fikriga ko‘ra, agressivlik oddiy instinktadir (barcha biologlar ham bu fikrga qo‘shilavermaydilar). Buni isbotlash uchun u va uning xodimlari bir qator tajribalar o‘tkazganlar. Ular hayvonlarni turdoshlaridan alohida saqlab, ularda agressivlik o‘rganish orqali emas, tug‘ma mavjud bo‘lishini isbotlaganlar. Masalan, alohida saqlangan sichqonlar va kalamushlar o‘zlarini turdoshlariga qaraganda agressivroq tutishgan. Ular o‘z turdoshlariga ham darhol hujum qilganlar, bunda ular o‘z turiga xos usullarni qo‘llaganlar. Agressiya doimo qo‘rquv bilan birga yuradi, qo‘rquv har doim agressiyani yuzaga keltiradi. Buni turli hayvonlarda olib borilgan tajribalar ko‘rsatib bergan. Agar hayvonlar qo‘rqutiladigan bo‘lsa, ular agressivroq bo‘lib qolishgan. Bu insonlar to‘dasi yoki butun jamiyatda ham kuzatilishi mumkin. Agressivlik eng xavfli holatdir. Agressivlik ichdan paydo bo‘ladi va to‘planib boradi. Oldin psixologlar agressivlik tashqi omillar natijasida yuzaga keladi va agar tashqi omillar bartaraf etilsa, agressivlik paydo bo‘lmaydi, deb o‘ylashgan. Etologlar buning noto‘g‘ri ekanligini isbotlab berishdi. Qo‘zg‘atuvchilar mavjud bo‘lmaganida agressivlik ichkarida yig‘ilib boraveradi. Agressivlikni saqlovchi holatlar esa kamayib boraveradi va arzimagan sabab ham, uning yuzaga chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Oxir oqibatda u hech qanday sababsiz ham yuzaga chiqishi mumkin. Kundalik hayotda bizning agressivligimiz turli insonlar bilan yuzaga keluvchi mayda-chuyda ziddiyatlar orqali yuzaga chiqib turadi. Biz agressivlikni qanday qilib boshqarishni o‘rganishimiz mumkin, biroq u insonning eng kuchli instinktalaridan biri bo‘lganligi sababli, uni butunlay yo‘qota olmaymiz. Shuni esda saqlash lozimki, agressiv insonning atrofidagi qo‘zg‘atuvchilarni bartaraf etish orqali uning agressivligini yo‘qotmaymiz, balki yig‘ilib borishiga yo‘l qo‘yib beramiz. U baribir yuzaga chiqadi, buning ustiga ko‘proq kuch bilan

namoyon bo'ladi. Qayg'uli bo'lsa-da, haqiqat shundan iborat. Agar qo'zg'atuvchi mavjud bo'lib, u qo'rqinchliroq bo'lsa, agressivlik mo'ljali o'zgarishi mumkin. Ayni vaqtda boshqa yo'nalishda amalga oshirilgan agressiya raqibga o'z kuchini namoyish etish vazifasini ham bajaradi: "ko'rib qo'y men nimalarga qodirman" abilida aks etadi. Ko'p hollarda agressiya uchun mo'ljali o'z turdoshi yoki boshqa turdagilarga o'zgartirib turiladi, faqat mo'ljaldagi nishon javob qaytara olmasa bo'lgani. Yo'lovchidan so'kish eshitgan aravakash alamini otlardan oladi. Biron narsadan jahli chiqqan kishi itini tepkilab qolishi mumkin. Boshlig'idan gap eshitgan er xotinini so'kadi; xotin bolasini urishadi; bola esa, alamini mushugidan oladi. Agressiya mo'ljalini kuchsiz va aybsiz tomonga qaratib o'zgartirish ierarxiyani saqlashda muhim ahamiyatga ega. Agressivlik tur uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir necha vazifalarni bajaradi. Agressivlik yordamida hudud muhofaza qilinadi. Kuchsiz hayvon kuchli hayvondan o'z uyini himoya qila oladi. Chunki u o'z uyida agressivroq, demak u kuchliroqdir. Hududning mavjudligi esa, bir tur vakillari uchun muhim bo'lib, u bir-biriga halal bermasdan yashash imkonini beradi. Ikkinchi omil Darvin tomonidan ko'rsatib berilgan edi. Raqobatlashayotgan erkakning kuchliroq'i ayolga egalik qiladi va avlod qoldiradi. Shu tarzda podaga yo'l boshchilik qiluvchi va himoya qiluvchi erkak saralanadi. Bolalarini himoya qilish uchun jangga tashlanishda ham agressivlikning o'rni yuqori bo'ladi. Bu holatni bolalarni himoya qilishni bir jins vakillari o'z zimmasiga oladigan hayvonlarda yaqqol ko'rish mumkin. Mazkur hayvonlarda aynan bola himoyasini o'z zimmasiga oluvchi jins agressivroq bo'ladi. Agressivlik hayvonlar jamoasini saqlanib qolishiga ko'maklashuvchi qat'iy ierarxiya mexanizmini amal qilishiga ham ko'maklashadi. Buning mazmuni shundaki, jamoaning har bir a'zosi kim kuchliroq va kim kuchsizroq ekanligini yaxshi biladi, kuchsizlar kuchlilarga ovqatda, ayolga egalik qilishda va boshqalarda yo'l beradi. Hayvonlar guruhida ierarxiya juda tez, ba'zan kichik to'qnashuvlar orqali, ko'pincha esa, busiz ham o'rnatilaveradi. Ba'zan bu to'liq tartiblashuvga olib keladi.

Psixanalitik yondashuv

Mazkur nazariyaning asoschisi Zigmund Freyddir. U tajovuzkor xulq tabiatiga ko'ra instinktiv bo'ladi va bundan qochib qutulib bo'lmaydi, deb hisoblagan. Insonda ikkita o'ta kuchli instinkt mavjud:

jinsiy (seksual (libido)) va o'limga chorlovchi instinkt (tanatos). Birinchi turdagi energiya hayotni mustahkamlash, saqlash va qayta ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. Ikkinchi turdagi energiya esa, hayotni buzish va tugatishga yo'naltirilgan bo'ladi. Uning ta'kidlashicha, insonning xulq-atvori mazkur instinktlar o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqadorlikning natijasi bo'lib, ular o'rtasida doimiy zo'riqish mavjud bo'ladi. Hayotni saqlash (eros) va uni yemirish (tanatos) o'rtasida kuchli ziddiyat borligi sababli, boshqa mexanizmlar tanatosning energiyasi "Men" tomonga emas, balki boshqa tomonga, umuman tashqariga yo'naltirish maqsadiga xizmat qiladi. Agar tanatosning energiyasi tashqariga yo'naltirilmasa, individning o'zini yemirilishiga qilib keladi. Shu tariqa, tanatos agressiyaning tashqariga chiqishiga va boshqalarga yo'naltirilishiga sababchi bo'ladi. Bu nazariyani quyidagi chizmada ifodalash mumkin:

Yemirilish Saqlanish
 Tanatos----- Men ----- Eros

Energiya yo'nalishining o'zgarishi agressiya, boshqalarga yo'nalgan xavfli hatti-harakatlarning paydo bo'lish ehtimolini kamaytirishi mumkin bo'lgan hodisa – agressiyaga olib keluvchi hissiyotning tashqi namoyon bo'lishidir.

Ijtimoiy o'rganish nazariyasi (bixevioral model)

Boshqalardan farqli ravishda, mazkur nazariyaga ko'ra, og'ma xulq-atvor ijtimoiylashuv jarayonida kuzatish orqali mos xulq-atvor shakllarini o'zlashtirilishi va mustahkamlanishi natijasida yuzaga keladi. Ya'ni, biron bir insonning namunaviy xulqini o'rganish jarayoni ketmoqda. Ushbu nazariya Bandura tomonidan taklif etilgan bo'lib, quyidagi jadvalda tajovuzkor xulqni o'zlashtirilishi, yuzaga keltirilishi va boshqarilishi tushuntirilgan.

Banduraning ijtimoiy o'zlashtirish nazariyasi

Tajovuzkorlik vosita orqali o'zlashtiriladi:	<ul style="list-style-type: none"> • Biologik omillar (masalan, gormonlar, asab tizimi); • O'zlashtirish (masalan, bevosita tajriba, kuzatish).
Tajovuzkorlik yuzaga keltiriladi:	<ul style="list-style-type: none"> • Namunalarning ta'siri ostida (masalan, qo'zg'atish, diqqat); • Qabul qilib bo'lmaydigan munosabat (masalan, hujum, frustratsiya);

	<ul style="list-style-type: none"> • Qo'zg'atuvchi motivlar (masalan, pul, faxrlanish); • Ko'rsatmalar (masalan, buyruqlar); • G'alati yondashuv (masalan, paranoik yondashuv).
Tajovuzkorlik boshqariladi:	<ul style="list-style-type: none"> • Tashqi rag'bat va jazo (masalan, moddiy mukofot, noxush oqibat); • Ko'rgazmali tajriba (masalan, boshqalarni qanday mukofotlashganlarini yoki jazolashlarini kuzatish); • O'zini-o'zi boshqarish mexanizmlari (masalan, faxr, aybdorlik)

Uning nuqtai nazariga ko'ra, tajovuzkor xulqni tahlil qilishda quyidagi uchta jihatni hisobga olish lozim:

1. Mazkur harakatlarni o'zlashtirish usullari;
2. Uni yuzaga keltiruvchi omillar;
3. Ular mustahkamlanadigan sharoitlar.

Shu boisdan, bu yerda eng katta ahamiyat bolalarga tajovuzkorlikni o'rganishga, ijtimoiylashuvning birlamchi vositachilari, aniqroq aytganda ota-onalarning ta'siriga qaratiladi. Xususan, ota-onalarning xulq-atvorlari tajovuzkorlik modeli vazifasini o'tashi va agressiv ota-onalarning bolalarida ham agressivlik kuzatilishi isbotlandi. Shuningdek, ushbu yondashuv namoyondalari keng diapazondagi tajovuzkor reaksiyaning inson tomonidan o'zlashtirilishi – ushbu xulqni to'g'ridan-to'g'ri rag'batlantirishga kiradi. Ya'ni, tajovuzkor hatti-harakatning mustahkamlanishi mazkur hatti-harakatning keyinchalik ham takrorlanish ehtimolini oshiradi. Shuningdek, natija keltiradigan tajovuzkorlik, ya'ni tajovuzkor xulqning qo'llanilishi oqibatida muvaffaqiyatga erishish ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bunga yana boshqalardagi tajovuzkorlikni kuzatish natijasida yuzaga keladigan vikar tajriba ham kiradi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va jazolash tajovuzni qo'zg'atuvchisi hisoblanadi. O'zini-o'zi taqdirlash va o'zini-o'zi jazolash – inson o'zi uchun o'rnatib olgan va taqdirlash va jazolash orqali boshqariladigan tajovuzkorlikning ochiq modelidir. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, ushbu nazariya inson tajovuzkorligini oldini olish va nazorat qilish uchun ko'proq imkoniyat qoldiradi. Buning ikkita sababi bor:

1. Ushbu nazariyaga ko'ra, tajovuzkorlik ijtimoiy xulq-atvorning o'zlashtirilgan modeli. Demak, turli chora-tadbirlar orqali (sabablarni

bartaraf etib) uni yumshatish mumkin; Ijtimoiy o'qitish (sotsial kognitiv) insonlardagi agressiya faqat maxsus ijtimoiy sharoitlardagina yuzaga keladi, deb hisoblaydi. Hozirgi kunda ijtimoiy o'qitish nazariyasi agressor va ijtimoiy rivojlanish holati haqida ma'lumotlar mavjud bo'lsa, tajovuzkor xulqni tushuntirib beruvchi eng samarali usul hisoblanadi. Shu tariqa, yuqorida keltirilgan, tajovuzkor xulqni ta'riflovchi nazariyalardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- Tajovuzkorlikning paydo bo'lishiga tabiiy va ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi;

- Tajovuzkorlik zo'ravonlik bo'lish bilan birga, individning yashash uchun kurashdagi me'yoriy reaksiyasi bo'lishi ham mumkin;

- Tajovuzkor bo'lmagan xulqni ijobiy mustahkamlash, tajovuzkorlikni yuzaga keltiruvchi sharoitlarni o'zgartirish orqali agressiv hatti-harakatlar yumshatilishi yoki ijtimoiy maqbul yo'nalishga o'zgartirilishi mumkin.

Tajovuzkorlikni ta'riflovchi asosiy nazariyalarni tahlil qilib, uning tabiatini tushuntirib beruvchi asosiy tushunchalarni ta'riflaymiz. R.Beron va D.Richardsonlar qanday shaklda namoyon bo'lmasin, boshqa jonzotga zarar yetkazishga yo'naltirilgan xulq-atvor bo'lib, o'sha mavjudot mazkur munosabatdan himoyalaniishi uchun barcha asoslarga ega. Mazkur keng qamrovli ta'rif o'z ichiga quyidagi xususiy holatlarni qamrab oladi:

1. Tajovuz har doim qurbonga anglangan maqsadli zarar yetkazishni nazarda tutadi;

2. Faqat jonli mavjudotlarga zarar yetkazishga yo'naltirilgan xulq-atvorgina tajovuzkor deb qaralishi mumkin;

3. Qurbonlar o'ziga nisbatan munosabatdan qochish uchun motivga ega bo'lishlari lozim.

E.Fromm esa, tajovuzkorlik deganda boshqa insonga, odamlar yoki boshqa jonzotlarga, shuningdek har qanday tirik bo'lmagan obyektlarga yetkazilgan zararni tushunish lozimligini bildiradi. R.S.Nemovning fikriga ko'ra, tajovuzkorlik dushmanlik sifatida – insonning boshqa insonlarga noxushlik tug'dirish, zarar yetqazishga yo'naltirilgan xulq-atvoridir. V.Zinchenko tahriri ostidagi "Psixologiya lug'ati"da quyidagicha ta'rif beriladi: Tajovuzkorlik – motivga ega bo'lgan, salbiy xulq-atvor bo'lib, insonlarning ijtimoiy hamkorlikda yashashning me'yorlari va qoidalariga zid bo'ladi, hujum obyektlariga (jonli va jonsiz) zarar keltiradi hamda kishilarga jismoniy

zarar keltiruvchi hamda ularda ruhiy noxushlik (salbiy hissiyotlar, zo'riqish, qo'rquv, tushkunlik holati) tug'diradi. Tajovuzkorlikning namoyon bo'lishi turlicha. Tajovuzkorona chiqishlarning ikkita asosiy turini ajratib ko'rsatiladi:

- Maqsadli tajovuzkorlik;
- Instrumental tajovuzkorlik.

Birinchisida oldindan rejalashtirilgan, obyektga zarar yetkazish maqsadidagi faoliyat sifatidagi amalga oshirilishi tushuniladi. Ikkinchisida esa, biron bir natijaga erishish maqsadida amalga oshirilayotgan faoliyat tushuniladi va bu tajovuzkorona maqsadni ko'zlamaydi.

Tajovuzkorona faoliyatning tuzilmasini quyidagilar tashkil qiladi:

1. Yo'nalishiga ko'ra:

- Tashqariga yo'naltirilgan tajovuzkorlik;
- Autoagressiya – o'ziga yo'naltirilgan tajovuzkorlik.

2. Maqsadiga ko'ra:

- Intellektual tajovuzkorlik;
- Dushmanona tajovuzkorlik.

3. Namoyon bo'lish usuliga ko'ra:

- Jismoniy tajovuzkorlik;
- Verbal tajovuz.

4. Namoyon bo'lish darajasiga ko'ra:

- To'g'ridan-to'g'ri tajovuzkorlik;
- Bilvosita tajovuzkorlik.

5. Tashabbusning mavjudligiga ko'ra:

- Tashabbuskorona tajovuz;
- Himoyaviy tajovuz.

Ko'pincha tajovuzkorona hatti-harakat va tajovuzkor xulq-atvor tushunchalarini bir xil mazmunda ishlatishadi. Vaholanki, bular ikki xil tushunchalardir. Tajovuzkorona hatti-harakat holatga mos aksta'sir sifatida tajovuzkorlikning namoyon bo'lishidir. Agar tajovuzkor hatti-harakatlar takrorlanaversa, tajovuzkor xulq-atvorga aylanadi. Tajovuzkorlikning o'zi esa, tajovuzkorona hatti-harakat oldidan yoki davomidagi hodisaviy, ijtimoiy, ruhiy holatdir. Shuningdek, ta'kidlash lozimki, har bir shaxs ma'lum bir tajovuzkorlikka ega bo'lishi lozim, chunki agressiya inson faolligi va moslashuvchanligining ajralmas tavsifi hisoblanadi. V.Klayn tajovuzkorlikda faol hayot kechirish uchun lozim bo'ladigan ayrim sog'lom jihatlar mavjud deb hisoblaydi.

Bular – qat’iylik, tashabbus, maqsadga erishish yo‘lidagi qat’iyatlilik, to‘siqlarni yengib o‘tish. Bu sifatlar yetakchilarga xos. Shu boisdan, tajovuzkorona xulqqa ega bo‘lganlarning ayrimlari rahbarlik lavozimlarda muvaffaqiyatli ishlab keta oladilar. R.S.Xomans adolatga intilish bilan bog‘liq holatlar tajovuzkorlikni keltirib chiqaradi, deb hisoblaydi. A.A.Rean, K.Byutner va boshqalar tajovuzkorlik namoyon bo‘ladigan ayrim holatlarni frustratsiya va bezovtalikdan qutulish maqsadidagi moslashishga xos xususiyat deb hisoblaydilar. Frustratsiya holati – ruhiy holat bo‘lib, qondirilmagan stimullashgan ehtiyojlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Bu holat turli salbiy kechinmalar: g‘azablanish, tushkunlik kayfiyatlari bilan birga kuzatiladi. Shu tariqa agressiyani yashab qolish va moslashishga ko‘maklashuvchi biologik jihatdan maqsadli xulq-atvor shakli deyish mumkin. Boshqa tomondan, agressiya zulm deb qaraladi va inson mavjudligining ijobiy jihatlariga zid xulq-atvor deb hisoblanadi.

Xo‘sh, unda qaysi xulq-atvorni og‘ma deb hisoblash lozim?

T.R.Rumyanseva bugungi kunda me‘yoriy yondashuv ilgari surilayotganligini ma‘lum qiladi. Uning fikriga ko‘ra, xulq-atvorni og‘ishini aniqlashda me‘yor tushunchasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi lozim. Me‘yor u yoki bu hatti-harakatni nazorat qilish mexanizmlarini shakllantiradi. Me‘yor tushunchasi bolaning ijtimoiylashuvi jarayonida shakllanadi. Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, xulq-atvorni quyidagi ikkita majburiy sharoit mavjud bo‘lganida og‘ma deb baholashimiz mumkin:

1. Qurbon uchun halokatli oqibatlarni keltirib chiqarganida;
2. Xulq-atvor me‘yorlari buzilganida.

Xulqning og‘ishiga o‘qitish va tarbiya muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. R.Kratchfild va N.Levinson ijtimoiylashuv jarayoni orqali og‘ishni namoyon bo‘lishini nazorat qilish mumkin deb hisoblaydilar. Agressiyaning ijtimoiylashuvi deganda, o‘zining tajovuzkorona intilishlarini hamda ularning shakllarini mazkur sivilizatsiyada qabul qilingan doiradagi namoyon bo‘lishini nazorat qilishni o‘rganish jarayoni tushuniladi. Ijtimoiylashuv natijasida ko‘pchilik jamiyat talablariga moslashgan holda o‘zining og‘ma impulslarini tartibga solishni o‘rganadilar. Boshqalar esa, o‘ta deviant bo‘lib qolaverishlari mumkin, biroq o‘z agressiyasini cheklangan holda: og‘zaki so‘kish, qarg‘ish, yashirin majburlash, ortiqcha talablar qo‘yish va shu kabilarni ishlatishga majbur bo‘ladilar. Uchinchi toifadagilar esa, hech

narsani o'rganmaydilar va o'zlarining tajovuzkorona impulslarini jismoniy zo'rvonlikda namoyon qilaveradilar. Bu yerda madaniy muhitdagi bolani kichik yoshidagi tarbiyalash tajribasi, oilaviy an'analar va ota-onaning bolaga munosabatlarining emotsional zamini muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Y.Zagrfovaning fikriga ko'ra, deviant hatti-harakatlarga moyillik ijtimoiylashuv jarayonidagi kamchiliklarning to'planib borishi natijasida shakllanadi.

U ijtimoiylashuvning ikkita darajasini ajratib ko'rsatadi:

- Ijtimoiy tajriba, madaniy xulq-atvorning qadriyatlarini va me'yorlarini o'zlashtirish;

- Kichikroq hajmdagi, biroq devyatsiya xulqqa ruxsat beruvchi submadaniyatga xos tajribani o'zlashtirish. Shu tariqa xulosa qilish mumkinki, og'ishgan xulq-atvorga moyillik ijtimoiylashuvdagi muvozanatning buzilishi natijasida shakllanadi.

O.Kernberg ta'kidlaganidek, nafrat boshqa inson ustidan g'alaba yurishini ifoda etadi va xuddi shunday shaxsiyat "menligining" o'sha qismi ustidan ham. Bu qism hozirgi vaqtda qo'rquv singdiradi va o'tgan azoblari uchun qasos olishni talab qiladi.

Nafrat agressiv qiziqishlarning namoyishlaridan biri, bular psixanalitik tasavvurlarga muvofiq, libido namoyishlari - keng ma'nodagi jinsiy (seksual) qiziqishlar kabi inson uchun tabiiy hisoblanadi. Ma'lumki, Z.Freyd oxirgi nazariy ishlarida agressiyani - o'limning tug'ma o'zini vayron etishga qiziqish namoyishi sifatida asoslab berishga harakat qilgan. Biroq, bu tasavvur keng ommaga tarqalmadi. Hozirgi vaqtgacha, agressiya qiziqishlari tug'ma (azaldan dushman-destruktiv) ekanligi haqida savol muammoli bo'lib qolmoqda. Yoki ular hayotdagi nizolar va boshqa faol intilishlar asosidagi frustratsiyalar natijasida shakllanadi (masalan, o'z mavqeini ko'tarish).

Shunday qilib, agressiya ichki qo'zg'alish tendensiyasi sifatida - bu shaxs dinamikasining ajralmas bo'lagi (me'yordagi holatida ham, turli darajada namoyish etilgan buzilishlarda ham). Agressivlik - individual xususiyat, u aniq insonning moyilligi ushbu tendensiyani ichki va tashqi harakatlar shaklida namoyon etishi. Ushbu individual xususiyatni o'lchash qiyin, bu borada agressiv tendensiyani asosiy baholash usuli - bu uning xulq-atvordagi namoyishlarini baholash.

Agressiya va agressiv xulq-atvor orasidagi o'zaro bog'liqlik xarakterini aniqlashga urinib ko'raylik. Balki insonning agressiya

kechinmalari uni vayrona harakatlarga olib keladi. Boshqa tomondan, zo'rvonlik sodir etib, inson o'tkir emotsional qo'zg'alish holatida ham, shu bilan birga to'liq sovuqqonlik holatida ham bo'lishi mumkin. Agressor o'z qurbonini yomon ko'rishi umuman shart emas. Ko'pchilik insonlar bog'lanib qolgan va chin yurakdan sevadigan o'z yaqinlarini qiynaydilar.

Real hayotda esa umuman aniqlash murakkab va qiyin, insonning xulq-atvori unig ichki agressiv tendensiyasi bilan yo'naltiriladimi yoki u boshqa qandaydir omillarga bog'liq. Masalan, uch yoshar bola tibbiy ko'rik davomida bir nechta muolaja olganidan so'ng, umuman qochishi yoki jahl va g'azabini namoyish etib, kattalarga faol qarshi harakat ko'rsatishi mumkin. Yordamga muhtoj bolaning bunday xulq-atvori agressiv dushman bo'lishi mumkinmi? Bolaning mustaqiligini chegaralashga kattalar tomonidan intilishlariga qarshi agressiv noroziligini, bola xulq-atvori sifatida qanday baholash mumkin? Va nihoyat, farovonligiga nisbatan real xavf sharoitida kattalar o'zini aynan agressiv tutadilar, bu to'g'rimi? Bunday savollarga javoblar qo'shimcha shaxsiyat va situativ omillarga bog'liq. Masalan, inson uchun aniq bir vaziyatning muhimligi (yoki xavfliligi), uning o'z xulq-atvorini anglash qobiliyati va o'z hissiyotlarini nazorat qilishi, ularga keltiradigan zarar darajasini ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan misollardan xulosa qilish mumkinki, agressiv xulq-atvor turli shakllarga (ifodalanishi bo'yicha) ega bo'lishi mumkin: situativ agressiv reaksiyalar (aniq vaziyatga qisqa muddatli reaksiya shaklida); passiv agressiv xulq-atvor (hech nima qilmaslik yoki biror nimadan voz kechish shaklida); faol agressiv xulq-atvor (zo'rvonlik yoki vayrongarchilik harakatlari shaklida).

Mazmun jihatidan agressiyaning yetakchi belgilari sifatida, uning quyidagi namoyishlarini hisoblash mumkin:

– insonlar ustidan ustivorlik qilishga ifodalangan intilish va ulardan o'z maqsadlarida foydalanish;

– vayron qilishga tendensiya;

– atrofidagi insonlarga zarar yetkazishga intilish;

– zo'rvonlikka moyillik (og'riq yetkazish).

Sanab o'tilgan belgilarni umumlashtirib, shaxsning agressiv xulq-atvorida ustivorlik motivi ifodalangan har qanday harakatni tahmin qilishi haqida fikr yuritish mumkin.

Bu yerda ijtimoiy negativ ifodalangan bahoga ega, eng avvalo agressiv xulq-atvorning shunday shakllari “ular bunday muomalani xohlamayotgan, boshqa tirik jonzodga zarar yetkazishga va haqoratlashga yo’naltirilgan”. Bunday agressiv-asotsial xulq-atvorda albatta zo’ravonlik mavjud - og’riq beruvchi, verbal yoki jismoniy harakatlar. U odatda, agressorning negativ emotsiyalari fonida kechadi (jahl, g’azab, sadistik rohatlanish, befarqlik). Bu xulq-atvor agressiv motivlar tomonidan yo’naltiriladi- vayron qilish, yo’qotish, foydalanish, zarar yetkazish. Kognitiv darajada u bunday xulq-atvorni tasdiqlovchi (bid’atlar, afsonalar, e’tiqodlar) o’rgatishlar bilan qo’llab-quvvatlanadi.

Shubhasiz, zo’ravonlik (jismoniy, jinsiy, emotsional) agressiv xulq-atvorning eng jiddiy namoyishi va xayrixohligi natijasidir. Inson zo’ravonligi hayvonnikidan tubdan farq qiladi. U biologik jihatdan maqsadsiz, u faollik bilan inson hissiyotlaridan foydalanadi, u inson intellektining tekinox’riga aylanadi va nihoyat qurol qo’llanilganda ko’p karra kuchayadi.

Zo’ravonlik shaytonini egallab olish uchun, har qanday jamiyat maxsus choralar ko’rishga majbur. Bular orasida eng samarali deb, milliy an’analar va guruh udumlari tan olingan (o’yinlar, bayramlar, udumlar), bular aniq shaxsni o’zining agressiv potensialini integrallashga va uni ijtimoiy ruxsat etilgan usullar yordamida ifoda etishga imkon beradilar. Jamiyatda katta miqdorda ijobiy misollar mavjudligi ham katta ahamiyatga ega, masalan, milliy qahramonlar yoki hayotdagi ideallar.

5.3. Shaxs agressiv xulq-atvorining shakllanish sharoitlari

Agressiv xulq-atvor paydo bo’lishida ko’pgina omillar ishtirok etadi, shu bilan birga individual va yosh xususiyatlari, tashqi jismoniy va ijtimoiy sharoitlar. Masalan, agressivlikni quyidagi sharoitlar ta’minlashi mumkin, shovqin, jazira, tiqislik, ekologik muammolar, ob-havo sharoitlari va h. Ushbu muammoning ko’pgina tadqiqotchilarining fikricha, shaxsning agressiv xulq-atvorining shakllanishida asosiy rolni bevosita uning atrofidagi ijtimoiy muhit o’ynaydi. Bizning qarashimizcha, shaxsning agressiv xulq-atvorini paydo qiluvchi va qo’llab quvvatlovchi ba’zi bir yetakchi omillarni o’rganib chiqish lozim.

Agressiv xulq-atvorning xarakteri ko'pgina holatlarda insonning yosh xususiyatlari bilan belgilanadi. Yoshning har bir bosqichi rivojlanishning maxsus alohida vaziyatiga ega va shaxsga ma'lum talablar qo'yadi. Yoshning talablariga adaptatsiya odatda agressiv xulq-atvorning turli namoyishlari bilan kuzatiladi. Ma'lum bo'lishicha kichik yoshdagi bolalar agar tez-tez, baland ovozda va biror narsa talab qilib yig'lasalar, ularning tabassum qilishi kuzatilmasa, aloqa qilmasa shu orqali agressivlik xususiyatlarini namoyon etadilar. Psixoanalitik tadqiqotlar go'daklarning talablari inobatga olinmayotganda kechayotgan katta g'azab miqdori haqida ma'lum qilishini ta'kidlashadi. Shu bilan birga shunday fakt ma'lumki, kichik bolalarda ona muhabbatini saqlab qolish uchun, yangi tug'ilgan ukasi yoki singlisiga nisbatan vahshiylik namoyish etishga moyillik kuzatiladi.

Bolalar bog'chasining talablariga moslashib, bolalar bir birini chimdilashi, mazahlashi, bir biriga tupurishi, urushishi, tishlashi va hattoki yegulik bo'lmagan narsalarni yutishi ham mumkin. Bunday harakatlar aytilmasdan sodir etiladi – impulsiv, ongsiz va ochiq oydin. Ushbu yoshda passiv agressivlik namoyishi negativizm hisoblanadi, qaysarlik, gapirish yoki ovqat yeyishni rad etish, tirnoqlari yoki lablarini tishlash. Ta'kidlash joizki, maktabgacha yoshidagi bolaning uyidagi xulq-atvori ko'proq oiladagi emotsional iqlimga bog'liq, bolalar guruhi esa o'z navbatida tarbiyachi ichki holatining yorqin aksi hisoblanadi. Agar u yoki bu agressiyani namoyish etsalar yoki kechirayotgan bo'lsalar, bolalar tomonidan agressiyani takrorlash ehtimoli oshadi.

Umuman olganda, bolalar agressivligi himoyasiz ekanligining teskari tomoni bor. Agar bola o'zini himoyasiz sezsa (masalan, qachonki uning muhabbatga va xavfsizlikga bo'lgan ehtiyojlari qoniqtirilmasa), uning ko'nglida ko'pgina qo'rquvlar paydo bo'ladi. O'zining qo'rquvlarini egallashga intilib, bola himoyalani uchun agressiv xulq-atvordan foydalanadi. Qo'rquvni bartaraf etishning boshqa ehtimol yo'li agressiyani o'ziga yo'naltirish. Autoagressiya turlicha ifodalanishi mumkin, masalan, o'zini yo'qotish (o'ldirish) xayollarida, uyatchanlik yoki o'zini jazolash g'oyalarida.

Kichik maktab yoshida agressiya odatda zaifroq bo'lgan o'quvchilarga nisbatan ("tanlagan qurboniga") mazah qilish, bosim o'tkazish, urushtirish, janjallashish shaklida qo'llaniladi. Maktab bolalarining bir-biriga nisbatan agressiv xulq-atvori bir qator

vaziyatlarda jiddiy muammoga aylanadi. O'qituvchilar va ota-onaning bunday xulq-atvorga keskin reaksiyasi odatda bolalar agressivligini kamaytirmasdan, aksincha uni kuchaytiradi, chunki u agressorlarning mustaqilligi va kuchining bilvosita isboti bo'lib xizmat qiladi. Bunga qaramasdan, aynan o'qituvchi, uning avtoriteti va agressiv xulq-atvorga ochiq munosabatini bildirish mahorati, bolalarni ko'proq ijtimoiy maqullangan xulq-atvor shakllarini tanlashga undaydi.

Agressiv xulq-atvorning o'smir yoshidagi maxsus xususiyati – kattalar avtoritetining qo'llashi fonida tengdoshlari guruhiga bog'langanligi. Ushbu yoshda agressiv bo'lish “kuchli bo'lish yoki kuchli ko'rinish” ma'nosini anglatadi. Har qanday o'smir guruhi, lider tomonidan qo'llab-quvvatlaydigan, o'zining afsonalari va udumlariga ega. Masalan, a'zolikka qabul qilish udumlari keng tarqalgan (yoki yangi kelganlarni sinovdan o'tkazish). Ko'zga tashlanadigan guruh “uniformasi” (umuman o'smirlar modasi ham) udumlar xarakteriga ega. Udumlar guruhga tegishlilik hissiyatini kuchaytiradilar va o'smirlarga xavfsizlik hissiyatini beradilar, biroq, afsonalar ularning hayot faoliyatining asosi bo'lib qoladi. Afsonalar guruhdagi ichki guruh va tashqi agressiyasini oqlash uchun keng qo'llaniladi. Masalan, guruh a'zosi bo'lmaganlarga nisbatan har qanday agressiya quyidagi gaplar bilan oqlanadi - “ular bizni sotdilar... biz o'zimizni himoya qilishimiz kerak...biz hammani bizni hurmat qilishga majbur qilishimiz kerak”. Guruh afsonasi bilan ruhlantirilgan zo'rvonlik o'smirlarda o'z kuchini tasdiqlash, qahramonlik va guruhga sodiqlik shaklida kechadi. Bir vaqtdayoq, alohida vaziyatlarda agressiv xulq-atvor tashabbuschilari sifatida – alohida autsayder o'smirlar, turli sabablar tufayli dezadaptatsiyalashgan o'smirlar va agressiya yordamida o'z mavqeini ko'tarishga urinib ko'rgan o'smirlar bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, agressiv xulq-atvor bola va o'smir yoshi uchun odatiy hodisa bo'lib qolgan. Bundan tashqari, agressiv xulq-atvor shaxsning ijtimoylashish jarayonida bir qator asosiy funksiyalarni bajaradi. Me'yorga muvofiq, u qo'rquvdan qutqaradi, o'z qiziqishlarini himoya qilishga ko'maklashadi, tashqi xavfdan himoya qiladi, adaptatsiyaga ko'maklashadi. Bu borada agressivanig ikkita turi haqida fikr yuritish mumkin: yaxshi sifatli adaptiv va destruktiv – dezadaptiv.

Umuman olganda, bola va o'smir shaxsining rivojlanishi uchun agressiv namoyishlarning o'zi unchalik xavfli emas, balki ularning

Agressiv xulq-atvorning xarakteri ko'pgina holatlarda insonning yosh xususiyatlari bilan belgilanadi. Yoshning har bir bosqichi rivojlanishning maxsus alohida vaziyatiga ega va shaxsga ma'lum talablar qo'yadi. Yoshning talablariga adaptatsiya odatda aggressiv xulq-atvorning turli namoyishlari bilan kuzatiladi. Ma'lum bo'lishicha kichik yoshdagi bolalar agar tez-tez, baland ovozda va biror narsa talab qilib yig'lasalar, ularning tabassum qilishi kuzatilmasa, aloqa qilmasa shu orqali aggressivlik xususiyatlarini namoyon etadilar. Psixoanalitik tadqiqotlar go'daklarning talablari inobatga olinmayotganda kechayotgan katta g'azab miqdori haqida ma'lum qilishini ta'kidlashadi. Shu bilan birga shunday fakt ma'lumki, kichik bolalarda ona muhabbatini saqlab qolish uchun, yangi tug'ilgan ukasi yoki singlisiga nisbatan vahshiylik namoyish etishga moyillik kuzatiladi.

Bolalar bog'chasining talablariga moslashib, bolalar bir birini chimdilashi, mazahlashi, bir biriga tupurishi, urushishi, tishlashi va hattoki yegulik bo'lmagan narsalarni yutishi ham mumkin. Bunday harakatlar aytilmasdan sodir etiladi – impulsiv, ongsiz va ochiq oydin. Ushbu yoshda passiv aggressivlik namoyishi negativizm hisoblanadi, qaysarlik, gapirish yoki ovqat yeyishni rad etish, tirnoqlari yoki lablarini tishlash. Ta'kidlash joizki, maktabgacha yoshidagi bolaning uyidagi xulq-atvori ko'proq oiladagi emotsional iqlimga bog'liq, bolalar guruhi esa o'z navbatida tarbiyachi ichki holatining yorqin aksi hisoblanadi. Agar u yoki bu aggressiyani namoyish etsalar yoki kechirayotgan bo'lsalar, bolalar tomonidan aggressiyani takrorlash ehtimoli oshadi.

Umuman olganda, bolalar aggressivligi himoyasiz ekanligining teskari tomoni bor. Agar bola o'zini himoyasiz sezsa (masalan, qachonki uning muhabbatga va xavfsizlikga bo'lgan ehtiyojlari qoniqtirilmasa), uning ko'nglida ko'pgina qo'rquvlar paydo bo'ladi. O'zining qo'rquvlarini egallashga intilib, bola himoyalani uchun aggressiv xulq-atvordan foydalanadi. Qo'rquvni bartaraf etishning boshqa ehtimol yo'li aggressiyani o'ziga yo'naltirish. Autoagressiya turlicha ifodalanishi mumkin, masalan, o'zini yo'qotish (o'ldirish) xayollarida, uyatchanlik yoki o'zini jazolash g'oyalarida.

Kichik maktab yoshida aggressiya odatda zaifroq bo'lgan o'quvchilarga nisbatan ("tanlagan qurboniga") mazah qilish, bosim o'tkazish, urushtirish, janjallashish shaklida qo'llaniladi. Maktab bolalarining bir-biriga nisbatan aggressiv xulq-atvori bir qator

vaziyatlarda jiddiy muammoga aylanadi. O'qituvchilar va ota-onaning bunday xulq-atvorga keskin reaksiyasi odatda bolalar agressivligini kamaytirmasdan, aksincha uni kuchaytiradi, chunki u agressorlarning mustaqilligi va kuchining bilvosita isboti bo'lib xizmat qiladi. Bunga qaramasdan, aynan o'qituvchi, uning avtoriteti va agressiv xulq-atvorga ochiq munosabatini bildirish mahorati, bolalarni ko'proq ijtimoiy maqullangan xulq-atvor shakllarini tanlashga undaydi.

Agressiv xulq-atvorning o'smir yoshidagi maxsus xususiyati – kattalar avtoritetining qo'llashi fonida tengdoshlari guruhiga bog'langanligi. Ushbu yoshda agressiv bo'lish “kuchli bo'lish yoki kuchli ko'rinish” ma'nosini anglatadi. Har qanday o'smir guruhi, lider tomonidan qo'llab-quvvatlaydigan, o'zining afsonalari va udumlariga ega. Masalan, a'zolikka qabul qilish udumlari keng tarqalgan (yoki yangi kelganlarni sinovdan o'tkazish). Ko'zga tashlanadigan guruh “uniformasi” (umuman o'smirlar modasi ham) udumlar xarakteriga ega. Udumlar guruhga tegishlilik hissiyotini kuchaytiradilar va o'smirlarga xavfsizlik hissiyotini beradilar, biroq, afsonalar ularning hayot faoliyatining asosi bo'lib qoladi. Afsonalar guruhdagi ichki guruh va tashqi agressiyasini oqlash uchun keng qo'llaniladi. Masalan, guruh a'zosi bo'lmaganlarga nisbatan har qanday agressiya quyidagi gaplar bilan oqlanadi - “ular bizni sotdilar... biz o'zimizni himoya qilishimiz kerak...biz hammani bizni hurmat qilishga majbur qilishimiz kerak”. Guruh afsonasi bilan ruhlantirilgan zo'ravonlik o'smirlarda o'z kuchini tasdiqlash, qahramonlik va guruhga sodiqlik shaklida kechadi. Bir vaqtdayoq, alohida vaziyatlarda agressiv xulq-atvor tashabbuschilari sifatida – alohida autsayder o'smirlar, turli sabablar tufayli dezadaptatsiyalashgan o'smirlar va agressiya yordamida o'z mavqeini ko'tarishga urinib ko'rgan o'smirlar bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, agressiv xulq-atvor bola va o'smir yoshi uchun odatiy hodisa bo'lib qolgan. Bundan tashqari, agressiv xulq-atvor shaxsning ijtimoiylashish jarayonida bir qator asosiy funksiyalarni bajaradi. Me'yorga muvofiq, u qo'rquvdan qutqaradi, o'z qiziqishlarini himoya qilishga ko'maklashadi, tashqi xavfdan himoya qiladi, adaptatsiyaga ko'maklashadi. Bu borada agressiyaning ikkita turi haqida fikr yuritish mumkin: yaxshi sifatli adaptiv va destruktiv – dezadaptiv.

Umuman olganda, bola va o'smir shaxsining rivojlanishi uchun agressiv namoyishlarning o'zi unchalik xavfli emas, balki ularning

natijalari va atrofdagilarning noto'g'ri reaksiyasi xavflidir. Agar zo'ravonlik – e'tibor, hukmronlik, tan olish, pul, boshqa huquqlarni bersa, bolalarda va o'smirlarda kuch ustivorligiga asoslangan xulq-atvor shakllanishi mumkin, bu esa katta insonlarning ham ijtimoiy faoliyat asosini tashkil etishi mumkin (masalan, kriminal guruhlarda). Atrofdagilarning agressiyani kuch bilan bosishga intilishi kutilgan natijaga emas, balki qarama-qarshi natijaga olib kelishi mumkin.

Katta kishilarda agressiv xulq-atvor namoyishlarining turlari xilma xil, chunki ular asosan individual xususiyatlar bilan belgilanadi. Agressiv xulq-atvorni to'ldiruvchi, individual-shaxs xususiyatlari sifatida, odatda quyidagi fe'l-atvor qirralarini ko'rib chiqadilar, jamoa ma'qullamasligi, asabiylik, gumonsirash, bid'atlar (masalan, millatiga qarab), hamda aybdorlik o'rni uyalish hissiyotini sezishga moyillik. Zo'ravonlikka moyillikni qo'llab-quvvatlashda insonning quyidagi e'tiqodi asosiy rol o'ynashi mumkin, inson o'z taqdirining yakka hukmdor xo'jayini (ba'zan boshqa insonlar taqdirini ham), hamda agressiyaga uning ijobiy munosabati (foydali va normal hodisa sifatida).

Insonlarning alohida kategoriyasi – ekstremistlar haqida fikr yuritish mumkin, ular agressiyani yoki tez-tez, yoki o'ta vahshiy shakllarida namoyish etadilar. Ekstremistlar o'z navbatida ikkita guruhga bo'linadilar: past va baland darajada o'zini boshqaradigan guruhlarga. Birinchi guruhdagilar - to'siqlovchi mexanizmlar rivojlanmaganligi sababli agressiyani doimiy namoyish etishga moyilliklari bor, ikkinchi guruhdagilar esa uzoq vaqt davomida o'zlarini tiyib o'tirishlari mumkin, ammo sabr kosasi to'lganidan so'ng agressiyaning vahshiy shakllarini (o'limga olib keladigan) namoyish etadilar.

Shaxsning agressiv xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi boshqa xususiyat – uning frustratsiyani o'tkazish qobiliyati. Ma'lum bo'lishicha, frustratsiya - bu maqsad yoki ehtiyojini qoniqtirishi yo'lidagi to'sqinlikdan kelib chiqqan holat. Ba'zi bir mualliflar frustratsiyani - agressiv xulq-atvorning yetakchi sabablaridan biri deb hisoblaydilar. Umuman olganda, frustratsiya keng tarqalgan hodisa va insonlar uni bartaraf etish qobiliyatlari bilan farqlanadilar. Agar agressiv xulq-atvor frustratsiya bartaraf etishiga muvaffaqiyatli ko'maklashsa, u o'rgatish qonunlariga muvofiq, kuchayishga ko'proq ehtimoli mavjud. Bu vaziyatda, insonning frustratsiyaga yuqori seziluvchanligi bo'lsa,

muammolar paydo bo'lishi mumkin, shu bilan birga agar unda frustratsiya bartaraf etilishining ijtimoiy ruxsat etilgan usullari ishlab chiqilmagan bo'lsa.

Boshqa - jinsiy(gender) omilining ta'sirini baholaganda, - erkaklar (o'g'il bolalar) to'g'ri va jismoniy agressiyaning juda yuqori darajalarini namoyish etadilar, ayollar (qiz bolalar) esa bevosita va verbal agressiyani. Umuman olganda, erkak jinsiga ko'proq jismoniy zo'ravonlikga moyillik mansub, bu borada ayollar ko'proq va muvaffaqiyatli psixologik variantini qo'llaydilar.

Gender, yosh va individual omillarning muhimligiga qaramasdan, ko'pchilik tadqiqotchilar fikricha, agressiv xulq-atvorning shakllanishida shaxs rivojlanishining ijtimoiy sharoitlari yetakchi ahamiyatga ega.

Eng bahsli muammolardan biri shaxsning agressiv xulq-atvoriga ommaviy axborot vositalarining ta'siri muammosini hisoblash mumkin. OAV negativ ta'sirining tarafdorlari quyidagi ma'lumotdan kelib chiqadilar, insonlar qachon o'zini agressiv tutadilar, eng avvalo, boshqalar agressiyasini kuzatib turib. M.Xyusmann bir guruh tadqiqotchilar bilan 20 yil davomida teleko'rsatuvlar ko'rish va agressivlik orasidagi korrelyatsiyani kuzatganlar. Ular aniqlashicha, 30 yoshda sodir etilgan jinoyatlarning og'irligi, 8 yoshda ko'radigan ko'rsatuvlarning afzalliklari bilan to'g'ri keladi. Televidenie orqali agressiv xulq-atvorni shakllantirish mexanizmi quyidagi ko'rinishga ega bo'lishi mumkin: me'yoridan ortiq teleko'rsatuvlarga qiziqish - agressiv xayollar - o'zini personaj (qahramon) bilan taqqoslash - muammolarning yechimi va insonlarga ta'sir ko'rsatishning agressiv usulini o'zlashtirish - agressiv harakatlarni takrorlash - shaxslararo munosabatlarda muammolarni yechish uchun agressiyani qo'llash - qo'llab-quvvatlash - agressiv o'qishlar - rivojlanmagan ijtimoiy va o'quv ko'nikmalari - frustratsiya - teleko'rsatuvlarni me'yoridan ortiq ko'rish va boshqalar.

Agressiv xulq-atvorning kuzatish orqali shakllanishini bir nechta shartlarni bajarish orqali amalga oshirish mumkin. Birinchidan, ko'rayotgani real bo'lib, shaxsiyatiga tegib o'tishi kerak. Ikkinchidan, ko'rgani aynan agressiya sifatida qabul qilinishi kerak. Uchinchidan, qachonki tomoshabin o'zini agressorga tenglashtirsa agressiya o'tadi, ammo aniq shaxs uchun agressiya obykti filmidagi agressiya qurboni sifatida tasavvur qilinadi. O'rganishning keyingi prinsipial sharti,

filmdagi qahramon agressiya natijasida maqsadiga yetadi yoki rohatlanadi, bu esa tomoshabin uchun ahamiyatli.

Umuman olganda, agressiv sahnalarni ko'rish, ko'pchilik kattalarga tahmin qilinganga nisbatan to'g'ri negativ ta'sir ko'rsatmaydi, chunki kuzatuvni o'zi ichki va tashqi shartlar majmui bilan belgilanadi. Zo'ravonlik sahnalariga insonlarning raeksiyasi turlicha bo'lishi mumkin: nafrat, yoqimsiz, vertualizatsiya (tasvir etilgan hodisalarni noreal sifatida qabul qilish), faqatgina ba'zi bir vaziyatlarda – qoyil qolish va o'xshashga intilish. Bunga qaramasdan OAVni bolalar va o'smirlar rivojlanishiga negativ ta'siri haqiqiy xavflarni keltiradi va maxsus o'rganishni talab qiladi.

OAVning shaxs xulq-atvoriga ta'siri tushunarsiz bo'lib qolgan bir vaqtda, hozirgi vaqtda oila - agressiv xulq-atvor shakllanishining asosiy ijtimoiy manbaasi sifatida tan olingan. Hammaga ma'lumki, agressiya faqatgina dushmanlarga, raqiblarga yoki notanish insonlarga namoyon bo'lmaydi. Ko'pchilik oilalar uchun psixologik yoki jismoniy zo'rlash odatiy holga aylangan. Oilada agressiyaning namoyish etish turlari hilma-xil. Bu jismoniy yoki jinsiy (seksual) zo'rlash, sovuqlik, haqorat qilish, negativ baholash, shaxsga bosim o'tkazish, bolani emotsional qabul qilmaslik bo'lishi mumkin. Oila a'zolarining o'zlari agressiv xulq-atvorni namoyish etishlari yoki bolaning xayrixoh harakatlarini qo'llashlari mumkin, masalan, bolaning urushda g'olib bo'lgani bilan fahrlanish.

Bolada agressiv xulq-atvorining o'rnatilishiga turli oilaviy omillar ta'sir qiladi, masalan oila jipsligining past darajasi, janjalkashlik, bola va ota-ona o'rtasida yaqinlikning kamayishi, bolalar o'rtasidagi yomon o'zaro munosabatlar, oilaviy tarbiyaning noadekvat usuli. Masalan, juda qattiq jazolarni qo'llaydigan ota-onalar, me'yoridan ortiq nazorat qiladigan (giperopeka) yoki aksincha nazorat qilmaydigan (gipoopeka), bunday ota-onalar o'z bolalarining agressiyasi va kuloq solmasligi bilan ko'proq to'qnashadilar. Yana bir fikr mavjudki, onaga nisbatan otaning agressiyasi bolaga ifodalangan negativ ta'sir ko'rsatadi (jismoniy zo'rlash yoki ochiqchasiga ma'nan kamsitish).

A.Bandura va R.Uolter ushbu "oilaviy" muammoni o'rganish uchun maxsus tadqiqot o'tkazdilar va quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Agressiv o'g'il bolalarning ota-onalari nazoratchi guruh (agressiv xulq-atvorsiz) ota-onalariga nisbatan o'z bolalari yutuqlariga kichik talablar qo'ygan edilar va ularni bolaligida kamroq chegaralab

qo'rganlar. Bir vaqtdayoq, ko'rib chiqilgan o'smirlar ota-ona ta'siriga kuchliroq qarshilik ko'rsatganlar. Agressiv xulq-atvoriga ega o'g'il bolalar otasiga nisbatan onasiga ko'proq bog'lanib qolgan edilar. Agressiv o'smirlar ota-onalari ko'proq majbur qilish usullaridan foydalanganlar, nazorat guruhidagilar esa ko'proq ichki o'zini nazorat qilish usullaridan foydalandilar, masalan ishontirish. Agressiv o'g'il bolalar otalari keskinlik va bolani tez-tez jazolash tendensiyasi bilan tavsiflangan, onalari esa - talablarning umumiy past mosligi vaziyatida talabchan bo'lmasliklari va o'zaro munosabatlarda samimiyat yo'qligi bilan tavsiflangan. Agressiv o'g'il bolalar o'zini o'z otalari bilan kamdan-kam solishtiradi, nazorat guruhidagi o'smirlarga nisbatan, ular otasiga odatda tanqidiy va yomon munosabatda bo'lganlar. Tadqiqotchilar fikricha, bularning hammasi ota-onalar qadriyatlarini tizimining o'zlashtirishini va ularning talablarini bajarilishini qiyinlashtirgan.

A. Bandura va R. Uolter o'smirlar va ularning oilaviy sharoitlari o'rtasidagi ijtimoiylashish aloqasini o'rganib chiqib, bola xulq-atvorini belgilab beruvchi uchta asosiy xususiyatni ajratganlar: qaramlik (jinsiy-shaxsiyat) munosabatlarini o'rnatishga uning tayyorgarligi, vijdonining rivojlanish darajasi, agressiyaga nisbatan motivatsiyaning kuchi. Mualliflar fikricha, oila samarali ijtimoiylashishi uchun minimal sharoitlarni yaratishi zarur. Birinchi asosiy shart bog'liqlik motivatsiyasini qo'llab quvvatlash, bu orqali bola qiziqish, e'tibor va atrofidagilarni ma'qullash xohlashini o'rganadi. Ikkinchi zarur shart - bu ketna-ket talablar va ta'qiqlar shaklida "ijtimoiylashishning bosimi" (bu vaziyatning sharti, ota-onalarning o'zi ijtimoiy me'yorlarni ajratadilar). Aksincha, xulq-atvorning yomon shakllari oilada ota-ona muhabbatiga ehtiyojning frustratsiyasi, doimiy jazolashni qo'llash (yaxshi xulq-atvorni rag'batlantirish usullari ustidan uning ustivorligi) natijasida o'rnatiladi, ota-onalar tomonidan qo'yilgan talablarning mos emasligi, ota-ona tomonidan agressiyani ko'rsatish.

Shunday qilib, "asotsial agressiya nazariyasiga" muvofiq, bolada agressiv xulq-atvorning paydo bo'lishi ota-onaning bittasi yoki ikkovi tomonidan g'amxo'rlik va yaqinlikning yetmasligi bilan bog'liq. Bog'lanib qolish frustratsiyasi bolada doimiy ziddlik hissi paydo bo'lishiga olib keladi, chunki u o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan kattalarga taqlid qilish (shu bilan birga emotsional namoyishalariga

taqlid qilish ham) orqali rivojlanadi. Boladagi xulq-atvor ota-ona bilan munosabatlarda rivojlangan, natijada esa boshqa insonlarga o'tkaziladi (sinfdoshlariga, o'qituvchilariga, turmush o'rtoqlariga). Agar aniq insonga nisbatan agressiya namoyishi to'xtatilsa (yoki turli sabablarga ko'ra amalga oshirish imkoni bo'lmasa), agressiya "xavfsizroq" bo'lgan yangi obyektga yo'naltiriladi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar esa har xil jinsli bolalarga oiladagi yomon muomalaning har xil ta'sir qilishini ta'kidlaydilar. Bir qator mualliflar fikricha, qiz bolaga, bolaligida vahshiylikmunosabatida bo'lsalar, unda xulq-atvorning mazoxistik ko'rinishi rivojlanishiga moyillik ko'proq, o'g'il bola esa o'zini ko'proq agressor bilan taqqoslaydi va unda sadistik yo'nalish rivojlanishining katta ehtimoli mavjud.

Agressiv xulq-atqorning paydo bo'lishida oilaning yetakchi roli haqidagi yondashuvning yana bir dalili, bolalar uyida tarbiya olayotgan bolalarda agressivlik bilan bog'liq buzilishlar ustivorlik qilish vaziyati (asrab olinganlardan farqliroq). Bir vaqtda, ota-ona g'amxo'rligini ko'rmagan barcha bolalar ham agressiv bo'lmaydi. Oilaviy deprivatsiyaning boshqa natijasi bu - odamovi bo'lishi, me'yoridan ko'p qaramlik, bo'ysinishga ortiqcha tayyorgarlik yoki chuqur xavotirlanish (natijasi shubhasiz, deprivatsiya darajasiga, bolaning yoshiga, uning tuzilish xususiyatlariga va boshqa xolatlarga bog'liq).

Shunday qilib, ichki va tashqi omillarning yomon ta'sirida agressiv qiziqish haqiqatdan ham, agressivlikning yomon shakllariga aylanadi, mustahkam vayron etuvchi xulq-atvordan jamiyat uchun xavfli shakllarigacha. Biroq, agressiya albatta salbiy natijalarga olib kelishi shart emas. Masalan, u nafaqat yangi va yanada yangi obyektlarga yo'naltirilishi mumkin, balki faoliyatning turli shakllarida almashishi ham (sublimatsiyalashi) – biznesda, o'qishda, sportda, yetakchilikda va boshqalarda.

Shubhasiz, me'yoridagi agressiya himoyalani xarakteriga ega va hayot kechirish uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga, u individning faollik manbai sifatida ko'rinadi, uning ijodiy potentsiali va yutuqlarga intilishi. Shaxs agressiyasining turli namoyishlarini, agressiyani ijtimoiy ta'qiqlanmagan shakllarida namoyish eta olishi va nihoyat o'zi va boshqalar ustidan zo'ravonlikdan qochishni o'rganib olishi zarur va majburdir. Shaxsiy agressiyasining taqdiri – har bir katta

yoshli insonning shaxsiy tanlash huquqi, biroq agressiyani egallab olishi – umuman olganda eng murakkab psixologik vazifalardan biri.

5.4. Agressiya va delinkvent xulq-atvor

Agressiya va delinkvent (huquqqa yoki qonunga qarshi) xulq-atvor o'zaro bog'liqligi haqidagi ma'lumot shubhasiz to'g'ri. Haqiqatdan, huquqbuzar harakatlar ko'p holatlarda agressiv harakatlar bilan birga kuzatiladi. Bular g'arazli jinoyatlar bo'lishi mumkin, ularda agressiya instrumental xarakterga ega, yohud qandaydir maqsadlarga erishish uchun xizmat qiladi (yashash maydonini egallash uchun qotillik sodir etish, o'g'rilik sodir etishda jismoniy zo'rlash, pul olish maqsadida qo'rqitish). Boshqa zo'ravonlik jinoyatlarida dushmanlik xulq-atvori namoyish etiladi. Zo'rlash – agressiv xulq-atvorning eng xavfli shakli sifatida qonun bilan ta'qiqlangan va davlat tomonidan nazorat qilinadi.

Shaxsning delinkvent xulq-atvori va agressiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ma'nosi bir hil emas. Qonunlarni buzish darajasiga yetgan agressiv xulq-atvor. eng avvalo taqlid qilish natijasi bo'lishi mumkin. Taqlid qilish namunalari sifatida qarindoshlari, tengdoshlari, boshqa ahamiyatli insonlar chiqishi mumkin. Agressiv xulq-atvorni qo'llashda delinkvent submadaniyat alohida ahamiyatga ega. Asotsial guruh, uyushgan jinoiy guruh, jazoni ijro etish muassasalari – bu ijtimoiy institutlar mustahkam agressiv xulq-atvorni shakllantiradilar.

Boshqa vaziyatlarda huquqbuzar agressiv xulq-atvor nevrotik shartlangan bo'lishi mumkin, masalan, agar u kuchli xavotir va anglamagan aybdorlik hissiyoti bilan motivatsiya qilinsa. Huquqbuzar harakatlarga moyillik shaxsning jamiyatga qarshi yo'naltirilishida ham kuzatiladi, shaxs uchun boshqa insonlarga nisbatan dushmanlik munosabati hayot tarzi hisoblanadi. Agressiv xulq-atvorning keyingi shakli asab tizimining organik buzilishlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday huquqbuzarda affekt natijasida zo'rlashga moyillik mavjud, kechinmalarida to'xtab qolish, impulsivlik yoki intellektual pasayish. Alohida (kam sonli) huquqbuzarlar guruhini – psixotik kasallar tashkil etadi, ularning kasallik ahvoli agressiyaning kutilmagan motivatsiyasiz portlashlari bilan kuzatiladi (bu esa kamdan-kam ularning jamiyatga qarshi yo'naltirilganligi bilan bog'liq).

Amaliyotda, masalan javobgarlik darajasini va jazolash turini aniqlash uchun, agressiv xulq-atvorning patologik va patologik

bo'lmagan shakllarini farqlash muhimdir. Patologik bo'lmagan shakli, odatda, qo'pol bo'lmagan xulq-atvor buzilishlari va yaxshi sharoitda o'rni to'ldirish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Masalan, o'smirlarning agressiv xulq-atvori yoshi bilan bog'liq reaksiyalar xarakteriga ega bo'lishi va umuman olganda atrofidagilari bilan o'zaro munosabatlarini buzmasligi mumkin. Patologik agressiya esa aksincha, zo'rvonlik xulq-atvor tarkibining sifatli o'zgarishlari bilan bog'liq, psixik faoliyat va uning dinamikasining kasallik o'zgarishlari bilan shartlangan bo'ladi. Patologik o'zgarishlarning quyidagi belgilarini ajratish mumkin: emotsional sohada agressiv xulq-atvordagi o'zgarishlari va affektiv-jahl reaksiyalarining paydo bo'lishi bilan; agressiv xulq-atvor muhim qasd olish g'oyalari, nafrat va ranjitish bilan; sadistik agressiya – uning asosiy belgisi, qiziqishlar sohasida buzilishlar, xususan, boshqa insonni ma'naviy azoblash yoki jismoniy og'riq yetkazish holatidan ijobiy emotsiyalar olish (huzurlanish yoki lazzatlanish). Masalan, patologik agressiya vaziyatida oddiy tanqidiy tanbeh jahlning shunday darajasini keltirishi mumkinki, bunda inson ongi buziladi va u hech narsani bilmagan holda qotillik sodir etadi.

Agressivlikning alohida holatini ko'p seriyali va tashqi umuman motivatsiya qilinmagan huquqbuzar harakatlari namoyish etadi. E.Fromm fikricha, ular jahldor fe'l-atvor va sadistik vaxshiylikga ega, to'satdan paydo bo'ladi va atrofdagilar va yaqin insonlar uchun kutilmagan bo'ladi. Muallif fikricha, agressiyaning bunday shaklining, ochiq biologik yoki iqtisodiy sabablari yo'q va insoniyat uchun real muammoni tashkil etadi.

A.Bandura va R.Uolter agressiyaning huquqbuzar tabiati haqida muammoni yechimini topishga intilib, mustahkam jamiyatga qarshi xulq-atvoriga ega o'smirlarning tiklanishining ijtimoiy sharoitlari va shaxsiyat xususiyatlarini tadqiq etganlar. Mualliflar fikricha, asotsial agressiyaga ega o'smirlar o'zining ijtimoiy mustahkam tengdoshlaridan tubdan farqlanadi. Ular tez-tez va bevosita o'z agressiyalarini namoyish etadilar (ayniqsa uyda). Mualliflar tahmin qilishicha, o'g'il bolalarda ota bilan pozitiv munosabatlarni o'rnatish olmaslik - jamiyatga qarshi yo'naltirish shakllanishining hal qiluvchi omillaridan biri.

Qonunbuzar agressiv o'smirlar atrofdagilarga ishonmaydilar, emotsional qaramlikka tushadigan vaziyatlardan qochadilar. Ular tengdoshlari bilan yaxshi munosabatda bo'la olmaydilar, ko'pincha

jinsiy aloqa va agressiyani qo'shadilar, agressiv xulq-atvorlari uchun umuman aybdorliklarini sezmaydilar. Ular ko'pgina odatlari bilan kichiklana bolani eslatadilar. kichikintoylarning impulsleri ichki emas, balki tashqi chegaralanishlariga bo'ysinadi. Bunday o'smirlar amalda o'zlariga zarar yetkazadilar, chunki o'z harakatlari natijasida yaqinlikdan mahrum bo'ladilar va hukumat organlari vakillarining qattiq nazoratiga tushib qoladilar, ularga nisbatan na hurmat, na ishonchlari bor. Shunga qaramasdan qattiq chegaralangan tashqi nazorat sharoitida ham, ular o'zlarini ozodlikda bo'lganlaridan ham ko'proq, qulay sezadilar.

Takroriy va jiddiy jazolanishiga qaramasdan, jamiyatga qarshi agressiv xulq-atvorni yo'qotish qiyin ekanligi haqida ma'lumot, ko'pchilik tadqiqotchilarni, bunday huquqbuzar amalda tajribadan o'rganish qobiliyatiga ega emas,- degan xulosaga olib keladi. Ehtimol bu, jazolash hech qachon tezkor amalga oshirilmaydi va umuman bo'lmasligi bilan bog'liq. Agressiya (jinoyat) jazosiz qolishiga ishonch jamiyatga qarshi xulq-atvorni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.

Shunday qilib, agressivlik va delinkventlik o'zaro chambarchas bog'liq ekan. Umuman olganda agressiv asotsial xulq-atvor jamiyatning mustahkam negativ munosabatiga uchraydi va shaxs bilan uning atrofidagi insonlar o'rtasida jiddiy to'siq bo'lib keladi. Tan olish kerak, bir qator sabablar tufayli agressiv xulq-atvori ifodalangan shaxsga ijtimoiy ta'sir o'tkazish odatda samarasiz bo'lib chiqadi. Agressiya chuqur biologik va ijtimoiy ildizlari mavjudligi sababli, agressiv xulq-atvorni yo'q qilib bo'lmaydi. Faqatgina bir necha pog'onada – oila, jamiyat, kichik guruhlar, shaxsning o'zi - samarali ijtimoiy nazorat tizimini yaratish orqali uning namoyishlarini kamaytirish zarurligi haqida gapirish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Quyidagi tushunchalarni solishtiring va mazmunini ochib bering: “agressiya”, “agressiv qiziqish”, “agressivlik”, “agressiv xulq-atvor”.
2. Agressiyaning pozitiv va negativ namoyishlarini aytib bering.
3. Agressiya va agressiv xulq-atvorning shakllarini aytib bering.
4. Yoshidagi xususiyatlarni inobatga olib, agressiv (xayrixox) xulq-atvorning asosiy belgilarini sanab bering.

5. Agressiv xulq-atvorni izohlab beruvchi, asosiy psixologik nazariyalarni keltiring.

6. Shaxsning agressiv xulq-atvori o'rnatilishiga va namoyish bo'lishiga to'siq qiladigan shartlarni aytib bering.

7. Shaxsning delinkvent xulq-atvori va agressiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ma'nosini tushuntirib bering.

8. A.Bandura va R.Uolterning agressiya borasidagi tadqiqotlarini tushuntirib bering.

VI BOB. DELINKVENT AXLOQ SHAXS OG'ISHGAN XULQINING SHAKLI SIFATIDA VA QONUNGA QARSHI MOTIVATSIYA

Tayanch tushunchalar: Delinkvent va kriminal xulq-atvor. Delinkvent xulq-atvor og'ma xulq-atvorning shakli sifatida. Delinkvent xulq-atvor shakllanishinig sharoitlari. Huquqqa qarshi motivatsiya. Jamiyatga qarshi (sotsiopat) shaxs. Kriminal xulq.

6.1. Delinkvent axloq mazmun-mohiyati va shakllanishi

Delinkvent xulq-atvor muammosi (huquqqa qarshi, jamiyatga qarshi) ko'pgina ijtimoiy fanlarning tadqiqotida asosiy o'rin egallaydi, chunki ijtimoiy tartib umuman davlatning rivojlanishida, shu bilan birga har bir fuqaroning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Huquqqa qarshi xulq-atvoriga nisbatan turli yondashuvlar mavjud bo'lib, psixologik adabiyotda odatda delinkvent xulq-atvor deb fikr yuritiladi. Ushbu tushuncha lotin tilida "*delinquens*" – "noo'rin hatti-harakat"ni angalatadi. Ushbu atamani biz shaxsning qonunga qarshi xulq-atvori deb tushunamiz - hozirgi jamiyatda va hozirgi vaqtda o'rnatilgan qonunlarni buzishga yo'naltirilgan, ijtimoiy tartib yoki boshqa odamlarning farovonligiga xavfli hisoblangan va jinoiy javobgarlikka tortiladigan aniq bir shaxsning harakatlari. Qonunga qarshi xulq-atvor namoyish etayotgan shaxs - delinkvent shaxs deb tavsiflanadi, uning harakatlari esa – delinkventlar deb ataladi.

Kriminal xulq-atvor – delinkvent xulq-atvorning orttirib ko'rsatilgan shakli. Umuman olganda, delinkvent xulq-atvor jamiyatning qonunlarida aks ettirilgan, davlat hayotida mavjud bo'lgan me'yorlariga bevosita qarshi yo'naltirilgan.

Maxsus adabiyotda ko'rib chiqilayotgan atama turli ma'nolarda qo'llaniladi. A.E.Lichko "o'smir" psixologiyasining amaliyotiga "delinkventlik" tushunchasini olib kirib, uning yordamida jinoiy javobgarlikka tortilmaydigan, jamiyatga qarshi mayda harakatlarni chegaralab qo'ydi. Masalan, maktabga bormaslik, assotsiativ guruhga tegishligi, mayda bezorilik, zaiflarni tahqirlash, kichik miqdorda pullarni tortib olish, mototsikllarni olib qochish va hokazo.

V.V.Kovalyov delinkventlikning bunday tushunchasiga qarshi delinkvent xulq-atvorni – jinoiy xulq-atvor ekanligiga ishora qiladi.

5. Agressiv xulq-atvorni izohlab beruvchi, asosiy psixologik nazariyalarni keltiring.

6. Shaxsning agressiv xulq-atvori o'rnatilishiga va namoyish bo'lishiga to'siq qiladigan shartlarni aytib bering.

7. Shaxsning delinkvent xulq-atvori va agressiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ma'nosini tushuntirib bering.

8. A.Bandura va R.Uolterning agressiya borasidagi tadqiqotlarini tushuntirib bering.

VI BOB. DELINKVENT AXLOQ SHAXS OG'ISHGAN XULQINING SHAKLI SIFATIDA VA QONUNGA QARSHI MOTIVATSIYA

Tayanch tushunchalar: Delinkvent va kriminal xulq-atvor. Delinkvent xulq-atvor og'ma xulq-atvorning shakli siaftida. Delinkvent xulq-atvor shakllanishinig sharoitlari. Huquqqa qarshi motivatsiya. Jamiyatga qarshi (sotsiopat) shaxs. Kriminal xulq.

6.1. Delinkvent axloq mazmun-mohiyati va shakllanishi

Delinkvent xulq-atvor muammosi (huquqqa qarshi, jamiyatga qarshi) ko'pgina ijtimoiy fanlarning tadqiqotida asosiy o'rin egallaydi, chunki ijtimoiy tartib umuman davlatning rivojlanishida, shu bilan birga har bir fuqaroning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Huquqqa qarshi xulq-atvorga nisbatan turli yondashuvlar mavjud bo'lib, psixologik adabiyotda odatda delinkvent xulq-atvor deb fikr yuritiladi. Ushbu tushuncha lotin tilida "*delinquens*" – "noo'rin hatti-harakat"ni angalatadi. Ushbu atamani biz shaxsning qonunga qarshi xulq-atvori deb tushunamiz - hozirgi jamiyatda va hozirgi vaqtda o'rnatilgan qonunlarni buzishga yo'naltirilgan, ijtimoiy tartib yoki boshqa odamlarning farovonligiga xavfli hisoblangan va jinoiy javobgarlikka tortiladigan aniq bir shaxsning harakatlari. Qonunga qarshi xulq-atvor namoyish etayotgan shaxs - delinkvent shaxs deb tavsiflanadi, uning harakatlari esa – delinkventlar deb ataladi.

Kriminal xulq-atvor – delinkvent xulq-atvorning orttirib ko'rsatilgan shakli. Umuman olganda, delinkvent xulq-atvor jamiyatning qonunlarida aks ettirilgan, davlat hayotida mavjud bo'lgan me'yorlariga bevosita qarshi yo'naltirilgan.

Maxsus adabiyotda ko'rib chiqilayotgan atama turli ma'nolarda qo'llaniladi. A.E.Lichko "o'smir" psixologiyasining amaliyotiga "delinkventlik" tushunchasini olib kirib, uning yordamida jinoiy javobgarlikka tortilmaydigan, jamiyatga qarshi mayda harakatlarni chegaralab qo'ydi. Masalan, maktabga bormaslik, assotsiativ guruhga tegishligi, mayda bezorilik, zaiflarni tahqirlash, kichik miqdorda pullarni tortib olish, mototsikllarni olib qochish va hokazo.

V.V.Kovalyov delinkventlikning bunday tushunchasiga qarshi delinkvent xulq-atvorni – jinoiy xulq-atvor ekanligiga ishora qiladi.

Chet elda keng tarqalgan "delinkvent" atamasi, voyaga yetmagan jinoyatchilarga nisbatan qo'llaniladi. Ma'lumotlarga qaraganda delinkvent - bu 18 yoshgacha bo'lgan shaxs, uning xulq-atvori guruh yoki individga zarar yetkazadi va jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida me'yoridagi ijtimoiy guruhlar bilan o'rnatilgan chegaradan oshgan deb izoh keltirilgan. Voyaga yetganidan keyin delinkvent avtomatik tarzda jamiyatga qarshi shaxsга aylanadi.

Psixologik adabiyotlarda delinkventlik tushunchasi ko'proq noqonuniy xulq-atvor bilan bog'liq. Bu jamiyat tartibining me'yorlarini buzuvchi turli xil xulq-atvor. Ushbu xulq-atvor jinoyat darajasiga yetmaydigan ma'naviy-axloqiy me'yorlarining mayda buzilishlari shaklida bo'lishi mumkin. Bu yerda u jamiyatga qarshi xulq-atvor bilan tenglashadi. Shu bilan birga u jinoyat kodeksга muvofiq jazolanadigan jinoyat harakatlarda ifodalanishi mumkin. Bu vaziyatda xulq-atvor kriminal, jamiyatga qarshi bo'lib qoladi.

Delinkvent xulq-atvorning keltirilgan turlarini - noqonuniy xulq-atvorning shakllanish bosqichlaridek, hamda uning namoyishlariga nisbatan mustaqil deb ko'rib chiqish mumkin.

Jamiyat qoidalarining xilma-xilligi qonunga qarshi xulq-atvorning kichik turlarini paydo qiladi. Delinkvent xulq-atvorning turli shakllarining klassifikatsiya muammosi fanlararo ahamiyatga ega.

Ijtimoiy huquqiy yondashishda qonunga qarshi harakatlarni zo'rlash va zo'rmaslik (yoki g'arazli) harakatlarga bo'lish keng qo'llaniladi.

Klinik tadqiqotlar doirasida V.V.Kovalyovning bir necha o'zaklar asosida qurilgan, qonunbuzarliklarning kompleks tizimlanishi katta qiziqish uyg'otadi. Ijtimoiy psixologik o'zakda - intizomga qarshi, jamiyatga qarshi, huquqga qarshi; klinik-psixopatologik o'zakda - patologiyasiz va patologik shakllar; shaxs-dinamik o'zagida - reaksiyalar, rivojlanish kabi holatlar tashkil topgan. A.G.Ambrumova va L.Ya.Jezlova qonunbuzarliklarning ijtimoiy psixologik shkalasini taqdim etdilar: intizomga qarshi, jamiyatga qarshi, delinkvent - jinoyat va autoagressiv xulq-atvor (ta'kidlash joizki, ushbu mualliflar delinkvent xulq-atvorga faqat jinoyat xulq-atvorni tenglashtiradilar).

Shaxsга ta'sir qilish me'yorini va delinkventlikning ifodalanish darajasini aniqlash kabi savollarning yechimi uchun, qonunbuzarlar turlarini tizimlashtirish katta ahamiyat kasb etadi. 1932 yilda N.I.Ozereskiy tomonidan shaxs shakllari o'zgarishining fe'l-atvori va

ifodalanish darajasi bo'yicha hozirgi vaqtda ham dolzarb hisoblangan voyaga yetmagan qonunbuzarlarning turlanishi taklif etilgan. Bular: tasodifiy, odatiy, mustahkam va tajribali qonunbuzarlar.

Qonunbuzarliklar sodir etgan, o'z navbatida o'smirlar o'rtasida A.I.Dolgova, Ye.G.Gorbatskaya, V.A.Shumilkin va boshqalar quyidagi uchta turini ajratadilar:

1) Mantiqiy ravishda kriminogen - jinoiy xulq-atvoriga shaxsning kriminogen "hissasi" ijtimoiy muhit bilan hamkorlikda hal etuvchi kuch hisoblanadi, jinoyat xulq-atvorning odatiy turidan kelib chiqadi, u subyektning maxsus qarashlari, yo'naltirishlari va qadriyatlarini bilan shartlanadi;

2) Vaziyat-kriminogen - ma'naviy me'yorlarni buzish, ma'lum darajada noqulay vaziyat bilan shartlangan jinoiy xulq-atvoriga ega bo'lmagan qonunbuzarliklar va jinoyatni o'zi; jinoiy xulq-atvor subyektning rejalariga muvofiq bo'lmashligi va uning nuqtai nazaridan buzilishlar (ekspress) bo'lishi mumkin; bunday o'smirlar, qonunbuzarlik ularning tashabbusi bo'lmagan holda, odatda jinoyatni guruhda va alkogol mastlik holatida sodir etadilar;

3) Vaziyat turi - negativ xulq-atvorning kam darajada ifodalanishi; individ gunohi tufayli paydo bo'lmagan, vaziyatni hal etuvchi ta'sir; bunday o'smirlarning hayoti ijobiy va salbiy ta'sirlar kurashi deb tavsiflanadi.

Shunga o'xshash holda, V.N.Kudryavsev tajribali jinoyatchilar haqida fikr yuritadi (doimiy jinoyatlar sodir etib, ulardan ko'rgan foyda evaziga hayot kechirayotgan shaxslar), vaziyat (atrof-muhitga qarab harakat qiluvchi), tasodifiy (ilk bor qonunbuzganlar).

Delinkvent xulq-atvor shaxsning deviant xulq-atvorining shakli sifatida bir qator xususiyatlarga ega.

Birinchidan, bu - shaxs og'ma xulq-atvorining kam o'rganilgan turlaridan biri. Masalan, jinoiy deb topilgan faoliyat doirasi, har xil vaqtda, turli davlatlarda turlicha talqin qilinadi. Qonunlarning o'zi bir xil ma'noli emas va ularning nomukammalligi tufayli yoshi ulug' aholining katta qismini "jinoyatchi" deb hisoblash mumkin. Masalan, soliqlardan bosh tortish yoki kimgadir jismoniy jarohat yetkazish moddalari bo'yicha. Shunga o'xshash, hamma yolg'on gapirish mumkin emasligini biladi. Ammo, doim va hamma yoqda haqiqatni gapiradigan inson, vaziyatga qaramasdan, yolg'on gapirayotganga nisbatan ko'proq noadekvat ko'rinadi.

Ikkinchidan, delinkvent xulq-atvor asosan huquqiy me'yorlar-qonunlar, me'yoriy aktlar, intizom qoidalari bilan boshqariladi.

Uchinchidan, noqonuniy xulq-atvor – deviatsiyaning eng xavfli turlaridan biri deb tan olingan, chunki ijtimoiy tuzilish asoslariga jamiyat tartibiga xavf soladi.

To'rtinchidan, shaxsning bunday xulq-atvori har qanday jamiyatda faollik bilan ayblanadi va jazolanadi. Har qanday davlatning asosiy funksiyasi qonunlarni ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini nazorat qilish, shuning uchun deviatsiyaning boshqa shakllaridan farqliroq, delinkvent xulq-atvor mahsus jamiyat institutlari tomonidan boshqariladi: sudlar, tergov organlari, jazoni ijro etish muassasalari.

Beshinchidan, eng muhimi, noqonuniy xulq-atvorning o'zi shaxs va jamiyat o'rtasida - individual intilishlar va jamiyat ehtiyojlari o'rtasida nizo mavjudligini anglatadi.

6.2. Delinkvent xulq-atvor shakllanishinig sharoitlari

Fuqarolarni o'rnatilgan qonun va qoidalarga bo'ysunishga yo'naltirilgan turli ijtimoiy tadbirlarga qaramasdan, insonlarning ko'pchiligi ularni har kuni buzadilar. Ba'zan tushunish juda qiyin bo'ladi, nima uchun ko'rinishidan oddiy insonga o'xshagan insonlar to'satdan og'ir jinoyat sodir etadilar. Odatda bular psixik sog'lom shaxslar, bolalar va o'smirlar ham.

Qonunbuzarlik xarakterlarning determinatsiyasini ko'rib chiqqanda odatda, bunday xulq-atvorni kelib chiqaruvchi ichki sabablar va tashqi sharoitlar birligi haqida fikr yuritadilar. Shubhasiz, har bir aniq vaziyatda omillarning noyob juftligi o'z o'rniga ega, ammo bunga qaramasdan, delinkvent xulq-atvor shakllanishida ba'zi bir umumiy tendensiyalarni aniqlash mumkin.

Ijtimoiy sharoitlar huquqbazar xulq-atvorning paydo bo'lishida ma'lum rol bajaradi. Ularga eng avvalo ko'p pog'onali ijtimoiy jarayonlar tegishlidir. Masalan, bu hukumat zaifligi, qonunchilikning nomukammalligi, ijtimoiy ofatlar va hayotning past darajasi.

R.Mertnou qarashlariga muvofiq, ba'zi bir insonlar delinkvent xulq-atvordan kechib bilmaydilar, chunki hozirgi iste'mol qilish jamiyatida insonlarning ko'pchiligi har qanday yo'l bilan iste'mol qilishga, foyda olishga va muvaffaqiyatga intiladilar. Ijtimoiy manfaatlardan u yoki bu yo'llar bilan chetga chiqib qolgan insolarga qonuniy yo'l bilan xohlagan maqsadlariga erishishi juda qiyin.

Jamiyatning qolip - yorliqlarini osishga moyilligi jamiyatga qarshi xulq-atvorning ijtimoiy sababi bo'lishi mumkin. Bir qator vaziyatlarda aniq shaxsning mustahkam jamiyatga qarshi xulq-atvorining ijtimoiy sababi bo'lishi mumkin: birinchidan, tasodifan sodir etilgan jinoyat - jazo - zo'rlash munosabatlarining tajribasi (maksimal namoyishi ozodlikdan mahrum etish joylarida) - "jinoyatchi" degan qolipi tufayli ijtimoiy adaptatsiyaning keyingi qiyinchiliklari - ijtimoiy iqtisodiy qiyinchilik-larning to'planishi va ikkilamchi delinkventlik - yanada og'irroq jinoyati va h.

Jinoiy xulq-atvorning determinatsiyasida ijtimoiy vaziyatning muhim roli haqida totalitar tartib sharoitida insonlar xulq-atvorini kuzatilishidan dalolat beradi. P.Kuter Germaniyaning SS qo'shinlarida xizmat qilgan, ommaviy qotillik sodir etgan shaxslarda nasl va shaxs rivojlanishini kuzatgan (konsentrasion lagerlarda ishlashdan oldin va keyin), Diks tadqiqotlarining natijalarini keltiradi. Aniqlandiki, SS chilarning jinoiy xulq-atvori, turli xil shaxs buzilishlari bilan kuzatilgan bo'lsa ham, faqatgina ijtimoiy ruxsat etilgan sharoitlarda namoyon bo'lgan - konslagerlarda o'qishi va ishlashi davomida. Nazizm davrigacha va undan keyin o'rganilayotgan shaxslar, odatda hech qanday jinoyat sodir etmaganlar.

Delinkvent xulq-atvorning paydo bo'lishida mikroijtimoiy vaziyat muhim ahamiyatga ega. Uning shakllanishiga ko'maklashuvchi, masalan: asotsial va ijtimoiy qarshi bo'lgan atrofdagilari (ota-onaning alkogolizmi, asotsial va ijtimoiy qarshi oila yoki ulfatlar); nazoratsiz qolish; ko'p bolali va to'liqsiz oila; oila ichidagi mojarolar; boshqa ahamiyatli bo'lgan kishilar bilan surunkali nizolar.

V.N.Kudryavsev ilk davrida paydo bo'ladigan, jinoyatchining o'z muhitidan chetlanish holatiga ishora qiladi. 10% agressiv jinoyatchilar, onasi ularni bolaligida yaxshi ko'rmagan deb hisoblaydilar ("me'yoridagi" ayirishda faqatgina 0,73%).

Adabiyotdagi ma'lumotlarni qo'shib, delinkventlikni olib keluvchi, quyidagi mikroijtimoiy omillarni sanab o'tish mumkin:

-ota-ona tomonidan bog'langanlik va mehribonlikka bola ehtiyojining frustratsiyasi (masalan, xaddan tashqari jahldor ota yoki qayg'urmaydigan ona), bu esa o'z navbatida bolaning ilk jarohat kechinmalarini olib keladi;

-jismoniy yoki psixologik qahr yoki oilada kuchning ustivorligi (masalan, doimiy yoki me'yoridan ortiq jazolashni qo'llash);

–ma’naviy ongning me’yorida rivojlanishini to’siqlovchi, ota ta’sirining yetishmasligi (masalan, uning yo’qligi);

–og’ir jarohat (kasallik, ota-onaning o’limi, zo’ravonlik, ajralish) jarohat holatlariga urg’u berish bilan;

–bola xohishlarini bajarilishida unga yon bosish; ota-ona talabchanligining yetmasligi, ketma-ketlik bilan o’sib borayotgan talablarning ular tomonidan qo’yilmasligi yoki amalga oshirilishining talab qilmasligi;

–bolani me’yoridan ortiq stimullashtirish - me’yoridan ortiq intensiv erta muhabbat munosabatlari, ota-onasiga, akalariga va opalariga nisbatan;

–ota-ona tomonidan bolaga qo’yiladigan talablarning nomuvofiqligi, natijada bolada xulq-atvor me’yorlarini aniq tushuna olmaslik paydo bo’ladi;

–ota-onaning almashishi (vasiyning);

–ota-ona o’rtasidagi surunkali mojarolar (jahldor ota onani bola oldida urayotgan vaziyat, ayniqsa xavflidir);

–ota-onaning shaxsiy xayrixoh xususiyatlari (masalan, otaning talabchan bo’lmasligi va onaning yon bosishi);

–oilada yoki guruhda delinkvent qadriyatlarining bola tomonidan o’rgatish orqali o’zlashtirishi (ochiq va yashirin).

Odatda ilk davrlarida, frustratsiya kechish jarayonida, bola og’riqni sezadi, tushunish va yumshatish yo’qligi tufayli bu og’riq afsuslanish va jahlg aylanadi. Agresssiya ota-ona e’tiborini jalb qiladi, bu esa bola uchun muhimdir. Bundan tashqari, agressiyani qo’llagan holda, atrofdagilarni boshqarib, bola o’z maqsadiga yetishadi. Bora-bora agressiya va qoidalarni buzish maqsadga yetishning usuli sifatida doimiy qo’llaniladi, delinkvent xulq-atvor mustahkamlanadi.

M.Ratter va D.Gidlerning “Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi: tendensiya va istiqbollari” deb nomlagan tadqiqotida, mualliflar oilada bolaning ilk rivojlanishi va individning keyingi bo’ysinishi o’rtasida aniq aloqa borligiga ishora qilinadi, ammo oila ta’sirining bunday mexanizmlarining aniq emasligi ta’kidlanadi. Voyaga yetmaganlar misolida tadqiqotchilar jinoiy xulq-atvor uchun turli sabablar mavjudligi, bular tengdoshlar guruhining ta’siri, ijtimoiy nazorat, ijtimoiy o’rgatish, biologik va vaziyat omillariga bog’liqligini xulosa qiladilar. Ular nuqtai nazaridan oldini olishning yaxlit strategiyasini yoki bitta sababini qidirish be’manilikdir.

Huquqqa qarshi xulq-atvorning individual determinantlari psixologik tahlil uchun katta qiziqish uyg'otadi.

O'z navbatida, individual xususiyatlar xususan jinsiy farqlar bilan aniqlanadi. Masalan, hammaga ma'lumki, huquqqa qarshi xulq-atvor erkak jinsiga ko'proq mansubdir. Ayollar jinoyatchiligi o'sishiga qaramasdan, uning nisbiy ko'rsatkichlari erkaklarnikiga nisbatan pastroq.

Ko'proq ayollar yoki erkaklarga xos bo'lgan jinoyatlar haqida gapirish mumkin. Bunday delinkventlar, bolalarni o'ldirish, fohishalik, magazinlarda o'g'rilik kabilarni ko'proq ayollar sodir etadilar. Erkaklar bosqinchilik, o'g'rilik uyushtiradilar, tan jarohatlarini yetkazadilar, o'ldiradilar, faqatgina erkaklarga xos jinoyatlar ham bor, masalan, zo'rlash.

Yoshga bog'liq omil ontogenezning turli bosqichlarida xulq-atvorning o'ziga xosligini aniqlaydi. Qonunbuzarliklar sodir bo'lish darajasining yoshga bog'liq dinamikasi quyidagicha namoyish bo'ladi: ko'pchilik jinoyatchilarning yoshi 25 dan 35 yoshgacha; jinoyatlar miqdori uzluksiz 14 yoshdan 29 yoshgacha o'sadi; jinoyatlarni sodir etishning maksimal holati 29 yoshga to'g'ri keladi; 29 yoshdan 40 yoshgacha asta-sekin pasayadi; 40 yoshdan keyin jinoyat sodir etish kamdan-kam uchraydi.

Muayyanki, 6-8 yoshdan boshlab jamiyatga qarshi xulq-atvor (masalan, agressiyadan farqliroq) haqida fikr yuritish ahamiyatlidir. Odatda kichik bola o'z xulq-atvorini to'la to'kis anglab bilmaydi, uni boshqara olmaydi va ijtimoiy me'yorlar bilan solishtira olmaydi. Faqat maktabda bola birinchi bor va haqiqatdan qat'iy ijtimoiy talablar bilan to'qnashadi va faqatgina maktab yoshidan boshlab, boladan xulq-atvorning asosiy qoidalariga bo'ysinish kutiladi.

Turli yoshlarda delinkvent xulq-atvor namoyish bo'lishining "sifatli" xususiyatlari o'rinlidir. Ontogenezning ilk bosqichlarida ijtimoiy xulq-atvorning buzilishini, ehtimol bolaning psixik rivojlanishi muammolari yoki o'tkinchi xarakterga ega nevroitik reaksiyalar tashkil etadi. Masalan, 5 yoshar bolaning o'g'rilik qilishi uning giperfaolligi bilan bog'liq, e'tibor va muhabbatga nevroitik ehtiyoji, yaqin insonini yo'qotishi, intellektual rivojlanishning to'xtatilishi, zarur bo'lgan oziq-ovqat va narsalar olishi uchun imkoniyat yo'qligi.

Maktabga borishi bilan vaziyat qat'iy o'zgaradi - bolaning psixik inkoniyatlari o'sish sharoitida, shaxsning intensiv ijtimoiylashish bosqichi boshlanadi. Shu paytdan boshlab, bolaning ma'lum harakatlarini haqiqatdan ham, qonunbuzar harakatlarga yaqin deb ko'rib chiqish mumkin. Kichik maktab yoshida (7-10 yosh) delinkvent xulq-atvor quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: mayda bezorilik, maktab qoida va intizomini buzish, darslardan qochish, uydan qochish, yolg'onchilik va o'g'rilik.

Aholi bir qismining qashshoqlanishi, ijtimoiy tarbiya institutlarining tarqalishi, ijtimoiy o'rganishlarning almashishi - bularning hammasi, bezori turidagi asotsial bolaning ko'cha bolasiga aylanishiga olib keladi. Yosh o'quvchilarning ko'chadagi bezoriliklari (o'g'rilik, ayrim narsalarni o'marish, majburlash), daydilik, narkotik moddalarni va alkogol ichimliklarni iste'mol qilish bilan birga sodir bo'ladi. Shubhasiz, bunday vaziyatlarda bolaning deviant xulq-atvori, o'smir va katta yoshida delinkvent xulq-atvorga o'tadi.

O'smir yoshida huquqqa qarshi harakatlar yanada ko'proq anglagan va erkin holatda bajariladi. Ushbu yosh uchun "odatiy" buzilishlar, o'g'il bolalarda - bezorilik va o'g'rilik, qizlarda - o'g'rilik va fohishalik. Bunday buzilishlar bilan birga hozirgi vaqtda yangi turlari keng tarqalgan - narkotiklar va qurol-yaroq sotish, reket, dallollik, tovlamachilik, biznesmen va chet elliklarga bosqinchilik uyushtirish.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlarning katta qismi - jinoiy guruh tomonidan sodir etiladi. Guruhda jazolanishdan qo'rqishi pasayadi, agressiya va vahshiylik keskin kuchayadi, o'ziga va sodir bo'layotgan holatga nisbatan tanqidiy yondashish pasayadi. Guruhning qonunbuzar xulq-atvorining namunasi sifatida, futbol o'yinidan keyin muhlislarning bezori harakatlari, yoshlar esa ularning aksariyatini tashkil etadi.

V.N.Kudryavsev fikricha, jinoyatchining kareerasi odatda, yomon o'qish va maktabdan chetlanishdan boshlanadi (maktabga nisbatan negativ dushmanlik munosabatlari). Keyin oila muammolari fonida va "pedagogikaga qarshi" tarbiya metodlarini qo'llash tufayli oiladan chetlanishi. Keyingi bosqich jinoiy guruhga kirish va jinoyat sodir etish. Ushbu yo'lni o'tish uchun o'rtacha 2 yil talab qilinadi. Ma'lumotlarga ko'ra, tajribali jinoyatchilarning (o'g'rilar va tovlamachilar) 60%i ushbu yo'lga 16 yoshdan kirib borgan.

Determinatsiya bo'yicha qonunbuzar o'smirlarning quyidagi guruhlarini ajratish mumkin.

Birinchi guruhni, bir nechta sabablar tufayli oliy hislar (vijdon, burch, ma'suliyat, yaqinlariga mehribonlik) rivojlanmagan yoki qilmishlariga nisbatan emotsional reaksiyani o'zgartiruvchi yomonlik va yaxshilik haqida tasavvurlari mavjud bo'lgan o'smirlar tashkil etadi.

Ikkinchi guruhda gipertrofiyaga chalingan, yosh bilan bog'liq reaksiyalari mavjud bo'lgan o'smirlar. Bu ularning oppozitsion va jamiyatga qarshi xulq-atvorning o'tkinchi xarakteriga ishora qiladi (boshqa yaxshi sharoitlar borligida ham).

Uchinchi guruhda, o'zining delinkvent xulq-atvorini atrofdagilarga bemalol namoyish eta oladigan va bu xulq-atvor ular uchun tabiiy va odatiy bo'lib qolgan o'smirlar (o'zining salbiy obrazi bilan, o'zini nazorat qilish ko'nikmalarining yo'qligi bilan, zaif vijdoni, insonlarga nisbatan iste'molchi munosabatida bo'lish).

To'rtinchi guruh - psixik va nevroitik buzilishlarga chalingan o'smirlar (ularda delinkvent xulq-atvor bilan birga intellektual qoloqlikning belgilari mavjud).

Beshinchi guruh – delinkvent xulq-atvorni ongli tanlagan o'smirlar (psixik buzilishlarga chalinmagan, yetarlicha o'zini nazorat qila oladigan va o'z tanlovining oqibatlarini tushunadigan).

Eng noqulay taxminiy belgilar deb, quyidagilarni hisoblash mumkin (keyinchalik jamiyatga qarshi xulq-atvorni shakllanishi doirasida): aybdorlik hissi va vijdonning yo'qligi, surunkali yolg'onchilik, insonlarga nisbatan iste'molchi munosabatida bo'lish, loqaydlik, tartibsizlik, psixopatologiyaning yorqin namoyishi.

Jins va yosh omillaridan tashqari, konstitusional (fiziologik tuzilishi) omillari ham ajratiladi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, konstitusional xususiyatlar shaxs rivojlanishini jamiyatga qarshi tomonga yo'naltirishi mumkin. Masalan, bola ehtiyojlari va qiziqishlari shunday kuchli bo'lishi mumkinki, u ochlik holatiga chidolmaydi va buning ta'sirida u o'g'rilik qilishni boshlaydi. Yoki kichik bolalarning yaqinlik munosabatlarini o'rnatish qobiliyatida ifodalangan individual farqlar mavjudligi, ehtimoldan holi emas.

Shaxsning delinkvent xulq-atvoriga psixopatologiyaning ta'siri haqidagi savol bahs-munozarali bo'lib qolmoqda. V.V.Kovalyov ta'kidlaganidek, "psixik chetlanishlarning mutanosiblik muammosi va

jamiyatga qarshi xulq-atvor – psixiatriyaning eng murakkab va qiyin muamolaridan biri”. Delinkvent xulq-atvor bilan qo‘shiladigan, eng keng tarqalgan anomaliyalar: psixopatiya, alkogolizm, nevroitik buzilishlar, bosh-miya jarohatlarini qoldiq (iz) namoyishlari va bosh miyaning organik kasalliklari, intellektual zaiflik.

Psixik anomaliyalarga ega insonlar emotsional xohish yoki intellektual patologiya natijasida o‘z harakatlarini anglash va boshqarishning past qobiliyatini namoyon etadilar. Shu bilan birga, tibbiyot me‘yorlaridan chetlanishni jinoiy harakatlarni olib keluvchi aniq sabab deb hisoblash mumkin emas, biroq bir qator vaziyatlarda ular birlashadilar.

Psixik buzilishning ma‘lum sharoitlar bilan qo‘shilishi natijasida patologik affekt holati paydo bo‘lishi kutiladi, u esa o‘z navbatida inson shuurini mu‘ayyan darajada pasaytiradi, yohud o‘z xarakatlarini anglash va boshqarishini pasaytirib yuboradi.

Ko‘pchilik mualliflar sababsiz, atrofdagilar uchun tasodifiy tuyulgan vahshiy qotilliklarni aynan patologik xulq-atvor namoyishi deb ko‘rib chiqadilar. Yu.B.Mojginskiy tasdiqlaganidek, bunga o‘xshash jinoyatlar holatida, agar jinoyat o‘smir tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, qotillikkacha psixik buzilishlarsiz, ikkita asosiy patologik tendensiya kuzatiladi: affektlar buzilishi (distimiya, depressiya) va shaxs krizisi (psixopatik rivojlanish). Bunday buzilishlar shartsiz aniq ijtimoiy psixologik kontekst bilan qo‘shilishadi. Ular orasida muallif - nizoli vaziyat, uzoq davom etuvchi stress (oiladagi uzoq davom etayotgan mojaro), o‘smirlar guruhining ta‘siri (guruh qadriyatlari va qoidalari), norasolik kompleksi, kichik tashqi xavf kabilarni sanab o‘tadi.

X.Remshmidt o‘smirlar delinkvent xulq-atvorining psixologiyasida boshqa psixik kasalliklar belgilarisiz yengil emotsional jarohatlarni ajratadi; ifodalangan emotsional buzilishlar, bular qo‘rqish, g‘am-g‘ussa yoki xulq-atvorning zo‘ravonlik usuli bilan ifodalanadi.

Kayfiyat buzilishlari bir qator vaziyatlarda qiziqishlar patologiyasi bilan qo‘shilishadi, masalan, patologik xulq-atvor to‘xtatib bo‘lmaydigan o‘t qo‘yishga (piromaniya) qiziqish bilan yoki o‘g‘rilik bilan (kleptomaniya). Shu qatordagi xohishlar buzilishlariga qochish va daydilikka moyillik ham tegishlidir. Umuman olganda, buzilgan qiziqishlar sindromi quyidagicha tavsiflanadi: impulsivlik, o‘zgarimaslik, shaxs uchun begonalik va yengilmaslik. X.Remshmidt,

depressiv delinkventlarni ta'riflaganida, "agressiya va qiziqishlarning kuchayishi" va "qiziqishlarning butunlay yo'qolishi" holatlarining navbat bilan namoyon bo'lishi haqida fikr yuritadi.

Keltirilgan ma'lumotlarda ta'kidlaganidek, affektiv profil - jamiyatga qarshi xulq-atvor bilan va o'z navbatida ichki va tashqi omillar majmui bilan bog'liq, shaxs xususiyatlarining eng muhimlaridan biri.

Shunday qilib, xulq-atvor determinatsiyasi bo'yicha delinkvent shaxslarning bir nechta asosiy guruhini ajratish mumkin:

–vaziyatli huquqbuzar (uning hatti-harakatlari ko'proq vaziyatdan kelib chiqadi);

–submadaniy huquqbuzar (guruhning jamiyatga qarshi qadriyatlarini bilan qo'shilgan guruh);

–nevrotik huquqbuzar (uning asotsial harakatlari intropsixik nizo va xavotir natijasi sifatida namoyon bo'ladi);

–"organik" huquqbuzar (impulsivlik, intellektual zaiflik va affektivlik ustivorligi bilan bosh miyasining jarohatlari tufayli huquqbuzar harakatlarini sodir etayotgan);

– psixotik huquqbuzar (og'ir psixik xastaligi – psixoz tufayli delinktlarni sodir etayotgan);

–jamiyatga qarshi shaxs (uning jamiyatga qarshi harakatlari shaxs qirralarining maxsus qo'shilishidan kelib chiqqan: dushmanlik, oliy hissiyotlarning zaifligi, yaqin munosabatlar yo'qligi).

6.3. Qonunga qarshi motivatsiya

Yuqorida ko'rib chiqilgan tashqi va ichki sharoitlar delinkvent xulq-atvor shakllanishiga ko'maklashadi. Delinkvent xulq-atvorning o'rnatilishida shaxsning jamiyatga qarshi yo'naltirilganligi asosiy rol o'ynaydi. Bu yerda, huquqqa qarshi xulq-atvorning asosiy sababi bo'lmish - maxsus motivatsiya haqida fikr yuritiladi. V.N.Kudryavsev shaxsning jamiyatga qarshi yo'naltirilishi haqida fikr yuritadi. Boshqa mualliflar o'xshash atamalarni qo'llaydilar: shaxsning kriminogen o'zgarishi, jamiyatga qarshi ko'rsatna, ijtimoiy qarshi yo'naltirish, huquqbuzar motivatsiyasi. Ushbu atamalar ustivorlik qiladigan va mustahkam shaxs motivlari tizimini belgilab beradi - ichki xohishlar, ehtiyojlar, ko'rsatmalar, qadriyatlar, qiziqishlar va e'tiqodlar.

Huquqqa qarshi motivatsiyaning turli manbaalari, shakllari va ifodalanish darajalari bo'lishi mumkin. V.V.Luneyev huquqbuzar

harakatlarning quyidagi yetakchi motivatsiyalarini ko'rib chiqishni taklif etadi: g'araz-ochko'zlik, zo'ravonlik-egoistik, anarxistik-individuallik, yengil xayol-mas'uliyatsizlik, qo'rqqoqlik-irodasizlik.

A.I.Dolgova o'smirlar misolida, shaxsda zo'ravonlik va g'arazlik turlarini ajratadi. Zo'ravonlik turida o'z mavqeini aniqlab olishga intilish, o'zini kuchli, adolatli, ko'ngilchan, doim yordamga tayyorligini namoyon qilish o'rinlidir. Biroq, bunday shaxslarda adolat haqida tasavvurlar noto'g'ri, ularning ma'naviyati, haqiqatdan olganda - jinoyatchi ma'naviyati. Ularga xos xususiyatlar - guruh egoizmi, noan'anaviy guruhga qattiq bog'lanib qolgani, vahshiylik, kuch yakkaligi, o'z xulq-atvorining haq ekanligiga ishonchi. G'arazli turi uchun guruhdagi emas, ko'proq individual egoizm xosdir. Uning vakillarida qadriyat yo'naltirishlari zaifroq, ular o'z xulq-atvorining huquqbuzar ekanligini to'la to'kis anglaydilar. Bunday o'smirlarning farqlari - mahfiylik, ma'naviyatsizlik, g'arazli ko'rsatmalar mavjudligi, yuqori darajada ijtimoiy qarovsizlik. Amaliyotda keltirilgan turlarning qo'shma turlari bilan ko'proq to'qnash kelishimiz mumkin.

Huquqqa qarshi motivatsiya, aniq bir shaxs ustivor sabablarining mustahkam tizimi sifatida, uning huquqiy ongi bilan bevosita bog'liq.

Huquqiy ong quyidagilarni taxmin qiladi:

- 1) qonunlarni bilish va ularni tushunish;
- 2) qoidalarni shaxsga ahamiyatli sifatida qabul qilish, ularning foydali va adolatli ekanligiga ishonch;
- 3) qonun va qoidalarga muvofiq, harakat qilishga tayyorgarligi, odati va mahorati.

Shubhasiz, me'yoridagi ijtimoiy rivojlanish madaniy me'yorlarni (shu bilan birga huquqiy) individual qadriyatlarga aylantirish jarayonini tahmin qiladi. Shaxsiyat mazmunlari tizimi orqali singdirilgan huquqiy me'yorlar, iroda boshqarishi bilan qo'shilganda, qonunga bo'ysinib kabi shaxs xususiyatini paydo bo'lishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, qoidalarni bajarish yoki buzish turlicha bo'lishi mumkin. Huquqbuzar harakatlarga undaydigan alohida sabablar: darhol rohatlanishga intilish, o'zini namoyon qilishga intilish, qulayliklarga yoki yuqori ijtimoiy mavqega intilish, oppozitsion xulq-atvor (ta'qiqqlarni buzishga ichki intilish), xulq-atvor stereotiplari (kriminal muhitda orttirgan tajribasi), agressiya va sadistik moyilliklar, ijtimoiy stereotiplarga va an'analariga amal qilish, guruhga tegishlilikini his etish ehtiyoji va uning ma'qullashiga sazovor bo'lish,

zerikish, tavakkalchilikka va o'tkir hissiyotlarga intilish, frustratsiya, majburiy himoyaga zaruriyat, altruizm (yuqori maqsad yoki boshqa insonlar uchun huquqbuzarlikni sodir etish).

Shubhasiz, delinkvent xulq-atvor bilan to'qnashganimizda, biz eng avvalo, uning ortida turgan sabablarini o'rganishimiz zarurdir.

Ongsiz motivatsiyasini ochib beruvchi, psixoanalitik tadqiqotlarda, delinkventlik – ichki nizolar va primitiv himoyalar mahsuli sifatida o'rganiladi. Jamiyatga qarshi xulq-atvor holatida esa, delinkventlikning quyidagi ongsiz sabablari ishtirok etishi mumkin:

- tezkor qoniqishni talab qiladigan xohishlar;
- behuda jahlning kechinmalari, namoyish talab qiluvchi tushkunlik-agressiyasi;
- qasos talab qiluvchi, xafagarchilik;
- adolatni tiklashga undaydigan, hasad;
- ishonchsizlik va masofa saqlashga intilish;
- cheksiz qudratlilik va buyuklik xayollari.

A.Ayxorn ko'rsatganidek, shaxs dinamikasi nuqtai nazaridan delinkventlikning ikkita asosiy turi mavjud:

– chegaradagi (me'yoridagi) nevrotik holat, jamiyatga qarshi belgilari bilan, qachonki shaxs ichki nizo holatida bo'lsa va uning qaysidir qismi, aybdorlik hissini keltirib, delinkvent xulq-atvorni ta'qiqlasa. Aybdorlik hissi ustivorligida delinkvent o'zini g'ayrioddiy tutadi, masalan, o'g'irlangan shapkani kiyib yuradi yoki undan foyda ko'rmaydi. U ochiqchasiga o'g'riligi fosh etilishini kutadi va odatda qo'lga tushadi. Uyqusida u bostiriqadi. Jazolanishidan so'ng u yengil tortadi. Bir qator vaziyatlarda aybdorlik hissi jinoyatchilarda jinoyatni sodir etishdan oldin paydo bo'ladi. Bu yerda delinkventlik individning Super Ego bosimidan yengil tortish xohishi tufayli paydo bo'ladi;

– nevroz belgilarisiz jamiyatga qarshi xulq-atvor. Ushbu vaziyatda nizo "tashqariga chiqarilgan" bo'ladi - bu libido xohishlarining erta frustratsiyasi sababli atrofidagilari bilan ochiq nizo.

Ammo, jazolashda ongsiz ehtiyoj va rohatlanish prinsipining ustivorlik bosqichida o'matilishi, ikkala vaziyatda ham namoyon etilgan.

6.4. Antijimoiy shahs tushunchasi

Aniq bir shaxsda ustivorlik qilayotgan va odatda ko'proq namoyon bo'ladigan sabablar, shaxsning umumiy yo'naltirishini belgilaydi. Chet

eldagi psixologik va tibbiy adabiyotlarda katta yoshdagilarning (18 yoshdan) delinkvent xulq-atvorini tavsiflash uchun quyidagi atamalar keng qo'llaniladi: "jamiyatga qarshi", "sotsiopatik", "psixopatik" shaxs. Ushbu tushunchalar biz uchun odatiy bo'lib qolgan tushunchalar - "kriminal shaxs", "xarakterologik psixopat" - bilan teng emas va tibbiy tashxis sifatida qo'llab bo'lmaydi. Sotsiopatik (jamiyatga qarshi) shaxs - shaxs faoliyatining chuqur psixologik mexanizmlari orqali tavsiflangan psixologik turi. Sotsiopatik dinamikaning tadqiqotiga asosiy hissani psixosozialitik yondashuv vakillari qo'shgan. O'zining muammoli o'smirlar bilan olib borgan ishi tufayli mashhur bo'lgan Avgust Ayxorn (1876-1949), delinkventlikka quyidagicha tavsif beradi - "dinamik hodisa, o'zgarishlar sodir etayotgan psixik kuchlarning o'zaro harakatlar natijasi".

Ushbu o'zgarish eng avvalo Ego va Super Ego o'rtasida o'zaro munosabatlarning buzilishi. Super Ego (markaz sifatida) shakllanmagan bo'lishi mumkin, boshqa vaziyatlarda u haddan tashqari qattiq va jazolovchi bo'lishi mumkin. Nihoyatda, Ego - idealda (Super Egoning qismi sifatida) mavjud jamiyatga qarshi identifikatsiyalar shaklida bo'lishi mumkin.

N.Mak-Vilyams sotsiopatik shaxsni boshqalar ustidan hukmronlik qilish namoyon qilingan ehtiyojini sezish orqali ta'riflaydi. Bu insonlarga ta'sir o'tkazishga intilish, ularni boshqarish, ular ustida "ko'tarilish" sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Ko'pchilik mualliflar ta'kidlashicha, ushbu fe'l-atvor insonga bog'lanib qolish asosiy qobiliyatining yo'qligi bilan bog'liqdir.

Bunda ijtimoiy adaptatsiyaning darajasi turlicha bo'lishi mumkin. A.Ayxorn ochiq va latent delinkventlik tushunchasini kiritdi. Garchi birinchi vaziyatda jamiyatga qarshi harakatlar o'rinli bo'lsa, ikkinchisida esa - holat mavjud bo'lib, tashqi namoyon etilmaydi.

Shaxsning jamiyatga qarshi tuzilishi bo'lgan inson albatta jinoyat sodir etadigan emas, ammo uning hayotini butunlay maxsus motivatsiya belgilaydi. Ba'zi bir hurmatga sazovor kasblar vakillari, shubhasiz, boshqalarga nisbatan ko'proq darajada bosim o'tkazish va boshqarishga moyillikni namoyon etadilar (pedagoglar, sudya, xirurglar), o'z individualligini jamiyat qiziqishlari bilan qo'shib yuboradilar.

Qonunbuzarlik yo'liga tushgan shaxslar, albatta, ushbu psixologik tashxis nuqtai nazaridan yetarli darajada tavsiflanishi mumkin. Qiziqarli fakt shundan iboratki, agar sotsiopatik shaxs qamoqdan yoki o'zini yo'qotishdan qochishga ulgurgan bo'lsa, u o'rta yoshga qarab "yonib kul bo'lish" tendensiyasiga ega bo'ladi (40 yoshiga qarab), odatda "namunaviy fuqaro" darajasiga yetadi.

Psixozanaliz delinkventlarni, o'zining ichki muammolarini hal eta olmaydigan kishilar sifatida o'rganadi. Jamiyatga qarshi insonlar reallikdan uzilib qoladilar va ichki borliqdan, davlat tomonidan qonunda ta'qiqlangan harakatlarni sodir etish orqali himoyalana dilar. Sotsiopatik insonlarning asosiy psixologik himoyasi - hamma narsaga qodir nazoratdir. Ular shu bilan birga proyektiv identifikatsiyani, bir qator dissotsiativ jarayonlarni va tashqi harakatni qo'llaydilar. Mak-Vilyams ta'kidlaganidek, bosim o'tkazishga ehtiyoj, ustivorlik ahamiyatga ega. U uyatdan himoya qiladi (ayniqsa dag'al psixopatlarda) yoki jinsiy (seksual) perversiyalar qidirishdan chalg'itadi (bular ham kriminallik asosida yotishi mumkin).

Delinkvent xulq-atvorda odatda shaxs negativ fazilatlarini jamiyatga proyeksiya qilishi qo'llaniladi. Bunda jamiyat borligiga nisbatan yomondek tuyiladi, ammo huquq-tartibot organlari vakillari eng salbiy "ment" xarakteristikasigacha pasayadilar. Sotsiopatlarda mashhur vijdonning yo'qligi, faqatgina zaif Super Ego haqida dalolat bermasdan, balki boshqa insonlarga nisbatan ilk o'zaro bog'liqliklar yetishmovchiligi haqida ham dalolat beradi. Jamiyatga qarshi shaxslar uchun boshqa insonlar qadriyati, ularning foyda keltirishi bilan tasavvur qilinadi, bu esa oxirgilarning tanbeh eshitishga ochiq yoki ongsiz roziligi bilan aniqlanadi. Sotsiopatik insonlar o'z g'alabalari va aldovlari bilan ochiqchasiga maqtanadilar, agar bu - tinglovchiga ularning kuchi haqida taasurot qoldirsa. Qonun himoyachilari hali hanus hayron qoladilar, jinoyatchilarning qanchalik jinoyatni yengil tan oladilar va bu vahshiyliklar haqida xotirjam so'zlab beradilar, bu borada ularning fikricha, zaiflik belgisi bo'ladigan harakatlarini yashirish kerak.

O'z xulq-atvori tufayli delinkventlar noqulaylikdan azob tortishi haqida ma'lumot ularga psixopatik va ijtimoiy ta'sir o'tkazishning asosiy qiyinchiliklaridan biri.

Shunday qilib, sotsiopatik shaxsning o'zini boshqarishning asosiy mexanizmi ichki zo'riqish va negativ hissiyotlarni tashqi ijro etilishi.

Bu vaziyatda, bunday insonlarda harakatlanishga tezkor turtki paydo bo'ladi. Ular shaxsiy impulslarini boshqarish orqali o'z hurmatini oshirish tajribasiga ham ega emaslar. Sotsiopatlarini odatda yetarli darajada xavotir olmaydiganlar sifatida ko'rib chiqadilar. N.Mak-Vilyams bu vaziyatni "zaif" hissiyotlarini tan olmaslik va tashqi ijro etish juftiligi bilan izohlab beradi. Bu degani, agar sotsiopat xavotirlansa, u buni shunday tezkor ijro etadiki, hattoki atrofidagilar ham buni sezmay qoladilar.

Jamiyatga qarshi yo'naltirishning shakllanish mexanizmi ham tushunarli darajada emas. Bolalar tug'ilganidanoq temperament sifatleri bilan farqlanishi isbotlangan. Ushbu vaziyatda sotsipatiya tuzilmasining shart-sharoitleri sifatida, masalan, bazalt agressiya yoki asab tizimining past reaktivligi (qo'zg'alishning balandroq darajasi) chiqishi mumkin. Haqiqatdan ham, o'zini yaxshi va tetik his qilishi uchun, sotsiopat keskin va tebranib turuvchi tajribaga muhtojlikni sezadi. Maxsus tuzilishi bunday insonlarning o'tkir hissiyotlarga intilishlarini izohlab beradi, ularning pedagogik ta'sir qabul qilishning va ijtimoiy ruxsat etilgan xulq-atvorni o'rganishning past qobiliyati, boshqa insonlar uchun oddiy bo'lgan narsalardan - musiqa, tabiat, yaxshi kasb - rohatlanishga inkoniyatning yo'qligi. Tug'ma serg'ayrat, talabchan yoki garang bola tarbiyasida otaning ishtirok etishi odatdagidan yanada zarurroqdir. Ota-onasiga nisbatan serg'ayrat va harakatchan bola, atrofidagilarning xulq-atvorini mohirona boshqarib turib, o'zi xohlagan hamma ishini qilib, boshqa insonlar ehtiyojlarini pisand qilmaslik mumkinligini o'zlashtirib olishi mumkin.

Bunday bolalar va ota-ona munosabatlari uchun: o'zgaruvchanlik, intizom yo'qligi, yon bosish, emotsional tushunmovchilik, ishlatish va ba'zan vahshiylik. Jamiyatga qarshi insonlarning bolaligi nazoratsizlik, xavflar va kaos mavjudligi (qattiq intizom va me'yoridan ortiq yon bosishning xaotik qorishmasi; zaif ona va qiziqqon sadist ota; oilada alkogolizm va giyohvandlik; oiladan uzilishlar). Bunday o'zgaruvchan va xavfli sharoitlarda bola rivojlanishining zarur bosqichlarida himoyalangan-ligini sezmaydi, bu esa uni hamma narsaga qodir ekanligini tasdiqlash uchun, umrining qolgan qismini sarflashga majbur etadi.

Jamiyatga qarshi shaxslar oilalari uchun umuman olganda o'z hissiyotlarini tushunish va aytib berish g'ayrioddiy (alesitmiya

hodisasi)dir. Biz ko'pchiligimiz o'z shaxsiyatimizni ifodalash uchun so'zlarni qo'llasak, sotsiopatik shaxslar esa so'zlarni boshqarish uchun qo'llaydilar. Ota-onalar bolaning emotsional ehtiyojlariga javob bera olmaydilar. Qachonki pedagoglar yoki boshqa biror kishi bolalarining xulq-atvorini chegaralab qo'ysa ular ham ongsiz tarzda bo'ysinmaslikni va avtoritetga nisbatan nafratni namoyon etishlari mumkin, g'azab bilan reaksiya bildiradilar. Umuman qaraganda, ota-onalar bola kuchini namoyon etish jarayoniga chuqur kirib ketishgan bo'lishadi, sotsiopat esa to'g'ri yo'l orqali muhabbat va ota-onaning u bilan fahrlanishi orqali o'zini hurmat qilishga erishish yo'lida jiddiy qiyinchiliklarga duchor bo'ladi.

Eng destruktiv, kriminal psixopatlar hikoyalarida oilaning ketma-ketlik bilan, sevish va himoya qilish ta'sirini topib olishning deyarli imkoniyati yo'q. Z.Freyd ta'kidlashicha, "muhabbatnig ishonuvchanligi - avtoritet uchun eng muhim va birinchi manbaa bo'ladi". Jamiyatga qarshi individ, ehtimol, umuman bog'liqlikning normal darajasini va haqiqiy muhabbatni boshidan kechirmagan. U o'zining boquvchilaridan ibrat olmagan. Buning o'rniga ehtimol "begona self obyekt" bilan identifikatsiya mavjud bo'lgan, bu obyekt yirtqich sifatida qabul qilinadi.

To'la-to'kis "Super Men"lik yo'qligi tufayli, aybdorlik hissini olib keluvchi, hech qanday ichki talablar ham mavjud emas. Biroq, xulq-atvorning asoratlarini intellektual tushunishi mavjud, ammo emotsional tushunish yo'q. Hozirgi daqiqada (yoki ayni paytda) - rohatlanish, kelajakda rohat o'lmaslikdan ko'ra muhimroqdir.

Yaqqol o'xshashiga qaramasdan, O.Kernberg "jamiyatga qarshi" guruhni o'zining psixologik bir xilligini belgilab o'tadi.

1. Shaxsning xususan jamiyatga qarshi buzilishi, eng avvalo Super Egoning og'ir patologiyasi bilan tavsiflanadi. Bu aybini va iqrorligini sezish qobiliyati yo'qligi; emotsional bog'lanish qobiliyatining yo'qligi (hattoki hayvonlarga ham); insonlarni ishlatishga asoslangan munosabatlar; yolg'onchilik va samimiyatsizlik; fikrlash zaifligi va hayotiy tajribasidan foydalana olmasligi; hayotini reja asosida boshqara olmasligi. Bir xil vaziyatlarda bunday xulq-atvor faol agressiv shaklga ega bo'lishi mumkin (qahrli - sadistik), boshqa vaziyatda passiv-parazitik (ekspluatatsiya);

2. Agar xususan jamiyatga qarshi xulq-atvor aniqlanmagan bo'lsa, yomon sifatli narsissizm o'rinli bo'lishi mumkin. U shaxsning tipik

narsistik buzilishlarida ifodalanishi mumkin (dabdabalik, "Men"likning ustivorligi), fe'l-atvorida ildiz otgan agressiya (boshqalarga nisbatan sadizm yoki o'ziga yo'naltirilgan agressiya (autoagressiya)), paronoidal tendensiyalar va o'zining haqligiga ishonchi. Jamiyatga qarshi shaxsdan farqliroq yomon sifatli narsissizm holatida boshqa insonlarga bog'liqligini va e'tibor yoki aybdorlik hissi saqlanib qolishi. Bunday insonlar boshqalarda ma'naviy e'tiqodlar mavjudligini tushunishi mumkin, o'zining o'tmishiga real munosabatda bo'ladilar va kelajakni rejalashtira oladilar;

3. Keyinchalik, jamiyatga qarshi xulq-atvor (asosan passiv-parazitik) shunchaki shaxsning narsistik buzilishi tuzilmasida uchrashishi mumkin, bu yerda uzoq chuqur yaqinlik qobiliyatining yo'qligi ustivorlik qiladi. U seksual addiksiyalar shaklida; mas'uliyatsizlik; boshqalarni emotsional yoki moliyaviy ekspluatatsiya qilish shaklida namoyon bo'lishi mumkin;

4. Keyingi guruh shaxsning boshqa buzilishlaridagi jamiyatga qarshi xulq-atvorini qamrab olgan (infantil, isteroid va h.);

5. Shaxsning nevrotik buzilish holatida, jamiyatga qarshi xulq-atvor ongsiz aybdorlik hissidan kelib chiqadi, bu odatda shaxsiy fojia sifatida ko'rinishi mumkin. Masalan, fosh etilishdan va ishdan bo'shatishdan qo'rqib, inson ishxonasidan mayda narsalarni o'g'iraydi.

6. Jamiyatga qarshi xulq-atvorni - o'smirlik yoshidagi qo'zg'alish shaklida, psixik nizolarni jamiyatga qarshi xulq-atvorga o'tkazilishini yengillashtiradigan, atrofidagilar ta'siri ostida adaptatsiyaning buzilishi, simptomatik nevrozning bir qismi sifatida ko'rib chiqish mumkin;

7. Nihoyat, bu dissotsional reaksiyalar bo'lishi mumkin – jamiyatga qarshi xulq-atvorli ijtimoiy kichik guruhga notanqidiy adaptatsiyasi.

Shunday qilib, bunday psixologik reallik, shaxsning delinkvent xulq-atvori sifatida, o'zida umumiy qonuniyatlarini mujassam etgan, hamda individual o'ziga xoslikni ifoda eta oladi.

Delinkvent shaxslar bilan muomalada ularning ishonchsizligini hamda aybdorlikning provokatsiyasini (imkon darajasida) inkor etish maqsadga muvofiq. Bundan kelib chiqadiki, ularda bolalikda qoniqtirilmagan, "ular o'zini qo'lga olib biladi, ammo o'zgartirilgan kuchli yaqinlik xohishiga egadir".

Jamiyatga qarshi xulq-atvor muammosida faqatgina abstrakt ijtimoiy hodisa mavjud emas. Kundalik hayot har bir kishi oldida qiyin vazifalarini qo'yadi: kriminogen ahvolning ta'siriga berilmaslik, qo'rqishdan qochish, o'zini va o'z oilasini himoya qilish, qonunga bo'ysinuvchi farzandlarni tarbiyalash, insonlarga jamiyatga qaytishiga (qonunbuzarlik yo'liga tushganlarga) yordam berish. Qo'yilgan vazifalar davlat va uning fuqarolari tomonidan katta kuch-qudrat talab qiladi. Bu bilan bir vaqtdayoq, jinoyatchilik muammosining yechimi huquqbuzar xulq-atvorni, shaxsning og'ma xulq-atvori sifatida, jiddiy ilmiy o'rganish bilan chambarchas bog'liq.

Nazorat savollari

1. Shaxsning huquqbuzar xulq-tavori bilan bog'liq asosiy tushunchalarni ochib bering.
2. Delinkvent xulq-atvorning asosiy shakllarini va huquqbuzarlar turlarini aytib bering.
3. Delinkvent xulq-atvorning tashqi va ichki sharoitlarini aytib bering.
4. Jamiyatga qarshi xulq-atvorning maxsus motivatsiyasi qanday?
5. "Jamiyatga qarshi shaxs" atamasining ma'nosini tushuntirib bering.
6. *Kriminal xulqning* ma'nosini tushuntirib bering.
7. O.Kernberg "jamiyatga qarshi" guruhni o'zining psixologik bir xilligini qanday belgilab o'tadi?
8. Avgust Ayxorn (1876-1949) delinkventlikka qanday tavsif beradi?

Tayanch tushunchalar: Addiktiv xulq. Tobelik turlari. Addiktiv xulq yuzaga kelish omillari. Jismoniy va ruhiy tobelik. Addiktiv xulq yuzaga kelish bosqichlari. Addiktiv xulq profilaktikasi. Narkomaniya. Quvvatlovchi markazlarning shakllanishi va gedonik komponentlar bilan kechuvchi ehtiyoj sikli. Emotsional va irodaviy quvvat. Narkotizmning "qora yashigi".

7.1. Konseptual modellar

Xulqning me'yorlari to'g'risidagi nazariy tasavvurlarga suyanagan holda, o'smir ehtiyojini qondirishga qaratilgan har qanday sa'y-harakatlar *xulq tushunchasi* deb qabul qilinadi. Shunga ko'ra, o'smir *xulqining buzilishi* - bu o'ziga va atrofida qilargalarga tashvish, azob-uqubat keltirish bilan kechuvchi, biologik, ijtimoiy hamda psixologik adaptatsiyaning qiyinlashuviga sabab bo'luvchi sa'y-harakatlardir. Zero, "tarbiyasi qiyin"lik xulq buzilishlarining asosi sifatida o'zida ko'plab omillarni mujassamlashtirgan polimodallik tashkil etuvchilar oqibatidir.

Demak, ushbu fenomenlar etimologiyasining ikki jihatini: a) biogenetik va psixogenetik omillar bilan aniqlashtiriluvchi o'smirning individual tipologik, dinamik xususiyatlarini tashkil etuvchilari; b) o'smir hayotiy tajribasi, biologik, ijtimoiy va psixik rivojlanishining sharoitlari bilan bog'liq ontogenetik va sotsiogenetik ildizlarning moslashuvchanlik qobiliyatiga ajratish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, o'smir xulq buzilishlari muammosining ilmiy asoslanganligini tizimli va strukturali-genetik yondashuvlarga tayangan, rivojlanishning yaxlitligi, tizimliliigi, determinizm tamoyillari majmuasida aks etishidir. Muammoga shu tariqa yondashish, xulq buzilishi va o'smir shaxsi tuzilishining ijtimoiy (tarbiya, moslashuv hamda psixologik (kognitiv, konativ, affektiv) boshqaruv funksiyalari buzilishining o'zaro borliq mexanizmlarini o'rganishga imkon yaratib, o'smiring ijtimoiy moslashuvi, oilaviy munosabatlarning o'ziga xosligi, shuningdek, uning emotsional, motivatsion, irodaviy, axloqiy jabhalarining yosh, jins ko'rsatkichlaridagi farqlar, umuman o'smir xulqi boshqarilishining ontogenetik xususiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi.

“Shaxsning og‘ishgan xulqi” o‘ta murakkab va ko‘p obrazli kategoriyasi ichida tobe axloq yoki bog‘lanib qolgan deb nomlanuvchi guruhga ajratiladi. Shaxsning tobe axloqi o‘zida jiddiy ijtimoiy muammoni aks ettiradi, chunki aniq ko‘rinib turgan shaklda ishga layoqatini yo‘qotish, atrofdagilar bilan janjallar, jinoyat sodir etish kabi salbiy oqibatlariga ega bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, bu deviatsiyaning u yoki bu tarzda istalgan oilaga tegishli bo‘lgan birmuncha keng tarqalgan turi hisoblanadi.

Azal-azaldan tobe axloqning turli shakllarini piyonistalik, ortiqcha iste‘mol qilish, azart o‘yinlar va boshqa ishqibozlikni nazarda tutishgacha zararli yoki yakson etuvchi odatlar deb ataganlar. Zamonaviy tibbiy adabiyotlarda patologik odatlar degan atama keng ishlatiladi. Bog‘lanib qolish tushunchasi tibbiyotdan o‘zlashtirilgan, hozirgi vaqtda nisbatan yangi va ommaviy atama hisoblanadi.

Tobelik atamasi ostida keng ma‘noda “kimgadir yoki lazzat olish yoxud moslashish maqsadida nimagadir suyanishga intilish” tushuniladi. Shartli ravishda me‘yoriy va o‘ta bog‘lanib qolgan tobelik haqida gapirish mumkin. Barcha odamlar havo, suv, ovqat kabi hayotiy muhim obyektlarga “me‘yoriy” tobelikni his qiladilar. Ko‘pchilik odamlar ota-onalari, do‘stlari, turmush o‘rtoqlariga sog‘lom bog‘lanib qolishni sezadilar. Ba‘zi hollarda tobelikka me‘yoriy munosabatning buzilishi kuzatiladi. Masalan, shaxsning autik, shizoid, antiijtimoiy buzilishi boshqa odamlarga fojiali tarzda yetarlicha ko‘ngil qo‘ymaslik oqibatida yuzaga keladi.

O‘ta tobelikka moyillik, aksincha, muammoli simbiotik munosabat yoki tobe axloqni tug‘diradi. Kelgusida “bog‘lanib qolish” atamasidan foydalanganda biz nimagadir o‘ta bog‘lanib qolishni nazarda tutamiz.

Shunday qilib, tobe axloq, shaxs tomonidan nimanidir yoki kimnidir suiste‘mol qilish bilan zich bog‘liq bo‘lganiday, uning ehtiyojlarini buzilishi bilan bog‘liq. Maxsus adabiyotlarda ko‘rib chiqilayotgan reallikning yana bir nomi qo‘llanadi – addiktiv axloq. Ingliz tilidan tarjima qilganda “addiction – moyillik, halokatli odat” degan ma‘noni bildiradi. Agar bu tushunchaning tarixiy ildiziga murojaat qilsak, unda lotincha addictus – “qarzi tufayli bog‘langan shaxs” (qarzi uchun qullikka hukm qilingan)dir. Boshqacha aytganda, bu odam qandaydir yengib bo‘lmas hukmronlikdan chuqur qullik bog‘lanib qolishga tushgan. “Addiktiv axloq” atamasining ba‘zi afzalligi uning baynalminal transkripsiyada, shuningdek, “addikta”

yoki "addiktiv shaxs" kabi o'xshash odamlar bilan shaxsning o'xshashlik imkoniyatidadir.

Bog'lanib qolgan (addiktiv) axloq shaxs deviant axloqining turi sifatida, o'z navbatida, addiksiya obyekt bo'yicha ayniqsa, differensiyalanadigan ko'plab turchalarga ega. Nazariy jihatdan (ma'lum bir sharoitlarda) bu har qanday obyekt yoki faollik shakllari bo'lishi mumkin – kimyoviy moddalar, pul, ish, o'yinlar, jismoniy mashqlar yoki jinsiy aloqa.

Addiktiv axloq - deviant (og'uvchi) axloqning ba'zi moddalarni qabul qilish yoki e'tiborini doimiy ravishda shiddatli hissiyotlarini rivojlantirish va qo'llab turishga yo'naltirilgan faoliyatning ma'lum bir turiga qaratish vositasida o'z ruhiy holatini o'zgartirish yo'li bilan voqelikdan qochishga intilish hosil bo'lishi shakllaridan biridir. Bu jarayon kishini shunchalik qamrab oladiki, hatto uning hayotini boshqara boshlaydi. Kishi o'z ishtiyoqi oldida nochor bo'lib qoladi. Iroda kuchi zaiflashadi va addiksiyaga qarshilik ko'rsatishga imkon bermaydi.

Addiksiyaning yemiruvchi xususiyati shunda namoyon bo'ladiki, bu jarayonda his-hayajonli munosabatlar boshqa odamlar bilan emas, balki jonsiz predmetlar bilan o'rnatiladi. Insonlar bilan hissiy munosabat o'z ahamiyatini yo'qotadi, yuzaki bo'lib qoladi. Addiktiv ravishda amalga oshirish usuli vositadan asta-sekin maqsadga aylanadi. Mushkul hollarda vaqti-vaqti bilan shubha va tashvishlardan chalg'ish hamma uchun ham zarur, lekin addiktiv axloq holatida u hayot uslubi bo'lib qolib, uning jarayonida inson doimiy ravishda real borliqdan qochuvchi qopqonga tushib qoladi. Addiksiya shakllari bir-biri bilan almashib turishi mumkin, bu esa muammo hal bo'lishi haqidagi xom xayollarni yanada mustahkamroq va kuchliroq qilib qo'yadi. Bu esa nafaqat addiktning o'zi balki uning atrofida qilish uchun ham xavflidir. Addiktiv ravishda amalga oshirish do'stlik, sevgi, faollik boshqa ko'rinishlarining o'rnini bosadi. U vaqtni, kuch, energiya va hissiyotni shu darajada yutib ketadiki, addikt hayotda muvozanatni saqlash, faollikning boshqa turlariga kirishish, odamlar bilan muloqotdan lazzat olish, qiziqish, relaksatsiyalanish, shaxsning boshqa tomonlarini rivojlantirish, o'z maylini namoyon qilish, hatto eng yaqin kishilarini hissiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga layoqatsiz bo'lib qoladi.

Shaxslararo munosabatlar addikt uchun g'oyat kutilmagan bo'lib, ular katta harakatlar, ko'pgina hissiy sarflar, fikrlash faoliyati g'ayratni va o'zini ayamaslikni talab etadi. Jonsiz moddalar, predmetlar va faoliyat turlari bilan o'zaro munosabatda bo'lishni esa doimo oldindan bilib bo'ladi, qulaylikka yetishish samarasi esa deyarli doim kafolatlangan bo'ladi. Jonsiz predmetlarni manipulyatsiya qilish esa oson, shuning uchun vaziyatni nazorat qilish layoqatiga ishonch ortadi. Shunisi qo'rqinchlik, addiktlarda manipulyatsiyali uslub shaxslararo muloqotlar doirasiga o'tadi. Shunday qilib, addiktiv shaxsning olam bilan o'zaro munosabatida o'ziga xos qayta moslashuv sodir bo'ladi: addiktiv vakillar bilan predmetli munosabatlar "jonlanadi" va shaxslararo munosabatlar "predmetlanadi".

Ma'lumki, umuminsoniy tajriba, ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar, bilimlar va faoliyat usullari shaxs tomonidan boshqa odamlar bilan muloqotlar jarayonida o'zlashtiriladi. Addikt o'zini bu jarayonlardan to'xtata oladi, o'z hayotiy tajribasini boyitishdan to'xtaydi, shu orqali muloqotning eng muhim vazifalarini buzadi. Addiktning boshqa odamlar bilan birgalikdagi faoliyati jarayonida o'zaro qiyinchiliklar yuzaga keladi. Muloqotning disfunktsional jarayonlari bilan bir qatorda shaxslararo persepsiyaning identifikatsiya, empatiya, refleksiya kabi ahamiyatga ega bo'lgan mexanizmlari buziladi, o'zgarib ketadi va o'z qimmatini yo'qotadi. Demak, o'zini hamkor o'rniga qo'yib ko'rish, qo'shib qayg'urish, o'zini atrofdagilar qanday qabul qilishini tasavvur etish layoqati yo'qoladi. Axloqning addiktiv shakliga ega bo'lgan shaxslarning quyidagi psixologik xususiyatlari alohida ajratiladi:

1. Inqirozli vaziyatlarga yaxshi chidamlilik bilan bir qatorda qiyinchiliklarga chidamlilikning pastligi. Bunga shaxsda gedonistik yo'l-yo'riqlar mavjudligi - darhol qoniqishga ega bo'lish, o'z istaklarini qondirishga intilish sabab bo'ladi. Agar istaklar qondirilmasa, unda addiktlar yoki salbiy hissiyotlarning portlashi, yohud paydo bo'lgan muammolardan qochish orqali munosabat bildiradilar.

2. Tashqaridan namoyon qilingan ustunlik bilan uyg'unlashgan nomukammallikning yashirin kompleksi. Kayfiyatning tez-tez o'zgarishi, ishonchsizlik, ularning layoqatlari obyektiv ravishda tekshirilishi mumkin bo'lgan vaziyatlardan qochishda o'z aksini topadi.

3. Yolg'on gapirishga intilish. Addiktlar ko'pincha o'z va' dalarida turmaydilar, subutsizliklari, qoidalarga rioya qilmasliklari bilan ajralib turadilar.

4. Mustahkam his-hayajonli muloqotlar oldidagi qo'rquv bilan uyg'unlashgan tashqi ijtimoiy munosabatlar.

5. Ular boshqalarning aybsizligini bilib tursa-da, ayblashga intiladilar.

6. Qarorlar qabul qilishda javobgarlikdan qochishga intilish. Javobgarlikni boshqalarga ag'darish, zarur vaqtda oqlovchi dalillarni izlash.

7. Axloqning stereotipligi, takroriyliigi. Axloqning yuzaga kelgan stereotipini oldindan bilsa bo'ladi, lekin uni o'zgartirish qiyin.

8. Tobelik. Addiktiv yo'nalishli boshqa odamlar ta'siriga bo'ysunish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ba'zan passivlik, mustaqillikning yo'qligi, madad olishga intilish kuzatiladi.

9. Xavotirlilik. Nomukammallik, tobelik kompleksi bilan mahkam bog'liq. Buning o'ziga xosligi shundaki, krizisli vaziyatlarda xavotirlilik ikkinchi o'ringa tushib qolishi mumkin, bunday vaqtda u oddiy turmushda yoki tashvishlar uchun haqiqiy sabab bo'lmaydigan voqealarda yaqqol sabablarsiz yuzaga keladi.

7.2. Shaxs tobe axloqining omillari

Shunday qilib, tobe axloq ko'p omilli ko'rinish deb tan olinadi. Fanning zamonaviy holati addiktiv axloqning quyidagi sharoitlari va sabab(omil)lari haqida gapirish imkonini beradi.

Muhtoj axloqning shakllanishiga yordamlashuvchi tashqi ijtimoiy omillarga bozorga yangi va yangi mollarni – bog'lanib qolishning potensial obyektlarini chiqarib tashlovchi oziq-ovqat sanoati yoki farmasevtik industriya sohasidagi texnik taraqqiyotni kiritish mumkin. Omillarning shu guruhiga yoshlarni kimyoviy moddalarni iste'mol qilishga faol jalb etuvchi giyohvand moddalar bilan savdo qiluvchilarning faoliyati ham tegishlidir. Bundan tashqari, urbanizatsiya darajasi bo'yicha biz odamlar orasida o'zaro shaxsiy aloqalar susayayotganini kuzatamiz. Mustaqillikka intilib, odam unga kerakli ko'mak va xavfsizlik hissini yo'qotadi. Insoniy o'zaro munosabatlardan lazzatni izlash o'rniga biz yanada ko'proq taraqqiyotning qalbsiz mahsulotlariga murojaat qilamiz.

Ba'zi ijtimoiy guruhlar uchun muhtoj axloq guruhli dinamika ko'rinishi hisoblanadi. Masalan, o'smirlarning norasmiy guruhlanishining tendensiyasi fonida psixofaol moddalar o'smir submadaniyatiga "ruxsat" rolida chiqadi. Ushbu holda giyohvand moddalar (keng ma'noda) o'smir uchun quyidagi hayotiy muhim vazifalarni bajaradi:

Kattalik hissi va ota-onadan ozod bo'lishni quvvatlaydi;

Guruhga, shuningdek, norasmiy muloqot muhitiga mansublik tuyg'usini shakllantiradi;

Odamlarga yo'naltirmasdan jinsiy va tajovuzkor e'tiqod qayta yutib chiqish imkonini beradi;

Hissiy holatni boshqarishga yordamlashadi;

Turlicha moddalar bilan tajriba o'tkazish orqali o'smirning kreativ potensialini amalga oshiradi.

Submadaniyat turli-tuman shakllarda chiqishi mumkin: o'smirlar guruhi, norasmiy uyushma, jinsiy kamchilik yoki shunchaki erkaklar kompaniyasi. Har qanday holda uning shaxsga o'zini "o'zinikilar bilan" bir xillashtiruvchi ta'siri o'ta yuqori. Shubhasiz, o'smir va o'spirinlik yoshida submadaniyatning ta'siri eng yuqori darajada. Bizning nazarimizda, bu shaxs tobe axloqining birmuncha ahamiyatli ijtimoiy omillaridan biri hisoblanadi.

Qonuniyatga ko'ra, addiktiv axloqning sodir bo'lishida yetakchi rol oilaga qayd qilinadi. Ko'p sonli tadqiqotlar davomida ota-onalar va bolalarning keyingi tobe axloqi o'rtasidagi aloqa aniqlandi. A.Freyd, D.Vinnidata, M.Balinta, M.Klyayn, B.Spoka, M.Maller, R.Spitslarning ishlari ishonchli tarzda guvohlik beradiki, bolaning rivojlanishiga onaning tushunish va uning asosli ehtiyojlarini qondirishga layoqatsizligi zarar keltirarkan.

Qator mualliflarning fikriga ko'ra, bog'lanib qolishning shakllanishida yetakchi rol go'daklik jarohatiga (hayotining birinchi ikki yilidagi qattiq qiynaydigan kechinmalar shaklida) taalluqli. Jarohat jismoniy og'riq, onani yo'qotish yoki uning ehtiyojlarni qondirishga layoqatsizligi, ona va bola temperamentining birga bo'la olmasligi, go'dakning o'ta tug'ma g'ayratliligi, Nihoyat ota-onaning qandaydir harakatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ota-onalar odatda, go'dakka o'zlarining psixik jarohat yetkazuvchi ta'sirlari haqida bilmaydilar, masalan, qachonki eng yaxshi niyatda yoki shifokor tavsiyasiga ko'ra uni ovqatlanishning qat'iy tartibiga

o'rgatishga uringanlarida, bolani "erkalash"ni o'zlariga ta'qiqlasalar yoki hatto uning qaysarona didini sindirishga harakat qilsalar. Distressni boshdan kechirib, go'dak o'ziga yordam berish holatida bo'lmaydi va shunchaki uxlaydi. Biroq, G.Kristal ta'kidlaganidek, og'ir jarohatlovchi vaziyatning takrorlanishi rivojlanish va apatiya hamda chetlanganlik holatiga o'tishning buzilishiga olib keladi. Keyinroq jarohatni har qanday affektlar oldida qo'rquv, uni o'tkazishga noqodirlik, "xavfsizlik" hissi, noxushlikni kutish bo'yicha aniqlash mumkin. Tobe odamlarning bu xususiyati past affektiv insonparvarlik sifatida belgilanadi.

Bunday odamlar o'zlari haqida qayg'ura olmaydilar va o'z kechinmalarini uddalashlari uchun kundir yordamlashishiga muhtoj bo'ladilar. Shu bilan birgalikda ular odamlarga nisbatan ishonchsizlikni his qiladilar. Bu holda jonli bo'lmagan obyekt to'la insoniy munosabatlar o'rniga almashtirilishi mumkin. Shunday qilib, ilk bolalikda psixik jarohat olgan odamlarda tobelikka katta xatar mavjud.

Umuman olganda, oila bolaga zaruriy muhabbatni bermasligi va uni o'zini sevishga o'rgatmasligi mumkin, o'z navbatida, bu yomonlik, bekorchilik, foydasizlik o'ziga ishonchsizlikka olib keladi. Zamonaviy taassurotlarga muvofiq tobe axloqli odamlar o'z-o'zini hurmat qilishni quvvatlashda jiddiy qiyinchiliklarni his qiladilar. Yaxshi ma'lumki, masalan, odam kayf holatida o'zini erkinroq va odatdagidan o'ziga ishonganroq sezadi. Boshqa tomondan, piyonistalar kompaniyasi uchun dolzarb mavzudagi sulbat xarakterlidir: "Sen meni hurmat qilasanmi?" Tobelik, shunday qilib, shaxsning o'z-o'zini baholashini boshqarishida o'ziga xos vosita bo'lib chiqadi.

Tobe shaxsning jiddiy oilaviy muammosi, qoidadagiday, aleksitimiya – ota-onalarning o'z tuyg'ularini ifodalash (ularni tushunish, belgilash va gapira olish) ga layoqatsizligi bilan birga boradigan ota-onalarning o'zlaridagi hissiy buzilish bo'lishi mumkin. Bola oilada nafaqat salbiy tuyg'ularni "yuqtiradi", balki u ota-onasidan o'z kechinmalarini aytmaslikni, ularni bostirishni va hatto ularning mavjudligini rad etishni o'rganadi.

Avlodlar o'rtasida chegaraning, oila a'zolarining bir biriga o'ta psixologik bog'liqligining yo'qligi, giperstimulyatsiya – yana bir salbiy omil. M.Maller bolaning me'yoriy rivojlanishi uchun separatsiya – onadan sekin-astalik bilan uning ketishi va qaytishi

vositasida ajralish, shuningdek, bolaning individualizatsiyasi jarayonining muhimligiga e'tiborni jamlaydi. Addiktiv axloqning buzilgan chegarali oilalarda boshqa a'zolar axloqiga ta'sir etishning bitta usuli bo'lib chiqishi, bunda bog'lanib qolishning o'zi oiladan mustaqillik hissiyotini berishi mumkin. Buning bittasi isboti kuchaygan oilaviy muammolarda tobe axloqning kuchayishi hisoblanadi.

Oila nafaqat tobe axloqning sodir bo'lishida, balki uni qo'llab-quvvatlashda ham ahamiyatli rol o'ynaydi. Qarindoshlarning o'zlari turlicha garchi undan real tarzda azoblansalarda, uning kuchida addikt "buzish"ni qo'zg'atadigan psixologik muammolarga ega bo'lishlari mumkin. Addiktning qarindoshlarida oila a'zolaridan qaysilaridir addiktiv axloqning uzoq muddatli saqlanishi hollarida, o'z navbatida, jiddiy muammolar paydo bo'lishi va kammuhojlik holati rivojlanishi mumkin. Oila a'zolarining qaysilaridir tobe axloqning oqibatida shaxs va qarindoshlarining axloqidagi salbiy o'zgarishlar nazarda tutiladi.

Ayni vaqtda kuzatishlarning aytishicha, bitta oilada bolalar turlicha axloqni namoyish qiladilar. Bundan tashqari, hatto ota-onalar piyonistalikdan azob chekadigan oilalardagi bolalarda tobe axloq shakllanishi shart emas. Albatta, aniq shaxsning individual xususiyatlari kam bo'lmagan muhim rol ni o'ynaydi.

Individual farq doirasida dastavval muhtoj axloqning jinsiy tanlovini ta'kidlash zarur. Masalan, ovqat addiksiyasi ancha ayollar uchun xarakterlidir, gembling esa erkak jinsi vakillarida ko'proq uchraydi. Qator hollarda yosh omilining harakati haqida ham gapirish mumkin, agar giyohvandlik bilan ayniqsa, 14 dan 25 yoshgacha bo'lganlar azoblansalar, piyonistalik umuman olganda ancha katta yoshdagilar uchun xarakterlidir.

Insonning psixofiziologik xususiyatlari, shubhasiz, addiktiv axloqning individual o'ziga xosligini aniqlovchi omil rovida chiqadi. Ular ahamiyatli tarzda bog'lanib qolishning obyektini tanlashga, ifodalanganlik darajasi va bartaraf etish imkoniyatiga ta'sir ko'rsatishlari mumkin.

Ko'p sonli munozaralarning predmeti bog'lanib qolishning ba'zi shakllariga nasliy moyillikning mavjudligi haqidagi masala hisoblanadi. Birmuncha tarqalgan nuqtai nazar – piyonistaning bolasi katta ehtimol bilan bu muammoni voris qilib oladi. Biroq, tobe axloqqa nasliy moyillik gipotezasi qator faktlarni tushuntirmaydi. Masalan, zamonaviy o'smirlar ota-onalarining ichkilik iste'mol qilishga

moyilliklariga qaramay giyohvand moddalarni iste'mol qiladilar. Tobe axloq har qanday oilada shakllanishi mumkin. Uning shakllanishiga ko'plab oilaviy omillar ta'sir qilishi mumkin. Shu munosabat bilan tobe axloqqa nasliy emas, oilaviy moyillik to'g'risidagi gapirish maqsadga muvofiqdir.

Tobe axloqqa bilvosita moyillik asab tizimining tipologik xususiyatlari bilan aniqlanadi. Yangi vaziyatga moslashuvchanlik, kayfiyat sifati, ta'sirchanlik, aloqaviylik kabi tug'ma xislatlar boshqa noxush sharoitlarda addiktiv axloqning shakllanishiga ta'sir ko'rsatishini taxmin qilish mumkin.

Xarakter tipi va tobe axloqning ba'zi turlari orasida muayyan bog'liqlik mavjud. Xullas, piyonistalik va giyohvand moddalarni iste'mol qilish ko'pincha eksploziv va xarakterning noturg'un aksentuatsiyasida, yetarlicha tez-tez epileptoid va gipertimda uchraydi.

Muhtoj axloqni obsessiv yoki kompulsiv xarakterlar oqibati sifatida ham ko'rib chiqish mumkin. Obsessiv-impulsiv shaxslarning asosli nizosi N.Mak-Vilyams fikricha, bu muhokama qilinishdan qo'rquv bilan kurashuvchilardir. Shaxs ixtiyorsiz aybdorlik tuyg'usi va o'z standartlariga mos kelmaslik oqibatida anglangan uyatdan ozod bo'lishga intiladi. Tan olish va ushbu affektini ifodalash o'rniga odam himoyaviy fikriy konstruksiyalar (obsessivlik) quradi, yoxud harakatda xavotirdan ozod bo'lishga (kompulsivlik) intiladi. Obsessivlik suitsidal axloqda ishtirok etishi mumkin. Kompulsivlik qandaydir harakatning (hatto shaxsning istagiga qarshi) takroriy stereotipi sifatida bevosita addiktiv axloqning turlicha shakllari bilan bog'liq. N.Mak-Vilyam ichkilikbozlik, ko'p ovqat eyish, giyohvandlik moddalarini iste'mol qilish, azart o'yinlar, xaridlar yoki jinsiy sarguzashtlarga ishqivozlikni "g'oyatda zararli kompulsiv axloqning turli ko'rinishlari" deb ataydi. Qator tadqiqotlar shaxsning asabiy rivojlanishi va uning addiktiv axloqi o'rtasidagi aloqani o'rganishga bag'ishlangan. Masalan, ozuqaviy va jinsiy addiksiya asabiy simptomlar bilan shunchalik tez uyg'unlashadiki, ba'zi mualliflar ularni psixosomatik yoki asabiy buzilishlar sifatida ko'rib chiqadilar.

Shaxs axloqiga ta'sir qiluvchi boshqa muhim individual omillar stressga chidamlilik bo'lib chiqishi mumkin. Keyingi yillarda shaxsning stressni yengishga sust layoqati natijasida xorij va Rossiyada addiktiv axloqqa qarash rivojlandi. Addiktiv axloq koping funksiyasi – stressni uddalash mexanizmlarining buzilishida yuzaga

kelishi taxmin qilinadi. Tadqiqotlar sog'lom va tobe odamlarning koping-axloqidagi farqlar haqida guvohlik beradi. Masalan, giyohvandlikka bog'lanib qolgan o'smirlar stressga muammodan ketish, uni rad etish, yolg'izlanish kabi xarakterli reaksiyalarni namoyish qiladilar.

Ilhomsizlik, hayot mazmunining yo'qligi, o'z hayoti uchun mas'uliyatni o'ziga olishga qobiliyatsizlik – bu va odamning boshqa ahamiyatli tavsifnomasi, aniqrog'i, ularning deformatsiyasi, shubhasiz, tobe axloq va uni saqlashning shakllanishiga yordamlashadi.

Tobe axloqning omillari haqida gapirganda uning asosida odamning tabiiy ehtiyojlari yotishini yana bir bor ta'kidlash lozim. Tobelikka moyillik, umuman olganda, insonning universal xususiyati hisoblanadi. Biroq, muayyan sharoitlarda ba'zi neytral obyektlar shaxs uchun hayotiy ahamiyatga, ehtiyoj esa ularda nazorat qilinmaydiganga aylanadi.

7.3. Narkomaniya. Quvvatlovchi markazlarning shakllanishi va gedonik komponentlar bilan kechuvchi ehtiyoj sikli

Kelib chiqishi organik bo'lgan ko'plab har xil moddalar orasida shundaylari ham borki, ular inson psixikasi (ruhiyati)ga spesifik (o'ziga hos) ta'sir ko'rsatadi. Ularning ayrimlari inson a'zolarining ichki resurslarini xavfli darajada faollashtirib yuborsa, boshqalari - bo'shashuvchanlik (xom xayollik) yoki uyquni keltirsa, uchinchi esa jazovalı telbalikka o'hshash holatlarnı yuzaga keltirib, hayotiy real dunyodan, hayotdan ajratib, eshitish-ko'rish galyutsinatsiyasini (miya chalg'ishi) ko'zgaydi. Bular giyohvand moddalar bo'lib, ular uch guruhga bo'linadi: narkotik moddalar, toksik moddalar, alkogol va nikotin. Insonning narkotik moddalarga bo'lgan achinarli havasi narkomaniya (giyohvandlik) deb ataladi. Giyohvandlik - ijtimoiy xatarli ruhiy xastaliy bo'lib, eyforiyaga (kayfga) erishish maqsadida turli kimyoviy birikmalarnı qabul qilish tufayli markaziy asab tizimining alohida zona (joy)larini sun'iy qo'zg'atishdan iborat. Giyohvandlik holatini qo'zg'atadigan moddalar doirasi nihoyatda keng: psixotrop xabdorılardan tortib to maishiy kimyo vositalarigacha. Giyohvand moddalarga shuningdek alkogol va nikotin ham kiradi, ular boshqa narkotiklarga nisbatan bir muncha xavfsiz bo'lsada, lekin ularga zamin hozirlovchilar sifatida xatarlidir.

So'nggi paytda giyohvandlik va toksikomaniya so'zlari bir muncha odatiy hodisa sifatida ko'rinib qolgan toksikomaniyaning ikki yo'nalishini belgilab olish uchun qo'llanilmoqda. Giyohvandlik – klassik narkotiklarga (qoradori, nasha, kokain va boshqalar) achinarli qullik bo'lsa, toksikomaniya esa – ruhiyatga ta'sir ko'rsatuvchi imkoniyatlarga ega bo'lgan, har xil moddalarni qabul qilishdir: turli xabdorilar, suyuqliklar va h.k. U yoki bu toksik moddalarni iste'mol qiluvchilarni narkomanlar (giyohvandlar) va toksikomanlar deb atashadi (so'ngisi, ayniqsa o'smir va o'spirin yoshidagilarni qamrab olmoqda).

O'zbekistonda eng keng tarqalgan giyohvand modda – nashadir. U nasha o'simligining ayrim navlaridan olinadi. Gashishning nomi ko'p, masalan uni "nashi" yoki "plan" deb ham atashadi. Chekishda qo'llaniladigan nasha - qoramtir qattiq modda, u yengil maydalanadi va o'ziga xos ma'lum hidga ega. Nasha chekuvchilar uni tamakiga aralastirib, papiros yoki qo'lda o'ralgan sigaretlarga qo'shib chekishadi. Nasha kamdan-kam hollarda ichimlik, shirinliklar va hokazolar bilan ichga yutiladi. Nasha chekish, o'ziga xos, o'zgacha sarhushlikni keltirib chiqaradi. Uning ta'sir etish tabiati ko'p hollarda tayyorlashdagi xususiyatlarga ham, ma'lum ma'noda uni qancha miqdorda qabul qilinganlik va iste'mol qilishdagi shaxsiy xususiyatlar darajasiga ham bog'liq bo'ladi. Bunda, eng avvalo aqliy qobiliyat ancha chuqur zararlanadi. Nasha chekuvchilar yon-atrofdagilarda miyasi aynigandek taassurot qoldiradi va o'zlarini ham gangib yurgandek his etishadi. Quvnoqlik, ko'pincha, ma'nosiz va kulgi holida namoyon bo'ladi. Ularga biron bir aniq hayojonli kulgili holatlar muvofiq bo'lmay, kulgi xurujidan so'ng, uning o'rmini ko'z yoshi egallaydi, vaqtni to'g'ri his etish tuyg'usi yo'qoladi, ular uchun vaqt guyo to'xtab qolgandek yoki sakrab ketayotgandek tuyulaveradi, yaqindagi va uzoqdagi buyumlar orasidagi masofalar ham noto'g'ri belgilanadi. Buzilgan tasavvur yuzaga keladi. Sarhushlar nigohlarini bir nuqtaga qaratmay, chakaklarini osiltirgancha, so'laklarini oqizib qimirlanay o'tirishadi. Boshqalari esa, aksincha, bo'lar-bo'lmasa, ortiqcha serharakat bo'ladilar, qiyshanglab, aftlarini burishtirib, yon-atrofdagilarning jig'iga tega boshlashadi. Ko'pincha nashadan sarxush bo'lish qattiq uyqu bilan tugaydi. Nashadan mast bo'lish o'tkir psixozni ko'zgab, mushohadaning keskin ishdan chiqishi, yorqin alahsirash va gallyutsinatsiyaar (miya chalg'ish natijasida yo'q

narsaning bor bo'lib tuyulish) holatini yuzaga keltiradi. Bemorlar o'zlarini guyo mo'jizakor, sirli kuch-quvvatga egadek his etib, tog'u tosh va cho'qqilarni qimmatli buyumlarga aylantirib yuboradigandek, o'liklarni tiriltirib, bemorlarni oyoqqa turg'azib yuboradigandek, jin-ajinalar, maxluqlar bilan jang qilib, ularni yengib chiqadigandek his etishadi. Nashaga o'rganib qolish tez va oson. Nashabozlikda o'zni tutish unchalik aniq ko'zga tashlanmaydi, deyarli uzoq vaqt mobaynida chekuvchilar o'zlarini vaziyatning xo'jayini hisoblashadi, hohlasalar chekmaydilar. Boshqa giyohvandliklardagi kabi, chekishga bo'lgan engib bo'lmas intilish, asta-sekin rivojlanib boradi. Nashabozlikning tarkalishi ko'pincha uyatli xarakter kasb etib, bir necha qo'shni daholar, mahalla yoki shahar chekkasini qamrab oladi. O'smir giyohvandlar o'z o'rtoqlarini, ular esa yangi qatnashchilarini va boshqa-boshqalarni jalb etishadi. Buning bunchalik osongina, yengil sodir bulayotgan va kishi bilmas keng tarqalayotgani birinchi navbatda alohida nashabozlik va uning og'ir oqibatlari hususidagi dastlabki bilimlarning mutlaqo yo'qligi bilim izohlanadi. Shuni yaxshi bilib olish lozimki, nashabozlik narkomaniyaning shunday turiga kiradiki, eng avvalo salomatlikning bir maromda, ayniqsa ruhiyatni parchalab boradi. Surunkali nashabozlikda shaxsning giyohvandlik tanazzuli degan ibora ko'p ishlatiladi.

Nashabanchilar bo'shshagan, faoliyatsiz, betashabbus bo'lib qoladilar. Soatlab va kun buyi ular ishsiz shalpayib yotishlari mumkin. Shuningdek befarqlik va loqaydlik, biron bir narsaga qiziqishi yo'qligi, nasha chekib olib, o'zlarini eng jo'n ehtiyojlarini qondirishdan bo'lak g'am-tashvishi bo'lmagan bu odamlarning tabiati keskin jirtaki va tajanglikka xosdir. Iltimosga, ta'nalarga yoki ularning xohish-istagini qoniqtirishga rad javobini olsalar, ular yon-atrofdagilar bo'lmag'ur haqoratli so'zlar bilan tashlanishadi, jahldor, hujumkor bo'lib qolishadi. Qiziqish va faollikning susayishdek aldoqchilik, betartib jinsiy aloqalar nashavandlikning tanazzulidek achinarli manzarani to'ldiradi. Xotira susayadi, maktabda olgan bilim va kasbiy malakalar butkul yoki qisman yo'qoladi. Nashavandlar, odatda maktabda o'qishni davom ettira olmaydilar, ishda muhim qololmadilar. Og'ir hollarda tasvirlangan tanazzul rosmana aqli pastlik darajasiga yetadi.

O'smirlarning giyohvandlikdan sarhushlik ko'rinish xuddi kattalardagi kabi kechadi, lekin shaxs tanazzuli esa bir muncha ilgariroq sodir bo'ladi. O'smirlarda jizzakilik, shiddatli hujumkorlik va

qo'pollik bilan kechadigan psixopatizatsiya (devonalik) ancha tez rivojlanadi. Ularda kattalarga nisbatan giyohvandlik moddalarga bo'lgan yengib bo'lmaz intilish bir muncha tezkor tarzda nomoyon bo'ladi, o'smirlar ularga etishish va qo'lga kiritishda ancha qiyinchiliklarga duch kelganlari bois, ular topish va qo'lga kiritish bir muncha osonroq bo'lgan narkotik va toksik vositalarga ruju qo'ya boshlaydilar. O'smir yoshdagilar uchun giyohvand moddalar katta xavf tug'diradi, shunchaki, uni bir marta qabul qilishning o'ziyoq psixikaga ayanchli ta'sir o'tkazadi. Bu o'rinda, nafaqat mushohada qilishning oliy shakli, etnik va axloqiy tushunchalarning xususiyati buziladi va ular rivojlanishdan to'xtab qoladi, balki rivojlanayotgan qobiliyatlar ham yo'qoladi, o'smir tezda aqliy, his-hayajonli va ma'naviy munosabatlarda inqirozga uchrab oqsaydi.

Hozirgi kunda "narkotik-kayfiyatni ko'tarishning yaxshigina usuli" deb fikrlaydigan yoshlar ko'paymoqda. Narkotik moddalarning g'ayriqonuniy aylanishiga qarshi kurash hamda iste'mol qilinishining oldini olish-umumjahon ahamiyatida molik masala hisoblanib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan "26-iyun - Xalqaro narkotik moddalarga qarshi kurash kuni" deb e'lon qilingan va har yili jahon hamjamiyati tomonidan keng nishonlanib kelinmoqda.

"XX asr vabosi" hisoblangan narkotik moddalar insoniyat kelajagi uchun o'ta xavfli ekanligini, kishilar tinchligiga, salomatligiga, ruhiyatiga qanchalik ta'sir etib, nopok ishlar, daxshatli voqealar yuz berishiga sabab bo'layotganligi hech kimga sir emas. Barcha mamlakatlarda narkotik moddalarni iste'mol qilishning oldini olish, u bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi harakat kuchaymoqda. Narkotik moddalarni ishlab chiqarish va ular bilan savdo qilish, bu biznes yaratib beradigan juda katta boylik mamlakatlar xavfsizligiga, barqarorligiga katta xavf tug'dirmoqda, jamiyatning iqtisodiy va madaniy negiziga, ma'naviy yuksalishiga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Dunyodagi deyarli hamma mamlakatlar bu muammoga duch kelgan. Uning tibbiy, iqtisodiy, siyosiy, jismoniy va ma'naviy zarari to'g'risida ommaviy axborot vositalarida ko'plab ma'lumotlar berilmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda, dunyoda giyohvandlik moddalarini iste'mol qiluvchilarning 70%ni 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Ma'lumotlardan shu narsa ayon bo'ladi-ki, voyaga yetmaganlar o'rtasida giyohvandlikka ilk bor qadam qo'yish 11-17 yosh o'rtasida kechadi. Bu illatning natijasida,

xalqaro ekspertlarning ta'kidlashiga ko'ra, hozirgi kunda dunyoda sodir etilayotgan jinoyatlarning 70% bevosita va bilvosita narkotik moddalar bilan bog'liqdir. Giyohvandlik dahshatli kasallik hisoblanadigan SPID va VICH bilan ham bog'liqligini alohida ta'kidlash muhimdir. SPIDga chalinganlarning asosiy qismini narkotik moddalarni iste'mol qiluvchilar tashkil etadi. Giyohvand moddalar organizmda kechadigan hayotiy jarayonlarga va iste'molchi organizmning barcha a'zolariga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'smirlarning giyohvandlikka o'rganishi tez yuz beradi. "Oq ajal" uning iste'molchisini tezda o'z "qo'liga" aylantirib qo'yadi. Narkotik moddani iste'mol qilayotgan o'smir iloji boricha ota-onasining ko'ziga tashlanmaslikka, yakkalikka intiladi, ular bilan suhbatlashishni keskin qisqartiradi, buning o'rniga boshqa yangi tanishlar, do'stlari paydo bo'ladi. Ularda o'qishga, ilm egallashga va ma'naviy yuksalishga bo'lgan intilish keskin susayib, pulga bo'lgan ehtiyoj ortadi. Oiladagi muammolar bilan qiziqmaydi. Ularning kayfiyati sharoitga bog'liq bo'lmagan holatda o'zgarib, agressiv harakatlari kuchayishi kuzatiladi.

Giyohvandlik azob-uqibatli, giyohvand moddalarni yengib bo'lmas darajadagi qullikdir. Umumta'lim maktablarining o'quv-tarbiyaviy ish rejalarida shu masalaning aks etishi va doimiy nazorat ostiga olinishi, o'quvchi-yoshlarni ommaviy sport seksiyalari va musobaqalari, to'garaklar va madaniy tadbirlarga keng jalb qilishning samarali yo'llarini qo'llash, maktab, mahalla, oila hamkorligidan, homiy tashkilotlar va tadbirkorlarning amaliy yordamidan va inkoniyatlaridan keng foydalanib, ularni bu ishga jalb qilish lozimdir. Umumta'lim maktablarida giyohvandlik va narkotik moddalarning zarari to'g'risida yozma ishlar olinishi, o'quvchi yoshlar, o'qituvchilar o'rtasida narkodispenser xodimlari bilan hamkorlikdagi davra suxbatlari, munozaralar, seminarlar o'tkazilishi, kutubxonalar "Giyohvandlik va narkotik moddalar zarari va unga qarshi kurash"ga oid plakatlari, ko'rgazmali stendlar va narkotik moddalarning zarari to'g'risida o'quvchilarning rasmlar ko'rgazmasi o'tkazilishi va boshqa tegishli adabiyotlardan iborat burchaklar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Ta'lim muassasalarida giyohvandlik va narkotik moddalarni iste'mol qilishga "moyil" bo'lgan o'quvchi-yoshlarni aniqlash, ularni maktab ichki nazorati hisobiga olish ishlari maktab pedagogik jamoasi, tibbiyot xodimi, maktab psixologining va ota-onalarning o'zaro hamkorligidagi ishi bo'lmog'i kerak. Sinf

rahbarining tarbiyaviy faoliyatida o'quvchilarning xarakteridagi o'zgarishlari, qiziqishlariga alohida ahamiyat berishlari va befarq bo'lmashliklari alohida o'rin tutadi. Ayni paytda, sinf rahbarining o'zi ham ma'lum tayyorgarlikka va malakaga ega bo'lmog'i, samarali targ'ib-tashviqot ishlarini amalga oshirib bormog'i kerak. Darslarni muntazam qoldiruvchi, o'zlashtirishi past, qonunbuzarlikka "moyil" notinch oilalardan bo'lgan o'quvchilar bilan tarbiyaviy, tushuntirish ishlarini doimiy ravishda olib borishda mahalla imkoniyatlaridan to'la foydalanish katta samara beradi. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazish uchun maktablarda tashkil etilgan to'garaklarning faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilishi, huquq to'garaklarning tashkil etilishi, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini o'tkazish muntazam yo'lga qo'yilishi va ularni maktabdan tashqari muassasalarga jalb etish masalasi - har bir maktab rahbari ta'lim tarbiya faoliyatining diqqat markazida bo'lishi lozim. So'nggi vaqtlarda o'smir yoshlarning ma'lum qismi o'rtasida giyohvandlik moddalari bilan tanishish, ularni gohida yoki muntazam iste'mol qilish ko'lami kengayishi tashvishli holga aylanmoqda. Binobarin, o'smir-yoshlarning zararli odatlarga chalinib qolinishining asosiy sabablari deb, ularning maktabdan keyin bo'sh, bekorchi bo'lib qolishi, biron bir foydali ish bilan shug'ullanmasligi, qiziqishlarning tor doiradaliigi, yoshlarning ayrim guruhlari o'rtasida tarbiyaviy ishlarning pastligi, ota-onalar tomonidan bola tarbiyasiga kam ahamiyat berilishi, bolaga bo'lgan e'tiborsizlik, ma'suliyatsizlik va ular ta'sirining samarasizligi, oilada nosog'lom muhitning yuzaga kelishi, ayrim ijtimoiy havfli shaxslarning salbiy ta'siri, bu moddalarni bir marotaba bo'lsada iste'mol qilishning og'ir tibbiy, psixologik, ma'naviy va ijtimoiy oqibatlari to'g'risida axborotning kamligi va nihoyatda "ko'cha" tarbiyasining kuchli ekanligini e'tirof etish lozim. O'quvchilarning yozgi oromgohlarida 26 iyun kuniga bag'ishlab turli sport musabaqalari, xuquq tartibot va sog'liqni saqlash idoralari hodimlari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari hamda ichki imkoniyatlardan foydalanib konsert-estrada dasturlarini rejalashtirish va amalga oshirish zarur. Faqatgina hamkorlikdagi sa'i-harakatlar bu "oq ajal"ning oldini olish va unga qarshi kurashda samara beradi.

Bolalarimizni, farzandlarimizni "narkomaniya" deb ataladigan balodan asrash-har birimizning muqaddas burchimizga aylanishi

lozim. Zero, kelajak - yosh, sog'lom, ma'naviy jihatdan barkamol avlod qo'lidadir.

Hozirgi vaqtda giyohvandlik shakllanishining sabablari to'g'risida ko'plab nazariyalar (fikrlar) mavjud. Ulardan eng ko'p tarqalganlarini ko'rib chiqamiz.

1. *Degenerativ nazariyalar.* Ularda giyohvandlik asosan "ayniyotgan" shaxslarga xos bo'lgan nuqson shaklida ko'riladi. Narkotiklarga eng ko'p o'rganish psixopatik, infantil yoki ipoxondrik-melanxolik, ba'zan vegetativ-og'riqli kompleksli (migren) shaxslarda uchraydi. Shuningdek, miyaning organik kasalliklarini boshidan o'tkazgan, oligofreniya, tutqanoq bilan kasallanganlar unga tezda o'rganadi. Jinoyat olamida giyohvandlarning ancha miqdori tubanlashgan elementlar va fohishalar orasida, ya'ni biz delinkventlar deb belgilagan shaxslar orasida kuzatiladi. Narkotik moddalar juda qimmat turadi, shuning uchun ularni iste'mol qilishga ruju qo'yanlar ularni topish uchun har qanday usullarni izlashga majbur bo'ladilar. Bir qator mualliflar giyohvandlikka moyillik nasldan naslga o'tadi deb ko'rsatadilar.

2. *Biologik nazariyalar.* Bolaning u yoki boshqa sabablar ta'siri ostida rivojlanish jarayonida ma'lum miya hosilalari, birinchi navbatda - kishining hissiyotiga javob beruvchi limbik tizimi shikastlanadi degan taxminlar mavjud. Bu shikastlanishlar juda nozik bo'lib, chamasi, neyronlar (bosh miyasi hujayralari) o'rtasida muloqot va aloqalar o'rnatish darajasida, shuningdek neyronlarning o'z tuzilishlari darajasida sodir bo'ladi. Bosh miyaning to'g'ri rivojlanishi turli sabablar ta'sirida: mexanik shikastlanishlar (miya chayqalishlari), yuqumli kasalliklar, ayniqsa virusli, turli-tuman zaharlanishlar, shu jumladan oziq-ovqatdan og'ir zaharlanishlar natijasida, shuningdek ruhiy zarbalar natijasida buzilishi mumkin. Hayvonlarda o'tkazilgan tajribalarda aniqlanishicha, bolalar ota-onasidan ajratib qo'yilgan hollarda ularda endorfinli retseptorlar faolligi ortadi, bu esa xavotirlik tuyg'usi va notinch axloq yuzaga kelishiga olib keladi. Shubhasiz, inson bolalarida ham xuddi shu holat sodir bo'ladi. Opiy ta'siriga beriluvchan retseptorlarning yuqori faolligi narkotik yoki alkogolning ortiq miqdori bilan muvozanatlashadi, bu esa suiiste'molchilik sababi bo'lib xizmat qiladi.

3. *Psixodinamik nazariyalar.* Geroin ta'siriga qaramlik va tegishli hayot tarzini kechirish mazkur nazariyalarda shaxsning "Men"ining

sekinlashgan rivojlanishga moslashuvi deb ko'rib chiqiladi. Ruhiyat buzilishlarining xos shakllanishi uchun keskin davr separatsiya-individuallashtirish bosqichining rivojlanishi hisoblanadi.

“Men” - voqelik tamoyillariga muvofiq ravishda ongsiz intilishlar va uning istaklarini boshqargan holda hayot talablariga moslashish imkonini beruvchi ruhiy tuzilishdir. U butun hayot davomida uzluksiz ravishda, lekin bolalikda - tezroq, chaqaloqlikdan boshlab rivojlanib boradi.

Separatsiya - shaxs rivojlanishining boshlang'ich davri bo'lib, unda shaxsning o'zini tashqi dunyodan ajratib olishi sodir bo'ladi va atrofdagi obyektlar bilan faol o'zaro munosabatlar jarayoni boshlanadi.

“Me'yorida ortiq - Men” - “Men”ga nisbatan sudya yoki sensor rolini o'ynovchi, axloqiy ong, o'zini-o'zi kuzatish va ideallar shakllanishiga javobgar bo'lgan ruhiy bosqich; ota-onalarning talablari va taqiqlari interiorizatsiyasi natijasida hosil bo'ladi.

Bu davrda shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usi, ichki turtkilarni boshqarish va “me'yorida ortiq Men” funksiyasi rivojlanadi. Agar bola ota-onasidan bir-biriga qarama-qarshi ko'rsatmalar olsa, unda uning axloqida noaniq cheklashlar va ahamiyatli zotlarga mutelik vujudga keladi. Agar kelgusida ular uning yonida bo'lmasa, bu jiddiy his-hayajonli yo'qotishga aylanadi. Bunday vaziyatda bolada aybdorlik tuyg'usi rivojlanadi, u unga nisbatan muhabbat tuyg'usi yo'qolishiga o'zini sababchi deb biladi. Natijada unda og'riqli ta'sirga ega bo'lgan ishonchsizlik, hech kimga keraksizlik va qoniqtirilmagan muhabbatga ehtiyoj tuyg'usi rivojlanadi. Bu vaqtda unda muhabbatga bog'lanib qolish va qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyoj darhol sun'iy obyekt - narkotik yordamida qanoatlantirilishi mumkin.

Narkotiklar iste'mol qilishdan qiynalish ushbu ichki nizoni hal etish hisoblanadi. Bunday holda, giyohvand xuddi narkotikka qaram bo'lib qolgani kabi, unga hamroh bo'lgan azoblanishga ham qaram bo'lib qoladi. Giyohvand narkotik iste'mol qilishdan oldin ham, iste'mol qilganidan keyin ham - odamlardan unga bevosita yordam berishlarini so'rashga layoqatsiz bo'ladi. U o'zini rad etilishi qo'rquvidan himoya qiluvchi manipulyativ axloq vositasida vaziyatni nazorat qiladi. Bunday axloqning maqsadi istakni zudlik bilan qondirish hisoblanadi. Giyohvandlar kelajakka ishonmaydilar, ular uchun boshqalarga nisbatan ishonchsizlik, shuningdek o'ziga bo'lgan ishonchning umuman mavjud emasligi xosdir. Umume'tirof etilgan

fikrlarga ko'ra, giyohvandlar hayot quvonchlarini qabul qilmaydilar, ular muvaffaqiyatdan qo'rqadilar, ularning axloqi destruktiv xulq-atvorda - asossiz tajovuzkorlik yoki suitsidal harakatlarda namoyon bo'ladi. Aslida esa ularning muvaffaqiyatdan qo'rqishi bu muvaffaqiyat uzoqqa cho'zilmasligi, qachondir tugashi va ular yana xuddi bolaligidagidek chidab bo'lmaydigan og'riq, ko'ngil qolishi va boshqa salbiy hissiyotlarni tuyishlari mumkinligi to'g'risidagi qo'rquvga asoslangan bo'ladi. Shu bois, bu qo'rquvni yengish uchun giyohvand ongsiz ravishda o'z muvaffaqiyatini buzishga intiladi. Demak, giyohvandni yana boladek tobelikda bo'lishiga va majburiyatga ega bo'lmaslikka urinayotgan shaxs sifatida ko'rib chiqish mumkin. Ilk ehtiyojlarini darhol qondirish bilan tavsiflanuvchi bunday inqirozlar ota-onadan ajralish jarayonida ishonch va xavfsizlik muhiti mavjud bo'lmagan tashvishli erta bolalikning natijasi hisoblanadi. Shunday qilib, narkotiklarga qaramlikni qattiq hayajonda yuzaga kelgan og'riqni yengillashtirish va bir qancha vaqtga o'zini boshqarish va ishlash layoqatini oshirishga yo'naltirilgan adaptiv axloq sifatida ko'rib chiqish mumkin. Bir qator tadqiqotchilar, narkotiklar qabul qilish vaqtidagi eyforiya (ko'tarinki kayfiyat) holatini ta'riflashda uni shahvoniy tabiatga kiritadilar va libidonoz faoliyatining buzilishi ko'rinishidagi o'ziga xos farmakogenli orgazm sifatida baholaydilar. Demak, jinsiy munosabatlardan olinadigan lazzat farmakogen tabiatga ega bo'lgan lazzat ta'siri bilan almashtiriladi. Sevgi obyektlariga boshqa zaruriyat bo'lmaydi va giyohvand mazkur holatda o'zining benuqson ekanligini his qiladi, zero, u bilan boshqa hech narsa sodir bo'lmaydi. Lekin keyin farmakotimik krizis boshlanadi, undan chiqib ketishning esa uchta yo'li mavjud: 1) suitsid, bunda bemor uning quvonchi abadiy bo'ladi deb hisoblaydi; 2) vaqtinchalik remissiyaga qochish; 3) psixoz - ruhiy kasallikning boshlanishi.

4. *Tizimli-yo'naltirilgan nazariyalar.* Giyohvandilik bu yerda oilaviy yoki boshqa munosabatlar tizimida patologik (nuqsonli) muvozanat natijasi kabi ko'rib chiqiladi. Shaxsiy munosabatlarda giyohvand hamkoriga undan kuchliroq bo'lish imkoniyatini beradi. O'smir giyohvandlar uchun "uydan uzilish" muammosi xosdir. Bu yerda giyohvandlik soxta mustaqillik va soxta individuallashuvni qo'lga kiritish uchun xizmat qiladi. Bu ota-onalarning o'ta qat'iy g'amxo'r yoki aksincha, ularning to'liq befarq bo'lgan holatlarida

sodir bo'ladi. Shunday qilib, ota-onalar tomonidan erta jarohatlanish bolani "salbiy bog'lanishi", "xo'rlanish vahimasi"ga olib keladi. Hatto, u ulg'ayganda ham, ota-onalari uning uchun avvalgidek ularga tobe bo'lgan va ulardan uzila olmaydigan o'ta ahamiyatli shaxslar bo'lib qoladi, yoxud o'zini inkor qilishgacha bo'lgan salbiy e'tibor va baholash obyektini hisoblanadi.

5. *Ijtimoiy nazariyalar.* Mazkur nazariyalar narkotiklarni suiste'mol qilishni jamiyatning disfunktsiyalanishi natijasi deb hisoblashadi. Mualliflarning fikricha, odamlar jamiyatdagi bosundan qochish yoki ularning me'yorlariga qarshi norozilik belgisi sifatida narkotik iste'mol qiladilar. Ushbu nazariya ayrim tarafdorlarining ta'kidlashicha, birorta ham giyohvandni davolash ta'siri ostiga tushirib bo'lmaydi, chunki u jamiyatni disfunktsiyalovchi giyohvandlikning haqiqiy sababiga ta'sir ko'rsata olmaydi. Ularning ta'kidlashicha, davolash faqatgina o'z mohiyatiga ko'ra na kasal, na anomal bo'lgan odamlarni sharmanda qilishi mumkin. Bu nuqtai nazarni aksariyat amerikaliklar harbiy harakatlar vaqtida geroin iste'mol qilishga qiziqib qolgan Vyetnam urushi faxriylarining normal hayotga qaytishlari bilan hech qanday muammosiz uni iste'mol qilishdan voz kecha olganliklari holati bilan tasdiqlanadi.

Zamonaviy psixologiya narkotiklar iste'mol qilishning bir nechta sababiy darajalarini ajratadi.

Birinchi daraja - ongsiz bo'lib, tug'ilish vaqtidagi shikastlanishga aloqador bo'ladi. Tug'ilish vaqtidagi jarohat ruhiyatdagi salbiy jarayonlarning aksariyati uchun asos bo'ladi, chunki oddiy ongli harakatlar yo'li bilan ulardan qutulish imkoni bo'lmagani sababli, bu salbiy hissiyotli zararni inson o'z ichida olib yuradi. Bu darajada shaxsning boshlang'ich tuzilishi va narkotiklar hamda stimulyatorlarni iste'mol qilishning asosiy qo'zg'atuvchi sabablari hosil bo'ladi.

Ikkinchi daraja - intuitiv, tana xotirasiga asoslanadi. Bizning barcha salbiy hissiyotlarimiz tanamizda bukuvchi mushaklar va rostlovchi mushaklar o'rtasidagi harakatga turtki beruvchi mushaklar va uni ushlab turuvchi mushaklar o'rtasidagi kuchlanish ko'rinishida aks etadi. Bu kuchlanishni iroda kuchi yoki biron-bir shunga o'xshash kuch bilan yumshatish mumkin emas. Shu vaqtning o'zida, narkotiklar va stimulyatorlar, tanaga ta'sir ko'rsatgan va ong holatini o'zgartirgan holda shunday imkoniyatni beradi.

Uchinchi daraja - ongli, simptomni (alamatni) kuchaytirish shaklida. Qandaydir ichki muammoning hal bo'lishi uchun inson ongli ravishda go'yo uning barcha ko'rinishlarini kuchaytirgan holda o'zining oxirgi holatiga, bema'nilik darajasigacha yetkazishi mumkin. Bu holda, uning eng oxiriga yetish uchun vaziyatni ataylab keskinlashtirishda va muammo hal bo'ladi.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti giyohvandlikning (toksikomaniyaning) quyidagi diagnostik alomatlarini taklif etadi:

1) tabiiy yoki sintetik zaharli moddani takroriy ravishda qabul qilish natijasida giyohvanda uning o'zi va atrofida gilar uchun zarar va xavf tug'diruvchi davriy yoki surunkali zaharlanish holati yuzaga keladi;

2) o'sib borayotgan zaharga chidamlilik (va his-hayajonli samaraning pasayishi) tufayli giyohvand dozani oshirishga muhtoj bo'ladi;

3) u endi zaharni qabul qilishdan bosh tortish layoqatiga ega bo'lmaydi, chunki qabul qilishni to'xtatishda unda jismonan og'ir, ruhan chidab bo'lmaydigan holat yuzaga keladi.

Giyohvandlikda shaxsning psixologik va fiziologik o'zgarishlari. Lanjlik, passivlik, jizzakilik, irodasizlik, hissiyot o'zgaruvchanligi, xudbinlik, qiziqish doirasining torayishi, o'z qilmishlariga bo'lgan tanqidiy munosabatning pasayishi xosdir. Giyohvandning tashqi qiyofasi ham o'zgaradi: yuzi sarg'ish-zahil tus oladi, terisi quruqlashadi, ko'z qorachiqalari ingichkalashadi, arterial qon bosimi pasayadi, jinsiy funksiya o'cha bosilaydi, ich ketishlar yoki ich qotishlar yuz beradi. Yaqqol aks etgan giyohvandlikda qo'llar qaltirashi, sekinlashgan yoki tushunarsiz nutq kuzatiladi. Abstinensiyada xavotir, g'am-g'ussa, ba'zan suitsidal urinishlar, bo'g'inlar, belning tez-tez og'irishi, taxikardiya, nafas olish tezlashuvining, tana haroratining ko'tarilishi, qayt qilish, ich ketishi, titrash xosdir. Garchi giyohvandlikning o'tishi va bashorati, qoidaga ko'ra, alkogolizmga nisbatan jiddiyroq bo'lsada, uning yuzaga kelishining ko'plab shart-sharoitlari va shaxsni qiziqitiruvchi xususiyatlari giyohvandlik va alkogolizm uchun umumiy hisoblanadi. Giyohvandlikning alkogolizmga nisbatan og'irligi (kamroq darajada) shaxsning moyillik xususiyatlariga va iste'mol qilinayotgan moddaning kimyoviy va farmakologik xossalriga (ko'proq darajada) uning fiziologik va ruhiy qaramlikni yuzaga keltirish layoqatiga

bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, giyohvandlikning mohiyati morfin, kokain, heroin kabi kuchli narkotiklar iste'mol qiluvchi shaxslar va stimulyatorlar, barbituratlar, kannabis va boshqalarni iste'mol qiluvchilarda bir xil bo'lmaydi. Giyohvandlikning og'irligi shuningdek, yosh va jinsga bog'liq. Narkotiklar va alkogol qabul qilish ko'pincha hayotiy ehtiyojlarga nisbatan o'rin bosuvchi rol o'ynaydi. Ularning yordami bilan individ kundalik g'am-tashvishlardan uzoqlashadi. Mazkur psixologik tadqiqotlar bo'yicha giyohvandlar va alkogoliklar o'zi haqida past fikrga egadirlar va o'zlariga ishonmaydilar. Doimo bo'lishi mumkin bo'lgan omadsizliklar yuzasidan xavotirda bo'lgan holda, tanqidni o'zlariga og'ir oladilar va doimiy maqtovlar va rag'batlantirishlarga muhtojdirlar. Ko'pincha ular narkotiklar va alkogolni xavotirni bosish, salbiy tashvishlar yoki depressiyadan chalg'ish uchun iste'mol qiladilar. Giyohvandlik yuzaga kelishida oila alkogolizm rivojlanishiga nisbatan kamroq rol o'ynaydi. Shu bilan birga, er-xotinning biri giyohvand bo'lgan holda ikkinchisini giyohvandlikka jalb qilish hollari ham ko'p uchrab turadi. Alkogolizm - etilli alkogolga o'rganish va keyinchalik alkogol unga ruhiy va fiziologik jihatdan qaram bo'lib qolishdan, iborat bo'lib, somatik va ruhiy sog'liqni buzadi, boshqa odamlar bilan nizolarni keltirib chiqaradi, ijtimoiy va iqtisodiy holatning yomonlashuviga olib keladi.

Alkogolga o'rganib qolish holati mavjud bo'lib, ichuvchi odam ichimlik miqdorini nazorat qilish va hatto ichish to'g'ri kelmaydigan vaziyatlarda uni iste'mol qilishni *vaqtincha to'xtatishga* qodir bo'ladigan maishiy alkogolizm va yuqorida qayd etilgan imkoniyatlari yo'qoladigan *surunkali alkogolizmga* ajratiladi. Bunday hollarda alkogolga ishtiyoqlilik o'zgaradi va kerakli samaraga erishish uchun uning miqdorini sekin-asta oshirishga to'g'ri keladi. Keyinchalik chidamlilik pasayadi va alkogolning nisbatan kam miqdorida ham mastlik yuzaga keladi. Alkogoliznning quyidagi sotsiopsixologik mezonlari ajratiladi: subyekt ertalabdan alkogolli ichimlik ichib olmasa, ishni bajara olmaydi (aks holda unda abstinensiya ko'rinishlari rivojlanadi); u iste'mol qilmayotgan ichimliklar miqdorini boshqara olmaydi va tanaffuslar qilish qiyin bo'ladi yoki iloji bo'lmaydi; amnestik mastlik holatlari mavjud bo'ldi (alkogol o'z axloqi ustidan nazoratni yo'qotadi va kelgusida u haqda eslay olmaydi); va nihoyat, mastlik davrlari yuzaga kelsa, mast holda takroran huquqbuzarliklar sodir etsa, muntazam ravishda ishlash imkoniyati yo'qoladi va oilaviy

munosabatlar buziladi. Ta'kidlash joizki, ushbu mezonlar giyohvandlar uchun ham xosdir.

Alkogolizmning psixologik tadqiqotlarida ilgari Freyd bolalik yoshida aniqlangan va keyinchalik saqlanib qolgan lablarning konstitutsional erotizmiga ega bo'lgan o'g'il bolalar ulg'ayganlarida ifodalangan ichish va chekishga bo'lgan istaklarini yaqqol namoyon qilishgan. Keyn Abraxam alkogolizm va shahvoniylik o'rtasidagi psixologik aloqa to'g'risidagi batafsil hisobotni taqdim qilgan. Uning fikricha, alkogolizm sublimatsiyaga layoqatlilikni yemiradi. Natijada alkogol shaxsda yana erta siqib chiqarilgan bolalar shahvoniyligining eksgibitsionizm, sadizm, mazoxizm, inest va gomoseksualizm kabi ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Abraxamning faraz qilishicha, ramziy mazmunda spirtli ichimlik iste'mol qilish alkogolikdagi shahvoniy faollikning o'zidir. Biroq, pirovard natijada alkogolizm jinsiy zaiflikka olib keladi, buning asosida rashk xom xayollari paydo bo'ladi. Paranoyya holatini tahlil qilib, Freyd alkogolli rashk gallyutsinatsiyasini mizojning latent besoqolbozligining ongsiz harakati deb tushuntiradi.

Ijtimoiy nazariya tarafdorlarining ta'kidlashicha, alkogol ijtimoiy muloqot jihatidan odamlar o'rtasida vositachi hisoblanadi va jamiyat bilan munosabatlarni aniqlashtirish uchun ichki vosita kabi qo'llaniladi. Haqiqatdan ham, bir tomondan, alkogol sotsium tomondan ma'qullanmaydigan qilmishlar sodir etilishini yengillashtirgan holda ijtimoiy me'yorlar, yo'l-yo'riqlar va ta'qiqlarning ahamiyatini pasaytiradi, boshqa tomondan esa - ruhiy o'zini ajratish va xom xayollarni o'stirishga imkoniyat beradi. Shuning uchun, alkogol iste'mol qiluvchi odam, tashqaridan qaraganga nisbatan jamiyatga ancha kuchliroq bog'langan bo'ladi. Bunday holda, alkogol iste'mol qilish ko'tarilgan, hatto ortiqcha o'zini nazorat qilish, ichki ta'qiqlar va ruhiyatidagi ota o'rning ahamiyati bilan bog'liq bo'ladi. Bunday odamlar doimiy ravishda ularga ichidan bo'shanish imkonini bermay, o'zlarining tinch qo'ymayotgan ichki "kerak" va "mumkin emas"lari bilan munosabatlarni aniqlab boradilar. Ular uchun bu o'zini nazorat qilishdan hatto mastlik holatida ham "o'zini qo'lga olish"ga bo'lgan urinishlar bilan bir vaqtda undan qutulishga intilishga xosdir. Bir vaqtning o'zida alkogol aybdorlik tuyg'usi, depressiya, chiqib ketishga yo'l yo'qligini his qilish va jazo g'oyasi - bostirilgan jinsiy aloqaning ushbu zaruriy yo'ldoshlariga bog'liq bo'ladi. Mualliflarning fikricha,

ong ostida ildiz otgan aybdorlik tuyg'usi tug'ilgan vaqtdagi jarohatga bevosita aloqador bo'lib, qandaydir aniq hayotiy holatlar natijasida kelib chiqqan hisoblanmaydi. Alkogolik uchun aybdorlik yukidan ozod bo'lish usullaridan biri uni biron-bir "jinoyat" bilan, sun'iy ravishda hosil qilingan vaziyat bilan bog'lash hisoblanadi, bu esa ma'lum yengillikka olib keladi. "Jinoyat" orqasidan "jazo" kelishi lozim va u ko'pincha alkogol ta'sirining jiddiy va ahamiyatli tarkibiy qismi hisoblanuvchi karaxtlik hisoblanadi. Dipsomaniya davrida alkogolni me'yoridan ortiq iste'mol qilish keskin fiziologik zo'riqishga bardosh berishga layoqatsizligi, psixologik jihatdan keskinlikni yumshatishga bo'lgan muhtojlik va shaxsning so'nggi stress holatlariga ichki chidamsizligiga bog'liq. Har qanday holatda alkogol chidab bo'lmaydigan ichki bosimdan qutulishga urinish bo'lib qoladi.

Shunday qilib, alkogolizm sabablari minimum darajada ikki omilni o'z ichiga oladi. Bir tomondan, shaxsning qiziqtiruvchi xususiyatlari - konformlilik, g'o'rlik, qaramlik, taqlid qilishga, distimiyaga moyillik. Distimiya - tushkun, g'amgin kayfiyat. Boshqa tomondan, jamiyatdagi ma'lum muhitida va asosan oilada alkogol iste'mol qilish an'anasi. Individning alkogol iste'mol qilishni boshlagan yoshi katta ahamiyatga egadir: yosh vaqtida ichishga odatlanishi va alkogolga qaram bo'lib qolish oson yuzaga keladi. Shuningdek, etnik xususiyatlar ham ahamiyatga egadir, masalan, alkogolni ko'proq irlandiyaliklar, ruslar, kamroq xitoyliklar, yahudiylar iste'mol qilishi ma'lum. Erkaklar va ayollar alkogolizmining nisbati ilgari taxminan 15:1 ga teng bo'lgan bo'lsa, hozir - 5:1 ga teng. O'smirlikda ichayotganlar soni ko'payishi hisobiga alkogolizmnning "yasharishi" an'analari qayd etilgan. Bu esa juda erta emansipatsiya, televideniye va kinoning ta'siri, alkogol ichimliklarga bo'lgan ruxsatga bog'liqdir. Demak, alkogolizm shakllanishida ijtimoiy sabablar ma'lum rol o'ynaydi.

Giyohvandlik va alkogolizm. Ijtimoiy sharoitlarni tadqiq qila borib, kim va qanday qilib narkotiklarni iste'mol qilishi haqida ko'plab narsalarni bilib olish mumkin. Tarixiy o'zgarishlar insonlarda yuzaga kelayotgan alkogolga qaramlik va uning oqibatlari xarakteriga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Taxminan ikki yuz yil muqaddam odamlar o'simlik xom ashyosidan toza kimyoviy moddalar olishni o'rganib olishdi, bu esa kuchli va xavfli narkotiklar yaratilishiga olib keldi. XIX asrning ikkinchi yarmida teri ostiga inyeksiya yuborish uchun ignaning kashf

etilishi giyohvandlarga organizmning tabiiy biologik himoya mexanizmlarini aldash imkonini yaratdi: ular narkotiklar juda sekin soʻriladigan, ularning achchiq taʼmi esa jirkanish va yoqimsiz tuygʻularni paydo qiluvchi oziq-ovqat yoʻlini chetlab oʻtgan holda narkotiklarni kiritishni boshladilar. XX asrda koʻplab sintetik narkotiklar yaratilishi bilan giyohvandlarning imkoniyatlari kengaydi, ularning soni ortdi. Lekin madaniy muhitning narkotikka qaramlikka taʼsiri bu bilan cheklanmaydi. Shubhasiz vaqtning koʻp qismini koʻp ichadigan odamlar bilan oʻtkazadigan kishilar ham spirtli ichimliklarni suisteʼmol qiladigan boʻlib qolishadi. Ayrim etnik guruhlar alkogolizmga boshqalardan koʻra koʻproq moyildirlar, bu esa, chamasi, avloddan-avlodga oʻtuvchi spirtli ichimlik isteʼmol qilish anʼanasi bilan bogʻliq. Narkotiklarni isteʼmol qilish ustidan jamiyat nazoratining susayishi narkotikka qaramlar sonining koʻpayishiga sababchi boʻladi. Agar narkotik isteʼmol qilish anʼanasiga ega boʻlmagan va uning kishiga taʼsiri oqibatlariga tayyor boʻlmagan madaniy muhitda paydo boʻlsa, unga qaramlik epidemiya kabi ommaviy tus olishi mumkin. Amerikalik hindu qabilalari alkogol bilan tanishgan vaqtda shunday voqealar sodir boʻlgan. Zamonaviy industrial jamiyatda giyohvandlikning yuqori darajada ekanligi sabablaridan biri narkotik moddalarni isteʼmol qilishni tartibga soluvchi belgilangan qoidalarning mavjud emasligi boʻlishi mumkin.

Oʻzini-oʻzi yemiruvchi axloqning eng keskin shakli oʻzini-oʻzi asrash yoki hayotini asrash instinktining buzilishida namoyon boʻladi. Bu instinkt hayvonot olami, shu jumladan insoniyat turmushida muhim rol oʻynaydi, chunki uning taʼsiri tirik organizm faoliyatining asosiy stimullari – “jazo”, “lazzat” stimullariga asoslangan. Shuning uchun uning buzilishi gomeostaz - hayotiy muhim funksiyalarni taʼminlash va muvozanatlash kompleksining buzilishi bilan bogʻliq.

Haqiqatdan ham, garchi ular hayvonot olamida odamlardagiga nisbatan kamroq uchrasada, oʻzini-oʻzini oʻldirish holatlarini hayvonlarda, masalan, oʻzini-oʻzi oʻldiruvchi kitlarda ham kuzatish mumkin. Jonivorlar koʻpincha sherigini yoʻqotish, erkinlikdan mahrum boʻlish va hatto egasini yoʻqotish oqibatida yuzaga kelgan ogʻir hissiy holatlarda oʻzini-oʻzi oʻldirishga urinadilar. Bu ambivalent munosabatlar bir qator badiiy asarlarda oʻz aksini topgan. Shuning uchun, kishining oʻzini-oʻzi oʻldirishi muammosi shuningdek, ratsional - ongli va irratsional - ichki his bilan sezish bilimlarining

nisbatiga bog'liq. Bu jihatdan kishi uchun o'zini-o'zi o'ldirish vaqtinchalik chora hisoblanmaydi. Axir hech narsani hech narsaga almashtirib bo'lmaydi.

7.4. Ichkilikbozlik haqida

“Ichkiliqbozlik bartaraf etish choralari to'g'risidagi” qaror har bir ichkiliqbozlikka qarshi qaratilgan ishni tubdan qayta ko'rish har tomonlama asoslandi. Tashkiliy, ma'muriy-huquqiy va tarbiyaviy tadbirlarni majmuini ishlab chiqarish va amalga oshirish hushyorlikni turmush tarzi sifatida targ'ib etishning boshlanishi bo'ldi. O'quvchi yoshlarni ichkilikbozlikka qarshi tarbiyalash hushyorlik uchun kurashda eng muhim yo'nalishlardan biridir. Ta'lim muassasalarida ichkilikbozlikka qarshi va psixigigienik tarbiyani takomillashtirish yuzasidan metodik “tavsiyanomalari”da shu maqsadda quyidagilar taklif yetiladi.

➤ Oliy o'quv yurtlari talabalarida yangi avlodlarni ichkilikbozlikka jalb etish jarayonini tuhtatish zarurligini, tushunishni, ichki e'tiqodni, o'quvchilarning ongiga va xulq-atvoriga axloqiy ta'sir ko'rsatish qobiliyatini tarbiyalab, ularning metodik tayyorligini ta'minlash:

➤ Ichkilikbozlikka qarshi qaratilgan ishga bu har bir pedagogik bugin:

boshlangich sinflar o'qituvchilari, fan o'qituvchilari, sinf rahbarlari o'quvchilari uchun maktablar, boshqa o'quv yurtlari jamoalarini jalb etish.

➤ Har bir oilada bolalarni tarbiyalash uchun qulay sharoitlarni yaratishga erishib oila va maktabni mustahkamlash ittifoqini yo'lga quyish: barcha ta'sir choralarini ko'rib, ichuvchi ota-onalarga qarshi murosasiz kurash olib borish.

➤ O'quv yurtlarida ham, turar joylarda ham o'quvchi yoshlarning bo'sh vaqtni qiziqarli va foydali o'tkazish ko'nikmalarini singdirish.

Shuningdek, o'quvchilarga “Bezoriilik manbalari” mavzuida bezoriilikni keltirib chiqaruvchi sabablarni (spirtli ichimliklarni suiste'mol qilish), shuningdek bunday hodisalarga qarshi kurash yo'llarini aniqlab olish zarur. Bezorilar odamlarning sha'ni, salomatligi, qadr-qimmatiga suiqasd, ularga qarshi kurash faqat jamiyatning emas, shu bilan birga har bir fuqaroning zarur vazifasidir. Shuningdek, o'quvchilar spirtli ichimliklarga qarshi muammoga doir

asosiy bilimlarni egallashlari kerak. "Spirтли ichimliklar va oila" mavzusini muhokama qilib, bunda ichkilikbozlik va oilaviy hayotning bir-biriga e'tiborni qaratish, oila byudjeti, bolalar tarbiyasi, er-xotin munosabatlari va hokazolar uchun ichkilikbozlikning oqibatlarini tahlil etish lozim. Maktabda sinfdan tashqari mashg'ulotlardan ichkilikbozlikka qarshi ishlarning kitobxonlar konferensiyalari, savol-javob kechalari, bahslar, maxsus varaqalar chiqarish, yuqori sinf o'quvchilarini spirтли ichimliklarga qarshi targ'ibotga jalb etish, ilmiy ommabop va badiiy filmlarni ko'rish va muhokama qilish, ichkilikbozlikka moyillik doirasida o'simirlar bilan yakka tartibda ish olib borish kabi ko'pgina boshqa shakllar bor. Maktablarda o'quvchilarni spirтли ichimliklarga qarshi tarbiyalash kengashlari, yoshlar o'rtasida ichkilikbozlik, huquq-tartibotni buzishning oldini olish yo'zasidan barcha manfaatdor tashkilotlarning kuch-g'ayratini muvofiqlashtiruvchi markazlar tuzish lozim. Maktab va ota-onalar oldida katta aniq vazifa - o'quvchi hayotdan har qanday miqdorda spirтли ichimlik ichishni istisno etish, uning nikotinga o'rganib qolishiga yo'l qo'ymaslik vazifasi quyilgan. N.Ya.Konit va Ye.S.Skvorsovaning ma'lumotlariga qaraganda, spirтли ichimlikka eng jadal oshno bo'lish o'g'il bolalarda 10-14 yoshda, qiz bolalarda 15-16 yoshda ro'y beradi. Tarkib topgan vaziyatni oila o'zgartirish mumkin, chunki u bolalarning tarbiyalashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Buning uchun maktabning spirтли ichimliklarga qarshi ishi ota-onalarga buni tushuntirishdan iborat edi va shundan boshlanishi kerak. Ota-onalar yig'ilishlaridan birida bolalarni oilada spirтли ichimliklarga qarshi tarbiyalashning ahvolini muhokama qilishi kerak. O'qituvchi yoki vrachning ma'ruzasida spirтли ichimliklarga oshno bo'lishning halokatli oqibatlari haqida ota-onalarni ogohlantiribgina qolmay, kattalar o'rtasida ham bushyor turmush tarzini joriy etishga ko'maklashuvi asosli tavsianomalar ham berish kerak. Oilada axloqiy tarbiyani takomillashtirish zarur bo'lib, u ichkilikbozlikka qarshi ta'lim va tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. O'quvchilarda zararli odatlar va ularning noto'g'ri hatti-harakatlarining oldini olish uchun ruhiy kasallik bilan bog'liq tabaqalashtirilgan pedagogik qarovsizlik diagnostikasi o'tkazib borishning katta ahamiyati bor. Bu masalalar vrach vakolatiga kiradi, lekin o'qituvchi o'quvchilarda zararli odatlarning, xulq-atvor chetga chiqishning shakllanishiga yo'l qo'ymaslik, muhtojlarni o'z vaqtida mutaxassisga maslahatga yuborish

uchun bu narsalarni bilishi kerak. O'qituvchilar maktab vrachlari bilan hamkorlikda sanitariya ta'limi ishlarni o'tkazish, ruhiy zo'riqish va zararli odatlarning oldini olish uchun maktabda autogen mashqi mashg'ulotlarini o'tkazish juda katta samara beradi. Shuningdek, maktab faollari balog'atga yetmagan yoshlar ishlari inspeksiyasi hodimlari bilan kelishilgan holda "Ko'cha", "O'smir", kabi turli operatsiyalar, ashaddiy dars qoldiruvchilar, spirtli ichimliklarni ichish bilan shug'ullanuvchilarni aniqlash yo'zasidan reydlar o'tkaziladi. O'quvchilar spirtli ichimliklarga qarshi muammoga doir asosiy bilimlarni egallashlari kerak. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar doirasida "Hushyorlik", "Spirtli ichimliklar va turli mamlakatlarda ichkilikbozlikka qarshi kurash choralari. "Spirtli ichimliklar va bolalar tarbiyasi", "Spirtli ichimliklarsiz bayramlar va rasm-rusumlar". Bunda o'quvchilar, o'qituvchilar turli mutaxassislarni ma'ruzachi qilib tayinlab, mashg'ulotlarni bahs keng fikr almashuv tarzida o'tkazish mumkin. Hamda bu holni oldini olish uchun kurash klublari va jamiyatlarini tashkil etish.

Umumta'lim maktablarning o'quv-tarbiyaviy ish rejalarida shu masalaning aks etishi va doimiy nazorat ostiga olinishi, o'quvchi-yoshlarni madaniy tadbirlarga keng jalb qilishning samarali yo'llarini qo'llash maktab, mahalla, oila hamkorligidan keng foydalanib ularni bu ishga jalb qilish lozimdir. Umumta'lim maktablarda ichkilik zararli to'g'risida yozma ishlar olinishi, o'quvchi va o'qituvchilar orasida davra suhbatlari, seminarlar o'tkazilishi, kutubhonalarda ichkilik oqibatlari to'g'risida plakatlar, ko'rgazmali stendlar, burchaklar tashkil yetilishi maqsadga muvofikdir. Ta'lim maqsadlarida ichkilikka "moyil" bo'lgan o'quvchi-yoshlarni aniqlash, ularni maktab ichki nazorati hisobga olish ishlari maktab pedagogik jamoasi, maktab psixologining va ota-onalarning o'zaro hamkorligidagi ishi bo'lmog'i lozim. Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyatida o'quvchilarning xarakteridagi o'zgarishlari qiziqishlariga alohida e'tibor berishlari va befarq bo'lmasliklari alohida e'tibor berishlari va befarq bo'lmasliklari alohida o'rin tutadi.

Hayot yo'lining ko'pgina qismini bosib o'tgan kattalarning, keksalarning pand-nasihat o'gitlarini hamma yoshlar ham qabul qilavermaydilar. Ba'zan yoshlarga katta yoshli kishilar salbiy ta'sir ko'rsatadilar, ularning iltifotiga berilib: "Kel, endi mana shu bir ho'plam narsani qaytarma, katta yigit bo'lib olding-ku, ma, ol, deb"

qistashlariga, ularning erkalashlariga uchib, yoki tarbiyasiz tengdoshlariga taqlid qilib, bir ho‘plab, keyingi safar ozgina ko‘proq, asta-sekin doim iste‘mol qilish odat tusiga kirib qoladi. Shu bilan bola ichishga, chekishga ruju qo‘ya boshlaydi va buning oqibati juda salbiy bo‘ladi. Nima uchun ichadilar degan hakli savol hammani qiynasa kerak. Gap shundaki, odatda ichuvchilar bu illatlarni dastlab hali sog‘lik-salomatlikni kam uylaydigan kuch-quvvatga to‘lgan, to‘lib kelayotgan o‘smirlik davrida ya‘ni balog‘at yoshida o‘rganadilar. Ammo yoshi o‘tib borgan sari bu illat inson salomatligini anglab yetadilar. Buning uchun bola yoshligidan yaxshi tarbiyalangan bo‘lishi lozim. Bola avvalo tarbiyani uyda ota-onalar bola tarbiyasi bilan doim shug‘ullanishlari, kun davomida nimalar bilan band bo‘lganligi kimlar bilan do‘stlashganini doimo nazorat qilib borishlari shart. Bolaga haddan tashqari e‘tiborsizlik ham, haddan tashqari e‘tibor berish ham yomon e‘tiqodlarga olib boradi.

Nazorat savollari:

1. Giyohvandlik to‘g‘risida nimalarni bilasiz ?
2. Giyohvandlikning qanday alomatlari mavjud ?
3. O‘quvchilar giyohvandlikka qarshi qanday tarbiyalanadi ?
4. Jinoyat nima? Jinoiy guruh nima?
5. Jinoyat turlarni ayting?
6. Voyaga yetmagan bolalar jinoyatchiligining sabablarini ayting?
7. Voyaga yetmagan bolalar jinoyatjiligining oqibatlarini izohlang?
8. Jinoyatchilikning muammolari nimalardan iborat?
9. Voyaga yetmagan bolalar bilan korreksion ishlar borishni izohlang?
10. O‘spirinlar jinoyatchiliginnig o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntiring?

VIII BOB. SUITSIDNING SHAKLLANISH KONSEPSIYASI, SUITSIDAL MOTIVATSIYA

Tayanch tushunchalar: *Suitsidal xulq-atvor nazariyasi. E.Dyurkgeym "O'z-o'zini o'ldirish" nazariyasi asoschisi sifatida. Voyaga yetmaganlar o'rtasida o'z joniga qasd qilishning nazariy sabablari, mavjud muammolari. O'z joniga qasd qilishning profilaktikasi. O'z joniga qasd qilishni tadqiq qilishda psixologik yo'nalish. Suitsidal xulq-atvorning psixodiagnostikasi.*

8.1. Suitsidal axloq tushunchasi va tipologiyasi

O'z joniga qasd qilish va o'z joniga qasd qilishga urinish kishilik jamiyatida qadimdan mavjud bo'lib, bu muammoga turli davrlarda turlicha munosabat bildiriladi. O'z joniga qasd qilish ayrim mamlakatlarda qoralangan bo'lsa, ayrimlarida esa mardlik, jasurlik, sevgi muhabbatga sadoqatlik ramzi sifatida ulug'langan. Qadimgi Hindiston, Xitoy va Yaponiyada o'z joniga qasd qilish ijtimoiy, avvaldan belgilab qo'yilgan majburiy harakatga ega bo'lgan voqea – hodisa deb karalgan bo'lsa, islom mamlakatlarida bu hodisa qoralanadi. Qadimgi Rimda ham o'z joniga qasd qilishga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishgan. Hindistonda eri olamdan o'tgan ayollar jamoa nafratiga uchramaslik uchun o'zini-o'zi o'ldirishga mahkum bo'lgan.

Qadimda ayrim mamlakatlarda o'z joniga qasd qilish o'z shaxsi qadrining yerga urilishi va o'z galar haqoratiga nisbatan "isyon" sifatida ifodalaniib, uni qasdlashga kishisi ko'z o'ngida sodir etishga harakat qilingan. O'z joniga qasd qiluvchi kishining bunday hattiharakati o'z galar tomonidan mardlik, jasurlik belgisi sifatida qabul qilinib, ularni mardlikda, maqtashib ko'klarga ko'tarishgan. Bunday odatlar bugungi kunda ham ayrim mamlakatlarda saqlanib qolgan. Masalan, Afrikaning ayrim qabilalarida qabila odatiga ko'ra shaxsi haqoratlangan qadr qimmatini yerga urilgan kishi daraxtning eng tepasiga chiqib mardligini namoyish qilish maqsadida boshi bilan o'zini yerga tashlash odati mavjuddir.

O'z joniga qasd qilish hodisasi diniy ilmlar tomonidan ham o'rganilgan bo'lib, u barcha dinlarda qoralanadi. Xususan, islom dinida bu hodisaga nisbatan salbiy munosabat bildirilib jumladan "Hadis" to'plamlarida ta'kidlanishicha: - "Bir kishi o'zini-o'zi

jarohatlab o'ldirdi, shunda Olloh – taolo “bandam mendan ilgari o'z jonini o'zi oldi, uni men jannatdan mahrum qilaman” deyiladi”.

O'z joniga qasd qilish hodisasini ilmiy jihatdan tadqiq qilishga XIX asrning XX asrning boshlaridan boshlab kirishila boshlandi. Bunga birinchidan, butunlay dunyo miqyosida o'z joniga qasd qilish hodisasining ortib borayotganligi sabab bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan suitsid muammosini o'rganishga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqotlarning yuzaga kelishi bu muammoni har tomonlama o'rganishga turtki bo'ldi.

Asrimizning boshlarigacha bo'lgan davrda o'z joniga qasd qilish hodisasini o'rganish bir qancha yo'nalishlar bo'yicha olib borilgan bo'lib, bu yo'nalishlarning deyarli barchasi suitsidni tushuntirishda bir yoqlamalikka asoslangan nazariyalarni o'rtaga tashlaydi. Masalan, suitsidni o'rganishning sotsiologik yo'nalishdagi nazariyasi namoyondalari (asoschisi E.Dyurkgeym) o'z joniga qasd qilish xulqi faqatgina ijtimoiy muhit ta'siri natijasida yuzaga keladi deb hisoblab, suitsidial xulqning keltirib chiqaruvchi boshqa (psixologik, patologik, biologik) omillarni ko'ra bilmaydilar. Bu yo'nalishning asoschisi hisoblangan E.Dyurkgeym o'zining 1897 yilda chop etilgan “O'zini-o'zi o'ldirish” nomli asarida “O'z joniga qasd qilish psixik yoki organik kasalliklar natijasida bo'lmay, balki shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarining izdan chiqishi yoki buzilishi mahsulidir”; - deb ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra suitsidni yuzaga keltiruvchi va sabablarni shaxsning ruhiy va individual psixologik xususiyatlaridan emas balkim, jamiyatdan, undagi ijtimoiy muhitdan izlash kerakdir. Uning ta'kidlashicha o'z joniga qasd qilish ijtimoiy hodisa bo'lib, uning miqdori har bir jamiyatda individga ta'sir qiluvchi “jamo” kuchi bilan boshqariladi va bu kuchning faolligi jamiyatda amal qilinadigan institutlar (oila, davlat, partiya va boshq.) tili bilan belgilanadi. Ya'ni suitsid ko'lami ijtimoiy tizinning “noinsoniy” strukturasi bilan bog'liqdir.

Rossiyada suitsidni tadqiq qilishning sotsiologik yo'nalishi bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borildi. Jumladan, M.N.Fenomenov o'z tadqiqotlarida suitsidal urinish sabablarini E.Dyurkgeym ta'kidlaganidek, “ijtimoiy institutlardan emas balki, mamlakatda hukm surayotgan ichki nosog'lom muhit va insoniy munosabatlar nosog'lomligidan izlash o'rinlidir deb ko'rsatadi. Ijtimoiy inqiroz deydi u, eski hayot tarzining yaratilishiga imkoniyat

tug‘diradi”. Bu o‘rin almashish insonlar jamoasiga ham tegishli bo‘lib, keksalar o‘rniga yangi avlodning kelishini taminlaydi”. Bu davr oralig‘ida deydi Fenomenov, - “suitsid ba‘zan ko‘payishi, ba‘zan esa kamayishi mumkin”. M.N.Fenomenov fikrlarini tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak muallif, suitsid bir tomondan tabiiy hodisa bo‘lsa, ikkinchi tomondan shaxsning individual psixologik xususiyatlari, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy muhit o‘zgarishlarini insonlar tomonidan ruhiy qabul qilinishiga, ya‘ni ijtimoiy muhit voqea – hodisalariga bog‘liqdir degan fikrni ilgari surganligining guvohi bo‘lamiz.

Suitsidni o‘rganishning sotsiologik yo‘nalishi tarafdorlari garchand suitsidni tushuntirishda bir yoqlamalikka berilgan bo‘lsalarda biroq, suitsidni tahlil qilish va uning oldini olish borasida qator qimmatli fikr va mulohazalarni ilgari suradilar. Xususan, bu yo‘nalishning asoschisi E.Dyurkgeym o‘zigacha bo‘lgan davrdagi suitsid muammosiga bag‘ishlangan barcha nazariy va amaliy tadqiqotlarni bir tizimga solib, suitsid muammosiga ilmiy ta‘rif berishga harakat qiladi. E.Dyurkgeymning “suitsid ijtimoiy hodisa bo‘lib, hayotdan ketishga qaratilgan, anglanilgan, qasddan qilingan hatti-harakatlar” degan tushunchasi o‘z davrida suitsid ruhiy nosog‘lomlik mahsulidir degan ta‘limotga qattiq zarba beradi. Biroq, E.Dyurkgeym qarashlarida suitsidning talqin qilishda ijtimoiy ustunlik qilganligi tufayli uni bir yoqlamalilikka ayblashadilar.

Suitsidni huquqiy tadqiq qilish borasida ham qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib, ularda suitsidni xuquqiy jihatdan talqin qilishga harakat qilinadi. Suitsidni huquqiy jihatdan tadqiq qilishga bag‘ishlangan tadqiqotlar orasida M.N.Gernet ilmiy izlanishlarini alohida ta‘kidlash o‘rinlidir. Muallifning ko‘p yillik kuzatishlarini o‘z ichiga olgan “Moralnaya statistik” (axloqiy statistika) nomli asari bu sohadagi dastlabki yirik asarlaridan biri sifatida maydonga keldi. Shuningdek, N.I.Zagorodnikov suitsidni jinsiy javobgarlikka tortish nuqtai nazaridan tadqiq qilib, suitsid bira to‘la ikki jinoyatni – qasddan qilinganlar og‘ir tan jarohati yetkazish va ehtiyotsizlik tufayli sodir etilgan o‘limni keltirib chiqaradi deb ko‘rsatadi.

Suitsidni huquqiy va ijtimoiy jihatdan tadqiq qilish borasida A.F.Koni tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. U o‘z davrida suitsidial urunishni nisbatan to‘g‘ri yoritib berishga harakat qilgan tadqiqotchilardan hisoblanadi. A.F.Koni suitsidal xulqning yuzaga kelishidagi bosh sabablaridan biri rus jamiyatidagi ijtimoiy

ideallarning yo'qligidir deb hisoblaydi. U suitsidal xulqni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy muhitning yetakchiligi haqida to'xtalib, suitsidning amalga oshirilishida ijtimoiy muhitdagi munosabatlarning izdan chiqishi, suitsident shaxs psixologiyasi va individual psixologik xususiyatlarining ham ta'siri katta deb ko'rsatadi.

Suitsidni tadqiq qilishning psixiatrik yo'nalish bo'yicha ham qator tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, ularda suitsidni ruhiy sog'lomlik va nosog'lomlik holatlarga bog'liqligi o'rganiladi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlarni tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, suitsidni psixiatrik jihatdan tadqiq qilish ishlari ikki oqimga bo'linganligining guvohi bo'lamiz. R.Gyubner, F.V.Ribakov va Ye.Esguirov kabilar suitsid shaxsning ruhiy nosog'lomlik holatiga bog'liq bo'lgan hodisa bo'lib, u shaxsning patologik strukturasi bog'liqdir deb ko'rsatishsa, I.P.Lebedev, S.S.Korsakov, I.A.Sikorskiy, M.N.Fenomenov, G.I.Gordon kabi tadqiqotchilar esa suitsidal xulq nafaqat ruhiy nosog'lomlik mahsuli, balki ruhiy sog'lom kishilarga ham ta'luqli bo'lgan hodisalar deb ta'kidlashadi. Xususan, M.N.Gordonni yozishicha - "biz aminimizki, suitsid nafaqat ruhiy nosog'lom kishilarda, balkim emotsiya va shaxs sifatleri mutloq sog'lom bo'lgan kishilarda ham sodir etilishi mumkin». Shuningdek, I.A.Sikorskiy ham o'z davrida suitsid ruhiy nosog'lomlik natijasidir degan tushuncha qat'iy qarshi chiqib, bu nazariy bir yoqlama yondoshilgan, chuqur o'ylanilmagan va tahlil qilinmagan nazariyadir deb ko'rsatadi. U o'zining "Osnovi teoriticheskoy i klinicheskoy psixiatrii" (Nazariy va klinik psixiatriya asoslari) nomli asarida suitsidni "ruhiy o'zgaruvchanlik" ma'nosida ifodalab, suitsidal xulq nisbatan keng tushuncha bo'lib, bir tomondan sog'lom tana va qalbga, ikkinchi tomondan ruhiy nosog'lom kishilarga ham taaluqli bo'lgan tushunchadir deb ta'kidlaydi.

Suitsidni o'rganishning psixoanalitik nazariyasi ham mavjud bo'lib, bu nazariyaga ko'ra suitsidal urinish individual psixologik xususiyatga ega bo'lmagan hodisa deb qaraladi. Suitsidni o'rganishning psixoanalitik nazariyasi tarafdorlari va asoschilaridan biri bo'lgan Z.Freyd suitsid shaxsning agressiv (boshqaga qaratilgan tajovuzkorlik) va avtoagressiv (o'ziga qaratilgan tajovuzkorlik) holatlaridagi o'lim instiktining namoyon bo'lishidir deb ko'rsatadi. Z.Freyd barcha tirik organizmlar o'zining birinchi noorganik

mavjudligiga qaytish uchun suitsidni psixologik akt sifatida tanlaydi deb uqtiradi. Z.Freydning bu singari qarashlari o'zining bir yoqlamaligi va ilmiy asoslanmaganligi tufayli keng ilmiy jamoatchilik o'rtasida o'z o'rmini topa olmaydi. Ayniqsa, uning suitsid avtoagressiv holatning agressiv instinktlariga aylanishini natijasida yuzaga keladigan hodisadir degan tushunchasi va suitsidal xulqning yuzaga kelishida irsiy va psixologik omillarni birlamchi deb hisoblashadi, hamda suitsidni tadqiq qilishni faqat psixologik metodlar hal qilishi lozimdir degan fikrlarning tadqiqotchilar o'rtasida katta tortishuvga sabab bo'ladi va tanqidga uchraydi.

Suitsidni psixologik jihatdan tadqiq qilishga bag'ishlangan tadqiqotlarni tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, ulardan affektiv holatlarning suitsidga ta'siri, shaxs xulq atvoridagi o'zgarishlar, ruhiy tushkunlik va ruhiy kechinmalarining suitsidal xulqning kelib chiqishi o'rni kabilar tahlil qilinganligining guvohi bo'lamiz. Suitsidni psixologik jihatdan tadqiq qilish yuzasidan qator tadqiqotchilar samarali ilmiy izlanishlar olib borishdi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlarda suitsidal xulqning kelib chiqishiga shaxsning individual psixologik va mijoz turlarining ta'siri hamda suitsidning psixologik ma'nosi kabilar o'rganildi. Biroq, suitsidni o'rganishning boshqa nazariyalari singari psixologik nazariya tarafdorlari ham suitsidni tushuntirishda bir yoqlamalikka berilganliklari kuzatiladi. Natijada suitsidning psixologik ma'nosini aniqlash va psixologik asoslashda qator noaniqliklarga yo'l qo'yadilar. Xususan, ular suitsidal xulqning psixologik mexanizmlarni izohlashga harakat qilsalarda, biroq suitsidal xulqning ruhiyat sog'lomlik va nosog'lomlik holatlariga bog'liqligi masalasini tahlil qilishda chalkashliklarga yo'l qo'yadilar.

G.I.Gordonning "Sovremennie samoubiystva" (Zamonaviy o'z-o'zini o'ldirish) nomli asari suitsidni psixologik jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan yirik asarlardan biri bo'lib hisoblanadi. Muallif o'zining ushbu asarida suitsidal xulqni keltirib chiqaruvchi sabablarni nafaqat tashqi muhitda yuz berayotgan nizoli vaziyatlardan balki, subyektning ichki ruhiy kechinmalaridan, kayfiyatidan izlash o'rindir, deb uqtiradi. Uning fikriga ko'ra sil kasalligiga chalingan bemor kasallik belgilarini namoyon qilgani singari, o'z joniga qasd qiluvchi kishi ham o'z joniga qasd qilish belgilarini oldindan namoyon qiladi. Yashashning qizig'i, lazzati va kelajakka nisbatan bo'lgan umidning so'nishi individda ta'msiz ovqat kishiga qanday bemaza ta'm bersa,

yashashning har bir kuni ham unga shunday maza beradi va seziladi, deb ko'rsatadi. Ammo G.I.Gordon yashashdan, hayotdan ko'ngli sovlilikni insonning ichki ruhiy xastaligiga bog'lamasdan balki, faqat tashqi muhitda yuz berayotgan hodisalarga insonning haddan tashqari kuch-quvvat sarflashiga taqaydi. Hayotdagi to'qnashuvlar va talablarning ortib borishi hamda yashashning qiyinlashuvi kishiga hayotga bo'lgan qiziqishni so'ndiradi deydi. U jamiyatdagi mavjud mikroijtimoiy nizolarning suitsidli xulqning yuzaga kelishiga ta'siri masalasini inkor etadi. Bu bilan u suitsidni tadqiq qilishdagi o'sha davrda kun surgan bir yoqlamalik yondashuvga ergashib ketadi va suitsidial urinishni tushuntirishda noaniqlarga yo'l qo'yadi. Xullas, suitsidni tadqiq qilishning psixologik nazariyasi ham o'z davri ilmiy dunyo qarashi bilan hamoxang holda kechib, suitsid shaxsning individual psixologik xususiyatlari, ruhiy kechinmalari tufayli vujudga keladigan hodisadir degan nazariyani ilgari suradi. Natijada ular suitsidial xulqning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi boshqa omillarni ko'ra bilmaydilar. Bu ilmiy nazariya jamoatchilik o'rtasida tanqidiy mulohazalarga sabab bo'ladi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida kattalar suitsidi bilan bir qatorda bolalar va o'smirlar suitsidi muammosi yuzasidan ham qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Biroq, ilmiy adabiyotlar tahlili bu davrda bolalar va o'smirlar suitsidini tadqiq qilish yuzasidan olib borilgan ishlarning yetarli emasligini ko'rsatdi. Shunga karamasdan bu sohada ma'lum ilmiy tadqiqotlar olib borildiki, bu bolalar va o'smirlar suitsidini tadqiq qilishning keyingi yillardagi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu o'rinda F.K.Terexovkaning ilmiy izlanishlarini alohida ta'kidlash mumkin. Uning ta'kidlashicha bolalar va o'smirlar suitsidining motivlari rolini "jazolanishdan qo'rqish", "g'am-g'ussa", "sevgi va rashk" kabilar o'ynashi mumkin. Muallifning fikriga qaraganda bolalar va o'smirlar suitsidining oldini olish uchun ularni mustahkam irodali, sog'lom fikrli va keng fe'l atvorli qilib tarbiyalash lozimdir. Shuningdek, uning ta'kidlashicha suitsidi o'zini hayotdan mahrum etishiga emas balki nomaqbul vaziyatlarga nisbatan "norozilik" sifatida yo'naltirilgan hatti-harakatdir.

F.K.Terexovkaning bolalar va o'smirlar suitsidiga bag'ishlangan qator ijobiy fikr va mulohazalari mavjudligiga qaramasdan uning ayrim noaniq fikrlari ham uchrab turadi. Jumladan, uning bolalar va o'smirlar suitsidi kattalar suitsidi singari ruhiy nosog'lomlik

mahsulidir degan fikri qator tanqidiy mulohazalarga sabab bo'radi. Shuningdek, uning bolalar va o'smirlar suitsidining oldini olishda ijtimoiy psixologik va psixiatrik tadbirlardan foydalanish befoyda va behudadir degan fikri ham qattiq qarshilikka uchraydi. 1900-1912 yillarga kelib, Rossiyada ayrim vrachlarning suitsidni o'rganishga bag'ishlangan shaxsiy statistik tadqiqotlari paydo bo'la boshlaydi. Shunday shaxsiy statistik tadqiqot mualliflaridan biri M.N.Gernet (1922) bo'lib, u o'z tadqiqotlarida bolalar va o'smirlar suitsidining statistik tahlili bilan shug'ullanib, Rossiyada va butun dunyoda bolalar va o'smirlar suitsidi yildan-yilga ortib borayotganligi haqidagi xulosaga keladi. Xalq ta'limi statistik hisoblari asosida G.Xlopin, N.Ushinskiy, Ye.Neznamovlar tahriri ostida chop etilgan "Samoubiystvo, pokusheniya na samoubiystvo i neschastnie sluchai sredi uchashixsya uchebnix zavedeniy M.N.P." (Xalq ta'limi vazirligi o'quv yurtlari o'quvchilari o'rtasida o'z joniga qasd qilish, o'z joniga qasd qilishga urinish va baxtsiz hodisalar), nomli to'plam bolalar va o'smirlar suitsidining statistik tahlili asosida yaratilgan "Samoubiystvo detey" (Bolalarning o'z joniga qasd qilishlari) nomli asari ham bu sohada olib borilgan muvaffaqiyatli ilmiy tadqiqotlardan biri sifatida qabul qilinadi. Muallif o'z xulosalarida bolalar va o'smirlar suitsidi faqatgina ruhiy uosog'lomlik natijasida sodir etiladigan hodisa bo'lmasdan balkim, ruhiy sog'lom bolalar va o'smirlarda ham sodir etilishi mumkin bo'lgan hodisadir deb ta'kidlaydi. U bolalar va o'smirlar suitsidining 12 xil ko'rinishini ta'kidlab, uning kelib chiqishidagi asosiy sabab va motivlari haqidagi e'tiborli fikrlarni ilgari suradi. Xususan, suitsidial xulqni keltirib chiqaruvchi sabablarni "endogen" va "ekzogen" sabablarga bo'radi. Endogen sabablarga bola psixikasining yosh psixologik xususiyatlari natijasida vujudga keladigan suitsidal xulq, uy va niyatlarni kiritisa, "ekzogen" sabablarga esa ijtimoiy muhit ta'siri va shaxslararo nizolar tufayli vujudga keladigan suitsidal xulqni kiritadi.

Bolalar va o'smirlar suitsidini tadqiq qilishga bag'ishlangan yirik asarlardan yana biri "Prichina samoubiystva v russkoy shkole" (Rus maktablarida o'z joniga qasd qilish sabablari) nomli asar bo'lib, u 1914 yilda M.N.Fenomenov tomonidan chop ettiriladi. Bu asarda bolalar va o'smirlar suitsidini keltirib chiqaruvchi sabablarni ijtimoiy muhitga bog'liq holda tushuntirishga harakat qilinadi. Bolalar va o'smirlar suitsidining sabab va motivlari o'rtasidagi o'xshashlik,

bogʻliqlik va tafovutli tomonlari haqida ijobiy fikr va mulohazalar bayon etiladi. Uning taʼkidlashicha sababning motivdan farqi shundaki, suitsident uni motiv singari anglab yetmaydi va u obyektiv xarakterga egadir. Motiv esa subyektivdir.

M.Ya.Fenomenov bolalar va oʻsmirlar suitsidini kattalar suitsididan alohida ajratib olib emas, balki Rossiyada roʻy berayotgan suitsidlarning bir qismi sifatida oʻrganish va tahlil qilishga harakat qiladi. U oʻz tadqiqotlarida keyingi yillarda Rossiyada bolalar va oʻsmirlar suitsidi 13 marta oshganligini taʼkidlab, buning asosiy sabablaridan biri sifatida jamiyatda roʻy berayotgan ijtimoiy inqirozlar, turmush kechirishning ogʻirlashib borayotganligi, hamda ijtimoiy koʻtarinkilik oʻrniga umidsizlik, ijtimoiy qiziqish oʻrniga shaxsiy va moddiy qiziqishlarning yuzaga kelayotganligi va oʻz joniga qasd qilish ilmiy jamotchilik tomonidan yetarlicha oʻrganilmayotganligi kabilarni keltirib oʻtadi. U Yevropada maʼlum yillar bolalar va oʻsmirlar suitsidi koʻrsatgichining bir maromda turishini va muammoni oʻrganish va uning oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarning ishlab chiqilishiga eʼtiborning kuchligida deb biladi. Fenomenov fikricha har qanday ruhan sogʻlom kishini oʻz joniga qasd qilish darajasiga olib kelish mumkin, qachonki hayot zarbalari va tashqi muhit taʼsiri shaxsning himoyalaniş funksiyasidan ustun kelsagina oʻz joniga qasd qilish mumkin. Muallifning ushbu fikrlarini diqqat bilan kuzatadigan boʻlsak, F.Ya.Fenomenov oʻz davrida shaxsning psixologik himoyalaniş funksiyasi haqidagi oʻta muhim fikrini oʻrtaga tashlanganligining guvohi boʻlamiz. Shuningdek, M.Ya.Fenomenov maktab jarayonining oʻquvchilarni rasional tarbiyaga emas, balki u yoki bu kasbga yoʻnaltirish va tayyorlashga moʻljallanganligi bolalar tarbiyasidagi nuqsonlarning kelib chiqishiga sabab boʻlmoqda deb koʻrsatadi. Bolalar va oʻsmirlardagi salbiy illatlar, shu jumladan oʻz joniga qasd qilishni ham yuksak tarbiyalanganlik orqali oldini olishga erishish mumkin degan gʻoyani ilgari suradi. Shuningdek, uning fikricha oʻquv dasturlarining murakkabligi va imtihonlarni baholash tizimining talabga javob bermasligi va shu kabilar ham bolalar va oʻsmirlarda suitsidal xulqning kelib chiqishiga sabab boʻladi.

Vrach I.A.Sikorskiy ilmiy tadqiqotlari ham oʻz davrida bolalar va oʻsmirlar suitsidini tadqiq qilish va uning oldini olishga muhim hissa qoʻshadi. U asosan bolalar va oʻsmirlar suitsidini psixiatrik nuqtai nazaridan tahlil qilib, bolalar suitsidi ham kattalar suitsidi singari ruhiy

nosogʻlomlik mahsulidir degan tushunchaga qatʻiy qarshi chiqadi. I.A.Sikorskiy bolalar va oʻsmirlar suitsidini oldini olishda vrachlik psixiatrik yordami berishni kuchaytirish zarurligini uqtiradi. U bolalar va oʻsmirlarda suitsidal xulqning kelib chiqishi ulardagi xulq oʻzgarishi va irodaviy sifatlarning mustahkam emasligiga bogʻliqdir deydi. Muallif bolalar va oʻsmirlar suitsidini psixologik jihatdan tadqiq qilish borasida ham qator ijobiy fikr va mulohazalarni ilgari suradi. Xususan, bolalar va oʻsmirlar suitsidi faqatgina ruhiy nosogʻlomlik mahsuli boʻlmasdan balki, oʻzini yoʻqotib quyish, individual-psixologik xususiyatlar va yosh davri inqirozlari ham suitsidga sabab boʻladi deb hisoblaydi. Bu oʻz davrida I.A.Sikorskiyning muhim kashfiyotlaridan biri boʻldi. Soʻngra B.A.Bernaskiy, I.A.Sikorskiyning nazariyasini davom ettirib, uni rivojlantiradi va bolalar oʻsmirlar suitsidi sabablari sifatida shaxslararo nizolar, kattalarning bolalar koʻnglini tushunmasliklari, jismoniy va maʼnaviy tahqirlashlari hamda yosh davri inqirozlari kabilarni keltiradi. U bolalar va oʻsmirlar suitsidining oldini olish haqida gapirib, bolalarda mustahkam irodaviy sifatlarni shakllantirish, harakat qatʻiyligi va iymon-eʼtiqodlilik hissini tarbiyalash lozimdir deb taʼkidlaydi. Shuningdek, u suitsidining oldini olishda keng aholi oʻrtasida suitsidni “reklama” qilishdan voz kechish kerakdir degan xulosaga keladi.

Bolalar va oʻsmirlar suitsidini psixologik jihatdan oʻrganishga bagʻishlangan yirik asarlardan biri 1893 yilda A.I.Astrogorskiy tomonidan chop ettirilgan “Samoubiystvo kak psixologicheskaya problema” (Oʻz joniga qasd qilish - psixologik muammo sifatida) nomli monografiya boʻlib, muallif bu asarda bolalar va oʻsmirlar suitsidini psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritadi. A.I.Astrogorskiy oʻz tadqiqotlarida bolalar va oʻsmirlar suitsidining kelib chiqishi koʻp jihatdan shaxsning psixologik xususiyatlariga, kayfiyatiga va ruhiy jarohatli vaziyatlarga bogʻliqdir degan xulosaga keladi.

XX asrning boshlarida suitsid muammosini oʻrganish meditsina obyektiga aylanganligi tufayli bolalar va oʻsmirlar suitsidini psixologik jihatdan tadqiq qilishga eʼtibor biroz susaydi. Faqatgina asrimizning ikkinchi yarmidan boshlab, bolalar va oʻsmirlar suitsidini har tomonlama tadqiq qilishga kirishiladi. Bunga birinchidan, kattalar suitsidini oʻrganish natijasida ayrim nazariy va amaliy natijalarning qoʻlga kiritilishi sabab boʻlgan boʻlsa, ikkinchidan bolalar va oʻsmirlar

suitsidining keskin ko'payishi bu muammoni tadqiq qilish va uning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora tadbirlarni ishlab chiqishni takozo etdi.

Prof. A.G.Ambrumova boshchiligida suitsidologiya markazi xodimlari kattalar suitsidini o'rganish bilan bir qatorda bolalar va o'smirlar suitsidini tadqiq qilish borasida ham qator muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdilar. Ular bolalar va o'smirlar suitsidini ijtimoiy psixologik va psixiatrik omillarini tadqiq qilish va uning oldini olishning nazariy, amaliy va tashkilotchilik xarakteriga ega bo'lgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqdilar. Jumladan, suitsidal xulqning bola shaxsi xususiyatlariga aloqadorligi, yosh xususiyatlari va suitsidal xulqning kelib chiqishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy – psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy etnik va madaniy omillar o'rganildi va tahlil qilindi. Shuningdek, bolalar va o'smirlar suitsidini yakka hodisa sifatida o'rganish natijasida bolalar va o'smirlar suitsidining psixologik, potologik, biologik va ijtimoiy mexanizmlari hamda suitsident bolalarning individual psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhitda tutgan o'rni, mavqei kabilar har tomonlama tahlil qilinadi.

Bolalar va o'smirlar suitsidini o'rganish qator xorijiy mamlakatlar tadqiqotchilari tomonidan ham samarali olib boriladi. Biroq, ayrim xorijiy mamlakatlar tadqiqotchilari bolalar va o'smirlar suitsidini tadqiq qilishda qator noaniqliklarga yo'l qo'ydilar. Jumladan finn suitsidologi Achte (1973) bolalar va o'smirlarda suitsidal xulqning kelib chiqishiga ruhiy jarohatli vaziyatlar va yosh davri xususiyatlari hamda inqirozlarining ta'sirini birlamchi deb ko'rsatib, suitsidal xulqning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi boshqa (patologik, ijtimoiy, biologik) omillarni ko'ra bilmaydi va frunsuz psixiatri va sisidologi Gouron (1981) ham bolalar suitsidining kelib chiqishida psixologik omilni asosiy deb hisoblab uni kuchli emotsional qo'zg'alish va ixtirosli sevgi muhabbatga bog'liq bo'lgan hodisa deb ta'kidlaydi. U bolalar suitsidini nizoli vaziyat ustidan hukmronlik qilishdan va nizoli vaziyatga barham berishga nisbatan qo'llanilgan hatti-harakatdir deb uqtiradi. Ayrimlari esa bolalar suitsidining kelib chiqishida nafaqat psixologik balki potologik, ijtimoiy, biologik, etnik kabi omillarning ham o'rni bor deb ko'rsatib, bolalar va o'smirlar suitsidini tushuntirishga ijobiy yondashadilar.

Ayrim tadqiqotchilar suitsidning kelib chiqishida agressiv va avtoagressiyaning ta'siri kattadir deb ko'rsatadilar. Lekin bu nazariya

ham bolalar suitsidini ilmiy jihatdan tushuntirib berishning uddasidan chiqa olmaydi. Natijada suitsidal xulqning bu nazariyasi ilmiy jamoatchilik o'rtasida tortishuvga sabab bo'ladi va tanqidga uchraydi. Masalan, K.Makita va uning tarafdorlari suitsidal xulqning kelib chiqishida agressiya emas, balki depressiya (o'ta kuchli emotsional qo'zg'alish) ning o'rni kattadir deb ko'rsatsa, ba'zi tadqiqotchilar suitsidal xulq shaxs xulq atvoridagi o'zgarishlar tufayli yuzaga keladigan "anglanilmagan" o'ziga shikast yetkazishiga qaratilgan hatti-harakatdir deb ta'kidlaydilar. S.P.Soubrier (1976), Spiling (1959), S.Desport (1952) larning tadqiqotlarida bolalar va o'smirlar suitsidining kelib chiqishida depressiv holat emas, balki somatik kasalliklar va xulq atvoridagi o'zgarishlar (dars qoldirishlar, dars tayyorlamasdan kelish va boshqa) ta'sir qiladi va u depressiv holatning qiyofasini yashirishga olib kelib, muammoli vaziyatlarda suitsidga sabab bo'ladi deb ta'kidlanadi.

Suitsidal xulqning kelib chiqishida depressiyaning o'rni kattadir degan nazariyaning yuzaga kelishi suitsidni tadqiq qiluvchilarni ikki qarama-qarshi oqimga bo'linishiga olib keldi. Birinchi guruhdagi tadqiqotchilar fikriga ko'ra suitsidal xulqning kelib chiqishida depressiya asosiy o'rinni egallaydi va u bolalar va o'smirlar suitsidining sodir etilishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi deb ta'kidlashsa, ikkinchi guruhdagi tadqiqotchilar bolalar va o'smirlarda suitsidal xulqning yuzaga kelishida depressiyaning asosiy o'rin tutishini inkor qiladilar. Tadqiqotchilar o'rtasida bunday bo'linish nafaqat depressiyaning suitsidal xulqning kelib chiqishiga ta'sir o'tkazishi masalasini o'rganishga balki, depressiyani aniqlashning diagnostik metodlarini ishlab chiqish rivojiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda ta'kidlanishicha bolalar va o'smirlarda suitsidal xulqning kelib chiqishida ular xulqidagi turli xil og'ishlar ham sabab bo'ladi. A.G.Ambrumova va M.Ya.Jezlova o'z tadqiqotlarida bolalar va o'smirlar suitsidining kelib chiqishida xulq og'ishi asosiy sabablaridan biri ekanligini ta'kidlab bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining ijtimoiy me'zonlariga asoslangan quyidagi turlarini keltirib o'tadilar:

1. Ijtimoiy tartib va qoidalarga nisbatan xulq og'ish.
2. Jamiyat normalariga (o'qish yoki mehnat qilishdan bosh tortish) qaratilgan xulq og'ish.

3. Huquqiy normalarga qaratilgan xulq og'ishi yoki qonunbuzarlik xulqi (o'g'rilik, bezorilik va boshqalar).

4. Avtoagressiv (o'zini jarohatlashga qaratilgan) xulq og'ishi.

Shuningdek, E.A.Chomaran ham o'z tadqiqotlarida 300 nafar o'smir bolalarni kuzatib, ularga 110 nafarida xulq og'ishining u yoki bu ko'rinishining kuzatilganligini, shulardan 70 nafari o'z joniga qasd qilishiga moyillik holatini namoyon qilganligini ta'kidlanadi.

A.G.Ambrumova, S.V.Trayniva, N.V. Umanskiy (1983) kabi tadqiqotchilar xulq og'ishini suitsidal xulqni keltirib chiqaruvchi sabablardan biri sifatida ta'kidlashib, bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining ko'rinishlari va ularning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi omillarni ko'rsatadilar. Ular quyidagichadir:

1. Patologik irsiy moyillik, surunkali alkogolizm va ruhiy nosog'lomlik;

2. Konstitusional xususiyatlar, xarakter aksentuatsiyasi;

3. Ijtimoiy biopsixologik chekinish va xulq-atvor reaksiyalari;

4. Jamiyatning ijtimoiy psixologik sabablari;

A) moddiy boylikka intilish natijasida ma'naviy qashshoqlanish;

B) diniy e'tiqod va an'analarning unutilishi;

C) oilaviy munosabatlar deformatsiyasining izdan chiqishi;

D) atrof-muhitning turli-tuman informatsiyalar bilan to'lib toshishi natijasida hayotning jadallashuvi;

E) tarbiya jarayonida individual psixologik yondashuvning yo'qligi.

Boshqa ilmiy adabiyotlarda ham bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining bir qator klassifikatsiyasi keltiriladi. Jumladan V.N.Kudryavsev (1984) bolalar va o'smirlar xulqi og'ishining ijtimoiy huquqiy me'zoniga asoslangan klassifikatsiyasini, A.E.Lichko (1975) o'smirlarda xarakter reaksiyalari tufayli vujudga keladigan xulq og'ishi turlari klassifikatsiyasini va shaxs xususiyatlarini (tiplarini) keltiradilar.

A.E.Lichkoning ta'kidlashicha, shaxs xususiyatlarining quyidagi ko'rinishlari (tiplari) mavjuddir:

1. **Giper tip.** Bu tipga mansub bo'lgan bolalar va o'smirlar serharakat, intiluvchanlik, boshqalarga buyruq berishni yaxshi ko'radigan, notanish kishilar bilan tezda til topishib keta oladigan, ijtimoiy-tartib va qoidalarga rioya qiladigan bo'ladilar. Bundaylar tengqurlari orasida tezda ko'zga tashlanib ko'pincha guruhdagi

norasmiy peshqadamga aylanadi. Ularda erkinlikka intilish yaqqol ko'zga tashlanadi. Har bir ishda mustaqillik va tashabbuskorlikni namoyon qiladilar. Mayda-chuyda mehribonchiliklarni yoqtirmaslik va ba'zi hollarda tajovuzkorlik holatlari kuzatiladi. Mazkur tipga kiruvchi bolalar va o'smirlar ziddiyatli vaziyatlarda faol qarshilik ko'rsatadilar. Hech qanday sustkashlikka toqat qila olmaydilar. Ular sergap bo'lib, maqtanishni, vaqti chog'likni yaxshi ko'radilar. Bunday bolalar va o'smirlar harakatchan va qo'zgaluvchan, moslashuvchan va g'ayratli bo'lganligi uchun ba'zan muammoli vaziyatlarda noto'g'ri qaror va xulosalarga keladilar. Shuning uchun ular ko'pincha nizoli vaziyatlarda affektiv holatga tushib qoladilar. Bundaylarda ko'pincha impulsiv suitsidal xulq kuzatiladi. Shu boisdan bu tipga kiruvchi bolalar va o'smirlar bilan muloqotda kirishishda va psixologik va pedagogik ta'sir o'tkazishda ularning ruhiyatini tushunishga harakat qilish muhimdir.

2. Ijtimoiy moslashgan tip. Bu tipga kiruvchi bolalar va o'smirlar atrofda qilarning talabi bilan kelisha oladigan, bosiq, mulohazali o'ziga talabchan va rahmdilligi bilan xarakterlidir. Odatda bunday bolalar va o'smirlar o'qish va jamoatchilik ishlarida faol yoki o'rtacha darajaga ega bo'ladilar, ular ko'pincha muammoli vaziyatlarda shaxsiy faollikni namoyon qilib, maqbul qarorlar va xulosalarga keladilar. Bundaylarning keyingi hayotlari ham bir maromga o'tadi.

3. Konformlik va chegaralangan tipi. Bu tipga mansub bolalar va o'smirlar ijtimoiy axloq normalariga so'zsiz bo'ysunuvchi, harakatchan, rahmdil, samimiy bo'lib, ammo ular muammoli vaziyatlarda chuqur mulohaza yuritmaydilar va o'tkir qobiliyatlarga ega emasliklar bilan ajralib turadilar. Ularda o'zini ustun qo'yishlik va o'z-o'zini baholashning ustunligi holatlari kuzatiladi. Bundaylar o'zlarida ko'pincha norasmiy moslanuvchanlikni namoyon qiladilar. Ular garchand mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'lmasada, muammoli vaziyatlarda mustaqil fikr yuritishga harakat qilib o'zgalarning maslahat va yordamlarini rad etadilar. Natijada ular ko'pincha nizoli vaziyatlarning murakkablashuviga olib keladigan qarorlar va xulosalarga keladilar. Shuningdek, ular nizoli vaziyatlarda o'zini qo'lga olabilishlik, o'rniga tezda o'zini yo'qotib qo'yadilar. Bu tipga kiruvchi bolalar va o'smirlar haddan tashqari ta'sirchan va ko'zga tashlanuvchandir.

4. Emotsional labil. Bu tipga kiruvchilar kayfiyatning o'zgaruvchanligi, beqarorlik, jur'atsizlik, yordamga muhtojlik va buysunuvchanliklari bilan boshqalardan ajralib turadilar. Ular kundalik hayotdagi inuvaffaqiyatsizliklar va nizoli vaziyatlarda vahimaga tushish, umidsizlikka berilish, ruhiy ezilish kabi holatlarni namoyon qiladilar. Bundaylar maqtovgga ham, tanbehga ham o'ta sezgir bo'lib, ba'zan oila nizolarini murakkab ahvolga solib qo'yadilar. Ularning do'st va o'rtoqlari doirasi cheklangan bo'lib o'zlarining tortinchoqligi va o'z-o'zini past baholashliklari bilan xarakterlidirlar, bundaylar boshqalarga qaraganda birmuncha suitsidal xavfli bo'lib hisoblanadilar.

5. Isterik tip. Bu tipga mansub bolalar va o'smirlar xudbinlik, manmanlik, tannozlik, yaxshi ko'rinishga harakat qilishlik kabi sifatlarni namoyon qiladi. Ular raqobatlashishiga o'chroq bo'ladilar. Agar uni o'qishda, sportda va ijtimoiy faoliyatlarda o'zlarini ko'rsata olmasalar turli xil yolg'on-yashiqlarni o'ylab topadilar. Bundaylarning ijtimoiy muhitga nisbatan moslashishlari beqaror bo'lib, nizoli vaziyatlarda asabiy va hatto ruhiy kasallikka chalinish darajasigacha yomon holatga tushadilar.

6. Patologik nomutanosib tip. Bu tipda ruhiy nosog'lom va ruhiy nosog'lomlik chegarasida turgan bolalar va o'smirlar kiradi. Ular arzimansiz nizoli vaziyatlarda yoki ruhiy jarohatli vaziyatlar umuman bo'lmagan paytlarda ham o'zlarini yo'qotib qo'yishlari mumkin va uzlari bilmagan holda turli xil harakatlarni amalga oshiradilar. Shu jumladan suitsidal urinishni sodir etishlari mumkin.

Ayrim tadqiqotchilar bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining kelib chiqishida ijtimoiy muhit, oilaviy munosabatlar va tenkurlari guruhining ta'siri kattadir deb ta'kidlaydilar. Jumladan, V.V.Kovalev bolalar va o'smirlar xulqi o'zgarishi psixogen vaziyatning situasion ta'sirlanishlarini keltirib chiqarishi va bunday vaziyatlarning suitsidal xulqning qo'lib chiqishiga ta'siri haqida gapirib xulq o'zgarishini keltirib chiqaruvchi psixologik, potologik reaksiyalar haqida alohida to'xtaladi. U psixologik situasion ta'sirlanishlarni xarakterologik ta'sirlanishlar termini bilan ifodalab, psixologik situasion ta'sirlanishlar bolalar va o'smirlar xulq-atvori va xarakteridagi o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin deb ta'kidlaydi. Bunday ta'sirlanishlar, deydi V.V.Kovalev, asosan oila, maktab yoki turli xil uyushgan guruhlar ta'siri tufayli vujudga kelib, ma'lum shaxsga

yo'naltirilgan bo'ladi. Patoxarakterologik reaksiyalar ko'pincha karakterologik reaksiyalar zaminida vujudga keladi. Karakterologik reaksiyalardan patoxarakterologik reaksiyalarga o'tishida asosan quyidagi, ya'ni o'zgargan xulqning mikro ijtimoiy doiradan chetga chiqishi, xulq o'zgarishi situatsiyasining boshlangich reaksiyasi bilan aloqasini yo'qotishi va xulq o'zgarishi hamda situatsion reaksiyalarning boshlang'ich formasining takrorlash layoqatining yo'qolishi va xulq o'zgarishining nevroitik komponentlari, kayfiyatning noturg'unligi, ta'sirchanlik, ozib ketish, uyquning yo'qolishi, somatik vegetativ o'zgarishlar va shu singari belgilarni namoyon qiladi.

Bolalar va o'smirlar suitsidini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda ijtimoiy psixologik moslanishning izdan chiqishi ham suitsidal urinishning sabablaridan biri ekanlii haqida fikr bildiriladi. Jumladan, X.Xristozov o'smir xulqi buzilishi mexanizmining rivojlanishida adaptatsiya (moslashish) va dezadaptatsiya (moslashishning izdan chiqishi) ning urni katta ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan bu ikki xil tushuncha inson organizmining ichki mexanizmi bilan tashqi muhit o'rtasidagi o'zaro murakkab bog'lanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy psixologik moslashishning izdan chiqishi deyilganda organizm va tashqi muhit o'rtasidagi murakkab bog'lanish izdan chiqadi. Ijtimoiy muhitga nisbatan moslashishning izdan chiqishi belgilari sifatida ijtimoiy his etishning yo'qolishi arafasidagi ijtimoiy muhit va ijtimoiy normalarga nisbatan ishonchsizlikning kelib chiqishi turli xil nizoli vaziyatlarga moslashish imkoniyatlarini cheklaydi va o'z shaxsi imkoniyatlarini baholashdagi beqarorlik ko'rinishlarini namoyon qiladi.

Bir qator tadqiqotchilar bolalar va o'smirlarning yosh xususiyatlari hamda ulardagi impulsivlik, emotsional beqarorlik va hayotiy tajribalarning yetishmasligi xulq og'ishini keltirib chiqarish bilan birga suitsidal xulqning kelib chiqishiga sabab bo'ladi va suitsidal urinishni tezlashtiradi deb ko'rsatadilar. A.G.Ambrumova va Ye.M.Vronalarning ta'kidlashlaricha, impulsivlik, emotsional beqarorlik va kuchli qo'zgaluvchanlik ko'pchilik o'smirlarga xos bo'lgan karakterli xususiyatlardan biri bo'lib hisoblanganligi uchun ularda istalgan paytda va arzimas nizoli vaziyatlarda ham suitsidal xulq kelib chiqishi mumkin.

Ayrim tadqiqotchilar affektiv holatlar bolalar va o'smirlarda suitsidal xulqning kelib chiqishiga sabab bo'ladi deb ko'rsatadilar. Jumladan, I.V.Polyakovaning ta'kidlashicha, bolalar va o'smirlar suitsidi patopsixologik omilga bog'liq bo'lmasdan, balki ko'pincha shaxsning affekti va holatlaridagi psixik kechinmalariga bog'liqdir. Muallifning fikriga ko'ra affektiv holatda autoagressiv xulq ikki asosiy xususiyatga ega, ya'ni nizoli vaziyatning mavjudligi va nizoli vaziyatni bartaraf etib bo'lmaydigan suitsidogen omil sifatida baholanishi. Shuningdek, I.V.Polyakovaning ta'kidlashicha affektiv reaksiyalarda suitsidal xulq haqidagi uy va niyatlarning namoyon bo'lishi va uning amalga oshirilishida shaxs xususiyatlari, ustanovkalari va qadriyatlar orientatsiyasining roli kattadir.

K.V.Kondrashchenko o'z tadqiqotlarida affektiv holatlarning bolalar va o'smirlar suitsidining kelib chiqishidagi o'rni haqida gapirib ekstremal sharoitlarda suitsidal xulqning kelib chiqishi shaxsning o'zini qanday tutishiga bog'liqdir deb ta'kidlaydi. Shaxsning o'zini tutishi deydi, u nizoli vaziyatning murakkablashuvi yoki yumshashiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Bu bir tomondan ta'sir etuvchi ijtimoiy omil ta'sir kuchiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan obyektiv ta'sirga javob qaytaruvchi shaxs subyektiv xususiyatlarga bog'liqdir. O'smirlarda subyektiv xususiyatlar o'z murakkablik pog'onasida bo'lganligi nizoli vaziyatlarga barham berishni qiyinlashtiradi va arzimasdek tuyulgan vaziyatlarda ham suitsidal xulqning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

O'smirlik yoshida kuchli emotsional ta'sirlarga javoban paydo bo'ladigan qisqa muddatli reaksiya – egotsentrik ko'chish reaksiyasi boshqa yosh davrlariga qaraganda ko'p uchraydi. Egotsentrik ko'chish reaksiyalarida affektiv kechinmalar yakka hokimlashib psixik faoliyatning boshqa sohalari ustidan hukmronlikka erishadi va suitsidal xulq haqidagi niyatning ustunligini ta'minlaydi. Natijada o'limdan qo'rqish hissi va og'riq sezgilari bola ongidan siqib chiqariladi va suitsidal urinishni amalga oshirishga o'tiladi.

Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, bolalar va o'smirlar suitsidi kattalar suitsididan yosh xususiyatlarga ko'ra farqlanib suitsid oldi davri suitsidal xulqning rivojlanish pog'onasi va uni amalga oshirish usullari hamda suitsidal xulqning mazmun va mohiyati jihatidan turlichadir. Ko'pchilik mualliflarning ta'kidlashlaricha bolalar va o'smirlarda 13 yoshgacha bo'lgan davridagi suitsidal xulq kattalar

suitsididan keskin farq qilib, 16-19 yoshga yetganga kattalar suitsidiga o'xshashlik xususiyatlarini o'zida namoyon qiladi. L.Ya.Jezlova o'z tadqiqotlarida bolalar va o'smirlar suitsidining o'ziga xosligini ta'kidlab, ulardagi suitsidal xulqning katta qismi hayotdan mahrum etishga qaratilganligini ta'kidlaydi (54,4%). Muallif bu bilan 7-14 yoshdagi bolalar suitsidal xulq namoyishkorona mazmunga ega bo'lmasdan balki, o'zini hayotdan mahrum etishga qaratilgan haqiqiy mazmunga egadir, degan tushunchani ilgari suradi. Ulardagi suitsidal xulqning haqiqiy mazmunga ega ekanligini L.Ya.Jezlova suitsidallarning yosh xususiyatlari va hayotiy tajribalarining yetishmasligiga bog'laydi.

Ye.Shir xulosalarida "O'smirlilik yoshidagi suitsidal xulq o'zini hayotdan mahrum etishga emas, balki ijtimoiy muhitdagi nomutanosiblariga va izdan chiqqan ijtimoiy munosabatlar o'rtasidagi aloqani qayta tiklashga qaratiladi"; - deb ta'kidlanadi. Shuning uchun Ye.Shir o'smirlar suitsidini o'zini hayotdan mahrum etishga qaratilgan haqiqiy suitsidal xulq emas, balki o'zining u yoki bu maqsadlariga erishish uchun qilingan "suitsidal texnika" deb atash o'rinlidir deydi.

Bolalar va o'smirlar suitsidining psixologik ma'nosini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda asosan bolalar va o'smirlar suitsidining psixologik ma'nosi va uning o'ziga xos xususiyatlari hamda suitsidentlarning individual psixologik xususiyatlari tadqiq qilinadi. Suitsidal xulqning psixologik ma'nosini o'rganish o'z joniga qasd qilishni amalga oshirgan suitsidentlardagi o'zini hayotdan mahrum etishga qaratilgan xohish va intilishning qay darajada ekanligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. O'zini hayotdan ketkazishga qaratilgan xohish va intilish har doim ham haqiqiy mazmunga ega bo'lavermaydi. Shuning uchun suitsidal urinishning oxirgi maqsadi (o'lim) va uning psixologik ma'nosini doim ham mos kelavermaydi.

A.E.Shir o'z tadqiqotlarida bolalar va o'smirlarda suitsidal xulqning quyidagi turlarini keltirib o'tadi:

1. Oldindan o'ylangan, ya'ni autoagressiv (o'ziga qaratilgan tajovuzkorlik) xarakteriga ega bo'lgan va oldindan o'ylangan suitsidal uy va niyatlar asosida sodir etilgan haqiqiy suitsidal urinishlar. Bunday suitsidal urinishlar surunkali nizoli vaziyatlarda vujudga kelib, unga uzoq muddat tayyorgarlik ko'rib, qulay imkoniyatlarga qarab, amalga oshiriladi.

2. Barham berib bo'lmaydigan suitsidal xulq. Bunday suitsidal urinishlar ruhiy nosog'lomlik va kuchli suitsidal tendensiyalar asosida sodir etilgan suitsidlardir. Bu ko'rinishdagi suitsidal urinishlarda ham autoagressivlik mavjud bo'lib, faqatgina bu xususiyat ruhiy nosog'lom va ruhiy nosog'lomlik chegarasida turgan bolalar va o'smirlarga xosdir.

3. Ambivalent suitsidal xulq. Bunda autoagressiya xulq atrofga yo'naltirilgan bo'lsada, biroq o'zini hayotdan mahrum yetishga qaratilgan haqiqiy suitsidal xulq ham ma'lum darajada mavjud bo'ladi.

4. Impulsiv (affektic) suitsidal xulq. Bunday suitsidal urinishlar kuchli ta'sirlanish tufayli to'satdan amalga oshiriladigan suitsidlardir.

5. Namoyishkorona suitsidal xulq. Bu ko'rinishdagi suitsidal urinishlar kuchli ruhiy jarohatlanish holatlarida amalga oshirilib, ko'pincha u "suitsidogen kishi" ko'z o'ngida sodir etiladi.

Bolalar va o'smirlar suitsidini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar bilan tanishar ekanmiz, ularda bolalar va o'smirlar suitsidal xulqning shakllanishi, rivojlanib borishi va amalga oshirilishi bilan bir qatorda suitsident bolalarning suitsidoldi holati va suitsidal xulqni ifodalovchi ayrim belgilar, ya'ni somatik o'zgarishlar va bolalar va o'smirlar suitsidining psixologik ma'nosining ham tahlil qilinganligini ko'ramiz. Jumladan, V.L.Xaykin tadqiqotlarida bolalar va o'smirlar suitsidal xulqini ifodalovchi quyidagi xususiyatlar keltirib o'tiladi:

1. Xulq o'zgarishining turli xil ko'rinishlari va suitsidal xulqning boshlanishi haqidagi belgilarning namoyon bo'lishi (o'z-o'zinipast baholash, emotsional beqarorlik, impulsivlik).

2. Nomaqbul vaziyatlar va kechinmalarga nisbatan bo'lgan shikoyatlar, suitsidal uy va niyatlar hamda fikrlarning mavjudligi.

3. O'z joniga qasd qilishning amalga oshirilishi.

Muallifning fikricha bolalar va o'smirlarda suitsidal xulqning namoyon bo'lishi va uning rivojlanishi kuyidagi bosqichlar asosida amalga oshadi:

1. Boshlang'ich emotsional ehtiroslik. Bu ko'pincha kichik va o'rta yosh davrida ko'proq kuzatiladi (12-14, 15-16 yosh).

2. Psixologik himoyalaniishning nomaqbul yo'llarini qo'llash orqali o'zini qurbon qilish bilan boshlang'ich fazadan chiqish yoki undan qutulishga intilish.

3. Boshlang'ich davridagi qarama-qarshi agressiv uy va niyatlarning kuchayishi natijasida ikkinchi pog'onaga o'tish.

Bolalar va o'smirlar suitsidini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy nazariyalar tahlili bolalar va o'smirlar suitsidi ham kattalar suitsidi singari A.G.Ambrumova ta'kidlaganidek, mikroijtimoiy nizolarni boshdan kechirish jarayonida ijtimoiy psixologik dezadaptatsiyalanish (moslashishning izdan chiqishi) natijasi bo'lib, (A.G.Ambrumova (1989)) u katta yoshdagilar suitsididan umumiy, analogik va yosh xususiyatlariga ko'ra farq qilishligini ko'rsatadi. Bunday tafovutlar ayniqsa suitsidal xulqning paydo bo'lishi, amalga oshirilishida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bolalar va o'smirlar suitsidining tipologik xarakteristikasi esa N.V.Tixonenko tomonidan ta'kidlangan suitsidal xulq klassifikatsiyasi bilan har jihatdan mos keladi. Bu klassifikatsiya quyidagichadir:

1. Ichki suitsidal xulq:

- A) passiv suitsidal xulq;
- B) suitsidal niyat;
- C) suitsidal qarorlar;

2. Tashqi suitsidal xulq:

- A) suitsidal urinish;
- B) tugallangan suitsid;

Suitsidal xulqning psixologik ma'nosini ifodalovchi tipologik sxemasi suitsident shaxsi xususiyatlariga asoslangan bo'lib, ular quyidagichadir:

1. Isyon, qasos.
2. Chaqiriq
3. Jazolanishdan qochish.
4. O'z-o'zini jazolash.
5. Voz kechish.

Ushbu tipologiyaga ko'ra "Isyon" nizoli vaziyatga nisbatan o'z norozichiligini bildirish maqsadida faol qarshilik ko'rsatish bo'lsa, qasos, isyonning konkret ko'rinishidir. "Chaqiriq" atrofdagilar e'tiborini o'ziga jalb qilishdan iborat bo'lgan yordam hayqirig'i, "Azob-uqubatdan o'zini olib qochish" nizoli vaziyatni chidab bo'lmas darajada his etish tufayli undan qutulish maqsadida qilinadigan hattiharakatdir. "O'z-o'zini jazolash" - vujudga kelgan nizoli vaziyatda o'zini aybdor deb his etish natijasida o'z-o'zini jazolash, "voz kechish" - o'lim istagining zo'rayishi va nizoli vaziyatning murakkablashuvi va surunkali tus olishi tufayli yashashdan voz kechish ma'nolarini bildiradi.

Shunday qilib, yuqorida bolalar va o'smirlar suitsidal xulqini o'rganishga qaratilgan ilmiy manbalar tahlili, bolalar va o'smirlar suitsidining qator xususiyatlari yoritib berilganligini ko'rsatadi, biroq etnopsixologik, hududiy, individual - psixologik tomonlarining yetarlicha o'rganilmaganligining guvohi bo'lamiz.

8.2. E.Dyurkgeym "O'z-o'zini o'ldirish" nazariyasi asoschisi sifatida

Emil Dyurkgeymning eng yirik asarlari: "Ijtimoiy mehnat taqsimoti to'g'risida" (1893 yil), "Sotsiologiya metodi" (1895), "O'z-o'zini o'ldirish" sotsiologik etyud. (1897 yil), "Sotsiologiya va sotsial fanlar". "Fanlarda metod". Uning bu asarlari rus tiliga tarjima qilinib, alohida kitoblar holida chop etilgan. Dyurkgeymning sotsiologiya predmeti va uning boshqa ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rni to'g'risidagi qarashlari e'tiborga loyiqdir.

Uning fikricha, sotsiologiya empirik fan hisoblanadi. Shuning uchun ham u antibiologizm va antipsixologizm g'oyasini olg'a suradi.²²

Dyurkgeym o'z tadqiqotida qaysi elementlarning mantiq qoidalariga muvofiqligini sharoitni o'zgarishi bilan, bu qoidalarning ko'mak berishini va nihoyat, o'z-o'zini o'ldirishga olib kelishini o'rganishga katta e'tibor beradi.

Dyurkgeym Fransiya sotsiologiyasiga – "Anomiya" tushunchasina kiritdi, undan jamiyat holatini aniqlash, sotsial muhitni baxolash uchun mezon sifatida isbotlandi. "Anomiya" fransuzcha so'z bo'lib, qonun, tartib-intizom yo'q degan ma'noni bildiradi. Anomiya holatining mavjudligi jamiyatda organik birdamlik tartib intizomning yo'qligini anglatadi. Agar jamiyatda aniq iqtisodiy, axloqiy yoki sotsial jihatdan kishilarning huquqi, fe'l-atvorini boshqaradigan sotsial normativ holat bo'lmasa, odamlar nima qilishini bilmay qoladilar, axloqiy bo'shliq vujudga keladi, boshboshdoqlik, tartibsizlik vujudga keladi. Ya'ni mamlakatda boshqarish apparati, rahbarlik norma qoidalar bo'lmasa, mamlakatda anomiya holati vujudga keladi, mehnat taqsimotiga xos qonuniyatlar buziladi, mehnatni uyushtirishda xatolik ko'payadi. Mamlakatda anomiya davrida: jinoyatchilik, o'g'rilik axloqiy buzg'unchilik avj oladi. O'z-o'zini o'ldirish holatlari keskin ko'payadi.

²² Kravchenko A.I., Anurin V.F. Sotsiologiya. Sankt Peterburg, "Piter" 2003

Dyurkgeymning mashhur tadqiqotlaridan biri o'z-o'zini o'ldirishlarni tahlil etish bilan bog'langan edi. O'z-o'zini o'ta shaxsiy akt hisoblanib, katta shaxsiy baxtsizliklarning oqibati hisoblanadi. Dyurkgeym fikricha esa, suitsidga ijtimoiy omillar fundamental ta'sir ko'rsatadi va ularning biri anomiyadir. O'z-o'zini o'ldirish statistikasi yildan yilga takrorlanadigan manzarani namoyon qilmoqda, bu esa hodisani sotsiologik jihatdan tushuntirishni taqozo qiladi. Dyurkgeym tadqiqotlarining ko'pgina jihatlari e'tirozlarni keltirib chiqarmoqda, lekin shunga qaramay, mumtoz ish sifatida uning ahamiyati zamonaviy sotsiologiya uchun hamon muhimdir.

Dyurkgeym asosiy e'tiborni diniy e'tiqotga qaratdi va qaysi din, diniy udumlarning o'z-o'zini o'ldirish ta'siri ko'proq degan muammoni batafsil o'rgandi va bu metodni boshqa holatlarga tadbiiq etdi.

Protestant va katolik dinining bu sotsial hodisaga bo'lgan ta'sirini o'rgandi. Katolik dini va uning udumi eski an'analar tizimga va eski urf odatlarga asoslanadi, nisbatan yaxlit bo'lib e'tiqod kuchli, umumiy ruhiy xolatini buzadigan zamonaviylashtirishni qabul qiluvchi din emas. Konservativ aqidalar ustunlik qiladi. Bunday o'ziga xoslik katolik diniy guruhlarni yanada jipslashtirishga, hamkorlikka olib keladi. Bundan kelib chiqadigan sotsial oqibat o'z-o'zini o'ldirishni sonining foizi ancha kam - 0,3 foizni tashkil etadi.

Protestantlik dinida an'anaviy diniy e'tiqod kuchsiz, erkin ruh g'oyasi ancha kuchlidir, unda erkinlikka katta o'rin berilgan. Natijada dindorlardan birlashishi va hamkorlik istagi juda oz, hamkorlikka ehtiyoj yo'q. Shuning uchun o'z-o'zini o'ldirish xollari ko'p uchraydi. Bu ilmiy faraz masalalarini tushunishga imkon berdi. Sotsial o'zgarishlar darajasi individlarning uyushishi, aloqadorlik darajasi o'z navbatida shaxning hayotiga ham ta'sir qiladi. Oila, bolalar, qishloq turmushi kishilarni sotsial jihatdan birlashtiradi, individning sotsial yakkalanib qolishga, yolg'iz qolishga imkon bermaydi, u doimo oila va jamoa bilan birga bo'ladi.

Dyurkgeym o'z tadqiqoti o'z-o'zini o'ldirishga bilvosita ta'sir etuvchi nosotsial omillarni ham ko'rsatib o'tdi. Nosotsial omillar faqat sotsial omillar professional va mutaxassislar bilan aloqada bo'lsa, bevosita qo'shilib ketgan bo'lsa, unda o'z-o'zini o'ldirishni tezlashtiradi.

Statistika bo'yicha o'z-o'zini o'ldirish qishda uncha ko'p emas, balki yoz oylarida ko'proq uchraydi. Chunki bu vaqtda kunlar ancha uzaygan bo'lib sotsial omillar bilan bog'likdir. Uzun kunda individlar sotsial hayot bilan jadal shug'ullanadi. Bu jarayon bo'lmasa sotsial yolg'izlikda qoladi, nima bilan shug'ullanishni bilmaydi. Shuningdek erkak va ayollarning o'z-o'zini o'ldirishi ham sotsial faollikka bog'likdir.²³

Dyurkgeym o'z-o'zini o'ldirish sabablarini tahlil qilib ularning quyidagi to'rt turini ko'rsatdi:

- egoistik sabablar;
- alturistik sabablar;
- anomiya sabablar;
- fatalistik sabablar.

Egoizm holatidagi o'z-o'zini o'ldirish sabalari tufayli o'zini o'ldirishlik asosida individning jamiyatdan begonalashuvi, uni boshqarishda jamiyat ta'sirining yo'qolganligi, sotsial aloqalarning uzilganligi, jamoadan ajralib qolganligi kabi xolatlar yotadi. Bunday xolatda individ o'zini bechora, begona, nochor, hayotdan bezigan, tragizm ruhida bo'ladi, O'z hayotining ma'nosini yo'qotadi. Haddan tashqari yakkalanib qolishlik, jamoadan ajraganligi "jamoat" hissiyatini yo'qligi "sotsial g'am chekishlik" ijtimoiy maqsadlarni yo'qligi, sotsial aloqadorlikning ijtimoiy hayotga bog'liqlikning buzilishi, buning natijasida ijtimoiy guruhlarining inqirozi, diniy, oilaviy, siyosiy va boshqalarning shaxsga nisbatan ta'sirini yo'qolishi nihoyat darajada kuchsizlanib ketishi o'z-o'zini o'ldirishga olib keladi.

Alturistik holatidagi o'z-o'zini o'ldirish. Bu holatdagi o'lim shaxsiy manfaatlarining tamoman sotsial manfaatlar tomonidan yutib yuborilishi, individning o'z mustaqilligini sezmay qoladigan paytlarda sodir bo'ladi. Bunday o'lim turiga Dyurkgeym keksalar, kasallarning o'z-o'zini o'ldirishi, eri o'lgandan so'ng tul xotinning o'z-o'zini o'ldirishi, qul egasi o'lgandan so'ng qulning o'zini-o'zi o'ldirishi kabilarni kiritdi. Bunday holatlar arxaik jamiyatda ko'p sodir bo'lgan.

Anomiya holatidagi o'z-o'zini o'ldirish holatidagi o'lim asosan yirik ijtimoiy inqiroz, iqtisodiy o'pirilishlar paytida uchraydi. Individ sotsial qayta o'zgarishlar, yangi sotsial talablarga nisbatan moslashish qobiliyatini yo'qotadi. Jamiyat bilan aloqasini uzadi. Ijtimoiy anomiya

²³ E.Giddens «Sotsiologiya» Toshkent «Sharq» 2002. 790 b

holati davrida aniq qoidalar va axloq normalarining yo'qligi eski davr qadriyatlari buzilgan, yangisi esa hali shakllanmagan davr bo'lib, individlarning ayrimlarida axloqiy holatlar buziladi. Ijtimoiy struktura chayqalib parokanda bo'lib turgan davrda ayrim individlar tezda yuqori lavozimlarga ko'tariladi, boshqalar esa o'z ijtimoiy mavqeiini yo'qotadi. Ijtimoiy muvozanat buzilishi bilan o'z-o'zini o'ldirish ayniqsa, savdo xodimlari va ishbilarmonlar saflarida ko'p uchraydi. Chunki Dyurkgeym fikricha, savdo va sanoat dunyosi vakillarining haddan tashqari boyib olishiga intilishi bu harakatga nisbatan qattiq chora-tadbirlarning yo'qligi yoki hech qanday qarshilikka uchramasligi oqibatida ularning axloqiy va psixik muvozanati buziladi, axloq va psixikasida nomutanosiblik vujudga keladi. Shunday qilib, ijtimoiy tartibning bo'shashganligi tufayli anomiya asosida o'z-o'zini o'ldirish hollari ro'y beradi. Agar jamiyat insongan nisbatan zaruriy ta'sir o'tkaza olmasa, uni himoya qila olmasa munosabatli holatning sodir bo'lishi muqarrar.

Fatalizm holatidagi o'z-o'zini o'ldirish sabablari anomiya holati sabablarining aksidir. Bu formadagi o'z-o'zini o'ldirish individ ustidan kuchli nazoratning, ortiqcha tartibotining mavjudligi, individ uchun chidab bo'lmas holatning mavjudligi bilan bog'liq. Individning barcha harakati, istagi ma'lum doira atrofida qat'iy belgilanadi.

Dyurkgeymning ta'kidlashicha o'z-o'zini o'ldirish sotsial intizom, tartibot asosida individ tomonidan amalga oshirilgan ongli va maqsadli hodisa hisoblanadi.

Normal sotsial subyekt, normal sotsial xulq-atvor normal sotsial holatdan kelib chiqadi. Jamoa kuch va nazorat individni o'z-o'zini o'ldirishga olib boradi. Individning psixologik motivlari ham sotsial muhitdan kelib chiqadi.

Dyurkgeym o'z-o'zini o'ldirishga olib keladigan omillardan qutilish uchun ko'ngilsiz hodisaning oldini olish va inqiroz holatdan chiqish uchun ahamiyatning axloqiy tartibini mustahkamlashga qaratilgan ishlab chiqarish korporatsiyalarini ko'rsatib bergan.

O'z-o'zini o'ldirish holatlari keskin ko'payadi. Dyurkgeym fikricha, anomiyaga xos belgilar:

- mamlakatdagi axloqiy inqiroz;
- normativ xulq, tartibot buzilishining kuchayishi;
- insonlarda hissiyot va tajovuzkorlikni yaqqol namoyon bo'lishi;
- shaxsiy muvozanat buzilishining kuchayishi;

➤ shaxsning oila, jamoa va jamiyatga bo'lgan tobeligini tobora kuchsizlanishi, shaxsning ulardan chiqishga intilishi;

➤ boshqaruv, tartib intizomning haddan tashqari kuchsizlanib borishi;

➤ ularning o'z funksiyalarini bajara olmay qolishi yoki ularni ishlamay qolishi;

Bunday holat eng xavfli illat bo'lib, u individual jamiyatdan ajratadi, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, sotsial, ma'naviy tomonlardan begonalashtiradi. Ayniqsa, shaxsning mehnatdan, hokimiyatdan, jamoadan begonalashuvi kuchayadi. Jamiyat axloqi buziladi, qonun-qoida, tartib-intizom, farmoyishlari o'z ta'sirini yo'qotadi. Omma kuchga intiladi, ommaviy tartibsizlik, janjallar, guruhbozlik, sotsial tartibsizlik mamlakat bo'ylab keng yoyila boshlaydi.

Dyurkgeym mehnat taqsimotidagi "nonormal" shakllarni qanday qilib bartaraf etish mumkin, degan masaladni qo'ydi va shu masala bilan shug'ullandi. Uning fikricha, bu masalani hal etish uchun:

❖ konfliktni tinch yo'l bilan kapitalizm doirasida hal qilish;

❖ kurash va raqobatlarining amal qilish usullari, hajmi va ta'sirini pasaytirish;

❖ qoidalar to'plami ishlab chiqish;

❖ adolat va tenglik joriy etilishi kerak.

Sotsial og'ish sabablarini individ uning motivi va g'oyasidan izlamasdan, sotsial muhitning har xil holatidan, bunga ishonish, oila siyosiy faoliyat, turmush, professional guruh va boshqalardan izlash kerak, chunki ana shu sabablarga ko'ra, o'z-o'zini o'ldirish sodir bo'ladi, ko'p va ozligi ham belgilovchi faktlar rolini o'ynaydi.

Bundan tashqari u jamiyatning progressiv yo'nalishi bo'yicha rivojlanishi uchun imkoniyat beruvchi vosita hisoblanadi.

Dyurkgeym fikricha, yashash uchun kurashning boshqa bir nechta shakllari ham mavjud. Ularga:

A) aholi migratsiyasi.

B) kuchsizlar va ojizlarni zo'rlik asosida jismoniy yo'qotish.

C) fuqarolar (*fuqarolik, rangli inqiloblar, siyosiy va ma'naviy inqirozlar nazarda tutilgan*) urushini uyushtirish.

D) jinoyatchilik va boshqa salbiy harakatlarni kuchaytirish.

Lekin bu ishlarni amalga oshirish uchun indvidlarni qadriyatli yo'nalishini o'zgartirish talab etiladi. Chunki bu harakatning oqibati umumiy qadriyat tizimi bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham yagona

yo'l professional va mutaxassislar funksiyalargina jamiyat qadriyatlarini oqlaydi, mustahkamlaydi va unga nisbatan ijobiy intilishlarni kuchaytiradi.

Dyukrgeym anomiya holatidan qanday qutilish mumkin degan savolga javob berishga harakat qiladi va bu kasallikdan tinchlik yo'li bilan qutilish mumkin, buning uchun shaxsni ezimaslik, uni mashina holatiga olib bormaslik kerak degan xulosaga keldi.

Jamiyat gullab yashnashi uchun har bir shaxs ravnaq topish kerak. Jamiyat differensiallashuvi va zarar, uning asosida sotsial intiyozlar emas, balki shaxsning individual qobiliyati yotishi kerak. Shundagina tenglik, odillik va erkinlik kabi asoslarda eng ilg'or jamiyat barpo etilishi mumkin. Hozirgi kapitalistik jamiyatni takomillashtirib, shu uch asosiga qurmoq kerak deb yozdi.

"O'z-o'zini o'ldirish" asarida esa anomiya, bu - axloq inqirozi, chunki bu davrda individual ehtiyojlarni, hissiyotlarni boshqaradigan tizim buziladi. Shaxs muvozanati chayqaladi. Shaxs qaysi guruhga mansubligini his qilish qobiliyatini yo'qotadi. Intizom va birdamlik buziladi. Natijada xulq, fe'l-atvor chetga og'ish hollari ro'y beradi, irq va etnoslar o'rtasida ommaviy tartibsizlik harakati kelib chikadi. Eng harakatlisi - jamiyat va shaxs o'rtasida ajralish, axloqiy bo'shlik vujudga keladi. Chunki norma va qadriyatlar o'z vazifasini bajara olmay qoladi. Yangilari esa hali mukammal ishlab chiqilmagan, mavjudlari ham o'z ta'sirini jamiyatga, ommaga, individga o'tkaza olmay turgan davr hisoblanadi.

8.3. Voyaga yetmaganlar o'rtasida o'z joniga qasd qilishning nazariy sabablari, mavjud muammolari

Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan o'tkazilgan bir necha yillik ilmiy izlanish va so'rovlar natijasida, o'z joniga qasd qilish holatlarini keltirib chiqaruvchi quyidagi asosiy omillar mavjudligi haqida to'xtamga kelingan.

1. Tushkunlik holati va asabiy buzilishlar;
2. Alkogolizm va narkotik moddalarni iste'mol qilish, ular ta'siriga berilish;
3. O'z joniga qasd qilish haqida o'ylash, bunga tayyorgarlik ko'rish, bunga taalluqli bo'lgan zararli diniy g'oyalar;
4. Tanholik, qo'llab-quvvatlashni yo'qotish yoki himoyasiz qolish;

5. Qisilishlar, og‘ir muammolarga yo‘liqish va ularni hal qilishdagi irodasizlik;

6. Qariyalik davri;

7. Modellashirish, oilada o‘z joniga qasd qilish, irsiyat, bu borada kimgadir taqlid qilish;

8. Iqtisodiy muammolar yoki ishdagi ziddiyatlar, ular bilan bog‘liq boshqa holatlar;

9. Turmushdagi muammolar, oilaviy patologiya;

10. Asab buzilishi faktorlari, javobsiz muhabbat, zo‘ravonlik, jahl, qo‘rslik;

11. Jismoniy kasallik.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida o‘z joniga qasd qilish holatlari sabablari AQShda voyaga yetmagan Djon ismli bolaning o‘z joniga qasd qilganligi holati misolida quyidagicha izohlanadi.

“Aziz ota-onam va boshqalar. Meni qilmishim uchun kechiringlar, sizlarni jondan ortiq yaxshi ko‘raman. Iltimos, mening qilmishim uchun o‘zingizni ayblamang. Bu mening aybim. Agar men bu ishni hozir qilmaganimda baribir keyinchalik qilar edim. Hamma bir kuni hayotdan ko‘z yumadi, faqat men vaqtliroq vafot etaman. Hurmat bilan Djon”.

Aynan shu tariqa bir yil ichida AQShda 2000 nafarga yaqin “tineyjerlar” o‘z joniga qasd qiladi. Bo‘lib o‘tadigan suiqaatlarni yarmidan ko‘pi klinik asabiylashish, o‘zini kamsitilgan sezish, nochorlik kabi sabablar bilan bog‘liqdir.

Ammo, ko‘pgina joniga qasd qilmoqchi bo‘lgan “tineyjerlar” (13-18 yoshdagilar) o‘z jahllari, ichki qo‘zg‘olonlari bilan kurashishadi.

Bundan tashqari, joniga qasd qilmoqchi bo‘lgan o‘smirlar ko‘pincha asabiy holatda bo‘lib, oilaviy muammolar, qo‘pol munosabatlar, ijtimoiy tanholik girdobida bo‘lishadi. Ularning harakatlari qattiq asabiylashishdan, ota-ona yoki o‘zining ishsizligidan, oiladagi moliyaviy qiyinchiliklardan, do‘stlari bilan munosabatdagi muammolaridan kelib chiqadi.

Maktabdagi asabiylashish orqali o‘z joniga qasd qilish “tineyjerlar” orasida eng keng tarqalgan suitsid holatidir.

O‘quvchilarning bir guruhi uchun darslarni o‘zlashtirish katta va hal qilib bo‘lmaydigan muammo bo‘lsa, boshqalari uchun jamoada o‘z o‘rnini topish yana bir katta muammo hisoblanadi.

Ba'zi olimlarning fikricha yoshlik, o'smirlik davri o'z o'zidan muammoni keltirib chiqaradi.

Yoshlik tez o'sish davri bo'lganligi bois kundalik hayotdagi turli to'siqlar va muammolar bilan bog'liq kechinmalar va vaziyatlar bolalarni ularning yechimini topishga o'zicha yondashishga undaydi. Yechimi topilmagan muammolar esa ko'pchilik hollarda bola ongida o'z joniga qasd qilish bu yo'ldagi eng tez va qulay usul ekanligi kun sayin rivojlana boradi.

Yoshlar va o'smirlar jamiyatdagi holatlarga boshqa yoshdagi kishilardan farqli o'laroq qattiq asabiylashish va jahl bilan javob berishadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'smirlarning boshqalarga taqlid, ko'zlangan natijaga yeta olmaslik, o'z navbatida voyaga yetmaganlar ongining ta'sirchanligi o'z joniga qasd qilishga imkon tug'diradi.

O'tkazilgan izlanish va monitoring ko'rsatkichlari dunyoda joniga qasd qilish holatlari ko'pincha omadsiz tugashi va faqatgina 100/1 holatda mo'jiza ro'y berishini ko'rsatmoqda.

Joniga qasd qiluvchilarning biri hayotdan ko'z yummoqchi bo'lsa, boshqalari shu yo'l bilan og'ir vaziyatda bo'lganliklarini namoyish etishib, atrofdagilarni qo'rqitmoqchi bo'ladilar.

Tahlillarga ko'ra, dunyoda 1955 yildan (taxminan 65 yil) beri o'z joniga qasd qilish holatlari bir necha baravarga ko'paygan.

Buning sabablari tahlil qilinganda, quyidalar ma'lum bo'ladi.

Birinchiidan, aholi, xususan, yoshlar sonining ko'payib borayotganligi, o'qish hamda ishga joylashishdagi raqobat munosabatlari, bunda "orzularning barbod bo'lishi", hayotdan qoniqishning yo'qolishi hisoblanadi.

Ikkinchiidan, kundalik qiyinchiliklar oiladagi muammolar o'z-o'zidan oilaviy hamjihatlikni buzadi va a'zolarini bir-biridan uzoqlashtiradi. Natijada, oilada o'zaro nazorat qilish darajasi va ta'siri pasayadi hamda yoshlarni zararli ta'sirlar, xususan narkotik moddalar va spirtli ichimliklar iste'mol qilishiga olib keladi. Bu kabi zararli ta'sirlarga berilgan barcha shaxslar esa tushkunlikka berilib, irodasizlikni namoyon etishadi va oxirgi chora sifatida o'z joniga qasd qilishni tanlashadi.

Ko'rsatkichlar bo'yicha dunyo bo'yicha 75% (tineyerlar) o'smirlar narkotik va alkogolli mahsulotlar iste'mol qilishadi.

Oxirgi yillardagi mass-media, badiiy adabiyotlar va filmlar o'smirlarga namuna bo'lib, o'z joniga qasd qilishni ongiga singdirishini tezlashtirayotgan asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Masalan, 1987 yilda Nyu-Djersida (AQSh) bir guruh (4 nafar bolalar) o'z joniga qasd qilishadi va o'nlab o'smirlarga "namuna" bo'lishadi. Bu voqeadan so'ng bir hafta o'tib, yana 2 nafar o'smir o'z joniga qasd qilib, vafot etadi.

Profilaktik izlanishlar va tadqiqotlar o'tkazish orqali ushbu holatlar o'rganib chiqilgan bo'lsada, o'z joniga qasd qiluvchilarning aniq sonini aniqlashga inkon bermaydi. Chunki, aksariyat hollarda bu mavhum holatda ro'y berishi bilan muammoni chuqurlashtiradi.

Olimlar o'z joniga qasd qilishning oldini olish tizimini ishlab chiqish ustida izlanishayotgan bo'lsalarda, ammo hali bir to'xtanga kelishmagan.

Shunday bo'lsada, ular bu muammoga butun jamiyatning nazarini qaratibgina qolmay, balki uning yechimini topish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashmoqda.

8.4. O'z joniga qasd qilishning profilaktikasi

O'tgan asrlarga nazar tashlasak, davr va zamon doimo bir muammo - o'z joniga qasd qilish fenomeni bilan to'qnashadi.

Ta'kidlash joizki, ushbu hodisalar nafaqat doimiy qiziqish yoki ko'rsatkichlarni sharhlash balki, jamiyatda, oilada yoki jamoada mehurmuruvvatni, e'tiborni va shu bilan birga bu kabi hodisalarning ildizini, tag-tubini aniqlashni talab etadi.

O'z joniga qasd qilish muammosi barcha mutaxassislar, shu jumladan, shifokorlarni, psixologlarni, pedagoglarni, sotsiologlarni ham qiziqtirib kelmoqda.

Qisqacha qilib aytganda, o'z joniga qasd qilish hodisalarining sabablarini o'rganish keng tus olayotganligi, ilmiy tadqiqotlar olib borish jarayonida ko'proq e'tibor berilayotganligi yangi bir fansuitsidologiya fanini vujudga keltirmoqda.

Ma'lumki, har yili suitsidologiyaga oid maqolalar jumallarda chop etiladi, xalqaro simpoziumlar o'tkaziladi hamda ko'pgina davlatlarda o'z joniga qasd qilishni oldini olish bo'yicha assotsiatsiyalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Quyida keltirilayotgan olimlar va ekspertlar fikrlari psixologik uslub yordamida voyaga yetmaganlar orasida o'z joniga qasd qilishning oldini olishga bag'ishlangan.

O'z joniga qasd qilishning murakkabligi va har tomonlama fenomeni uning qay tarzda vujudga kelishini o'rganish va tushuntirishni nazarda tutadi.

Masalan, andropologik yondashuvda E.Krechmer va U.Sheldonning "Konstitusional" fikri berilib, u o'z joniga qasd qiluvchining karakterologik xususiyatini nazarda tutadi.

Muammoni psixologik yondashuv bilan hal etishda Z.Freydning "Vlecheniya k smerti", ya'ni "O'linga yo'naltirish" ortiqcha asab buzilik natijasida vujudga keltirilishi ta'kidlangan.

"Tushkunlik va melanxoliya" nomli ilmiy ishida Z.Freyd o'z joniga qasd qiluvchilarning xulqini yoritgan.

Uning fikricha, barcha o'z joniga qasd qiluvchilar o'z xulqi bilan shuni ko'rsatadiki, ularning muammolari hal etilmaydi va shu muammolar ularni oxiratga olib keladi.

Faqatgina sadizm o'z joniga qasd qiluvchilarning sirini fosh etishga qodir va o'z navbatida melanxoliya (qorong'ulik, yopiqlik) ni ham qiziqarli, ham xavfli qiladi.

Ma'lumki, nevrotik (asabiy) voyaga yetmagan bolalar hech qachon bironing joniga qasd qilishmaydi, aksincha, shu haqda o'ylasalar ham aynan o'z joniga qasd qilishadi.

Yana bir nazariya - "Geshtaltterapiya" o'z ichiga insonning hayotiy faolligini uzluksiz jarayon va atrof-muhit bilan chambarchas bog'liqligini oladi. Lekin, muloqotga bir necha fenomen to'sqinlik qiladi.

Bular har bir bosqichda paydo bo'lgan fenomenlar. Inson muloqot o'rnatmaslik uchun unga to'sqinlik qiladi.

Ular bizga himoyalovchi mexanizmlar orqali, ya'ni introeksiya, proeksiya, retrofleksiya va konflyuensiya berilgan.

Introektor odam boshqalar xohlaganini qilsa, aksincha, introektor-vektor o'z o'ziga qasd qilishga ko'proq qodirligi, biror kishi yoki avtoritetning unga nisbatan kamsitilishi sezilganda, u o'zini qurbonlikka undaydi.

Bu toifadagilar ushbu holatlarni atrof-muhit bilan bog'lashadi va odatda o'z xohish va emotsiyalari uchun javob bermasligi uchun qilishadi. Shunday qilib, inson shaxsiy "Men"ni olib tashlaydi, asab

tizimidagi destruksiyaga (buzilish) olib keladi va o'z joniga qasd qiluvchi shu qismlarni topmagan holda ularni yechimini izlashni boshlaydi. Eng achinarlisi, uning yechimi aksariyat hollarda suitsid (o'z joniga qasd qilish) bilan tugaydi.

Shunga qarab, u odamlardan asta-sekin uzoqlasha boshlaydi, chunki uning fikricha, boshqa kishilar unga nisbatan sovuqqonligini his eta boshlaydi, boshqalar uni yomon ko'rishi, nafratlanishi, yomonlik tilashini juda ko'p o'ylaydi va shu tufayli tushkunlikka tushadi.

Retrofleksiya (insonga berilgan barcha imkoniyat va hayoti) odam o'z mohiyatini to'xtatadi. Uning iztiroblari ichida qolib, o'zini yaxshi ko'rishni boshlaydi yoki nafratlanadi va tugallanmas ichki dialog olib boradi.

Ushbu hatti-harakatning ma'nosi shundaki, bu shaxsga nisbatan atrofda gilarining munosabati aynan qanday ekanligini juda chuqur tahlil qiladi.

Bu toifadagi bolalar aynan 13-18 yoshga kirganlarni tashkil etib, ta'lim tizimi xodimlari va mutasaddilaridan ushbu toifadagilar bilan aniq va manzilli profilaktik va tushuntirish olib borishni tashkil etishni talab qiladi.

Asosiysi, tushkunlikka tushgan ushbu toifadagi bolalarning har kunlik taxminiy ro'yxatini yuritish orqali ularni xulq-atvori hamda davriy harakatlaridagi (masalan oxirgi 1 oy yoki 10 kun va hok.) o'zgarishlar haqida ota-onasi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan tezkor axborot almashinuvi o'rnatishni taqozo etadi.

Masalaning murakkabligi shundaki, ko'pincha bu toifadagi bolalar boshqalarga nisbatan agressiv holatlarni namoyish etishmaydi va o'z o'zi bilan kurashadi.

O'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'z joniga qasd qilish ko'p holatlarda qizlarga xos bo'lyapti va bu holatlar atrofda gilar tengdoshlariga juda ham tez va kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Viloyat bo'yicha oxirgi 5 yil ichida sodir qilingan 92 ta o'z joniga qasd qilish holatlarining 52 tasi yoki 63 % aynan qizlar tomonidan sodir qilingan.

Shu bilan birga o'z joniga qasd qilish hodisasi boshqalar uchun "yuqumli" bo'lib, boshqalar uchun "o'mak" bo'ladi va kelgusida boshqa tengdoshlar orasida ham bunday ayanchli holatlarni keltirib chiqaradi.

Ilmiy tilda aytganda, voyaga yetmaganlar orasida "suitsidik to'liq" paydo bo'ladi.

Bundan tashqari, yana bir nazariya-psixonatologik yondashishda shaxs o'z joniga qasd qilishni ruhiy tushkunlik deb biladi.

Masalan, shu sohadagi yirik ekspert A.Lichko "O'z joniga qasd qilishni o'smirlarning chegarali ruhiylik muammosi" deb baholaydi.

Unga ko'ra, 10% o'smirlarning o'z joniga qasd qilishga xohishi bor, 90% yordam berishga chaqiradi va bu hodisalarning 80% ularning yashash uylarida sodir bo'ladi.

Suitsidal holat o'smirlarning psixonatik va nopsixonatik shakllarining buzilishidan kelib chiqqan yoki tarqalgan holdir.

A.Lichko tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar jarayonida o'rganishga jalb qilingan 300 nafar o'smir yigitlardan 34% da o'z joniga qasd qilish belgilari kuzatilgan, ulardan aynan qasd qilish niyatida bo'lganlari 20%, urinishlar 11%, avvaldan rejalashtirganlar 3% ni tashkil etgan.

Shundan kelib chiqib, A.Lichko 3 ko'rinishdagi: aniq, ko'rsatuvchan va affekt holatida sodir bo'ladigan suitsid holatlari mavjudligi haqida fikr yuritadi.

Demonstrativ suiqasd (ko'rsatuvchan) - teatrlashtirilgan sahna ko'rsatib, o'zini o'ldirishni namoyish etganday bo'lib, lekin haqiqatda hech qanday qasd qilmaslik. Barcha hatti-harakatlar o'ziga boshqalarning diqqatini jalb qilishdan iborat bo'lib, o'ziga boshqalar tomonidan rahm-shafqat keltirib, uni xafa qilganlarni shu tariqa jazolashdan iborat.

Affekt suiqasd - kuchli affekt (kuchli ruhiy hayajonlanish) holatiga tushgan odamning harakati soatlab yoki sutkalab davom etishi mumkin. Bunday toifadagilarda haqiqatdan ham o'z joniga qasd qilish ehtimoli juda ham yuqori bo'ladi.

O'z joniga qasd qilishda birinchi navbatda **tushkunlik** turtki bo'ladi va suitsid muammosi bolaning ongida "hal qilinishi lozim bo'lgan" masalalar ichida eng birinchi navbatda turadi.

Tushkunlik, yomon kayfiyat, umidsizlik, yordamga muhtojlikda ko'rinadi.

Tushkunlikka tushish 3 ta ko'rinishda bo'ladi:

– biror-bir faoliyatga bo'lgan qiziqishning yo'qolib borishi;

– "ishtahaning tushib ketishi" (asosan o'tish davridagi jinsiy rivojlanishdagi nuqson yoki kamchiliklar, shu boradagi kamsitilish, turli ko'rinishdagi ijtimoiy yoki boshqa muammolar);

– hayotga bo‘lgan qiziqishning pasayishi.

Ekspertlar o‘z tahlillarida, o‘z joniga qasd qiluvchilar orasida nafaqat ruhiy kasalikka chalinganlar, balki sog‘lom o‘smirlar ham uchrab turishini ta’kidlashadi.

Ularning fikricha, moliyaviy inqiroz yillarida kuzatilgan depressiya va ishsizlik davrida o‘z joniga qasd etish holatlari ko‘payadi.

Misol tariqasida, XX asrda AQShda o‘z joniga qasd etish holatlari barqaror ekanligi kuzatilgan bo‘lsa, (100.000 aholidan 10-12 ta) XXI-asrning boshidagi inqiroz yillarida bu ko‘rsatkichlar 15,5 barobarga oshgan.

Mashhur olim O.Dark tomonidan o‘z joniga qasd qilishning falsafiy-psixologik qarashlari keltirilgan.

Uning fikricha, o‘z joniga qasd qilish-ijodiy muhitning o‘zgarishi bo‘lib, inson rassom sifatida o‘z qobiliyati va mohirligini butkul ishlatib bo‘lganligi uchun joniga qasd qiladi va o‘z joniga qasd qilish rassomning eng oxirgi san’at asari bo‘lib, rassom asarlari qaxramonlarining hayoti va o‘lishini o‘ziniki deb biladi.

“Oddiy qurbon” atigi bir marta o‘ziga xos uslubda mahoratini ko‘rsatishi mumkin.

Muallif o‘z hayotidagi kamchiliklari, o‘zi xohlagandek hayot kechirishi oxirgi ifodasini ana shu ko‘rinishda aks ettiradi.

Ushbu ekspert tomonidan o‘z joniga qasd qilishning eng asosiy sabablari sifatida tashqi dunyo bilan kelishmovchilik, qo‘rquv, uyat, o‘z aybining tan olinishi va impotensiya holatlari deb e’tirof etiladi.

Bu ijtimoiy holat turlari safdan chiqib qolish, o‘z zamondoshlari, qarindoshlari va oilaviy rishtalariga umuman begona bo‘lishda o‘z aksini topadi.

Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) tomonidan ishlab chiqilgan o‘z joniga qasd qilishning 800 ta sababi mavjud bo‘lib, ulardan 41 % aniq emas, 19 % jazo oldidagi qo‘rquv, 18 % ruhiy kasallik, 18 % uydagi kelishmovchiliklar, 2 % ishqiy kechinmalar, 2 % moliyaviy yo‘qotishlar, 4 % hayotdan to‘yish, 1.2 % jismoniy kasallik tufayli ro‘y beradi.

Shuningdek, JSST tomonidan o‘z joniga qasd qilishning 80 ta usuli ko‘rsatib berilgan.

Qayd etish kerakki, usullar qasd qiluvchilarning qaysi hududdan ekanligiga qarab o‘zgaradi.

- O'zini osish usulini ko'plab (84-90%) qurbonlar tanlashadi.
- O'zini otuvchilar. (AQShda bu usuldan 60% qurbonlar foydalanadi)
- O'zini zaharlash. Dori-darmon vositalarining me'yorida ortiq iste'mol qilish natijasida 15-18 % qurbonlar olamdan o'tadi.

8.5. Suitsidal xulq-atvorning psixodiagnostikasi

O'z joniga qasd qilishning, hatti-harakatlarining psixodiagnostik metodlarning ko'pligi mavjud bo'lsa ham psixologlar ba'zi holatlarda ularni to'liq ta'riflay olishmaydi.

Umuman, inson psixologik holatlari, uning shaxsi katta sir bo'lganligi sababli bu ijtimoiy ahamiyatli muammo o'z o'zidan uni qanday yo'llar bilan yechishga undaydi.

Asosan, bunday tadbirlar yoshlar, o'smirlar orasida olib borilishi lozim.

O'z joniga qasd qilish variantlari tahlil qilganda, yoshlar va o'smirlar bunday harakatlarni ularga xos uslubda bajarganliklari namoyon bo'ladi.

Shuning uchun ruhshunoslikda bu kabi holatlar yuz berishi mumkin bo'lgan va uning oldini olish uchun kerakli psixoterapevtik yordam ko'rsatilgan diagnostik usullar majmuasini ishlab chiqish zarurati doimiy va tuganmas muammo bo'lib hisoblanadi.

Odatda psixologlar bunday masalalarni hal qilishda juda yaxshi samara va natija beradigan testlar va metodlar majmuasi hamda metodikalardan foydalanadilar.

Misol uchun, G.Rorshax (siyoh dog'lari), Rozensveyg testlari ijtimoiy dezadaptatsiya va qiyin holatlarda o'zini boshqarishni aniqlash uchun o'tkaziladi.

Izlanuvchilar ko'p holatlarda piktogrammalardan foydalanadilar.

Yuqorida sanab o'tilgan uslublardan tashqari ruhshunoslar va psixoterapevtlar o'tkazilgan uslublarning qay darajada samaradorligini tekshirish uchun turli xil usul va muolajalardan foydalanishadi.

Masalan, V. Frankl o'z mijozlariga asosiy hodisalarni o'tmishda va kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hollarni bir tekisda qo'yib chiqish kerakligini aytganda, ularning bu vazifa oldida o'zini yo'qotishi va dovdirashi kuzatilgan.

Shu masalalarni yechish uchun qo'llanadigan skrining holatlar va usullar juda ixcham bo'lishi kerak, ular tez va qulay ishlab chiqiladigan holatda bo'lishi shart.

Suitsidolog M.Xaykina "Psixologik holatni baholash" metodikalar majmuasidan foydalanib, bexavotirlik darajasi va johillikni aniqlashni tavsiya etadi.

Test natijalarini tahlil qilishda quyidagi tavsiyanomalar ko'zda tutilgan.

– Shaxsiy bexavotirlik yoki shaxsning xavotirga moyilligi.

– Frustratsiya - orzuga intilish yo'lida ro'y beradigan real va noreal to'siqlar.

– Johillik - ko'tarinki ruhiy aktivlik, zo'ravonlik yo'li bilan yetakchilik qilish.

– Rigid holat - taqdirini o'zgartirishi kerak bo'lgan holatlarda qaror qabul qilish oldidagi xavf.

M.Xaykina tomonidan ishlangan uslublarni to'g'riligini isbotlash uchun 3 yil oldin o'z joniga qasd qilmoqchi bo'lgan 16-17 yoshli qizlarni fe'l-atvorini o'rganish tadbirlari o'tkazilgan.

Bu o'z joniga qasd qiluvchilarning xavotirlik darajasi nazorat guruhidagilarga nisbatan pastroq.

Frustratsiya ("aldanish", «"omadni kutib yashash yoki uni kelishiga umidsizlik") shkalasida aniq farqlar kuzatiladi.

O'z joniga qasd qiluvchilar guruhida frustratsiya darajasi yuqoridir.

Tashxisiy ishlarning ikkinchi bosqichida M.Xaykina "tugallanmagan gap" metodikasini qo'llashni tavsiya etadi. Bu uslub sinaluvchining dunyoga, odamlarga bo'lgan munosabatini o'rganishga yo'naltirilgan.

Sinaluvchi quyidagi gaplarni davom ettirishi kerak.

1) "Ertaga men..."

2) "Men maktabni tugatganimda..."

3) "Bir kuni kelib..."

4) "Men yashashni xohlayman, chunki..."

Natijalarni qayta ishlashda ruhshunoslar o'smir tomonidan atrof-muhit va odamlarni qabul qilish, munosabat bildirish xususiyatlarini o'rganishga e'tibor berishgan.

Ushbu "Tugallanmagan gaplar" metodikasini tadqiqot sifatida o'tkazganda, 2-3 yildan keyin ham sinaluvchilarning atrof-muhitni qabul qilish xususiyatlari isbotlangan.

O'z joniga qasd qiluvchilardan farqli o'laroq nazorat guruhini tashkil etuvchilar optimalistik ruhiyat bilan o'zlarini namoyon etadilar.

8.6. Tibbiy-psixologik qayta tiklanish o'z joniga qasd qilishni profilaktika qilish omili

Ushbu uslublar "O'z joniga qasd qiluvchilar xavfi guruhi"ning kompleks qayta tiklanish tadbirlari asosini tashkil etadi. Bu dasturlar mijozlarning umumiy holatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan.

Ma'lumki, bunday dasturlarga aholining eng zaif bo'g'ini: bolalar, o'smirlar va nogironlar ehtiyoj sezadilar.

O'z joniga qasd qilish xulqining profilaktikasiga yo'g'rilgan ikkita dasturni misol tariqasida keltiramiz.

Ulardan biri bolalar va o'smirlarga mo'ljallangan bo'lib, ular hayotining sezilarli qismini qamrab oladi.

Boshqasi esa jangovar harakatlar olib borilgan joylardan qaytgan harbiy xizmatchilar uchun mo'ljallangan.

Psixolog olimlar N.Morozova va M.Ovchinnikovalar bolalar uchun tibbiy-psixologik yordam va ularni qo'llab-quvvatlash uchun kompleksli dasturning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishgan. Bunda asosiy e'tibor profilaktikaga qaratilgan.

Ularning ta'kidlashicha, bolalarning asosiy qatlami uchun kompleksli tibbiy-psixologik xizmatni shakllantirish o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish yo'lida tashlangan ishonchli qadamdir.

Xizmat jarayonining bosh yo'nalishi-ruhiy gigienik bo'lib, bolalar va o'smirlarning ruhiy sog'lomligini mustahkamlash va ko'riqlashga qaratilgandir.

Xizmatning ajratib ko'rsatiladigan jihatlaridan biri bu 3 tomonlama yondashish:

Ruhiy-pedagogik, tibbiy va ijtimoiy ya'ni, har xil mutaxassislarning hamkorlikda faoliyat olib borishi.

Ish yo'nalishlarining ikkita asosiy mezonini ajratish mumkin:

– o'qitish va tarbiyalash sharoitlarini optimallashtirish.

Bunda o'kuvchilar shaxsiyatini shakllantirishda ularning to'laqonli shaxs bo'lib rivojlantirishga ko'maklashuvchi vositalarga e'tibor

qaratiladi. Bunda tashqi muhit ta'sirlaridan asrash ham muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilar shaxsiyatini rivojlantirishda bolalarning ruhiy-asab tizimining barvaqt shikaslanishining oldini olish bo'yicha ogohlantirish.

Bu yo'nalishning asosiy yo'nalish va dasturlari ruhiy profilaktikadir.

Bu yo'nalishning asosiy maqsadi bolaning ruhiyatiga ratogen ta'sirning oldini olish va uni yo'qotishga qaratiladi. Bu birinchi navbatda bola rivojlanishining ruhiy-ijtimoiy muhitini sog'lomlashtirish, ya'ni ota-onalar va pedagoglar bilan ishlashni jadallashirishdan iboratdir.

Bundan tashqari, ota-onalarga ixtisoslashtirilgan yordam ko'rsatilib, tarbiyaviy ko'nikmalarini shakllantirish, muammoli oilalar bilan ishlashga asosiy e'tibor qaratiladi.

Bolalarning o'z tengqurlari, ulardan kattalar bilan muloqot qilishida yuzaga keladigan noqulayliklar, o'z harakatlarini noadekvat baholashni cheklash uchun ijtimoiy treninglar guruhiiy tartibda o'tkaziladi. Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, muammoli vaziyatlarda bolalarda stressli holatlarni yumshatishga ularni ruhiy-emotsional zo'riqishlardan xalos etish juda muhim rol o'ynaydi.

Individual yondashuvni amalga oshirish negizi-bu o'quvchilarning ruhiy va psixomatik buzilishlarini, intellektual va shaxsiy rivojlanishning kamchiliklarini o'z vaqtida aniqlashdir. Bu o'quvchilarning ruhiy rivojlanishi va sog'lig'i holatining tashxisi hisoblanadi.

Tibbiy tashxis orqali o'quvchilarda umumiy somatik va psixonervologik tekshirishlar o'tkazilib, ular orasidan xafli guruhlar kontingenti aniqlanadi.

O'z joniga qasd qilish holatlarning yuqori darajasida psixologik maslahat va psixoterapiyatavsiya etiladi. Bunday davolashda mijozning so'zlarini tinglash va uning yolg'iz emasligi hissi va tushunishi asosiy natijalardan biridir.

Bu borada viloyatdagi ta'lim muassasalarida bolani ma'naviy, ruhiy va jismoniy sog'lomlashtirishga qaratilgan mavjud shtat birliklari doirasida tibbiy-ruhiy markazlarni tashkil etib, ularning oldiga aniq vazifalarni qo'yib, ijrosini nazorat qilish maqsadga muvofiq.

Chunki, o'tish davridagi bolani hayot bilan bog'lovchi ishlar va tadbirlar qancha ko'p bo'lsa o'z joniga qasd qilish ehtimoli shuncha kam bo'ladi.

Bolalarda maxsus dastur oshkor qilmagan holda o'z joniga qasd qilish holatlariga qarshi tura olish kayfiyati va ruhiyatini shakllantirish zarur. Bunda asosiysi, ularda hayotiy muloqotni rivojlantirish, bir-birini tushunish, yangi ijtimoiy aloqalar va ko'nikmalarni rivojlantirish, stress holatlarini yengish qobiliyatini test yoki boshqa usullarda tekshirish hisoblanadi.

Zamonaviy hayotda o'z joniga qasd qilish-noxush ijtimoiy holat bo'lib hisoblanadi.

Bizning madaniyatimiz va milliy odatlarimizda o'z joniga qasd qilish qaxramonlik yoki gunohni yuvuvchi qurbonlik sanalmasligini voyaga yetmaganlarga chuqur va har tomonlama tushuntirish lozim bo'ladi.

O'z joniga qasd qilish holatlarining har birida o'z sabablari bor. Faqat ular o'z joniga qasd qiluvchilar o'rab olgan kishilarga tushunarli emas. Suiqasdning asosiy sabablari-jazodan qo'rqish, ruhiy kasallik, uyda va ishdagi noxush holatlar, pul yo'qotishlar va kambag'allik, hayotdan "to'yishlik", somatik kasalliklar bo'lib hisoblanadi.

Suiqasd qiluvchilarning bu dunyodan o'tish yo'llari ko'pgina omillarga bog'liq: madaniy, tasnifiy va boshqaqalar.

O'z joniga qasd qilishning eng ko'p tarqalgani o'zini osishdir.

Suiqasd holatinig rivojlanishiga ko'pgina omillar ta'sir etadi va ko'p holatlarda qaysi bir omil hal qiluvchi ekanligi noma'lum bo'ladi.

Suiqasdning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi omillarga psixologik, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ommillar kiradi.

O'z joniga qasd kilmoqchi bo'lib, qasd qilolmaganlar bilan psixologlar kamroq ishlashi uchun suiqasd holatidagi kishilar guruhi bilan rehabilitatsiya va readaptatsiya maxsus dasturlari asosida ishlashi zarur.

Bu dasturlar asosan muloqotni, bir-birini tushunish, yangi ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish hamda stress holatlarni yengib o'tishga yo'naltirilgan.

Psixolog mutaxassislarning ko'payishi va mijozlar bilan ishlash texnologiyasining rivojlanishi bilan suiqasdli holatlarning paydo bo'lishi muammolarini ko'p hollarda hal qilish mumkin.

Ayrim chet davlatlar statistikasi tahlil qilinganda, masalan, oxirgi o'n yil ichida Rossiyada yoshlar o'rtasida o'z joniga qasd etish holatlari ko'payganligini ko'rsatadi.

12-14 yoshdagi shaxslarning 30%ga suiqasd haqidagi fikrlar, 6% o'g'il bolalar, 10 % qiz bolalarda suiqasd qilish bilan bog'liq harakatlar kuzatilmoqda.

Mutaxassislar fikricha, 10% suiqasd harakatlarning maqsadi o'z joniga qasd etish, 90% boshqalar diqqatini o'ziga jalb qilishdan iborat.

Statistika bo'yicha har bir vaqtda shaxsiy fojea, halokat, muammolarga yechim topmaslik, hayot oldidagi qo'rquvdan kelib chiqadi.

O'z joniga qasd etish sabablarini tekshirish natijalari 62% o'smirlarning o'z joniga qasd etishi oilaviy mojarolar va yetishmaslikda, kattalar tomonidan zo'ravonlik, qo'rquv, ba'zi pedagoglar tomonidan nojo'ya hatti-harakatlar, o'qituvchilar, sinfdoshlar, o'rtoqlari orasidagi mojarolar, atrofdagilarning befarqligi ekanligi aniqlangan.

8.7. Suiqasdning turlari, haqiqiy suiqasdlik xulqi va suiqasdlik holatining dinamik rivojlanishi

O'z fe'l-atvorini ochiq oydin namoyon etish. Bu turdagi o'smirlar hayot qiyinchiliklarning muammolarini yecha olmaslik va o'zlariga boshqalarning diqqatini qaratish orqali o'z joniga qasd qiladilar. Bu yordam so'rash usuli o'z joniga qasd qilish o'ziga real zarar yetkazish emas, atrofdagilarni qo'rqitish maqsadida, o'smirlarning muammolari ustida o'ylanib qolish, kattalarning ularga adolatsiz munosabatlarini namoyon etish maqsadida bo'ladi.

O'z xulqini namoyish etish, tomirlarni kesish, dori-darmonlar orqali zaharlanish, yoki o'zini osish orqali namoyon etiladi.

Bu turdagi harakatlar yorqin namoyish etiladi. Bu paytda o'smir impulsiv, aniq rejasiz harakat qiladi. Affektiv suiqasdlik holatda o'smirlar o'zlarini osadilar yoki zararli vositalar orqali o'zlarini zaharlantiradilar.

Bu turda aniq o'ylangan reja tuziladi. O'smir o'z joniga haqiqiy qasd qilishga tayyorlanadi va qarindoshlariga, do'stlariga o'zining harakatlarining sabablari va ularni kechirishlarini so'rab xat qoldiradi.

Bu harakatlar rejalashtirilgan bo'lib, ko'pincha o'lim bilan tugaydi. Haqiqiy suiqasdlikka o'zini balandlikdan sakrash yoki osish orqali

o'tadi. O'z joniga qasd qilish juda g'ayritabiiy va keskin qadam bo'lib hisoblanadi va shuning uchun uni ijro etish tezkorlik bilan hal etilmaydi. Bunda uzoq vaqtdagi kechinmalar va bu holatdan chiqish yo'llari izlanadi.

Suiqasdlik holatining dinamik rivojlanishi:

Birinchi bosqich - o'lim haqida savollar bosqichi va hayot mazmuni. Bu suiqasdlik harakatini bajarishda moslashish xususiyati (o'qishga qiziqishning pasayishi, muloqotning chegaralanishi, yuqori darajadagi asabiylashish).

Bu paytda suiqasdlik fikrlari paydo bo'ladi, ya'ni "men bu hayotdan bezor bo'ldim", "yotsamda, uyg'onmasam" va boshqalar.

Oxirgi bosqichda o'smirda passiv fikrlar paydo bo'ladi, ya'ni o'z hayotidan mahrum etish, o'z joniga qasd etish. Bu bosqichda o'lim haqida faraz qilish, fantaziyalar paydo bo'ladi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, 75% o'smirlar o'rtasida o'z joniga qasd qilish, suiqasdlik holatlari bo'lgan. Bunaqa turdagi fikrlar baholanmaydi yoki "qo'rqitish" sifatida qabul qilinadi. Har bir o'z joniga jiddiy qasd etuvchi kishilar bu haqida atrofdagilarga o'zining harakatlari haqida bildiradi.

O'z joniga qasd etish asta-sekin paydo bo'ladi va 70% voyaga yetmaganlar o'z joniga suiqasd etadi.

O'z joniga qasd etuvchilar ularni boshqalar eshitishini va ularga so'z berishlarini xohlaydilar. Lekin ko'pincha bunga erisha olmaydilar.

Ikkinchi bosqich - bu suiqasdlik fikrlari.

O'z joniga qasd qilish, reja tuzish, rejani amalga oshirish uchun uning vaqtini, joyini aniqlash.

Uchinchi bosqich - suiqasdni amalga oshirish. Suiqasdning paydo bo'lish fikridan uni amalga oshirish vaqtigacha **presuitsid** deyiladi.

Davomiyligini daqiqalar va oylar orqali sanash mumkin. Agar bola bir marta o'z joniga suiqasd qilsa, o'sha bolaga e'tibor qaratiladi.

Bu paytda suiqasdlik harakatlari kamroq bo'ladi. Biroq, taxminan 3 oydan keyin bolaning tashqi ko'rinishdan tinchligini ko'rib unga e'tibor bermay qo'yishadi va doimiy hayot tarzini davom ettiradilar, chunki bolada o'sha holat o'tdi degan fikr paydo bo'ladi. Shu paytda katta yoshdagi kishilar bola holatiga qayg'urmasligini sezib, u yana o'z joniga qasd etishi mumkin.

Shuning uchun uzoq va davomli tarzda bolani kuzatish, u bilan suhbatlashish va boshqa profilaktik ishlarni olib borish zarur.

O‘z joniga qasd etish kattalar bo‘lmagan paytida, mavhum holatda maktabgacha va boshlang‘ich sinf yoshi paytida bo‘lib o‘tishi mumkin.

Bola ochlik e‘lon qilishi, uzoq vaqt davomida vannani sovuq suv bilan to‘ldirib o‘tirishi, derazadan sovuq havo bilan nafas olishi yoki qor va muzqaymoq yeb shamollashi va hokazolar kuzatiladi.

Bolalar va o‘smirlar yoshida suiqasdning sabablari:

1. O‘lim haqida tushunchaga ega emaslik. Bolalar ongida o‘lim hayotning tugashi emas, hamma narsani orqaga qaytarish mumkin degan tor tushuncha bo‘ladi.

2. O‘smirlar o‘rtasida o‘lim haqida tushunchaning (o‘rtacha 18 yoshda) kech shakllanishi.

Ular “Vatansiz va bayroqsiz” odatda hech kimga kerak emasliklarni his etadilar.

3. Erta jinsiy hayotga kirishish. Bu paytda o‘smir o‘ziga “hayotni qanday davom ettirish kerak” degan ma‘noda uzluksiz savol beradi (sevgilisini yo‘qotish, homiladorlik va boshqalar), ya‘ni maqsadsiz yashayotganligini o‘ylashadi.

4. Oiladagi yetishmovchilik.

5. O‘z-o‘zidan buziladigan xulq (ichkilikbozlik, giyohvandlik, jinoyatchilik) ko‘p hollarda suiqasdlilik xulqi 15 yoshgacha bo‘lgan yoshlarda oilaviy, maktab ichida yoki guruhlar ichida munosabatlar bilan bog‘liq.

6. Tushkunlikka tushish.

Tushkunlikning psixogen sabablari yo‘qotishlar bilan bog‘liq bo‘lib, do‘stlari, yaqinlari, sog‘ligi yoki boshqa odatiy narsalar (masalan, uy-joyning almashishi) tufayli yuzaga keladi.

Lekin uning hayotidagi oxirgi kun yaqinlashayotganligini bilmaydi. Shuni esda tutish kerakki, tushkunlikning fiziologik va psixologik tushuntirish mumkin. Ko‘pgina tushkunlik holatiga tushgan bolalar borliq bilan uzviy uzilishlar bo‘lmaydi, o‘zlari haqida qayg‘uradi va davolanish uchun yotqizilmaydi.

O‘z joniga qasd qilishiga urinishlariga jiddiy qarash kerak. Yordam haqidagi chaqirish, albatta, inobatga olinib, yolg‘izlik krizisiga (inqiroz) yordam qo‘lini cho‘zish kerak.

O‘smirlarning ruhiy profilaktikasi o‘z-o‘ziga qasd qilish profilaktikasining asosi hisoblanadi. O‘z-o‘ziga qasd qilishni oldini olishda ota-onalar muhim rol o‘ynaydi.

Bolada tushkun kayfiyat sezilganda, ota-onalar darhol bolani bu kayfiyatdan chiqarishlari lozim.

Birinchidan, bola bilan suhbatlashish kerak, uning holati haqida savollar berib, kelajak to'g'risida maqsadli rejalar tuzishiga yordamlashish lozim. Bolada ijobiy kayfiyatni uyg'otish, o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash lozim.

Ta'kidlash joizki, bolani boshqa ijobiy bolalar bilan qiyoslash ularning o'ziga beradigan bahosini pasaytirish mumkin.

Bunda ilgari davr o'smirlari bilan hozirgi o'smirni qiyoslab, ijobiy kelajak o'smiri obrazini ko'rsatish lozim.

Ikkinchidan, bola uchun qiziqarli bo'lgan yangi va foydali mashg'ulotlar bilan shug'ullantirish, har kuni biror yangilikdan xabardor etish, avval bajarmagan ish yoki mashg'ulotiga jalb etish, kundalik hayotiga yangilik kiritish, sport to'garagiga qatnashtirish yoki hech bo'lmaganda ertalabki jismoniy mashg'ulotlarni qilishga odatlantirish, yangi sayohat marshrutlarini tuzish, dam olish kunlarida qiziqarli sayohatga olib borish, uy ishlarini bajarishda yangi usullarni topish, kino, teatr va ko'rgazmalarga olib borish mumkin.

Uchinchidan, o'smiringa kun tartibiga rioya qilishni o'rgatish muhimdir. Uning to'g'ri ovqatlanishiga, dam olishiga, toza havoda sayr qilishiga, harakatchan sport to'garaklari bilan shug'ulanishiga e'tibor berish lozim.

Bu davrda o'smirning jismoniy holati va tayyorgarligiga alohida e'tibor berish lozim.

To'rtinchidan, psixolog va psixoterapevt yordamidan foydalanish lozim.

Ta'lim muassasalarida munosabatlarni optimallashtirish

O'smirlar orasida o'z joniga qasd qilishning yana bir sababi shaxslararo munosabatlarning buzilishi bo'lganligi bois sinf jamoalarining shakllan-tirish, pedagoglar va o'quvchilar orasidagi muloqotni normallashtirish lozim bo'ladi.

O'quvchilarning o'quv jarayonini optimallashtirishni, o'quvchilarni jamoat ishlariga jalb qilish, maktabda o'z-o'zining boshqarishni tahlil qilish, madaniyat, sport, fan sohalarida o'quvchining faoliyatini shakllantirish choralarni topish zarur.

Shuningdek, o'quvchilar bilan muloqot hurmat va ishonch asosida qurilishi lozim. O'quvchilar orasida o'z joniga qasd qilishning oldini olish uchun o'qituvchi quyidagilarni bajarishi lozim:

- Bolalarda o'z kuchiga ishonchni kuchaytirish;
- Ularda ishonch va umidni singdirish;
- Ularning xulqini nazorat qilishi, o'quvchilar bilan munosabatni tahlil qilishi.

Ba'zi sinf rahbarlarining davomati va o'zlashtirishini nazoratdan chetda qoldirishi bolalarga o'z vaqtida yordam berish choralari tashkil qilishga xalaqit beradi.

Bu borada maktab ma'muriyatining o'qituvchilarning o'quvchilarga bo'lgan muomalasi doimiy nazoratga olinishi alohida ahamiyatga egadir. O'quvchini shaxsiyatiga tegish, kamsitish, psixologik va jismoniy kuch ishlatmaslikning oldini olish maqsadida alohida choralar ko'rish lozim.

Oxirgi tahlillar, jamiyatning asosiy tibbiy muammolaridan biri o'z joniga qasd qilish bo'lib, ta'lim muassasalari o'quvchilari orasida o'z joniga suiqasd qilish jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda o'limning birinchi o'ntaligiga kirishini ko'rsatmoqda.

Ko'pincha o'z joniga qasd qilish ruhiy kasallik natijasida yuzaga keladi. Ruhshunoslar ham jamiyat loqaydligi oldida ojiz bo'lib qolishadi. Afsuski, yetarli tayyorgarliksiz fojeaviy xatolarga yo'l qo'yilmokda.

Suitsid – faqat insonga xos bo'lgan holat bo'lib, yer yuzida boshqa biror-bir tirik mavjudot o'z hayotini anglagan holda to'xtatmaydi.

2009 yilda Rossiyada notabiiy o'limda 20,6 ming bola va o'smir oxirgi 5 yillikda esa 112 ming bola va o'smir dunyodan ko'z yumgan.

Oxirgi o'n yilda o'z uyidan, ota-onasidan va ta'lim-tarbiya maskanlaridan qochgan bolalar soni 3 barobarga oshgan.

Ruhiy va jismoniy zo'ravonlik, inson shaxsiyatini kamsitish, ta'lim-tarbiya jarayonida internatlarida, bolalar uylaridagi zo'ravonliklar ko'p bolalar hayotida uchraydi.

Ma'lumki, mehribonlik, mehr-oqibatning susayib borayotganligi jamiyatda eng avvalo bolalarga ta'sir qiladi. Ularning kechinmalari, muammolariga oilada ota-ona tomonidan, maktabda esa o'qituvchilar tomonidan kam e'tibor beriladi, aksariyat hollarda tarbiyasi og'ir bolalar va o'smirlardan maktablar "tezroq qutulish" choralari ko'riladi.

Dunyo bo'yicha sinflardan chiqib ketgan o'quvchilar so'rovnomasi shuni ko'rsatadiki, 43% maktabdan chiqib ketgan o'quvchilar o'qituvchilar bilan bo'lgan kelishmovchiliklarni sabab qilib ko'rsatishgan.

Ayrim hollarda bolalar ta'lim maskanlarida o'z ishiga mas'uliyatsiz, shu o'ringa noloyiq bolalar hayotiga qiziqmaydigan rahbar xodimlar tayinlanganligi ham muammoni chuqurlashtiradi.

Kattalarning yoshlarga bo'lgan vahshiy munosabati o'smirlarni tushkunlikka olib keladi, depressiyalar natijasida ular o'z joniga qasd qiladilar.

JSST ma'lumotlariga ko'ra, yoshlar orasida o'z joniga qasd qiluvchilar soni oxirgi 20 yilda ikki baravarga ko'paygan. Tadqiqotchilar 10% o'z joniga qasd qiluvchilar o'zini o'ldirish maqsadida, 90% esa o'ziga e'tiborni qaratish maqsadida qilinishini ma'lum qilishmoqda.

8.8. Bolalar va o'smirlar suitsidining sabab va motivlari

Keyingi yillarda bolalar va o'smirlar o'rtasida o'z joniga qasd qilish hodisasining ko'payib borayotganligi kuzatilmoqda. Tabiiyki, bu o'z navbatida insoniyat va jamiyat uchun yot bo'lgan o'z joniga qasd qilishdek illatning oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqishni takozo etadi. Barcha salbiy illatlar singari o'z joniga qasd qilish hodisasining oldini olish uchun esa uning kelib chiqish sababini aniqlash lozim bo'ladi.

Suitsidal xulqning sabab va motivlari o'rganish yuzasidan turli yillarda qator tadqiqotchilar tomonidan samarali ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ularda har bir yosh davrida suitsidga sabab buluvchi omillarni tahlil qilishga harakat qilinadi. Jumladan, bolalar va o'smirlarda o'qituvchisining kundalik daftariga yomon baho qo'yish, ota-onasi va yaqinlarining tanbehi, so'rab terlashi, maktab o'quv dasturlarini o'zlashtirilmalik, ruhiy nosog'lomlik va o'smirlar yoshiga xos bo'lgan emotsional beqarorlik tufayli suitsidal urinishga qo'l urilsa, ayni kuch g'ayratga to'lgan yetuklik chog'ida yoshlikdagi orzu umidlarining ruyobga chiqmaganligi, oilaviy nizolar va azob uqubatdan qutulish uchun o'z joniga qasd qilishni tanlashligi qarilik yoshi davrida esa keksalik azobidan va birovga og'irliqi tushayotganligidan suitsidal urinishga qo'l uriladi.

Ma'lumki, suitsidal urinishni amalga oshirish uchun ma'lum shart-sharoit, vaziyat bo'lishligi zarur bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, suitsidal xulqning sabab va bahonasidan shart-sharoit omilni ajrata bilish muhimdir. Omil deyilganda shunday voqea hodisalar majmuasi tushuniladiki, garchand konkret oqibatni yuzaga keltirmasada, suitsidal xulqning rivojlanishi uchun qulay va zarur

imkoniyat, sharoit yaratiladi. Biror bir voqea-hodisa yo'qki, u shart-sharoitsiz rivojlansa va amalga ohsa. Ba'zan bir xil sabab turlicha voqea va hodisalarga olib kelishi mumkin. Bu shart-sharoit omilga bog'liqdir.

Bahona esa voqea-hodisalarning amalga oshirilishi uchun sababga turtki bo'ladi. Bahona tashqi va tasodifiy xarakterga ega bo'lib, u voqea-hodisalar o'rtaidagi sababiy bog'liqlik yoki o'zaro aloqani ta'minlash xizmatini bajaradi. O'z navbatida bahona suitsidning motivi haqida ayrim ma'lumotlarni ham berishi mumkin. Ba'zan esa bahona, shart-sharoit hamda suitsidal xulq motivi bilan bir qatorda suitsidning sababini ochib berishi mumkin.

Ma'lum bo'lishicha, bolalar va o'smirlar suitsidining maqsadini aniqlash har doim muvaffaqiyatli kechavermas ekan. Bunga birinchidan ota-onalar va yaqin kishilarning "bo'lgan ish bo'ldi, baribir o'lganni tiriltirib bo'lmaydi" qabilida ish tutishlari natijasida to'la haqiqatni aytishdan bosh tortishlari sabab bo'lsa, ikkinchidan suitsidal urunish ba'zan intim munosabatlar tufayli sodir etilganligi uchun suitsidentlarning o'z hatti-harakatlari haqida suz yuritishdan bosh tortishi suitsidal urunishning haqiqiy sabab va motivlarini aniqlash jarayonini qiyinlashtiradi. Shuning uchun bolalar va o'smirlar suitsidining sabab va motivlarini aniqlash bir qator kompleks fazifalarni amalga oshirishni taqazo qiladi. Suitsident shaxsi xususiyatlari jumladan, xarakter, temperament va xulq atvoridagi o'zgarishlar, emotsional irodaviy va yosh xususiyatlari, maktab faoliyati tahlili, hamda oilada va o'rtoqlari davrasida tutgan mavqei, psixologik muhit va shu kabilarni o'rganish shular jumlasidandir. Biroq, bu singari suitsidogen omillar doimo tashqi olam va shaxs ichki dunyosi bilan murakkab o'zaro bog'lanishga ega bo'lganligi, hamda bir xil ahamiyatli va bir-biriga bog'langan biologik, psixologik va ijtimoiy komponentlar majmuasidan tashkil topganligi tufayli har doim ham yaxshi va tulakonli natija beravermasligi kuzatiladi.

O'zbekistonda olib borilgan ijtimoiy psixologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, bolalar va o'smirlar suitsidining sabab va motivlari turlicha va xilma-xil bo'lib, jumladan pubertat oldi va kichik pubertat (jinsiy yetilish davri) yoshi davrlarida suitsidal xulqning asosiy motivi bo'lib, sog'lomlik (asosiy ruhiy nosog'lomlik) va qo'rqinch holatlariga bog'liq bo'lgan nizolar, kechinmalar xizmat qilsa, pubertat va pubertatdan keyingi yosh davrlarida shaxsiy oilaviy, o'qi-

tuvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolar hamda ijtimoiy axloq normalari bilan bog'liq bo'lgan nizolar asosiy motivlarini tashkil qiladi.

Pubertat oldi va kichik pubertat yoshida sog'lomlik holatining asosiy motiv sifatida namoyon bo'lishi, bizningcha, suitsidentlarning yosh bo'lganliklari uchun shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy axloq normalariga bog'liq bo'lgan nizolarga duch kelmaganliklari bilan belgilanadi. Pubertat va pubertatdan keyingi yosh davrlarida esa suitsidentlarning yoshi, bio-psixologik va ijtimoiy e'tiyajlarining ortib borishi, ularni oilaviy munosabatlariga hamda, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida, moddiy-maishiy ta'minotga bog'liq bo'lgan nizolarga nisbatan munosabatga kirishishni undaydi. Bu singari munosabatlarining paydo bo'lishi nizoli vaziyatlarning kelib chiqishiga va ularning asosiy motivi sifatida namoyon bo'lishiga olib keladi.

Ko'p holatlarda suitsidal xulqning sabab, bahona va motivlari bir-biriga korishib ketganligi tufayli bolalar va o'smirlar suitsidining sabab, bahona va motivlarini yakka hodisa sifatida o'rganishda qator qiyinchiliklarga duch kelinadi. Shu sababli o'z tadqiqotimiz natijalari asosida bolalar va o'smirlarda suitsidal xulqning sabab, bahona va motivlarining shartli klassifikatsiyasi tuzildi. Bunga ko'ra bolalar va o'smirlar suitsidining bahona va motivlari kuyidagicha ifodalaniladi:

1. Oilaviy nizolar.

- a. yolg'izlik.
- b. yaqin kishisining o'limi.
- c. muvaffaqiyatsiz sevgi va muhabbat bilan bog'liq bo'lgan nizolar.
- d. ota-ona yoki oilaning boshqa a'zolari tomonidan bolalarni jismoniy va ma'naviy xo'rlash.

2. Salomatlik bilan bog'liq bo'lgan nizolar.

- a. ruhiy kasalliklar.
- b. somatik kasalliklar.
- c. tug'ma yoki hayot davomida orttirilgan nogironlik.

3. Ijtimoiy axloq normalari bilan bog'liq bo'lgan nizolar.

- a. jinoiy javobgarlikdan qochish.
- b. boshqa xildagi jazolanish va sharmandalikdan qutulish.
- c. uyushgan jinoyatchilik guruhlariga tushib qolish.

4. O'qish jarayoniga bog'liq nizolar.

- a. o'quv dasturlarini o'zlashtira olmaslik.
- b. sinfda ikkinchi yilga qoldirilishi.
- c. maktabdan chetlashtirish.

5. Moddiy-maishiy ta'minot bilan bog'liq bo'lgan nizolar.

a. moddiy yetishmovchilik tufayli kerakli shart-sharoit bilan yetarlicha ta'minlamaslik (kiyim-bosh, stol-stul, oziq-ovqat va boshqalar).

b. bolalar va o'smirlar tomonidan noo'rin (sharoitni hisobga olmasdan) qo'yilgan talablar.

Bolalar va o'smirlar suitsidining motivlarini o'rganish natijalariga ko'ra oilaviy nizolar boshqa nizolar o'rtasida asosiy motiv sifatida namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Oilaviy nizolarga bog'liq bo'lgan suitsidal urinishlar ko'pincha yolg'izlik, yaqin kishisini yo'qotish, ota-onalarning bolalar ruhiy olamini, ularning yosh xususiyatlarini tushunmasliklari, yoshlarning sevgi-muhabbat bilan bog'liq bo'lgan hissiy kechinmalariga qo'pol ravishda aralashuvi, ba'zi yoshlarning barvaqt nikohgacha jinsiy aloqaga kirishishi va sevgan kishisining bevafoqlik qilishi, ayrim yoshlarda gigienik bilimlarni tanqislashi tufayli sodir etilmoqda. Oilaviy nizolar asosida sodir etilgan suitsidal urinishlar yosh davriga ko'ra suitsidentlarning yoshi ortib borishi bilan bu motiv darajasining yaqqol ifodalanib borganligini ko'rsatadi. Bunday ko'rinishning namoyon bo'lishining asosiy sababi, bolalarning yoshi ortib borishi bilan ulardagi hayotiy, ruhiy va biologik ehtiyojlarni o'sib borish jarayoni bilan bog'liqdir. Qolaversa o'smirlik va o'spirinlik yoshi davrida xos bo'lgan emotsional beqarorlik, yosh xususiyatlari, hayotiy tajribalarning yetishmasligi oilaviy nizolarga bog'liq bo'lgan motiv asosida sodir etilgan suitsidal urinishlar darajasining yuqoriligiga sabab bo'ladi.

Bolalar va o'smirlar o'rtasida yaqin kishisining o'limiga bog'liq bo'lgan motiv asosida sodir etilgan suitsidal urinishlar ham mavjud bo'lib, bunday suitsidal urinishlar bolalar va o'smirlarning biror kishiga (ota, ona, buvi, bobo, aka va boshqalar) o'rganib qolishlari va o'sha kishining to'satdan vafot etishi bolada kuchli qayg'uli holatni keltirib chiqarib, suitsidal xulqning kelib chiqishiga sabab bo'lganligi kuzatiladi. Yosh davri ko'rsatgichlariga ko'ra bu motiv bilan bog'liq suitsidal urinishlar asosan kichik va o'rta pubertat yosh davrlariga to'g'ri keladi.

Oilaviy motivga bog'liq bo'lgan suitsidal urinishlarning tugallanlik va tugallanmaganlik darajasiga ko'ra bolalar va o'smirlar o'rtasida sodir etilayotgan suitsidal urinishlar asosan o'zini hayotdan

mahrum etishga qaratilgan haqiqiy suitsidal xulq, mazmuniga emas balki, izdan chiqqan ijtimoiy psixologik munosabatlarni qayta tiklash va ijtimoiy muhitdagi nomutanosbliklarga nisbatan o'z norozichiligini bildirishga qaratilgan "chaqiriq", "namoyishkorona" mazmunga ega ekanligini ko'rsatdi. Suitsidal urinishning tugallanganlik darajasining yuqoriligi bolalar va o'smirlarda suitsidal xulqning haqiqiy mazmunga ega ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, suitsidning tugallanganlik darajasining yuqoriligi ba'zan suitsidal urinish usulini tanlashga ham ko'p jihatdan bog'liqdir.

Oilaviy nizolar asosida suitsidal urinishni amalga oshirgan suitsidentlarning 62,4 foizi ijobiy xulqli bo'lib, ular oilada va maktabda yaxshi obro'ga ega bo'lgan, jamoatchilik ishlarida faol, odobli, axloqli va fanlarni "a'lo" va "yaxshi" baholarga o'zlashtiruvchi bolalar va o'smirlardir. Bu motivga bog'liq bo'lgan suitsidal urinishning amalga oshirgan suitsidentlarning 47,6 foizi salbiy xulqqa ega bo'lgan bolalar va o'smirlarni tashkil qiladi. Salbiy xulqli bolalar va o'smirlar asosan sevgi-muhabbatga bog'liq bo'lgan nizolar va barvaqt jinsiy aloqaga kirishish bilan bog'liq bo'lgan nizolar tufayli suitsidal urinishni sodir etishgan.

Bolalar va o'smirlarni o'rtasida salomatlik bilan bog'liq bo'lgan motiv asosida sodir etilgan suitsidal urinishlar ruhiy, somatik kasalliklar va orttirilgan majruhlik tufayli sodir etilgan. Yosh ko'rsatgichlariga ko'ra bunday suitsidal urinishlar turlicha bo'lib, ular quyidagichadir: ruhiy kasallik asosida sodir etilgan suitsidal pubertat oldi yoshi davrida 35,71% ga teng bo'lsa, kichik pubertat yoshida 17,18% tashkil qiladi. Pubertat va pubertatdan keyingi yosh davrlarida 7,56%, 4,36 foizga tengdir. Ushbu foizlar ruhiy nosog'lomlikka bog'liq bo'lgan suitsidal urinishlar ko'rsatgichi suitsident yoshining ortib borishi bilan uning darajasi pasayib borganligini ko'rsatadi. Somatik kasalliklar va orttirilgan majruhlik tufayli sodir etilgan suitsidlar esa u yoki bu yosh davrida turg'un ko'rinishga ega emas.

Tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'lishicha, ruhiy nosog'lomlik asosida sodir etilgan suitsidal urinishlarni amalga oshirgan suitsidentlarning katta qismi ruhiy kasalliklar dispanseridan hisobdan o'tkazilmagan. Joylarda ruhiy nosog'lom bolalar va o'smirlarni ruhiy kasalliklar dispanseri ko'rigidan o'tkazish va hisobga olishni tashkillashtirish bu omilga bog'liq bo'lgan suitsidallarning oldini olishda muhimligini e'tiborga olib, unutmazlik kerak. Shuningdek,

somatik va orttirilgan majruhlik tufayli ham suitsidal urinishlarning sodir etilayotganligi bunday bolalar va o'smirlar bilan psixologik va psixiatrik tadbirlarni olib borish zarurligini ko'rsatadi. Tug'ma va orttirilgan majruhlik tufayli sodir etilgan suitsidal urinishlar hayot uchun zararli bo'lmasada, biroq yaqin kishilari, sinfdosh o'rtoqlari va boshqa kishilar tomonidan uning majruhligini yuziga solish yoki izza qilish bu motivga bog'liq bo'lgan suitsidal urinishlarni keltirib chiqarganligining guvohi bo'lamiz.

Somatik nosog'lomlik va orttirilgan yoki tug'ma majruhlik holatiga bog'liq bo'lgan suitsidal urinishlar (esa ko'prok katta yosh davriga pubertat va pubertatdan keyingi yosh) to'g'ri kelayotganligi kuzatiladi.

Axloq normalariga zid bo'lgan xulq asosida sodir etilgan suitsidal urinishlarning kelib chiqish jarayonini o'rganish bolalar va o'smirlarning o'z qilmishlariga yarsha jazolanishdan qo'rqish, sirlari fosh bo'lib, sharmanda bo'lishdan uyalish tufayli amlga oshirilayotganligini ko'rsatadi. Shuningdek, ba'zan katta kishilar tomonidan noo'rin jazolashlar ham bu motivga bog'liq bo'lgan suitsidlarning sodir yetilishicha sabab bo'lgan. Ayrim hollarda esa yoshlarning uyushgan guruhlar tudasiga tushib qolishi holatlari axloq normalariga zid bo'lgan xulqqa bog'liq bo'lgan suitsidal urinishlar keltirib chiqargan. Yoshlarning, ayniksa qiz bolalarning jinsiy munosabatlardagi noo'rin hatti-harakati bu motivga bog'liq bo'lgan suitsidlariga sabab bulayotganligining guvohi bo'lamiz.

Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lishicha ijtimoiy axloq normalariga zid bo'lgan xulq asosida o'z joniga qasd qilgan bolalar va o'smirlar tarbiyalanayotgan oilalarda nosog'lom psixologik muhitning mavjudligi kuzatildi. Bunday oilalarda ota-onalarning farzandlari oldida o'z obro'yiga ega emasliklari yoki yo'qolish arafasida ekanligi ko'zga tashlanadi.

Noaxloqiy xulqqa bog'liq bo'lgan suitsidal urinishlarning psixologik ma'nosi azob uqubat va sharmandalikdan qochish va chorasizlikka borib taqaladi. Bunday suitsidlar ko'pincha o'zini hayotdan mahrum etishga qaratilgan haqiqiy suitsidal xulq mazmuniga ega bo'lsada, biroq pubertat va pubertatdan keyingi yosh davrlarida suitsidal xulqning haqiqiy turi mazmuniga ko'ra namoyishkorona mazmuni yaqqol namoyon bo'la boshlaganligi kuzatildi.

Bu motiv asosida sodir etilgan suitsidlarni amalga oshirgan suitsidentlar shaxs xususiyatlariga ko'ra ularning katta qismi salbiy xulqqa ega ekanliklari kuzatildi. O'qish faoliyatlari ham o'rtacha bo'lib, ayrimlari esa sinfdan koldirilgan, maktabga kelmaslik, o'qituvchilarni pisand qilmaslik odatlariga ega bo'lgan bolalar va o'smirlardir. Psixologik, akliy tarakkiyot darajasiga ko'ra ular emotsional beqaror, serzarda, irodasiz, manman, egoist va ruhiy beqarorlik xususiyatlariga ega bo'lib, konformlik, isterik shaxs tiplarini yaqqol namoyon qilganligi kuzatiladi. Shuningdek, ularga o'tkir qobiliyatga ega emaslik, chuqur mulohaza yuritmaslik kabi xususiyatlarning ham mavjudligi ko'zga tashlandi.

O'qish faoliyatiga bog'liq bo'lgan nizolar asosida sodir etilgan suitsidal urinishlar asosan o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolar tufayli sodir etilgan bo'lib, ko'pincha ular namoyishkorona mazmunga egaligi bilan xarakterlidir.

Bu motiv asosida sodir etilgan suitsidal urinishlarni amalga oshirgan suitsidentlar suitsidoldi holatida barcha suitsidentlar singari emotsional beqaror, ko'zg'aluvchan, o'z-o'zini past baholashlik xususiyatlarini namoyon qilib, bunday suitsidal urinishlar kuyidagichadir: o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolar asosida amalga oshirilgan suitsidlar pubertat va pubertatdan keyingi yosh davrlarida 24,39 va 14,07% ga teng bo'lsa, kichik pubertat yoshida 24,21 % ni tashkil qiladi.

O'qish faoliyatiga bog'liq bo'lgan nizolar asosida o'z joniga qasd qilgan suitsidentlar shaxs xususiyatlariga ko'ra 27,41% ijobiy sifatli va 72,59% salbiy xulqli bolalar va o'smirlardir. Oilada nosog'lom psixologik muhitning mavjudligi bolalar va o'smirlarga salbiy ta'sir qilib, ularning o'qishdan bezib ketishlariga sabab bo'lgan. Shuningdek, bunday oilalarda ota-onalarning bola o'qishi bilan qiziqmasliklari, nazorat kilmaslik holatlari ijtimoiy axloq normalari va o'qish faoliyatiga bog'liq bo'lgan nizolarning kelib chiqishiga olib kelgan. O'quvchilardagi ayrim individual psixologik xususiyatlar va akliy taraqqiyot orqada qolishlik holatlari ham o'qish faoliyatiga bog'liq bo'lgan suitsidal urinishlarni keltirib chiqarganligi kuzatildi. Bunday suitsidlar ko'pincha o'quvchilarning o'quv dasturlarini o'zgartirishdagi muvaffaqiyatsizliklarga duch kelishlari natijasida o'qituvchilarning bu xususiyatni dars tayyorlab kelmaslikka bog'lashi,

ulardagi aqliy tarakkiyotning orqadagi qolganligini anglab yetmasliklari tufayli sodir etilgan.

Moddiy-maishiy ta'minotga bog'liq bo'lgan suitsidal urinishlar bolalar va o'smirlarga oilada yetarlicha shart-sharoitlarning yaratib berilmaganligi, ayrim holatlarda esa bolalar va o'smirlarning oilaviy ahvoli etiborga olmasdan turib, noo'rin qilgan talablari natijasida ham sodir etilganligi kuzatildi. Bunday noo'rin talablar ayniqsa o'smir qizlar o'rtasida ko'proq kuzatilib, ular kiyim bosh ustidan ota-onasi va oiladagi boshqa a'zolar bilan tortishuvlar, turli xil janjallarni keltirib chiqarib, oqibatda suitsidal urinishni amalga oshirganligining guvohi bo'ldik. Yosh ko'rsatgichlariga ko'ra bu motivga bog'liq bo'lgan suitsidal urinishlar ayniqsa pubertat va pubertatdan keyingi yosh davrlarida ko'proq kuzatiladi.

Moddiy-maishiy taminotga bog'liq bo'lgan suitsidal urinishlarning oldini olish maqsadida kam taminlangan, nochor oilalarga va ota-onasiz tarbiyalanayotgan bolalar va o'smirlarga turli xil jamg'arma fondlari, ijtimoiy taminot bo'limlari, hamda mahalla xayriya jamg'armalari tomonidan moddiy-maishiy yordam berish maqsadga muvofiqdir deb uylaymiz.

Shunday qilib, bolalar va o'smirlar suitsidining bahona va motivini o'rganish natijalariga ko'ra bahonahar doim ham suitsidal xulq motivi bilan mos kelavermasligi namoyon bo'ladi. Masalan, ota-ona yoki oilaning boshqa azolari, o'qituvchilar o'rtasidagi nizoli vaziyatlar suitsidal urinish uchun bahona bo'lib, xizmat qilsa, surunkali kasallik, yaqin kishisini yo'qotish, ota yoki onalardan birining noaxloqiy xulqi kabilar motiv sifatida namoyon bo'ladi. Yoki surunkali kasallikka chalinish, yaqin kishini yo'qotish suitsidal urinish uchun bahona bo'lib xizmat qilsa, ota-ona yoki o'qituvchilari o'rtasidagi surunkali nizoli vaziyatlar motiv rolini uynaganligini ko'ramiz. Ayrim holatlarda esa bahona suitsidal xulq motivi bilan mos kelishi kuzatiladi. Masalan, nizoli vaziyatlarning uzoq muddatli davom etishi, uning murakkablashuvi suitsidal urinish uchun bahona bo'lib xizmat qilsa, nizoli vaziyatga barham berish va undan qutulish motiv rolini o'ynaganligining guvohi bo'lamiz.

Tadqiqotlardan malum bo'lishicha, suitsidal xulq motivlari faqat suitsidentlarni urab turgan ijtimoiy, ma'naviy, tasiri ostida, balki ularning yosh, individual psixologik xususiyatlariga ham bog'liq ravishda o'zgarib boradi. Chunki, har bir yosh davrining o'ziga xos

inqirozli davrlari, qiyinchiliklari mavjuddirki, ular suitsidal xulq motiviga o'z tasirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Masalan, o'qituvchilarda maktab muammolari, o'smirlarda shaxs erkinligiga erishish va o'smirlik yoshi davridagi yosh "inqirozlari" shular jumlasidandir.

Bolalar va o'smirlar suitsidining motivlarini o'rganish natijalarining ko'rsatishicha, u yoki bu motiv har doim ham suitsidogen omil rolini uynamaydi.

Jumladan, moddiy-maishiy ta'minotning yetarli emasligi ayrim holatlarda suitsidogen omil rolini uynagan bo'lsa, ba'zan esa umuman uynamagan. Bu ko'pincha suitsidentning shu omillarga nisbatan bo'lgan munosabatiga bog'liqdir. Masalan, ayrim bolalar va o'smirlarda egoistik, maqtanchoqlik, qo'zg'aluvchanlik, emotsional beqarorlik kabi hislatlarning mavjudligi ularda moddiy-maishiy ta'minotning yetarli emasligi vaziyatni okilona tushunish imkoniyatini cheklab, turli xil, jumladan o'zining kamsitilishini his etish, boshqalarga o'xshab kiyina olmasligi haqidagi kabi noto'g'ri xulosalarga kelishiga olib keladi va suitsidal xulqning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, yaqin kishisining o'limi ruhiy va jismoniy xo'rlanish yoki maktabda yomon baho qo'yish holatlari ham har doim suitsidogen omil rolini uynamaganligini ko'ramiz. Bu omillarga bog'liq bo'lgan suitsidal urinishlar maxsus holatlarda, ya'ni suitsidentning suitsidogen vaziyatga nisbatan bo'lgan individual psixologik munosabati asosida vujudga keladi. Jumladan, yaqin kishining o'limiga bog'liq bo'lgan suitsidal urinish ta'sirlanuvchanlik, emotsional beqarorlik xususiyatlariga ega bo'lgan bolalarda sodir etilgan bo'lsa, boshqalarga bu hol unchalik ta'sir etmagan.

Bolalar va o'smirlar suitsidining motivini aniqlash ko'p jihatdan suitsidal xulqni keltirib chiqaruvchi sababga bog'liqdir.

A.A.Sultonov bir guruh ruhiy sog'lom o'smirlarda olib borgan tadqiqotlari natijasida bolalar va o'smirlarda suitsidal xulqning quyidagi sabablari mavjudligini ta'kidlaydi:

1. Ijtimoiy shart-sharoitga va turmush tarziga nisbatan dezadaptatsiyalanish.
2. Oilaviy nizolar.
3. Spirtli ichimliklar va narkotik moddalarni iste'mol qilish.
4. Jinsiy munosabatlarga bog'liq bo'lgan nizolar.

A.E.Lichko esa o'z tadqiqotlarida o'smirlar suitsidal xulqning quyidagi sabablarini keltirib o'tadi:

1. Sevimli kishisini yo'qotish.
2. Toliqish va kuchli ruhiy ta'sirlanish.
3. Shaxs qadr-qimmatini va nafsoniyatining yerga urilishi.
4. Spirtli ichimliklar va giyohvandlikka berilish.
5. O'zini o'z joniga qasd qilgan kishi o'rniga qo'yib ko'rish.
6. His hayajon, qo'rquv va g'am-g'ussalar va boshqalar.

Bolalar va o'smirlarning ijtimoiy psixologik moslanish-larining izdan chiqishi jarayonini o'rganishdan avval moslashish jarayonining o'zini tushuntirib o'tish maqsadga muvofiqdir. Moslashish (adaptatsiya) tushunchasi falsafiy manbalarda ta'kidlanishicha jonli tabiatning tashqi muhit bilan o'zaro muvofiqlashuvi natijasida vujudga keladigan jarayon bo'lib, u insonning barcha psixik faoliyatida yotadi va ularning nazariy asoslarini belgilaydi. Inson adaptatsiya jarayoni orqali ijtimoiy muhit voqea-hodisalariga nisbatan moslashish yo'lini bosib o'tadi. Individ va tabiat o'rtasidagi muvofiqlikni izdan chiqishi ijtimoiy psixologik moslashishning izdan chiqishiga (dezadaptatsiya) olib keladi. Ijtimoiy psixologik moslashishning izdan chiqishi inson xulq atvorida vujudga kelib, u patologik, ijtimoiy psixologik va biologik ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun dezadaptatsiya jarayonini birgina omilga bog'lab tushuntirishga urinish noto'g'ri bo'lur edi.

Bolalar va o'smirlarda dezadaptatsiyaning dastlabki belgilari sifatida oila a'zolari o'rtasida nizoli vaziyatlarning tez-tez kelib chiqishi, o'qish faoliyatiga nisbatan ko'ngil so'vishlik, fanlarni o'zlashtirishda qiyinchilikka uchrash, hamda sinfdoshlari va boshqalar bilan muloqotga kirishishda tez-tez nizoli vaziyatlarga duch kelish, ruhiy beqarorlik, serzardalik, somatik va ruhiy kasallik kabilar namoyon bo'ladi.

Bolalar va o'smirlarda dezadaptatsiyaning quyidagi ko'rinishlari kuzatildi:

1. Shaxs xususiyatlariga bog'liq bo'lgan dezadaptatsiya.
2. Psixogen ta'sirlanish natijasida vujudga keladigan dezadaptatsiya.
3. Somatik va ruhiy nosog'lomlikka bog'liq bo'lgan dezadaptatsiya.

Shaxs xususiyatlariga bog'liq bo'lgan dezadaptatsiya jarayoni xulq og'ishi, emotsional beqarorlik, impusivlik, aqliy qobiliyatning yetarlicha rivojlanmaganligi, yosh davri xususiyatlari va jinsiy yetishishlikka bog'liq asosida vujudga kelsa, psixogen ta'sirlanishlar natijasida yuzaga keladigan dezadaptatsiya ota-onalar va oilaning boshqa a'zolari, o'qituvchilar, sinfdosh o'rtoqlari o'rtasidagi nizolar, ota-ona yoki kishisining o'limi, ularning turli xil kasalliklarga chalinishi tufayli vujudga keladi. Somatik va ruhiy nosog'lomlikka bog'liq bo'lgan dezadaptatsiya esa kuchli gripp, oshqozon-ichak kasalliklari, teri, nafas olish organlari kasalliklari tufayli yuzaga kelganligi kuzatiladi.

Bolalar va o'smirlarda ijtimoiy psixologik moslashishning izdan chiqish jarayonini o'rganish natijalariga ko'ra oilaviy munosabatlarda ota-onalar hamda oilaning boshqa a'zolarining bolalar va o'smirlar his-tuyg'ulari, ruhiy kechinmalari bilan hisoblashmasliklari, bolalar va o'smirlarning o'z oilasida emotsional izolyatsiyaga (yakkalanish) tushib qolishi, oilada moddiy-maishiy shart-sharoitning yetarli emasligi suitsidentning subyektiv bahosiga ko'ra, ota-onalardan birining spirtli ichimlik va giyohvandlikka berilishi, noaxloqiy xulqi kabi holatlar dezadaptatsiya jarayonining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. O'qish faoliyatida esa o'qituvchilarning adolatsiz munosabati, sinfdoshlari o'rtasida o'z mavqeiga ega emaslik va guruhda izolyatsiyaga (yakkalanish) tushib qolishlik, hamda sinfdoshlari o'rtasidagi shaxslararo nizolar dezadaptatsiyalanish uchun asos bo'lib xizmat qilganligini ko'ramiz.

Ma'lum bo'lishicha o'z joniga qasd qilish dezadaptatsiyaning eng yuqori cho'qqisiga yetganda emas, balki dezadaptatsiyaning yengil formalarida ham sodir etilishi mumkin. Bunday holatlarda amalga oshirilgan suitsidal urinishlar namoyishkorona mazmunga ega ekanligi bilan xarakterlaridir.

Bolalar va o'smirlar suitsidal xulq sabablari orasida shaxslararo nizolar jumladan, o'qituvchi o'quvchi hamda ota-ona va oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi nizolar asosiy sabablardan biri sifatida namoyon bo'lib, bolalar va o'smirlar suitsidining eng katta qismi shu sabablar asosida sodir etilayotganligini ko'rsatadi. Bu sabablar asosida amalga oshirilgan suitsidlar ota-onalar va o'qituvchilarning bolalar va o'smirlar bilan muloqotga kirishishlarida yo'l qo'ygan qo'polliklari,

ularning his-tuyg'ulari bilan hisoblashmaslik, adolatsizlik qilishlari tufayli sodir etilayotganligi kuzatildi.

Suitsidal urinishning yosh davrlariga ko'ra ko'rsatgichi shaxslararo nizolar tufayli sodir etilgan suitsidal urinishlar yosh davrining ortib borishi bilan suitsidlar miqdorining ham ortib borganligini ko'rsatadi.

Ma'lum bo'lishicha shaxslararo nizolar tufayli sodir etilgan suitsidal urinishlar asosan katta yosh davrlariga (pubertat va pubertatdan keyingi yosh) to'g'ri keladi. Suitsidal urinishning katta yosh davrlariga to'g'ri kelishligi o'smirlilik yoshiga xos bo'lgan emotsional beqarorlik, yosh davri inqirozlari va hayotiy tajribalarning yetishmasligi, hamda voqea-hodisalarni kitobiy idrok etish, romantiklik xususiyatlariga bog'liqdir. Bolalar va o'smirlardagi bu singari xususiyatlarni ko'pchilik kattalar anglab yetmaydilar. Bu esa ko'pincha kattalar bilan o'smirlar o'rtasidagi nizoli vaziyatlarga sabab bo'ladi.

Ota-onalarning bolalar va o'smirlar psixologiyasini bilmasliklari, oilada o'z farzandlarini o'ta erkatoq qilib o'stirishlari, hamda ularni haddan tashqari asrab-avaylab ardoqlashi bu sabab asosidagi suitsidal urinishlarning kelib chiqishiga olib kelgan. Bunday tarbiyalangan bolalar va o'smirlarda xulq og'ishi ko'rinishlari tez shakllanib, mustaqil fikr yuritish va moslashuvchanlik qobiliyatlari yaxshi rivojlanmaganligi tufayli ular unchalik murakkab bulmagan oddiy nizoli vaziyatlarda ham o'zini yo'qotib qo'yadi va nizoli vaziyatlarda barham berishda turli xil qiyinchiliklarga uchraydi.

Oiladagi uy-ruzg'or yumushlarining yoshiga, jinsiga va quvvatiga qarab taqsimlanmasligi ham shaxslararo nizolarga bog'liq bo'lgan suitsidal urinishlarni keltirib chiqarganligi kuzatiladi.

Sevgi-muhabbatga bog'liq bo'lgan nizolar, nikohsiz jinsiy aloqaga kirishish ham bolalar va o'smirlar o'rtasidagi suitsidal urinishning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu sababga bog'liq bo'lgan suitsidlarda suitsidentlarning yoshi ortib borishi bilan suitsidlar darajasining ham ortib borganligi ko'zga tashlanadi. Sevgi-muhabbatga bog'liq bo'lgan nizolar asosida sodir etilgan suitsidal urinishlar o'smirlarning sevgan yigiti (qizi) dan ajralish, sevgan yigit (qiz)ning bevafoqlik qilishi, hamda nikohsiz qilingan jinsiy aloqa kabilar tufayli ham sodir etilib, bunday suitsidal urinishlar ko'pincha o'zini hayotdan ketkazishga qaratilgan oldindan uylangan haqiqiy mazmunga emas, balki to'satdan kuchli qo'zg'alish tufayli sodir etilgan impulsiv xarakterga egadir.

Nikohsiz jinsiy aloqaga kirishish baʼzan oʻsmir qizlarda suitsidal urinishlarga sabab boʻlganligi kuzatiladi. Bunday suitsidal urinishlar oʻsmir qizlarning yoshlik his-tuygʻulariga berilib, yoki yigitlarning aldov-siylovlariga uchib, jinsiy aloqaga kirishlari tufayli sodir etilgan. Bu sabab asosida amalga oshirilgan suitsidal urinishlarning tugallanganlik va tugallanmaganlik darajasiga koʻra tugallanganlik darajasi ustunligi bunday suitsidal urinishlar oʻzini hayotdan ketkazishga qaratilgan haqiqiy mazmunga egadir degan xulosani beradi.

Baʼzan yosh qizlarning (9-11 yosh) oʻzidan katta yoshdagi shaxslar tomonidan qizlik shaʼniga (nomus) tegishi ham suitsidal urinishga sabab boʻlgan. Tadqiqotchilarning koʻrsatishicha bunday hodisalar faqat ruhiy nosogʻlom va nosogʻlomlik chegarasidagi shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Biroq, bunday hodisalar butkul sogʻlom, esli-hushli kishilar tomonidan sodir etilganligini koʻramiz. Bu sababga bogʻliq boʻlgan suitsidlar odatda qizlarning yoshi ulgʻayib, oʻzining qizlik shaʼniga putur yetganligini anglab, tushunib yetganliklaridan soʻng, bu hodisani psixologik hal qilib boʻlmas darajada his etishlari natijasida amalga oshirilgan.

Spirтли ichimlik va gilyohvandlikka berilish holati ham bolalar va oʻsmirlarda suitsidal xulqning kelib chiqishiga taʼsir etilishligi kuzatiladi. Bu sababga bogʻliq boʻlgan suitsidlar bolalar va oʻsmirlarda xulq ogʻishi natijasida sodir etilib, bunday xulq ogʻishlari oilaviy tarbiyada yoʻl qoʻyilgan nuqsonlar va oilada hukm surgan nosogʻlom psixologik iqlinning mavjudligi tufayli yuzaga kelgan. Spirтли ichimlik va gilyohvandlikka berilish tufayli sodir etilgan suitsidal urinishlarni amalga oshirgan suitsidentlar tarbiyalanayotgan oilalarning 84,6% ni notoʻliq va noaxloqiy xulqqa ega boʻlgan, hamda nosogʻlom psixiatrik muhit hukm surayotgan oilalar boʻlsa, 15,4% sogʻlom muhitli oilalar ekanligi kuzatiladi. Bu sababga bogʻliq boʻlgan suitsidal urinishlar pubertat va pubertat yoshidan keyingi davrga toʻgʻri keladi.

Toliqish, his-hayajon, qoʻrquv, gʻam-gʻussalar ham bolalar va oʻsmirlarda suitsidal xulqning kelib chiqishiga sabab boʻlganligi kuzatiladi. Yosh davrlarida koʻra asosan kichik yosh davrlariga toʻgʻri keladi. Kichik yosh davrida toʻgʻri kelishi bizning fikrimizcha bolalarning yosh psixologik xususiyatlari va hayotiy tajribalarining yetishmasligiga bogʻliqdir. Shunday qilib, bolalar va oʻsmirlar

suitsidining sabab va motivlarini o'rganish natijalari quyidagi xulosaga kelish mumkin:

- bolalar va o'smirlar suitsidining asosiy motivi sifatida oilaviy, o'quvchi va o'qituvchi nizolar namoyon bo'ladi;
- shaxslararo nizolar, toliqish, his-hayajon, qo'rquv, g'am-g'ussa, hamda sevgi-muhabbatga bog'liq bo'lgan kelishmovchiliklar bolalar va o'smirlar suitsidining asosiy sabablaridan biri bo'lib hisoblanadi;
- bolalar va o'smirlar suitsidi turli xil sabablar asosida sodir etilishidan qat'iy nazar uning tub ildizi mikroijtimoiy muhitdagi nizolarga bog'liqdir;
- ijtimoiy psixologik moslashishning izdan chiqishi suitsidal xulq vujudga kelishining boshlang'ich bosqichi bo'lib hisoblanadi;
- suitsidentning suitsidogen vaziyatiga nisbatan bo'lgan munosabati suitsidal urinishning amalga oshirilishini belgilaydi;
- suitsidalning xulqning kelib chiqishiga shaxsning yosh va individual psixologik xususiyatlari qadriyatlar orientatsiyasi va tarbiyalanganlik darajasi ta'sir qiladi.

8.9. O'smirlilik davridagi ijtimoiy psixologik xususiyatlari xulq-atvordagi buzilishlarning namoyon bo'lish formalari

Bugungi kunda jamiyatning dolzarb muammolaridan biri o'z joniga qasd qilish hodisasining psixologik ma'nosini o'rganish bo'lib, hisoblanadi. Zotan, suitsidal urinishning psixologik ma'nosini o'rganmasdan turib uning kelib chiqish sabablarini aniqlash va uning oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqishga erishish mushkuldir. Keyingi yillarda katta yoshdagi kishilar suitsidning psixologik ma'nosini tadqiq qilishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarining olib borilishi bilan bir qatorda bolalar va o'smirlar suitsidining psixologik ma'nosini o'rganish yuzasidan ham qator ilmiy izlanishlar olib borildi va bu sohada qator muvaffaqiyatlarga erishildi.

Suitsidning psixologik ma'nosini o'rganish tadqiqotchiga suitsident "nima maqsadda" o'z joniga qasd qildi degan savolga javob berishga yordam beradi.

Haqiqiy suitsidal xulq asosida sodir etilgan suitsidal urinishlar ko'rsatkichi yillar bo'yicha taqqoslanilganda esa bu mazmunga ega bo'lgan suitsidlarning bir ko'tarilib bir pasayib turganligini ko'ramiz. Bunday ko'rinishning namoyon bo'lishligi haqiqiy suitsidal xulq

mazmuniga ega bo'lgan suitsidlar ma'lum bir yoshda turgun xarakterga ega emasdir degan xulosaga kelishimizga sabab bo'ldi.

Oldindan rejalashtirilgan mazmunga ega bo'lgan suitsidal urinishlarda ota-ona va oilaning boshqa a'zolari, o'qituvchilari va yaqin qarindosh urug'lari sinfdosh o'rtoqlari o'rtasidagi nizolar hamda sevgi-muhabbatga bog'liq bo'lgan nizolar va yaqin kishisini yo'qotish kabilar motiv rolini o'ynaganligining guvohi bo'lamiz. Bunday suitsidal urinishlarda suitsidal oldi davri bir oydan besh-olti oygacha bo'lib, bu davr mobaynida passiv va tabaqalashmagan suitsidal uy va niyatlar vujudga keladi. Suitsidal xulqning passiv va tabakalashmagan pog'onasida suitsidal xulq to'la va uzil kesil shakllanmaganligi bilan xarakterlidir. Shuningdek, bu davrda suitsidal xulq o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo'ladi. Suitsidal xulqning ikkinchi, ichki tayyorgarlik davri pog'onasida o'z joniga qasd qilish haqidagi o'y va niyatlar qat'iy tus ola boshlaydi. Bu davrning davomiyligi bir necha kundan bir xaftagacha cho'zilishi mumkin. Suitsidal xulqning bu pog'onasida ba'zan suitsidentlar nizoli vaziyatlarning murakkablashuvi va ta'sirchanlik kuchining ortib borishiga qarab, o'zlarining suitsidal urinishlari haqidagi niyatlarining ayrim belgilarining namoyon qilganligi kuzatiladi. Masalan, bu pog'onada ayrim suitsidentlarning "yashashdan to'yib ketdim", "yashagani qo'yasizlarmi", "bunday yashagandan ko'ra o'lganim yaxshiroq" deya ta'kidlashgan so'zlari suitsidal xulqning paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Bunday belgilar garchand, suitsidal xulqning paydo bo'lganligi haqida xabar bersada, biroq nizoli vaziyatning keyingi rivojiga qarab, ba'zan suitsidal urinish sodir etilmasligi va ba'zan esa sodir etilishi mumkin. Keyingi o'z joniga qasd qilish usulini tanlash pog'onasida suitsident suitsidal usulining qulayligi, o'ziga mosligi va jarohatliligi tomonlarini hisobga olgan holda suitsidal urinish usulini tanlaydi. Tanlash davri ko'pincha 1 soatdan bir necha kungacha bo'lishi mumkin. Suitsidal urinish usuli haqida ma'lum qarorga kelingan o'z suitsidal niyatini amalga oshirib qulay sharoit va imkoniyat poylaydi. Ba'zan suitsident tomonidan qulay imkoniyat va shart sharoitning yaratilishi uchun shaxsiy intilishning namoyon qilinganligining guvohi bo'lamiz.

Oldindan rejalashtirilgan haqiqiy mazmunga ega bo'lgan suitsidal xulqda suitsidal uy va niyatlarning shakllanishi ko'pincha aniq sabab va bahonalarga bog'liq bo'lganligi kuzatiladi. Bunday sabab va bahonalar asosan shaxslararo nizolar, sevgan kishisidan ajralish (bu

ko'pincha pubertat va pubertatdan keyingi yosh davrlarida kuzatiladi). Kattalar tomonidan adolatsiz munosabat va boshqalar bo'lib hisoblanadi. Bu ko'rinishdagi suitsidal urinishlar suitsidentning birinchi qo'liga duch kelgan narsa bilan emas, balki oldindan tayyorlab qo'yilgan narsalar bilan amalga oshirilganligini ko'ramiz.

Bolalar va o'smirlarda suitsidal xulqning psixologik ma'nosi turli yosh davrlaridagi bolalar va o'smirlarda turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, pubertat oldi yoshi davridagi suitsidal urinishning 25,0% atrofdegilar e'tiborini o'ziga jalb qilishga yo'naltirilgan "chaqiriq" mazmuniga ega bo'lsa, 50,0% "azob uqubatdan o'zini olib qochish" mazmuniga va 25,0% "voz kechish" mazmuniga egadir. Kichik pubertat yoshi davrida 18,86% "chaqiriq", 13,21% "isyon", 22,63% - "azob uqubatdan o'zini olib qochish", 15,10% - "o'z-o'zini jazolash" va 30,18% - "voz kechish" mazmuniga egadir. Pubertat va pubertatdan keyingi yosh davrlarida 13,64 % "chaqiriq", 9,09%, 10,83% "isyon", 31,82%, 52,64% - "azob uqubatdan o'zini olib qochish", 18,18%, 15,78% - "o'z-o'zini jazolash" va 27,27%, 21,05% - "voz kechish" mazmuniga ega bo'lgan suitsidal urinishlardir.

Ushbu foizlar tahlili bolalar va o'smirlarda haqiqiy suitsidal xulq mazmuniga ega bo'lgan suitsidlarning psixologik ma'nosini "azob uqubatdan qutulish", "chaqiriq", va "isyon" mazmuniga ega ekanligidan dalolat beradi. Shunisi xarakterliki, haqiqiy mazmunga ega bo'lgan suitsidal xulqning psixologik ma'nosini suitsidal xulqning har bir rivojlanish bosqichida turli xil ma'noni namoyon qiladi. Masalan, suitsidal xulq rivojlanishining birinchi bosqichida (parasuitsidal) "chaqiriq" mazmuniga ega bo'lsa, keyingi bosqichlarida ko'proq "isyon" mazmunini namoyon qiladi.

Ambivalent suitsidal xulq asosida sodir etilgan suitsidal urinishlar asosan katta yosh davrlariga to'g'ri keladi. Autoagressivlik asosan kichik pubertat yosh davridagi bolalarda kuzatiladi. Yosh ortib borishi bilan esa agressivlik atrofga yo'naltirilganligining guvohi bo'lamiz. Ambivalent suitsidal urinishlarda motiv rolini ko'pincha kattalarning adolatsiz munosabatlari, shaxslararo nizolar va sevgi-muhabbatdagi muvaffaqiyatsizlik kabilar o'ynaganligini ko'ramiz. Shuningdek, ruhiy nosog'lomlik holati ham ba'zan motiv sifatida namoyon bo'ladi. Bu ko'rinishdagi suitsidlarda suitsidal urinish usulini tanlash va uni amalga oshirish ba'zan rejani oldindan o'ylangan usul orqali amalga

oshirilgan bo'lsa, ba'zan esa oldindan o'ylanmagan suitsidal urinish usuli orqali sodir etilgan.

Ambivalent suitsidal xulq asosida sodir etilgan suitsidlarda suitsidentlar suitsidoldi psixik holatlarida emotsional beqarorlik psixologik himoyalaniş funksiyasining izdan chiqishi, dil azobi, qo'rquv kabilarni namoyon qilishganligi kuzatiladi. Ambivalent suitsidal xulq asosida sodir etilgan suitsidlarning psixologik ma'nosi "azob uqubatdan o'zini olib qochish", "isyon" va "nizoli vaziyatdan qutulishga nisbatan intilish" mazmuniga ega ekanligi namoyon bo'ladi.

Bolalar va o'smirlar tomonidan sodir etilayotgan suitsidal urinishlarning uchdan biri kuchli ta'sirlanish va affektiv qo'zg'alishlar tufayli amalga oshirilgan.

Anglanilgan va shaxs tomonidan qayta ishlangan ruhiy jarohatli vaziyat reaksiyalari mu'lum tipdagi maqsadga yo'naltirilgan suitsidal xulqni yuzaga keltirsa, affektiv reaksiyalarda psixogen vaziyat shaxs tomonidan chuqur anglanilib, kayta ishlashga ulgurmaydi va ko'pincha xulqni izdan chiqaruvchi elementlar bilan to'yingan affektiv javobga olib keladi. Bunday holatlarda suitsidal xulq mexanizmining xususiyati "qisqa tutashuv reaksiyalari" deb nomlanuvchi affektning uzoq muddat yig'ilib boruvchi va bunda bahona emotsional portlashga olib keluvchi faqat "oxirgi tomchi" rolini o'ynovchi reaksiyalarga yaqin ekanligining guvohi bulamiz.

Affektiv suitsidal urinishlar individning hayotiy kechinmalarni boshdan kechirish jarayonida o'z umid va rejalarining birdaniga, to'satdan yo'qqa chiqishi okibatida nizolorni bartaraf etish imkoniyatining yo'qolishi, ya'ni frustratsiyaning negativ ta'sirini pasaytirishga erisha olmasligi natijasida sodir etilayotganligi kuzatiladi. Affektiv suitsidal urinishlarda motiv rolini asosan shaxs qadr-qimmatining pasayishi, sevgi muhabbatga bog'liq bo'lgan nizolar va kattalar tomonidan adolatsiz munosabatlar, hamda noo'rin tanbeh va jismoniy jazolashlar uynaganligining guvohi bo'lamiz. Bu xildagi suitsidal urinishlar oldindan uylanganligining suitsidal uy va niyatlar asosida sodir etilmaganligi tufayli oldindan o'ylangan suitsidal urinish usuli orqali emas, balki, kuchli ko'zg'alish holatlarida qo'liga birinchi duch kelgan narsa orqali amalga oshirilganidir.

Affektiv qo'zg'alish tufayli o'z joniga qasd qilgan bolalar va o'smirlar suitsidoldi emotsional holatida dil og'rig'i, vaziyatdan

qutulishning iloji yo'qligini his etish, qo'rquv, g'azab va vajohatlilik sifatlarini namoyon qilishgan. Bunday suitsidal urinishlarda suitsidal urinishning psixologik ma'nosini nomutanosib vaziyatga nisbatan o'z norozichiligini bildirish maqsadida "isyon" "azob uqubatdan qochish" va "yordamga chaqirish" mazmuniga ega ekanligi namoyon bo'ladi. Suitsidal urinishning boshqa turlari singari affektiv suitsidal urinishlarning ham psixologik ma'nosi xilma-xil va turlichadir. Buni affektiv holatida sodir etilgan suitsidlarni psixologik ma'nosini ifodalovchi ko'rsatgichlar ham ko'rsatib turibdi. Ular quyidagichadir: vujudga kelgan nizoli vaziyat va adolatsiz munosabatga nisbatan faol qarshilik ko'rsatish sifatidagi "isyon" pubertat oldi yoshi davrida (33,33% kichik pubertat yoshi davrida 39,63%, pubertat va pubertatdan keyingi yosh davrlarida 54,35%, 18,35%)ga tengdir. Atrofdagilarni yordamga undovchi "chaqiriq" pubertat oldi yoshida 66,67% ni, kichik pubertat yoshida 45,28%, pubertat va pubertatdan keyingi yosh davrlarida esa 26,08%, 34,38% ni tashkil qiladi. "Azob uqubatdan qutulish" kichik pubertat yoshida 15,09%, pubertat va pubertatdan keyingi yosh davrlarida esa 19,57%, 46,87%ga tengdir. "O'z-o'zini jazolash" va "voz kechish" kabilar affektiv suitsidlarda suitsidal urinishning psixologik ma'nosi sifatida o'ylanmaganligini ko'ramiz.

Affektiv holatda sodir etilgan suitsidal urinishlarda suitsidal o'y va niyatlarning shakllanishi hamda amalga oshirilishida suitsidentning shaxs va individual psixologik xususiyatlari, ustanovkalari, qadriyatlarini orientatsiyasining o'rni katta ekanligi namoyon bo'ladi.

Bolalar va o'smirlar affektiv reaksiyalar orqali sodir etilgan suitsidlarni tadqiq qilish natijalari ularda affektiv reaksiyalarning quyidagi ko'rinishlari mavjudligini ko'rsatish mumkin:

1. **O'tkir birlamchi affektiv reaksiya.** Bu xildagi affektiv reaksiya orqali suitsidal urinishni amalga oshirgan. Suitsidentlarda affektiv holatga sabab bo'luvchi nizolar asosan shaxsiy imtent, o'quv jarayoniga va shaxslararo nizolarga bog'liq bo'lib, ular o'tkir, lokal xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bunday holatlarda suitsidal o'y va niyatlar o'tkir emotsional ta'sirlanish natijasida vujudga kelib, suitsid oldi davri bir nechagina daqiqaga teng bo'ladi.

2. **Ikkilamchi affektiv reaksiya.** Bunda suitsidentlarning xarakterli xususiyatlardan biri bo'lgan tortinchoqlik, aqliy qobiliyatning nomutanosibliigi (bir ko'tarilib, bir pasayib tushirish) o'ziga ishon-

maslik, o'z-o'zini baholashning susayishi, kamgaplik, xayolparastlik kabilar namoyon bo'ladi.

3. *Akkumlativ (bog'lanib qolganlik asosida)*. Affektiv reaksiya. Bunday affektiv reaksiyalar tufayli sodir etiladigan suidsidlar ko'pincha yaqin kishisini yo'qotish shaxs uchun ahamiyatli munosabatlarni izdan chiqishi, somatik nosog'lomliklar, yolg'izlik kabilar tufayli vujudga keladi. Shunday qilib, bolalar va o'smirlarda affektiv holatda sodir etilayotgan suidsial urinishlarning psixologik ma'nosi idividning o'zini hayotdan ketkazishda qaratilgan mazmunga emas, balki atrofdagilarni yordamga chaqirishdan iborat bo'lgan. "Chaqiriq", noma'qul vaziyatga nisbatan "isyon", nizoli vaziyatdan qutilishga nisbatan bo'lgan intilish va izdan chiqqan ijtimoiy psixologik munosabatlarni qayta tiklashga qaratilganlik mazmuniga ega ekanligidan dalolat beradi.

Bolalar va o'smirlar suidsidining katta qismi namoyishkorona suidsidal xulq ko'rinishiga ega ekanligini ko'rsatadi. Bunday suidsidal urinishlar ayniqsa pubertat va pubertatdan keyingi yosh davrdan yanada ko'proq kuzatiladi. Namoyishkorona mazmunga ega bo'lgan suidsidal urinishlar kuchli jarohatli vaziyatlarda vujudga kelib uning psixologik ma'nosi vujudga kelgan nomunosib vaziyatga nisbatan o'z qarshiligini bildirish (isyon) bo'lib hisoblansa, motivi bo'lib esa otanasi, o'qituvchilari, sinfdosh o'rtoqlari va sevgan kishisi o'rtasidagi shaxslararo nizolar xizmat qiladi. Bunday suidsidal urinishlardan suidsidal suidsidoldi psixologik holatdan o'zining qadrsizligida achinish chuqur qayg'uga tushish nizoli vaziyatlarni hal qilib darajada his etish, qo'rqish va bezovtalanishni namoyon qilishgan. Qayg'urish betoqatlik va affektiv holatlar bu holdagi suidsidal urinishlarda sezilarni namoyon bo'lmaganligi kuzatiladi. Bunday suidsidal urinishlari suidsidal urinishlarini boshqa suidsidlardan farqli o'laroq, ular doimo ma'lum obyektiv, ma'lum kishilarga qaratilganligi bilan xarakterlidir. Namoyishkorona suidsidal xulqning psixologik ma'nosi ham affektiv haqiqiy ambivalent suidsidal xulqning ma'nosi singari xilma-xildir va turlichadir.

Namoyishkorona suidsidal xulq psixologik ma'nosining "chaqiriq" va "isyon" mazmunga ega bo'lishligi bunday suidsidal urinishlar o'zini o'ldirish maqsadida emas, balki nomutanosib va o'zini qoniqtirmayotgan vaziyatga nisbatan o'z noroziligini bildirish maqsadidagi "isyon" atrofdalilarni yordamga chorlash. "Chaqiriq"

mazmuniga ega bo'lgan suidsidal xulq asosida sodir etilayotganligini ko'rsatadi. Namoyishkorona suidsidal xulq asosida sodir etilgan suidsidal urinishlar asosan katta yosh davrlariga to'g'ri keladi. Kichik yosh davrlarida esa bunday suidsidal urinishlar deyarli kuzatilmaydi. Namoyishkorona suidsidal xulqning psixologik ma'nosi asosan "chaqiriq" va "isyon" mazmuniga ega ekanligi namoyon bo'lsada, bazan suidsidentning "azob uqubatdan qutilish" ga nisbatan bo'lgan intilishi suidsidal urinishning psixologik ma'nosini belgilaganligining guvohi bo'lamiz. Ayrim vaziyatlarda esa "chaqiriq" va "isyon" bir-biri qo'shib ketganligi ko'zga tashlanadi. Namoyishkorona suidsidal urinishlar ko'pincha oldindan tayyorlab qo'yilgan suidsidal urinish usuli orqali, qasd olmoqchi bo'lgan kishisi ko'z o'ngida sodir etilganligi tufayli bunday suidsidal o'y va niyatlar asosida amalga oshiriladi degan xulosaga kelishimizga sabab bo'ldi. Ba'zi holatlarda esa bunday suidsidal urinishlarning kelib chiqishida affektiv qo'zg'alishlarning ishtirok etishligi oldidan o'ylangan suidsidal o'y va niyatlar asosida emas, balki to'satdan vujudga kelgan suidsidal xulq asosida qo'lga birinchi duch kelgan narsa bilan amalga oshirilgan.

Bolalar va o'smirlar suidsidining tugallanganlik va tugullanmaganlik darajasini o'rganish natijalariga ko'ra kichik yosh davrlaridagi bolalarda suidsidal urinishning tugallanganlik darajasining yuqoriligi, ya'ni yashashdan voz kechishga qaratilgan haqiqiy mazmunga ega ekanligi, yoshi ortib borishi bilan esa suidsidal xulqning namoyishkorona tus ola boshlaganligi, ya'ni tugullanmaganlik darajasining ortib borilganligi kuzatiladi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, suidsidal xulq kichik yosh davrlarida suidsial urinish qo'rquv, his-hayajon holatida sodir etilganligini tufayli tugallanganlik darajasi yuqori bo'lsa, katta yosh davrdagi bolalar va o'smirlarda esa suidsidal xulqning namoyishkorona mazmunga ega ekanligi ularda tugullanmagan suidsidal urinish darajasining yuqoriligini belgilaydi. Bolalar va o'smirlarda suidsidal xulqning namoyishkorona mazmunga ega bo'lishligi suidsidalni o'y va niyatlarning suidsid oxiri natijasi bilan mos kelmasligini keltirib chiqadi. Shunday qilib, bolalar va o'smirlar suidsidining psixologik ma'nosini o'rganish yuzasidan olingan natijalarga ko'ra quyidagicha xulosalarni umumlashtirish mumkin:

–Bolalar va o‘smirlar suidsidi o‘zini hayotdan mahrum etishga emas, balki izdan chiqqan ijtimoiy psixologik munosabatlarni qayta tiklashga qaratilgandir.

–Bolalar va o‘smirlar tomonidan sodir etilayotgan suidsidal urinishlar asosan namoyishkorona va impulsiv xarakterdagi suidsidallardir.

–Bolalar va o‘smirlar suidsidining psixologik ma‘nosi asosan nomaqbul vaziyatga nisbatdan o‘z noroziligini bildirish maqsadidagi “isyon”, “qasos” va atrofdagilar e‘tiborini o‘ziga qaratish yo‘naltirilgan “chaqiriq” mazmunga egadir²⁴.

O‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini hosil qilish, balog‘atga yetmagan yoshlarni mustaqil xayotga tayyorlash, yoshlik imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish, o‘z joniga qasd qilish holatlarini oldini olish hamda yoshlar o‘rtasida tegishli profilaktik tadbirlarni samarali tashkil etish bo‘yicha quyidagilarni amalga oshirish lozim:

– notinch oila farzanlari ro‘yxatini shakllantirish, ularga malakali pedagog va psixologlarni biriktirib yakka tartibdagi profilaktik tadbirlarni olib borish;

– ta‘lim muassasalarida psixologlar faoliyati samaradorligini oshirish;

– ta‘lim muassasalarida doimiy ravishda o‘quvchilar bilan o‘z joniga qasd qilishni oldini olish bo‘yicha psixologik testlar, davra suxbatlari olib borish;

– notinch oilalardagi muhitni o‘rganish hamda mavjud muammolarni mahalla fuqarolar yig‘inlari va hududiy hokimliklar bilan hamkorlikda bartaraf etish choralarini ko‘rish;

– o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning iste‘odlarini yanada rivojlantirish, o‘quvchilar orasida zararli odatlarga qarshi profilaktik tadbirlarni tashkil etishga qaratilgan seminarlarni tashkil etish;

– ta‘lim muassasalarida, shuningdek sinf xonalarini o‘quvchilarning o‘z joniga qasd qilishning fojiiyali oqibati va uni oldini olish bo‘yicha ko‘rgazmali vositalar (bukletlar, plakatlar) bilan jihozlash;

²⁴ Umarov B.M. Bolalar va o‘smirlar suidsidining yosh va ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Psixologiya nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi ishi. T. 1993 y.

– o‘quvchilar orasida o‘z joniga qasd qilish holatlarining oldini olish va uning og‘ir oqibatlari haqida shifokorlar, psixologlar va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlari ishtirokida profilaktik tushuntiruv ishlarini olib borish;

– yoshlar o‘rtasida o‘z joniga qasd qilish holarining oldini olish, balog‘atga yetmaganlarni kelgusi hayotga tayyorlash va ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini hosil qilishga qaratilgan tadbirlar va sahna ko‘rinishlari tayyorlash.

Voyaga yetmaganlar tomonidan o‘z joniga qasd qilish holatlari bo‘yicha tergovoldi tekshiruvi sinchkovlik bilan, har tomonlama, to‘la va xolisona o‘tkazilishi va qonuniy qaror qabul qilinishini ta‘minlash lozim.

Bunday hodisalar yuzasidan voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalarga, zarur hollarda esa ichki ishlar organlariga, ta‘lim muassasalariga, xotin-qizlar qo‘mitalariga tekshiruvlar tayinlab, bolalarning o‘z joniga qasd va suiqasd qilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish, aybdor shaxslarning javobgarlik masalasini qat‘iyatlik bilan hal qilish lozim bo‘ladi.

Nazorat savollari:

1. Suitsidal xulq-atvor nazariyasi. E.Dyurkgeym “O‘z-o‘zini o‘ldirish” nazariyasi asoschisini asoslab bering.

2. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida o‘z joniga qasd qilishning nazariy sabablari, mavjud muammolari qaysilar?

3. Bolalar va o‘smirlar suitsidining sabab va motivlarini sanab bering.

4. O‘smirlik davridagi ijtimoiy psixologik xususiyatlari xulq-atvordagi buzilishlarning namoyon bo‘lish formalari qaysilar?

5. O‘z joniga qasd qilishni tadqiq qilishda psixologik yo‘nalishni izohlang.

6. Suitsidal xulq-atvorning psixodiagnostikasini tushuntiring.

7. Suiqasdning turlari, haqiqiy suiqasdlik xulqi va suiqasdlik holatining dinamik rivojlanishi qaysilar?

IX BOB. SHAXS OG‘ISHGAN AXLOQNING PSIXODIAGNOSTIKASI

Tayanch tushunchalar: *Psixodiagnostika davomida deviant xulqli o‘smirlarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Deviant xulqli yoshlarning hayotiy mezonlarini tahlil qilish. Deviant xulqli o‘smir xulq-atvor yo‘nalishining tahlili. O‘smirlarning ma‘naviy-axloqiy va huquqiy me‘yorlar haqidagi tushunchalari psixodiagnostikasi.*

9.1. Xulqi og‘ishgan bolalar bilan olib boriladigan psixodiagnostik ishlarning o‘ziga xos jihatlar va tamoyillari

Har qanday aniq fan o‘zining o‘rganish usullariga ega bo‘lib, ayniqsa, deviant xulq-atvorni o‘rganishda psixolog aniq va alohida bo‘lgan ijtimoiy psixologik xususiyatlarni aniqlashi, ularning kelib chiqish sabablarini ham o‘rganishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kuzatuv, suhbat, intervyu, anketa so‘rovnomasi, ekspert baholash usuli, o‘zini-o‘zi baholash uchun shaxsiy so‘rovnomalar, psixologik testlar, ijtimoiy baholash usullari orqali deviant xulq-atvorni diagnostika qilish maqsadga muvofiq (Yu.Asadov, R.Musurmanov. O‘smirlar deviant hatti-harakatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. O‘quv-metodik qo‘llanma. T: “Sano-standart” 2011 y.):

Psixodiagnostika davomida deviant xulqli o‘smirlarning quyidagi ijtimoiy psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak:

- o‘smirning hayotiy mezonlari;
- ma‘naviy va huquqiy me‘yorlar haqida tushunchaga ega bo‘lish;
- o‘qituvchilar, ularning ota-onalari va sinfdoshlari bilan muloqot;
- psixodiagnostika qilishdagi qiyinchiliklar, ular bilan kelisha olmaslik;
- o‘zining imkoniyatlari, qobiliyatlari, xususiyatlarini baholash;
- deviant xulqqa moyilligi;
- O‘z kelajagiga, o‘qish va kelgusi hayotiga bo‘lgan munosabatlar.

9.2. Deviant xulqli yoshlarning hayotiy mezonlarini tahlil qilish

Hayotiy qadriyatlarni aniqlash o‘smirlar bilan suhbat qilish, test metodini qo‘llash orqali ham o‘rganiladi.

O‘smirlar quyidagi qadriyatlarga moyilligi kuchliroq bo‘ladi:

- o‘z do‘stlarini tengdoshlari jamoasidan topish, bu bilan o‘ziga o‘xshash tengdoshlari bilan bir guruhda bo‘lish;

- boshqalarga o'xshash, ammo o'z qadrini bilish;
- "takrorlash", "taqlid qilish" guruh ichida ularga xos bo'lgan me'yorlarni qo'llash;
- og'ir holatlarda, tengdoshlar orasidagi kelishmovchiliklarda bir-biriga yordam qo'lini cho'zish;
- guruh ichida o'zini kuchli, adolatli inson sifatida namoyon etish;
- ota-ona, vasiylardan mustaqil bo'lish istagi;
- ko'pgina holatlarda huquqbuzarlik, tajovuzkorlik bilan bog'liq jismoniy kuch, iroda namoyishlari;
- kattalar huquqiy me'yorlar talablarini inkor etsa ham agarda huquqbuzarlik bilan bog'liq faoliyatga so'z bergan bo'lsa, uni albatta bajarish;
- chet elning bizga yot bo'lgan madaniyat mahsullarini o'zlashtirish, musiqa, kiyim-kechak, bezak vositalari;
- qanday yo'l bilan bo'lmasin "moddiy farovonlikka erishish" va boshqalar²⁵.

9.3. Deviant xulqli o'smir xulq-atvor yo'nalishining tablili

Buning uchun avvalambor B.Bass metodikasi qo'llanilib, unda shaxsning yo'nalganligini baholash mumkin:

1. O'ziga yo'nalganlik, ya'ni Oliy nufuzga ega bo'lish motivlarining ustunlik qilishi, o'z shaxsining xislatlarini to'liq idora qilish va tahlil qila olishga intilish. O'ziga yo'nalgan kishi ko'proq o'z hissiy kechinmalari, fikru xayollari bilan band bo'lib, atrofdagilar bilan kam qiziqadi; hatti-harakatlarining boshqalar tomonidan tan olinishiga, qadrlanishiga, qo'llab-quvvatlanishiga ehtiyoj sezadi; tanqidni uzoq eslab yuradi, tanqiddan, odamlarning nazaridan yiroqda yurishni yoqtiradi. Barcha hatti-harakatlarining jamoatchilik tomonidan baholanishiga juda sezgir, xato hatti-harakat qilishdan qo'rqadi. Kasbiy faoliyatiga jamiyatda yuqori baholanadigan kasb sohasini tanlashga va shu sohada o'z mehnati, kasbga sodiqligi bilan obro'-e'tibor qozonishga intiladi. O'ziga yo'nalgan kishi agar keng ma'naviyatli, fahm-farosati baland inson bo'lsa, undan xudbinlik kayfiyatidagi xulq-atvorni kutish qiyin. Bunday kishilar, ko'pincha, chuqur mulohazali, o'tkir zehni insonlar bo'lishadi. Obrazli qilib

²⁵ Yu.Asadov, R.Musurmanov. O'smirlar deviant hatti-harakatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. O'quv-metodik qo'llanma. T: "Sano-standart" 2011 y.

aytganda, “pichoqni avval o‘zingga ur, og‘rimasa birovgga» degan maqolga qat‘iy amal qiladigan, bir oz kamgap ko‘rinsalarda. ichki dunyolarida o‘zlari bilan tinimsiz “gaplashib”, o‘zlarini “tergab” turadigan, sermulohaza kishilardir. Shu jihatdan, bunday xulq-atvor ularni boshqalar, ayniqsa, odamlarga yo‘nalgan kishilar uchun ko‘rimsiz, yopiq yoki “sovuq” basharali qilib ko‘rsatishi mumkin.

2. Odamlarga yo‘nalganlik - har qanday sharoitda ham odamlar bilan yaqin va iliq muomalada bo‘lishga intilish xususiyati. Bunday kishilar shaxslararo munosabatlarning barcha tomonlariga katta ahamiyat beradilar. Ko‘pincha, ular uchun hayotda eng qadrli narsa - boshqalar bilan munosabatda, hamkorlikda bo‘lish imkoniyatidir. Kuchli darajada odamlarga yo‘nalganlik - doim xushchaqchaq, odamlar nazarida bo‘lish, har tomonlama muloqotda bo‘lish, cheksiz sohalarda aloqada, yaqin munosabatda bo‘lishdir. Bunday kishilar uchun odamlarsiz dunyo mazmunsiz bo‘lib, kundalik hayotda o‘z mehnat yoki o‘qish jamoalari bilan bog‘liq bo‘lishga, iliq hissiy munosabatlarni davom ettirishga kuchli ehtiyoj sezadilar. Kasbiy faoliyatda o‘z kasbdoshlari bilan qalin munosabatda, hamjihat bo‘lishga intilishlarida bu yo‘nalganlik o‘z aksini topadi. Mehnat jamoalarida o‘zaro yordam va ishonch hislariga katta e‘tibor berishadi. Bu yo‘nalishdan yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan kishilar ko‘proq odamlar bilan ishlaydigan sohalarni tanlaydilar va shu sohadagi kasblarni yengil o‘zlashtiradilar.

3. Faoliyatga yo‘nalganlik - mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni hal etishga qiziqish, topshirilgan vazifani imkon qadar puxta qilib bajarishga intilish xususiyati. Bunday kishi mehnatni tashkil etishning odatdagi usulidan tezda zerikib qoladi va shu sababli, doimiy ravishda ish jarayonini o‘zgartirib, mukammallashtirib borish orzusi bilan yuradi. Vazifani to‘liq va mukammal bajarishga moyillik, javobgarlik hissi, shu bilan birga ishdan, mehnat faoliyatidan zavq olish, mehnatni qadrlash, unga vujudi bilan kirishib ketish, mehnatga e‘tiqod va shu sababli o‘z sohasini chuqur va mukammal o‘rganishga moyillik bu yo‘nalishdagi kishilarga xos xislatlardandir. Bunday kishilar ish yuzasidan asosli va chuqur hamkorlik qilishga intiladilar. Odamlar uchun foydali bo‘lgan umumiy maqsadga erishish yo‘lida o‘z fikrlarini ilgari surishga qodir bo‘lib, qat‘iy va ma‘lum bir kasb doirasida mustaqil va ijodiy fikrlari bilan ajralib turadilar.

Inson motivlari majmuasini, ta'kidlanganidek, uch guruhga taqsimlash nisbatan sodda talqin bo'lib, o'zbek milliy muhitida yuqori sinf o'quvchilarini kasbiy psixologik tashxis etishda dastlabki yondashuvlardan deb qabul qilinishi mumkin ("Shaxs yo'nalganligini aniqlash" metodikasi (Smekal va Kucher)).

Asosiy yo'nalish metod bo'yicha aniqlanganda ko'p ball to'plagan yo'nalish ustuvor deb hisoblanadi. Test natijalarini e'lon qilgandan so'ng o'smirlar bilan suhbat o'tkaziladi va o'smirning o'zi haqidagi bahosi bilan nechog'liq to'g'ri kelishini aniqlash darkor. Ayniqsa, o'z-o'ziga qaratilgan yo'nalishi va o'zaro muloqot, bahamjihatlikka qaratilgan yo'nalishni namoyon qilgan o'smirlarni diqqat markazida ushlab zarurdir. Bu yo'nalishning birinchisi xudbinlik va salbiy illatlarni yaqqol ko'rsatsa, demak aynan shu illatlar ham deviant xulqning rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin.

Ikkinchi yo'nalish esa o'smirlarning o'zaro muloqotga va tengdoshlari bilan aloqani ushlab turishga bo'lgan ehtiyojini belgilaydi.

Shaxsning mehnatga qaratilgan yo'nalishi zamirida jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlar doirasidagi ishlar tushuniladimi yo'qmi shunga ko'ra, salbiy va ijobiy xarkaterdagi yo'nalishlarga bo'linadi.

9.4. O'smirlarning ma'naviy-axloqiy va huquqiy me'yorlar haqidagi tushunchalari psixodiagnostikasi

Psixodiagnost shaxsi avval, ijtimoiy me'yorlar umumiy nazariyasini tarkibiy qismlaridan bo'lgan axloqiy va huquqiy me'yorlar haqidagi bilimga ega bo'lishi kerak. Ma'naviy-axloqiy me'yorlar – bu jamiyatda o'zaro muloqot uchun qabul qilingan xulq-atvor qoidalari bo'lib, ular aholining katta qismi orasida hayotiy odatlar tarzida namoyon bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy me'yorlar insonlar har bir aniq voqelikka nima deb, qanday harakat qilishi kerakligining namunasi. Sodda qilib aytganda, axloqiy me'yorlar ma'naviyat, axloq, etika, dinshunoslik nuqtai nazaridan nima oq-u, nima qora, nima mumkin-u, nima mumkin emas degan savollarga javob beradi.

Huquqiy me'yorlar – bu insonlarning qonunlar, huquq, burch va vazifalarini to'liq anglay bilib, qilgan hatti-harakatlaridir. Huquqbuzarlik deganda - jamiyat uchun xavfli bo'lgan qilmish yoki harakat tushuniladi. Ma'naviy, axloqiy ijtimoiy me'yorlarni buzgan kabi, o'smirlar ko'pincha huquqiy me'yorlarni buzib turishsa, bu deviant

xulq xususiyatlaridan biridir. Har bir tekshirilayotgan o'smir bilan suhbat boshidanoq do'stona munosabat o'rnatish darkor. Psixolog suhbat uchun shunday iliq muhit yaratishi kerakki, o'smir bu muhitda o'zini yaxshi va erkin his qilsin. O'smirning shaxsiy muammolari aniqlangandan so'ng, ular bilan insonlar, jamiyat hayotida axloqiy va huquqiy me'yorlarning o'zni mavzuida suhbat o'tkazish darkor. Shu narsani ta'kidlash kerakki, insonlar orasida o'zaro muomala bevosita ularning ishida, o'qishida, uyda, oilada nechog'liq axloq me'yorlariga rioya qilishlariga chambarchas bog'liqdir. O'smiringa o'zining huquqi va burchini tushuntirish, o'z hatti-harakatlariga o'zi javob berishini ham aytib o'tish kerak.

Yuqoridagi holatlarni psixolog deviant xulqli yoshlarning axloqiy-huquqiy me'yorlarini tahlil-tashxis qilayotganida e'tiborga olish zarur. Yakka tartibda o'tkazilgan suhbatlar davomida deviant xulqli o'smirlar namoyon qilgan tahliliy ko'rsatkichlari, nomsiz anketa so'rovnomasi javoblari orqali to'ldirish mumkin.

Shu maqsadda tuzilgan anketa so'rovnomalari savollari 20 tadan ortiq bo'lmay, quyidagi axloqiy va huquqiy me'yorlar haqida tushunchalarni qamrab olsa, maqsadga muvofiqdir:

↓ jamiyat talab qilayotgan axloqiy va huquqiy xulq me'yorlarini bilishi;

↓ o'smirning hayotiy qadriyatlarini mezonini;

↓ o'z hatti-harakatidagi xatolik va huquqbuzarlik darajasini idrok etish;

↓ o'qituvchilarga, ota-onalarga, oilaning boshqa a'zolariga bo'lgan o'z munosabatini baholay bilish;

↓ sinfdosh va ko'chadagi do'stlariga uning munosabati va ularning o'smiringa bo'lgan munosabatiga baho bera olish;

↓ deviant xulq namoyon qilishga moyilligini idrok etish;

↓ o'z sifatlariga, qobiliyat va imkoniyatlariga, o'z shaxsiyatiga baho bera olish;

↓ maktabdagi o'qishiga, o'z sohasidagi va hayotiy yo'lidagi kelajagiga bo'lgan munosabat.

9.5. Deviant xulqli o'smirlarning o'zaro muloqotidagi qarama-qarshiliklar va kelishmovchiliklar

Avvalo shuni aytish lozimki, yosh yigit-qizning o'smirlilik davri bizning sharoitimizda asosan oilada, mahalla, maktab, turli xil ta'lim-

siyosiy fanlar Xalqaro assotsiatsiyasining Butun jahon kongressi (Seul,1997) mazkur masalaga bag'ishlandi.

O'smirlarning janjalli xulqi sababi va oqibatlarini tahlil qilish uchun yakka tartibdagi suhbatlar, anketa so'rovnomalari va testlar kamlik qiladi. Suhbat davomida quyidagi savollarga psixolog javob iziashi kerak:

❧O'smir avvallari ham yaqinlari va tanishlari bilan janjallashganmi? Masalan otasi, onasi, o'qituvchilari, do'stlari, tengdoshlar bilan;

❧Janjallashish uchun qanday sabab bo'lgan (uning o'zi, boshqalar, vaziyat munosabat va ...);

❧U nima deb o'ylaydi, yaqinlari va tanishlari bilan bo'lgan janjallarda kimning aybi ko'proq? Uning o'zinikimi yoki birovnikimi?

❧Janjallarni u qanday hal qiladi, yakka o'zimi yoki boshqalar aralashdimi?

❧Muammoni hal qilish nima bilan tugadi? (yarashildimi, ajrashib ketishdimi, murosa qilishdimi, o'z xatolarini tushundimi, yaxshiroq bo'ldimi, yomonlashdimi?).

❧Hozirda maktab o'qituvchilari, ota-onasi va tanishlari bilan bo'lgan munosabat qanday holatda? Samimiy aytganda hozirgi damda o'smirni qanday muammo qiynamoqda?

❧Uning muammosi nima bilan (o'zining xulq-atvori, atrofdagilar bilan muloqoti, nohaqlik, yolg'on) bog'liq?

❧Muammolarni yechish yo'li qanday hal qilinadi? Faqat o'zi yoki birovning yordami bilanmi?

❧Tengdoshlari bilan yoqalashganmi? Kim aybdor bo'lgan?

❧Boshqalar uni hurmat qilishi uchun u qanday inson bo'lishi kerak?

Yuqoridagi savollarga topilgan javoblar orqali o'smiring janjallari sabablarini, janjalining xususiyatlarini tadqiq qilib, o'smiring ijtimoiy psixologik, shaxsiy xususiyatlarini aniqlab berish mumkin. Bu ma'lumotlarni yanada to'ldirish uchun K.Tomas tuzgan maxsus uslubdagi testlardan, T.Lirining testlaridan foydalanish mumkin.

9.7.O'smirlarning deviant xulqqa moyilligi diagnostikasi

Har bir deviant xulqqa bo'lgan moyillik avvalambor sinf rahbarlari, o'qituvchilari tomonidan berilgan ma'lumotlarda namoyon

bo'ladi. Ammo bu ma'lumotlar to'liq bo'lmasligi ham mumkin, chunki bu yoshda deyarli barcha o'smirlar salbiy ishlar, be'etiborliklarga yo'l qo'yishadi. O'smirdagi deviant xulq darajasini aniqlash uchun psixolog o'smir bilan yakka tartibda aniq maqsadli suhbat o'tkazishi kerak. Suhbat uchun mutaxassislar tomonidan quyidagi tartibda savollar berishi maqsadga muvofiqdir. O'smir o'zini uydagi, maktabdagi xulq-atvorini doimo to'g'ri deb o'ylaydimi? Agar u doimo haqman deb o'ylasa, nima uchun kattalar, ya'ni ota-onasi, o'qituvchilari uni intizomsizlikda, buysunmaslikda ayblashadi? Agar u o'zining xulq-atvoridagi noma'qulchiliklarni biisa, bu illatga kim yoki nima aybdordir? O'smir o'zining noto'g'ri hatti-harakatlaridan og'rinadimi?

Maktabga borish davomati qay darajada:

muntazam, sababsiz dars qoldirishlar uchrab turadi?

uzluksiz dars qoldiradimi?

Bo'sh vaqtini qaerda o'tkazadi: uyda, ko'chada, do'stlari bilan? Zararli odatlari bormi: chekish, spirtli ichimliklarni ichish, giyohvand moddalarni qabul qilish. Nima uchun u zararli odatlarga bog'lanib qolgan? Agar u zararli odatlarga ko'nikib qolmagan bo'lsa, hayoti davomida bir bora bo'lsa ham iste'mol qilganmi? Uning fikricha ota-onasi yetarlicha ta'minlay olmadilarmi? Agarda u qandaydir qimmatbaho buyumni olmoqchi bo'lsayu, yetarli mablag'ni topa olmasa, sharoiti bo'lmasa, u o'sha narsani yoki kerakli pulni o'g'irlash haqida o'ylab ko'rganmi?

Ozodlikdan mahrum qilish zonalarida o'tirib chiqqan do'stlari bormi? Bor bo'lsa, ularga nechog'liq yaqin? Yaqin bo'lsa, nima uchun ular bilan muloqot qilish unga muhim?

Yuqoridagi do'stining fikrini, qiziqishlari, xohishlariga u qanchalik ahamiyat beradi.

Kimdir uni ranjitsa, uni kaltaklash istagi tug'iladimi? U ichki ishlar tarmoq idoralari orqali huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortilganmi?

Agar javobgarlikka tortilgan bo'lsa, uning sabablari nimada? U o'zi uchun qanday xulosa chiqaradi?

O'zini-o'zi o'ldirish haqida o'ylaganmi, o'ylagan bo'lsa, bunday fikrga qanday qilib yo'l qo'ygan?

Hayotining ayni hozirgi damlarida uning uchun qimmatli hisoblangan qadriyat: maktab, ko'chadagi do'stlari, guruhda yig'ilish, bilim olish, ishlash, pul topish va hakoza.

Suhbat natijasidagi xulosani esa ekspress so'rovnoma anketasi orqali to'ldirish mumkin.

Deviant xulqni aniqlash bo'yicha savolnoma:

1. O'zingizni yolg'iz va keraksiz sezasizmi?

a) ha b) ba'zida; c) yo'q.

2. Ba'zi sabablarga ko'ra maktabda qoniqarsiz o'quvchi deb hisoblangansizmi?

a) ha; b) javob bera olmayman; c) yo'q.

3. Do'stlaringiz sizni ko'chaga chaqirishsa, keskin rad qila olasizmi?

a) ha; b) ba'zida; c) yo'q.

4. Yolg'onni ko'p qo'llaysizmi?

a) ha; b) ba'zida; c) yo'q.

5. Spirtlik ichimlik, giyohvand narkotik modda iste'mol qilib ko'rganmisiz?

a) ha; b) javob bera olmayman; c) yo'q.

6. Pul tikib, karta. boshqa qimor o'yinlarini o'ynab ko'rganmisiz?

a) ha; b) javob bera olmayman; c) yo'q.

7. Pornografiya bilan tanishmisiz?

a) ha; b) javob bera olmayman; c) nimaligini bilmayman.

8. Sizni kimdir xafa qilsa, uni kaltaklagingiz keladimi?

a) ha; b) ba'zida; c) yo'q.

9. Hozir ota-onangiz bilan munosabatingiz yomonlashganmi?

a) ha; b) javob bera olmayman; c) yo'q.

10. Internetga bog'lanib qolganmisiz?

a) ha; b) ba'zida; c) yo'q.

11. Dahshatli filmlar ko'rish juda ham yoqadimi?

a) ha; b) ba'zida; c) yo'q.

12. Huquqbuzarlik, yomon xulq-atvoringiz sabab ichki ishlar xodimlari sizni yaxshi tanishadimi?

a) ha; b) javob bera olmayman; c) yo'q.

13. Siz "2" baho olsangiz ham bunga loqaydlik va beparvolik bilan qaraysizmi?

a) ha; b) ba'zida; c) yo'q.

14. Sport o'yinlariga qiziqib, ular bilan shug'ullanisizmi?

a) ha; b) ba'zida; c) yo'q.

15. Ota-onangiz sizni tushunmay, tanbeh berishsa, uydan bosh olib ketgingiz keladimi?

a) ha; b) javob bera olmayman; c) yo'q.

Javoblarning tahlili:

A – javoblar 50%dan ortiq bo'lsa, deviant xulqni namoyon qilishga moyillik va intilish bor.

B - variantli javoblar umumiy javoblarning 50% dan ortig'ini tashkil qilsa, deviant xulq namoyon qilishga yashirin ichki intilish mavjud.

C – javoblar ko'p bo'lsa, oddiy, to'g'ri yashash tarziga, yaxshi xulqqa moyillik ustuvor.

8. Deviant xulqli o'smirlarning o'qishiga, kelajak hayoti va kelgusi kasbiy hayotiga bo'lgan munosabatlari tashxisi.

Deviant xulqli o'smirlarning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini tahlil qilish, aniqlashda, ularning o'qishga, hayotga, kelajakka, qaysi kasb egasi bo'lmoqchiligiga bo'lgan munosabatini bilish muhimdir. O'smir bilan tahliliy suhbat davomida quyidagi mazmundagi savollarni berish maqsadga muvofiqdir:

❖ maktabda o'qish unga qiziqmi, qaysi fanlarga qiziqadi?

❖ qaysi o'qituvchini va nima sababdan yaxshi ko'radi?

❖ "a'lochi" bo'lishni, yaxshi o'qib, kelgusida o'zi yaxshi ko'rgan kasbga ega bo'lish uchun kollejga kirishni istaydimi?

❖ Kelajagini qanday tasavvur qiladi?

❖ Uning fikricha, kattalar hayotining bosh mezoni nima?

❖ Jamiyatda qanday o'rin tutishni, kim bo'lishni orzu qiladi?

❖ Kasb- hunarlar haqida nima biladi, qanday kasblar unga yoqadi?

❖ Uning fikricha, kasb egasi bo'lishi uchun u qacda ilm olishi kerak?

❖ O'zi uchun biron-bir kasbni tanladimi, tanlamagan bo'lsa nima uchun?

❖ Qanday qiziqishlari, xobbisi bor, yana nima bilan shug'ullanishni istaydiyu ammo bunga sharoiti yo'l qo'ymaydi?

❖ Biron-bir faoliyatga alohida qobiliyatim bor deb hisoblaydimi?

❖ Kelajakda o'zi va oilasini boqadigan darajada yaxshi mutaxassis bo'la oladimi?

❖ O'z oilasiga qanday munosabatda va kelgusi oilaviy shaxsiy hayotini qanday tasavvur qiladi?

“Konflikt” so‘zi lotinchadan olingan bo‘lib, “conflictus” “to‘qnashuv” ma‘nosini anglatadi. Bu bir-biriga mutloq qarama-qarshi bo‘lgan qarashlar, fikrlar, xarakterlar, namunalar to‘qnashuvi. Ijobiy maqsadga erishish uchun konfliktli muomalani tubdan o‘zgartirish kerak. Insonlar o‘z g‘oyalari, prinsiplari, xarakterlari, intilishlarini himoyalab to‘qnashib qoladilar.

Konfliktlar - odamlararo, shaxslararo bo‘ladi. O‘zaro muloqot qiluvchi ikki yoki undan ortiq shaxslararo kelishmovchilikdir. Bunday janjal oddiy muomalaning ham buzilishida yoki umuman tugashida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Agarda to‘qnashuvdan so‘ng ham o‘zaro muloqot takrorlansa, unda ko‘pgina holatlarda insonlar umuman yuz ko‘rmas bo‘lishgacha boradilar. Ba‘zida bunday holatlar insonlarning kelishib olishga sabab bo‘ladi. Insonlararo to‘qnashuvda odamlarning turli qarashlari, istaklari, dunyoqarashlari bir-biriga zid keladi. Ko‘pincha, janjallashayotgan odamlar muloqoti o‘zaro ayblovlar, haqoratlar, bir-birini yerga urishlari bilan kuzatiladi. Ichki konflikt – bu bir-biriga zid fikrlar, qiziqishlar, ichki mazmun va qarama-qarshi dunyoqarash oqibatida ro‘y beradi. Shaxsning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olib, aytish mumkinki, ichki konflikt zamirida o‘z-o‘zidan qoniqmaslik hissi yotadi. Bunday kelishmovchiliklar ularning ijtimoiy voqelikda keskin to‘qnashuviga olib keladi.

Janjallarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularni quyidagilarga ajratish mumkin: raqobat, moslashish, hamkorlik, kelishuv, chetlab o‘tish.

Konfliktlarni tadqiq qilishning nazariy jihatlarini ishlab chiqishda amerikalik sotsiolog Tolkott Parsons (1902-1979) tomonidan asoslantirilgan tashkilotning tuzilmaviy funksional modeli muhim o‘rin egallaydi. U jamiyatga insonlar o‘rtasidagi munosabatlar tizimi, normalar va qadriyatlarga uni bog‘lovchi bo‘g‘in deb qaragan.

U quyidagi qoidalarga amal qilgan:

a) har qanday ijtimoiy tizim nisbatan barqaror, doimiy va yaxshi tashkil etilgan tuzilmadan iborat;

b) bu tizimning har bir elementi muayyan funksiyani bajarishi bilan tizim barqarorligini saqlashga o‘z ulushini qo‘shadi;

c) bu ijtimoiy tuzilmaning amal qilishi zarur barqarorlik va hamkorlikni ta‘minlovchi jamiyat a‘zolarining qo‘llab-quvvatlashiga asoslanadi.

Parsonsning fikricha, ijtimoiy harakatning me'yoriy komponenti quyidagi to'rtta darajada namoyon bo'ladi: organizm, shaxs, ijtimoiy tizim, madaniyat. Konfliktning bo'lishi ijtimoiylashuv jarayonining o'zida mavjud, bunda inson nafaqat ijtimoiy tizimning namoyon bo'lish usullariga, shuningdek, tegishli madaniyatning me'yori va qadriyatlariga ham jalb qilinadi. Ijtimoiylashuv jarayonida organizmning ichki fiziologik ehtiyojlari bilan insonning ijtimoiy munosabatlardagi ehtiyojlari o'rtasida shakllanadigan nomuvofiqlik, muayyan tanglik konfliktga aylanishi mumkin.

Bunda ijtimoiy tizimning ichki qarama-qarshiligini, va demak, konfliktlarni vujudga kelishining realligini tan olinishi juda muhim edi. Biroq, umuman olganda, Parsons tizim elementlari o'rtasidagi konfliktsez, "uyg'un" munosabatlar tarafdori bo'lgan. U konfliktni ijtimoiy anomaliya, o'ziga xos kasallik va uni yengish zarur deb hisoblagan.

Ijtimoiy konflikt tabiatiga nisbatan Parsons tomonidan bildirilgan nuqtai nazar XX asrning 30-40-yillarida "kishilar munosabatlari" maktabi vakillari tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Ular ham sanoati rivojlangan mamlakatlar qurishi kerak bo'lgan jamiyatning tabiiy holati uyg'unlik va ijtimoiy konsensus holati bo'lishi lozim deb hisoblaganlar.

Bu maktabning yirik vakili, Garvard universiteti professori Elton Meyo (1880-1949) "hozirgi zamonning bosh muammosi" bo'lgan "sanoatda tinchlik"ni o'rnatishga yordam qilish zarur deb ta'kidlagan. U konfliktni xavfli "ijtimoiy illat" deb bilgan. Undan iloji boricha qochish kerak, "ijtimoiy muvozanat"ga va "hamkorlik holati"ga intilish kerak.

Turli mamlakatlar olimlari hech bir nuqsonsiz faoliyat ko'rsatadigan va boshqariladigan tashkilotlarda ham konfliktlar paydo bo'lishiga e'tibor qaratganlar. Bu holat barqaror konsensusni ta'minlashga qodir qandaydir ijtimoiy tizim modeli borligiga shubhalanishga olib keldi. Shu bilan birga konfliktlarga o'sib o'tuvchi ijtimoiy ziddiyatlarning tabiiy muqarrarligi va qonuniy xarakter kasb etishini hisobga olish zarurligini tushunish ham mustahkamlanib bordi. Natijada XX asrning 50-yillarida AQSh, Germaniya, Fransiya va qator g'arb mamlakatlarida konfliktning hozirgi zamon konsepsiyalari shakllandi va keng tarqaldi.

Hozirgi zamon tadqiqotchisi amerikalik Lyuis Kozer 1956 yilda nashr qilgan "Ijtimoiy konflikt funksiyalari" nomli kitobida konfliktli munosabatlarsiz ijtimoiy guruhlar mavjud bo'lmashligini hamda ijtimoiy tizimlarning amal qilishi va almashinishida konfliktlarning ijobiy amaliy ahamiyat kasb etishini to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatdi. Uning fikricha, butun jamiyatning barqarorligi unda mavjud konfliktli munosabatlarning miqdoriga va ular o'rtasidagi aloqalar tipiga bog'liq.

L.Kozerning ijobiy-funksional konflikt nazariyasining mohiyati shundaki, konfliktlar jamiyat uchun begona, anomal hodisa emas; ular ijtimoiy tizim ichki holatining, undagi alohida shaxslar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi odatiy munosabatlarning elementi, mahsulidir. Uning fikricha, konfliktlar muhim funksiyalarni bajaradilar, ular vaqti-vaqti bilan jamiyatdagi tarang vaziyatni yumshatish, alohida shaxslar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlar va kolliziyalarni hal etish usuli sifatida zarurdir.

Nemis sotsiologi Ralf Darendorf jamiyatning konfliktli modeli konsepsiyasini ishlab chiqqan. Uning 1965 yilda chop etilgan "Sinfy tuzilma va sinfiy konflikt" asarida har bir jamiyat hukmronlikka, majburlash va bo'ysunishga asoslangan deb hisoblaydi. Qarama-qarshiliklar, konfliktlarning bo'lishiga sabab, faqat odamlarning ijtimoiy notenglikka mahkumligi emas, shu bilan birga hokimiyat, shon-shuhrat, avtoritet uchun bo'lgan kurash, boshqaruv munosabatlaridagi noteng mavqega ega bo'lishdir, bunda bir xil odamlar faqat buyruq berish huquqiga, boshqa odamlar bu buyruqlarni bajarishga va bo'ysunishga majburlirlar.

Darendorf konfliktlarni ijtimoiy hayotda bartaraf etib bo'lmaydigan va har qanday ierarxik tizimga xos xususiyat deb hisoblaydi. Biroq, odamlar konfliktlarni tartibga solish imkoniyatiga egadirlar. Buning uchun uchta shartning bo'lishi zarur:

birinchidan, konfliktlashuvchilarning tafovutlanishini va qarama-qarshiligini tan olish;

ikkinchidan, taraflarning, shu jumladan, jamiyatning uyushganlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, bitimga kelishish shuncha yengil bo'ladi;

uchinchidan, konfliktda ishtirok etuvchi taraflar o'rtasidagi munosabatlarni saqlashga olib keluvchi muayyan qoidalarning o'zaro maqbulligi.

Konfliktlarning umumiy nazariyasi deb nomlangan konsepsiyaga amerikalik sotsiolog va iqtisodchi Kennet Boulding asos solgan. U ham konfliktlar hamma yerda uchrashi, odamlar o'ziga o'xshaganlarga nisbatan doimiy dushmanlik qilishga va kurash olib borishga intilishlarini ko'rsatib, zo'rlik ishlatish eskalatsiyasi inson tabiatida yotadi, deb bilgan. Shu bilan birga konfliktlar umumiy xususiyatlar bilan paydo bo'ladi va rivojlanadi, yagona elementlar orqali namoyon bo'ladi, deb ko'rsatgan hamda ularni ijtimoiy sharoitlardan ajratib bo'lmasligini, ularning oldini olish va yengish mumkinligini ta'kidlagan. Boulding fikricha, konfliktlarni barham toptirishga qaratilgan "ijtimoiy terapiya" asosini uchta narsa tashkil qiladi:

- yuzaga keluvchi qarama-qarshiliklar sababini tushunish;
- ularni tugatishning kelishilgan usullarini oqilona tanlash;
- insonlarning ma'naviy takomillashuvi.

Konfliktning hozirgi zamon konsepsiyalarida kishilarning har qanday harakatlari, shu jumladan, konfliktli harakatlari ham ijtimoiy mohiyat kasb etishi, ularning u yoki bu darajada ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi haqida fikr mavjud. Konfliktni, uning sababini, namoyon bo'lish sohasi va shaklini, tartibga solish usulini faqatgina jamiyat, ayniqsa, inson tabiatini, ijtimoiy munosabatlar mohiyatini va insonlarning o'zaro munosabatlarga kirishish qonuniyatlarini chuqur anglash asosida tushunish mumkin.

"Inson" mezonini, inson mohiyati, uning jamiyatda tutgan o'rni va ijtimoiy tayinlanishi haqidagi masalalar hozirda ham konfliktlarni tushinishda belgilovchi muhim asosdir.

Hozirgi zamon konflikt tadqiqotlarida ikkita asosiy yo'nalish uzil-kesil shakllangan. Birinchi yo'nalish G'arbiy Yevropada (Fransiya, Gollandiya, Italiya, Ispaniya) keng tarqalgan bo'lib, u konfliktlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi institutlar faoliyati bilan bog'liq. Ikkinchi yo'nalish AQShda keng tarqalgan bo'lib, tinchlik muammolarini tadqiq etuvchi institutlar faoliyati bilan bog'liq. Bu institutlarning maqsadlari bir-biriga juda o'xshash, biroq ularga turli metodologik yondoshuvlar asosida erishiladi. Bir xil tadqiqotlarda g'alabaga erishish yo'llari haqida fikrlar birlamchi ahamiyatga ega, ya'ni: "Tinchlikni xohlasang, urushni o'rgan". Tinchlikni tadqiq qiluvchi institutlar xodimlari tinchlik va kelishuv muammolariga birinchi darajali ahamiyat beradilar. Konfliktlar va ularni hal qilish yo'llariga bo'lgan umumiy qiziqishning ortishi shu darajaga yetdiki,

tarbiya muassasalari, sport, ko'ngilochar joylardagi jamoalarda kechadi. Agar tarbiya uchun mas'ul bo'lgan mana shu zanjirning biror bo'g'ini zaif bo'lib, o'smir bu yerda o'ziga nisbatan e'tibor, izzat, g'amxo'rlik va mehribonlik, unga nisbatan bo'layotgan nazoratni sezmasa, u boshqa narsalarni o'ylay boshlaydi. O'zining dunyoqarashi, intilishi, borliqni o'zida idrok etishi nuqtai nazardan kelib chiqqan holda kattalarga taqlid qilishga urinadi, ichishni, chekishni, o'zgalardan zo'rroq bo'lishni xohlab qoladi. Niyatini amalga oshirish uchun chora izlaydi, o'zgalar ta'siriga beriladi. Ijobiy muhitga tushmagan, e'tibordan chetga qolgan bolani yomonlar tez fursatda o'zlarining davrasiga qo'shib oladilar. Natijada u salbiy illatlarning qurboniga aylanishi, jamiyat uchun xavfli insonlar safiga qo'shilishi mumkin.

Mutaxassislarning fikricha, keyingi paytda huquqbuzarlikka moyil hamda deviant hatti-harakatli voyaga yetmagan yoshlar orasidagi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tartibbuzarlikning o'sish tendensiyasi kuzatilgan:

To'liq oilalardagi huquqbuzarlikka moyil hamda deviant hatti-harakatli voyaga yetmagan yoshlar tartibbuzarligining o'sishi;

Har xil ta'lim muassasalari (maktab, kollej, institut va b.) o'quvchi-yoshlari orasidagi tartibbuzarlikning o'sishi;

Huquqbuzarlikning katta (16-17 yosh) o'spirinlar orasida o'sishi;

Qizlar orasida huquqbuzarlikning o'sishi;

Narkobiznes bilan bog'liq huquqbuzarlikning o'sishi (yoshlardan narkokurer sifatida foydalaniladi) va boshqalar.

Bu borada olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarni keng jamoatchilikni jalb qilgan holda jonlantirish zarur va buning uchun:

1. Targ'ibot-tashviqot ishlarini nafaqat huquqbuzarlikka moyil hamda deviant hatti-harakatli voyaga yetmagan yoshlar orasida, balki jamiyatning barcha a'zolari orasida olib borish.

2. Xotin-qizlar orasida bu ishga ko'proq e'tibor berish va bu ishga butun jamoatchilikni jalb qilish lozim bo'ladi.

Olib borilayotgan profilaktika ishlari (targ'ibot-tashviqot hamda tushuntirish ishlari) qachonki ushbu soha mutaxassis-olimlarining tadqiqotlariga, tajriba-sinovda olingan natijalarga suyanilsa, kutilgan natijani berishi mumkin.

Huquqbuzarlikka moyil hamda deviant hatti-harakatli voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash jarayonida quyidagi pedagogik jihatlarga e'tiborni kuchaytirish lozim:

1. Huquqbuzarlikka moyil hamda deviant hatti-harakatli voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash maqsad va vazifalarining aniq belgilab olinganligi;

2. Huquqbuzarlikka moyil hamda deviant hatti-harakatli voyaga yetmagan yoshlarning yosh xususiyatlari, individual o'ziga xosliklari hamda inkoniyatlarining e'tiborga olinganligi va ulardan maksimal foydalanish;

3. Huquqbuzarlikka moyil hamda deviant hatti-harakatli voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash jarayonining tizimlashtirilganligi;

4. Huquqbuzarlikka moyil hamda deviant hatti-harakatli voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash jarayonida ilg'or va yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodikalardan foydalanish;

5. Huquqbuzarlikka moyil hamda deviant hatti-harakatli voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash jarayonida ular bilan do'stona munosabatda bo'lish, yoqimli muhit, qulay sharoit, emotsional-psixologik vaziyatning ta'minlanishini e'tiborda tutish lozimligi;

6. Huquqbuzarlikka moyil hamda deviant hatti-harakatli voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash jarayonida namuna va misollar ko'rsatish, turli axborot-ko'rgazmali, shu jumladan, kompyuterli vositalardan foydalanish o'zining ijobiy natijasini berishini ko'zda tutish lozim.

Mutaxassislar huquqbuzarlikka moyil hamda deviant hatti-harakatli voyaga yetmagan yoshlar tartibbuzarligining sabablarini o'rganib, quyidagi xulosaga kelishgan:

1. Huquqbuzarlikka moyil hamda deviant hatti-harakatli voyaga yetmagan yoshlar tartibbuzarligining asosiy sabablaridan biri jamiyatda yangi shakllanayotgan qadriyatlar me'yorlariga ularning moslasha olmasligi, unga nisbatan javob reaksiyasi sifatida qaralmoqda;

2. Huquqbuzarlikka moyil hamda deviant hatti-harakatli voyaga yetmagan yoshlar tartibbuzarligining asosiy sabablaridan yana biri – ushbu jamiyatning (o'zining) stabillashmaganligida ko'rinadi. Jamiyat o'zgarishi bilan uning barcha tizimlari o'zgaradi va o'zaro moslashadi (o'tish davri muammolari);

3. Huquqbuzarlikka moyil hamda deviant hatti-harakatli voyaga yetmagan yoshlar tartibbuzarligining yana bir sababi – o‘zgarayotgan (rivojlanayotgan) jamiyatdagi har qanday o‘zgarishga yaxshilik ustidan yomonlikning g‘alabasi sifatida qarash (ilgari hamma narsa yaxshi- yu, hozir yomon tarzida), bu o‘zgarishlarga kimdir aybdor sifatida qarashning vujudga kelishi;

4. Huquqbuzarlikka moyil hamda deviant hatti-harakatli voyaga yetmagan yoshlar tartibbuzarligining yana asosiy sababi-sababchisi jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikning mavjudligidir;

5. O‘zaro muloqot qiyinchiligi tashxisi. O‘smirlarning o‘qituvchilari, ota-onalari, sinfdoshlari bilan bo‘lgan qarama-qarshiliklarini yakka tartibdagi tahliliy suhbatlar davomida namoyon qilish mumkin. Muloqotdagi qiyinchiliklar o‘smirning muomala uchun yopiq fe‘li bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun suhbat boshidanoq o‘smirning muloqot uchun qay darajada ochiqligini aniqlash kerak. Suhbat uchun ochiqlik belgilari:

✦ muloqotga tez kirishuvchan, kelishuvchan, vaziyatdan tez chiqib ketish mahorati;

✦ psixologikda bu sifatlar quyidagicha talqin qilinadi:

✦ muloqotga tez kirishuvchanlik yoki kirishimlilik - bunday insonning shaxsiy sifati shundan iboratki, boshqa insonlar bilan oson muomalaga kirishish, boshqalarning tasavvurida kerakli inson bo‘lishga intilishdir.

Kelishuvchanlik – bu shaxsning shunday sifatiki, u quyidagi holatlarda namoyon bo‘ladi:

- istalgan odam yoki auditoriya bilan tez chiqishib keta olish;
- boshqa insonning fikriga ta’sir o‘tkaza olish;
- istalgan savolga dalillar bilan javob berish;
- muammolardan yomon oqibatsiz chiqib keta olish.

Tez chiqishib keta olish mahorati – ongli ravishda boshqariluvsiz bo‘ladigan vositalardan foydalana olish imkonini beradi.

Bunday xususiyatlar boshqa odamlar bilan muomalaga kirishishda zarur bo‘ladi. Kommunikatsiya lotincha “kommuniko” so‘zidan olingan bo‘lib, bog‘layman, umumiy ish qilaman, degan ma’noni anglatadi. Kommunikatsiya - o‘zaro nutq orqali ma’lumotlarni almashishdan iborat. Kommunikativ mahorat - kommunikativ bilim, tajribadan kelib chiqib, odamlarning o‘zaro muloqot, muomala vositasi. Kommunikativ mahoratni turmush jarayonida, maxsus

treninglar, psixologik kurslarida o'zlashtirish, takomillashtirish mumkin. Bu mahorat orqali inson o'ziga tanish va nota-nish holatlarda, favqulotda holatlarda muomala qilib, ma'lum xulq ko'rinishini namoyon qiladi. Psixolog o'smirlarning kirishimlilik sifatlarini aniqlash uchun quyidagi savollardan foydalaniladi. U o'z ota-onasi, o'qituvchilari, sinfdoshlari bilan muloqot qilishga qiynaladimi? Qiynalsa nima sababdan? O'zini kirishimli inson deb hisoblaydimi? Atrofdagilar uni kirishimli deb hisoblaydilarimi? U osonlikcha istagan inson bilan muloqotga kirisha oladimi? Sinfda uyga berilgan vazifaga javob berishga tortinadimi? O'z fikrlarini tushunarli bayon qila oladimi, uning bayonini o'qituvchilari, ota-onasi, do'stlari qabul qiladimi? Uning uchun ko'chada do'stlari bilan muloqot qilishi yoki biron ish bilan mashg'ul bo'lish muhimroqmi? Qarama-qarshi jins vakili bilan do'stlashganmi? Mobil telefoni bormi?

Yuqoridagi savollarga javob olib, o'smirning kommunikativ xususiyatlari, kamchiliklari haqida aniq xulosa qilish mumkin.

Suhbat davomida quyidagi holatlarga ahamiyat berish lozim:

- Savollarga u qaysi holatda reaksiya bildiradi?
- Nutq tezligi qay darajada?
- O'z fikrini to'g'ri va aniq izhor qila oladimi?
- Nutqida atrofdagilarning kulgusiga sabab bo'luvchi kamchiliklari, defektlari yo'qmi?

Deviant xulqli o'smirlarga xos bo'lgan qo'l, barmoqlar harakatlaridan qay darajada nutqi davomida foydalanadi?

Ko'cha tilidan, jargon so'zlardan foydalanadimi?

Psixolog bilan bo'lgan suhbatga o'smirning munosabati qanday - jiddiy, manfaatdor, befarq, shubhali, qo'rquv bilan.

Yuqoridagi xususiyatlar o'smirning suhbat davomidagi javoblarini to'ldirishga xizmat qiladi. Tahliliy tashxis qo'yuvchi suhbatdan so'ng o'smirning kommunikativ darajasini aniqlovchi V.Ryaxovskiy uslubida tuzilgan testlarni o'tkazish tavsiya etiladi.

9.6. Janjalli xulqning tashxisi

Deviant xulqli o'smirlarning xulq-atvori sabablari ota-ona, o'qituvchilari va sinfdoshlari bilan kelishmaslik, boshqa turli ziddiyatlar ham bo'lishi mumkin. Tashxis qo'yishga kirishgan psixolog janjallar va janjalli xulq nazariyasini yaxshi o'rgangan bo'lishi darkor.

❖ Kelajakda muvaffaqiyat qozonish uchun o‘tmishda yo‘l qo‘ygan xatolarni tuzata oladimi?

❖ Uning uchun kelajakda munosib yashash va boshqalarga kerakli bo‘lish muhimmi?

❖ Hayotdan maqsadi nima va uni qanday amalga oshirmoqchi?

Shunday qilib, javoblar natijasida o‘smirning o‘qishga, hayotiy va kasbiy kelajagiga bo‘lgan qarashlarini aniqlash mumkin.

Psixologlarning tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, yuqoridagi qarashlar shaxsning rivoji uchun muhim bo‘lgan sifatlardir. Shu narsani bilish muhimki, deviant xulqli o‘smirlar bilim olishga, ko‘pincha salbiy munosabatda bo‘lishadi, kelajakda esa mavhum bir tushuncha deb qarashadi.

Ularning ko‘pchiligi kelajakda nima bilan shug‘ullanishni, nima qilishni tasavvur ham qilmaydi. Bu o‘smirning hayotiy va kasbiy qadriyatlarini bilmasligidan va tushunmasligidan kelib chiqadi. Yuqoridagi xulosalarni bilish deviant xulqli o‘smirlarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari analizi natijasini tahlil qilishimiz davomida kerak bo‘ladi. Psixologlar xulosalari natijalari tahlili bilan shug‘ullanishida quyidagi toifa o‘smirlar bo‘lishini hisobga olish kerak.

Tarbiyaga og‘ir beriluvchi – tarbiya jarayoniga, qayta tarbiya qilishga bo‘ysunmaydigan, atrof bilan ijtimoiy murosa qila olmaydigan, jamiyat, oila, maktab talablariga zid ish qiluvchi o‘smir.

Bunday harakatlarini quyidagi sabablari bo‘lishi mumkin:

❖ aqliy, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishdagi qusurlar;

❖ ijtimoiy me‘yorlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qobiliyatining yetishmasligi;

❖ o‘zini-o‘zi baholashda hayotiy mezonlarini belgilashga noto‘g‘ri yondashuv;

❖ jinoyatchi, norasmiy guruhlardagi shaxslarning ta‘siri;

❖ deviant, addiktiv xulqqa, jinoyatchilikka huquqbuzarlikka;

❖ shaxsning individual, xarakterli xususiyatlari.

2. O‘qish jarayonida zaif va qoniqarsiz o‘zlashtiruvchilar - bunday o‘smirlar oddiy xulq egasi ham bo‘lishi mumkin, ammo ular bilim jarayoniga qiyinchilik bilan tortilib, bir qancha fanlarni o‘zlashtira olmaydilar, buning asosiy sabablari:

❖ mavzuni yomon tushunish, to‘g‘ri fikrlay olmaslik, fikrni to‘play olmaslik, o‘zlashtirish uslubining noto‘g‘riligi;

- ✧ aqliy zaiflik, bilish jarayonini ya'ni, qabul qilish, diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur, nutq kabilarning yetarlicha rivojlanmaganligi;
- ✧ o'zini-o'zi past baholash va orzu-istaklarining ham yo'qligi;
- ✧ yoshga va ruhiy rivojlanishga doir qoloqlik;
- ✧ didaktogenik – o'quvchining salbiy his-hayajoni ko'pincha o'qituvchi bilan bo'lgan yomon munosabat natijasidir;
- ✧ past baho bilan jazolash va o'qituvchining qo'pol munosabati.

3. Tarbiyasiz o'smirlar - tarbiyaga va qayta tarbiyaga qiyin bo'ysunuvchi o'smirlar barcha fanlardan bo'sh o'zlashtirish bilan birga ijtimoiy muhitga moslasha olishmagan surunkali dars qoldiruvchilar. Bular xavfli guruh vakillari bo'lib, hatti-harakatlari, axloqi ijtimoiy huquqiy me'yordan chekingan bo'ladi. Aynan shunday o'smirlar jinoyat va huquqbuzarlik qilib, ota-onalar, o'qituvchilar, mahalla orqali ko'rilyotgan tarbiya ishlariga jiddiy qarshilik qiladilar.

Tarbiyasizlikning asosiy sabablari:

- ✓ maktabda va uyda tarbiyaning yetarlicha olib borilmagani;
- ✓ nobop va to'liq bo'lmagan oila;
- ✓ "ko'cha"ning, norasmiy guruhlarning, muqaddam sudlangan shaxslarning, jinoyat to'da a'zolarining ta'siri;
- ✓ dunyoqarashning va qadriyatlarining noto'g'ri talqini;
- ✓ jamoat ishlarining teskarisini ataylib qilish;
- ✓ shaxsiy va ijtimoiy psixologik xususiyatlar;
- ✓ ichki qarama-qarshi kurash (shaxsning ichidagi qarama-qarshi to'qnashuv);
- ✓ ruhiy, aqliy, jismoniy rivojlanishdagi nuqsonlar.

"Xavfli guruh" a'zolarining ko'pchiligi, ba'zida to'liq bo'lmagan oilalarning farzandlari, ular deviant va addiktiv bo'lgan xulqni namoyon qiladilar. Ular ota-onalari, o'qituvchilari, mahalladagi qo'shnilari yonida o'zlarini o'ta tarbiyali va odobli qilib ko'rsata oladilar, shu vaqtning ichida yashirincha turli noma'qulchiliklarni ham qiladilar. Ular aqliy salohiyati, kompyuter o'yinlariga va internetga qiziqishi bilan ajralib turadi. Ular qaram xulq namoyon qiladilar. Addiktiv, ya'ni kompyuter, internet tarmog'iga tobe bo'lib qoladilar. Natijada ularning ko'rish qobiliyati tushib ketadi, muntazam uyquga to'yimaslik, sog'ligining yomonlashuvi, o'qishini tashlab ketish kabilarni ko'rish mumkin. Natijada o'smir qotib qoladi, o'z qobig'iga yashirib olib, maktabga borishga, jamoat ishini bajarishga qarshilik

qiladi. Bular o'z navbatida o'smirning asab va ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi.

Shaxsni baholash uchun metodikalar

Qisqartirilgan ko'p omilli shaxs so'rovnomasi (Smol)

Psixodiagnostik tadqiqot tajribalarida keng qo'llanilayotgan va salmoqli o'ringa ega bo'lgan metodikalar sarasiga MMPI (Minnesotskiyning ko'p o'lchamli shaxsni o'rganish savolnomasi) savolnomasini alohida ta'kidlab o'tishimiz mumkin. Ushbu metodika jahon psixologiyasida keng hajmli bo'lib, original variantini 566 ta savolnoma tashkil etadi. Ushbu shaxsni o'rganish savolnomasini bizning muhitimizda moslashtirish va uni tadbiq etishda anchagina mehnat va eng ko'lamdagi tadqiqotlar o'tkazish zarurati turibdi. Ammo, ushbu metodikadan foydalanishning qo'lay tomonlaridan biri uning qisqartirilgan variantidan foydalanishdir. Bu metodikaning rus muhitida qo'llashga mo'ljallangan 556 savoldan iborat varianti mavjud (Berezin F.B., Miroshnikov M.P., Rojanets R.V. Metodika mnogoprofilnogo issledovaniya lichnosti.-M.1976). Bu metodika uchta baholovchi va 9 ta asosiy klinik shkalaga ega: ishonchlilik, aggrivate-siya, korreksiya, ipoxondriya, depressiya, isteriya, psixopatiya, nazokatlilik, paranoyal, psixoastenik, shizofreniya, gipomaniya, sotsial introversiya.

MMPI savolnomasi

Ko'rsatma: Hurmatli sinaluvchi quyida keltirilgan tasdiqlarni kundalik turmush tarzingizda uchrashini mos kelganligi yoki uchramasligiga ko'ra, "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" tarzdgagi tasdiqlar bilan ifodalashga harakat qiling. Javoblaringizni so'rovnomaning maxsus javoblar varaqasiga qayd eting.

1. Ishtahan yaxshi.
2. Ertalablari o'zimni tetik his qilib uyg'onaman.
3. Kundalik hayotim qiziqarli voqea-hodisalarga boy.
4. Kuchli zo'riqish bilan ishlayman.
5. Ba'zan miyamga gapirib bo'lmaydigan bo'lmag'ur fikrlar keladi.
6. Menda kamdan-kam hollarda qabziyat bo'ladi.
7. Ba'zida uydan butunlay bosh olib ketgim kelib qoladi.
8. Vaqti-vaqti bilan o'zimni kulgu yoki yig'idan to'xtatolmay qolaman.

9. Ba'zida ko'nglim aynab, qusgim keladi.
10. Meni hech kim tushunmayotgandek tuyuladi.
11. Ba'zida so'kingim kelib qoladi.
12. Har hafta vahimali tushlar ko'rib turaman.
13. Boshqa odamlarga nisbatan diqqatimni bir joyga jamlashim qiyin.
14. Men bilan g'aroyib hodisalar yuz bergan yoki yuz berib turadi.
15. Agar menga qarshi odamlar bo'lmaganida edi, hayotda bundan ham ko'proq muvaffaqiyatlarga erishardim.
16. Bolaligimda mayda o'g'irliklar bilan shug'ullangan paytlarim bo'lgan.
17. O'zimni ishga kirishib ketishga majburlay olmaganimdan bir necha kunlab, haftalab yoki oylab hech bir ish bilan shug'ullanmagan paytlarim ham bo'lgan.
18. Uyum bezovtali va uzuq-yuluq.
19. Odamlar orasida bo'lganimda g'alati gaplarni eshitib turaman.
20. Ko'pchilik tanishlarim meni yoqitiradilar.
21. Ba'zida o'zimdanda kam biladigan odamlarga bo'ysunishimga to'g'ri kelgan.
22. Ko'pchilik odamlar menga qaraganda hayotdan mamnunlar.
23. Ko'pchilik boshqalardan hamdardlik va yordam olish uchun o'zlarini baxtirqaro qilib ko'rsatadilar.
24. Ba'zan jahlim chiqib turadi.
25. Menda o'zimga nisbatan ishonch yetishmaydi.
26. Men ba'zan o'zimni qandaydir noto'g'ri ish qilib qo'ygandek his qilaman.
27. Ba'zida ortiqcha asabiylashganligim sababli uxlay olmayman.
28. Men o'z taqdirimdan qoniqaman.
29. Ba'zilar buyruq berishni shunday yoqitiradilarki, men ularni haqligini bilib tursam ham ularga qarshi ish tutgim keladi.
30. Menga qarshi qandaydir fitna tayyorlanyapti, deb hisoblayman.
31. Ko'pchilik qing'ir yo'llar bilan boylik orttirishga qodir deb hisoblayman.
32. Ko'pincha oshqozonim bezovta qiladi.
33. Ko'pincha kayfiyatim bo'zilganligi va asabiylashganim sababini o'zim ham tushunolmay qolaman.

34. Ba'zan fikrlarim oqimi shunday tez bo'ladiki, ularni bayon qilishga ulgurmay qolaman.

35. Oilaviy hayotim tanishlarimnikidan yomon emas deb hisoblayman.

36. Vaqti-vaqti bilan o'zimni befoyda shaxs ekanlimni his qilaman.

37. So'nggi paytlarda o'zimni yaxshi his qilib yuribman.

38. Menda, qandaydir ishlarni bajarib, so'ngra aynan nima qilganimni eslolmay yurgan paytlarim bo'lgan.

39. Ko'pincha meni nohaq jazolaganlar, deb hisoblayman.

40. Men o'zimni hozirgidek yaxshi his etmaganman.

41. Men haqimda boshqalar qanday fikrlashi men uchun ahamiyatsiz.

42. Mening xotiram yaxshi.

43. Yaqindagina tanishgan kishim bilan gaplashib ketishim qiyin.

44. Ko'pincha o'zimni behol his qilaman.

45. Meni bosh og'rig'i kamdan-kam bezovta qiladi.

46. Ba'zan yurganimda gavdam muvozanatini ushlab tutolmayman.

47. Hamma tanishlarim ham menga birdek yoqavernaydi.

48. Mening fikr va g'oyalarimni o'g'irlamoqchi bo'lganlar bor.

49. Men kechirib bo'lmas gunoh ishlar qilganman, deb hisoblayman.

50. Men o'zimni juda ham tortinchoq deb hisoblayman.

51. Men doim nimadandir xavotirda bo'lib turaman.

52. Mening oila a'zolarim va tanish-bilishlarimni har doim ham ma'qullayver-maganman.

53. Ba'zida g'iybat ham qilib turaman.

54. Ba'zida biror qarorga kelishim uchun nihoyatda oson ekanligini his qilaman.

55. Ba'zida yuragim tez-tez urib, havo yetishmay qoladi.

56. Men jizzaki, ammo ko'ngilda kir saqlamayman.

57. Shunday paytlar bo'ladiki, asabiylashganimdan bir joyda o'tira olmayman.

58. Ota-onam va oilamni boshqa a'zolari bilan tez-tez o'chakishib turaman.

59. Meni taqdirim boshqa hech kimni qiziqitirmaydi.

60. Men boshqalarning xatosidan o'z manfati yo'lida foydalanishdan toymaydigan odamlarni qoralamayman.

61. Ba'zida kuch g'ayratga to'lib ketaman.
62. Oxirgi vaqtlarda mening ko'zlarim xiralashib qoldi.
63. Tez-tez qulog'im shang'illab, jaranglab turadi.
64. Mening hayotimda shunday vaziyatlar ham bo'lganki (aqalli bir marta bo'lsa ham), meni kimdir gipnoz qilayotgandek tuyulgan.
65. Ba'zan hech qanday sababsiz ham quvnoq bo'lib ketaman.
66. Ko'pincha odamlar orasida bo'lsam ham o'zimni yolg'iz his qilaman.
67. Noqulaylikdan qutilish maqsadida hamma ham yolg'on gapirishi mumkin deb hisoblayman.
68. Boshqa odamlarga nisbatan mening his tuyg'um kuchli.
69. Vaqti-vaqti bilan mening miyam odatdagidan sekinroq ishlayotgandek tuyuladi.
70. Ko'pincha odamlardan xafsalam pir bo'lib turadi.
71. Men spirtli ichimliklarni me'yoridan ortiq iste'mol qilganman.

Metodika kaliti

Shkala-lar	Javoblar	Tasdiqlar
L	noto'g'ri	5,11,24,47,53
F	noto'g'ri	22,24,61
	to'g'ri	9,12,15,19,30,38,48,49,58,59,64,71
K	noto'g'ri	11,23,31,33,34,36,40,41,43,51,56,61,65,67,70
1 (Hs)	noto'g'ri	1,2,6,34,42
	to'g'ri	9,18,26,32,44,46,55,62,63
2 (D)	noto'g'ri	1,3,6,28,37,40,42,60,61
	to'g'ri	9,13,18,22,25,36,44
3 (Hy)	noto'g'ri	1,2,3,11,23,28,29,31,33,35,37,40,41,43,45,50,56
	to'g'ri	9,13,18,26,44,46,55,57,62
4 (Pd)	noto'g'ri	3,28,34,35,41,43,50,65
	to'g'ri	7,10,13,14,15,16,22,27,52,58,71
6 (Pa)	noto'g'ri	28,29,31,67
	to'g'ri	5,8,10,15,30,39,64,66,68
7 (Pt)	noto'g'ri	2,3,42
	to'g'ri	5,8,13,17,22,25,27,36,44,51,57,66,68
8 (Se)	noto'g'ri	3,42
	to'g'ri	5,7,8,10,13,14,15,16,17,26,30,38,39,46,57,63,64,66
9 (Ma)	noto'g'ri	43
	to'g'ri	4,7,8,21,29,34,38,39,54,57,60

Natijalarni qayta ishlash

Metodikada tekshiriluvchining javoblari qayd etiladigan maxsus blanka taqdim etiladi. Agar tekshiriluvchi mulohazalarga qo'shiladigan bo'lsa ("ha" javobini bersa), javoblar blankining belgilangan katagiga "+" belgisini, agar mulohazalarga qo'shilmasa ("yo'q" javobini bersa), u holda "-" belgisini qo'yadi. Bu qiymatlar aks etgan jadval blankada keltirilgan.

№ 1, 4, 7, 8, 9 usosiy shkalalarga K shkala qiymatlari quyidagi sxema orqali qo'shiladi:

1. $H_s = H_s + (0.5 * K)$ shkalasi ;

4. $P_d = P_d + (0.4 * K)$ shkalasi ;

7. $P_t = P_t + K$ shkalasi;

8. $S_c = S_c + K$ shkalasi;

9. $M_a = M_a + (0.2 * K)$ shkalasi;

Masalan : №1 shkala K bo'yicha 9 ball olgan, №7 va 8 ga-9 ball, №9 shkalaga-2 ball qo'shiladi. Yakuniy qiymatlar olingandan so'ngra profil tuziladi.

Baholash shkalalari:

1. Yolg'on shkala (L).

2. Haqqoniylik shkalasi (F).

3. Korreksiya shkalasi (K).

Asosi (bazis) shkalalar:

1. Ipoxondriya (Hs).

2. Depressiya (D).

3. Isteriya (Nu).

4. Psixopatiya (Pd).

6. Paranoyiallik (Ra).

7. Psixasteniyasi (Pt).

8. Shizoid (Se).


9. Gipomaniya (Ma).

Korreksiya shkalasining mos qiymatlarini xomaki ballarga oson qo'shish uchun korreksiya koeffitsienti jadvalidan foydalanish mumkin.

Korreksiya koeffitsienti jadvali

Shkalalar				
K	7, 8	1	4	9
	1K	0.5K	0.4K	0.2K
16	16	8	6	3
15	15	8	6	3
14	14	7	6	3
13	13	7	5	3
12	12	6	5	2
11	11	6	4	2
10	10	5	4	2
9	9	5	4	2
8	8	4	3	2
7	7	4	3	1
6	6	3	2	1
5	5	3	2	1
4	4	2	2	1
3	3	2	2	1
2	2	1	1	0
1	1	1	1	0

“Xom” ballarni almashtirish blanki T-ballar va boshqa tuzilmalar



Korreksiya shkalasidan qanday foydalanilinish:

1. K korreksiya shkala bo'yicha respondent tomonidan to'plangan ball ko'rilishi lozim.

2. Bu ballni K ustundan topamiz.

3. Topilgan ballning qarshisidagi ustunda respondentning mos shkalalar bo'yicha xomaki ballariga qo'yishiladigan zarur balla ko'rsatilgan.

Masaian:

K korreksiya shkalasi bo'yicha respondent 6 ball oldi. 6 ballni K ustunidan topamiz. Jadvaldagi mos ustunlarda quyidagicha yozilgan:

- 7 va 8 shkalalarning xomaki ballariga 6 qo'shiladi;
- 1 shkala bo'yicha xomaki ballga 3 ball qo'shiladi;
- 4 shkala bo'yicha xomaki ballga 2 ball qo'shiladi;
- 9 shkala bo'yicha xomaki ballga 1 ball qo'shiladi.

Xomaki ballarni almashtirish (Korreksiya shkalasi qiymati bo'yicha mos qiymatlarni qo'shgandan so'ngra) *MMPI da quyidagi formuladan foydalaniladi:*

Interpretatsiya: Shaxsning profili tuzilgandan keyingi barcha shkalalar bo'yicha yuqori ballar 70 dan ortadi . Quyi baho 40 dan past baho hisoblanadi.

Qo'shimcha shkala

1. Ochiqlik shkalasi (L). Sinaluvchilarning ochiq javob berganligini aniqlashga qaratilgan. Ko'rsatkichlarning yuqori darajada ekanligi ijtimoiy me'yorlarga nisbatan intiluvchanligini ifodalaydi.

2. Validik shkalasi (F) olingan natijalarni ishonchligini bahorlash uchun mo'ljallangan. Ushbu shkala natijalarini ortib ketishi esa sinaluvchilarning berilgan javoblarning tasodifiy xarakterga egaligini ifodalaydi.

3. Tuzatish (korreksiya) shkalasi (K). Salbiy xarakter xususiyatlarini yashirish yoki pasaytirib ko'rsatilganligini yoritishga yo'naltirilgan. K shkalasi sinaluvchilarni asosiy shkalalarni tuzatish kiritishda foydalaniladi va xulq-atvorni anglashilmagan holda nazorat qilish ko'rsatkichi hisoblanadi.

Asosiy shkala

4. Ipoxondriya shkalasi. (Hs) sinaluvchilarning salomatlik holatini qayd etganlik darajasini o'lchaydi. Natijalarning qiymatini katta bo'lishi yuqori darajada o'zini nazoratlashni ifodalaydi

5. Depressiya shkalasi (D). Depressiya holatini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ko'rsatkichlarni yuqori bo'lishi tushkun kayfiyatni, o'z kuchiga ishonmaslikni, aybdorlik hissi yuqoriligini, irodaviy nazoratning sustligidan dalolat beradi.

6. Isteriya shkalasi (Hy). Ushbu shkala ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishi emotsional o'zgaruvchanlikni, murakkab psixologik muammolarni siqib chiqarishni, shaxsni ijtimoiy va emotsional kamol topmaganligini, jazavaga tushishni ifodalaydi.

7. Psixopatiya shkalasi (Rd). Xulq-atvorida emotsional zo'riqishlarni bartaraf etishga layoqatli ekanligi va kuch-quvvatga egaligini baholaydi. Ushbu shkaladagi yuqori ko'rsatkichlar shaxsni vaqtli yoki muttasil ijtimoiy muhitga moslasholmasligidan dalolat beradi va yuqori qo'zg'aluvchanlik, nizolarga moyillik, kuchsiz emotsional nazorat, ijtimoiy me'yorlarga ehtiyotsizlikni ham ifodalaydi.

8. Nazokatlilik shkalasi (muskulizm va feminizm) (Mf). Sinaluvchilarni ayollik yoki erkaklik xulq-atvor rollariga moslik darajasini o'lchaydi. Natijalar sinaluvchilarning jinsiy xususiyatlaridan kelib chiqib turlicha tahlil etiladi. Erkaklar variantida natijalarning yuqori bo'lishi ayollarga xos xarakter xususiyatlarini yetarlicha ekanligini, ya'ni sezuvchanlik, shaxslararo munosabatning nozik tomonlarini tez tushunuvchan, qiziqishlarga gumanistik jihatdan yondashishini, ko'ngli noziklikini tavsiflaydi.

9. Paranoyallik shkalasi (Pa). Qimmatli g'oyalarni yaratishga layoqatlilikni yoritadi. Ko'rsatkichlarni yuqoriligi shaxsda shubhalanishning yuqoriligi, fikrlashdagi sustlikni, diqqatni ko'chuvchanligining pastligini, gina saqlovchi va betgachoparlikni ifodalaydi.

10. Psixasteniya shkalasi (Pt). Bu shkala shaxsning bezovtali-badgumonlik xislatlarini baholash uchun mo'ljallangan. Pt bo'yicha yuqori ko'rsatkich bezovtalikni, ishonchsizlikni, qaror qabul qilishda qiynalishni ifodalaydi.

11. Shizoidlik shkalasi (Sc). Ushbu shkala tafakkurdagi individuallikni, autizmni yoritishga yo'naltirilgan. Shkaladagi yuqori ko'rsatkich shaxsning shizoidligini tashxis etadi.

12. Gipomaniya shkalasi (Ma). Shkala bo'yicha yuqori natijaga ega bo'lgan shaxsda optimizm, faollik, qiyinchiliklarni inkor etish, qaror qabul qilishda qiynalmaslik xosligini ifodalaydi.

“Katta beshlik” so‘rovnomasi (Mak Krae VA P.Kosta)

Yo‘riqnomasi: Hurmatli respondent, sizga taqdim etilayotgan testda to‘g‘ri va noto‘g‘ri, shaxsning yaxshi yoki yomon xislatlarini ifodalovchi mulohazalar mavjud emas. Keltirilgan 75 juft mulohazalarni quyidagi ball tizimi bo‘yicha baholang: (-2;-1;0;1;2). Birinchi juftlikni o‘qing va ikkala muqobil mulohazalardan o‘zingizga ko‘proq ma‘qul kelganini aniqlang. Agar siz tanlagan mulohaza baholash shkalasining chap tomonida bo‘lsa, bu mulohazani belgilash uchun “-2” yoki “-1” qiymatlardan foydalaning. Mabodo o‘ng tomondagi mulohazalarni ma‘qul bilsangiz uni “2” yoki “1” qiymatlar bilan baholang. “-2” yoki “2” agar mulohazalar kuchli namoyon bo‘lganda baholanadi. Agar kuchsiz ifodalanganda esa “-1” yoki “1” qiymatlardan foydalaniladi. Agar hech bir mulohaza yoqmasa yoki mulohazalar teng kuch bo‘lsa, u holda “0” bilan baholang. Birinchi mulohazalar bo‘yicha tanlangan qiymat javoblar varaqasining 1 raqamli chap yacheykasiga belgilanadi. Barcha mulohazalar bo‘yicha qiymatlar shu tarzda mos tartib raqamiga ko‘ra, chap yacheykasiga yozib boriladi.

1	Menga jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish yoqadi	-2	-1	0	1	2	Menga jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish yoqmaydi
2	Odamlar meni xayrixoh va rahmdil odam deb hisoblaydilar	-2	-1	0	1	2	Ayrim kishilar meni iltifotsiz va bag‘ritosh deb hisoblaydilar
3	Men hamma narsada tozalik va batartiblikni yoqtiraman	-2	-1	0	1	2	Ba‘zan o‘zinni palapartish tutaman
4	Meni tez-tez nimadir yuz berishi mumkinligi bezovta qiladi	-2	-1	0	1	2	Meni “hayotning ikir-chikirlari” bezovtalantirmaydi
5	Barcha yangi narsalarga qiziqaman	-2	-1	0	1	2	Ko‘pincha yangi narsalar meni asabiylashtiradi
6	Agar men biror narsa bilan mashg‘ul bo‘lmasam, bezovtalanaman	-2	-1	0	1	2	Men vazmin odam bo‘lganligim sababli hovliqib harakat qilishni yoqtirmayman
7	Men barcha odamlarga do‘stona munosabatda bo‘lishga harakat qilaman	-2	-1	0	1	2	Men har doim va hamma bilan ham samimiy munosabatda bo‘la olmayman

8	Mening xonam doimo saranjom-sarishta	-2	-1	0	1	2	Men tozalik va tartibga rioya qilavermayman
9	Men ba'zan arzimagan narsalarga asabiylashaman	-2	-1	0	1	2	Men mayda-chuyda muammolarga e'tibor bermayman
10	Menga kutilmagan narsalar yoqadi	-2	-1	0	1	2	Men voqea-hodisalarni bashorat qilishni yoqtiraman
11	Men uzoq vaqt harakatsiz qola olmayman	-2	-1	0	1	2	Menga shijoatli turmush tarzi yoqmaydi
12	Men boshqalar bilan xushmuomala munosabatda bo'laman	-2	-1	0	1	2	Ba'zan boshqalarning nafsoniyatiga tegib qo'yanman
13	Men hamma narsada rejali va batartibman	-2	-1	0	1	2	Men unchalik mas'uliyatli emasman
14	Men nozik ta'b va jizzakiman	-2	-1	0	1	2	Men kamdan-kam bezovtalanaman va biror narsadan asabiylashaman
15	Javobi oldindan aniq bo'lgan narsalar men uchun qiziqarli emas	-2	-1	0	1	2	Men tushunarsiz bo'lgan narsalarga qiziqmayman
16	Boshqalar mening bo'yruqlarimni tez bajarishlarini yoqtiraman	-2	-1	0	1	2	Boshqalarning bo'yruqlarini shoshmasdan bajaraman
17	Men murosakor va yon berishga moyil odamman	-2	-1	0	1	2	Atrofdagilar bilan bahslashishni yoqtiraman
18	Murakkab vazifalarni yechishda qat'iyatliman	-2	-1	0	1	2	Men unchalik sabotli odam emasman
19	Murakkab vaziyatlarda butunlay zo'riqishda bo'laman	-2	-1	0	1	2	Har qanday vaziyatda ham o'zimni erkin tutaman
20	Mening tasavvurlarim juda jonli	-2	-1	0	1	2	Men har doim olamga real ko'z bilan qarashni afzal bilaman
21	Menga tez-tez yetakchi bo'lish, tashabbus ko'rsatishga to'g'ri keladi	-2	-1	0	1	2	Menda yetakchilikdan ko'ra butunlay tobelik ustun

22	Men doimo boshqalarga yordam berish va mushkullariga sherik bo'lishga tayyorman	-2	-1	0	1	2	Har kishi o'z-o'ziga g'amxo'rlik ko'rsata olishi kerak
23	Barcha yumushlarda juda tirishqoqman	-2	-1	0	1	2	Men ishda unchalik g'ayrat ko'rsatmayman
24	Menda tez-tez sovuq ter chiqib, qo'lim qaltiraydi	-2	-1	0	1	2	Men kamdan-kam hollarda zo'riqish, tanamda titroqni his etaman
25	Orzu qilishni yoqtiraman	-2	-1	0	1	2	Men xayollarga kamdan-kam berilaman
26	Menga tez-tez rahbarlik qilib, boshqalarga bo'yruc berishga to'g'ri keladi	-2	-1	0	1	2	Men kimdir rahbarlikni o'z qo'liga olishini ma'qul ko'raman
27	Men raqobatlashishdan ko'ra, hamkorlikni afzal bilaman	-2	-1	0	1	2	Jamiyat raqobatsiz rivojlanmagan bo'lardi
28	Men ishga jiddiy va qunt bilan yondashaman	-2	-1	0	1	2	Men ishda qo'shimcha vazifalar olmaslikka harakat qilaman
29	Odatdan tashqari sharoitlarda tez asabiylashaman	-2	-1	0	1	2	Men yangi muhitga oson moslashaman
30	Ba'zan chuqur o'ylarga chumaman	-2	-1	0	1	2	Men o'y-xayollarga vaqt yo'qotishni yoqtirmayman
31	Notanish kishilar bilan muloqotga kirishishni yoqtiraman	-2	-1	0	1	2	Men unchalik kirishimli odam emasman
32	Ko'pchilik odamlar tabiatan yaxshi (xayrli)	-2	-1	0	1	2	Men hayot ayrim odamlarni qahrli qilib qo'yadi deb hisoblayman
33	Ko'pincha odamlar menga mas'uliyatli ishni ishonib topshiradilar	-2	-1	0	1	2	Ayrim odamlar meni mas'uliyatsiz, deb hisoblaydilar
34	Ba'zan o'zimni yolg'iz va g'angin his etib, qo'lim ishga bormaydi	-2	-1	0	1	2	Tez-tez biror narsani bajarishga berilib, hamma narsani unutaman

35	Go'zallik va zebolik nimaligini yaxshi bilaman	-2	-1	0	1	2	Mening go'zallik to'g'risidagi tasavvurim boshqalarnikidek
36	Men yangi do'stlar va tanishlar orttirishni yoqtiraman	-2	-1	0	1	2	Men bir nechta ishonchli do'stlar bo'lishini afzal ko'raman
37	Men muloqot qiladigan odamlar odatda menga yoqadi	-2	-1	0	1	2	Men yoqtirmaydigan odamlar ham bor
38	Men ishda qattiqqo'l va talabchanman	-2	-1	0	1	2	Ba'zan o'z vazifamga e'tiborsizlik bilan qarayman
39	Men qattiq asabiylashsam, ko'nglimga hech narsa sig'maydi.	-2	-1	0	1	2	Menda kamdan hollarda g'amgin kayfiyat bo'ladi
40	Musiqaga shunday berilamanki, vaqt o'tganini sezmay qolaman	-2	-1	0	1	2	Drama san'ati va balet men uchun zerikarli
41	Men katta va quvnoq davralarda bo'lishni yoqtiraman	-2	-1	0	1	2	Men yolg'izlikni yoqtiraman
42	Ko'pchilik insonlar pokliklari tufayli ularga ishonish mumkin	-2	-1	0	1	2	Men ba'zan boshqalarga shubha bilan qarayman
43	Odatda men vijdonan ishlayman	-2	-1	0	1	2	Odamlar mening ishimdan tez-tez xato topib turadilar
44	Mening depressiya (ziqlik)ga tushushim oson	-2	-1	0	1	2	Mening kayfiyatimni buzish imkonsiz
45	Haqiqiy san'at asarlaridan zavq olaman	-2	-1	0	1	2	Men kamdan-kam haqiqiy san'at asaridan zavq olaman
46	Sport musoboqalariga "ishqibozlik" qilib, barcha narsani unutamani	-2	-1	0	1	2	Odamlarning xavfli sport turlari bilan nima uchun shug'ullanishlariga tushunmayman

47	Odamlar bilan ishlaganimda e'tiborli bo'lishga intilaman	-2	-1	0	1	2	Ba'zan meni boshqalarning dardi bilan ishim bo'lnaydi
48	Men kamdan-kam hollarda bajaradigan ishimi o'ylamasdan amalga oshiraman	-2	-1	0	1	2	Men tez qaror qabul qilishni afzal ko'raman
49	Mening kamchilik va ojizliklarim ko'p	-2	-1	0	1	2	Mening o'zim haqidagi fikrim yuqori
50	Men ruhiy holatimni yaxshi tushunaman	-2	-1	0	1	2	Boshqa odanlar menga qaraganda his-tuyg'usi kamroqdek tuyuladi
51	Men xavfdan ogohlantiruvchi signallarni ko'pincha e'tiborsiz qoldiraman	-2	-1	0	1	2	Xavfli vaziyatlarni chetlab o'tishni ma'qul hisoblayman
52	Boshqalarning quvonchlarini o'zimmnikidek qabul qilaman	-2	-1	0	1	2	Men boshqalarning kechinmalariga har doim ham sherik bo'lmayman.
53	Men odatda tuyg'u va xohishlarimni nazorat qilaman	-2	-1	0	1	2	Menga o'z xohishlarimni tiyib turish qiyin
54	Muvaffaqiyatsizliklarga bardosh berishimga to'g'ri kelsa, bunga o'zimni aybdor sanayman	-2	-1	0	1	2	Ko'pincha mening omadim chopadi va vaziyatlar kamdan-kam menga qarshi chiqadi
55	Tuyg'ularim hayotimni mazmundor qilishiga ishonaman	-2	-1	0	1	2	Men boshqalarning tashvishlariga kam e'tibor beraman
56	Menga karnaval tantanalari va namoyishlari yoqadi	-2	-1	0	1	2	Ko'pchilik bor joylarda bo'lish menga yoqmaydi
57	Men o'zga kishilarni tushunish uchun uning o'rniga o'zimni qo'yaman	-2	-1	0	1	2	Men boshqalar kechinmalarining barcha nozik tomonlarni tushunishga intilmayman
58	Do'kondan sotib olish lozim bo'lgan narsani uzoq vaqt tanlayman	-2	-1	0	1	2	Ba'zan narsalarni beixtiyor sotib olaman

59	Ba'zan o'zimni nochor odamdek his etaman	-2	-1	0	1	2	Men odatda o'zimni kerak odamdek his etaman
60	Men to'qima qahramonlarning kechinmalariga oson kirishaman	-2	-1	0	1	2	Kino qahramonlarining sarguzashtlari ruhiy holatimni o'zgartira olmaydi
61	Menga e'tibor bilan qarasarlar o'zimni baxtiyor his etaman	-2	-1	0	1	2	Men kamtarin odamman sababli boshqalardan ajralib turmaslikka harakat qilaman
62	Har bir insonning hurmatlashga arziydigan qandaydir jihatlari bor	-2	-1	0	1	2	Men hali hurmatga sazovor bo'ladigan insonni uchratmadim
63	Men odatda harakatlanishdan oldin yaxshilab o'ylab ko'raman	-2	-1	0	1	2	Men o'z hatti-harakatlarim natijalari haqida oldindan o'ylab ko'rishni yoqtirmayman
64	Mening kayfiyatim tez-tez ko'tarilib va tushib turadi	-2	-1	0	1	2	Men odatda bir xil kayfiyatda bo'laman
65	Ba'zan o'zimni lo'ttibo, boshqalarni masxara qiluvchi kishidek his etaman	-2	-1	0	1	2	Odamlar ko'pincha meni zerikarli, ammo ishonchli inson, deb hisoblaydilar
66	Men boshqa jins vakillari uchun yoqimliman	-2	-1	0	1	2	Ayrimlar meni oddiy va ko'rimsiz odam deb hisoblaydilar
67	Men har bir kishiga nisbatan mehribon va e'tiborli bo'lishga intilaman	-2	-1	0	1	2	Ayrim odamlar meni o'ziga bino qo'ygan va xudbin, deb o'ylaydilar
68	Sayohatga chiqishdan oldin aniq reja tuzaman	-2	-1	0	1	2	Men odamlarning nega bunday mukammal reja tuzishlariga tushunmayman
69	Mening kayfiyatim qarama-qarshi tomonga oson o'zgarib turadi	-2	-1	0	1	2	Men doimo xotirjam va vazminman

70	Men hayot bu qimor o'yinidek narsa, deb o'ylayman	-2	-1	0	1	2	Hayot-bu avloddan-avlodga uzatiladigan tajribadir
71	Menga kishini g'ashiga tegadigandek ko'rinishda bo'lish yoqadi	-2	-1	0	1	2	Men jamoat orasida odatda hatti-harakatim va modali kiyimlar bilan ajralib turmayman
72	Ayrimlar meni atrofdagilarga nisbatan iltifotli kishi, deb hisoblaydilar	-2	-1	0	1	2	Men ko'pincha o'z yutuqlarim bilan maqtanishimni gapiradilar
73	Men o'z ishimni aniq va batartib bajaraman	-2	-1	0	1	2	Men o'z tuyg'ularinga ishonib, "oqim bo'ylab suzishni" afzal bilaman
74	Men ba'zan juda hayajonlanganligimdan yig'lab ham yuboraman	-2	-1	0	1	2	Men o'z holatimdan chiqarish qiyin
75	Ba'zan men o'zimda qandaydir yangilikni kashf etadigandek his etaman	-2	-1	0	1	2	Men o'zimdagi hech narsani o'zgartirmagan bo'lar edim

“Katta beshlik” so‘rovnomasining javoblar varaqaasi

F.I.SH _____

yoshi _____

jinsi _____

Mutaxassisligi _____

ma'lumoti _____

I	II	III	IV	V
1 <input type="text"/>	2 <input type="text"/>	3 <input type="text"/>	4 <input type="text"/>	5 <input type="text"/>
6 <input type="text"/>	7 <input type="text"/>	8 <input type="text"/>	9 <input type="text"/>	10 <input type="text"/>
11 <input type="text"/>	12 <input type="text"/>	13 <input type="text"/>	14 <input type="text"/>	15 <input type="text"/>
1.1=	2.1=	3.1=	4.1=	5.1=

16 <input type="text"/>	17 <input type="text"/>	18 <input type="text"/>	19 <input type="text"/>	20 <input type="text"/>
21 <input type="text"/>	22 <input type="text"/>	23 <input type="text"/>	24 <input type="text"/>	25 <input type="text"/>
26 <input type="text"/>	27 <input type="text"/>	28 <input type="text"/>	29 <input type="text"/>	30 <input type="text"/>
1.2=	2.2=	3.2=	4.2=	5.2=

31 <input type="text"/>	32 <input type="text"/>	33 <input type="text"/>	34 <input type="text"/>	35 <input type="text"/>
36 <input type="text"/>	37 <input type="text"/>	38 <input type="text"/>	39 <input type="text"/>	40 <input type="text"/>
41 <input type="text"/>	42 <input type="text"/>	43 <input type="text"/>	44 <input type="text"/>	45 <input type="text"/>
1.3=	2.3=	3.3=	4.3=	5.3=

46 <input type="text"/>	47 <input type="text"/>	48 <input type="text"/>	49 <input type="text"/>	50 <input type="text"/>
51 <input type="text"/>	52 <input type="text"/>	53 <input type="text"/>	54 <input type="text"/>	55 <input type="text"/>
56 <input type="text"/>	57 <input type="text"/>	58 <input type="text"/>	59 <input type="text"/>	60 <input type="text"/>
1.4=	2.4=	3.4=	4.4=	5.4=

61 <input type="text"/>	62 <input type="text"/>	63 <input type="text"/>	64 <input type="text"/>	65 <input type="text"/>
66 <input type="text"/>	67 <input type="text"/>	68 <input type="text"/>	69 <input type="text"/>	70 <input type="text"/>
71 <input type="text"/>	72 <input type="text"/>	73 <input type="text"/>	74 <input type="text"/>	75 <input type="text"/>
1.5=	2.5=	3.5=	4.5=	5.5=

I=

II=

III=

IV=

V=

BESH OMILLI TESTNING NATIJALARI TAVSIFI

Umumiy ball 75 ball hisobidan kelib chiqadi



Eng yuqori ball 75 ball hisoblanadi. 55 balldan, 75 ball oralig'ida to'plangan ballar yuqori ball hisoblanadi. 36-54 ballar oralig'ida ball to'planganesa o'rtacha ball to'plagan hisoblanadi. Agarda 15-35 ball oralig'ida ball to'plagan bo'lsa, past ball to'plagan hisoblanadi. (5,4,3,2,1)

**Birinchi omil
ekstraversiya-introversiya**

<p>Yuqori ball to'plaganda quyidagi xususiyatlarini shaxs o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi</p>	<p>Omilning quyi ko'rsatkichi introvertlarga xos xususiyatlarni aks ettiradi</p>
<p>Bu shaxs yo'nalishiga ko'ra psixikasi ekstraversiyaga ta'luqli bo'ladi. Ekstraversiya xususiyatiga ega bo'lganlar, o'zlarining muloqatmandliklari, hazil mutoybaga moyilliklari va turli ko'ngil ochar tadbirlarni tashkil etishni yoqtiradi juda ko'p tanish va do'stlariga ega bo'ladi, doimiy ravishda odamlar bilan muloqatga kirishishga ehtiyoj sezadi. Atrofida doim biror bir odam bo'lishiga intiladi, o'zini mehnat faoliyatida yoki o'quv jarayonida qiynalishini umuman istamaydi, kuchli esta qoladigan taasurotlarni yoqtiradi, ko'pincha zerikib qoladi, ko'pincha g'ayrat bilan mehnat qiladi-yu, lekin tezda soviydi, o'ylamasdan tez qarorga kelishi xususiyatiga ega. Ekstravertlar doimiy ravishda tez-tez tanaffus</p>	<p>Ular quyidagi asosiy, shaxsiy xususiyatlarga ega bo'lishadi. O'zlariga ishonch nihoyatda sust doimiy ravishda boshqalarni ko'magiga muxtoj, hamma vaqt ham o'z xulq-atvorini to'g'ri namoyon qilayotgan shubha bilan qaraydi, atrofida yuz berayotgan voqea hodisalarga diqqatini yo'naltira olmaydi. O'zining kuchiga va intilishlariga qaraganda boshqalarning kuchi hamda istaklariga bo'ysinishni ma'qul ko'radi. Interovrtlar doim jiddiy, biroz g'amgin, kayfiyatda o'zlarini tutishga harakat qilishadi, doimo o'zining shaxsiy masalalari bilan hissiyotlari bilan va ichki kechumalari bilan band bo'lishadi. Ular odamlar bilan shubhalanishdan ko'ra kitob o'qishdan afzal biladilar.</p>

<p>qilishni yoqtirishadi, ular o'z hissiyotlar ustidan nazorat qilish-lari qiyin hatti-harakatlarini qayta nazorat qilishni yoqtirishmaydi, shuning uchun ham egiluvchan, tashqi ta'sirlarga beriluvchan, tajavvuskorlik ularga xosdir. Ish faoliyatida ko'pincha ular tez va aniq bajariladigan ishlarini bajarishni yoqtirishadi, bir xil maromdagi ishlardan tez zerkishib yangi usullar orqali faoliyatni yakuniga yetkazishga harakat qilishadi. Ekstravertlar ko'proq odamlar bilan ishlashni yoqtirishadi, ular tez-tez harakat qilishni yangi-yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishni, har qanday muddatdagi faoliyat uchun vaqt qisqa bo'lsa ham undan chiqib ketish uchun aniq yo'nalish topa olishadi. Ekstravert doimo o'zini tetik tutishga harakat qiladi va bunga erishadi ham bunday shaxslar o'ta ta'sirchan, ginaga beriluvchan bo'lganliklari uchun ham har bir rahbarlantirilishiga hamda tanbehlariga katta e'tibor berishadi.</p>	<p>Introvertlar faoliyatning nazariy va ilmiy turlarini afzal hisoblaydilar. O'qishda ekstravertlarga qaraganda ancha yuqori natijalarni qayd etadilar.</p> <p>Introvertlar kelajakni rejalashtirishni, o'z hatti-harakatlarini doimo o'Ichab yuradilar, birlamchi taasurot va qiziqishlar bilan cheklanib qolmaydilar. O'z kechinmalarini keskin nazorat qiladilar, ba'zi hollarda o'zlarini tuta olmay qoladilar va qo'zg'aluvchan bo'lib qoladilar. Ular kunning birinchi qismida, xotirjam shart-sharoitlarda yaxshi ishlashadi. Bir xil faoliyatdan oson ko'cha oladi. Ular rag'batlantirishdan ko'ra jazolarga nisbatan ta'sirchandirlar.</p>
---	---

Ikkinchi omil yaqinlik-xolislik

<p>Ushbu omilning yuqori ko'rsatkichi insonning odamlarga ijobiy munosabatini belgilaydi</p> <p>Bu toifa shaxslar o'zga kishilar bilan birga bo'lishga ehtiyoj sezadilar. Odatda mehribon, hozirjavob, rahmdil, boshqa odamlarni oson tushunadigan, ularning muvaffaqiyatlari uchun shaxsiy mas'uliyatni his etadilar. O'zga kishilarning kachilik va xatolarini sabr-bilan yondasha oladilar.</p>	<p>Quyi omili esa insonni mustaqil va erkin bo'lishga intilishi ifodalaydi.</p> <p>Ushbu toifa shaxslar mustaqil va erkin bo'lishni istovchi insonlardir. Ular boshqa kishilar bilan munosabatida distansiya saqlashni, o'zining pozitsiya bo'lishni ixtiyor etadilar. Ular jamoat topshiriqlaridan qochadilar, majburiyatlari va va'dalarini bajarishda ehtiyotsizdirlar.</p>
---	---

<p>Jamoaviy tadbirlarni qo'llab-quvvatlaydi, ko'pchilikni kechinmalarini birga kechirishga qobiliyatli, umumiy ishlar uchun mas'uliyatni his etadigan., yuklatilgan topshiriqlarni bajarishda vijdonli yondashadi va mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.</p> <p>Boshqa odamlar bilan o'zaro ta'sirlashuvda bo'lganda ziddiyatli holatlardan qochadi, raqobatni yoqtirmaydi, odamlar bilan raqobatlashishdan ko'ra hamkorlikda ishlashni yoqtiradi.</p> <p>Bunday shaxslarning guruhda hurmatga sazovor bo'lishni biladilar.</p>	<p>Ushbu omil bo'yicha quyi baho olagan shaxslar boshqa insonlarga nisbatan sovuqqonlik bilan munosabat qiladilar, ko'pincha munosabatda boshqalarni tushunmaydilar. O'z manfaatlarini boshqalar manfaatidan ustun qo'yadilar. Ular bilan raqobatlarida ortda qoldiradilar. Ular ko'proq yuqori pog'onalarga chiqishga intiladilar. Maqsadlariga erishish uchun hamma zarur vosilardan foydalanib, boshqalarning manfaatlarini inobatga olmaydilar. Bu sifatga ega shaxslar demokratik rahbar tipi kamdan-kam uchradilar.</p>
---	---

Uchinchi omil

O'zini o'zi nazorat qilish-impulsivlik

<p>Omilning asosiy mazmuni xulq-atvorning irodaviy boshqaruviga qaratilgan.</p> <p>Ushbu omilning yuqori ko'rsatkichi vijdonli, mas'uliyatli, majburiyatlarni his etuvchi, aniqlik va batartiblik fazilatiga ega shaxslarga xoslikni ifodalaydi.</p> <p>Bu insonlar tartib-intizom va qo'laylikni yoqtiradilar, faoliyatlarida qat'iyatli va unda yuqori natijalarga erishuvchan. Ular axloqiy tamoyillarni saqlaydilar, xulq-atvorning umum qabul qilgan me'yorlarini buzmaydilar, hattoki ular rasmiy tarzdgagi quruq norma va qoidalar bo'lsa ham buzmaydilar.</p> <p>O'zini o'zi nazorat qilishi yuqori vijdonlilik va onglilik bilan uyg'unlashgan. Ularda umuminsoniy qadriyatlarni tasdiqlashtirish, ba'zan shaxsiy yo'qotishlar hisobiga amalga</p>	<p>Xulq-atvorning quyi nazoratlashi xos</p> <p>Quyi bahoga ega shaxslar hayotda quyi irodaviy xususiyatlarni kam namoyon qilishga mansub, hayotini murakkablashtirmaslikka intiladi. "Yengil hayot" kechirishni ma'qul hisoblaydi.</p> <p>Bu tipdagi shaxslarda xulq-atvor tabiiy, beg'amlik, o'ylanmagan hatti-harakatlarni amalga oshirishga moyil.</p> <p>Bu tip odam ishga vijdon bilan yondashmaydi, maqsadga erishishda qat'iyatli emas. Xulq-atvorning madaniy me'yorlariga va jamiyat qabul qilingan talablarni bajarish uchun kuch sarf etmaydi, axloq-odob qadriyatlariga nafratlanib qaraydi.</p> <p>Bu xarakter xislatlariga ega shaxslar asotsial hatti-harakatlar sodir etishga moyildirlar. U o'z foydasi uchun</p>
--	---

<p>oshirilmoqda. Ular kamdan-kam o'zini to'liq erkin sezadilar, tuyg'ulariga irodaviy tus berib.</p>	<p>nopoklik va yolg'ondan ham qaytnaydi. U o'zining bugungi kuni bilan yashaydi va kelajagi haqida o'ylab ko'rmaydi.</p>
--	--

To'rtinchi omil
emotsional beqarorlik – emotsional barqarorlik

<p>Omil bo'yicha yuqori natijalar o'z emotsiyasi va impulsiv kechinmalarini nazorat qilishga qobiliyatli emaslikni xarakterlaydi. Ularning xulq-atvorida mas'uliyatsizlik xos, reallikdan chetga og'uvchi va injiq insondir. O'zlarini yordanga muxtoj, hayotdagi qiyinchiliklarni hal etishda qobiliyatsiz his etadilar. Ularning xulq-atvorlarida har xil shartli vaziyatlar uchraydi. Noxushliklarni bezovtalanib qabul qiladilar. Omadsizlikka uchraganlarida esa umidsizlik va depressiyaga oson tushadilar. Ular stressli holatlarda ancha qiyin ishladilar. O'zlarida psixologik zo'riqishni his etadilar. Ularda o'zini past baholash xos bo'lib, muvaffaqiyatsizliklarda xafa bo'ladilar.</p>	<p>Omildagi quyi ko'rsatkichlar o'ziga ishongan, o'ziga yetarlilik, o'zi kuchiga ishongan, emotsional yetuk, faktlarga jasurona qaraydi, o'z rejasini amalga oshirishda qat'iyatli, bog'langan. Kayfiyatning o'zgarishlariga berilib qolmaydi. Ular hayotga nisbatan jiddiy va realistik ko'z bilan qaraydilar, voqelik talablarini yaxshi anglaydilar, o'zlaridagi kanchiliklarni yashirmaydilar, ahamiyatsiz narsalardan xafa bo'lmaydi, hayotga yaxshi moslashayotganliklarini his etadilar. Emotsional barqaror shaxslar eng noxush holatlarda ham o'zlarini sovuqqon va xotirjam tutadilar. Ular ko'pincha yomondan ko'ra yaxshi holatda bo'ladilar.</p>
--	---

Beshinchi omil
Ekspressivlik -praktiklik

<p>Bu toifa insonlar hayotga yengil qaraydilar. Ko'proq moddiy ta'minlanganlikka e'tibor qaratadilar, u mas'uliyatsiz va beg'amdek taasurot qoldiradi. U hayotga o'yin singari taasurot qoldiradi. Hayotning har tomonlaridagi hatti-harakatlarida yengillikday qarash usutnlilik qiladi.</p>	<p>Quyi ballga ega bo'lgan shaxslar realist, kundalik turmushga yengil moslashadigan insonga xos xususiyatlarni ifodalaydi. U hayotga tetik va realistik ko' bilan qaraydi. Chalg'ituvchi g'oyalardan ko'ra moddiy qadriyatlarga ko'proq ishonadi. Bu toifa odamlar ko'proq</p>
---	---

<p>Yuqori natijaga ega bo'lgan shaxslar bilishga qiziqishlari hayotning turli sohalarini qaratishga intilishlari orqali qondiradilar. Ular o'rganadigan narsani oson o'zlashtiradilar, ammo tizimli ilmiy faoliyatga unchali jiddiy yondashmaganliklari oqibatida fanda katta yutuqlarga kam erishadilar. Bu toifa insonlar ko'pincha reallik to'g'risidagi fikrlari bilan alohida ajralib turmaydi. Ular ko'pincha o'z sog'lom fikrga, kundalik faoliyatga va mas'uliyatga qaraganda tuyg'ulariga va intuitsiyasiga ishonadilar. Eskirib qolgan ishlardan qochadilar. Bu emotsionallik, ekspressivlikni, estetik va badiiy ta'ning yaxshi rivojlanganligidan dalolat beradi.</p>	<p>turmushning moddiy tomonlari bilan mashg'ul bo'ladilar, qattiq ishlaydilar va havasni keltiruvchi qat'iyatlilikni namoyon etadilar. Hayotni o'z rejalariga gavdalatiradilar. Egiluvchan va noartistik, kundalik hayotda oddiy va yumor hissidan mahrum etilgan, u doimiy tarzda o'zining odatlarini va qiziqishlarini namoyon etadi. Bu toifa inson o'z hayotida keskin tanaffus qilishni yoqtirmaydi, u doimiylik va barcha o'rab turgan narsalarga ishonchlilikni yoqtiradi. U sentimental emas, shu sababli uni o'z holatidan chiqarish qiyin, tanlanganlariga ta'sir o'tkazib bo'lmaydi. Hayotiy voqea-hodisalarga mantiqiy mezonlar bilan yondashadi va ularni ratsioanal tushuntirishni va amadiy ahamiyatini tushuntirishga intiladi.</p>
---	---

O'zining psixik holatlarini baholash metodikasi (G.Ayzenk)

O'zining psixik holatlarini baholash testi G.Ayzenk tomonidan ishlab chiqilgan. Test yordamida bezovtalanish, frustratsiya, agressivlik va rigidlik singari psixik xossalarning darajalarini aniqlashga erishish mumkin.

Bezovtalik – insonning bezovtali holatlarni qisman va jadal kechishiga moyilligini, shuningdek, uning quyi chegarada namoyon bo'lishini ifodalovchi individual psixik xususiyati. Bu yerda bezovtalikning kechishini noxushliklar, xavfni oldindan sezish yoki shunday tuyulishi bilan bog'liq emotsional diskomfort tushuniladi.

Frustratsiya – xohish-istak va ehtiyojlarning qondirishdagi omadsizliklarni chaqiruvchi psixik xolat. U insonda ko'ngli sovigan, g'azablanish, bezovtalanish, umidsizlik va boshqa salbiy kechinmalar sifatida namoyon bo'ladi.

Agressivlik – insonning boshqa kishilarga, atrof-olamga munosabatiga ko'ra adovatlarining sun'iy va obyektiv sharoitlar bilan

vujudga kelmagan. Inson, hayvon, atrof-olamning ziyoniga ko'payuvchi, noxushliklarni keltirib chiqaruvchi, tendensiyalarda namoyon bo'ladi.

Rigidlik – subyektdagi faoliyatini qayta o'zgartirish talab etilganda o'zgartirishga qiynalishi tushuniladi. Plastiklik rigidlikka teskari shaxs xususiyati hisoblanadi.

Test 40 ta mulohazadan iborat bo'lib, to'rt guruhga birlashtirilgan. Har bir blok psixik holatlarni belgilovchi to'rt guruhdan (bezovtalik, frustratsiya, agressivlik, rigidlik) biriga mos keladi.

Yo'riqnomasi: Sizga to'rtta blokka birlashtirilgan (har biri 10 ta mulohazadan iborat) 40 ta mulohaza taqdim etiladi. Mulohazalarni diqqat bilan o'qing. Har bir mulohazani uchta alternativ (muqobil) javoblardan birini tanlash orqali baholang:

1. Ha, ushbu holat menga ko'pincha xos (ha)

2. Ushbu holat menda ba'zan yuz beradi (ba'zan).

3. Bu menga mutlaqo to'g'ri kelmaydi (yo'q). Javoblarni testning javoblar varaqsida qayd eting.

Test-so'rovnoma

No	Mulohazalar	Ha-2	Ba'zan-1	Yo'q-0
I				
1	O'zimga ishonmayman			
2	Ko'pincha arzimagan narsaga ham qizarib ketaman			
3	Uyqum xotirjam emas			
4	Tez umidsizlikka tushaman			
5	Noxush xayollardan bezovtalanaman			
6	Qiyinchiliklardan qo'rqaman			
7	Kamchiliklarimni kavlashtirishni yoqtiraman			
8	Meni ishontirish oson			
9	Men shubhalanuvchanman			
10	Men biror narsani kutganimda qiynalib ketaman			
II				
11	Menga ko'pincha ishning hal etish imkoni topilishi mumkin bo'lsa ham, ilojisizdek tuyuladi			

12	Noxushliklarda qattiq asabiylashib, ruhim tushib ketadi			
13	Men katta noxushliklar sodir bo'lganda o'zimni yetarli sabablarsiz ayblayman			
14	Baxtsizlik va omadsizlik meni hech nimaga o'rgatmadi			
15	Men ko'pincha kurashish befoyda deb, undan voz kechaman			
16	Men ko'pincha o'zimni himoyasiz his qilaman			
17	Ba'zan umidsizlikka tushib qolaman			
18	Qiyinchiliklar oldida o'zimni yo'qotib qo'yaman			
19	Ba'zan hayotning qiyin damlarida meni ayashlarini xohlab, o'zimni bolalarcha tutaman			
20	Xarakterimdagi kamchiliklarni tuzatib bo'lmaydi deb hisoblayman			
III				
21	So'nggi so'zni aytishni o'zimga qoldiraman			
22	Ko'pincha suhbatda tinglovchi bo'lib qolaman			
23	Men oson asabiylashaman			
24	Boshqalarga tanbeh berishni yoqtiraman			
25	Boshqalar uchun obro'li bo'lishni xohlayman			
26	Kamidan norozi bo'lib, ko'prog'ini xohlayman			
27	Asabiylashsam o'zimni tuta olmay qolaman			
28	Tobe bo'lishdan ko'ra rahbarlik qilishni afzal hisoblayman			
29	Mening imo-ishoralarim keskin va qo'pol			
30	Men qasoskorman			
IV				
31	Odatlarimni o'zgartirishim qiyin			
32	Diqqatimni qiyin ko'chiraman			
33	Yangiliklarga juda hushyorlik bilan munosabatda bo'laman			
34	Meni ishortirish qiyin			

35	O'y-xayollardan xalos bo'lishga urinsam ham ularni ko'pincha boshimdan chiqara olmayman			
36	Odamlar bilan yaqin munosabatda bo'lishim qiyin			
37	Rejadagi ahamiyatsiz o'zgarishlar ham meni qattiq ranjitadi			
38	Ko'pincha o'jarlik qilaman			
39	Istar-istamasdan tavakkal qilaman			
40	Qabul qilgan kun tartibimdagi chetga chiqishdan asabiylashaman			

Test natijalarini qayta ishlash

Natijalarni quyidagi tartibda baholang: agar holatlar sizga mos kelsa 2 ball, holat kamdan kam uchrasa-1 ball, sizda bunday holatlar uchramasa-0 ball bering. Har bir blok bo'yicha ballar yig'indisini hisoblang. 1-blok (1-10 mulohazalar) bezovtalikni; 2-blok (11-20 mulohazalar) frustratsiya holatlarini; 3-blok (21-30 mulohazalar) agressivlik holatlarini; 4-blok (31-40 mulohazalar) rigidlik holatlarini yoritadi.

Psixik holatlarning baholari

1. Bezovtalik:

0-7 ballar: Siz bezovtali emassiz.

8-14 ballar: bo'lishi mumkin bo'lgan darajadagi, o'rtacha bezovtalik.

15-20 ballar: juda bezovtalik

2. Frustratsiya:

0-7 ballar: Sizda o'z-o'zini yuqori baholash mavjud emas, balki omadsizliklarga barqarorlik, qiyinchiliklardan qo'rqmaslik xos.

8-14 ballar: Frustratsiyaning o'rtacha darajasi.

15-20 ballar: Sizda o'zini o'zi baholash past bo'lib, qiyinchiliklardan qochasiz, omadsizlikdan qo'rqasiz va frustratsiyalisiz.

3. Agressivlik.

0-7 ballar: Siz xotirjam, vazmin insonisiz.

8-14 ballar: Sizda agressivlikning o'rtacha darajasi xos.

15-20 ballar: Siz agressivsiz, o'zingizni tuta olmaysiz, odamlar bilan muloqot va ishlashingizda qiyinchiliklar mavjud.

4. Rigidlik.

0-7 ballar: sizda rigidlik yo'q, diqqatingizni oson ko'chira olasiz.

8-14 ballar: Sizda rigidlikning o'rta darajasi xosdir.

15-20 ballar: Sizda rigidlik kuchli ifodalangan bo'lib, oqibatda xulq-atvoringiz, e'tiqodingiz, qarashlaringiz real voqeelikka mos kelmayotganligi va ularni o'zgartira olmaslikligingizdan dalolat beradi.

Shaxs so'rovnomasi. EPQ (G.Ayzenk)

Yo'riqnama: Taqdim qilinayotgan savollar Sizing kundalik xulq-atvoringizni baholashga asoslanadi. Savollarga birinchi paydo bo'lgan fikrga tayanib javob bering. Bu eng maqbul javob hisoblanadi. Agar Sizga mos kelgan javobni belgilash zarur bo'lsa, "ha" javob uchun (+), "yo'q" uchun (-) belgisini javoblarni varaqasiga belgilang. Tez va aniq javob bering. So'rovnomada "to'g'ri" va "noto'g'ri" javoblari mavjud emas.

1. Sizing qiziqish doirangiz kengmi?
2. Siz biror ishni bajarishga kirishishdan oldin uning oqibatlarini atroflicha o'ylaysizmi?
3. Kayfiyatingiz vaziyatga qarab tez-tez o'zgarib turadimi?
4. Boshqa kishi bajargan ishni meniki deb, rag'batlantirishga da'vogarlik qilganmisiz?
5. Siz gapga chechanmisiz?
6. Qarzdor bo'lganingizda Sizni bezovta qilishganmi?
7. Siz asosli sababsiz o'zingizni baxtsiz odamman deb his qilganmisiz?
8. Sizda o'ylaganingizdan ko'proq narsa olish uchun qizg'anish bo'lganmi?
9. Siz tunda eshikni sekingina qulflaysizmi?
10. Siz o'zingizni quvnoq odam deb hisoblaysizmi?
11. Bolalar yoki hayvonlarni azoblanganini ko'rganingizda asabiylashganmisiz?
12. Siz tez-tez nega bu ishni qildim yoki bu gapni gapirdim deb afsuslanasizmi?
13. Sizga noqulay bo'lsa ham doimo va'dangizga turasizmi?
14. Siz parashyutdan sakrashdan qoniqish olganmisiz ?

15. Siz hislaringizga erk berib, quvnoq davralarda xotirjam hordiq chiqarasizmi?

16. Siz ta'sirchanmisiz?

17. Siz aybingiz bo'la turib, shu ish bo'yicha boshqa kishini ayblanganmisiz?

18. Sizda yangi tanishlar orttirish yoqadimi?

19. Siz sug'urtadan foydalanishga ishonasizmi?

20. Sizni xafa qilish osonmi?

21. Sizni barcha odatlaringiz yaxshi va ma'qulmi?

22. Siz odamlardan panada bo'lishga harakat qilasizmi?

23. Siz g'ayri-tabiiy yoki xatarli holatga olib kelishi mumkin bo'lgan vositalar (alkogol, narkotiklar) qabul qilganmisiz?

24. Sizda ko'pincha hamma narsa jonga tekkandik tuyuladimi?

25. Siz o'zga kishiga tegishli narsani, hatto, u kichkina to'g'nag'ich yoki nina bo'lsa ham o'zingizga olganmisiz?

26. Sizda tez-tez mehmondorchilikda va jamoa ichida bo'lish yoqadimi?

27. Siz yoqtirgan kishingizni xafa qilishdan huzur olasizmi?

28. Sizni tez-tez aybdorlik hissi bezovta qiladimi?

29. Sizda o'zingiz yomon bilgan narsa haqida gapirishga to'g'ri kelganmi?

30. Siz odamlar bilan uchrashishdan ko'ra kitob o'qishni afzal hisoblaysizmi?

31. Sizning dushmanlaringiz borligi aniqmi?

32. Siz o'zingizni asabiy odam deb hisoblaysizmi?

33. Siz doimo boshqalarga qo'pollik qilsangiz uzr so'raysizmi?

34. Sizning do'stlaringiz ko'pmi?

35. Siz ba'zan odamlarga azob bersa ham yutuqli o'yin va hazil-mutoyiba uyushtirishni yoqtirasizmi?

36. Siz bezovtali odammisiz?

37. Siz bolalikda berilgan topshiriqlarni doimo shoshmasdan va sekin bajarganmisiz?

38. Siz o'zingizni betashvish odam deb hisoblaysizmi?

39. Sizning ozodaligingizni belgilovchi jihatlaringiz ko'pmi?

40. Sizni sodir bo'lmagan, ammo sodir bo'lishi mumkin bo'lgan noxush hodisalar bezovtalantiradimi?

41. Sizda o'zga kishining buyumini yo'qotib qo'yish yoki buzib qo'yish hollari bo'lganmi?

42. Siz odatda tanishuvda birinchi bo'lib tashabbus bilan chiqasizmi?

43. Agar biror kishi o'zining tashvishlari bilan o'rtoqlashsa uning holatini oson tushunasizmi?

44. Sizda tez-tez haddan ortiq asabiylashish bo'ladimi?

45. Agar axlat tashlash qutisi bo'lmasa, keraksiz qog'ozni polga tashlaysizmi?

46. Siz o'zga kishilar davrasida bo'lsangiz ko'proq tinglab o'tirasizmi?

47. Siz nuqsonli buyumni eski andazadagi narsa sifatida uni bekor qilish kerak deb hisoblaysizmi?

48. Siz ba'zan o'zingizga norozilik bilan qaraysizmi?

49. Siz ba'zan ko'p maqtanasizmi?

50. Sizda zerikarli davrani jonlantirish qiyin emasmi?

51. Ehtiyotkor haydovchilardan asabiylashasizmi?

52. Siz sog'lig'ingizdan bezovtalanasizmi?

53. Siz o'zga odam haqida yomonlab gapirganmisiz?

54. Siz do'stlaringizga hazil-mutoyiba aytishni va hazillashishni yoqtirasizmi?

55. Siz uchun ko'pchilik taomlarning mazasi bir xil tuyuladimi?

56. Sizda ba'zan yomon kayfiyat hukm so'radimi?

57. Siz bolaligingizda ota-onangizni ranjitganmisiz?

58. Sizga odamlar bilan suhbatlashish yoqadimi?

59. Siz ishingizda xatoga yo'l qo'yganingizni sezsangiz azoblanasizmi?

60. Siz uyqusizlikdan bezovtalanasizmi?

61. Siz doimo ovqatlanishdan oldin qo'lingizni yuvasizmi?

62. "Qalovini topsang qor yog'ar" naqliga amal qiladigan insonmisiz?

63. Siz uchrashuvga belgilangan vaqtdan oldin kelib turish kerak deb hisoblaysizmi?

64. Siz hech qanday sababsiz o'zingizni majolsiz, charchagandek his etasizmi?

65. Siz qulay sharoit tug'ilsa, paytni boy bermasdan yangi kishi bilan suhbatlashishni yoqtirasizmi?

66. Siz qachondir o'yinda ayyorlik qilganmisiz?

67. Sizning onangiz yaxshi insonmilar (yaxshi inson edilmami)?

68. Sizda tez-tez hayot juda ham zerikarlidek tuyuladimi?

69. Siz qachonlardir boshqa kishidan o'z maqsadlaringiz uchun foydalanganmisiz?

70. Siz biron bir safarga hozirlanganingizda o'zingiz bilan vaqt talab etadigandan ham ko'proq narsani olasizmi?

71. Odamlar Sizdan qochishga harakat qilgan vaqt bo'lganmi?

72. Sizning tashqi qiyofangiz juda ko'p mashg'ul bo'lishni talab etadimi?

73. Siz yoqimsiz kishilar bilan ham xushmuomalalik bilan so'zlashasizmi?

74. Siz odamlarni o'z kelajagi, ehtiyot sharti, o'zini va hayotini himoyalash uchun ko'p vaqt sarflaydilar deb hisoblaysizmi?

75. Sizda qachonlardir o'lish xohishi paydo bo'lganmi?

76. Sizni bu borada ta'sir o'tkaza olmasliklariga ishonsangiz ham qo'shimcha daromad solig'ini to'lashdan qochganmisiz?

77. Siz davralarga jonlantirish kirita olasizmi?

78. Siz odamlarga qo'pollashmaslikka intilasizmi?

79. Siz xijolatga tushganingizda uni uzoq vaqt boshdan kechirasizmi?

80. Siz qachondir boshqalarni xohlaganingizdek ishni bajarishlariga majburlaganmisiz?

81. Siz tez-tez vokzalga poyezd jo'nashiga oz vaqt qolgan daqiqalarda yetib kelasizmi?

82. Siz qachondir atayin odamlarga yoqimsiz yoki xafa qiladigan so'z gapirganmisiz?

83. Sizni asabingiz bezovta qilganmi?

84. Sizda o'rtoqlari ustidan hazil qiladiganlar davrasida bo'lish noqulaymi?

85. Siz o'z aybingiz bilan do'stlaringizdan osongina ayrilib qolasizmi?

86. Siz tez-tez o'zingizni yolg'izdek his etasizmi?

87. Sizning doimo gapingiz va ishingiz bir joydan chiqadimi?

88. Sizda ba'zan hayvonlarning joniga tegish yoqadimi?

89. Sizni shaxsingiz va ishingizga tegishli bo'lgan tanbehlardan tez xafa bo'lasizmi?

90. Hayot sizga hech qanday xavf-xatarsiz, ortiqcha zerikarlilik tuyuladimi?

91. Siz ishga yoki uchrashuvga kech qolganmisiz?

92. Sizga jonli va zavq-shavqqa to'lgan muhit yoqadimi?

93. Odamlarning Sizdan qo'rqishlarini xohlaysizmi?
94. Siz ba'zan g'ayrat-shijoatli, ba'zan esa hafsalasiz bo'lib qolasizmi?
95. Siz ba'zan bugun bajarilishi kerak bo'lgan ishni ertaga qoldirganmisiz?
96. Sizni jonli va quvnoq odam deb hisoblash mumkinmi?
97. Sizga tez-tez nohaq gapiradilarmi?
98. Siz bir qator hodisalar, voqealar va narsalarga nisbatan juda sezgirmisiz?
99. Siz doimo o'z xatoyingizni tan olishga tayyormisiz?
100. Sizni qachonlardir hayvonni tuzoqqa tushib qolishi afsuslantirganmi?
101. Sizda savollarga javob berish qiyinchilik tug'dirmadimi?

Natijalarni qayta ishlash:

Test kalitlariga mos kelgan har bir javobga 1 ballan beriladi. Mos kelmagan javobga esa 0 ball beriladi va har bir shkala bo'yicha natijalar umumlashtiriladi. Natijalar so'ngra belgilangan norma asosida tahlil etiladi.

1. Ekstraversiya-introversiya shkalasi:

“yo‘q” (-): 22, 30, 46, 84;

“ha” (+): 1,5,10,15,18,26, 34, 38,42, 50, 54, 58, 62, 65, 70, 74, 77, 81, 90, 92, 96.

2. Neyrotizm shkalasi:

“ha” javoblar (+): 3, 7, 12, 16, 20, 24, 28, 32, 36, 40, 44, 48, 52, 56, 60, 64, 68, 72, 75, 79, 83, 86, 89, 94, 98.

3. Psixotizm:

“yo‘q” (-): 2, 6, 9, 11, 19, 39, 43, 59, 63, 67, 78, 100;

“ha” (+): 14, 23, 27, 31, 35,47, 51,55, 71, 85, 88, 93,97.

4. Ochiqlik shkalasi:

“yo‘q” (-): 4, 8, 17, 25, 29, 41, 45, 49, 53, 57, 66, 69, 76, 80, 82, 91, 95;

“ha” (+): 13, 21, 33, 37, 61, 73, 87, 99.

1. Ekstra-introversiya shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich: 7–15 ball.

2. Neyrotizm shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich : 8–16.

3. Psixotizm shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich: 5–12. Agar tekshiriluvchi psixotizm shkalasi bo'yicha 10 ballan yuqori ball

to'plasa, uni "inson-inson" tipidagi kasblar bilan shug'ullanishga tavsiya etilmaydi.

4. Samimiylik shkalasi: agar tekshiriluvchi ushbu shkala bo'yicha 10 balldan yuqori ball to'plasa, uning natijalari ishonchsiz hisoblanadi.

EPQ metodikasi bo'yicha shaxs-tiplari matritsasi

	Introversiya (< 7 ball)	O'rtacha (7-15 ball)	Ekstraversiya (> 15 ball)
Neyrotizm (> 16 b.)	M	MX	X
O'rtacha qiymat (8-16 b.)	FM	N	XS
Barqarorlik (< 8 b.)	F	SF	S

Har bir shaxs tipi quyidagi tashqi ko'rinishlar mos keladi:

1. Xolerik (X) — agressiv, qiziqqon, o'z qarashlarini o'zgartiruvchi.

2. Xolerik-sangvinik (XS) tipi — optimist, faol, ekstravert, muloqotmand, ochiq.

3. Sangvinik (S) — gavgachechan, tez ilg'ovchi, o'zini erkin tutuvchi, jonli.

4. Sangvinik-flegmatik (SF) tip — beg'am, lidirlik qiluvchi, barqaror, vazmin, bosiq.

5. Flegmatik (F) — ishonchli, o'zini boshqara oladigan, tinchliksevar, mulohazali.

6. Flegmatik-melanxolik (FM) tipi — tirishqoq, sustkash, introvert, sokin, odamovi.

7. Melanxolik (M) — tortinchoq, pessimist, hushyor, rigid.

8. Melanxolik-xolerik (MX) tipi — vijdonlik, injiq, asabiy, xafakash, bezovtali

9. Normal tip (N).

So'rovnoma 90 savoldan iborat: neyrotizm - 23, ekstra-introversiya - 21, psixotizm - 25, "samimiylik" — 21). So'rovnomaning 11 savol chet savollar hisoblanadi va ularga berilgan javoblar inobatga olinmaydi.

Agressiya shakllari va uning ko'rsatkichlarini diagnostika qilish metodikasi (A.Bass va I.Dark)

Ta'kidlarni o'qish yoki eshitish davomida ular sizning hayot tarzingiz, xulq-atvoringizga qanchalar mos kelishiga qarab quyidagi

to'rtta javobdan sizning holatingizga mos tushadiganini belgilang: "ha", "ha desam ham bo'laveradi", "yo'q", "yo'q desam ham bo'laveradi".

1. Gohi-gohida kimningdir jonini shunday og'ritgim keladi-ki, bu istakni hech ham yengolmayman.

2. Ba'zan o'zingga yoqmagan odamlar haqida gap sotishim mumkin.

3. Mening jahlim tez, biroq jahldan tushishim judayam oson.

4. Mendan yaxshilikcha so'ralmasa iltimoslarni bajarmayman.

5. Men o'zimning haqinni har doim ham undira olmayman.

6. Odamlar orqavorotdan men haqimda gap-so'z qilishlarini bilaman.

7. Birovlar hatti-harakatini ma'qullamasam bu narsani ularga sekingina sezdirib qo'yaman.

8. Kimnidir aldashga majbur bo'lib qolsam, vijdonim qiynaladi.

9. Men hech kimga qo'l ko'tara olmasam kerak.

10. Men hech qachon qo'lga ilingan narsani otish darajasida jaxl qilmayman.

11. Birovlarning kamchiliklariga doimo ko'ngilchanlik bilan qarayman.

12. Agar o'rnatilgan tartib menga yoqmasa, uni buzgim keladi.

13. Odatda, ba'zi odamlar fursatdan foydalanib o'z ishini to'g'rilab olishni yaxshi bilishadi.

14. Kutganimdan ortiq iltifot ko'rsatayotgan sermulozamat odamlar meni ulardan ehtiyot bo'lishga undaydi.

15. Odamlar bilan ko'pincha murosas qilolmayman.

16. Ahyon-ahyon o'zimni ham uyaltiradigan o'y-fikrlar miyamga kelib turadi.

17. Menga tarsaki tortgan kishiga tarsaki bilan javob bermayman.

18. Jahlimni chiqarishsa eshikni qarsillatib yopaman.

19. Men yuvosh ko'rinsamda, aslida jahldorman.

20. Agar kimdir o'zini rahbarday tutsa, atay unga qarshi hatti-harakat qilaman.

21. Qismatim meni biroz ranjitadi.

22. Meni ko'plar yoqtirmasa kerak deb o'ylayman.

23. Kimlardir fikrimga qo'shilmasa tortishmay turolmayman.

24. Ishdan bo'yin tovlaganlar o'z ayblarini his qilishlari lozim.

25. Meni yoki mening oilamni mendan ko'radiganini ko'radigan kishigina haqorat qilishi mumkin.
26. Qo'pol hazillarga moyil emasman.
27. Ustimdan kulishsa jahlim chiqadi.
28. Kimlardir kibrga berilib, o'zgalarni oyog'ini uchi bilan ko'rsatsa, ularning popugini pasaytirib qo'yish qo'limdan keladi.
29. Deyarli har hafta o'zinga yoqmagan kishilardan birortasi bilan to'qnash kelaman.
30. Aksariyat odamlar menga hasad qiladi.
31. Odamlardan hurmatimni joyiga qo'yishlarini talab qilaman.
32. Ota-onamga ko'ngildagidek qarasha olmaganim uchun ezilaman.
33. Muttasil joningdan to'ydiradiganlarni jag'iga bir tushirsang arziydi.
34. Gohida jahlim chiqsa qovog'imdan qor yog'adi.
35. Garchi odamlar menga, aslida o'zim arziganimdan ham yomon munosabatda bo'lsalarda xafa bo'lmayman.
36. Kimdir jig'imga tegishga harakat qilsa ham men unga parvo qilmayman.
37. Oshkora namoyish qilmasamda, ba'zan ichimda kuyinaman.
38. Ba'zan odamlar mening ustimdan kulishayotganday tuyuladi.
39. Ming achchig'im chiqsa, bolohonador qilib so'ka olmayman.
40. Gunohlarim avf etilishini istar edim.
41. Kimdir meni urgan taqdirda ham, kamdan-kam hollarda unga javob qaytaraman.
42. Ba'zi ishlar mening aytganimday bo'lmasa xafa bo'laman.
43. Ba'zan odamlarning borligi ham g'ashimga tegadi.
44. Men chinakamiga nafratlanadigan odamning o'zi yo'q.
45. Mening shiorim: "begonalarga ishonmaslik kerak!"
46. Kimdir jig'imga tegsa, u haqda o'ylaganlarimni yuziga aytishgacha boraman.
47. Qilib qo'ygan ko'plab ishlarimdan keyinchalik pushaymon yeyman.
48. Achchig'im chiqsa, musht tushirishdan ham qaytmayman.
49. Men bolaligimdan g'azabimni yashirib yashashga o'rganganman.
50. Ko'pincha o'zimni sabr kosam to'lib ketganday his qilaman.

51. Odamlar men nimalarni his qilayotganimni bilishsa edi, meni murosasiz, xarakteri og'ir inson deb hisoblashgan bo'lar edi.
52. Odamlar menga nima sababdan yaxshilik qilishar ekan, deb o'ylaganim o'ylagan.
53. Menga baqirsalar, men ham ovozimni balandlataman.
54. Muvaffaqiyatsizliklar meni qayg'uga soladi.
55. Janjalkashligim boshqalarnikiday: ko'p ham emas, oz ham emas.
56. G'azabdan qo'limga ilingan narsani otib sindirgan paytlarim ham bo'lgan.
57. Ba'zan aynan o'zim birinchi bo'lib janjal chiqarishim mumkinligini his qilaman.
58. Ba'zan qismat menga nisbatan adolatsiz bo'layotganday tuyuladi.
59. Avvallari odamlarni sanimiy deb bilardim, endi esa yo'q.
60. G'azablansamgina so'kinaman.
61. Noto'g'ri ish qilsam vijdonim qiynaladi.
62. O'z haq-huquqimni himoya qilish uchun jismoniy kuch ishlatish lozim bo'lsa ishlataman.
63. Ba'zan achchiq ustida stolni mushtlayman.
64. O'zimga yoqmagan odamlarga nisbatan qo'polroq bo'laman.
65. Menga ziyon yetkazishni istaydigan dushmanim yo'q.
66. Jazoga loyiq odamni jazolash qo'limdan kelmaydi.
67. Ko'pincha noto'g'ri hayot kechirganligimni o'ylab qolaman.
68. Jahlimni chiqarib meni mushtlashishgacha olib borishi mumkin bo'lgan odamlarni bilaman.
69. Arzimagan mayda-chuydalarga ranjimayman.
70. Odamlar mening jig'imga tegishmoqchi yoki haqoratlashmoqchi degan o'ylar kamdan-kam hollarda miyamga keladi.
71. Ko'pincha amalga oshirmasamda do'q-po'pisa qilib qo'yaman.
72. Oxirgi vaqtda ezma bo'lib qoldim.
73. Baxslashayotganimda ovozim o'z-o'zidan balandlab ketadi.
74. Odamlarga nisbatan yomon munosabatda ekanimni yashirishga harakat qilaman.
75. Tortishib o'tirgandan ko'ra, ko'nib qo'ya qolaman.
- Ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida "ha" va "ha" desam ham bo'ladi" javoblari bir xilda, ya'ni "ha" kabi hisobga olinadi,

shuningdek "yo'q" va "yo'q" desam ham bo'ladi" javoblari ham bir xilda, ya'ni "yo'q" kabi hisoblanadi.

1-KALIT

So'rovnoma natijalarini qayta ishlash.

1. Jismoniy agressiya (K=11)

1+; 9 -; 17 -; 25 +; 33 +; 41+; 48+; 55+; 62+; 68+.

2. Verbal agressiya (K=8)

7+; 15+; 23+; 31+; 39-; 46+; 53+; 60+; 66-; 71+; 73+; 74 -; 75 -.

3. Orqavorotdan (bilvosita) bo'ladigan agressiya (K=13)

2+; 10+; 18+; 26 -; 34+; 42 +; 49 -; 56+; 63+.

4. Voqe'likka salbiy munosabatda bo'lish, inkor etish (Negativizm) (K=20)

4+; 12+; 20+; 28+; 36 -.

5 Jizzakilik (K=9)

3+; 11 -; 19 +; 27+; 35 -; 43+; 50+; 57+; 64+; 69 -; 72 +.

6 Sergumonlik (K=11)

6+; 14+; 22+; 30+; 38+; 45+; 52+; 59+; 65 -; 70 -.

7 Ranj (K=13)

5+; 13 +; 21+; 29 +; 37+; 44+; 51+; 58+.

8 Aybdorlik hissi (K=11)

8+; 16 +; 24 +; 32+; 40 +; 47+; 54+; 61+; 67+.

"-" belgili savollar javoblarini qayd qilayotganda agar javob "ha" bo'lgan bo'lsa "yo'q" deya, agar "yo'q" bo'lsa "ha" kabi qayd qilinishi talab etiladi.

Ballar yig'indisi har bir agressivlik parametrada ko'rsatilgan koeffitsientga ko'paytirilgach, ular solishtirishga qulay me'yoriy ko'rsatgichlarga aylanadi.

Summar ko'rsatkichlar;

$(1 + 2 + 3) = 3 + IA$ (Agressiya indeksi)

$(6 + 7) = 2 + IAd$ (Adovatlilik indeksi)

1 Jismoniy agressiya - boshqa bir odamga qarshi jismoniy kuch ishlatish.

2 Verbal agressiya - salbiy his-tuyg'ularni og'zaki tarzda ifodalash (janjal, qiy-chuv solish, so'kinish, tahdid, la'nat aytish, qarg'ish kabilar)

3 Orqavorotdan bo'ladigan yo bilvosita agressiya - boshqa shaxsga qaratilgan g'iybat, piching ko'rinishidagi bilvosita olinadigan

alam, nafratning yoʻnalishi aniqlanmaganligi ham boʻlishi mumkin (yer tepish, baqirib-chaqirish).

4 Negativizm (voqeʻlikka salbiy munosabatda boʻlish, hamma narsani inkor etish) – rahbariyat yoki obroʻga qarshi yoʻnalgan xulq-atvor, talab, tartib, qonunlarga qarshi passiv moneʻlikdan faol hatti-harakat darajasigacha borib etishi mumkin.

5 Jizzakilik - jizzakilikka moyillik, arzimagan narsaga portlab ketish, keskinlik, qoʻpollik qilish.

6 Sergumonlik - ishonchsizlikka moyillik, odamlar bilan ehtiyot boʻlib munosabatga kirishish, atrofdagilar zarar yetkazishi mumkin, degan oʻy bilan yashash.

7 Ranj - kimdandir yoki butun olamdan alamzadalik, xayolan yoki chindan ham keltirilgan iztirob, gʻazab, atrofdagilarga nisbatan nafrat, hasadning namoyon boʻlishi.

8 Autoagressiya - oʻzi va atrof-muhit oʻrtasidagi munosabatlarda kuzatiladigan aybdorlik hissi, oʻziga qarshi qaratilgan hatti-harakat, yaʻni oʻzini ayblash, men undogʻman, men bundogʻman, deb ich-etini eyish.

Agressiyani diagnostika qilish metodikasi (A.Asinger)

A.Asingerning ushbu testi shaxsning oʻz hamkasblari bilan munosabatda qanchalik darajada toʻgʻriligini (ochiqligini) va ularning u bilan muloqot qilishlarini osonligini aniqlashda yordam beradi.

Javoblarning xosligini aniqlash uchun hamkasabalar orasida bir-birini baholovchi suhbat oʻtkazish mumkin.

Bu esa ularning oʻz-oʻzlarini baholashlari qanchalik toʻgʻriligini aniqlashda yordam beradi.

Javobni tagiga chizing.

1. Siz ishxonangizda navbatdagi nizodan soʻng yarashish yoʻllarini qidirishga moyilmisiz?

1) Har doim.

2) Gohida.

3) Hech qachon.

2. Siz oʻzingizni mushkul vaziyatda qanday tutasiz?

1) Ich-ichingizdan gʻazablanasiz.

2) Xotirjamligingizni saqlaysiz.

3) Oʻzingizni tuta olmaysiz.

4) Dadilligingizni yoʻqotmaysiz.

3. Hamkasblaringiz sizni qanday odam deb hisoblashadi?

- 1) Kekkaygan, hasadchi.
- 2) Samimiy.
- 3) Xotirjam va hasadchi emas.

4. Agar sizga mas'ul lavozim taklif qilinsa, siz qanday munosabat bildirasiz?

- 1) Uni bir muncha xavotirlanish bilan qabul qilasiz.
- 2) Ikkilanmasdan rozi bo'lasiz.
- 3) Undan o'zingizni xotirjamligingiz uchun voz kechasiz.

5. Agar hamkasblaringizdan birontasi ruhsatsiz sizni stolingizdan qog'oz olsa o'zingizni qanday sezasiz.

- 1) Unga kimligingizni ko'rsatib qo'yasiz.
- 2) Qaytarishga majbur qilasiz.
- 3) Unga yana biror narsa kerak emasligini so'raysiz.

6. Agar eringiz (xotiningiz) ishdan odatdagidan kech qolsa qanday so'zlar bilan kutib olasiz.

- 1) Nima seni shunchalik ushlab qoldi.
- 2) Kechgacha qayerda eding.
- 3) Men xavotir ola boshlayotgan edim.

7. Siz o'zingizni mashina boshqarayotganda qanday tutasiz?

1) Sizni "Quvib kelayotgan" mashinani quvib o'tishga harakat qilasiz.

- 2) Sizni qancha mashina quvib o'tsa ham sizga baribir.
- 3) Shunaqangi tezlikda ketasizki, sizga hech kim yetolmaydi.

8. Sizni hayotga qarashingiz qanday deb hisoblaysiz?

- 1) Uyg'unlashgan.
- 2) Yengiltak.
- 3) Juda ham qattiq (og'ir).

9. Agar ishlaringiz yurishmayotgan bo'lsa nima qilasiz?

- 1) Aybni birovga ag'darishga harakat qilasiz.
- 2) Ko'nikasiz.
- 3) Kelgusida ehtiyotkorroq bo'lasiz.

10. Siz zamonaviy yoshlarning orasida axloqsizlik haqidagi feletonga qanday munosabat bildirasiz?

- 1) "Bunday vaqti chog'likni ta'qiqlash kerak".
- 2) Ularga uyushgan va madaniy tarzda dam olishi uchun imkoniyat yaratish lozim.
- 3) Nimaga endi biz ular bilan shunchalar ovoramiz.

11. Agar siz egallamoqchi bo'lgan lavozim boshqa birovga nasib qilsa, nimani his qiliasiz?

- 1) Nimaga bu uchun shuncha asabiylashaman.
- 2) Chamasi, xo'jayinga uning ko'rinishi yoqimliroq bo'lsa kerak.
- 3) Balki, men buni keyingi safar uddasidan chiqarman.

12. Qo'rqinchli film ko'rayotganda qanday holatda bo'lasiz?

- 1) Qo'rqasiz.
- 2) Zerikasiz.
- 3) Chin dildan zavqlanasiz.

13. Agar siz yo'ldagi tiqilinch tufayli muhim majlisga kechikayotgan bo'lsangiz...

- 1) Majlis vaqtida asabiylashasiz.
- 2) Hamkorlaringizga iltifot ko'rsatishga harakat qiliasiz.
- 3) Ranjiysiz.

14. O'zingizni sportdagi yutuqlaringizga qanday qaraysiz?

- 1) Albatta yutishga harakat qiliasiz.
- 2) O'zingizni yana yosh his qilishingiz lazzatini qadrlaysiz.
- 3) Agar omad kelmasa, judayam jahlingiz chiqadi.

15. Agar sizga restoranda yomon xizmat qilishsa nima qiliasiz?

- 1) Janjaldan qochib, chidaysiz.
- 2) Ofitsiantni chaqirasiz va tanbeh berasiz.
- 3) Restoran direktoriga arz qiliasiz.

16. Agar bolangizni maktabda xafa qilishsa, o'zingizni qanday tutasiz?

- 1) O'qituvchi bilan gaplashasiz.
- 2) "Voyaga yetmagan jinoyatchining" ota-onasi bilan janjallashasiz.

3) Bolangizga javob qaytarishni maslahat berasiz.

17. Sizningcha, siz qanday odamsiz?

- 1) O'rtacha.
- 2) O'ziga ishongan.
- 3) Uddaburon.

18. Sizning xodimingiz idora eshigida sizga urilib ketsa va kechirim so'ray boshlasa, siz nima deb javob berasiz?

- 1) "Uzr, bu meni aybim".
- 2) "Hechqisi yo'q".
- 3) "E'tiborliroq bo'lsangiz bo'lmaydimi".

19. Yoshlar orasidagi bezorilik haqidagi maqolaga siz qanday munosabat bildirasiz?

- 1) "Qachon axir, jiddiy choralar ko'riladi".
- 2) "Jismoniy jazo choralarini kiritish kerak".
- 3) "Hammasini yoshlarga ag'darish to'g'ri emas, tarbiyachilar ham aybdor".

20. Tasavvur qiling, sizda boshqatdan tug'ilish imkoni tug'ildi, lekin hayvon bo'lib, qaysi hayvonni ma'qul ko'rasiz?

- 1) Sher yoki leopard.
- 2) Uy mushugi.
- 3) Ayiq.

Natijalar taHLili.

36-44 ball. Siz o'rtacha darajada tajovuzkorsiz, lekin hayotda muvaffaqiyatli qadam tashlayapsiz. Sizda samimiy izzattalablik va ishonch bor.

45 va undan ortiq. Siz ortiq darajada tajovuzkorsiz va ko'pincha boshqalarga nisbatan betayin va judayam shavqatsizsiz, siz o'zingizni metodlaringizga ishongan holda rahbarlikka ko'tarilishga umid qilasiz, bunda oila a'zolaringiz va atrofingizdagilar manfaatlarini qurbon qilasiz.

35 va undan past. Siz haddan ziyod tinchliksevarsiz, bu esa sizda o'zingizning kuchingizga va imkoniyatlaringizga ishonch yetarli emasligini anglatadi. Bu albatta sizni har doim egilishingizni bildirmaydi. Baribir ham sizga ko'proq qat'iylik bo'lishi xalaqit bermaydi.

Agar siz 7 ta va undan ko'p savollarga 3 balldan va 7 tadan kam savollarga 1 tadan ball to'plagan bo'lsangiz, unda sizning tajovuzkorona portlashlaringiz yaratuvchanlikdan ko'ra buzg'unchilik harakteriga ega.

Siz o'ylab ko'rilmagan ishlarga va ayovsiz munozaralarga moyilsiz. Siz odamlarga mensimaslik bilan qaraysiz va o'z xulqingiz bilan janjalli murosasizlik holatlariga undaysiz, vaholanki ularni oldini olishingiz mumkin.

Agar siz 7 ta va ko'proq savollarga bir ochkodan va 7 tadan kam savollarga 3 ochkodan olsangiz, unda siz haddan ziyod odamovisiz. Bu degani sizda tajovuzkorlik, shoshilishlik begona emas, lekin siz uni judayam bostira olasiz.

Reaktiv va shaxsiy xavotirlik shkalalarini o'rganuvchi metodika (Ch.D.Spilberg va Yu.L.Xanin)

Quyidagi so'rovnoma ayni holatdagi xavotirlanish darajasining (holat sifatida) va shaxslik xavotirlanish (insonning barqaror tavsifi sifatida) darajasini o'z-o'zini baholash orqali aniqlashga qaratilgan mukammal testlardan hisoblanadi. Savolnoma Ch.D.Spilberg tomonidan ishlab chiqilgan va Yu.L.Xanin tomonidan moslashtirilgan.

Shaxslilik xavotirlanish vaziyat-holatlarning aksariyat qismini tahdid soluvchi sifatida qabul qiladi, bunday vaziyatlarga xavotir holati bilan munosabat bildiradi. Reaktiv xavotirlanish bezovtalik, asabiylashish, taranglashish bilan namoyon bo'ladi.

Juda yuqori reaktiv xavotirlanish diqqatning buzilishi, ba'zida nozik koordinatsiyaning buzilishi bilan tavsiflanadi. Juda yuqori shaxslilik xavotirlanish asabiy nizolar, emotsional va kuchli asabiylashish natijasida kelib chiqadigan psixologik o'zgarishlar o'v psixosomatik kasalliklarni keltirib chiqaradi.

O'z-o'zini baholash shkalasi 2 qismdan iborat, vaziyat (reaktiv, Rx 1-20 gacha bo'lgan savollar) va shaxslilik (Shx 21-40 gacha bo'lgan savollar) xavotirlanishni aniqlashga qaratiladi.

Natijalarni tahlil qilish tartibi

RX (Reaktiv xavotirlanish) va ShX (Shaxsiy xavotirlanish) quyidagi formula orqali hisoblanadi.

$$RX = \Sigma 1 - \Sigma 2 + 35$$

Bunda $\Sigma 1$ -javob varaqasidagi 3, 4, 6, 7, 9, 12, 13, 14, 17, 18 - belgilangan bandlarning umumiy soni;

$\Sigma 2$ -javob varaqasidagi 1, 2, 5, 8, 10, 11, 15, 16, 19, 20 - belgilangan umumiy bandlarning umumiy soni

$$ShX = \Sigma 1 - \Sigma 2 + 35$$

Bunda $\Sigma 1$ -javob varaqasidagi 22, 23, 24, 25, 28, 29, 31, 32, 34, 35, 37, 38, 40 - belgilangan bandlarning umumiy soni

$\Sigma 2$ -javob varaqasidagi 21, 26, 27, 30, 33, 36, 39 - belgilangan bandlarning umumiy soni

Natijalar ballarda hisoblanadi:

30 ballgacha - past,

31-45 ballgacha - o'rtacha

46 ball va undan yuqori - kuchli xavotirlik darajasi

Familiya _____ Ism _____

Otasining ismi _____ yoshi _____ jinsi _____

Yo'riqnomasi: keltirilgan har bir gapni diqqat bilan o'qing va hozirda o'zingizni qanday his qilayotganingizdan kelib chiqib o'ng tarafda joylashgan sonlardan birini belgilang. Savollar ustida ko'p o'ylamang.

№	Holatlar	Yo'q bunday emas	Shunday bo'lsa kerak	To'g'ri	Juda to'g'ri
1	Men xotirjamman	1	2	3	4
2	Menga hech nima tahdid solmayapti	1	2	3	4
3	Mening asablarim taranglashgan	1	2	3	4
4	Men afsuslanmoqdaman	1	2	3	4
5	Men o'zimni erkin his qilayapman	1	2	3	4
6	Men xafaman	1	2	3	4
7	Meni ehtimoliy (yuzaga kelishi mumkin) bo'lgan muvaffaqiyatsizliklar tashvishlantiryapti	1	2	3	4
8	Men o'zimni dam olgandek his qilayapman	1	2	3	4
9	Men o'zimdanda mamnun emasman	1	2	3	4
10	Men ichki qoniqishni his qilmoqdaman	1	2	3	4
11	Men o'zimga ishonaman	1	2	3	4
12	Men asabiylashayapman	1	2	3	4
13	Men o'ziمنى qo'yishga joy topa olmayapman	1	2	3	4
14	Mening kayfiyatim buzilgan	1	2	3	4
15	Men siqilyapman va zo'riqish his qilayapman	1	2	3	4
16	Men mamnunman	1	2	3	4
17	Men tashvishdaman	1	2	3	4
18	Men juda asabiyman va o'zimga kela olmayapman	1	2	3	4
19	Men xursandman	1	2	3	4
20	Men yoqimli kayfiyatdaman	1	2	3	4

« _____ » _____ 20 ____ yil

Familiya _____ Ism _____

Otasining ismi _____ yoshi _____ jinsi _____

Yo'riqnoma: keltirilgan har bir gapni diqqat bilan o'qing va odatda o'zingizni qanday his qilayotganingizdan kelib chiqib o'ng tarafda joylashgan sonlardan birini belgilang. Savollar ustida ko'p o'ylamang. Chunki, to'g'ri yoki noto'g'ri javoblar yo'q

No	Holatlar	Yo'q bunday emas	Shunday bo'lsa kerak	To'g'ri	Juda to'g'ri
1	Men qoniqish his qilayapman	1	2	3	4
2	Men tez charchayman	1	2	3	4
3	Men darrov yig'lashim mumkin	1	2	3	4
4	Men boshqalar kabi baxtli bo'lishni istagan bo'lar edim	1	2	3	4
5	Ko'pincha qarorlarni tezroq qabul qila olmasligim sababli yutqazib turaman	1	2	3	4
6	Odatda o'zimni tetik his qilaman	1	2	3	4
7	Men xotirjam va sovuqqonman, xayolim joyida	1	2	3	4
8	Qiyinchiliklarni kutish meni juda xatarga soladi	1	2	3	4
9	Bo'lar-bo'lmasga qattiq tashvishlanaman	1	2	3	4
10	Men to'la baxtliman	1	2	3	4
11	Men hamma narsani yuragimga yaqin olaman	1	2	3	4
12	Menda o'zimga ishonch yetishmaydi	1	2	3	4
13	Odatda o'zimni bexavotir his qilaman	1	2	3	4
14	Men og'ir vaziyatlar va qiyinchiliklardan qochishga harakat qilaman	1	2	3	4
15	Yuragim g'ashlanadi, ko'nglim bezovta	1	2	3	4
16	Men mamnun bo'lib yuraman	1	2	3	4
17	Har xil arzimas gaplar meni chalg'itadi va hayajonga soladi.	1	2	3	4
18	Nimadandir hafsalam pir bo'lsa shunchalik tashvishlanamanki, uzoq vaqt unutilmayman.	1	2	3	4
19	Men vazmin odamman	1	2	3	4
20	O'z ishlarim va tashvishlarimni o'ylaganimda kuchli bezovtalanaman	1	2	3	4

Bezovtalanish darajasini aniqlash metodikasi
(Teylor. T.A.Nemchinov)

Savolnoma 50 ta tasdiqdan iborat. Foydalanish qulay bo'lishi uchun har bir tasdiq sinaluvchilarga alohida kartochka tavsiya qiladi. Testlashtirish 15-30 minut davom etishi mumkin.

Test materiallari

Ko'rsatma: Berilgan savollar Sizning xulqingizga mos kelsa "ha", mos kelmasa "yo'q" deb javob bering.

1. Men odatda mutlaqo xotirjamman va meni o'z holatimdan chiqarish ancha qiyin.

2. Mening asabimni buzilganligi boshqa kishilarnikiga nisbatan ham kam emas.

3. Menda ba'zan ich qotishi bo'ladi

4. Ba'zan boshim og'rib turadi

5. Men kamdan kam charchayman

6. Men doimo o'zimni baxtli his qilaman

7. Men o'zimga ishonaman

8. Men hech qachon qizarmaganman

9. O'z do'stlarim bilan solishtirganda men o'zimni ancha harakatchan hisoblayman

10. Men boshqalardek ko'p qizarmayman

11. Menda kamdan kam yurak xuruji bo'lib turadi

12. Odatda mening qo'lim yetarlicha darajada iliq

13. Men boshqalarga qaraganda uyatchan emasman

14. Menda o'zimga ishonch hissi yetishmaydi

15. Vaqti kelib hech narsaga yaroqsizdek bo'lib qoladigandek his qilaman

16. Men o'zimni bir joyga qo'ya olmaydigan darajada bezovtalanish bo'ladi

17. Mening oshqozonim ancha bezovta qiladi

18. Menda oldimda turgan qiyinchiliklarni siqib chiqarish ruhi yetishmaydi

19. Men boshqalardek o'zimni baxtli bo'lishimni xohlayman

20. Menga oldimda shunday bartaraf etish mumkin bo'lmaydigan qiyinchilik turgandek tuyuladi

21. Men ko'pincha qo'rqinchi tushlar ko'raman

22. Men biror narsa qilmoqchi bo'lsam qo'lim titrayotgandek bo'ladi

- 23.Menda haddan ortiq behalovatliman
- 24.Meni imkonli bo'lgan omadsizliklar bezovta qiladi
- 25.Men hech narsa tahdid solmasligini bilsam ham kuchli qo'rquvni his qilaman
- 26.Meni ishga yoki topshiriqlar ustida diqqatimni to'plashim qiyin
- 27.Men kuchli zo'rikish bilan ishlayman
- 28.Men tez hovliqib qolaman
- 29.Deyarli har doim biror kishi yoki biror narsadan bezovtalanishni his qilaman
- 30.Men hamma narsaga jiddiy qarashga moyilman
- 31.Men tez-tez yig'lab turaman
- 32.Men ko'pincha og'iz qurish va chankashdan qiynalaman
- 33.Meni oyida bir marotaba yoki tez-tez oshqozonim bezovta qiladi
- 34.Men tez qizarib ketishimdan qo'rqaman
- 35.Meni biror narsaga e'tibor qaratishim qiyin
- 36.Mening moddiy jihatdan qiynalganligim haqida o'ylayman
- 37.Ko'pincha men boshqalar gapirishga jur'at qilmagan narsalar haqida o'ylayman
- 38.Menda bezovtalanish uyqusizlikka olib keladigan hollar bo'ladi
- 39.Vaqtı-vaqtı bilan sarosimaga tushishim, meni junbushga keltiruvchi ko'p terlashimga sabab bo'ladi
- 40.Hattoki sovuq kunlari ham men osongina isiyman
41. Shunday asabiylashish bo'ladiki, men uxlay olmay qiynalaman
- 42.Men tez asabiylashadigan odamman
- 43.Vaqtı-vaqtı bilan o'zinni foydasizdek his qilaman
- 44.Shunday vaqtlar bo'ladiki jonim chiqib ketadigandek bo'ladi
- 45.Meni biror narsa bezovta qilsa ko'pincha o'zimni tutib turishga harakat qilaman
- 46.Boshqa odamlarga qaraganda o'zimni sezgir his qilaman
- 47.Men doimo ochlikni his qilaman
- 48.Men ba'zan hech narsadan hech narsasiz asabiylashaman
- 49.Men uchun hayot g'ayritabiiy qiyindek tuyuladi
- 50.Kutish doimo mening asabimni buzadi

Tadqiqot natijalarini baxolash uchun sinaluvchilardagi bezovtalanish haqidagi ma'lumotlar quyidagicha hisoblanadi:

“ha”- 14,15, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23, 24, 25, 26, 27, 28, 29, 30, 31, 32, 33, 34, 35, 36, 37, 38, 39, 40, 41, 42, 43, 44, 45, 46, 47, 48, 49, 50

“Yo‘q” - 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14 savollar javoblari mos kelsa 1 balldan beriladi.

Umumiy ball: 40-50 ballar bo‘lsa juda yuqori bezovtalanish;
25-39 ballar yuqori bezovtalanish;

15-24 ballar o‘rtacha bezovtalanish;

5-14 ballar, o‘rtachadan pastdarajadagi bezovtalanish;

0-4 ballar bezovtalanishning quyi darajasini bildiradi.

Depressiv holatlarni differensial diagnostika qilish metodikasi (V.Zunga)

Javob varaqasi

«_____» _____ 20__ yil

Familiya _____ Ism _____

Otasining ismi _____ yoshi _____ jinsi _____

Eslatma: Keltirilgan har bir gapni diqqat bilan o‘qing va so‘ngi paytida o‘zingizni qanday his qilayotganingizdan kelib chiqib o‘ng tomonda joylashgan sonlardan birini belgilang. Savollar ustida ko‘p o‘ylamang, sababi to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javoblar yo‘q.

№	Tasdiqlar	Hech qachon yoki kamdan- kam	Ba‘zida	Tez-tez	Doi mo
1	Men tushkun, qayg‘u holatidaman	1	2	3	4
2	Ertalab o‘zimni har qachongidan ham yaxshi sezaman	1	2	3	4
3	Menda yig‘lash yoki ko‘z yoshga moyillik davrlari bo‘ladi	1	2	3	4
4	Tungi uyqu yomon	1	2	3	4
5	Mening ishtaham odatdagidan yomon emas	1	2	3	4

6	Menga boshqa mantukor ko'inishga ega bo'lgan ayollar(erkak)ga qarash, ular bilan suhbatlashish va yonma-yon turish yoqadi	1	2	3	4
7	Vaznimni yo'qotayotganimni sezyapman	1	2	3	4
8	Meni ich qotishi bezovta qiladi	1	2	3	4
9	Yuragim odatdagidan tezroq uryapti	1	2	3	4
10	Men hech qanday sababsiz charchab qolayapman	1	2	3	4
11	Men har doimgidek tiniq fikrlayapman	1	2	3	4
12	O'zim biladigan ishni bajarish menga oson	1	2	3	4
13	Bezovtalik his qilaman va bir joyda o'tira olmayman	1	2	3	4
14	Mening kelajagimdan umidim bor	1	2	3	4
15	Odatdagidan ancha jizzakiman	1	2	3	4
16	Mening qaror qabul qilishim oson	1	2	3	4
17	Men zarur va kerakli ekanligimni his qilaman	1	2	3	4
18	Men yetarli darajada to'laqonli hayot kechiryapman	1	2	3	4
19	Men o'lsam boshqalarga yaxshi bo'lishini his qilaman	1	2	3	4
20	Meni doim xursand qilgan narsalar hamon sevintiradi	1	2	3	4

_____ (imzo)

V. Zunganing depressiv holatlarni differensial diagnostika qilish metodikasi kaliti

V.Zunga shkalasi 20 ta tasdiqdan iborat. Ularning har biriga 4 ta javob varianti to'g'ri keladi. Tahlil va so'rovnomaga o'tkazishga 20-30 daqiqa vaqt yetarli bo'ladi. Quyidagi formula orqali depressiya darajasi aniqlanadi.

$$DD = \Sigma t./ + \Sigma t.s.$$

$\Sigma t./$ – belgilangan to'g'ri tasdiqlar sonining yig'indisi:

1,3,4,7,8,9,10,13,15,19;

$\Sigma t.s.$ – belgilangan teskari tasdiqlar soni

2,5,6,11,12,14,16,17,18,20:

	1	2	3	4
To'g'ri tasdiqlar	1	2	3	4
Teskari tasdiqlar	4	3	2	1

To'g'ri tasdiq javoblariga 1–4 gacha ball va teskari tasdiqlar javoblariga 4–1 gacha ballar berib boriladi. Natijada DD 20–80 ball oralig'ida bo'ladi.

DD - < 50 ball deprissiyadan holi holat;

DD - > 50 ball va < 59 ball vaziyatli va nevroitik genezisga ega yengil depressiya holati;

DD – 60 – 90 ballar oralig'ida bo'lsa – sinaluvchida subdepressiv va niqoblangan depressiya holati, kayfiyatning sezilarli pasayishi;

DD – 70 va undan yuqori bo'lsa, haqiqiy depressiv holat.

Depressiya darajasini aniqlash metodikasi (V.A.Jmurov)

Ko'rsatma: Har bir guruh savolini o'qib chiqing, o'zingizga mos variantni tanlang.

1. 0. Mening kayfiyatim odatdagidan unchalik tushkin emas.

1. Ehtimol odatdagidan tushkinroq.

2. Ha, u odatdagidan tushkinroq.

3. Kayfiyatim odatdagidan ko'ra tushkin.

2. 0. Men g'amgin kayfiyada emasligimni his qilyapman.

1. Ba'zan menda bunday kayfiyat bo'ladi.

2. Ko'pincha menda bunday kayfiyat bo'ladi.

3. Bunday kayfiyatim har doim bo'ladi.

3.

0. Men o'zimni bir narsasiz qolgadek his qilaman.

1. Menda ba'zan bunday hissiyot bo'ladi.

2. Menda ko'pincha bunday hissiyot bo'ladi.

3. Men o'zimni har doim shunday his qilaman.

4.

0. Hayotim berk ko'chaga kirib qolgandek his qilaman.

1. Menda ba'zan bunday hissiyot bo'ladi.

2. Menda ko'pincha bunday hissiyot bo'ladi.

3. Men o'zimni har doim shunday his qilaman.

5.

0. Men o'zimni qarib qolgandek his qilaman.

1. Menda ba'zan shunday tuyg'u bo'ladi.

2. Menda ko'pincha shunday tuyg'u bo'ladi.

3. Men o'zimni har doim shunday his qilaman.

6.

0. O'zimga qalb og'rig'ini his qilaman.

1. Menda ba'zan bunday holat bo'ladi.

2. Menda ko'pincha bunday holat bo'ladi.

3. Men har doim o'zimni shunday his qilaman.

7.

0. Odatdagidek kelajagim uchun xotirjamman.

1. Ehtimol, kelajagim meni odatdagidan biroz ko'proq xavotirga solar.

2. Odatdagidan ko'p.

3. Mening kelajagim odatdagidan biroz ko'proq havotirga soladi.

8.

0. O'z o'tmishimda yomonlikni odatdagidan ko'ra ko'p ko'rmayman.

1. Odatdagidan biroz ko'proq.

2. Odatdagidan ko'p.

3. O'z o'tmishimda yomonlikni odatdagidan ko'ra ko'p ko'raman.

9.

0. Yaxshilikka umid odatdagidan oz emas.

1. Bunday umid odatdagidan biroz kamroq.

2. Odatdagidan ko'p.

3. Odatdagidan juda kam.

10.

0. Odatdagidan ko'ra qo'rqqoq emasman.

1. Odatdagidan biroz qo'rqqoqman.

2. Odatdagidan nisbatan juda qo'rqqoqman.

3. Odatdagidan ko'proq qo'rqqoqman.

11.

0. Yaxshilikdan odatdagidan xursand bo'laman.

1. Odatdagidan biroz kamroq xursand bo'lishimni sezaman.

2. Odatdagidan kamroq xursand bo'lishimni sezaman.

3. Odatdagidan juda kamroq xursand bo'lishimni sezaman.

12.

0. Hayotim ma'nosiz ekanligini his qilaman.

1. Menda ba'zan shunday hissiyot bo'ldi.

2. Ko'pincha shunday bo'ladi.

3. Men har doim o'zimni shunday his qilaman.

13.

0. Odatgidan ko'p xafa bo'laman.

1. Ehtimol biroz ko'proq xafa bo'laman.
2. Odatdagidan ko'ra ko'proq xafa bo'laman.
3. Odatdagidan ko'ra juda xafa bo'laman.

14.

0. Yaxshilikdan odatdagidek huzurlanaman.

1. Odatdagidan ko'ra biroz kamroq.
2. Odatdagidan kamroq.
3. Endi yaxshilikdan umuman huzurlanmayman.

15.

0. O'zimni sababsiz bir narsada ayibdor his qilaman.

1. Ba'zan o'zimni shunday his qilaman.
2. Ko'pincha o'zimni shunday his qilaman.
3. Men o'zimni har doim bir narsada ayibdordek his qilaman.

16.

0. Menda bir narsa o'xshamay qolsa o'zimni ayibdor deb sezmayman.

1. O'zimni odatdagidan ko'proq aybdor deb sezaman.
2. Sezilarli darjada o'zimni ayibdor deb sezaman.
3. O'zimni odatdagidan juda ayibdor sezaman.

17.

0. Odatda o'zimdan nafratlanmayman.

1. Ba'zan o'zimdan nafratlanaman.
2. Ko'pincha shunday bo'ladi.
3. Men har doim o'zimdan nafratlanishimni sezaman.

18.

0. O'zimni gunohkor deb his qilaman.

1. Endi menda ba'zan bunday tuyg'u bor.
2. Endi ko'pincha shunday.
3. Bu hissiyot endi meni tark etmayпти.

19.

0. O'zgalar qilmishi uchun o'zimni odatdagidan ko'p ayiblayman.

1. Ular uchun o'zimni odatdagidan bir oz kamroq aybdor his qilaman.

2. Odatda ko'proq ayibdor deb his qilaman.

3. Juda ayibdor deb his qilaman.

20.

0. Hamma narsa ma'nosiz degan tuyg'u menda bo'lmaydi.

1. Ba'zan shunday tuyg'u bo'ladi.
2. Ko'pincha shunday tuyg'u bo'ladi.
3. Endi bu holat meni tark etmayпти.

21.

0. Jazoga loyiqman degan hissiyot menda yo'q.

1. Endi ba'zan bo'lmayпти.
2. Ko'pincha bo'lmayпти.
3. Bu hissiyot meni tark etmayпти.

22.

0. O'zimga yaxshilikni avvalgidan kam ko'rman.

1. O'zimga yaxshilikni avvalgidan ko'ra biroz kam ko'raman.
2. Ko'proq ko'ryapman.
3. Juda kam ko'ryapman.

23.

0. Boshqalarga qaraganda o'zimga yomonlikni ko'p ko'ryapman deb o'ylamayman.

1. Menda yomonlik ko'proq deb ba'zan o'ylayman.
2. Men ko'pincha shunday deb o'ylayman.
3. Men doim o'zimga yomonlik ko'p deb o'ylayman.

24.

0. O'lish istagi menda bo'lmaydi.

1. Bu xohish ba'zan bo'ladi.
2. Endi bu xohish ba'zan bo'ladi.
3. Endi bu doimiy xohish bo'lib qoladi.

25.

0. Men yig'lamayman.

1. Men ba'zan yig'layman.
2. Men ko'pincha yig'layman.
3. Yig'lashni xohlaymanu, ko'z yoshi yo'q.

26.

0. O'zimni jahldor deb his qilmayman.

1. Odatdagidek biroz ko'proq jahldor deb his qilman.
2. Odatdagidek ko'proq.
3. Odatdagidan juda ko'p.

27.

0. O'z hissiyotlarimni sezmaydigan holat bo'lmaydi.

1. Ba'zan menda shunday holat bo'ladi.

2. Ko'pincha o'z hissiyotlarimni sezmayman.

3. Odatdagidan juda ko'p bo'ladi.

28.

0. Aqliy faoliyatim o'zgarmadi.

1. Fikrlarimda qandaydir aniqsizlik sezmayapman.

2. Endi miyanda fikrlar kamligini sezmayapman.

3. Endi hech narsa haqida o'ylamayapman (boshim bo'm-bo'sh).

29.

0. Boshqa insonlarga nisbatan qiziqishim yo'qolmadi.

1. Boshqa insonlarga nisbatan qiziqishim biroz so'ndi.

2. Ko'proq so'ndi.

3. Judayam so'ndi.

30.

0. Qaror qabul qilishim o'zgarmadi.

1. Odatdagidan biroz qiyinroq.

2. Qaror qabul qilishim biroz qiyinroq.

3. O'zim qaror qabul qilolmayman.

31.

0. Men odatdagidek jozibaliman.

1. Ehtimol, odatdagidan biroz latofatliman.

2. Odatdagidan ko'ra latofatliman.

3. Ko'rinishim juda xunuk deb bilaman.

32.

0. Odatdagiday ishlay olaman.

1. Odatdagidan ko'ra ishlash biroz qiyinroq.

2. Odatdagidan ishlash biroz qiyin.

3. Endi men umuman ishlay olmayapman, (hech narsa qo'limdan kelmaydi).

33.

0. Odatdagidan ko'ra yomon uxlamayman.

1. Odatdagidan biroz yomon uxlayman.

2. Yomon uxlayapman.

3. Endi deyarli uxlamayapman.

34.

0. Odatdagidan ko'proq charchayapman.

1. Odatdagidan bir oz charchayapman.

2. Ko'p charchayapman.

3. Bir ish qilishga kuchim yo'q.

35.

0. Ishtaham odatdagidek

1. Ishtaham biroz yomonroq.

2. Ishtaham yomon.

3. Ishtaham yo'q.

36.

0. Vaznim o'zgarmagan.

1. So'nggi vaqtda biroz ozganman.

2. So'nggi vaqtda sezilarli darajada ozganman.

3. Juda ozib ketganman.

37.

0. Odatdagidek sog'lig'imga e'tiborliman.

1. Sog'lig'imga odatdagidan biroz e'tiborliman.

2. Sog'lig'imga e'tiborim kam.

3. Sog'lig'imga umuman e'tiborsizman.

38.

0. Jinsiy munosabat bilan odatdagidek qiziqaman.

1. Biroz kam qiziqaman.

2. Kam qiziqaman.

3. Bunga umuman qiziqishim yo'qolgan.

39.

0. "Men"im o'zgarganini his qilmayapman.

1. "Men"im biroz o'zgarganini his qilaman.

2. Ko'p o'zgargan.

3. "Men"im shunchaki o'zgarganki, o'zimni tanimayapman.

40.

0. Og'riqni odatdagidek sezaman.

1. Og'riqni odatdagidan ko'proq sezaman.

2. Kamroq sezaman.

3. Endi og'riqni deyarli sezmayapman.

41.

0. Ba'zan o'zgarishlar (og'iz qurishi, yurak urishi, bo'g'ilish) odatdagidan ko'p emas.

1. Bu o'zgarishlar odatdagidan ko'proq bo'lyapti.

2. Odatdagidan sezilarli ravishda ko'p.

3. Juda ko'p bo'lyapti.

42.

0. Ertalab kayfiyatim kechqurunga qaraganda yomon emas.

1. Ertalab kechqurunga qaraganda biroz yomon.
2. Ertalab sezilarli ravishda yomon.
3. Ertalab kayfiyatim kechqurunga qaraganda juda yomon.

43.

0. Bahor (kuz)da kayfiyatim tushmaydi.

1. Menda bu bir marta bo'lgan.
2. Ikki yoki uch marta bo'lgan.
3. Ko'p marta bo'lgan.

44.

0. Kayfiyatim yomon bo'ladi, ammo bu ko'pga cho'zilmaydi.

1. Tushkin kayfiyat bir haftadan bir oygacha bo'ladi.
2. Oylab bo'lishi mumkin.
3. Bu bir yilgach hatto undan ham ko'proq cho'zilishi mumkin.

Ma'lumotlarni hisoblash va interpretatsiyalash.

Belgilangan raqamlar soni aniqlanib, hisoblanadi.

Ular ball deb hisoblanadi.

1-9 ball - depressiya yo'q yoki ahamiyatga ega emas.

10-24 ball - minimal (past) depressiya holati.

25-44 ball - yengil depressiya holati.

45-67 ball - o'rta darajadagi depressiya holati.

68-87 ball - aniq ifodalangan depressiya holati.

88 ball va undan yuqori ball - chuqur depressiya holati.

Ziddiyatli vaziyatlarni o'rganish usuli. (K.N.Tomas)

Sinovchiga 30 juftlikdan iborat savolnoma taqdim etiladi va har bir savolnomadagi juftlikdan faqat bittasini, ya'ni o'z xohishlariga mos keladiganini tanlash va belgilash tavsiya qilinadi. Undan so'ngra har bir tanlangan juftlikdagi savol ("a" yoki "b") metodika kaliti asosida baholanadi.

Mazkur metodika yordamida shaxs ichki motivatsiyasi va shaxslararo munosabatdagi ziddiyatlarni bartaraf etish va ziddiyatli holatlarni boshqarish individ uchun xarakterli holatlarni belgilab olinadi. Yana shuni aytish joizki, ziddiyatlar tipologiyasiga asoslanib K.Tomas bu jarayon uchun, yetakchi bo'lgan ikki hol xulq-atvor yo'nalishini belgilaydi. Ya'ni, birinchisi, kooperatsiya konfliktga jalb etilgan shaxsning o'zgalarga qiziqishga o'z diqqatini qaratganligi

bo'lsa, ikkinchisi ziddiyatga kirishgan o'z shaxsiy qiziqishlarini himoya qilish uchun o'ta qat'iylikni namoyon etishini o'z ichiga oladi.

Binobarin, mazkur ikki yo'nalish yoki mezon asosida K.Tomas ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan quyidagi individual uslublarni tavsiya etadi.

A) Bahs-munozara (musobaqalashuv) - o'zgalarni yengish hisobiga qiziqishlarini qondirishga erishish uchun intilish.

B) Hamkorlik - vaziyat ishtirokchilari muqobillikka keladilar, bu muqobillik ikkala tomon manfaatlarini qondirishga xizmat qiladi.

C) Kelishuv (kompromiss) – o'zaro bir-biriga yon berish yo'li orqali ziddiyatli vaziyat ishtirokchilarining bir murosaga kelishi.

D) O'zini chetga olish – o'z maqsadlari va o'zgalar maqsadlarini birdek amalga oshirish uchun yo'naltirilgan harakatda faol ishtirok etmaslikka moyillik.

E) Moslashish – bahs-munozaraga kirishmasdan o'z shaxsiy qiziqishi va manfaatlarini o'zgalar faoliyati uchun qurbon qilishga tayyorlik.

Mazkur usulni qo'llash orqali respondentlarning ziddiyatli vaziyatga nisbatan faolligini namoyon etuvchi xulq-atvor motivatsiyasi ko'rinishlariga baho berishdir. Ayni paytda shu yo'l bilan ham har bir o'smir uchun xarakterli bo'lgan imkoniyatlari haqida tegishli tasavvurga ega bo'lish mumkin.

K.Tomas testi savolnomasi

1. a) Gohida men boshqalarga bahsli savollarni yechish javobgarligini o'z zimmalariga olishga inkon beraman.

b) Nima haqida kelisha olmasligimizni muhokama qilishdan oldin, nima haqida kelisha olishimizga diqqatni qarataman.

2. a) Men ziddiyatli yechimlarni topishga harakat qilaman.

b) Gohida men boshqalarning barcha qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ishlarni bajarishga harakat qilaman.

3. a) Asosan o'z aytganimga erishishga intilaman.

b) Gohida men boshqalarning qiziqishi uchun o'z qiziqishlarimdan kechaman.

4. a) Men ziddiyatli yechimlarni topishga harakat qilaman.

b) Men boshqalarning hissiyotlariga tegmaslikka harakat qilaman.

5. a) Men bahsli vaziyatlarda boshqalarning qo'llab-quvvatlashlarini xohlayman.

b) Men ortiqcha harakatlardan, zo'riqishlardan qutilish maqsadida barcha isbni bajarishga harakat qilaman.

6. a) Men xomush holatlardan qutulishga intilaman.
b) Men so'zimni o'tqazishga harakat qilaman.
7. a) Men bahsli savollarni to'liq hal qilish maqsadida keyinga qoldiraman.
b) Men nimagadir erishish uchun, nimadandir voz kechishni ma'qul topaman.
8. a) Men asosan o'zim xohlaganimdek bo'lishga intilaman.
b) Men birinchi bo'lib qiziqarli va bahsli bo'lgan savollarni aniqlashga harakat qilaman.
9. a) Men o'ylaymanki doim ham ayrim bir kelishmovchiliklar uchun hayajonlanish kerak emas.
b) Men o'zim aytganim bo'lishi uchun qattiq tirishaman.
10. a) Men xohishlarimga erishish uchun qattiq intilaman.
b) Men nizoli qarorlarni topishga harakat qilaman.
11. a) Birinchi bo'lib, bahsli va qiziqarli savollarga intilaman va aniqlik kiritaman.
b) Men munosabatlarimizni saqlab qolish maqsadida boshqalarni tinchlantirishga harakat qilaman.
12. a) Bahsli vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi sharoitlardan qochishga intilaman.
b) Men boshqalarga ayrim tortishuvlarda o'z fikrlarida qolishga imkon beraman.
13. a) Men oraliq vaziyatni taklif qilaman.
b) Men o'zim xohlagandek bo'lishni talab qilaman.
14. a) Men boshqalarga o'zinning qarashlarim haqida xabar berib, ularning fikrlarini so'rab olaman.
b) Men o'z qarashlarimning mohiyati va ustunligini o'zgalarga ko'rsatishga intilaman.
15. a) Men boshqalarni tinchlantirishga va munosabatlarimizni saqlashga intilaman.
b) Men zo'riqishdan qochish maqsadida barcha imkoniyatlarni yaratishga harakat qilaman.
16. a) Men boshqalarning hissiyotlariga ta'sir etmaslikka harakat qilaman.
b) Men boshqalarni o'zinning vaziyatimdan ustunliklariga hosil qilishlariga harakat qilaman.
17. a) Asosan men o'z xohishlarimga erishishga qattiq intilaman.
b) Foydasiz zo'riqishlardan qochish uchun barcha ishlarni bajarishga intilaman.

18. a) Agarda bu boshqa birovni baxtli qilsa unga o'z fikrida qolishga imkon yaratgan bo'lardim.

b) Men boshqalarga imkoniyat beraman, agarda u menga ro'para kelsa.

19. a) Men birinchi navbatda bahsli va qiziqarli savollarga tegishli bo'lgan ishlarni aniqlashga intilardim.

b) Men bahsli savollarni batamom yechishni keyinchalik qoldirishga harakat qilaman.

20. a) Men tushunmovchiliklarni zudlik bilan bartaraf etishga intilaman.

b) Men ikkalamiz uchun qulay va noqulay jihatlarni topishga intilaman.

21. a) Shartnomaga kirishuvda boshqalarga nisbatan e'tiborli bo'lishga intilaman.

b) Men muammolarni to'ppadan-to'g'ri muhokama qilishga intilaman.

22. a) Men o'zimning va boshqa bir inson vaziyatining oralig'ida turuvchi vaziyatni topishga harakat qilaman.

b) Men o'z vaziyatimda qolaman.

23. a) Men har birimizning ehtiyojlarimizni qondirishga harakat qilaman.

b) Ayrim paytda boshqalarga bahsli savollarni hal qilishga intilaman.

24. a) Agarda birovning vaziyati o'zi uchun juda muhim tuyulsa, men unga qarshi borishga harakat qilaman.

b) Men boshqalarni ziddiyatli bo'lishga ishontirishga harakat qilaman.

25. a) Men boshqalarni haqligiga ishonch hosil qilishiga harakat qilaman.

b) Kelishuvlarga boshqalarning argumentlariga e'tiborli bo'lishga harakat qilaman.

26. a) Men asosan o'rta vaziyatni taklif qilaman.

b) Men deyarli hamma vaqt har bir kishining qiziqishlarini qondirishga harakat qilaman.

27. a) Asosan bahslardan qochishga harakat qilaman.

b) Agarda bu boshqani baxtli qilsa, men unga o'z so'zida turishida imkon berar edim.

28. a) Asosan men o'z maqsadimga erishishdan tab tortmayman.

b) Vaziyatni barqarorlashtirib men boshqalardan ko'mak izlayman.

29. a) Men o'rtta vaziyatni taklif qilaman.

b) O'ylaymanki doim ham kelishmovchiliklardan hayajonlanmaslik lozim.

30. a) Men boshqalarning hissiyotlarini ayashga harakat qilaman.

b) Men bahsda shunday vaziyatni egallaymanki, qachonki birgalikda muvaffaqiyatga erishaylik.

Metodika kaliti:

<i>No</i>	<i>Bahs-munozara</i>	<i>Hamkorlik</i>	<i>Kelishuv</i>	<i>O'zini chetga olish</i>	<i>Moslashuv</i>
1				A	B
2		B	A		
3	A				B
4			A		B
5		A		B	
6	B				A
7			B	A	
8	A	B			
9	B			A	
10	A		B		
11		A			B
12			B	A	
13	B		A		
14	B	A			
15				B	A
16	B				A
17	A			B	
18			B		A
19		A		B	
20		A	B		
21		B		A	
22	B		A		
23		A		B	
24			B		A
25	A				B
26		B	A		
27				A	B
28	A	B			
29			A	B	
30		B			A

Nazorat savollari:

1. Psixodiagnostika davomida deviant xulqli o'smirlarning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini tushuntiring.
2. Deviant xulqli yoshlarning hayotiy mezonlarini tahlil qiling.
3. Deviant xulqli o'smir xulq-atvor yo'nalishining tahlili.
4. Deviant xulqli o'smirlarning o'zaro muloqotidagi qarama-qarshiliklar va kelishmovchiliklar qaysilar?
5. *Janjalli xulqning tashxisini tushuntirib bering.*
6. *O'smirlarning deviant xulqqa moyilligi diagnostikasi qanday amalga oshiriladi?*

X BOB. SHAXS OG'ISHGAN AXLOQNING PREVENSIYASI VA INTERVENSIYASI

Tayanch tushunchalar: *Deviant xulqning psixosotsial profilaktikasi. Deviant xulq profilaktikasi va ijtimoiy nazorat tushunchalari. Oilaviy va maktabdagi ijtimoiy ish: tushuncha, xususiyatlari, metodlari. Deviant xulqli bolalar va o'smirlarga ijtimoiy yordam.*

10.1. Og'ishgan hulqning preventsiyasi va intervensiyasi bo'yicha umumiy tushuncha

Deviant xulqning oldini olish faoliyati umumiy va maxsus tadbirlardan biri, ular ijtimoiy faoliyati turli darajalarini qamrab oladi. Muvaffaqiyatli psixoprofilaktik ishlarning asosiy shartlari: uning ixcham yig'ilganligi, ketma-ketligi, uzviyligi, dolzarbligi, toifaga to'g'ri bo'linganligi. Umumjahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti quyidagi profilaktika ishlarini muhim deb belgilagan:

Birinci darajadagi profilaktika ishlari – noma'qul xossalarning ta'sirini yo'qotishga, shu xususiyatlarga nisbatan immunitet hosil qilishga qaratilgan chora-tadbirlardir.

Bu tadbirlar o'smirlar orasida keng yo'lga qo'yilishi mumkin.

Ruhiiy asab tizimi buzilishini ilk davrda aniqlab, uni tuzatishga "xavfli guruh"dagi o'smirlar bilan ishlashga, endi shakllanayotgan deviant fe'lga ega o'smirlarni qayta tarbiyalash ishlarini olib borishga qaratilgan. Uchinchi darajadagi ishlar – bu ruhiy asab tizimi buzilishidan kelib chiquvchi xulq-atvor illatlarini davolash bo'yicha olib boriladigan maxsus faoliyat deviant xulqli o'smirlarning o'ta og'ir fe'l-atvorni namoyon qiluvchi qilmishlarini oldini olishi mumkin. Ruhiiy profilaktika ishi 3 darajali oldini olish choralaridan iborat bo'lishi mumkin. Qanday uslubda amalga oshirilayotganiga qarab, ruhiy profilaktika ishi quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- o ijtimoiy psixologik va axloqiy treninglar;
- o namunaviy dasturlar;
- o psixologik maslahatxonalar;
- o ishonch telefonlari;
- o komplekslik jamlangan, umumlashgan;
- o manzillik, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi;
- o ommaviy-guruhlashishni ilgari surish;

- o ma'lumotlarning xolisligi;
- o salbiy xotimani iloji boricha chetlab o'tish;
- o qatnashuvchilarning shaxsiy manfaatlari va javobgarligi;
- o kelajakka intilish istiqboli, reja asosida harakatlanish.

10.2. Shaxs og'ishgan xulqiga ijtimoiy-psixologik ta'sir

Deviant xulqli o'smirlarga ko'rsatiladigan yordam ikki yo'nalishda bo'ladi. Psixologik jihatdan oldini olish, psixokorreksiya va oqlamoq. Psixodiagnostika - kerakli bo'lgan, ammo hayotiy zarurat hisoblanmagan faoliyatdir. O'smir yoshlar bilan ruhiy profilaktika ishini olib borishning turli shakllari bor. Ilmiy-ommabop adabiyotlarga asoslanib, ularni yettita shakllarga umumlashtirilgan holda amalda tatbiq etish mumkinki, aynan shu shakllar, nafaqat chet davlatlarda, balki qisman Vatanimiz O'zbekistonda ham qo'llanilib kelinmoqda.

Birinchi shakl – *ijtimoiy muhitni tashkil qilish*. Uning asosida atrof-muhitni deviant xulqli o'smirlarga bo'lgan ta'siri haqidagi tasavvurlari yotadi. Atrofdagi muhitga ta'sir qilib, shaxsni salbiy xulqini o'zgartirish mumkin. Bunda o'smirlarning deviant xulqini muhokama qiluvchi jamoatchilikning ta'siri ham ish berishi mumkin.

Faoliyat davomida oilaga, alohida shaxsga suyanish mumkin. Yuqoridagi shakl negizida sog'lom turmush tarzini, jismoniy tarbiyani, sport bilan shug'ullanishni targ'ib qilish bilan deviant xulqqa bog'lanib qolishning oldini olish ham mumkin. Ayniqsa, bola o'z bo'sh vaqtini o'tkazadigan joylarda profilaktika ishlarini olib borish kerak. Ko'chalarda lider-o'smirlar tayyorlash orqali yoshlar bilan ishlashni yo'lga qo'yish mumkin. Shu ishlar zahirida o'smirlarni nomaqbul hatti-harakatlaridan himoya qilish, ularni qo'llab turuvchi qayta tarbiyalovchi hududlarni yaratish yotadi. Lekin, bu ishlarining asosiy kamchiligi – bu ijtimoiy holat bilan deviant xulqning bog'liqligini yetarlicha o'rganilmaganligi hisoblanadi.

Umuman olganda birinchi shakl asosida faoliyat olib borish yaxshi natija beradi.

Ikkinchi shakl – *bo'yicha psixologik profilaktikani olib borish usuli* – *axborot yetkazish*. Bu ancha ommalashgan yo'nalish usuli bo'lib, unda ma'ruzalar, suhbat, maxsus adabiyotlar va telefilmlardan foydalaniladi. Bunday yondashuvning asosiy maqsadi - shaxsning bilish qobiliyatiga va qiziqishlariga ta'sir qilib, unda kerakli, to'g'ri xulosa chiqara olish qobiliyatini tarbiyalash. Buning uchun, masalan,

giyohvand moddalarning sog'li qqa va shaxsga qanchalik halokatli ta'sir qilishi haqidaga aniq faktlarga asoslangan statistik ma'lumotlarga o'xshash misollardan keng foydalanish zarur. Ko'pincha bunday ma'lumotlar qo'rqitish tusida bo'ladi. Shuningdek, ta'sir qilish davomida giyohvand moddalarning yomon oqibatlari sanab o'tiladi va deviant xulqli o'smirlarning fojiiyaviy taqdiri, shaxs sifatida tanazzulga yuz tutishi hollari tasvirlab beriladi. Bu shaklda profilaktika ishini olib borish axborot bilish jarayoniga ta'sir qilishi mumkin, ammo shaxs o'z xulqini tubdan o'zgartirmasligi ham kuzatiladi. O'z ta'siri bo'yicha bilish jarayoni deviant xulqning darajasini pasaytirmaydi. Aksincha, salbiy deviant holatlar bilan tanishuv, ba'zi o'smirlarni unga qiziqtirib qo'yadi. Chunonchi, ko'pincha ma'lumotlar o'z vaqtida emas, juda erta, yoki juda kech qolib beriladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, giyohvandlikning zararlari, halok etuvchi oqibati haqidagi suhbatlarni 14 yoshdan oldinroq olib borish kerak. Bu suhbatlarni tuzishda shunga e'tibor berish kerakki, suhbat davomida giyohvand modda to'liq tasvirlanib, uning beradigan kayfu-safosi haqida so'z yuritilmasin. Suhbat mazmuni deviant xulqning ayanchli oqibatlari va unga qarshi kurashish hayotiy pozitsiyaga ega bo'lish kabilarga olib kelish kerak. Bunday profilaktika shaklini rivojlantirish, ta'sirini oshirish uchun qo'rqitish ruhidagi ma'lumotlarni kamaytirib, qolgan ma'lumotlarni yoshga, jinsga, ijtimoiy iqtisodiy kelib chikishiga qarab ishlatishni taqazo qiladi.

Uchinchi shakli – *ijtimoiy zarur bo'lgan ko'nikmalarni faol o'rgatishni singdirish*. Bu shakl bo'yicha ishlashda guruhlarda trening o'tkazish vositasidan foydalaniladi. Hozirgi davrda treninglarning quyidagi formalari mavjud. Salbiy ijtimoiy ta'siriga qarshi bo'lgan rezistentlik treningi. Treningning maqsadi: deviant xulqning yo'nalishini yaxshi xususiyatlari tomon burish. Buning uchun o'smirda quyidagi ko'nikmalar shakllantiriladi: ba'zilarning salbiy ta'siriga qarshi o'z fikriga ega bo'lish, ba'zi ichuvchi kattalar ta'siriga tushmaslik, kimdir ta'sir, bosim o'tkazayotganida yo'q deyishni ham bilish. Assertivlik va affektiv-qimmatli bilim berish - bu deviant xulqqa emotsional holati ta'sirini olib beruvchi faoliyat. Ruhiy zo'riqishlar oqibatida kelib chiquvchi muammolarning oldini olish uchun o'smirlarning ruhiyatini o'rganishga, stress holatlarda o'zini munosib tuta olishga o'rgatishadi. Guruhda ishlash davomida qaror

qabul qilish o'zini-o'zi to'g'ri baholash, o'zini o'rganish va hayotiy qadriyatlarini qadriga yetish kabi ko'nikmalar shakllantiriladi. Hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishi treningi. Hayotiy ko'nikmalar deganda – shaxs uchun kerakli bo'lgan ijtimoiy bilish jarayoni tushuniladi.

Avvalambor, bular – muloqot qilish, do'stona aloqada bo'lish va muammolarni do'stona hal qilishlardir. Shuningdek, buning zamirida javobgarlikni his qilish, maqsad qo'yishi, o'zining qiziqishlari, pozitsiyasini himoya qila olishlari bor. Nafsilam-birini aytganda, asosiy kerakli ko'nikma, bu o'zini boshqara olish, o'ziga qat'iy ishonch, o'zini o'zgartira olish, atrofga ta'sir o'tkaza olishdir. Aynan shu shakl o'smirlar bilan ishlashda eng sermahsulidir.

To'rtinchi shakli – *deviant xulqqa muqobil xulq-atvorni shakllantirish*. Bu shaklda deviant o'smirlar bilan ishlash deviant xulqning o'rni bosuvchi xulqni topishi bilan bog'liq. Masalan, giyohvand moddalarga bog'liqlik o'rni o'z-o'ziga ishonch ruhiga o'zgartirish juda katta yutuq hisoblanadi. Chunki, ko'pgina giyohvandlar aynan psixotrop moddalarning kayfiyatni ko'tarish xususiyatiga qiziqadilar, kayfiyatni maqbul yo'llar bilan o'zgartirilishi profilaktika ishining asosidir. Muqobil shaklda kayfiyatni ko'tarish usullari:

- sayohatlar, tog'larga chiqish;
- alpinizm;
- ekstremal sport turlari;
- sevgi;
- kerakli muloqot;
- ijod;
- faoliyat;
- diniy marosimlar;
- xayriya ishlari.

Bu mashg'ulotlardan istagan vaqtida foydalanish mumkin. Oila quchog'ida olib borilayotgan profilaktika ishlardan quyidagilar asosiylaridir: muntazam qiziqishlarning erta boshlanishi, tarbiyalash, yaxshi ko'rish va yoqimtoy bo'lish qobiliyatini shakllantirish, mehnat qilish va bo'sh vaqtini unumli o'tkazishni bilish. Ota-onalar shuni bilishlari zarurki, shaxsni tarbiyalash bolaning yoshlik chog'idan sport, san'atga bo'lgan qiziqi-shlarini tarbiyalashdan boshlanadi. Agar o'smir yoshgacha bolada ijodiy qobiliyatlar tarbiyalanmasa, bunday shaxs yillar o'tgani sari yomonliklarga o'ch bo'ladi.

Beshinchi shakli – *sogʻlom turmush tarzining shakllantirilishi*. Bu oʻsmirning nechogʻliq oʻz sogʻligi, atrof-muhit bilan garmoniyasiga, oʻz organizmiga javobgarligi bilan belgilanadi. Insonning oʻz sogʻligiga ehtiyotkorona munosabati, kasal keltiruvchi omillardan chetlashib yura olishi, ayniqsa, shaxsning yaxshi xislatlaridan deb baholanadi. Sogʻlom turmush tarzi deganda yaxshi, vitaminli taomlarni yeyish, muntazam jismoniy faoliyat bilan shugʻullanish, mehnat va damning ketma-ketligiga rioya qilish, tabiat bilan garmoniyada yashash, ortiqcha dabdabavozliklarga yoʻl qoʻymasliklar tushuniladi. Bunday hayot tarzi ekologik tafakkurga va jamiyatning rivojlanish darajasiga ham bogʻliq.

Oltinchi shakli – *shaxsiy resurs (quvvat)larni safarbar qilish*. Arterapiya shaxsning ijobiy sifatlarini faollashtirish. masalan, sport bilan faol shugʻullanish, ijodiy faoliyat, guruhlar, fan klublarida boʻlish kabilar. Oʻz navbatida yuqoridagidek ishlar shaxsning sogʻlom va faol ijobiy, ijodiy hayotda ishlashiga zamin boʻlib xizmat qiladi.

Yettinchi shakli – *deviant xulqining salbiy oqibatlarini yoʻqqa chiqarish (minimizatsiya)*. Bu shakllardagi ishlar shakllanib boʻlgan salbiy feʼl-atvorga nisbatan qoʻllaniladi. Bu faoliyat yomon feʼl-atvorning oqibatlarini yoʻqotishga qaratilgan. Masalan, giyohvandlarga kerakli tibbiy yordamni koʻrsatish, uning ayanchli oqibatlarini aniqlashtirish kabilar. Deviant xulqli oʻsmirlar bilan olib boriladigan profilaktika va tuzatish ishlari ijtimoiy psixologik xususiyatlarga ega. Deviant xulq ustida olib boriladigan ishda dastlab yakka tartibdagi ishlarni olib borish maqsadga muvofiq, chunki, guruhda oʻsmirlar bir-biriga salbiy taʼsir qilishi mumkin. Shu paytning oʻzida oila bilan ham ishlash kerak. Oiladagi munosabatlarning ahvolini tahlil qilib boʻlgandan soʻng, individual ish bilan birga guruhda ham ish olib borish kerak. Tuzatish ishlari olib borilganda, oʻsmirning ijtimoiy qadriyatlarini, qarashlar va qobiliyatlarini hisobga olish kerakki, aynan shu mezonlar shaxsning dunyoqarashini shakllantiradi. Shaxsning boʻsh vaqtini iloji boricha foydali ishlar bilan band etib, uni ijobiy shakllanish vositalari: kitob oʻqish, oʻzini-oʻzi takomillashtirish, internetda muloqot, uy ishlari, musiqa, sport bilan tarbiyalash kerak. Shuni hisobga olish kerakki, deviant xulqli oʻsmirlarga nisbatan olib borilgan tarbiyaviy profilaktik ishlar faqatgina oʻsmirlarning oʻzlariga qaratilgan boʻlishi mumkin emas. Oʻsmirni toʻliq tuzatish uchun uning atrofidagi muhitni oʻzgartirish darkor. Deviant xulqli oʻsmirga

jamoatchilik tarafdin ta'sir qilinishi quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin: huquqiy choralar, tibbiy aralashuv, pedagogik ta'sir, ijtimoiy himoya va psixologik yordam kabilar. Deviant xulqli o'smiring og'ir fe'li va davomli illatlari sababidan tuzatish, qayta tarbiyalash ishlarini olib borishni yaxshi tashkil qilingan ijtimoiy-pedagogik va ruhiy faoliyat ketma-ketligi kabi qurish talab etiladi. Profilaktika ishlarning – samarasi quyidagi belgilar darajasi bilan baholanadi: salbiy xulqning kamayishi darajasini ko'rsatuvchi obyektiv belgilar (m: giyohvand modda qabul qilishning kamayishi, yo'qqa chiqishi), va salbiy xulqning kamayishi darajasini ko'rsatuvchi subyektiv o'zgarishlar (m: sog'lom turmush tarzida yashashni xohlash). Ijoiy o'zgarishlarning asosiy mezonidan biri – ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri qurishga bo'lgan ko'nikmaning shakllana boshlashidir.

10.3. Og'ishgan hulquing turli shakllarida ijtimoiy psixologik aralashuv strategiyalari

Psixologik korreksiya – bu keng ma'noda amaliy psixologiyaning shunday shakli va usuldagi faoliyatki, bu faoliyat insonni ruhiy, aqliy va shaxsiy rivojlantirishdagi zaifliklarni tuzatishlarga qaratilgan bo'ladi.

Psixologik korreksiyasining maxsus bo'lgan ma'nosi psixolog "nimani tuzatmoqchi" bo'lishiga bog'liqdir. Masalan: bilim olishga bo'lgan intilish korreksiyasi, deviant xulqining korreksiyasi. o'zaro muloqot kelishmovchiliklarning korreksiyasi. Psixokorreksiya, konsultativ psixologiya (maslahat berish) bilan uzviy bog'liq, u psixologiyaning mustaqil bo'limidir.

Aynan, yakka tartibdagi ruhiy maslahatlar turli hayotiy, shaxsiy va boshqa shu turdagi muammolari bor insonlarga yordam beradi. Maxsus tashkil etilgan muloqot-suhbat davomida psixolog yordamida shaxs o'zidagi bor kuchlarni safarbar qila olishi mumkin.

Aynan, shu qo'shimcha ruhiy kuch-quvvat va qobiliyat, insonning qiyin muammoli holatlardan chiqishga yordam beradi. Maslahat berish usullarini quyidagicha tuzish mumkin:

1. Hayotiy ko'nikmalar, treninglar;
2. Insonlarning o'zaro aloqalarining treningi;
3. Muammoni hal qilish va muhim qaror qabul qilish treningi;
4. Qobiliyatlarni yunaltirish va rivojlantirish;
5. O'zining rivojlantirishga, o'z ustida ishlashga yordam.

Bu usuldagi treninglardan guruh ichidagi va oilaviy psixologiyada, psixoterapiyada foydalaniladi, shu usullar vositasida muammoli vaziyatga shaxsning boshqalar bilan kelisha olmaslik xususiyatlarini to'g'rilash kiritiladi (psixokorreksiya). Psixokorreksiya va rivojlanish kamchiliklarni tuzatish va shaxsning shakllanishi jarayonida yuz bergan me'yordan chiqishlarni hal qilish: shaxsning sog'lom ruhiy rivojlantirishga sharoit yaratish. Korreksiyaning maqsad va vazifalari:

– ruhiy rivojlantirish jarayonini to'g'rilash, o'quvchilarning salbiy fikr, hatti-harakatlariga o'zgartirish kiritish;

– o'quvchilarning qiziqish, faolligini bilish jarayoniga bo'lgan intilishlarini rivojlantirish maqsadida ularning aqliy sustkashligini to'g'rilash;

– bolalar va o'smirlarning ijtimoiy me'yorlarga, qadriyatlarga, o'z deviant xulqi sabab, oqibatlariga, atrof-muhitga, maktab hayotiga moslasha olmaganliklarni to'g'rilanishi;

– o'smirlarga, ularning ota-onalari, o'qituvchilariga, tarbiyachilarga psixokorreksiyaning shaxsni rivojlantirish uchun qanchalik muhimligini tushuntirish.

Psixologik maslahatlar – o'smirlarga, ota-onalarga, vasiy-homiylarga, o'qituvchi va tarbiyachilarga ularning muammoli vaziyatlarni hal qilish uchun ko'rsatiladigan ruhiy yordam. Ichki ruhiy quvvatni jamlay olishni o'rgatish.

Maslahatlarning maqsad vazifalari:

– ota-onalarga bolalarning yoshiga va ijtimoiy ruhiy xususiyatlariga qarab savollariga javob berish ularning rivojlantirishdagi kamchiliklarni yengib o'tib, to'g'rilab o'zgartirish;

– o'smir o'g'il va qizlarga kattalar, tengdoshlari bilan kechadigan o'zaro muloqotlardagi qiyinchiliklari, shaxsiy, kasbiy muammolarni chetlab o'tishi haqida maslahat berish;

– o'smirlarning o'z “men”ini shakllantirib, o'ziga hurmat bilan qarashni, o'z ustida ishlashni, o'zidagi kamchiliklarni amalda tuzatish ko'nikmalarini shakllantirishni o'zgartirish.

Deviant xulqli o'smirlar va voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan yakka tartibdagi korreksiya ishlarini quyidagi uslublarda olib borish tavsiya etiladi:

1. “Psixoterapevtik oyna” vositasi – o'zini tashqaridan ko'rishga imkoniyat yaratib, shartli ravishda o'zini tushunishni rivojlantirish;

2. “Muqobil yo‘llar” vositasi – noto‘g‘ri axloq-odob me‘yorlarini namoyon qilgan o‘smirga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish;

3. “O‘rniga-o‘rin” vositasi – xarakterida, fe‘l-atvoridagi bo‘shanglik, iroda va kuchli ruhiy quvvat kabilar bilan o‘rniga-o‘rin almashtirish, to‘ldirish taklif kilinadi;

4. “Ijibiy ijtimoiy faoliyatni singdirish” vositasi – psixologning salbiy dunyoqarashni o‘zgartirib, ijibiy fikrlashga ta‘sir qilishi;

5. “Ma‘naviy immunitet hosil qilish” usuli – namunaviy, ideal axloq-me‘yorlariga ega bo‘lishni maktabdan, hayotdagi misollardan keltirish, ba‘zi insonlarning salbiy ta‘siriga qarshi immunitet hosil qilish;

6. “Ko‘rsatmalar, qoidalar” usuli – oilaviy psixoterapiya vositasida oila a‘zolarining qilishi kerak bo‘lgan ishlari qonun-qoidasini belgilaydi. Ko‘rsatmalar turlicha bo‘lishi mumkin: nimadir qilish, nimanidir qilmaslik. Bu qonun-qoidalar to‘g‘ri va qarama-qarshi ko‘rinishdagi qonun-qoidalar;

7. “Ishontira olish” vositasi – ta‘sir o‘tkazish sifatida harakatlanayotgan inson – psixolog yoki pedagogning boshqa ta‘sir etuvchi insonning xulqiga, o‘ziga bo‘lgan munosabatiga, boshqalarga bo‘lgan munosabatiga, muammoni yaxshilikcha hal qilishga xizmat qiluvchi axborot vositasi;

8. “Ijtimoiy me‘yorlarning to‘g‘rilanishi” vositasi – insonning shaxsiy shakllangan dunyoqarashlari, xususan, “o‘qishga, ishga”, “o‘ziga”, “boshqalarga” “kelishmovchiliklar”ga bo‘lgan qarashlarini to‘g‘rilash. Agar shu vosita yordamida faoliyat olib borilsa, unda muvaffaqiyatga erishish uchun kerakli dunyoqarashni shakllantirishga urinish kerakki, bunday dunyoqarash namunasi xulq-atvor qoidalarini madaniy, ijtimoiy majmuasining ideal shakli bo‘lib xizmat qilsin.

Yuqorida berilgan barcha to‘g‘rilash usullari deviant o‘spirinlarning shaxsiy xususiyatlari jumladan, “o‘ziga”, “boshqalarga”, “nizolarga” bo‘lgan munosabatlarini to‘g‘rilaydi. Muammolarni to‘g‘ri tuzatadi. Shu bilan birga bu usullarni qo‘llash jarayonida ruhiy maslahatlar va ruhiy treninglarga ahamiyat berish lozim. Shunday kompleksli (jamlangan) yondashilgandagina deviant xulqli o‘smirlarni to‘g‘rilash ishlari yaxshi natija bera oladi. Deviant xulqli o‘smirlar axloqi va shaxsiy xususiyatlarini to‘g‘rilash ishlarida ijibiy xislatlarni shakllantirish, rag‘batlantirishi muhimdir. Quyidagi ishlar tavsiya etiladi.

1. Ongli va ongsiz ravishda yomonlikka intilish bor ekan, deviant xulq namoyon bo'laveradi. Deviant xulqli o'smirlarning xulqini o'zgartirish murakkab, ular ijobiy o'zgartirishlarga turlicha qarshilik bildirishadi. Shuning uchun deviant xulqli o'smirni qayta tarbiyalash uchun ularda ijobiy tomonga o'zgartirishni xohlash tuyg'usini uyg'otish juda muhim.

2. Ijobiy o'zgarishlarni istash hissini uyg'otish, uni rivojlantirish uchun ruhiy maslahatlar, treninglar katta ahamiyatga ega. To'g'ridan-to'g'ri quyidagi savollar bilan o'smiringa murojaat qilish ham foydadan xoli emas: "Xulqingizning yomon xislatlari nimada?", "Yomon xulqingizdan o'zingiz ham aziyat chekasizmi?", "Kimga qanday zarar yetkazdingiz?", "O'z xulqingizdagi qusurlardan o'zingiz xalos bo'la olasizmi?", "Xulqingizni o'zgartirish kerakmi?".

Shuningdek, deviant xulqning ayanchli oqibatlarini haqida gapirish ham darkor. Deviant xulqli o'smirni o'z qilmishlarining yomon oqibatlarini haqida iqrorga bo'lishga undash ham profilaktik ishlarning bir qismidir. Agar bunga o'smir rozi bo'lmasa, deviant xulqning ayanchli oqibatlarini ta'sirini atrofdagi odamlar misolida tahlil qilish mumkin. Maslahat berayotgan psixolog o'z mijozini gunoh, uyat, alam, og'riq, dard, nafrat, g'azab, ojizlik, azoblanish tuyg'ularida ochiq iqrorga bo'lishga o'rgatadi.

3. O'smirni kelajakni deviant xulq bilan va usiz qarshi olish holatlarini tasvirlashga chaqirish yaxshi natija beradigan ruhiy vositadir. Masalan, psixolog mijozga uning kelajakdagi hayotini tasvirlashda spirtli ichimliklarni ayanchli oqibatlarini ko'rish va faraz qilishga chorlashi kerak. Psixolog yoki psixoterapevt nafaqat fikrlashga, balki o'z his-hayajonini ifoda qilib, olishga ham o'rgatadi. O'z kelajagini tasvirlash uchun kerakli iboralarni topa bilish foyda beradi. Agarda, o'smir o'z deviant xulqisiz kelajagini tasvirlaganda, ijobiy his-tuyg'uni namoyon qilsa, demak, shunday xulqqa erishish chora-tadbirlari dasturini tuzish maqsadiga muvofiq bo'ladi. O'zaro tushunishga erishilsa, kelishuv asosida psixoterapevtik muolajalarni olib borish o'smirda butun muolaja davrida maqsadga intilib turishni ta'minlaydi. Kelishuv og'zaki yoki yozma kontrakt usulida tuzilib, unda faoliyatning maqsadi, usuli, sharti, muddati, shuningdek o'zaro manfaatli nuqtalari belgilanadi. Taraflar barchasi kontrakt shartini bajarishga mas'ul. Kontrakt shartlari buzilsa, nima bo'lishni taraflar kelishib olgan bo'lishi kerak.

4. Mijozning muammosini ishlab chiqish asosiy ustuvor vazifadir.

Mijoz maslahat beruvchi yordamida quyidagi savollarga javob berishga harakat qilishi kerak. “Uning yomon xulq-atvorni namoyish qilishdan maqsadi nima?”, “Bundan qanday qoniqish hosil qiladi?”, “Deviant xulqdan ozod bo‘lib, u nimani yo‘qotadi?”. Bu savollarga javob berishga o‘smir qiynalishi mumkin. Agar o‘smir ochiq muloqotga, ichidagi his-tuyg‘ularni namoyish qilishga qarshilik qilsa, o‘zini o‘rganishning boshqa usullardan foydalanish mumkin. Masalan, bu “men va giyohvandlik”, “giyohvand moddalarsiz hayot” mavzudagi rasmlar bo‘lishi mumkin.

5. Agar shaxs qat’iy turib muammolarni inkor etib, yaxshi tomonga o‘zgarishni istamasa, faol bo‘lganlarga murojaat qilinadi. Uning oilasi va referent guruhi (unga ta’sir qiluvchi odamlar) bunda hamkor bo‘lishlari kerak. Ko‘pchilik bo‘lib, unga ta’sir qilish o‘z samarasini beradi. Buning uchun deviant xulqli o‘smirga qadrlil bo‘lgan insonlar yig‘iladi. Yig‘ilganlar suhbatga alohida tayyorgarlik ko‘rishadi. Bunda turli me’yordan chekinishlarni yaqqol namoyon qiluvchi hayotiy misollar keltiriladi. Ularning fojiiyaviy yakuni gapirib beriladi. O‘smir bilan ishlashdan avval unga ta’sir etuvchi guruh repetisiya o‘tkazib oladi. Bu jarayonni shunday tashkillashtirish lozimki, barcha deviant xulqli o‘smirlar uchun obro‘ga ega guruh vakillari ta’sir kuchiga ega bo‘lgan gaplarni ishlatib, o‘smirning o‘zini tanqid qilmagan holda, qayta tarbiyalasinlar. Keyinchalik o‘smirga tuzalish imkoniyatini beruvchi istalgan vositani tanlash imkoniyatini berish kerak.

6. Ba’zi hollarda, nechog‘liq og‘ir bo‘lsa ham o‘z xoliga qo‘yish usuli ham natija berishi mumkin. Usulning ma’nosi – o‘smirning xulqiga, xulq-atvor oqibatlariga o‘zini mas’ul va javobgar qilish.

Shuningdek, o‘smirga ta’sir qilishning barcha usullarini to‘xtatib, uni qo‘llashdan umuman yuz o‘girish. Shu daqiqalardan boshlab, inson o‘zini-o‘zi eplay olishi kerak, yo‘qsa, achinarli bo‘lsa ham oilasi undan voz kechishi ham mumkin.

Bu usuldagi ishlarni olib borishda atrofdagilar o‘smirga qattiqqo‘llik bilan qarashlari darkor. Uning gaplariga ishonchsizlik bildirib, yordam bermay qo‘yishlari kerak. Agar u oila quchog‘ida yashab qolsa, uning talablarini faqat oila tarbiyachilariga bo‘ysunsagina bajarish kerak. Masalan, u giyohvand moddalarini iste’mol qilishini davom ettirsa, uni ma’lum muddatga pul va boshqa

ehtiyojlarini qoniqtirishdan voz kechishlarini bildirishlari kerak. Ota-ona giyohvand o'smirlarga hatto jazo tariqasida ovqat berishdan, boshpana berishdan voz kechishi mumkin. Ba'zi hollarda o'smir maxsus yordamga rozi bo'ladi. Deviant xulqli o'smirlar bilan ishlashda ularni tuzatish, to'g'rilash davomida o'smir xulqini kelib chiqishi sabablarini bilish kerak.

Nazorat savollari:

1. Deviant xulq profilaktikasi va ijtimoiy nazorat tushunchalarini izohlang.

2. Oilaviy va maktabdagi ijtimoiy ish: tushuncha, xususiyatlari, metodlarini sanang.

3. Umumiy va maxsus profilaktika yo'llarini tushuntiring.

4. Ijtimoiy patologiyaning alohida ogohlantirilishi va profilaktikasi (jinoyatchilik, ichkilikbozlik, narkotizm, suistidal xulq va boshqalar) qanday olib boriladi?

5. Deviant xulqli o'smirlar axloqi va shaxsiy xususiyatlarini to'g'rilash ishlarida ijobiy xislatlarni shakllantirish, rag'batlantirishi yo'llari qaysilar?

XI BOB. SHAXS OG'ISHGAN XULQNING PSIXOLOGIK KORREKSIYASI

Tayanch tushunchalar: "Nasliy buzqlik", "Psixotiklar", "Organik", "Axloqsiz bola", shaxs og'ishgan xulqining psixologik korreksiyasi, ijobiy sabablarni rag'batlantirish. Hissiy holatlarni korreksiyalash usullari. O'z-o'zini boshqarish usullari. Kognitiv usul. Istalmagan axloqni so'ndirish usuli. Ijobiy axloqni shakllantirish usullari.

11.1. Ijobiy sabablarni rag'batlantirish

Shaxs shakllanishini tabiatdan anatomo-fiziologik shart-sharoitlariga ega bo'lgan bola ijtimoiylashishi jarayonida insoniyatning yutuqlarini o'zlashtirib olam bilan o'zaro ta'sirga kirishadi. Ushbu jarayonda shakllangan qobiliyat va vazifalar shaxsda shakllangan odamning sifatlarini takror ishlab chiqaradi.

Individ - (individium) – Inson birligining alohida namoyondasi; qurol, belgilardan foydalanuvchi va ular orqali shaxsiy fe'l-atvori va ruhiy jarayonlariga ega bo'luvchi, tabiiy (biologik) chegaradan tashqariga chiquvchi ijtimoiy mavjudot, ushbu tushuncha bilan individuallik tushunchasi chambarchas bog'liqdir, u hamda boshqa odamlardan ijtimoiy ahamiyati tomonidan farqlanadigan odamdur, individning shaxsi va o'ziga xos ruhiyati uning takrorlanmasligidadir.

Yosh inqirozi – keskin psixologik o'zgarishlar bilan xarakterlanadigan ontogenezni alohida nisbatan uzoq davom etmaydigan davrlaridir. Asabiy va jarohatli xarakterga ega tangliklardan farqli ravishda shaxs rivojlanishining me'yoriy ketma-ketligiga zarur bo'lgan me'yorlarga taalluqlidir.

Stress – turli xil ekstremal ta'sirlar – stressorlarga javoban yuzaga keluvchi keng doiradagi holatlarni belgiluvchi holat.

Frustratsiya – ma'lum maqsad yo'lidagi mavjud mavhum to'siqlarni paydo bo'lishiga nisbatan hosil bo'ladigan muvaffaqiyatsizlikni boshdan kechiruvchi ruhiy holat.

Shaxsiy korreksion psixologiyaning xususiyatlarini hisobga olib uchta alohida sohalarning har birida aniq vazifalarni joylashtirish mumkin. Kognitiv soha; (shaxsiy korreksion psixologiyada yetakchi, biografik tushuntirishi):

- 1) o'zining xulqi – atvori, munosabati, reksiyasi sababini anglash;
- 2) his-tuyg'u va xulq-atvor stereotiplarni anglash;

3) psixologik omillar va somatik buzilishlar orasidagi bog'liqlikni anglash;

4) mojarolar va ruhiy jarohatlovchi vaziyatlarni kelib chiqishida o'zining roli va javobgarligini his qilishi;

5) boshdan kechirishi sabablari va munosabat usullarini hamda o'zining munosabati shakllanishi sharoitlarini anglashi;

6) mijozni mutaxassis tomonidan emotsional qo'llab-quvvatlash;

7) mijoz tomonidan tuyg'ularni anglab va yuzaga chiqarish;

8) o'ziga nisbatan yanada samimiy munosabatni shakllantirish;

9) boshdan o'tkazish va emotsional munosabatlar usullarini o'zgartirish;

11.2. Hissiy holatlarni korrektsiyalash usullari. O'z-o'zini boshqarish usullari

Korreksion ishda ma'lum bir metodni oldindan tanlash qiyin, chunki ish faoliyatida psixologlar turli metodlardan foydalanadilar.

Hatto bir metod har xil mutaxassisda har xil natija beradi.

Psixokorreksion ishlarda mijozga psixologik ta'sir o'tkazish quyidagilarga qarab baholanadi:

a) ichki kechinmalarining subyektiv mohiyatining o'zgarganligi.

b) ta'sir etgandan so'ng mijozning ijobiy tomonga o'zgarishi.

Psixologik ta'sirning samarasini belgilashda quyidagi metodlarni ishlatish mumkin: ishontirish, verbal va noverbal ta'sir etish, paralingvistik ta'sir, rag'batlantirish, jazolash va hokazolar. Ular insonning somatik fiziologik va psixik funksiyalarini baholaydi. Psixokorreksion ta'sirning samaraliligi kriteriyasi har bir shaxsdagi salbiy o'zgarishlarni aynan uni o'ziga xos ekanligini hamda tanlangan psixokorreksion metodlar ta'siri shu o'zgarishlarga qaratilganligini hisobga olish bilan bog'liqdir. Korrektsion psixologiya, yuqorida aniqlaganimizda, mijozning qabul qilingan me'yorlarga mos kelmaydigan ruhiy rivojlanishining xususiyatlarini «to'g'rilashga», qaratilgan mutaxassisning faoliyatini aks ettiradi.

Bola psixik taraqqiyotini tuzatishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: bola shaxsiy va intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratish asosida psixik taraqqiyotdan chetlashishlarni tuzatishdan, shaxsiy va axloqiy taraqqiyotidan yoqimsiz salbiy yo'nalishlarni oldini olishdan iboratdir. Psixik taraqqiyotni tuzatish, «Korreksiya qilish» atamasi dastlab

deffektologiyada kasal bolalarga nisbatan ishlatilgan bo'lsa, amaliy yosh psixologiyaning rivojlanishi bilan «tuzatish» tushunchasi normal psixik taraqqiyot uchun ham qo'llanila boshlandi. D.B.Elkonin tuzatishning yo'nalganligini korreksiya xarakteriga bog'liq ravishda tuzatishning ikki usulini ajratishni taklif qiladi:

1. Taraqqiyotdan chetlashish belgilariga qaratilgan simptomatik tuzatish.

2. Taraqqiyotdan chetlashish sabablari va manbalariga qaratilgan tuzatish hisoblanadi.

Psixologik maslahat berish amaliyotida normal taraqqiyot korreksiyasi va nonormal taraqqiyot korreksiyasidan farqlanadi. Normal taraqqiyotda tuzatishning mazmuniga ko'ra quyidagi turlari ajratiladi, aqliy taraqqiyot korreksiyasi, shaxs taraqqiyoti korreksiyasi, salbiy holatlarning oldini olish korreksiyasidir. Psixolog ishida korreksion vazifalarni yechish maqsadida psixologik yordamni tashkil etishga bog'liq ravishda uning to'rini ko'rsatish mumkin: madaniy oqartuv ishlari, maslahat-tavsiyalar berish, individual va guruhiy korreksiya.

Madaniy oqartuv ishlari - ota-onalar, tarbiyachilar, o'qituvchilarga mo'ljallangan bo'ladi. Bunda bola taraqqiyoti asosiy qonuniyatlari, yosh psixologik xususiyatlari, har bir yoshning qiyinchiliklari, muammolari va ularni bartaraf etish bo'yicha umumiy tavsiyalar beriladi.

Maslahat va tavsiyalar berish ishi bola boshidan kechirgan qiyinchiliklar sabablarini aniqlash asosida olib boriladi. Bunda psixolog ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar hamda bolaning bajaradigan ishlarini tavsiyanomada beradi. Mehnatni ko'p talab etadigan psixologning tuzatish ishi - ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar va bolalar guruhi, yoki individual bir bola bilan hamkorlikda olib boriladi. Ishning ana shu turi ancha mehnat, vaqt, ko'p metod va metodikalarni qo'llashni talab etsa ham ancha natijali hisoblanadi.

Bolalar psixik taraqqiyotini tuzatish muammosi bo'yicha chet el psixologiyasiga murojaat qilishimiz quyidagilar bilan bog'liq:

1) Chet el psixologiyasida tuzatish ishlarining texnikasi, uni o'tkazish tartiblari, metodlari, juda yaxshi ishlangan bo'lib, amaliy psixologik vazifalariga moslashtirilganidir:

2) So'nggi vaqtlarda tuzatish metodlari va texnikalarini, ularning nazariy manbalari va asoslarini tahlil qilmasdan to'g'ridan - to'g'ri notanqidiy o'zlashtirish kuchaymoqda;

Chet el psixologiyasidagi bola psixik taraqqiyotini tuzatish muammosidagi barcha nuqtai nazarlarni 2 guruhga ajratamiz:

a) **psixodinamik nuqtai nazar** bo'yicha terapevtik kuch ongni, uning tuzilishini rivojlantirishga qaratiladi:

b) **xulqiy nuqtai nazar** bo'yicha individning tashqi muhitda aktivligini aniqlaydigan stimul-reaksiya bog'lanishining ko'rinishini o'zgartirishdan iborat.

Psixodinamik nuqtai nazar – ishlangan va obro'ygaga ega bo'lgan psixoanalitik yo'nalish bo'lib, Freyd va gummanistik psixologiya asoschisi K.Rodjers nazariyalarida aks etgan.

Psixodinamik yo'nalish XIX asrning 50-60-yillarida davolanishning ikkinchi asosiy usuli sifatida qo'llanilgan. Bu yo'nalishda o'yin, san'at bilan davolash yoki rasmlar bilan davolashdir. Bolalar yoshi uchun tuzatish ishlarining yaxshisi sinalgan usuli o'yin bilan davolash hisoblanadi.

Davolovchi bola bilan birga o'ynaydi va bolaning o'zi erkin o'ynashi mumkin va shu o'rinda uch asosiy tuzatish vazifalari bajariladi:

1. Bola o'zini ko'rsatishga imkoniyati kengayadi.
2. Hissiy barqarorlik va o'zini boshqarishda erishiladi.
3. Bola kattalar sistemasidagi munosabatlari korreksiya qilinadi.

O'yin bilan davolashning 2 usuli farqlanadi.

- 1) Individual,
- 2) Guruhiy.

Psixolog olim K.Rodjers qaysi usulda qanday vaqtda foydalanish mumkinligi haqida shunday deydi: «Bolaning ijtimoiy moslashishi haqida gap ketganda guruhiy davolash individual davolashga qaraganda foydaliroqdir» Hissiy qiyinchiligi haqidagi muammolarni yechishda esa, individual davolashdan foydalaniladi. O'yin bilan davolash quyidagi hollarda o'tkaziladi:

Ijtimoiy yetilmay qolishlik (infantilizm) kelisha olmaslik, odamovi, ya'ni odamga qo'shilmaslik, tez moslashuvchanlik, har kimning aytganini qilish, xulq-atvorning buzilishi va zararli odatlari mavjud bo'lganda. Agar individual o'yin bilan davolashni aqliy nosog'lomlikning og'ir formalarida o'tkazib bo'lsa, guruhiy o'yin

bilan davolash uchun qarshi ko'rsatkichlar doirasi kengayadi. Bunday qarshi ko'rsatkichlar quyidagilar: yaqqol ifodalangan bolalar qizg'anishi, tez jinsiy yetilishi, haddan tashqari tajovuzkorligi va boshqalar. Barcha yuqoridagi hollarda avval individual o'yin bilan davolab, keyin guruhiiy o'yin bilan davolash o'tkaziladi.

Xulqiy nuqtai nazar – hatti-harakatlarni davolashda kuzatishning maqsadi hatti-harakatning yangi usullarini o'rganish yoki subyektning o'rganib qolgan usullarini yo'qotish sifatida ifoda etiladi. Hatti-harakatli trening 4 qismni o'z ichiga oladi.

1. O'rganiladigan namunalarni namoyish qilish;
2. O'rganiladigan harakatli reaksiya qo'llanmasi bilan mijozlarga og'zaki va yozma belgilar yordamida tushuntirish;
3. Yangi reaksiyalarni mustahkamlash va egallash uchun zarur mashqlar;
4. Erishilgan natijalar haqida ma'lumot beruvchi teskari aloqa asosida nazorat qilish;

O'tgan asr o'rtalarida g'arb psixologi D.Mexanball o'zini boshqarishga yo'naltirgan korreksion dasturini ishlab chiqargan. Bu dastur salgina o'zgartirilib, ta'sirchan, juda harakatchan va tartibsiz o'quvchilarning xulq - atvorini tuzatishga foydalaniladi. Chet el psixologiyasida psixik taraqqiyotni tuzatish muammosiga xulosa qilib, quyidagilarni aytish mumkin: Korreksion amaliyotning nazariy asosi - bu psixik taraqqiyotni tushuntirishda ta'rifni inkor etish hisoblanadi.

Sobiq Sovet psixologiyasida tuzatish ishlarini olib borish uch asosiy prinsipda amalga oshiriladi.

1. Taraqqiyotning (normativligi) prinsipi.
2. «Yuqoridan-pastga» tuzatish prinsipi.
3. Psixik taraqqiyotning sistemaliligi prinsipi.

Taraqqiyotning «normativligi» prinsipi psixik taraqqiyotning asosiy qonuniyatlarini hisobga olishni, bola shaxsi rivojlanishi uchun taraqqiyot bosqichlari ketma-ketligini ta'minlaydi. Masalan: bog'cha yoshidagi bolalarga nisbatan bunday yuqori talabchanlikka misol sifatida ota-onalarning diqqatini bir joyga to'play olmaslik, qaysarlik, aytgan ishini bajarmaslik kabi bolalar ustidan qilgan shikoyatlarini keltirish mumkin.

Taraqqiyotning normativligi prinsipi bilan «Yuqoridan-pastga» tuzatish prinsipi uzviy bog'langan. Bu prinsipda bola psixik taraqqiyoti uchun ta'lim yetakchi roli hisoblanadi.

«Pastdan-yuqoriga» tuzatish tarafdorlari tuzatish ishlarining asosiy mazmuni sifatida boladan mavjud psixologik qobiliyatlarni mashq qildirishni ko'rsatadi. Bu yerda ta'lim taraqqiyotdan keyin keladi.

Ishontirish- mijozning ongiga uning shaxsiy tanqidiy mulohazasiga

(o'y- fikriga) murojaat qilgan holda ta'sir qilish usuli.

Ishontirish usuli asosini tanlab olish, ta'sir maqsadiga ko'ra fakt (haqiqat) va xulosalarni mantiqiy tartibga solish tashkil qiladi. Ishontirish rasional psixoterapiyaning asosini tashkil qiladi. V.M.Bexterev (1911) ishontirish va ko'ndirishni birlashtirishni, ayniqsa o'z- o'zini tanqid qilishi past rivojlangan mijozlarda, juda foydali deb hisoblangan. Ishontirishdan, mutaxassisni shaxsiy obro'si bilan bog'liq va umuman maslahatlashuv jarayoni natijasiga ta'sir qiluvchi, suggestiv elementni ajratib olish mumkin emas. Qayta (takror) ishontirish (persuaziya) avval shakllantirilgan jarayonni qayta tiklashdir. Psixologik yordam ko'rsatish paytida takror ishontirish mijoz muommosini mohiyati va uni yechish usullari haqidagi tasavvurini o'zgartiruvchi maqsadga yo'naltirilgan, ishontirishni shakillanish ketma-ketligi ko'zda tutiladi.

Ta'sir etish – mijozni ruhiy ta'sir doirasiga bevosita yoki bilvosita maqsadli ta'sir qilish jarayonidir. Ta'sir qiluvchi obyekt mantiqiy qayta ishlashi va uni tanqidiy baho bermay qabul qilish hamda ruhiy va somatik jarayonlar kechishiga ta'sir qilib maxsus ishlab chiqilgan ma'lumotlar yordamida amalga oshiriladi. Boshqa omillar esa (mimika, harakat, imo-ishora) odatda qo'shimcha hisoblanadi.

Rus amaliy psixologlari ko'proq «tarbiyasi qiyin» o'smirlar bilan ishlashda A.E.Lichko ishlab chikkan «Patoxarakterologik diagnostika savolnomadan (PDS) foydalanib, xarakterga urg'u berishning (patalogik xarakterning) quyidagi tiplarini ajratadilar.

Ular:

1. Gipertim tip;
2. Sikloid;
3. O'zgaruvchan tip;
4. Asabiy zaif tip;
5. Senzitiv tip;
6. Ruhiy zaiflik;
7. Shizoid tip;

8. Tutqanoqli tip;
9. Jazavali tip;
10. Bo'sh tip;
11. Moslashuvchan tip.

Gipertim o'smirlar. Bu tipga mansub o'smirlar to'polonchi, tez zerikadigan, haddan tashqari mustaqil, hatto botirlik, sho'xlik bilan ajralib turadilar. Ular notanish kishi oldida uyalmaydilar, tortinmaydilar. O'yinlarda tengdoshlariga buyruq berishni yoqtirishadi. Hamma ularning sho'xligidan arz qilishadi. Maktabda yaxshi qobiliyatlarga qaramasdan, tartibsizliklari, tez chalg'ishlari hisobiga yaxshi o'qimaydilar.

O'smirlik davrida asosiy xususiyat – har doim yaxshi ko'tarilgan kayfiyatda bo'ladilar. Bunday o'smirlar erta mustaqillik va erkinlik ko'rsatishadi, qat'iy tartib va rejimni yoqtirishmaydi. Qonun va qoidalarga yengiltaklik bilan qarashadi. Ular har doim ulfatlarga intilishadi, yolg'iz qolishni yoqtirishmaydi, tengdoshlari orasida rahbarlikka intilishadi. Tanishlarni tanlashda yaxshi-yomonni farq qilmaydi va osonlik bilan shubhali ulfatlar orasiga tushib qolishi mumkin. Sarguzashtlarni, xavf-xatarni, qaltis yurish-turishini yoqtiradi. Yaxshi yangi narsani his qilish xarakterlidir, yangi odamlar, joylar, predmetlar uni o'ziga tortadi. Bunday o'smirlar osonlik bilan ilhomlanib, boshlagan ishini oxiriga yetkazmaydi, to'xtovsiz ravishda «sevimli ishi»ni o'zgartirib turadi. Uzoq o'tirib ishlashni talab qiladigan, diqqat bilan ishlashni, mayda ishni eplay olmaydi. Va'dasini bajarishda pul masalalarida ham betartiblik bilan ajralib turmaydi, osonlik bilan qarzga botib qoladi. Oliftagarchilikni yaxshi ko'radi. Kelajakni shirin xayolda tasavvur qiladi. Muvaffaqiyatsizlik kuchli reaksiya ko'rsatishi mumkin. Lekin uzoq vaqtgacha yo'ldan chiqarishga qodir einas, jahldan tez tushadi. Jinsiy hissiyot erta uyg'onadi va kuchli bo'ladi. Shuning uchun erta jinsiy hayotga kirishishi mumkin.

Sikloid tip. Odatda ularga tegishli bo'lmagan kattalar ustidan xatarli hazillar va hamma yerda kinoya qilishi xos bo'ladi. Hayotiy stereotipni tubdan o'zgartirishda, kamroq qarshilik ko'rsatadi (masalan, maktabdan oliy o'quv yurtiga o'tishda). Bunday o'zgartirish subdepressiv fazani to'sishi mumkin. Bu bosqichdan nasixat, gina-qudrat, ayblashlarga tanlab javob qaytaradi. Bolalik davrida tengdoshlaridan farqlanmaydi. O'smirlik yoshi boshlanishi bilan

birinchi subdepressiv bosqich boshlanishi mumkin. Keyinchalik bu bosqichlar ko'tarilishi va bir xil kayfiyat bosqichlari bilan almashinishi mumkin. Bosqichlarning davomiyligi dastlab kunlar, 1-2 hafta, yosh o'tishi bilan ular ko'payishi yoki aksincha bartaraf bo'lishi mumkin. Subdepressiv bosqichdan lanjlik, kuchsizlanish, hamma narsa qo'ldan tushib ketishi kuzatiladi. Ilgari oddiy va osonlik bilan erishilgan narsa katta zo'riqishni talab qiladi. O'qish qiyin bo'lib qoladi. Atrofdagi kishilarni yoqtirmaydi, ulfatlardan qochadi, sarguzashtlar va xavf-xatarga qiziqmay qo'yadi. O'smirlar bu kunlari uydan chiqmaydigan bo'lib qoladi. Kichik muvaffaqiyatsizliklar va ko'ngilsizliklar ham ish qobiliyati pasayganligi tufayli bu davrda og'ir qayg'uriladi. Tanbeh va malomatlar qo'pollik va ta'sirlanish bilan javob qaytaradi, ruhan umidsizlikka tushadi, ko'proq zerikishdan arz qiladi. Agar bu kunlari ko'proq muvaffaqiyatsizlikka duch kelsa, shaxsiy irodasizligi, yetukmasligi, hech nimaga arzimastligi haqidagi fikrlarga osonlik bilan berilishi mumkin. Qattiq vahimaga tushishi, o'z-o'zini o'ldirishigacha olib kelishi mumkin. Tengdoshlari bilan guruhlar tashkil etish kuzatilib, subdepressiv fazaning ko'tarilish davrida so'na boshlaydi. «Sevimli ishi» o'zgaruvchan bo'ladi. Subdepressiv fazada ularni tashlab qo'yadi, ko'tarilish davrida unga qaytadi yoki yangisini topadi. Uydan qochish, taksikoman xulq-atvor xos emas. Ulfatlar orasida faqat ko'tarishlar davrida aroq ichadi.

O'zgaruvchi tip. Bolalikda tengdoshlaridan ajralmaydi o'smirlik davrida asosiy xususiyat bu tez o'zgaruvchan kayfiyat bo'lib, hatto arzimas, atrofdagi bo'lar-bo'lmas sababga ko'ra ham o'zgarishi mumkin. Kimningdir bexosdan aytgan so'zi, tasodifiy suhbatdoshning sovuq qarashi ham, jiddiy ko'ngilsizlik va muvaffaqiyatsizlik bo'lmasa ham, ruxan tushkunlikka tushishi mumkin. Aksincha, qiziqarli suhbat, bir daqiqalik maqto'v, kimdandir eshitgan xavasni keltiradigan, kelajak ham xushchaqchaqlik va quvnoqlikka olib kelishi mumkin. Ochiq va hayajonli suxbatlar davrida yo kulgini yoki ko'zida yoshni ko'rish mumkin. Bunday vaqtda hamma narsa kayfiyatga bog'liq bo'ladi: o'zini his qilish ham, kayfiyat ham, uyqusi ham, ish qobiliyati ham.

Ulfatlarining o'zgaruvchan vaziyatini yoqtiradi, ozodlikka intilishi o'rtamiyonadir. Agar noqulay oilaviy sharoit bo'lsa, bu intilishi kuchayadi. Tengdoshlari bilan guruhlariga ajralish kayfiyatga bog'liq bo'ladi. Kayfiyat yaxshi bo'lganda ulfatlarni izlaydi, kayfiyat yomon bo'lganda, ulardan qochadi. Tengdoshlari orasida yo'lboshchi roliga

da'vo qilmaydi Sevimli ishi bekordan-bekorga uzoq gap sotish, ba'zan badiiy xavaskorlik yoki ayrim uy hayvonlari bo'lishi mumkin. Jinsiy faollik odatda tegishish va boshqa jinsga mulozamat qilishi bilan chegaralanadi.

Asabi zaiflik. Bolalikdan quyidagi belgilar ko'zga tashlanadi: yomon uyqu, ishtaxasi yo'qlik, injiklik, qo'rqoqlik, ba'zan kechasi qo'rqish, duduqlanish va boshqalar. O'smirlik davrida tez charchash, tez jahli chiqish, vahima tushishi asosiy xususiyatlar hisoblanadi. Charchash ayniqsa, aqliy mashg'ulotlar yoki jismoniy va hissiy zuriqishda, musobaqa sharoitida yaqqol ko'rinadi. Ko'pincha bo'larbo'lmas sabab jahli chiqish, birdan jazavasi tutishga olib keladi. Jaxli chiqish, ko'pincha afsuslanish va ko'z yosh bilan almashadi. Vaximaga tushish ayniqsa kuchli bo'lishi mumkin.

Bunday o'smirlar kichik tana sezgilariga ham e'tibor berishadi, bajonudil da'volanadilar, o'rin-to'shak qilib yotib oladilar. Ko'pincha o'g'il bolalarda vahimaga tushish manbai yurak hisoblanadi.

Spirtili ichimliklarni iste'mol qilishi xos emas. Tengdoshlariga, ulfatlarga intiladi, lekin ulardan tez charchaydi va yolg'izlikni afzal ko'radi yoki do'st bilan muomala qilishni yoqtiradi. O'z-o'zini baholash sog'lik haqida g'amxurlikni aks ettiradi.

Senzitiv tip. Bolalikdan qo'rqadigan va hurkadigan bo'ladi. Ko'pincha qorong'idan qo'rqadi, xayvonlarni chetlab o'tadi, bir o'zi uyda qulflanib yolg'iz qolishga qo'rqadi tengdoshlaridan yotsiraydi. Harakatli o'yinlarni va janjal to'polonni yoqtirmaydi. Notanish kishi bilan osonlikcha muloqotga kirisha olmaydi. Bularning bari atrofdegilardan ajralgandek va odamladan yotsiraydi, - degan noto'g'ri tasavvurga olib kelishi mumkin. Haqiqatda esa bunday bolalar o'rganib qolgan kishisi bilan ko'p gaplashadi, o'zidan kichkinalar bilan o'ynashni yoqtiradi, chunki ular bilan o'zini xotirjam va ishonchli sezadi. Tug'ishganlari va yaqin kishisiga mehr qo'ygan, «uy bolasi» hisoblanadi. Maktab ularni tanaffuslardagi shovqin suron, urishi bilan qo'rqitadi. Odatda tirishib o'qiydi. Har xil nazorat, tekshiruv, imtihonlardan qo'rqadi. Ko'pincha doskada javob berishga, maxmadona deb nom chiqarishdan uyaladi. Bir sinfga o'rganib va hatto ayrim sinfdoshlari tomonidan ta'kibga olinishdan iztirob chekib, boshqa sinfga o'tadi. O'smirlik yoshining boshlanishi hech qanday asoratsiz o'tadi. Katta o'smirlik yoshiga o'tishi bilan qiyinchiliklar boshlanadi. Bu tipning ikki asosiy xususiyati ko'zga tashlanadi.

Haddan tashqari ta'sirlanuvchanlik va shaxsiy yetukmaslikni his qilish, o'zidagi ko'p kamchiliklarni, ayniksa axlokiy va irodaviy sohalarda ko'radi. Tug'ishganlariga bolalarcha mehr quyish saqlanib kolgan. Yaqin kishilarining g'amxo'rligiga bajonudil ko'nikadi.

Javobgarlik, burch hissi, o'ziga atrofdagilarga haddan tashkari axloqiy talablar erda shakllanadi. Tengdoshlaridan yotsiramaydi, ularga intiladi, lekin do'st tanlashni yaxshi biladi, do'stlikda mehr qo'ygan. Shovqinli ulfatlardan yaqin do'stini afzal ko'radi. Bunday o'smirlarni qiziqishi ikki xil bo'ladi. Birinchisi aqliy axloqiy o'smirlarning xarakteri kasb etadi (san'at, musiqa, rassomlik, uy gullari va boshqalar). Bu jarayonda orom oladi, umuman katta natijalarga intiladi. Qiziqishlarning ikkinchi xili shaxsiy yetukmaslikni bartaraf etishga intilishdan iborat. Bu yerda erishadigan natija va tan olish muhimdir. O'g'il bolalar irodasizlikni sportning kuchli turlari bilan shug'ullanib, bartaraf etmoqchi bo'ladilar. Qiz bolalar bo'lsa, tortinchoqlik va uyatchanlikni jamoat ishlarini bajarish bilan bartaraf etishga intiladilar.

Ruhiiy zaiflik. Bolalik davrida tortinchoq va qo'rqoqlik bilan harakatlarning qovushmaganligi, fikrlashga layoqatlilik va yoshiga mos bo'lmagan intellektual qiziqishlar erda uyg'onadi. Ba'zan notanish kishilardan va yangi predmetlardan qo'rqish, qorong'ilikdan, yopiq eshik ortida qolishdan qo'rqish kuzatiladi. Psixoastenik xususiyatlari turlicha ko'rinadigan qiyin davr maktabning I-sinfiga to'g'ri keladi. Bu tipning asosiy xususiyatlari-ikkilanuvchanlik, har xil fikrlarga ishonish va o'z yaqinlarining kelajagidan hadiksirash turidagi tashvishli gumonsirash va boshqalardir. O'g'il bolalarga onasidan xavotirlanish xos. Ikkilanuvchanlik xos, ayniqsa mustaqil qaror qabul tanlashi kerak bo'lganda, uzoq o'ylanadi. Lekin qaror qabul qilinganidan keyin tezda bajarilishi kerak, bunda kishini hayron qoldiradigan chidamsizlik xos. Jismoniy taraqqiyot yaxshilikni istashdan iborat. Barcha qo'l ko'nikmalarini va sport mashg'ulotlarini yaxshi egallay olmaydi. Bundan sportning oyoqqa og'irlik tushadigan turlari mustasno. Bu turlardan ba'zan yaxshi natijalarga ham erishishi mumkin.

O'smirming ozodlikka intilish reaksiyasi kuchsiz ifodalangan, bu reaksiya ko'pincha qandaydir yaqin kishilar bilan bog'liqlik bilan almashgan, tengdoshlariga intilish tortinchoqlik shakllarida ko'rinadi. Qiziqishlar intellektual-axloqiy sevimli ish bilan chegaralanadi. Jinsiy

hayot qisman umumiy jismoniy taraqqiyotidan ustun keladi. O'smiringa xulq-atvor buzilishi (uydan qochish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish) xos. O'z-o'zini taxlil qilishga layoqatli bo'lishga qaramasdan o'z-o'zini baholash to'liq va to'g'rilik bilan farqlanmaydi.

Ruhiiy zaiflik xususiyatlari «yuqori aqliy javobgarlik» sharoitida kuchayadi, ya'ni, kattalar, bolalarga, kichiklar yoki nochor a'zolariga qarshi topshirilganda zo'rayadi.

Shizoid tip. Bunday bolalar bolalikdan yolg'iz o'ynashni yoqtiradi. Ular tengdoshlariga kam intiladi, shovqinli o'yinlardan qochadi, kattalarning o'zaro suxbatlarini jim o'tirib, tinglashni afzal ko'radi. O'smirlik yoshda shizoid tipning barcha xususiyatlari chuqurlashadi. Dastlab odamlarga aralashmaslik va uzoqlashishni ko'rish mumkin. Ba'zan yolg'izlik, o'z qiziqishlari bilan yashaydigan o'smirlarni oz darajada o'ziga tortadi. Aloqa o'rnatma olmaslik qobiliyati hammadan ko'p uni tashvishga soladi. O'ziga o'xshash do'stni izlashdagi muvaffaqiyatsiz urinishlar, aloqaning tez uzilishi yanada tortinchoq bo'lishga majburlaydi.

O'zgaralar uchun ichki dunyosi har doim yopiq va ko'pincha sarguzasht ishlar bilan to'la bo'ladi, shizoid o'smirlar to'satdan yaxshi tanish bo'lmagan va tasodifiy kishiga ham ichidagini aytib, yorilishi mumkin. Shu bilan bir vaqtda ularning ichki dunyosi yaqin kishilarga noma'lumligicha qolishi mumkin. Ichki dunyosini anglab bo'lmaslik va his-tuyg'ularini ko'rsatishda tiyiklik ko'p hatti-harakatlarini boshqalar uchun kutilmagan va tushunarsiz qiladi. Shizoid o'smir turmushdagi mayda g'amxo'rlikka chidashi mumkin, u buni sezmasdan o'rnatilgan tartib va rejimga bo'ysunishi mumkin. Lekin uning sarguzashtlari, qiziqish dunyosi haqida ruxsatsiz gapirishga urinishga ham qat'iy norozilik ko'rsatishi mumkin.

Atrofdagilar uning jinsiy faolligini sezmasligi mumkin. Lekin tashqi «shaxvoniylikka qarashli», jinsiy hayotdan hayratlanish yorqin ishqiy sarguzashtlar bilan birikishi mumkin. Guruhiiy qonunni buzishlar xos emas. Lekin guruh «o'z odami deb tan olinishi uchun», «guruh uchun» jinoyat qilishga ham tayyor. Shizoid o'smirlar o'zgaralar uchun tasodifan eng qo'pol shakllarda jinsiy faollik ko'rsatishi mumkin.

Tutqanoqli tip. Ba'zi hollardagina bu tipning xususiyatlari bolalikdan namoyon bo'ladi. Bunday bola soatlab yig'lashi mumkin, uni ko'ndirishda shafqatsizlik ko'rinishlari namoyon bo'ladi, bunday

bolalar hayvonlarni qiynashi, kichiklarning jig'iga tegishni, o'jzlarning ustidan kulishni yoqtiradi. Maktabda o'quv qurollarini tutishda juda tartibli. Ko'pchilik hollarda bu tipning xususiyatlari o'smirlik yoshida namoyon bo'ladi. Ulardan asosiysi eng yomoni darg'azab bo'lgan davrda va zahrini sochish mumkin bo'lgan insonni izlash hisoblanadi. Bunday holat soatlab, kunlab davom etadi. U jazava tutishi bilan bog'liq. Affektiv portlash to'satdan ro'y berganga o'xshaydi. Affekt uzoq, asta-sekin sodir bo'ladi. Arzimas narsa portlashga sabab bo'lishi mumkin. Qattik xayajonlanish xolati faqat kuchli bo'lib qolmay, u uzoq vaqt davom etadi.

Instinktiv hayot qattiq zo'riqish bilan ajralib turadi. Kuchli jinsiy qiziqish shafqatsizlik layoqatlari bilan birlashishi mumkin. Sevgi bilan birga kuchli rashk ham mavjud. Spirtli ichimliklarni iste'mol qilish og'ir janjallar bilan tugaydi. Mastlikda qilgan ishini bilmaydi. Qimor o'yinlariga ishqiboz. Boyishga bo'lgan qiziqish tez uyg'onadi. To'plangan narsasining moddiy boylik bo'lgani uchun uni to'plashga qiziqadi. Sport jismoniy kuchni rivojlantirishga imkon bergani uchun o'ziga tortadi. Qo'shiq aytish va musiqa bilan yolg'iz shug'ullanishni yoqtiradi, bunda u zo'r hissiy orom oladi. Bunda imillab harakatlanish, besunaqaylik, harakat va hissiyotdan tortib, tafakkur va shaxsiy qadriyatlargacha hamma narsada ko'rinadigan sustlik umumiy xususiyat hisoblanadi. O'z ishiga zexni yetsa ham hamma qoidalarga birma-bir rioya qiladi. O'z sog'ligiga katta e'tibor berish, shaxsiy qiziqishlarga rioya qilish, gina saqlash, xafagarchilikni unutmastlik, qiziqishlarning ozgina cheklanishidan g'azablanish bilan birikadi.

Jazavali tip. O'zidan boshqani o'ylamaslik, o'zini hammadan baland qo'yish (egocentrizm), atrofdagilarning har doim unga e'tibor berishlariga intilish, u bilan faxrlanishlariga, unga hayron qolishlariga, hurmatlashlariga, hamdard bo'lishlariga intilish asosiy xususiyat hisoblanadi. Eng yomoni faqatgina kelajakda oddiy hech kim nazariga ilmaydigan, oddiy odam bo'lib qolishidan ham cho'chib, o'ziga nisbatan nafrat qo'zg'iydi, g'azabi qiynaydi. Qolgan barcha sifatlar shu xususiyat bilan aniqlanadi. O'ziga e'tiborni qaratish uchun o'z shaxsini bo'rttirib yolg'on so'zlaydi, xom xayol suradi. Haqiqiy chuqur hissiyot mavjud emas.

O'smirlik yoshida xuddi shu: o'rtoqlarining e'tiborini qaratish maqsadida xulq-atvor buzilishlaridan foydalanishi mumkin. Ular dars qoldiradilar, mehnat qilishni istashmaydi, ularni bir xil hayot

qoniqtirmaydi, ularning obroʻtalabligini qondiradigan ukish va mehnatda hurmatga sazovor boʻlish uchun ham, tirishqoqlik ham yetishmaydi. U bekorchilik qilishi bilan bir vaqtda kelajakda zoʻr kasb egasi boʻlishga daʼvo qiladi. Jamoa joylarida kishining jigʻiga tegadigan xulq-atvorini namoyon qiladi. Odatda xulq-atvorning juda ogʻir buzilishidan qochadi.

Uydan qochib ketish bolalik davridan boshlanishi mumkin. Uydan qochgan bolalar, ularni izlab boradigan joylarda boʻlishga yoki milisiyaning eʼtiborini oʻzlariga qaratishga intilishadi. Spirtli ichimliklarni koʻp isteʼmol qilib, mast boʻlishni yoktirishadi. Tengdoshlar bilan guruhlariga birlashganda rahbarlikka daʼvo qiladi. Guruhning kayfiyatini juda yaxshi his qilganlari uchun bunday oʻsmirlar undagi intilishlarni, takliflarni, xodisalarni birinchi boʻlib ifodalaydilar, tashabbuskori boʻladilar. Qiziqishlar hammanikidan baland. Buning uchun badiiy havoskorlik ham yoglar gimnastikasi ham, zamonaviy falsafiy oqimlar tanlanishi mumkin, bunda bu mashgʻulotlar koʻp mehnat talab qilmasligi kerak.

Boʻsh tip. Bolalikdan quloq solmaslik bilan ajralib turadi, hamma joyga «burnini tiqadi», lekin ular jazodan qoʻrqib, boshqa bolalarga osonlik bilan boʻysunishadi. Xulq-atvorning oddiy qoidalarini qiyinchilik bilan oʻzlashtiradilar. Ularni har doim kuzatib turish kerak.

Ularda birinchi sinfdayoq oʻqish istagi yoʻq. Qattiq nazorat qilishganda ilojisizlikdan boʻysunishadi, lekin ilojini qilib, darsdan qochishga harakat qiladi. Kattalar buyurgan har qanday ishda, burch va majburiyatlarni bajarishda toʻliq irodasizlik namoyon boʻladi.

Bekorchilikka, maxmadonagarchilikka, oʻyin-kulgiga, kayfsafoga kuchli intilish juda erta seziladi. Darsdan qochib, kinoga kiradi yoki koʻchada oʻynab yuradi. Oʻrtoqlari tomonidan gijgijlangani uchun, ulfatlarni deb, yengiltak xulq-atvor egalariga bajonidil taqlid qiladilar. Har bir kunni koʻchadagi ulfatlar orasida oʻtkazishga tayyor. Bolalik davridanoq chekishni boshlaydi. Oʻsmirlik davrida bezorilarcha harakat qiladi. Oʻyin-kulgi qilish uchun xulq-atvor buziladi. Spirtli ichimliklarni isteʼmol qilish erta (baʼzan 12-14 yoshdan) boshlanadi. Ular hech qachon yaqin kishilarni chin dildan sevmaydilar. Oilaviy tashvishlarga beparvo qaraydilar. Uning uchun yaqin kishilari eng avvalo oʻyin-kulgi manbai hisoblanadi. Koʻchadagi yomon bolalarga erta qoʻshilishga intiladi. Boʻsh oʻsmirlarda tashabbuskorlikning yetishmasligi va qoʻrqoqlik, ularni bunday

guruhlarning quroli bo'lib qolishiga olib keladi. Guruhiy qonun buzishda ular «yemagan somsasiga pul to'laydilar». Qandaydir mexnatni talab qiladigan qiziqishlarga ular erisha olmaydilar. Shuning uchun tasodifiy uchrashib qolgan kishi bilan soatlab gap sotadilar.

Moslashuvchan tip. Asosiy xususiyat tevarak-atrofga doim moslashish xos. Ularning hayot qonuni- "hammaga o'xshab" o'ylash, "hammaga o'xshab" harakat qilish, hamma narsa hammanikiday bo'lishiga intilishdir. Bunda "hamma" deb tevarak atrofdagi kishilar tushuniladi. Ular "hammadan" qolib ketishni istamaydi. Bu ayniqsa kiyimlar modasida aniq ko'rinadi. Qandaydir yangi moda chiqqanda, uni moslashuvchan tip vakilaridan ko'p qoralovchilar bo'lmaydi. Ular yangi modani o'zlashtirib olganlari zaxoti bu kiyim ularga yoqib qoladi, ilgari bu kiyimni yomonlaganliklarini ham unutib yuborishadi.

Tevarak-atrof har doim mos bo'lishga intilib, hech qachon unga qarshi chiqa olmaydilar. Shuning uchun yaxshi kishilar orasida yaxshi bo'lib, hamma ishlarni bekamuko'st bajarishadi. Bezorilar orasiga tushib qolganlarning xulq-atvoridagi barcha odatlarni va qiliqlarni o'rganib olishadi. Moslashuvchan o'smirlar «ulfat uchun» ichaverib piyonista bo'lib ketishi va guruhiy qonunbuzarlikka tortilishi mumkin.

Moslashuvchan tipning bolaligi kattalar tomonidan nazorat qilib turilsa, yaxshi o'tadi. Bu tip faqat o'smirlilik yoshida ko'rinadi. Ular o'rganib qolgan o'smirlar guruhini qadrlashadi, bu guruhning muntazamligini, tevarak-atrofnig doimiyiligini yoqtirishadi. Kasb tanlashda yoki o'qishni qaerda davom ettirishni tanlashda, ko'pchilik o'rtoqlari qaerni tanlashsa, u ham shu yerni tanlaydi. Agar moslashuvchan o'smiringa o'rganib qolgan guruhni nima uchundir ruyixushlik bermasa, bu eng og'ir psixik kasallikdayok idrok etiladi. Ular ota-onalari yoki tarbiyachilari, o'rganib qolgan o'rtoqlari muhitdan qaytarib olingandagina bundan qutilishadi. Moslashuvchan tipning xarakteridagi bo'sh joy - bu keskin o'zgarishlarga chiday olmasligidir. Hayotiy stereotipning buzilishi, o'rganib qolgan muhitdan ajralishdan qattiq azob chekishi mumkin. Bu o'smirlarning o'z-o'zini baxolashi yomon emas. Ularning ko'pchiligi uz xarakteridagi asosiy xususiyatlarni to'g'ri baxolashadi.

Bu savolnoma 13-21 yoshdagi o'smirlar va yoshlarni tekshirishga mo'ljallangan. A.E.Lichko va uning xodimlari taklif etgan tiplarga bo'lish yordamida xarakterga urg'u berish (aksentuaciya) tipiga bog'liq ravishda tuzatish ishlarini olib borish mumkin.

Xarakteri o'zgargan o'smir bilan ishlashning usullaridan biri aksentuatsiya tipiga bog'liq ravishda unga yaxshi tashqi sharoit yaratishdir. Masalan, shizoid o'smirlarni faol jamoatchilik faoliyatiga jalb etishning, ko'p odamlar qatnashadigan jamoa tadbirlariga chorlashning foydasi yo'q. Uni chuqur individual mashgulotlarni talab etadigan aqliy yoki jismoniy ishning biror turiga jalb etish ko'proq foydaliroq bo'lur edi.

Biz yuqorida tarbiyasi qiyin bolalarni va o'smirlarini har xil toifalarga ajratishdan ba'zi qarashlarni bayon qildik. Psixolog ishning u yoki bu yo'nalishini tanlab olishi, u o'z oldiga kuygan vazifalarga bog'liq ravishda «tarbiyasi qiyin» bolalarni ajratishning uz metodlarini ham ishlab chiqish mumkin. Ko'pincha har xil nuqtai nazarlarni qo'llash foydali bo'ladi.

Tarbiyasi og'ir bolalar muommosi azaldan eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan.

Bu muammoning yuzaga kelish sabablarini chuqur tahlil qilar ekanmiz, eng avvalo, tug'ilgan bolaning uni dunyoga keltirgan shaxslarning kimligi, ikkinchidan, u qanday ijtimoiy muhitda tug'ilib voyaga yetib, ulg'ayotganligiga e'tiborni qaratishimiz lozimdir. Sobiq Ittifoq davrida shaxs xulq-atvoriga irsiy omillar va uning tabiiy xususiyatlarini ta'sir qilishi haqidagi qarashlar inkor etilar edi. Biroq N.P.Dubinina, V.P.Efroimson, N.S.Kanstonistov, B.F.Sergeyev va boshqa genetiklarning bildirishicha, shaxsning genetik xususiyatlari, undagi ba'zi tug'ma kasalliklar va xususiyatlar ham shaxs xulq-atvorining shakllanishiga bevosita va bilvosita ta'sir etilishini e'tirof etganlar.

Ko'pchilikning fikriga qaraganda oxirgi paytlarda tarbiyasi og'ir bolalar bilan bog'liq muammolarning tez-tez uchrab turishi va ular sonining keskin oshganligi ta'kidlanadi. Shuningdek, bu muammoni bir qancha tashqi sabablarga bog'lash mumkin, ya'ni, hozirgi vaqtda axborot oqimining yuqoriligi (uzluksiz televizor ko'rish, kompyuterdagi har xil o'yinlar epizotlariga taqlid qilish, Internet tizimidagi norasmiy saytlar orqali har xil nomaqbul axborotlarni o'zlashtirishi) yoki kattalarning e'tiboridan chetda bo'lishi, oiladagi krizis va hokazolar. Bu omillarni inkor etmagan holda, mazkur muammoning tub sabablarini bolaning psixik taraqqiyotidan qidirish lozim.

Hech kimga sir emaski bugungi kun bolalari o'zlarining yigirma yil oldingi tengdoshlaridan farq qilishadi. Hozirgi yoshlar tez ta'sirlanuvchan, mustaqillikka moyilligi yuqoriligi va shu bilan birga nisbatan befarq, o'z vaqtlarini mazmunli ijtimoiy foydali faoliyatga sarflagilari kelmaydi. Vaholanki inson tabitan o'ziga xos oson va ko'ngilochar mashg'ulotlarga moyil bo'ladi. Inson xulq-atvori tarkibining aksariyati tabiiy instinktlari tazyiqi ostida bo'lishini inobatga olinishi kerak. Ushbu tazyiqlarni to'g'ri muvofiqlashtirish insondan irodaviylikni talab qiladi. Bu holatni zamonaviy texnikaning rivojlanganligi ta'siri deb ham izohlash mumkindir. Ko'pchilik hollarda bolalardagi bu o'zgarishlarga e'tiborsizlik va befarqlik ularning xulq-atvorida salbiy og'ishlarining boshlang'ich sababi va asosi bo'lishi mumkin.

Amerikalik amaliyotchi psixologlar tomonidan psixologik xizmat doirasida bolani tarbiyasidagi salbiy o'zgarishlarni oldini olishda eng avvalo bolaga ta'sir ko'rsatish zarurligi ta'kidlanadi. Buning uchun bolani o'zini o'zgartirishga tayyorlash, ya'ni:

- tashqi muhit ta'siridan sarosimaga tushmaslikka;
- turli xil qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'rgatish lozim.

Demak, olimlarning fikricha bolada mavjud noto'g'ri salbiy o'zgarishlarni ruhiy rivojlanishning me'yor darajasiga yetkazish orqali bola tarbiyasidagi qiyinchiliklarni yo'qotishga erishish mumkin ekan.

Shu o'rinda psixologiya faniga murojaat etib, inson psixikasida ongning tarkib topishi xususiyada qisqacha to'xtalib o'tishni joiz deb topdik. Ma'lumki, inson ongining yuksak belgilaridan biri uning o'zini anglashidir. Uning o'zini anglashi o'z navbatida shaxsning muhim belgisi hisoblanadi. Inson o'z tevarak-atrofidagi olamni biluvchi va shu olamga ta'sir etuvchi subyektdir. Insonning idrok etadigan, tasavvur qiladigan narsalari uning uchun obyektidir. Ana shu nuqtai-nazardan olganda, insonning o'zini anglashi subyektiv ravishda o'zini «men» deb his qilishida ifodalanadi.

Inson ijtimoiy zot bo'lganligidan unga o'zligini anglash qobiliyati xosdir. Faqat ijtimoiy hayotda, o'zga kishilar bilan qiladigan har turli munosabatlarda odamning o'zini anglashi, o'zini «men» deb bilishi vujudga keladi va taraqqiy etadi. Odam o'zini alohida shaxs sifatida kim deb bilishi, o'zining o'tmishi va kelajagini anglashi, o'z huquq va burchini anglashi va nihoyat o'zining fazilat hamda kamchiliklarini anglashi o'zini anglashiga kiradi.

Insonning tabiatini o'zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga ta'sir qiladigan kuch ijtimoiy omillar yoki boshqacharoq qilib aytganda, jamiyat ishlab chiqarish kuchlari, hamda ishlab chiqarish munosabatlarining o'sishi va o'zgarishidir. Bundan tashqari yana inson shaxsining tarkib topishiga ta'sir qiluvchi kuchli omil – inson orttirgan tajribalarning tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishidir. Shunday qilib, inson shaxsi juda murakkab psixologik kategoriya bo'lib, u kishining individual hayoti davomida ma'lum konkret omillarning ta'siri ostida sekin-asta tarkib topadi. Ilmiy manbalarga qaraganda inson shaxsi uchta faktorlar ta'sirida tarkib topadi. Ulardan birinchisi odam tug'ilib o'sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri bo'lsa, ikkinchisi odamga uzoq muddat davomida tizimli beriladigan ijtimoiy ta'lim-tarbiyaning ta'siridir va nihoyat, uchinchi odamga nasliy yo'l bilan beradigan irsiy omillarning ta'siridir.

Shunday qilib, insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Lekin, inson shaxsining tarkib topishi, yuqorida aytib o'tganimizdek, faqat shu ikkita faktorga emas, balki uchinchi bir faktorga ham bog'liqdir. Bu faktor nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarning ta'siridir. Odamga nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlari beriladi. Masalan: tanasining tuzilishi, sochi va ko'zlarining rangi, ovozi, gapirish uslublari, ayrim harakatlari tug'ma ravishda berilishi mumkin. Ma'lumki, odamga hech vaqt uning psixik xususiyatlari, ya'ni uning aqliy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan sifatleri nasliy yo'l bilan berilmaydi, deb izohlanadi. Lekin, shuni hech qachon esdan chiqarmaslik kerakki, real hayotda ko'pincha insonning xarakter xususiyatidagi salbiy og'ishlar uning nasliy tarkibi bilan bog'liq ekanligiga amin bo'lamiz.

Insonning shaxs sifatida shakllanishi uning biologik va ijtimoiy omillariga bog'liq ekan. Demak, bolalar xulq-atvorining salbiy tomonga og'ishida ham bevosita o'ziga xos yuqoridagi ikki omilning o'rni bor. Bolaning xulq-atvori ko'pincha o'z oldiga qo'ygan maqsadlari, qiziqishlari, idealari va e'tiqodlari majmuida yaqqol namoyon bo'ladi. Xulq-atvordagi o'zgarishlar bevosita yosh krizis davrlarining kechishi bilan bog'liq yuz berishi tabiiydir.

Shunday qilib boladagi salbiy illatlarni oldini olish va ularni bartaraf etishda quyidagilarga e'tiborni qaratish zarur:

–*birinchi o'rinda*, har bir yosh davrni o'ziga xos psixologik rivojlanish darajalarini aniqlab olish lozim.

–*ikkinchi o'rinda*, bolani tarbiyasidagi sodir bo'layotgan salbiy o'zgarishlarni o'rganib chiqish kerak.

– *uchinchi o'rinda*, tarbiyasi og'ir bolalarning psixologik rivojlanishini me'yorlashtirishga yo'naltirilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish lozimdir.

Shaxsning og'ishgan xulqi turlicha ijtimoiy institutlar tomonidan boshqariladi. Jamoatchilik ta'siri huquqiy qonunlar, tibbiy aralashuv, pedagogik ta'sir, ijtimoiy ko'mak va psixologik yordam xarakterini olishi mumkin. Axloqiy buzilish murakkab xarakteri kuchida ularni ogohlantirish va bartaraf etish yaxshi uyushtirilgan ijtimoiy ta'sirlar tizimini talab qiladi.

Psixologik yordam ko'rib chiqilayotgan tizim bosqichlaridan biri sifatida unda boshlovchi rol o'ynaydi va aniq ko'rinib turgan gumanistik yo'nalganligi bilan farqlanadi. Bu fakt psixologik ishning maxfiylik, ixtiyoriylik va shaxsiy manfaatdorlik, inson tomonidan o'z qayoti uchun mas'uliyatni qabul qilish, o'zaro ishonch, qo'llab-quvvatlash, shaxs va individuallikni hurmatlash kabi tamoyillarida o'z aksini topdi.

Psixologik yordam ikkita yetakchi yo'nalishga ega. Bu psixologik preventsiya (ogohlantirish, psixoprofilaktika) va psixologik intervensiya (bartaraf etish, korreksiya, reabilitatsiya). Psixodiagnostika, ishning mustaqil yo'nalishi hisoblanmaydi va psixologik yordamning maqsadi bo'lmasligi zarur. Bu faoliyatning yordamchi turi, muhim, biroq majburiy emas, qoidadagiday, hal qiluvchi oraliq amaliy vazifadir.

Psixologik yordamning ikki asosiy turini batafsil ko'rib chiqamiz.

Og'ishgan axloq profilaktikasi ijtimoiy uyushganlikning turli darajalarida umumiy va maxsus tadbirlar tizimini ko'zda tutadi: umumdavlat, huquqiy, jamoatchilik, iqtisodiy, tibbiy-sanitar, pedagogik, ijtimoiy-psixologik. Muvaffaqiyatli profilaktik ishning shartlari uning majmuaviyligi, kenna-ketlgi, differentsialligi, o'z vaqtidaligidir. Oxirgi shart faol shakllanayotgan shaxs, masalan, o'smirlar bilan ishlashda, ayniqsa, muhim. Shuning uchun kelgusida og'ishgan axloqning psixologik preventsiyasi ko'pincha aynan o'smir yoshidagilar misolida ko'rib chiqiladi.

BSST (Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti) birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikani ajratishni taklif qiladi. Birlamchi profilaktika muayyan ko'rinishni chaqiruvchi noxush omillarni bartaraf etishga, shuningdek, shaxsning bu omillar ta'siriga chidamliligini ko'tarishga yo'naltirilgan. Birlamchi profilaktika o'smirlar o'rtasida keng olib borilishi mumkin. Ikkilamchi profilaktikaning vazifasi – asabiy-psixik buzilishlarni erta aniqlash va reabilitatsiya qilish qamda “xatar guruhidagi”lar bilan, masalan, hozirgi vaqtda bu namoyish etilmagan bo'lmasa-da, og'ishgan axloqqa aniq ko'rinib turgan moyilligi bo'lgan o'smirlar bilan ishlash. Uchlamchi profilaktika axloq buzilishi bilan birga boradigan asabiy-psixik buzilishlarni davolashdek maxsus vazifalarni qal qiladi. Uchlamchi profilaktika shakllangan deviant axloqli shaxslarda retsidivni ogoqlantirishga yo'naltirilgan.

11.3. Kognitiv usul. Istalmagan axloqni so'ndirish usuli. Ijoiy axloqni shakllantirish usullari

Psixoprofilaktik ish barcha uch bosqichning tadbirlar majmuasiga kirishi mumkin. hisoblanadiki, u muammoning paydo bo'lishidagi ilk bosqichlarda deviant axloqni chaqiruvchi shart va sabablar ta'siri shaklida birmuncha samaralidir.

Psixoprofilaktik ishlarning turlicha shakllari mavjud:

Birinchi shakl – ijtimoiy muhitni tashkil etish. Uning asosida deviatsiyaning shakllanishida atrofda muhitning determinatsiyalanuvchi ta'siri haqidagi tasavvurlar yotadi. Ijtimoiy omillarga ta'sir ko'rsatib shaxsning istalmagan axloqi oldini olish mumkin. Ta'sir butun jamiyatga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin, masalan, og'ishgan axloqqa munosabat bo'yicha jamoatchilikning salbiy fikrini yaratish orqali. Ish obyektini, shuningdek, oila, ijtimoiy guruh (maktab, sinf) yoki aniq shaxs bo'lishi mumkin.

Ushbu model doirasida tobe axloq profilaktikasi o'smirlarda dastavval sog'lom turmush tarzi va sergaklikka ko'rsatmani shakllantirish bo'yicha ijtimoiy reklamadan iborat. Ommaviy axborot vositalari siyosati alohida ahamiyatga ega. Maxsus dasturlar, yoshlar suyuqlilarining chiqishlari, maxsus tanlangan kinofilmlar – bularning barchasi qozirgi vaqtda kuzatilayotganga qaraganda boshqa sifatli darajaga ega.

Yoshlar submadaniyati bilan ishlash “Yoshlar giyohvandlikka qarshi” harakati yoki ommaviy rok guruhlarning chiqishlari bilan shu nomdagi aksiya shaklida tashkil etilgan bo‘lishi mumkin. Yoshlar o‘zlarining bo‘sh vaqtlarini o‘tkazadigan va muloqot qiladigan joylarda ular bilan ishlash muhimdir. Masalan, diskotekalarda niqobdagi sirli odamlar paydo bo‘lishi mumkin. Oqshom yakunida yoshlar ulardan giyohvand moddalardan yaqin odamlarini yo‘qotish bilan bog‘liq kechinmalar va tragik taqdirlar haqida bilib olishlari mumkin.

O‘smirlar bilan ishlash, shuningdek, ko‘chada tashkil etilishi mumkin. Qator davlatlarda tegishli ishlarni olib borish uchun o‘smirlar sardorini tayyorlash mavjud.

Shuningdek, ushbu yondashuv doirasida istalmagan axloq bilan qo‘shilmaydigan sharoit va ko‘maklashuvchi “zona”larni yaratishga urinish qo‘llanilmoqda. Modelning asosiy kamchiligi ijtimoiy omillar va og‘ishgan axloq o‘rtasida to‘qridan-to‘qri bog‘liqlikning yo‘qligi hisoblanadi. Umuman olganda, ushbu yondashuv yetarlicha samarador bo‘lib ko‘rinadi.

Psixoprofilaktik ishning ikkilamchi shakli – xabardor qilishdir. Bu biz uchun birmuncha odatiy psixoprofilaktik ishni olib borishning ma‘ruza, suhbat, adabiyotlar yoki video va telefilmlarni tarqatish shaklidagi ko‘rinishi. Yondoshuv mohiyati konstruktiv qarorlar qabul qilishga uning layoqatini ko‘tarish maqsadida shaxsning kognitiv jarayonlarida ta’sir ko‘rsatishga urinishdir.

Buning uchun, odatda, statistik ma‘lumotlar bilan tasdiqlangan, masalan, giyohvand moddalarning salomatlik va shaxsga halokatli ta’siri haqidagi axborotlardan keng foydalaniladi. Ko‘pincha axborot qo‘rqituvchi xarakterga ega. Bunda giyohvand moddalarni iste‘mol qilishning salbiy oqibatlari sanab o‘tiladi yoki deviantlarning drammatik taqdiri, ularning shaxsiy degradatsiyasi yoritib beriladi.

Usul haqiqatan bilimni kuchaytiradi, biroq axloqni o‘zgartirishga yomon ta’sir ko‘rsatadi. O‘z-o‘zidan xabardor qilish deviatziya darajasini pasaytirmaydi. Ba’zi hollarda, aksincha, deviatziya bilan erta tanishuv unga qiziqishni kuchaytiradi. Cho‘chitish ham axloqning ushbu turini motivatsiyalovchi kognitiv-hissiy dissonansni uyg‘otishi mumkin.

Qator hollarda axborot o‘z vaqtida berilmaydi: o‘ta kech yoki o‘ta erta. Masalan, o‘smirlar bilan ishlash tajribasining ko‘rsatishicha,

giyohvand moddalarga tobe bo'luvchi axloqni ogohlantirish bo'yicha suhbatlar 14 yoshdan kech bo'lmaganda olib borilishi lozim. Ular giyohvand moddalar va ular keltirib chiqaruvchi kuchli ta'sirni batafsil yoritishdan iborat bo'lmashligi darkor. Bunday suhbatlar deviant axloq va undan saqlanish usullarining oqibatlarini muhokama qilishga, faol shaxsiy nuqtai nazarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Ushbu yondashuvning istiqbolli rivojlanishiga cho'chituvchi axborotlarning ustunlik qilishidan, shuningdek, jins, yosh, ijtimoiy-iqtisodiy tavsifnomasi bo'yicha axborotlarni differentsiyalashdan voz kechish yordamlashishi mumkin.

Uchinchi forma psixoprofilaktik ishning uchinchi shakli – ijtimoiy-muhim malakalarga faol ijtimoiy o'rgatishdir. Ushbu model ko'pincha guruhli treninglar shaklida analga oshiriladi. hozirgi vaqtda quyidagi shakllar tarqalgan.

Salbiy ijtimoiy ta'sirga rezistentlik (mahkamlik) treningi. Trening davomida deviant axloqqa ko'rsatmalar o'zgaradi, reklamali strategiyani tanib olish malakasi shakllanadi, tendoshlari bosim o'tkazganida "yo'q" deya olish layoqati rivojlanadi, ota-onalar va boshqa kattalarning (masalan, ichkilik iste'mol qiluvchi) salbiy ta'sir ehtimoli haqida axborot beriladi va h.k.

Assertivlik yoki affektiv-qadriyatli ta'lim treningi. Deviant axloq bevosita hissiy buzilish bilan bog'liq degan tasavvurga asoslangan. O'smirlarni ushbu muammolaridan oldindan xabar berish uchun hissiyotlarni tanish, ularni maqbul obrazda ifodalash va stressni mahsuldor uddalashga o'rgatiladi. Guruhli psixologik ish davomida qaror qabul qilish malakasi shakllanadi, o'z-o'zini baholash ko'tariladi, o'z-o'zini aniqlash va ijobiy qadriyatlarni rivojlantirish jarayoni raqbatlantiriladi.

Hayotiy malakalarni shakllantirish treningi. Hayotiy malakalar tushunchasi ostida shaxsning birmuncha muhim ijtimoiy ko'nikmalari tushuniladi. Dastavval, bu muloqot qilish, do'stona aloqalarni saqlash va shaxslararo munosabatlardagi nizolar konstruktiv hal qilish malakasidir. Shuningdek, bu o'z zimmasiga mas'uliyatni ola bilish, maqsad qo'yish, o'z nuqtai nazari va manfaatlarini himoyalash qobiliyati hamdir. Nihoyat, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zi va atrofdagi vaziyatni o'zgartirishga ishonchli axloq malakasi hisoblanadi.

O'smirlar bilan ishlashda ushbu model birmuncha istiqbollilardan birini aks ettiradi.

To'rtinchi shakl – alternativ deviant axloq faoliyatini tashkil etish. Ishning bu shakli deviant axloqning o'rinbosar samarasi haqidagi tasavvurlari bilan bog'liq. Masalan, addiksiya shaxsiy dinamika – o'z-o'zini baholashni oshirish yoki referent muhit integratsiyasida muhim rol o'ynashi mumkin. Taxmin qilinadiki, odamlar kayfiyatni yaxshilovchi psixofaol moddalardan uning o'rniga nimadir yaxshirog'ini olmagunlaricha foydalanadilar. Faollikning alternativ shakllari sifatida quyidagilar tan olindi: bilim (sayohat), o'zini sinash (toqqa sayoqat, xatarli sport), ahamiyatli muloqot, sevgi, ijodkorlik, faoliyat (shu jumladan, professional, diniy-ma'naviy, homiylik).

Bu shakl shakllangan og'ishgan axloq holatida yordam ko'rsatishning deyarli barcha dasturlarida amalga oshiriladi. Oilaviy tarbiyada yetakchi profilaktik vazifa sifatida mustahkam qiziqishlarni erta tarbiyalash, sevis va sevimli bo'lishga qobiliyatni rivojlantirish, o'zini band qilish va mehnat qilish ko'nikmasini shakllantirish chiqadi. Ota-onalar bolani faollikning xilma-xil turlariga – sport, san'at, bilimga jalb etish orqali shaxs ehtiyojlarini shakllantirishlarini tushunishlari kerak. Agar o'smir yoshida ijobiy ehtiyojlar shakllanmagan bo'lsa, shaxs salbiy ehtiyoj va bilimlarga nisbatan zaif bo'lib qoladi.

Beshinchi shakl – sog'lom turmush tarzini tashkil etish. U salomatlik uchun shaxsiy javobgarlik, atrofdagi dunyo va o'z organizmi bilan uyg'unlik haqidagi tasavvurlardan kelib chiqadi. Odamning maqbul holatga erishish va muhitning noxush omillariga muvaffaqiyatli qarshi tura olish ko'nikmasi, ayniqsa, qimmatli hisoblanadi. Sog'lom turmush usuli sog'lom ovqatlanish, muntazam jismoniy yuklama, mehnat va dam olish tartibiga amal qilish, tabiat bilan muloqot, ortiqcha narsalarni istisno qilishni ko'zda tutadi. Bunda usul ekologik tafakkurga asoslangan va ahamiyatli tarzda jamiyat rivojlanishining darajasiga bog'liq.

Oltinchi shakl – shaxsiy resurslarning faollashuvi. O'smirlarning sport bilan faol shug'ullanishi, guruhlardagi muloqot va shaxsiy o'sishdagi ishtiroki, artterapiya – bularning barchasi, o'z navbatida, shaxs faolligi, uning sog'ligi va tashqi salbiy ta'sirga mahkamligini ta'minlovchi shaxsiy resurslarni faollashtiradi.

Yettinchi shakl – deviant axloqning salbiy oqibatlarini minimallashtirish. Ishning ushbu shaklidan shakllanib bo'lgan og'ishgan axloq hollarida foydalaniladi. U retsidiv yoki uning salbiy

oqibatlarini profilaktika qilishga yo'naltirilgan. Masalan, giyohvandlikka tobe bo'lib qolgan o'smirlar o'z vaqtida tibbiy yordam, shuningdek, shunga o'xshash kasalliklar va ularni davolash bo'yicha zaruriy bilimlarni olishlari mumkin.

Psixoprofilaktik ishning xilma-xil ko'rinishlarida o'xshash shakllar va usullardan foydalanish mumkin. Ishni tashkil etish usuli bo'yicha psixoprofilaktikaning quyidagi shakllarini ajratish mumkin: individual, oilaviy, guruhli ish. Og'ishgan axloqni oldini olish maqsadida turlicha ijtimoiy-psixologik usullardan foydalaniladi. Psixoprofilaktik ishning yetakchi usullari orasida: xabardor qilish, guruhli munozaralar, trening mashqlari, rolli o'yinlar, samarador ijtimoiy axloqni modellashtirish, psixoterapevtik uslublar bor.

Foydalanilgan usullarga bog'liq ravishda psixoprofilaktik ish trening, ta'lim dasturlari (masalan, maktabdagi maxsus kurslar), psixologik maslaqatlar, krizis yordami (ishonch telefonlari), shuningdek, chegara qolati va asabiy-psixichk buzilish psixoterapiyasi shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Deviant axloqning o'ziga xosligiga muvofiq ravishda psixoprofilaktika ishlarining quyidagi tamoyillarini ajratish mumkin:

– majmuaviylik (oila va shaxs, ijtimoiy borliqning turli darajasiga ta'sirni uyushtirish);

– manzillilik (yosh, jinsiy va ijtimoiy tavsifnomalarni hisobga olish);

– ommaviylik (ishning guruhli shakli birlamchiligi);

– axborotning ijobiyligi;

– salbiy oqibatlarni eng kam darajaga tushirish;

– ishtirokchilarning shaxsiy manfaatdorligi va mas'uliyati;

– shaxsning eng yuqori darajadagi faolligi;

– kelajakka intiluvchanlik (axloq oqibatlarini baholash, ijodiy qadriyatlar va maqsadlarni dolzarblashtirish, deviant axloqsiz kelajakni rejalashirish).

Shaxs og'ishgan xulqining intervensiyasi ijtimoiy-psixologik ta'sirning yana bir yo'nalishi hisoblanadi. Psixologik intervensiya – bu ijobiy o'zgarishlarni rag'batlantirish uchun shaxsiy borliqqa psixologik aralashuv. Shaxs deviant axloqi intervensiyasi bo'shish yoki uning axloqidagi ijtimoiy moslashuvga to'sqinlik qiluvchi shakllarni bartaraf etishdan iborat.

Psixologik intervensiyaning farqli xususiyatlari umuman olganda shaxsning o'zi tomonidan o'zgarishga bo'lgan istak, uning psixolog bilan hamkorlik qilishga tayyorligi hisoblanadi. Voyaga yetmaganlarning og'ishgan xulqi holatida tashabbus va rozilik bola manfaatlarining qonuniy vakillaridan chiqishi darkor.

Shaxs og'ishgan xulqi bilan ishlashda asosiy qiyinchilik, ijtimoiy-psixologik yordamning birinchi bosqichida odam o'z axloqining aniq ko'rinib turgan salbiy oqibatlariga qaramay o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatishidan iborat. Bunday hollarda aralashuv uchun asos deviatziya yetkazgan zarar darajasi yoki shaxsning ijtimoiy moslashmaganligi darajasi bo'lishi mumkin. Masalan, giyohvand moddalarga tobe insonning yordam uchun murojaatiga sabab ko'pincha yoxud sog'ligi bilan jiddiy muammo, yoxud uning "ijtimoiy jarlik" vaziyatiga erishishi bo'lishi mumkin. Giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilar bilan birga yuradigan kasalliklar yaxshi ma'lum – gepatit, OIV-infeksiya, psixik buzilishlar. Ijtimoiy degradatsiya, o'z navbatida, kriminalizatsiyada, meqnatga layoqatning yo'qolishida, yakkalanishda, turar-joy va oilani yo'qotishda ifodalanadi.

Shunday qilib, deviant axloqda psixologik aralashuvning yetakchi vazifalari quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

- ijtimoiy moslashuv yoki sog'ayishga motivatsiyaning shakllanishi;
- shaxsiy o'zgarishlarni rag'batlantirish;
- og'ishgan xulq aniq shaklining korreksiyasi;
- shaxsiy o'zgarishlar yoki soqayish uchun yoqimli ijtimoiy-psixologik sharoitlarni yaratish.

Ishning samaradorligi istalmagan axloq (masalan, giyohvand moddalarni iste'mol qilish holati) ni kamaytirishning obyektiv belgilari bo'yicha bo'lganiday, sub'ektiv o'zgarishlar (masalan, sog'lom turmush tarzini kechirishga istakning kuchayishi) bo'yicha ham baholanadi. Ijobiy o'zgarishlarning birmuncha muhim mezonlaridan biri shaxsning ijtimoiy moslashganlik darajasini ko'tarish bo'lib chiqadi.

Og'ishgan xulqning psixologik intervensiyasi qolatida psixologik ta'sirning ko'pincha psixoprofilaktik ishdagi barcha ma'lum usullaridan foydalaniladi. Psixologik intervensiyaning etakchi usullari psixoterapiya, psixologik maslaqat berish, psixologik trening, organizatsiya terapevtik yoki sanogenli muqitlar hisoblanadi.

Shaxs bilan psixologik ish olib borishning birmuncha ommaviy shakli psixoterapiya bilan uyg'unlikda maslahat berish hisoblanadi. Deviant axloq holatida yordamning ajratilgan ikki shakli o'rtasidagi chegaralarni farqlash amaliy jihatdan juda qiyin. "Maslahat berish" atamasi sog'lom odamlar bilan ishlash uchun anchagina maqbul. Axloqiy deviansiyaning murakkab xarakteri, uning og'riqli buzilishga o'tishga moyilligini inobatga olib, kelgusida psixoterapiya yoki maslahat berish haqida gapirganda biz aynan ularning munosib birikmasini nazarda tutamiz.

Shaxsning yagona nazariyasi yo'qligida maslahat berish (psixoterapiya) ning turlicha kontseptsiya va shakllari mavjud. Uchta yetakchi yo'nalish birmuncha rivojlanish va tan olishni oldi: psixoanalitik, kognitiv-axloqiy, gumanistik. Bu tarixiy modellar hayotga yuzlab modifikatsiyani berdi, buning oqibatida turlicha tasniflar paydo bo'ldi. Interventsiya maqsadiga bog'liq holda psixoterapiyaning uch turi ajratiladi:

– qo'llab-quvvatlovchi psixoterapiya – mavjud himoya kuchi va ancha yangi samarali axloq usullarini ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlashni ta'minlash;

– qayta o'rganuvchi psixoterapiya – axloqni o'zgartirishga intilish;

– shaxsiy-rekonstruktiv – intrapsixik janjallarni anglash orqali ichki shaxsiy o'zgarishlarga yo'naltirilgan.

Klinik amaliyotda psixoterapiya usullarini simptom-markazlashgan, shaxsiy-markazlashgan va ijtimoiy markazlashganga bo'lish qabul qilingan. Psixoterapiya turlicha shakllarda amalga oshirilishi mumkin, masalan: guruhli, oilaviy yoki individual, uzoq muddatli yoki qisqa muddatli, muammolarni yechish yoki shaxsiy o'zgarishlarga mo'ljallangan direktiv yoki nodirektiv. Amaliyotda ko'pincha kombinatsiyalangan usullardan foydalaniladi. Bundan tashqari, asosiy psixoterapevtik usullarning ko'plab modifikatsiyasi mavjud. Masalan, B.D.Karvasarskiy tahriri ostidagi Psixoterapevtik entsiklopediyada yuzga yaqin psixoterapevtik usullar yoritilgan, ularning real miqdori esa yanada ko'proq. Ko'pgina mualliflar ayni vaqtda mutaxassis shaxsining aqamiyatiga diqqatni tortgan holda psixoterapiyaning taxminan teng ta'sir qiluvchi xilma-xil turlarini ta'kidlaydi.

Olimlar tomonidan ta'kidlanishicha, inson yosh davrlarini tahlil qilish, ularning har bir bola, o'smir va o'spirin hayotini chuqur o'rganishdan boshlanadi. Bu esa yosh davrlarining xarakter xususiyatlaridagi o'zgarishlarini psixologik qonuniyat asosida amalga oshirishni bilish maqsadga muvofiqdir.

Amerikalik psixolog A. Gezell o'smir yoshining davrlanishiga alohida e'tibor qaratib, o'ziga xos xususiyatlarni sharhlab o'tgan edi. Masalan:

10-yosh o'smirlar muvozanatli hayotni tez idrok etuvchi, ishonuvchan, ota-onalariga itoatli, tashqi qiyofaga e'tiborsiz bo'lganligi bois bu "oltin yosh" hisoblanadi.

11-yosh organizmda qayta qurish yuz beradi, bolalar g'ayri shuurli, negativlikni namoyon qiladi, kayfiyati tez o'zgaradi, ota-onalariga nisbatan norozilik bildiruvchi.

12-yosh tez jazavaga tushuvchan, hayotga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi, o'smirda oilasiga nisbatan avtonomlik va tengdoshlariga ta'siri ortadi. Ularda aqllilik, hazil-mutoyibaga moyillik, chidamlilik, tashabbuskorlik, tashqi qiyofa va qarama-qarshi jinsdagilarga e'tibori orta boshlaydi.

13-yosh o'zining ichki dunyosiga e'tiborlik, introvertlikka xos bo'ladiki, ular o'zini o'zi tanqid qilishga, va tanqidlarga nisbatan ta'sirlanuvchan, ota-onalarga tanqidiy munosabat bildiruvchi, do'st tanlovchi, to'qinlanish va hayajonlanish ortadi.

14-yosh o'smirlardagi introversiya ekstraversiyaga almashinadi, shijoatli, xushmuomila, o'ziga ishonch uyg'onadi, boshqalarga e'tibori ortadi va ular o'rtasidagi farqni ajrata boshlaydi.

15-yosh bu yoshdagilar uchun mustaqillik ortadi, bu esa ularning oila va maktab bilan bog'liq zo'riqishlarga duchor etadi. Ularni guruhli harakat qilishga va guruhdagilarga moslashishga intilish ortadi.

16-yosh o'spirinlar hisoblanib, ularda muvozanatlashuv, hayotdan quvonish, ichki mustaqillik, emotsional barqarorlik, muomalaga moyillik, kelajakka intiluvchanlik ortadi.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar bilan yosh davrlarni xarakterli jihatlarini sharhlab o'tdik, chunki yosh xususiyatlarining psixologik tavsifi, bolalarni xulq-atvoridagi o'zgarishlarini baholash imkoniyatini beradi.

“Tarbiyasi qiyin” o‘smirlarning kelib chiqishi. Inson xulq-atvoridagi salbiy og‘ishlar borasida olimlar bir qator tipologiyalarni yaratishgan.

XX asrning oxirlarida bolalarni ijtimoiy va psixofiziologik o‘zgarishlarga qarab V.Klayn (1991) yosh qonun buzarlarni olti tipga ajratadi.

1. **“Esi past”**. Ularning xulq-atvorida sho‘xlik, yoqimsiz hatti-harakatlar yetakchilik qiladi. Uygacha kech kelish, aldash, ta’lim muassasasidagi har xil nizoli vaziyatni kelib chiqishiga sabab bo‘lishlari, kinoga biletsiz kirishlari, doim janjallashish, atrofdagilarni ko‘nglini qoldirish, narkotikni tatib ko‘rishga moyil bo‘ladilar.

2. **“Ota-onaning dushmani”**. Bu toifadagi o‘smirlar o‘z hatti-harakatlari bilan ota-onalarini qiyin holatga qoldiradilar, ularga norozilik hissini ochiq-oydin bildiradilar. Ular ota-onasini munosabatini tushunmaydilar. Bu davrda salbiy hislarni orttirib yuboradilar.

3. **“Axloqsiz bola”**. Bunday o‘smirlar asotsial yo‘nalishga ega. Ularning hissiy va intellektual taraqqiyotida o‘zgarishlar yo‘q, xulq-atvorlarida ham yaqqol og‘ish kuzatilmaydi. Ularda qonun buzarlari bilan aloqada bo‘lishga moyillik bor. Bu holat bolaga nisbatan oiladagi e‘tiborsizlik yoki nomaqbul oilada tarbiya topganligi zahirida vujudga kelishi mumkin. Shuning uchun bunday bolalar jinoiy olam me‘yorlarini qabul qiladilar va ularga bo‘ysinadilar.

4. **“Organik”**. Bu toifadagi bolalarda miyadagi lat yeyish, yoki aqliy taraqqiyotda ortda qolish xos. Natijada bolaning intellektual rivojlanishi ortda qoladi bu esa tartib-intizomni hamda xulq-atvorning buzilishiga olib keladi. Bunday bolalar ko‘pincha o‘z tengdoshlari bilan asabiylashadilar va janjallashadilar.

5. **“Psixotiklar”**. Aqliy yetilmagan, kasalmand bolalar bo‘lib, ular uchun gallyutsinatsiya, jinoiy harakatlardan xursand bo‘lish, buzg‘unchi fikrlar hukumronlik qiladi. Hattoki 14 yoshli bu toifadagi bola ota-onasini otib tashlagan.

6. **“Nasliy buzuqlik”**. Bu toifadagilar birlamchi psixopatlar hisoblanadilar. Ular uchun jinoiy hatti-harakat qilish odatiy holga aylanadi. Nasliy buzuqlarda hatti-harakatlar ilk yoshligidayoq namoyon bo‘ladiki, asotsiallanishga moyil. Ularda ma’suliyat hissi yo‘q va ishonib bo‘lmaydi. Ularni tuzatish va yordam ko‘rsatish ancha mushkul.

Nazorat savollari:

1. Shaxs og'ishgan xulqiga ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatishda komplekslilik tamoyilini ochib bering.
2. Og'ishgan xulq psixoprofilaktikasining maqsadlari, tamoyillari va shakllari qanday?
3. Psixoprofilaktikaning asosiy kontseptual modelini sanab bering.
4. Shaxs og'ishgan xulqining psixologik intervensiyasi nima degani? Uning vazifalari, shakl va usullari qanday?
5. Tarbiyasi qiyin" o'smirlarning kelib chiqishi qanday kechadi?
6. Inson xulq-atvoridagi salbiy og'ishlar borasidagi olimlarnng tipologiyalarni sanab bering.
7. "Psixotiklar"ni baholab bering.
8. Amerikalik psixolog A.Gzell o'smir yoshining davrlanishiga nimalarga e'tibor qaratgan?

XII BOB. XULQI OG'ISHGAN BOLALARNING OTA-ONALARI BILAN AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING FAOLIYATI

Tayanch tushunchalar: psixologik omillar, tarbiyasi qiyinlik, tarbiya usullari, maslahat ishlari, konsultativ yordam.

12.1. O'smir va oila munosabatlaridagi ota-ona va bola munosabatlarini me'yorlashtirish bo'yicha konsultativ yordam berish usullari

Noto'g'ri tarbiyani keltirib chiqaradigan tarbiyaviy usullarga quyidagilar kiradi: 1) "harakat qoidalari" usuli; 2) "bog'" usuli; 3) "mukofot va jazo" usuli. "Harakat qoidalari" usulida xuddi yo'l harakati qoidalariga o'rgatish ko'rinishida bolaga ta'sir qilinadi. Ota-onalar bolani ma'lum qoidalarga o'rgatilsa, shuning o'zi yetarli, deb hisoblashadi. Bola o'zini yomon tutadigan bo'lsa, demak, ota-onalar unga yaxshilab tushuntirmagan, deb hisoblashadi. Bolada kuzatiladigan barcha kamchiliklarda "Men senga aytuvdim-ku", "Necha marta takrorlash kerak", "Men seni ogohlantirgan edim" singari gaplar bilan malomat qilishadi. Aytilgan o'g'itlarning afsonaviy kuchiga ishonishadi va ularning fikriga ko'ra insonning hayoti aytilgan o'g'itlarga rioya qilishdan iborat, deb bilishadi. Shuning uchun aksariyat ota-onalar o'z farzandlarining tarbiyasida faqat pand-nasihatlar yetarli deb bilishadi. Biroq tarbiya faqatgina "Men aytuvdim-ku"ning ustiga qurilmaydi. Bizni tarbiyaning bu usuli aldaydi va tarbiyada adashganimizning guvohi bo'lamiz.

Ikkinchi usulning "bog'" deb atalishiga sabab shundaki, ota-onalar bolaga xuddi bog'da ekib qo'ygan daraxtiga qaragandek qarashadi. Go'yo ota-ona bog'bon. "Bog'bon" ota-onalar o'sib kelayotgan niholning noto'g'ri o'sgan shoxlarini qirqqandek, o'z bolasining kamchiliklarini to'g'rilab borsak yetarli, deb o'ylashadi. Shunday qilsak bolamiz sekin-asta yaxshilanib boraveradi va yoshi ulg'aygani sari bolamizning tarbiyasi yuksaladi, degan fikrdadirlar. Bola daraxt emas, u inson. O'simliklarga qo'llaniladigan usullar bolalarga ta'sir qilmaydi. Bunday tarbiya usuli bilan ota-onalar qanchalik bolalardagi kamchiliklarni kamaytirishga urinishmasin, bolalar o'zgarib qolmaydi. Bu haqiqatni anglamagan ota-onalar bir umr bolalardagi kamchiliklar bilan kurashadilar, biroq ularning sa'y-harakatlari natija bermaydi.

Uchinchi usul - "mukofot va jazo" usuli deb ataladi. Bunda otalar bolalarini ayb ish qilib qo'ysalar jazolaydilar va yaxshi ish qilsalar "mukofotlaydilar", ya'ni maqtab qo'yadilar. Bolalarni tabiyalash uchun shuning o'zi yetarli deb hisoblashadilar. Xolbuki bola bu usul bilan tarbiyalanganda har doim ham yaxshilanib bormaydi. Balki u ota-onasidan qo'rqib yoki uning maqtovini olish uchungina harakat qiladi. Bola o'zi qilayotgan ishning asl mohiyatini tushunib etmaydi. Bundan tashqari, ota-onalarning har doim ham adolatli bo'lishligiga kafolat yo'q. Shu nuqtai nazardan tarbiyaning bu usuli ham har doim yaxshi samara bermaydi.

Bolalarda tarbiyasi qiyinlikning ko'rinishlari

Shaxsning manfaatlariga, birinchidan, ijtimoiy guruhga, umuman jamiyatning o'ziga zarar keltirish darajasiga ko'ra, ikkinchidan, ular buzadigan normalarning tipiga ko'ra tarbiyasi buzulishning quyidagi turlari mavjud:

1. Umuminsoniy qadriyatlarga va ijtimoiy-axloqiy normalarga mos tushmaydigan, shaxsning o'ziga ham zarar etkazadigan hatti-harakatlar (mol-mulkka ruju qo'yish, shaxsiy manfaatlarini o'zgalarning manfaatlaridan ustun qo'yish, ya'ni xudbinlik, o'zgalarning fikrlariga tobe bo'lish, mustaqil dunyoqarashning yo'qligi va h.).

2. Shaxsning o'ziga va atrofdagi jamoalarga (oilaga, do'stlariga, qo'shnilariga va h.) zarar keltiruvchi harakatlar va ular ichkilikbozlikda, nashavandlikda, o'zini o'zi o'ldirishda va h.larda yuzaga chiqadi.

3. Shaxsning ham axloqiy, ham huquqiy normalarni buzish ko'rinishida bo'lgan noqonuniy xulq-atvori bo'lib, u o'g'irlik, talonchilik, qotillik, fohishalik va hokazo jinoyatlarda o'z aksini topadi.

Tarbiyasi qiyin bo'lgan bolalar o'z xulq-atvorini namoyish qilish ko'rinishlari

Tarbiyasi qiyin bo'lgan bolalarning xulq-atvorini quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

a) hatti-harakat yoki biror ish ko'rinishida (biror kishining yuziga tushirish va h.);

b) doimiy faoliyat ko'rinishida (talonchilik, tovlamachilik yoki nashavandlik, alkogolizm va h.);

c) turmush tarzi ko'rinishida (jinoyatchilar to'dasidagi jinoiy turmush tarzi va h.). Tarbiyasi qiyin bolalardagi xulq-atvorning bu ko'rinishlaridan eng og'iri – bu albatta ma'lum bir noto'g'ri xulq-atvorning turmush tarziga aylanib qolishidir. Eng engili esa birinchi holat hisoblanadi. Darhaqiqat, jinoyatchilik ijtimoiy normalarning nisbatan xavfli buzilishi bo'lib, bugungi kunda yoshlarimiz orasida uchrab turadi. Alkogolizm va nashavandlik ham yoshlarimiz orasida keng tarqalgan holatlardan hisoblanib, ma'lumotlarga ko'ra, aksariyat yoshlarimiz 13-15 yoshidan boshlab bu noma'qul ishga qo'l urishadi. Tarbiyasi qiyin bolalarda uchraydigan yana bir holat o'z joniga qasd qilishga urinishdir. Bu – ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy-ruhiy krizislarning natijasida kuzatiladi. Inson hayotidagi keskin o'zgarishlarga yoshlarimizning moslasha olmasligi, boshqacha aytganda, ijtimoiy immunitetning etishmasligi oqibatida ularda o'z joniga qasd qilish niyati uyg'onadi. Yoki ularni bu qarorga kelishga oilalardagi doimiy nizolar, ajralishlar, noto'g'ri tanlangan tarbiya usullari va hokazolar undaydi. Shuning uchun ota-ona o'z farzandidagi holatlarni aniq bilishi va ularning mazkur ko'rinishlardan qay birida turganligini aniqlashi zarur. Bu darajalarni aniqlamasdan turib ularga ko'rsatiladigan tarbiyaviy ta'sirning darajasini ham belgilab bo'lmaydi.

Tarbiyasi qiyin bolani dunyoga keltiradigan psixologik sabablar

Tarbiyasi qiyin bolalar quyidagi sabablar ta'sirida paydo bo'lishadi:

1) Umumiy aqliy taraqqiyotning sustlashishi. Ta'kidlash kerakki, bu o'rinda kasallik nazarda tutilmayapti, balki bola aqlining o'z tengqurlaridan biroz ortda qolishligi nazarda tutilayapti. Bu holat bolada o'z xulq-atvorini to'g'ri tahlil qilishiga xalaqit beradi. SHuningdek, u ma'lum hatti-harakatlarning oqibatlarini bashorat qilishga ham xalaqit beradi.

2) tafakkurning yetarli darajada mustaqil emasligi. Buning natijasida bolada o'ta ta'sirchanlik va o'ta konformlilik (o'zgaralar nima desa ko'nib ketaverishlik) xususiyatlari shakllanadi.

3) bilish faolligining o'ta sustligi, ya'ni biror yangilikni bilishga nisbatan qiziqishning yo'qligi. Bu holat bolada ruhiy ehtiyojlarini qo'nimsiz qilib qo'yadi va ma'naviy qashshoqlikni keltirib chiqaradi.

Boshqa bir ma'lumotlarda tarbiyasi qiyin bolalarning paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi ikkita psixologik holat haqida yoziladi: birinchidan, bolada ichki norozilikni keltirib chiqaruvchi va buzilgan, me'yorga xilof bo'lgan ehtiyojlarni shakllantiruvchi ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilmaslgi bo'lsa, ikkinchidan, shaxsda ehtiyojlarni qondirishning ijtimoiy jihatdan zararli bo'lgan vosita va yo'llarini topishga yoki unuman ulardan voz kechishga (o'zini o'zi o'ldirish orqali) olib keladigan ijtimoiy xavfli dunyoqarashning mavjudligi.

Bolaning biror narsaga ega bo'lishlikka nisbatan qondirilmagan ehtiyoji (masalan, bolalar bog'chasida o'yinchoqlarning yetishmasligi yoki bolalarning zarur bo'lgan va yaxshi ko'rgan narsalari olamiga kattalarning qo'pollarcha aralashuvi ("Bu yaramas narsani qayerdan topding!", "Buni hoziroq chiqarib tashla!" va h.)) bolalarda tajovuzkorlikni rivojlantirishi, o'zi ega bo'lgan narsalarning o'rnini o'zgalarning narsalari bilan qoplashga intilishi mumkin. Erkinlikka nisbatan qondirilmagan ehtiyoj esa tajovuzkorlikka, barchaga nisbatan norozilikka, ijtimoiy talab va normalarga oshkorona bo'ysinmaslikka, uydan qochib ketishga olib keladi. Guruhda va oilada yuksakroq mavqeni egallashga nisbatan ehtiyojning qondirilmaslgi esa o'zini o'zi ifodalashning hazil-mazaxga moyillik, odamlarni masxaralashga intilish, hafsalaning pir bo'lishligi singari turli xil negativ shakllarini keltirib chiqaradi. Masalan, oilada ikkinchi farzandning tug'ilishi munosabati bilan birinchi farzandga e'tiborning susayishi ham unda negativ holatlarni keltirib chaqiradi.

Jamiyatda qabul qilingan tartib-qoidalarni buzish sharoitlari

U yoki bu ta'sirlarga tezroq berilish bolalarga xos narsadir. O'smirlarni kerakli paytda maqbul yo'lga sola olmasak, keyin kech bo'lishi mumkin. Ya'ni bola o'z yo'lini, kelajagini jamiyat hayotiga zid bo'lgan turnush tarzi bilan bog'liq holda tasavvur etsa, uni bu yo'ldan qaytarish jarayoni ancha qiyin kechadi. Shu sababli shifokorlar aytganidek, kasallikni davolashdan ko'ra, uning oldini olish ko'proq samara beradi. Shu sababli ham biz bolalarni deviant hatti-harakatga moyilliklarini ilgariroq fahmlashga alohida e'tibor berishimiz lozim. Aks holda, keyinchalik bolani noto'g'ri yo'ldan to'g'ri yo'lga solish uchun bir necha barobar kuch-g'ayrat, mablag' sarflashga to'g'ri keladi. Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, voyaga etmagan bolalarda deviant hatti-harakat o'z-o'zidan shakllanmaydi. Buning uchun ichki va tashqi omillarning ta'siri bo'lish kerak.

Shu sababli ham har qanday shaxs o'smirlik chog'i, ya'ni endigina voyaga yetib kelayotgan paytdanoq jamiyatdan o'ziga munosib o'rin topishi katta ahamiyat kasb etadi. Aks holda bu narsa noxush oqibatlariga, ba'zan esa og'ir fojialarga sabab bo'lishi mumkin. Yosh yigit-qizlarimizning ishdagi, turmushdagi, oila va jamoa orasida o'z o'rnini topolmaslik holatlari ularning jamiyatda o'z qadrini yo'qotishga olib keladi.

12.2. O'smirni vaqtni to'g'ri taqsimlashga o'rgatish

Xulqi og'ishlikni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan omillar:

Ijtimoiy omillar:

- ❖ erkinlik hamda ijtimoiy tartib qoidalaridan qochish;
- ❖ qulay sharoit qidirish, hissiy xotirjamlik;
- ❖ o'z (men)iga past nazar bilan qarash, boshqalarga tobelik;
- ❖ ota-ona xulq-atvoridan uyalish;
- ❖ ijtimoiy tartib qoidalarini buzish;
- ❖ huquqbuzarlik, bezorilik;
- ❖ mayda og'irlik;
- ❖ fohishalik;
- ❖ giyohvand moddalarni iste'mol qilish;
- ❖ kam ta'minlanganlik, ota-onalarning ishsizligi;
- ❖ bola hayotida ijtimoiy-iqtisodiy tomondan qiyin vaziyatlarga tushishi;
- ❖ jamiyat tuzilmasi;
- ❖ ijtimoiy institutlar;
- ❖ turmush tarzi;
- ❖ ijtimoiy me'yorlar.

Oilaviy omillar

- ❖ ota-ona, o'qituvchi, kattalar va tengdoshlari o'rtasidagi muloqotdagi muammolar;
- ❖ bolalarga kattalar tomonidan diqqat-e'tiborning yetishmasligi;
- ❖ ota-onalar bilan farzandlar o'rtasida o'zaro tushunishning yo'qligi va ikki tomonlama intilishning yetishmasligi;
- ❖ ota-onalarning og'ir va qiz bolalarga nisbatan qo'pol muomalada bo'lishlari;
- ❖ ko'r-ko'rona otalik va onalik mehr-muhabbatining hukm surishi;

- ❖ oila davrasida, muhitida doimiy janjallarning qaror topganligi va ularni bartaraf etishga intilishning yo'qligi;
- ❖ ota-onalarning beqaror his-tuyg'ulari, kayfiyatlari, ularning tartibsiz, tasodifiy xarakterga ega bo'lishi;
- ❖ farzand va ota-onalarning shaxsiy qiziqishlarini o'zaro mos tushmasligi va tubdan qarama-qarshi ekanligi;
- ❖ farzandlar nazarida ota-onalarning salbiy hulq-atvori, ularning ichish va chekislari, giyohvandligi va axloqan buzuvchi qiliqlari;
- ❖ ota-onalarning muntazam ravishda o'zaro janjallari;
- ❖ noto'liq oilalar;
- ❖ bolalar qobiliyatining kattalar tomonidan salbiy baholanishi;
- ❖ ota-onalarning ma'naviy axloqsizligi.

Shaxsiy omillar:

- ❖ o'rtoqlari, sinfdoshlari, boshqa tengdoshlari bilan o'zaro aloqalardagi muammolar;
- ❖ o'z-o'zini tushunmaslik va o'ziga salbiy munosabat;
- ❖ hayotiy yo'nalishlardagi orzu va havaslar;
- ❖ ichki ruhiy yolg'izlik, o'zgalarni tushunmasligi;
- ❖ baxtsizlikdan qiynalish, shaxsiy qiyinchiliklar;
- ❖ shaxsiy muvaffaqiyatsizlik, muammolardan xavotirga tushish, irodasizlik;
- ❖ tashkilotchi emasligi;
- ❖ o'qishdagi qiyinchilik, og'ir vaziyatlarga uchrash;
- ❖ hissiy xavfsizlik "himoya qiluvchi"ni qidirish;
- ❖ spirtli ichimlik ichish va jamoat joyida chekish;
- ❖ toksikomaniya;
- ❖ maktab qoidalarini buzish, dars qoldirish, uyga berilgan vazifani bajarmaslik;
- ❖ mustaqil bo'lishga intilish;
- ❖ o'zgalarga tobe bo'lmaslik;
- ❖ o'ziga ishonchning yetarli emasligi;
- ❖ irodaviy-hissiy jihatdan zaifligi;
- ❖ yolg'izlik, o'zgalarni tushunmasligi;
- ❖ ijtimoiy hulq-atvor ko'nikmasining kamligi;
- ❖ bo'sh vaqtning to'g'ri tashkil qilinmaganligi;
- ❖ o'ziga e'tiborni xohlashi

Fiziologik omillar

- ❖ agressivlik, jahldorlik, asabiylashish va ruhiy zo'riqish;
- ❖ bolaning ko'p kasal bo'lishi;
- ❖ qo'zg'aluvchanlikning kuchayishi;
- ❖ o'z-o'zini boshqara olmaslik;
- ❖ o'zlashtirishda aqlan qolib ketish;
- ❖ o'quvchining aqlan zaiflashishi;
- ❖ psixofiziologik va jinsiy tomondan bir xilda rivojlanmaganlik;
- ❖ tug'ma xususiyatlar;
- ❖ tug'ma nuqsonlar;
- ❖ orttirilgan nuqsonlar.

O'smirlarni to'rta guruhga ajratish mumkin:

1) hatti-harakatda o'zlari anglagan ijobiy qoidalarga tayanib ish tutadigan, so'zi bilan ishi mos o'smirlar;

2) axloqiy tushunchalari qiliqlariga mos keladigan o'smirlar;

3) hatti-harakatlari axloqiy me'yorlar normalar haqidagi bilimlari bilan ajralib turadigan va shu bilimlariga mos harakat qilmaydigan o'smirlar;

4) o'zlari biladigan axloqiy talablar bilan kundalik xulq-atvorining aloqasini tushunmaydigan o'smirlar.

Ota-onalar bu tasnifning mohiyatiga alohida e'tibor berishlari zarur. Mazkur tasnifning so'nggi ikkitasiga taalluqli bolalardan tarbiyasi qiyin bo'lgan bolalar yetishib chiqishi mumkin. Ma'lum ma'noda aytishimiz mumkinki, yuqoridagi tasnifdan kelib chiqib ota-onalar o'z farzandlarining xulq-atvorlariga baho bersalar maqsadga muvofiq bo'lardi.

Deviant xulqli o'smirlarni tarbiyalashda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

Ilmiy tadqiqotlar va hayot tajribalari ayrim axloqiy tushunchalarni noto'g'ri tushunib, shaxsning ba'zi fazilatlarini noto'g'ri baholab, mustaqillikka intiladigan, o'z irodasini namoyish qilishga harakat qiladigan o'smirlar o'zlarida salbiy sifatlarni o'stirishga urinishini ko'rsatadi. Hatto ular o'zlarida shakllangan ijobiy xislatlarni yo'qotishga ham harakat qiladilar. O'qituvchi va ota-onalarning asosiy vazifasi ularning noto'g'ri qarashlariga zarba berish va o'smirlarning adashishlariga yo'l qo'ymaslikdir.

O'smir o'g'il-qizlar shaxsning kamol topishida o'z-o'zini anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki o'zini anglash jarayonida o'ziga

baho berish mayli va istagi o'zini boshqa shaxslar bilan taqqoslash, o'ziga bino qo'yish ehtiyoji paydo bo'ldi. Bular esa o'smirning psixik dunyosiga, aqliy faoliyatiga, tevarak-atrofga munosabatining shakllanishiga ta'sir qiladi.

O'smirlarda o'zini anglashning rivojlanishi shaxsiy xulq-atvorini tushunishdan boshlanib, axloqiy fazilatini, xarakterini, aqliy imkoniyat va qobiliyatini bilish bilan yakunlanadi.

O'smirda o'zini anglash rivojlanishi uchun sinf jamoasi va oila a'zolarining faoliyati muhim ahamiyatga ega. Uning hatti-harakati, o'z kuchiga, mayliga yoshiga loyiq ijtimoiy munosabatlari, muayyan muhitda o'z o'rnini topishga intilishi o'zini anglashning takomillashuviga puxta zamin yaratadi.

O'smirlarda o'zini anglash yangi bosqichga ko'tarilgach, ular o'ziga xos axloqiy namunani tanlaydilar. O'quvchi o'ziga namuna bo'lgan shaxsning xulq-atvori bilan o'zining hatti-harakatini solishtiradi va o'zining ijobiy yoki salbiy jihatlari anglab yetadi. Natijada unda o'zini-o'zi tarbiyalashga bog'liq yana bir muhim xislat vujudga keladi. O'smir o'zini-o'zi tarbiyalashda kitob qahramonlaridan, kinofilm ishtirokchilaridan o'rnak olib, goho ularga taqlid qilib, butun iroda kuchi va xarakter xislatlarini ishga solib, har xil xususiyatlarni egallashga intiladi va bu yo'lda uchraydigan to'siq hamda qiyinchiliklarni engadi. Ana shu davrda oilada ota-onaning bola xarakteridagi nuqsonlarni to'g'rilashdagi roli nihoyatda muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Buning uchun esa ota-onalarda pedagogik-psixologik ma'lumotlar (tushunchalar)ning yetarli darajada bo'lishi talab etiladi. Ma'lumki, ota-onalarning ma'lumot darajalarining turlichaligi, ayniqsa, tarbiyaning bola yoshi xususiyatlariga bog'liqligi to'g'risidagi tushunchalarga ega bo'lmagan oilalarda bolalar xulqidagi o'zgarishlarni ijobiy tomonga o'zgartirish muammosini maktab pedagoglarining yordami va hamkorligisiz hal qilib bo'lmaydi. Maktab rahbarlarining ushbu muammo bo'yicha maxsus pedagogik tizim - o'quvchi shaxsining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan pedagogik prinsip, vosita, usul va metodlar yig'indisidan iborat bo'lgan dasturlarida har bir sinf o'quvchilarining oilalari to'g'risida tahliliy ma'lumotlarga ega bo'lishlari masalani hal qilishga qo'yilgan dastlabki qadam bo'ladi. Buning uchun avvalo sinfdagi bolalarning hatti-harakatlari, o'zaro munosabatlari, darslardagi, jamoat ishlariga ishtiroki, ko'cha-kuyda, ko'pchilik o'rtasida o'zini tutishi,

o'qituvchilar tomonidan uyga berilgan vazifalarni bajarilish sifati va samarasi chuqur tahlil qilinib, har bir o'quvchi uchun ma'lumotlar banki tashkil etilishi lozim. Ana shundagina har bir o'quvchi tarbiyalanayotgan oilaning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, kasbiy sohalardagi holatiga obyektiv baho berish imkoniyati vujudga keladi. O'quvchilarning ijtimoiy kelib chiqishi nuqtai-nazaridan bola tarbiyasiga muhtoj oilalarni aniqlab olish mumkin. Bola tarbiyasida ota-onaning roli va mas'uliyatini talab qilishdan oldin muhtoj ota-onalar uchun maxsus tavsiyalarni ishlab chiqish, seminarlar, trening hamda konsultatsiyalar uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Bu masalada sinf rahbarlarining ota-onalarga beradigan yordamlari doimiy va malakali bo'lishi talab etiladi. Xulqi og'ishgan (deviant) bolalar bilan ishlash tajribasi ota-onalar, pedagoglar o'rtasida keng targ'ib etilishi maqsadga muvofiqdir. Tarbiyaviy munosabatlar jarayonida tarbiyaviy muhit yaratish – shaxsni shakllantiruvchi tabiat hodisalarini anglash, ijtimoiy munosabatlar tizimi, tafakkur hamda turmush tarzi va shaxslararo munosabatlarga kirishish jarayonida har bir tarbiyalanuvchi e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Qo'yilgan tarbiyaviy maqsadning mazmuni va vazifasiga ko'ra o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan qat'iy xulq-atvor ma'yorlari, bilim, e'tiqod, ko'nikma, malaka va shaxsiga xos axloqiy sifatlar hamda xususiyatlar har bir tarbiyalanuvchi tomonidan o'zlashtirilishini ta'minlash zaruriy shartdir. Tarbiya jarayonida tarbiyaning maqsadidan kelib chiqib, tarbiya metodlarini to'g'ri tanlash, tarbiya psixologiyasi, ya'ni pedagogik psixologiyaning shaxsni aqliy, axloqiy hamda estetik jihatdan tarkib topishi va rivojlanishi qonuniyatlarini inobatga olishi komil insonni tarbiyalashning asosiy mezonini ekanligini unutmaslik kerak. Komil insonni tarbiyalash uchun esa pedagogik tushkunlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi, aksincha o'quvchilarda pedagogik ehtiyojni shakllantirish talab etiladi. O'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro pedagogik hamkorlik, pedagogik qadriyatlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'smirlarda kattalik hissining paydo bo'lishi ularning ruhiy taraqqiyotiga salbiy ta'sirimaydimi? Yo'q. Aksincha bu bolaning ma'naviy-ruhiy rivojlanishida ijobiy holat hisoblanadi. O'smirlilik yoshida psixologik jihatdan eng muhim xislat – voyaga yetish yoki kattalik hissining paydo bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Kattalik hissi ijtimoiy-axloqiy sohada, aqliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda,

ko'ngil ochish ifodasini topadi. O'smir o'z kuchi va quvvati chidamliligi ortayotganini, bilim saviyasi kengayotganini anglay boshlaydi. Bularning barchasi unda kattalik hissini rivojlantiradi. Unda g'ashga tegadigan rahbarlikdan o'rinsiz homiylikdan, ortiqcha nazoratdan, zeriktiradigan g'amxo'rlikdan xoli bo'lish istagi vujudga keladi. Mazkur jarayon o'z navbatida kattalar bilan munosabat va muloqotda noxush kechinmalarni paydo qiladi. Sinf jamoasi va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirishgina kattalar bilan o'smirlar orasidagi «anglashilmovchilik g'ovi» ni yo'qotadi.

O'smirlar bilan munosabatda ularning mustaqilligi, faolligi, tashabbuskorligi, o'zini boshqarishni hisobga olib, ortiqcha homiylik, g'amxo'rlik qilmaslik ijobiy samaralar beradi.

O'smirlik davri xususiyatlarini tadqiq qilgan D.B.Elkonin va T.V.Dragunovning ta'kidlashicha, o'g'il va qizlarning bu yoshda o'rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi, tengdoshlari jamoasining hayotiga qiziqishi yorqin namoyon bo'ladi.

O'smirlarning o'rtoqlik va do'stlik tuyg'ulari o'zaro munosabatlarni o'rgangan I.V.Straxov, ularning o'zaro munosabatlarini uchta shaklga: ulfatchilik, o'rtoqlik va do'stlikka bo'ladi. Har bir yuksak tuyg'uni psixologik jihatdan ta'riflab, ularning rivojlanishini bayon qiladi, yuksak, insoniy tuyg'ularning shakllanish sur'ati, barqarorligi o'g'il bolalar bilan qizlarda birmuncha farqlanishini ta'kidlaydi.

V.A.Krutetskiy va N.S.Lukinning fikricha, haqiqiy o'rtoqlik va chinakam do'stlik-mardonavor o'rtoqlik va talabchan do'stlikdir. Bunday o'rtoqlik va do'stlik amaliy yordamni va o'rtog'ining xatolarini to'g'ri, samimiy va ochiq tanqid qilishni taqozo etadi.

O'smirning sinf jamoasi hayotida faol qatnashish uchun intilishi g'oyat katta ahamiyatga ega. Sinf jamoasi a'zolarining o'zaro yordam, birdamlik, hamdardlik, bo'ysunish odati, shaxsiy hamda ijtimoiy qiziqishlari rivojlanadi.

Tarbiyasi og'ir o'smirlarni estetik tarbiyalash ayniqsa zarur, chunki bu ularning his-tuyg'ularining rivojlanishini axloqiy to'g'ri yo'lga yo'naltiradi, ularning ma'naviy ehtiyojlari doirasini o'ta kengaytiradi, bo'sh vaqtlarini oqilona mazmun bilan boyitadi, bolalarni saxiyroq qiladi, ularga ijtimoiy hayotda o'z o'rinlarini topib olishlariga yordam beradi, shu bilan birga, tengqurlari ko'zi oldida jamoatchilikning e'tirof etishiga olib keladi. To'g'ri tashkil etilgan

estetik tarbiya ongda o'z huzurini o'ylash, meshchanlik, yaramas qarashlar, talablar, turli odatlarning singishiga psixologik g'ovni vujudga keltiradi.

Bunday bolalar bilan ishlashda qandaydir alohida forma va metodlar ishlash yoki qandaydir maxsus "tarbiyasi og'ir" guruh vujudga keltirish kerak emas. Buning pedagogik maqsadga muvofiq emasligi haqida bahslashib o'tirishning hojati yo'q. Muhimi boshqa narsada – tarbiyasi og'ir o'smiring qobiliyati, moyilligi, qiziqishi va imkoniyatlarini aniqlab, uning rivojlanishini to'g'ri yo'lga yo'naltirishdan iboratdir.

Tarbiyasi qiyin bolalardagi xulq-atvor nasldan-naslga o'tishi mumkinmi?

Insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tasliqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Lekin inson shaxsining tarkib topishi nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarning ta'sirini ham unitunasligimiz zarur. Odamga nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlari beriladi. Masalan: tanasining tuzilishi, sochi va ko'zlarining rangi, ovozi, gapirish uslublari, ayrim harakatlari tug'ma ravishda berilishi mumkin. Ma'lumki, odamga hech vaqt uning psixik xususiyatlari, ya'ni uning aqliy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan sifatlari nasliy yo'l bilan berilmaydi, deb izohlanadi. Lekin shuni hech qachon esdan chiqarmaslik kerakki, real hayotda ko'pincha insonning xarakter xususiyatidagi salbiy og'ishlar uning nasliy tarkibi bilan bog'liq ekanligiga amin bo'lamiz.

Shu o'rinda shaxs faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarga e'tiborni qaratamiz. Ularni uchga ajratsak bo'ladi: birinchisi, irsiy biologik omillar bo'lib, unga tug'ma xususiyatlar, tug'ma nuqsonlar, orttirilgan nuqsonlar kiradi; ikkinchisi, psixologik omillar bo'lib, ularga bolalarning fikrlash tarzi, emotsional ta'sirlanish darajasi, irodasi, temperamenti, xarakteri, qobiliyati kiradi; uchinchisi, ijtimoiy omillar bo'lib, ularga jamiyat tuzilmasi, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy me'yorlar, turmush tarzi kiradi. Bolaning shaxs sifatida shakllanishi uning yuqorida ta'kidlangan barcha omillarga bog'liq ekan. Demak, bolalar xulq-atvorining salbiy tomonga og'ishida ham bevosita o'ziga xos yuqoridagi uchta omilning o'rni bor. Bolaning xulq-atvori ko'pincha o'z oldiga qo'ygan maqsadlari, qiziqishlari, ideallari va e'tiqodlari majmuida yaqqol namoyon bo'ladi. Xulq-atvordagi o'zgarishlar

bevosita yosh krizis davrlarining kechishi bilan bog'liq yuz berishi tabiiydir.

Boladagi salbiy illatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishda quyidagilarga e'tiborni qaratish zarur:

–birinchi o'rinda, har bir yosh davrni o'ziga xos psixologik rivojlanish darajalarini aniqlab olish lozim;

–ikkinchi o'rinda, bolani tarbiyasidagi sodir bo'layotgan salbiy o'zgarishlarni o'rganib, tahlil qilib borish kerak;

– uchinchi o'rinda, tarbiyasi og'ir bolalarning psixologik rivojlanishini me'yorlashtirishga yo'naltirilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish lozimdir.

Xulq-atvorida “salbiy og'ishlar” kuzatiladigan bolalarning quyidagi turlarini farqlasa bo'ladi:

1. “Esi past” bolalar toifasi. Ularning xulq-atvorida sho'xlik, yoqimsiz hatti-harakatlar yetakchilik qiladi. Uyga kech kelish, aldash, ta'lim muassasasidagi har xil nizoli vaziyatning kelib chiqishiga sabab bo'lishlari, kinoga biletsiz kirishlari, doim janjallashish, atrofdagilarning ko'nglini qoldirish holatlari kuzatiladi va narkotikni tatib ko'rishga moyil bo'ladilar.

2. “Ota-onaning dushmani” toifasidagi bolalar. Bu toifadagi o'smirlar o'z hatti-harakatlari bilan ota-onalarini qiyin holatga qoldiradilar, ularga norozilik hissini ochiq-oydin bildiradilar. Ular ota-onasining munosabatini tushunmaydilar va ularga nisbatan salbiy hissiyotda bo'ladilar.

3. “Axloqsiz bola” toifasidagi bolalar. Bunday o'smirlar ijtimoiy normalarni tan olmaydilar. Ular hissiy va aqliy jihatdan uncha rivojlanmagan, biroq ularning xulq-atvorlarida yaqqol chetga og'ish kuzatilmaydi. Ularda qonunbuzarlar bilan aloqada bo'lishga moyillik bor. Bu holat bolaga nisbatan oiladagi e'tiborsizlik yoki nomaqbul oilada tarbiya topganligi zahirida vujudga kelishi mumkin. Shuning uchun bunday bolalar jinoiy olam me'yorlarini qabul qiladilar va ularga bo'ysinadilar.

4. “Organik” toifasidagi bolalar. Bu toifadagi bolalarda miyada lat eyish yoki aqliy taraqqiyotda ortda qolish xususiyatlari kuzatiladi. Natijada bolaning aqliy rivojlanishi ortda qoladi. Bu esa bolada tartib-intizomni tan olmaslik holatini chaqiradi hamda uning xulq-atvorining buzilishiga olib keladi. Bunday bolalar ko'pincha o'z tengdoshlari bilan muomalada asabiylashadilar va janjallashadilar.

5. "Psixotiklar" toifasidagi bolalar. Bular aqliy etilmagan, kasalmand bolalar bo'lib, ular uchun gallyutsinatsiya, jinoiy harakatlardan xursand bo'lish, buzg'unchi fikrlar xos bo'ladi.

6. "Nasliy buzuqlik" toifasidagi bolalar. Bu toifadagi bolalar birlamchi psixapatlar hisoblanadilar. Ular uchun jinoiy hatti-harakat qilish odatiy holga aylanadi. Nasliy buzuqlarda hatti-harakatlar ilk yoshligidayoq namoyon bo'ladi va ularda ijtimoiy normalarni bajarmaslikka nisbatan tug'ma moyillik bo'ladi. Ularda ma'suliyat hissi bo'lmaydi va ularga ishonib ham bo'lmaydi. Ularni o'zgartirish va ularga yordam ko'rsatish ancha mushkuldir.

Xulq-atvorida me'yorlardan normalardan chetga og'ish kuzatiladigan bolalarga qanday xususiyatlar xos bo'ladi?

Ayrim tadqiqotchilar bolalar va o'smirlarda xulqi og'ishning kelib chiqishida ijtimoiy muhit, oilaviy munosabatlar va tengdoshlar guruhining ta'siri kattadir, deb ta'kidlaydilar. Jumladan, V.V.Kovalev o'smirlar xulqi o'zgarishi psixogen vaziyatning situatsion ta'sirlanishlarini keltirib chiqarishi va bunday vaziyatlarning xulq og'ishining kelib chiqishiga ta'siri haqida gapirib, xulq o'zgarishini keltirib chiqaruvchi psixologik, patologik reaksiyalar xaqida alohida to'xtaladi. U psixologik situatsion ta'sirlanishlarni xarakterologik ta'sirlanishlar o'smirlar xulq-atvori va xarakteridagi o'zgarishlarni keltirib chiqarishlari mumkin deb uqtiradi. Bunday ta'sirlanishlar asosan oila, maktab yoki turli xil uyushgan guruhlar ta'siri tufayli vujudga kelib, ma'lum shaxsga yo'naltirilgan bo'ladi.

O'smirlar va o'spirinlar xulqi og'ishiga bag'ishlangan tadqiqotlarda ko'rsatilishicha ijtimoiy moslashishning izdan chiqishi asosiy sabab sifatida ko'rsatilib o'tiladi. Jumladan o'smir xulqi buzilishi mexanizmining rivojlanishida adaptatsiya (moslashish) va dezadaptatsiya (moslashishning izdan chiqishi)ning o'rnida katta ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan bu ikki tushuncha inson organizmining ichki mexanizmi bilan tashqi muhit o'rtasidagi o'zaro murakkab bog'lanishni ta'minlashda xizmat qiladi. Ijtimoiy-psixologik moslashishning izdan chiqishi deyilganda organizm va tashqi muhit o'rtasidagi murakkab bog'lanishning izdan chiqishiga aytiladi. SHuningdek, xulqi og'ishning kelib chiqishi haqida g'arbda sotsiogenetik nazariya deb nomlangan, o'zimizda esa «nasli buzuq» deb ta'riflanadigan ta'limotning xato ekanligini alohida ko'rsatib o'tish kerak.

Xulqi og'ish xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan manbaalar tahlilidan ma'lum bo'lishicha xulqi og'ish bir qancha turlarga bo'linadi.

Jumladan V.V.Kovalevning fikricha xulqi og'ishning to'rt xil ko'rinishi mavjud:

1. Mavjud tartib, talab va qoidalarga bo'ysinmaslik ko'rinishidagi og'ma xulq.

2. Ijtimoiy muhitga, jamiyat me'yorlariga normalariga nisbatan noroziligini namoyon qilish maqsadidagi og'ma xulq.

3. Mavjud xuquqiy normalarga, qonun qoidalarga bo'ysinmaslik zamirida yuzaga keladigan og'ma xulq.

4. Shaxsning situatsion vaziyatda o'zini boshqara olmay qolishlik va o'ziga shikast yetkazishga yo'naltirilgan og'ma xulq.

Ijtimoiy nazoratning asosiy omillariga quyidagilar kiradi:

1. Ijtimoiy nazoratning uslub va vositalari deviant hatti-harakatning aniq turlariga mos bo'lishi lozim. Bu yerda ijtimoiy nazoratning asosiy vositasi noo'rin hatti-harakatlarga moyil yoshlarning turli xil talablarini qondirishga qaratilishi kerak. Masalan, ilmiy, texnik, shuningdek, ijodkorlikning turli yo'nalishlariga o'smirlarni jalb qilish ularni noto'g'ri yo'ldan qaytarishda muhim omil bo'ladi.

2. Qonunbuzarlik va huquqbuzarlik yo'lga kirgan yoshlarga nisbatan ta'sir o'tkazishning repressiv usullarini ancha kamaytirish lozim. Ozodlikdan mahrum etish insonni ijtimoiy va axloqiy tanazzuliga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli bu jazoni eng oxirgi chora sifatida qo'llash kerak bo'ladi. Demak, yosh qonunbuzarlarga nisbatan ozodlikdan mahrum etish muddatlarini qisqartirish, jazoni ijro etishni kechiktirish, ularni shartli ravishda muddatidan ilgari ozod etish, eng asosiysi o'smirlarni saqlash sharoitlarini yaxshilash talab etiladi.

3. Ijtimoiy, davlat, jamiyat, xayriya va boshqa muassasa va tashkilotlar tomonidan beriladigan yordamning usul va uslublarini takomillashtirish darkor.

4. Yosh avlodni umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar prinsiplari asosida tarbiyalash, vijdon va so'z erkinligi uchun imkoniyatlar yaratish, jamiyatda o'z o'rnini topishga intilishini qo'llab-quvvatlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda ruhiy tushkunlik, hayotda o'z o'rnini topa olmaslik yoshlar uchun hayot

mazmunini yo'qotishi, ularning hatti-harakatlarida deviantlik xarakteri shakllanishiga olib keladi. Bu ishda mahalla faollari, vositachilik, o'zaro yordamga tayyor xayriya tashkilotlari, turli xil jamoat tashkilotlari o'smirlar sodir etgan jinoyatning og'ir-engilligiga qarab ma'muriy jazo organlari vakolatlarini o'z zimmalariga olishlari mumkin.

5. Hozirgi zamon kompyuter texnikasi zamoni deyilmoqda. Yoshlar turli xil kassetalar, axloq me'yorlariga zid kinofilmlarni, zo'rlik, zo'rvonlik, fohishabozlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikni targ'ib etuvchi video mahsulotlarni ko'rishyapti. Bundan buyog'iga yuqoridagi illatlarni targ'ib etuvchi bunday narsalarni o'lkamizga kirib kelishi va yoshlar o'rtasida tarqalishi ustidan qattiq nazorat o'rnatish darkor.

6. Totalitar tuzum sharoitida o'sib, ongi shu tuzumga mos ravishda shakllangan fuqarolarning mentalitetini o'zgartirish ham yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

7. Jinoyat sodir etgan, tarbiyasi og'ir, deviant xulq-atvorli xarakterli bolalar bilan ishlaydigan huquq-tartibot idoralari xodimlari, ayniqsa, jazoni o'tash joylaridagi yosh huquqbuzarlar bilan ishlovchilar, shuningdek, ijtimoiy-pedagoglar, ijtimoiy-psixologlar, narkolog-shifokorlar, ya'ni deviant xulq-atvorli bolalar bilan ishlaydigan barcha ijtimoiy soha vakillarini tayyorlash va qayta tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Agressiv xulqni «yomon» xulq bilan bir xil hisoblash mumkin emas. Og'ir, xavfli vaziyat paydo bo'lganida agressivlik himoya vazifasini, ba'zida esa vaziyatni bartaraf etuvchi vazifani bajaradi. Agressiv xulq ayniqsa bolada yoshga xos bo'lgan o'tish davrida kuzatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, yosh davrlari krizisi paytida bolaning yashashi qiyinlashadi, har qanday murakkab vaziyatda bola qiyinchilikni his qiladi va shu sababli agressiv xulqning elementlarini kuzatish mumkin. Bu me'yordagi normadagi bolaga ham, agressiv xulqli bolaga ham birdek tegishli. Affektiv buzilish bo'lganida agressiya odatiy hodisaga aylanadi, hatto xulq-atvorning birdan bir shakli bo'lib qoladi. Biroq bunga qaramasdan, bola xulqida agressivlikning bor bo'lishi ular bilan o'zaro munosabatda qiyinchilik tug'diradi. Agressiv tendensiyalarni tasodifiy salbiy holat deb baholab bo'lmaydi.

Shuni esda tutish kerakki, affektiv taraqqiyot jarayonida bola aktivligi qonuniy ravishda oshishi mumkin. Odatda, kattalar yordamida o'tkazilgan psixokorreksiyaning bu zaruriy bosqichida bola o'zini qurshagan reallik bilan nisbatan adekvat turdagi muloqotni o'zlashtirishi mumkin.

Bola agressiyasini korreksiya qilishni uning sababini aniqlashdan boshlash lozim. Agar agressiya emotsional motivatsion sferaning buzilish sababli bo'lmasa korreksion faoliyatni uni yo'qotishga emas, balki salbiy oqibatlarga olib keluvchi agressiv xulqni yumshatish va uning namoyon bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka qaratish lozim. Shu bilan birga kattalarni uning agressiv reaksiyasiga adekvat idrok qilishga tayyorlash lozim.

Boshqa holatda, ya'ni agressiya emotsional motivatsion sferaning buzilishini namoyon bo'lishi bo'lsa, ota-ona harakati bolaning mustahkamlanmagan agressiv harakatiga yo'naltirilishi lozim. Ularga quyidagicha ta'sir ko'rsatish mumkin bo'ladi:

1. Agressiyaga moyillikni e'tiborga olmay qo'yish, unga atrofdagilarning ahamiyat bermasligi diqqat qaratmasligi.

2. Agressiv harakatlarni o'yin mazmuniga kiritish va unga yangi emotsional mazmun berish. Bu orqali bolaning atrofdagilarga zarar etkazmagan holda agressiv moyilligini chiqarib yuborish (masalan, qaroqchi va kazaklar o'yinida agressiv xulqli bolaga qaroqchi rolini berish).

Odamovilik – og'ish bo'lib, muloqot doirasining torayishi, atrofdagilar bilan emotsional munosabatda bo'lish imkoniyatining kamayishi, yangi ijtimoiy munosabatlarni o'rnatishda yosh davrlariga xos bo'lgan qiyinchiliklar bilan namoyon bo'ladi.

Bu og'ishning sababi quyidagilar bo'lishi mumkin: uzoq davom etgan stress (masalan ota-onaning ajrashishi), hissiy muloqotning yetishmasligi (masalan, uzoq vaqt kasalxonada bo'lish, yoki ba'zan bolaning ota-ona uchun kutilmagan yoki istalmaganligi, ota-onaning bolaga mehr ko'rsatmasligi), xissiy doiraning emotsional sferaning o'ziga xos individual patologik xususiyati (psixik jarayonlarning sustligi va h k).

Odamovilik bolaning munosabat o'rnatishi va uning davom ettirish imkoniyatini kamaytiradi, tez-tez ota-onasi va tengdoshlariga, odamlarga salbiy munosabat bildiradi chaqiradi. Bu bolaning ahvolini yanada chuqurlashtirib, og'irlashtirib yuboradi. Odamovi bola

yolg'izlikda yashashga o'rganib qoladi va bu uning shaxs sifatida shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Muloqotga ehtiyojni emotsional kontakt bosadi, odamovilik bolani ijtimoiy ta'sirlardan himoya qiladi. Agar bola juda ta'sirchan bo'lsa odamovilik uning psixikasini zo'riqishdan himoyalaydi.

Odamovi bola qovog'i solingan, norozi bo'lib ko'rinadi. Shu sababli ota-ona «Biz unga barcha sharoitni yaratib berganmiz, u yana nimadan norozi» deb xafa bo'lishadi. Bu holatda ota-onaning «minnatdorlikka munosiblikni» da'vo qilishlari bolaning ahvolini battar og'irlashtirib yuborishi mumkin. Bola bu narsani o'zining olamiga bostirib kirish deb baholaydi. Bolaning «Nimaga men bilan gaplashmaysiz, nimaga mening ko'zinga qaramaysiz» kabi savollari ular bilan munosabat o'rnatishga to'sqinlik qiladi. Odamovilik uyatchanlikdan sifat darajasi bilan farq qilganidek autizmdan ham farqlanadi. Uyatchanlik ijtimoiy muloqotga kirishishning yaxshi shakllanmaganligi natijasi. Shu sababli uning korreksiyasi bola ta'limiga muloqot malakasini qo'shish, o'zgaralar harakatini tahlil qilish va o'zlashtirishni eplay olish xolos. Ularga quyidagicha ta'sir ko'rsatish mumkin bo'ladi:

1. Buzilishga olib kelgan sabablarini bartaraf etish.
2. Bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyojini, kattalar va tengdoshlar bilan munosabatini tiklash yoki qayta qurish.
3. Bolaning oila va tengdoshlar guruhi bilan munosabatlarini tartibga solish (nafaqat bolani boshqa odamlarga «o'girish», balki bola ular o'ylaganidek, yomon yoki yovuz emasligini ko'rsatish).
4. Bolaning muloqot malakasi ta'limi va aloqa o'rnatish.

Bolaning qo'rqaverishdan xolos bo'lish yo'li

Bu masalada ota-onalarning qilgan nasihatlari ko'p hollarda hech qanaqa yordam bermaydi, ammo kattalarning qo'rquv obyektiga bo'lgan munosabati bolaga ta'sir qiladi. Qo'rquv emotsional o'tkazish mexanizmi yordamida kattalar munosabati orqali o'tkaziladi. Ba'zan katta odam tasodifan bolaga qanaqadir qo'rquvni yoqtirishi mumkin (masalan, bola itga yaqin turganida qichqirib yuborish). Shu mexanizm yordamida o'tkazilgan qo'rquv orqaga qaytarilishi mumkin. Kamroq qo'rqituvchi obyektga qisqa jumla bilan ta'kidlab, ta'sirli imo-ishora bilan qo'rquvni olib tashlash mumkin. Masalan, bola qo'ng'izdan qo'rqsa: «Ket qo'ng'iz, xalaqit berma, biz juda bandmiz», yoki

vodoprovod trubasi guvillasa: «Guvillashni bas qil, bu behuda». Bunda fikr muhim emas, balki intonatsiya, shu soʻzning aytilishi bolaga ishonch va xotirjamlikni yuqtirishi kerak.

Agar bola doimiy ravishda ezilgan, salbiy emotsiyalarni his qilayotgan boʻlsa, bolani ijobiy emotsiyalarni his qilishga oʻrgatish asosiy vazifa hisoblanadi. Bunga har xil oʻyin metodlari bilan erishish mumkin. Agar bola oʻyin faoliyatining taraqqiyotidan ortda qolgan boʻlsa, qoloq boʻlsa, tengdoshlari kabi oʻynay olmasa, bola bilan uning imkoni yetguncha oʻynash kerak. U bilan bir oʻyinni oʻtkazish, ayni daqiqada bolaning emotsional tonusini oshirish, u bilan ertangi kungi oʻyin haqida kelishib olish kerak.

Kutish oʻtkazilgan oʻyindan ijobiy samara olishga yordam beradi va hatto uni kuchaytiradi. Kutishda bolaning odatdagi holatidan emotsional toni yuqori boʻladi. Har bir yangi oʻyin, sayr va shu kabilar samaradorlikka erishishni mustahkamlaydi. Oʻyinni kengaytirish, unga yangi elementlarni qoʻshish bolada ijobiy emotsiya vujudga keltiradi. Bu metod faqatgina qoʻrquvning korreksiyasiga tegishli emas, uni deyarli barcha bola shaxsining emotsional motivatsion sferasi buzilishida qoʻllash mumkin.

Bola umumiy kechinmalari darajasini oʻyin metodi yordamida oshirishning yana bir vazifasi korreksiya olib borayotgan ota-onaning bolani ishonchini qozonishi talab qilinadi. Chunki ishonch korreksiyaning samaradorligi ehtimolini kuchaytiradi. Ishonchni his qilish bola psixikasiga yaxshi taʼsir qiladi.

Boladagi qoʻrquv hissini yoʻqotishda taqlid va yuqtirish ham muhim ahamiyatga ega. Bola nafaqat kattalarning hatti-harakatlariga taqlid qiladi, balki ularning baho berishlarini yuqtiradi ham. Agar katta odam ovozida qoʻrquv bilan biror narsa haqida gapirsa bu emotsional holat bolaga ham oʻtadi va u ham biror narsadan qoʻrqishni boshlaydi. Shu sababli bolaning atrofidan hayajonli, asabiy kishilarni uzoqlashtirish kerak, yoki ular oʻzlarining psixik holati bilan shugʻullanishi lozim. Uyda katta odam bemor boʻlganida bolani davolash befoyda boʻlgani kabi bola atrofida emotsional beqaror odam boʻlganida bolaga yordam berish samarasiz.

Nima uchun bolalar aynan oʻsmirlik yoshida spirtli ichimliklar isteʼmol qilishni boshlaydilar yoki giyohvand narkotik moddalarini isteʼmol qilishadi?

O'smirlik yoshidagi bolalarda ichkilikka nisbatan moyillik muammosi alohida qaraladigan muammo emas, balki u ko'plab noto'g'ri xulq-atvorlarni keltirib chiqaruvchi yoki ularni amalga oshirishga boshlovchi omil sifatida qaraladi. Bunda erta ichkilikka berilish keyinchalik alkogolizmni keltirib chiqarishi tayin. Bu holat albatta turli xil ruhiy buzulishlarga olib keladi.

Ma'lumotlarga qaraganda, alkogolizm bilan kasallangan kattalarning 80%i ichkilikka moyillik aynan o'smirlik davrida boshlanganligini ta'kidlashadi. O'smirlardagi ichkilikka nisbatan qiziqishning ortishini turli xil sabablari bor. Shulardan asosiy ikkitasini alohida ta'kidlamoqchimiz.

Birinchisi, o'smir shaxsida og'ishning mavjudligi va qandaydir ruhiy buzilish. Mazkur sabablar ta'sirida o'smir o'zini insoniy normalar bo'yicha emas, balki ularni buzgan holda hayotda sinab ko'rmoqchi bo'ladi, shodlikni shu yo'l bilan topmoqchi bo'ladi, kutilmagan hissiyotlarni his qilmoqchi bo'ladi.

Ikkinchi sabab shundaki, aynan shu yosh bosqichida o'smir organizmida keskin gormonal va psixik o'zgarishlar kuzatiladi. Bu holat ularda yashirish, ba'zida tug'ma kasalliklarni yuzaga chiqaradi. Natijada o'smir bu holatlardan uzoqlashish uchun o'zini ichkilikka uradi. Har bir ota-ona o'z farzandidagi, ayniqsa o'smir yoshidagi farzandidagi har bir mayda-chuyda o'zgarishlarga e'tiborni qaratmog'i zarur.

Bolaning ichkilikbozlikka berilishiga olib keluvchi sabablar quyidagilar ham bo'lishi mumkin:

a) bolada bekorchi vaqtning ko'pligi va ota-ona tomonidan uning nazorat qilinmasligi;

b) bolaning o'zidagi mavjud muammolarni spirtli ichimlik iste'mol qilish orqali vaqtinchalik unutishga harakat qilishi va buning natijasida unda irodasizlik ortib, spirtli ichimlikka ruju qo'yishi;

c) boshqalardan ajralib turishga harakat qilishi, spirtli ichimlikni oshkora ravishda ichish orqali o'z hatti-harakatlarining boshqalarnikiga o'xshamasligini namoyish etishga harakat qilishi;

d) uyda mehmonlarni kuzatib bo'lgandan keyin, bolalarning qolgan spirtli ichimlikni, jumladan aroq, vino yoki pivoni ichib ko'rish yoki yashirib qo'yib ichishi natijasida unga o'rganib qolishi;

e) bola organizmining spirtli ichimlikni iste'mol qilgan vaqtida rohatlanishi, huzur qilishi natijasida bolaning uni yana takror iste'mol qilishga xohishi paydo bo'lishi;

f) katta yoshdagilarning bolani savdo do'koniga spirtli ichimliklarni olib kelish uchun jo'natishi va do'konlarda bolalarga spirtli ichimliklarning sotilishi;

j) bolalardagi spirtli ichimliklarni ko'p iste'mol qilish bo'yicha bahslar natijasida ularning surunkali ichkilikbozlikka kirib qolishi;

h) ota-onaning bolaga haddan ziyod mehr qo'yishi natijasida kelagidan ortiq ishonishi;

i) ota-onaning bolaga ehtiyojidan ortiq ko'proq pul berishi va bola tomonidan uning sarflanishini nazorat qilmasligi va boshq. ***Bolaning ichkilikbozlikka berilganining sababini o'rganishda uning avlodida ichkilikka ruju qo'yganlar bor-yo'qligi o'rganilishi shart.***

Bolaning giyohvandlikka berilishiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

a) bolada bekorchi vaqtning ko'pligi va ota-ona tomonidan uning nazorat qilinmasligi;

b) bolaning giyohvandlik vositasi yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilib ko'rishga bo'lgan qiziqishi, uning ta'sirini o'zida sinab ko'rishga intilishi;

c) boladagi stressga chidamlilikning pastligi, tortinchoqlik, itoatkorlik yoki uning aksi – tez asabiylashishi;

d) ota-onaning giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishi;

e) bolaning turli xil norasmiy o'smirlar guruhlarining ta'siriga tushib qolishi, ularga tobe bo'lib qolishi;

f) bolaning chekish, surunkali ichkilikbozlikning mantiqiy davomi sifatida giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishi;

j) ota-onaning bolaga haddan ziyod mehr qo'yishi natijasida unga keragidan ortiq ishonishi;

h) ota-onaning bolaga ehtiyojidan ortiq ko'proq pul berishi va bola tomonidan uning sarflanishini nazorat qilmasligi va boshqalar.

12.3. Marginal shaxs tushunchasi va marginallik maqomi

Shuni ta'kidlash joizki, mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlardan biri bo'lmish – “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish” tamoyili bosqichma-bosqich amalda o'z ifodasini topayotganligi, o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy qadriyatlar va

an'analar bilan komil inson sifatida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Chunki, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi ma'naviyat va ma'rifat, tarbiya va axloq sohasida, shaxsni muntazam kamol topishi uchun jamiyatning har bir bo'g'ini uzluksiz ish olib borishi kerak. Mazkur hayotiy haqiqat jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanib, o'zida yaxlit bir tizimni mujassam etishi lozim. Buning diqqat markazida ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat va madaniyat kabi boqiy qadriyatlarning turishi e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

Biroq, ayni paytlarda ilm ahli va zamonaviy olim handa tadqiqotchilarning o'zaro munosabatlari jarayonida "Marginal", "Marginal shaxs" yoki "Marginallashgan insonlar" kabi atamalarni keskin ishlatilishini uchratmoqdamiz. "Marginal" - bu nima yoki bu kim? Ushbu tushunchani tadqiq etganda turli xil yangicha qarashlar, fiklar va munosabatlar aniq bo'ldi:

1. "Marginal" (lotin tilidan "Margo") - chet, chekka degan ma'noni anglatadi. Marginal inson deb - ikki bir-birni inkor etadigan ijtimoiy guruh, tizim, madaniyat, me'yor yoki qadriyatlar orasida qolgan insonga aytiladi²⁶.

2. "Marginallashish" fransuz tilidan "marginal" - chegarada, chetda, ya'ni ikki muhit (jarayon) chegarasida qolgan yoki o'z holati jihatdan hech bir ijtimoiy qatlamga, guruhga mansub bo'lmagan insonlar tushuniladi²⁷.

3. Marginal inson esa jamiyat taraqqiyotidan keskin orqaga qolgan, ma'lum bir hayotiy maqsad va g'oyaga ega bo'lmagan kishilarga nisbatan ishlatiladigan atamadir. Bular misoliga ko'cha-kuyda yashaydigan uysiz, qarovsiz, e'tibordan chetda qolgan (*rus tilida "bonij", "lyumpen", "brodyaga"*) insonlar ham kiritilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, zamonaviy jamiyatda marginallikning quyidagi ko'rinishlari mavjud²⁸:

-madaniy (turli xil madaniyatlar kesishuvi yoki chegarasida qolgan insonlar jamoasi);

²⁶ Volkov V.V. O konsepsiyax praktik v sotsialnix naukax // Sotsiologicheskix chteniua. M., 1997. Vip.2.

²⁷ Psixoterapevticheskaya ensiklopediya. // Pod red. B.D. Karvasarskogo. SPb.: Izd-vo "Piter", 2000.

²⁸ Popova I.P. Novie marginalnie gruppi v Rossiyskom obshestve (teoreticheskie aspekti issledovaniya). Sotsiologicheskoye issledovaniya, 1999, 7, s. 62.

–milliy (ikki millat qadriyatları, an’ana va urf-odatları orasida qolmoq);

–diniy (ma’lum ishonch, e’tiqod, imonning yo’qligi yoki mazkur diniy jarayonlar orasida qolmoq);

–irqiy (ikki irq orasida qolib o’z mansublik holatini va qay bir irqga tegishli ekanligini aniqlay olmaslik);

–g’oyaviy (turli qarama-qarshi g’oyalalar orasida qolish va tanlov kabi imkoniyatning yo’qligi);

G’arb davlatlarida olib borilgan ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar shuni ko’rsatayapdiki, har bir shaxs marginal holatga (“marginal status”ga) tushishi mumkin. Ba’zi bir insonlar o’z kuchi, irodasi, sabr-qanoati va imkoniyatlari ishga solib bu holatdan chiqsa, ba’zilari esa – marginal holatdan ancha vaqtgacha chiqa olishmaydi yoki qolib ketishadi. G’arb mamlakatlarida bu holatga tushgan imkoniyatli insonlar tajribali psixologlar ko’magidan foydalanib o’z qadriyatları va orzu-umidlarini tiklashadi.

Biroq, zamonaviy jamiyatning axborotlashishi va g’oyaviy xurujlarni rivojlanishi natijasi butun bir yirik omma ham “marginal” holatga tushib qolishi mumkin va buning oqibatlari esa ancha ayanchli kechadi. Bu omma vakillarida o’zgaruvchanlik, beriluvchan, turli xil yot g’oyalarga bo’ysunuvchan, o’zligini anglay olmaydigan va imuniteti zaif kabi kishilar bo’lib qoladi.

XXI-asr turli xil axborot tahdidlari davrida sun’iy ravishda odamlarni ongiga ta’sir o’tkazish va ularni “marginal” (“manqurt”) holatga tushirish jarayonlari amalda sinalmoqda. Ma’lum bir norasmiy guruhlar tomonidan e’tibordan chetda qolgan qatlamlarni, ijtimoiy-siyosiy hamda diniy munosabatlarga nizo va qarama-qarshilik kabi salbiy illatlarni tarqatishadi. Ushbu jarayonlardan ogoh bo’lmagan ayrim qo’shni va birodar davlatlar tarix silsilasida o’z xalqlari oldida mazkur jarayon uchun javobgar bo’lib qolishdi.

Dunyoda bo’lib o’tayotgan jarayonlardan shuni xulosa qilib aytsa bo’ladiki, agar davlatda tartib, barqarorlik, tinchlik va totuvlik, millatlararo bag’rikenglik hamda inson huquqlari kabi umuminsoniy qadriyatlar hukm surishi ta’minlanar ekan, yoshlar tarbiyasi otabobolarimizdan yetib kelgan ma’naviy boyliklar bilan to’ldirib borilar ekan, hech qanday marginal, ya’ni oraliq holatlarning ommaviylashib ketishidan xavotir olmasa ham bo’ladi.

Shu o'ringda, davlatimizda olib borilayotgan tub islohotlar va o'zgarishlarni inobatga olib o'z xulosamni davlatimiz rahbari fikrlari bilan yakunlamoqchiman: "Odamlarimiz uchun muqaddas bo'lgan ma'naviy va diniy qadriyatlarni tiklash, ko'p asrlik olijanob urf-odatlarimiz va an'analarimizga tayanib ish ko'rganimiz qadimimizni rostdash imkonini berdi, mamlakatimizni parokandalik va boshboshdoqlik, xalqimiz tabiatiga yot bo'lgan ekstremizm va aqidaparastlik botqog'iga botib ketish xavfidan saqlab qoldi.

Me'yoriy - qadriyat tizimining madaniyatlararo aloqalari ijtimoiy yoki texnologik siljishlar va boshqa omillar ta'siri ostida bo'shashishi natijasida yuzaga kelishi. Muayyan ijtimoiy kontekstga bog'liq tarzda marginallik deganda turli (ko'pincha nizolashuvchi) ijtimoiy guruhlar ta'sirida yoki individning ikki va undan ortiq ijtimoiy guruhlar ta'alluqliligi bilan bog'liq mavqega yoxud alohida xulq-atvor, ya'ni ular o'zaro harakat qiladigan sohada yuzaga kelishi tufayli paydo bo'ladigan o'ziga xos vaziyat tushuniladi. Marginallikka sabab, ikkilanganligi oqibati sifatida qaraladi.

Shulardan birinchisi tegishli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi ijtimoiy masofaning sezilarli darajada ekanligi (ya'ni ular ko'zlayotgan maqsadning sezilarli farq qilishi, ular amalda egalik qiluvchi resurslar o'rtasidagi, shuningdek, unga kiruvchi individlar uyg'unlashuvini ta'minlovchi vositalarning orasidagi katta farq), ikkinchisi - ularning uzoq vaqt va har tomonlama mehnatning shakllangan, taqsimlanishi taqozo etgan o'zaro hamkorligi. Marginallik xulq-atvorning ijtimoiy tartiblanganligining buzilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, shuningdek, ular yuzaga keltirgan g'ayriijtimoiylik (tajovuzkorlik, egosentrizm) yoki salbiy ruhiy holat (bezovtalik, biqlik) tufayli ham namoyon bo'lishi mumkin.

Shu munosabat bilan marginal guruhlar (nochor oilalar, yetimlar, nafaqaxo'rlar, nogironlar, kasallar, daydilar, muhojirlar, qochoqlar, etnik ozchiliklar va b.) ijtimoiy ishlar obyektlaridan hisoblandi.

Marginal shaxs (lot. - arosatdagi shaxs) - qandaydir ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi oraliq vaziyatni egallovchi individdir. Bunday vaziyat marginal shaxsga uning xulq-atvori va ruhiyatiga muayyan tamg'a bosadi.

"Marginal shaxs" atamasi amerikalik sotsiolog R.Park tomonidan 1920 yillarning ikkinchi yarmida mulatlarga nisbatan birinchi marotaba qo'llangan. Bular, uning fikricha, o'zining jamiyatda egallab

turgan mavqeiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga, ya'ni bezovtalik, tajovuzkorlik, shuhratparaslik, qiziqqonlik, tortinchoqlik va egoistik jihatlariga ega bo'lganlar.

Marginal shaxs muammolari XX asrning 30-yillarida E.Stoukivist tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u sotsiomadniy nuqtai nazarda bo'lgan. Uning nuqtai nazariga ko'ra, ijtimoiy guruhlardan tashqari (bular jamiyatda yetakchi o'rinni egallagan) yana bir qator bo'ysunuvchi guruhlar ham mavjud (masalan, etnik ozchilik). Yetakchi guruhlariga uyg'unlashishga intilib, bo'sundirilgan ijtimoiy guruh a'zolari ularning madaniy andozalarini o'zlashtirishga harakat qilgan. Natijada madaniyatlar qo'shiluvi yuz beradi, bu marginal vaziyatni muqarrar qilib qo'yadi. Ular ustunlik qiluvchi guruhning chekkasida turadi va yetakchi guruh ularni to'liq qabul qilmaydi, shuningdek, tegishli bo'sundirilgan guruh ham ularni chekinganlar sifatida rad etadi. Madaniyatlar qarishmasi bo'lgan Marginal shaxslar teng darajada obyektiv ravishda hech bir ijtimoiy guruh bilan tenglashib keta olmaydi. Vaziyatga ko'ra, marginal shaxs ijtimoiy-siyosiy harakat yetakchisi vazifasini o'tashi mumkin yoki abadiy dashnom tagida qolib umr kechirishi ham mumkin. Keyingi vaqtlarda bu muammo faqat sotsiolog va psixologlarnigina emas, balki marginal shaxsni o'z faoliyatining muhim obyekti sifatida qarovchi ijtimoiy xodimlarning e'tiborini ham jalb qilmoqda.

Marginal vaziyat (lot. - chegaraviy holat) - tashqi va ichki sharoitlar tizimi, bunda shaxs ikki va undan ortiq ijtimoiy unumlashmalar o'rtasidagi chegarada turadi va o'zini ulardan hech birining to'laqonli a'zosi deb his etmaydi. Marginal vaziyat ijtimoiy, etnik, kasbiy va hokazo bo'lishi mumkin.

Ko'pincha marginal vaziyat migratsiyalarda yuzaga keladi. Muhojirlar odatdagi marginal shaxslardir. Marginal vaziyatga tushib qolgan shaxs marginal maqomga ega bo'ladi, ruhiy ikkilanganlikni a'zo guruhlar va referent guruhlar o'rtasida, ikki va undan ortiq a'zoli guruhlar o'rtasida, shaxs bajaruvchi ijtimoiy vazifalar o'rtasida, aniq va tasavvuriy ijtimoiy vazifalar o'rtasida his etadi. Marginal vaziyat ijtimoiy nizolarga sabab bo'lishi, lekin ijtimoiy samarali harakatga ham olib kelishi mumkin: vaziyat shaxsning ijtimoiylashuvi va moslashuvi darajasi bilan belgilanadi, ya'ni davomiylik, ichki va tashqi nizolarning keskinligi va shakli ko'p jihatlar shaxsli-individul xususiyatlarga bog'liqdir. Marginal vaziyatni shaxs oldiga ijtimoiy va

ma'naviy tanlashdek muammoni, o'z ijtimoiy mavqeini belgilash uchun samaralilashish va moslashish vositalaridan foydalanish masalasini qo'yadi. Ijtimoiy ishda marginal vaziyat o'rganish ijtimoiylashish va moslashish muammolari bilan, ijtimoiy mavqelar va shaxsning ijtimoiy ahamiyatini belgilash hamda turlarga ajratish bilan bog'liq.

Aholining marginal guruhlari - jazoni ijro etish muassasasidan ozod bo'lgan va aniq turar joyi bo'lmagan shaxslar; ijtimoiy omil (alkogolizm, giyohvandlik, qarovsizlik va h.) bo'yicha jamoatchilik nazoratini talab qiluvchi fuqarolar; mehnat faoliyatiga jalb etilmagan yoshlar; "quyushqondan tashqari" xulq-atvorli shaxslar. Mehnat bozorida mustaqil mehnatga joylashish imkoniyati juda oz bo'lgan aholining har qanday guruhini aholining marginal guruhlariga kiritish mumkin (masalan. bolalari bo'lgan yolg'iz onalar va ayollar, yetimlar, buzilgan oiladagi bolalar, malakasiz ishchilar, qamoqdan bo'shatilganlar va b.).

Ish joylarining taqchilligi muayyan kasbdagi malaka darajasi yuqori (yuqori malakali boshqaruvchilar; konversiya tufayli bo'shagan xodimlar va h.) shaxslar marginal guruhini tashkil qilishi mumkin. Shunga ko'ra mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga bog'liq holda aholining marginal guruhlari chegarasi ancha beqaror bo'lishi mumkin.

Ma'lum bir jamiyatning marginal holatni o'rganishda ta'sir etayotgan sotsiomadaniy omillardan biri bu "odat" hisoblanadi. Jamiyatda o'rnatilib qo'yilgan odatlarga bo'ysunmaslik yoki ushbu odatlarga to'g'ri kelmaslik ham marginallik belgisidir.

Sotsiologiya fanida odat quyidagi jarayonlar fenomeni sifatida o'rganiladi. Ya'ni: - Odat kishilar faoliyati va xulq-atvorini ijtimoiy tartibga solishning jamiyatda tarixan qaror topgan shakli, ijtimoiy fanlarning bir turi. Ko'pincha jamiyatdagi ijtimoiy hayotda o'xshash vaziyatlarning takrorlanishi odatlar shakli, xulq-atvor stereotiplari (bir qolipdagi me'yorlar) yuzaga chiqishiga olib keladi, bular odat tarzida keyingi avlodga meros bo'lib o'tadi.

Jamiyat sanoatlashishiga qadar odat individning ijtimoiylashish vositasi bo'lgan. Odat individning ijtimoiylashuvi vositasi hisoblanadi, texnologik, ijtimoiy va madaniy tajribaning avloddan avlodga o'tishida muhim omil bo'ladi. Odat ijtimoiy nazorat, guruhiy jipslanganligining muayyan shakllarini saqlaydi va mustahkamlaydi, diniy, etnik va

boshqa qabul qilingan umumiylik barqarorligini ta'minlaydi. Texnologik va ishlab chiqarish malakalari (tegishli yo'riqnomada qayd etilmaganlari), ijtimoiy-siyosiy faoliyat shakllari, nikoh-oila turmushi tarzi, odamlarning hayotdagi o'zaro munosabatlari, diniy urflar va odatlari va h.lar ham odat hisoblanadi.

Ayrim odatlar davlat-huquq tizimida mustahkamlanishi mumkin, biroq g'ayriqonuniy tavsifga ham ega bo'lishi ehtimoli yo'q emas. Jamiyat rivojlanishi mobaynida yangicha odatlar shakllanadi, ular ayrim eski odatlarni chetga suradi yoki zid tarzda mavjud bo'ladi.

Hozirgi sharoitlarda odat ta'sir doirasi toraygan, chunki ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi sifatida ijtimoiy institutlar (davlat, huquq, fan, ommaviy axborot vositalari, ta'lim va h.) asosiy o'rinni egallamoqda. Odat hamon axloq, turmush, fuqaroviy udumlar, etnik madaniyat sohasida muhim ahamiyatga ega. Shakllangan turmush tarzining kutilmaganda keskin o'zgarishi, odatda, asabiy holatni yuzaga chiqaradi va chuqur kechinmalar bilan bog'liq bo'ladi.

Bunday vaziyatda inson faqat bevosita jismoniy yordamgagina emas, balki ma'naviy-ruhiy hamdardlikka ham muhtoj bo'ladi. Bunda murakkab ruhiy vaziyatlarda kommunikativ layoqatni rivojlantirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-ruhiy mashq usullari katta imkoniyatga ega hisoblanadi va refleks tarzidagi ko'nikmalarni shakllantiradi.

12.4. Marginalning ijtimoiylashuv muammolarini o'rganishda sotsiomadaniy yondashuvlar

Jamiyatda shaxs sotsial tarixiy qadriyat sifatida ko'rinishi va uning elementlari esa doimo rivojlanishi, o'zaro ta'sirida bo'lib, yaxlit bir tizimni tashkil etishi mumkin. Jamiyat va shaxs maqsadlari orasidagi bog'lovchi u yoki bu sotsial tizim bo'lishi mumkin. Shaxsning jamiyatga, sotsial jamoalarning turli tiplariga madaniyat elementlari ijtimoiy norma va qadriyatlarni o'zlashtirish orqali sodir bo'ladigan jarayon bu shaxsni ijtimoiylashuvi deb ataladi.

Shaxsning jamiyatga, ijtimoiy jamoalarning turli tiplariga madaniyat elementlari, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish orqali sodir bo'ladigan jarayon ijtimoiylashuv deb ataladi. Individning sotsial tashkilot elementi bo'lishi qay tarzda ro'y berishdan, bir tomondan, sotsial tashkilotning shaxsga ta'sir etishi qobiliyatni shakllanishi, ikkinchi tomondan shaxsning boshqa odamlar ta'siriga berilishi qobiliyatini shakllanishiga bog'liq bo'ladi.

Shaxs ijtimoiylashuv jarayoni 2 bosqichga ajratish mumkin:

1. Sotsial adaptatsiya (moslashuv);

2. Sotsial interiozatsiya.

Sotsial adaptatsiya – individning sotsial sharoitlarga, funksiyalarga, sotsial normalarga, sotsial guruhlariga va muhitga moslashuv jarayoni asosan har qanday oiladan boshlanadi va muhitga moslashuv. Moslashuv jarayoni asosan har bir oiladan boshlanadi va shakllanadi. Oiladagi har qanday munosabatlar shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida o'z aksini topadi.

Sotsial interiozatsiya – ijtimoiy norma va qadriyatlarning individning ichki dunyosiga kirishish jarayonidir. Shaxs sotsial muhitga qorishib ketmaydi, balki unga mustaqil birlik sifatida kiradi, ko'pgina nazariyalarda shaxsning ijtimoiylashuvi, tashqi ta'sir obykti sifatidagina qaraladi.

Biz tug'ilib o'sgan muhitdagi madaniy ustanovkalar bizning xulq-atvorimizga shunchalik katta ta'sir o'tkazadiki, biz individuallik va iroda erkiga ega emasmiz, degan tasavvur paydo bo'lishi mumkin. Buni jamiyat tomonidan oldindan tayyorlab qo'yilgan qoliplarga majburan tikishayotganday tuyuladi. Ba'zi sotsiologlar ijtimoiylashuv, hatto umuman sotsiologiya to'g'risida xuddi mana shunday, deb yozishgan edi, biroq bunday qarash mutlaqo noto'g'ri. Albatta, tug'ilishidan to o'lingacha bizning boshqalar bilan o'zaro ta'sirga kirishishimiz bizning shaxsiyatimiz, hayotimiz, qadriyatlarimiz va xulq-atvorimizni belgilaydi. Biroq ijtimoiylashuv o'sha individuallik va erkning ham manbai hisoblanadi.

Ijtimoiylashuv jarayonida har bir shaxs o'zini anglash, mustaqil fikrlash va harakat qilishga layoqat orttiradi.

Buni biz til o'rganish misol ifodalash mumkin. Tilni hech kim kashf qilmaydi, yoshlikdan til o'rganish bizni maxsus til qoidalari bilan kishanlab qo'yadi. Ayni paytda tilni egallash bizning o'zimizni anglashimiz va ijodimizdagi eng muhim omillardan bir hisoblanadi. Til bo'lmasa odamlar o'zini anglaydigan mavjudot bo'lmasdi. Tilni bilish inson hayoti timsoliy boyliklarni, individual sifatlarini saqlash va mavjudlik shartlarini amalda egalash uchun ham zarur.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib, aytadigan bo'lsak, shaxsning ijtimoiylashuv jarayonini qo'yidagi agentlarga bo'lishimiz mumkin:

1. Oila;

2. Tengdoshlar bilan munosabat;

3. Maktab;

4. Ommaviy axborot vositalari.

Shu bilan birgalikda sotsiologiyada qayta ijtimoiylashuv degan tushuncha ham mavjud.

“Qayta ijtimoiylashuv” – ba’zi vaziyatlarda katta yoshli odamlar qayta ijtimoiylashuvni, ya’ni avval qabul qilingan qadriyatlar va xulq-atvor modellarining to’la yemirilishi va oldingilaridan tubdan farq qiluvchi qadriyatlarni o’zlashtirishni boshdan kechiradilar. Ana shunday vaziyatlardan biri – karser tashkilotlarida bo’lish; ruhiy kasalliklar klinikasida, qamoqxonada, kazarmalarda va odamlar qat’iy tartib va talablar ta’siriga tushib qoladigan tashqi dunyodan ajratilgan har qanday joylarda bo’ladi. Qattiq zo’riqish sharoitida dunyoqarashni o’zgartirish juda dramatik bo’lishi mumkin. Shunday taranglik vaziyatini o’rganish oddiy sharoitlarda yuz beradigan ijtimoiylashuv jarayonini chuqur anglash imkoniyatini yaratib berdi.

Jamiyat – kishilar xayotiy faoliyatining tarixiy rivojlanish shakli bo’lib, o’z tuzilishi jihatidan murakkab tizimni tashkil etadi. Bizning hozirda yashab turgan jamiyatimizni sotsial tizimining muayyan konkret shakli sifatida, uning funksional va rivojlanish qonuniyatini, har bir bo’lakchalarning o’ziga xos tomonlarini, o’zaro munosabatlarini ilmiy jihatdan o’rganib, to’g’ri boshqarish muhimdir.

Sotsializatsiya (ijtimoiylashuv) - individ tomonidan mavjud ijtimoiy me’yorlar, qadriyatlar va bilimlar tizimini o’zlashtirish jarayoni.

Sotsial maqom (status) (lot. status - holat) - individning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi holati, ahvoli.

Sotsial moslashuv (adaptatsiya) - shaxs yoki guruhning ijtimoiy muhit bilan o’zaro munosabati turi. Ijtimoiy moslashuv individ yoki guruhning o’zi uchun yangi bo’lgan ijtimoiy muhitni o’zlashtirish jarayoni namoyon bo’ladi.

Lider, yo’lboshchilar to’g’risidagi zamonaviy nazariyalarga *Gabriel De Tard* (1843-1904) ijodi sezilarli ta’sir ko’rsatgan. U ijtimoiylashuv to’g’risidagi nazariya asoschilaridan biri bo’lib, hayotning asosiy qonunlaridan biri lider, yo’lboshchilarga izdoshlarning taqlid qilishidir, degan g’oyani asoslashga harakat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining asosiy manbalaridan biri tashabbuskor va noyob shaxslar tomonidan qilingan yangiliklar va kashfiyotlardir.

Lider - yo'l ko'rsatuvchi ma'nosini anglatadi. Bu xususiyatga ega inson boshqalarga ta'sir eta olish, muayyan maqsadlarga erishish uchun ularning birgalikda faoliyatini tashkil eta olish qobiliyatiga ega.

Siyosiy liderlik - siyosiy faoliyat turi bo'lib, u ikki tomonning o'zaro aloqalarini anglatadi: birinchi tomon - liderlar o'z izdoshlarining manfaat va ehtiyojlarini yaxshi biladilar va bayon etadilar, boshqa tomon esa, shu manfaatlarni ifodalash va amalga oshirish uchun o'z vakolatlarining bir qismini ularga ixtiyoriy ravishda topshiradilar.

Zamonaviy siyosatshunoslikda liderlikka doir bir qancha yondashuvlar mavjuddir:

Lider - bu boshqa kishilarga ta'sir etish demakdir. Lider va uning izdoshlari o'rtasida o'zaro munosabatlar mavjud bo'lib, u liderdan guruh a'zolariga qarab har doim bir tomonlama yo'naltirilgan bo'ladi.

Liderlik - bu boshqaruvchanlik maqomi, qarorlar qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy pozisiyadir.

Siyosiy liderlik - bu siyosat bozorida amalga oshiriladigan maxsus tadbirkorlik shaklidir. Bunday raqobatchilik kurashuvida tomonlar ijtimoiy vazifalarni yechish bo'yicha dasturlar bilan almashinadilar.

Siyosiy lider - siyosiy jarayonlar bilan birga butun jamiyat va siyosiy tashkilot yoki harakatni ham boshqaradi, voqealarning borishi va siyosiy jarayonlar yo'nalishini o'zgartira oladi. Siyosiy liderlar jamiyatdagi siyosiy jarayonlarni jonlantiradilar, jamiyatning tarixiy rivojlanishini belgilovchi dasturlar va g'oyalarni ilgari suradilar.

Siyosiy liderga kuchli iroda, yoqimlilik, qat'iylik qobiliyati, intuisiya zarur bo'ladi.

Liderlik va yo'lboshchilikning tabiatini tushuntirib berishda xilma-xil nazariyalar mavjud. Ulardan biri xulq nazariyasidir. Ushbu nazariyaning mohiyati shuki, unda liderlik hodisasi shaxsning yuksak xususiyatlari asosida tushuntirib beriladi. Bunday xususiyatlarga quyidagilar kiritilgan: o'tkir zakovat, fahm-farosat, temir iroda, kaynoq energiya, yuksak tashkilotchilik qobiliyatlari, kishilarga yoqa olishlik xususiyati, ayniqsa, bilimdonlik va ma'suliyatlilikni o'ziga olishga tayyorlik xususiyati. Hozirgi demokratik davlatlarda siyosiy liderlarga xushsuratlilik, notiqlik xususiyatlari ham asosiy talablar sifatida qo'yilmoqda.

Siyosiy liderlarning xarakterli xususiyatlarini aniqlash maqsadida juda ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan. Bu tadqiqot natijalari xulqlar

nazariyasini muayyan darajada inkor etadi, ya'ni chuqurroq tahlil qilganda liderlarning individual xususiyatlari umuman shaxsning barcha jihatlarini va ijtimoiy xususiyatlari bilan umuman olganda mos kelishi aniqlangan.

Yana shu narsa aniqlanadiki, shaxsning liderlikni amalga oshirishi uchun muayyan xususiyatlar yig'indisi haqiqatan ham muayyan darajada rol o'ynaydi. Bu xususiyatlar yig'indisi tarixiy davr va dunyodagi turli xil davlatlar xususiyatlariga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin.

Bular xulqlar nazariyasidagi ikkinchi yo'nalishni yoki faktorli-analiz ta'limotlarni vujudga keltiradi. Bu ta'limot liderlarning sof individual xususiyatlarini va muayyan siyosiy maqsadlarini amalga oshirish yo'lidagi xulq-atvorlarning belgilarini tahlil qiladi.

Nima uchun aynan bugun insoniy munosabatlar va ularni boshqarish masalasi dolzarb bo'lib, ijtimoiy hayot sirlarini bilishga ehtiyoj kuchaydi?

*Birinchi*dan, aytish mumkinki, dunyo miqyosida global tarzda ijtimoiy stereotiplar barham topib, o'zgara boshladi. Kechagina mumkin bo'lmagan narsalarga bugun ruxsat bor, kecha umuman erkinlik, demokratiya tushunchalarini go'yoki, G'arb madaniyati deb e'tirof etgan bo'lsak, bugun butun jamiyat bu jarayonlar bilan yashay boshladi, buning natijasida inson ongi, uning boshqalarga munosabatlari ham o'zgardi.

Psixologik nuqtai-nazardan stereotiplashish qandaydir ijtimoiy guruh yoki etnik birlikning barcha a'zolariga moslashuvi jarayonidir. Demak, etnik stereotiplari yuksak hissiyoti va barqarorligi bilan farqlanadigan turli etnik guruhlarining vakillari to'g'risidagi umumiy xulosalardir. Stereotiplar tarkib topishining sababi, guruhning qadriyatlarini himoya qilishga intilish bilan birga juda ko'p axborotlarni "o'zlashtirish" uchun kundalik fikrlashda "kuchlarini tejash" prinsipidan foydalanish zarurligidir. Milliy psixologiya elementi bo'lmish, etnik stereotiplar kundalik hamda nazariy ong darajasida shakllanadi va emotsional, rasional, irodaviy elementlar majmuidan iborat bo'ladi. Etnik stereotiplarni psixologik tahlil qilish uchun ularning ichki tuzilmalarini bilish muhim ahamiyatga molikdir.

Stereotipni 4 ta xususiyati (L.Edvars) bo'yicha "o'lchash" mumkin.

1. Stereotipning mazmuni, ya'ni qandaydir etnik guruhga mansub xususiyatlar to'plami;

2. Bir xillik u yoki bu xususiyatlarni etnik guruhga mansublashtirishdagi tekshiruvchilarning moslik darajasi;

3. Yo'nalish stereotiplashish obyektini umumiy, ijobiy yoki salbiy idrok etish;

4. Intensivlik-stereotiplashadigan guruhga nisbatan xato tushunchaning stereotipida ko'ringan darajasi.

Xulqning stereotiplashgan shakllari anchadan beri turli xil fan namoyondalarining diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Chet el psixologi E.M.Fromm, jamiyat ichidagi birliklar va sinflar o'zining alohida ijtimoiy xarakterga ega ekanligini va shu asosda rivojlanishini hamda muayyan g'oyaviy kuchga ega bo'lishini ta'kidlaydi. Agar ijtimoiy xarakterga uning ijtimoiy jarayondagi vazifalari nuqtai nazaridan qaralsa, biz avvalo inson ijtimoiy sharoitlarga moslashib, o'zida lozim bo'lgan yo'sinda harakat qilishga majbur etadigan xislatlarni rivojlantirishini tasdiqlashimiz lozim.

A.K.Bayburin – ijtimoiy va etnik stereotiplarni ikki qiyofali odamga taqqoslab, shunday deb yozadi:

a) ular mazkur ijtimoiy birlikning individualligini boshqa ijtimoiy makondan, boshqa madaniyatdan izlashsa, uning aks ettiradigani mazkur sotsium, (birlik) mazkur ijtimoiy guruh muammosini hal qilishning individual reflekslanmaydigan (ikki ijtimoiy guruh uchun boshqa boshqa) usullari bo'lishi mumkin;

b) ana shu stereotiplar mazkur guruhdagi shaxs, uning etnik o'ziga xos xislatlari sifatida boshqa madaniyatiga duch kelganda uni biladigan shaxsning ijtimoiy, tipik xarakteristikasi sifatida ham namoyon bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi.

A.G.Asmolov o'z ta'rifida, - U.Lipmanning fikriga qo'shilib, A.P.Trusov va A.S.Filippov etnik stereotiplarni ikki jihatdan, ya'ni gnoseologik (ularning bilish jarayonidagi roli) va sotsiologik (ularning ijtimoiy vazifalari) jihatlardan turib tadqiq qilishni tavsiya etadi. Ana shu fikr bizni bundan keyin ushbu bo'lim materiallarini bayon qilishda ham to'la qanoatlaniradi va biz ham ana shu yo'ldan boramiz", - deb ta'kidlaydi.

U.Lipman o'z tadqiqotlaridan birida stereotiplashish zarurligining ikkita eng muhim sababini ko'rsatadi.

Birinchisi stereotiplashish tufayli kishilarning kuch sarflashi tejaladi, ular yangi faktlar va hodisalar to'g'risida qaytadan o'ylab, fikrlab o'tirmaydilar; shunday faktlar va hodisalarni to'g'ridan-to'g'ri mavjud kategoriyalarga kiritadilar. "Agar atrofdagi olamda bir xillik bo'lmasa, yoki kuchlarni tejashning hech qanday yo'li bo'lmasa, faqat xatolar mavjud bo'lar edi, lekin ana shunday bir xillik mavjud bo'lgani uchun diqqat-e'tiborni tejash shunchalar zarurki, agar sof tajriba asosida fikr yuritish uchun barcha stereotiplardan voz kechilsa, insoniyatning tirikchiligiga muqarrar ravishda zarar yetar edi".

Ikkinchi sabab guruhiy boyliklarni (milliy madaniy boy-liklar va shaxsning ma'naviy boyligi) muhofaza qilish, ya'ni sof ijtimoiy vazifadir. "Stereotiplar" an'analarimizni qo'riqlaydi, ular qancha ko'p bo'lsa, biz unda o'zimiz egallagan mavqening xavfsizligini shunchalik ko'pligini xis etishimiz mumkin, deb ta'riflaydi.

Ma'lumki, "stereotip" iborasining ilmiy muomalaga 1922 yilda U.Lipman kiritgan. Ammo stereotiplar tadqiqot obyekti bo'lgunicha oradan ma'lum vaqtlar o'tgan. Dastlabki, "antistereotip" (inson qiyofasi) muammosini empirik tadqiq qilishga ko'p e'tibor berildi. Shundan keyingina etnik stereotiplarni keng miqyosda tadqiq etish bosqichi boshlandi. Hamma kishilar u yoki bu darajada ijtimoiy va etnik stereotiplarning ifodalovchisidir. Bizning boshqa xalqlar to'g'risi-dagi bilim va tasavvurlarimizning bir qismi ana shu stereotiplar yordamida shakllangan.

M.Mukanovning yozishicha, etnosning o'ziga xosligi shundan iboratki, uning vakillari mazkur etnosiga xos assotsiativ aloqada bo'ladilar. Etnos tomonidan qabul qilingan me'yorlar konvensionlardir (to'la tan olingandir).

Etnosdagi me'yoriy jarayonlar konvensiyalar (kelishuviga rioya qilish) va uning mavjudligi sababli barqaror tus olgan (stereotiplashgan) jarayonlardir.

A.M.Jabbarov ta'kidlaganidek: -

1) Ijtimoiy-madaniy muhit vujudga kelishining manbalari etnosning birligi, tili, zamon va makonda tashkil topishi, xalqning turmush tarzi, boylıkları, qadriyatları, ijtimoiy hamda madaniy mavjudligi va hokazolardan iboratdir;

2) Xalqning o'ziga xos fe'l-atvori va psixologiyasining etnik stereotiplarini tadqiq qilish, ularni vujudga keltirgan ijtimoiy-madaniy tizimni o'rganish asnosida amalga oshirilishi kerak. Bunda xalqning

o'ziga xosligini tiklash avloddan-avlodga o'tib kelayotgan stereotiplarning noaniq nusxasi ekanini hisobga olish kerak.

O'zbek xalqining etnik stereotiplari, o'ziga xosligi, uning an'analari, marosimlari, urf-odatlari va didi, matallarda va hikmatli so'zlarida chuqur o'rin olgan. Xalqning avaylab saqlashi va ardoqlashi sababli, ular hozirgacha o'zining dastlabki ma'nosini yo'qotmagan va millatimiz vakilining kundalik hayotidagi eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

M.M.Qoplonovanning yozishicha, - o'zbek xalqining qiyofasi xo'jalik faoliyati va turmush tarzi xususiyatlari dastavval mahalliy, tabiiy-geografik va xo'jalik madaniy tiplarini yaratgan mintaqa hisoblanadi. Unda yashovchi xalqlarning kelib chiqishi va tarixiy taqdiri ham umumiy xarakterga ega. Milliy ruxiyat, ijtimoiy ong, oilaviy va ma'naviy hayotning hozirgi davr talabiga javob bera oladigan darajada rivojlanishi, shubhasiz xalqning erkinligi, uning davlat tuzilishi bilan bevosita bog'liq.

Tadqiqotchi, o'zbeklarning milliy xarakter xususiyatlariga quyidagilarni misol qilib keltirgan:

1. Yo'nalganlik xususiyatlari: - ehtiyojlari, ideallari, ustanovkalari, qiziqishlari, maqsadlari;

2. Aqliy xususiyatlari: - ma'rifatparvarlik, uquvlilik, fahmlilik, farosatlilik, mug'ombirlik, e'tiborlilik, ziyraklik, mohirlik, xushyorlik;

3. Irodaviy xususiyatlar: - axloqiylik, odoblilik, botirlik, mag'rurlik, sabr-toqatlilik, qat'iylik, tobelik;

4. Emotsional xususiyatlari: - bosqlik, mulohazalilik, ehtiroslilik, mehribonlik, ishonuvchanlik, qiziqqonlik, teobililik, zavqlilik, nafaslilik va yumshoq fe'lliliklar kiradi, - deb hisoblaydi.

M.Mamatovning ta'kidlashicha, milliy psixologik qiyofaning ayrim belgilari kishilar birligining hamma tarixiy davrlariga, ya'ni, urug', qabila va elatlarga ham xosdir. Ma'lumki, bola o'ziga Vatanni yoki ota-onani tanlab tug'ilmaydi. Shunday ekan, u o'z millatiga mansub bo'lgan tayyor xususiyatlar bilan ham tug'ilmaydi. Bola o'z ota-onasidan va avlod-ajdodlaridan biologik yo'li bilan irqiy xususiyatlarni va ayrim ruhiy temperament xususiyatlarinigina meros qilib oladi, xolos. Bola milliy muhitda yashab turgandagina, shu millat va elatga xos bo'lgan xususiyatlarni egallab, ayni millat vakili bo'la oladi.

O'zbek oilasining o'ziga xos xususiyati: ko'p avlodlilik, ko'p farzandlilik kabilar bunday oilalar a'zolari o'rtasida o'zaro muloqotni to'laroq amalga oshirishga asos bo'ladi, ularning o'zaro muloqotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, so'nggi yillarda ba'zi oilalarda ota-onalar va bolalar o'rtasida muloqotning kamligi, bir-biriga e'tiborining pasayishi, oila a'zolari o'rtasida fikr erkinligining cheklanganligi (ayniqsa, qishloq oilalarida) holatlari ham mavjud.

Bir narsani tan olish kerakki, o'zbek milliy tarbiyasi doirasida tortinchoqlik fazilat sifatida baholanadi. Buni chet elliklar esa ruxiy kasalga chalinish deb hisoblaydilar.

Hozirgi kunda bolalar tarbiyasida, o'zbek xalqining boy etnopsixologiyasidan samarali foydalansa va unga amal qilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Milliy (etnik) muhitda qo'ni-qo'shnilar va ayniqsa qarindosh-urug'lar o'rtasidagi o'zaro hurmat hamda o'zaro yordam qadimiy an'analarning biridir. Qator ishlarda o'zbeklar milliy psixologiyasining tarkibiy xususiyatlari ifodalangan.²⁹

Ikkinchidan, qadriyatlar tizimi o'zgardi. Umuminsoniy qadriyatlarga yaqinlashgan, xayoliy gumanizm sifatida qaragan bo'lsak, bugun o'z milliy qadriyatlarimizni qaytarish barobarida bu qadriyatlarni ham qabul qilmoqdamiz. Qabul qilmaslik esa odamlar, eng avvalo, yoshlar ongida shunday vakuumni hosil qilmoqdaki, buning oqibatlariga hayotimizda misollar ko'p (diniy aqidaparastlik, jinoyatchilik, giyohvandlik va hokazo). Masalaning muhim tomoni yana shuki, rivojlangan G'arbning o'zi bugun Sharq madaniyatini, Sharq mentalitetini va uning qadriyatlarini e'tirof etib, ularga munosib baho bermoqda. Demak, umumjahon globallashuvi jarayonlarida insonlar o'rtasidagi munosabatlar madaniyatlararo hamda millatlararo munosabatlar darajasigacha ko'tarildi.

Uchinchidan, insonning o'zini kimlar bilandir solishtirish, taqqoslash, o'xshatish tizimida o'zgarishlar (*ijtimoiy identifikatsiya*) ro'y berdi. Ijtimoiy psixologiya shaxs psixologiyasiga e'tibor berarkan, uning jamiyatda mustaqil fikrlovchi, yurtparvar va vatanparvar, fidoiy inson sifatidagi fazilatlarini anglashiga yordam

²⁹ Matmurotova N.B. O'smir yoshidagi bolalar shaxsining etnopsixologik xususiyatlarini shakllantirishda oilaning o'rni. Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi ishi. T. – 2009 y.

berishi kerak bo'lib qoldi. Chunki ilgari "sovet fuqarosi" faqat o'sha mafkuraviy talablar qobig'ida o'zini tasavvur etar edi xolos.

"Identifikatsiya" termini o'zini boshqa kishiga o'xshatish ma'nosini anglatadi. Identifikatsiya - bu kishining o'zini kishiga, guruhga, namunaga o'xshatishidir. Identifikatsiya boshqa kishilarning his-tuyg'ularini, kechinmalarini tushunishga yordam beradi. Inson o'zaro birgalikda harakat qilish vaziyatlarida boshqa kishini o'zining o'rniga qo'yib ko'rishga uringan holda, uning ichki holati, niyatlari, o'y-fikrlari, mayllari va his-tuyg'ulari haqida taxmin qiladilar. Bu o'zaro bir-birini tushunishga erishishning yagona usuli bo'lmasa-da, real vaziyatlarda o'zaro ta'sir jarayonida kishilar bu usuldan foydalanadilar. Bunda identifikatsiya boshqa kishini anglash va tushunishning mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Identifikatsiya jarayoni va uning muloqotdagi rolini aniqlashga bag'ishlangan eksperimental tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, bu tadqiqotlar natijasida identifikatsiya bilan uning mazmuniga yaqin bo'lgan empatiya o'rtasida uzviy aloqa mavjudligi aniqlangan.

12.5. Marginallikning rivojlanishi turli og'ma norasmiy guruhlarning kengayishi (deviant xulq atvor)

Ilmiy adabiyotlarda va ommaviy axborot vositalarida "Globallashuv", "Global dunyo", "Iqtisodiy moliyaviy globallashuv", "Aksilgloballashuv", "Madaniy globallashuv" kabi iboralar ko'p qo'llanilmoqda. Ayniqsa dunyo sotsial-iqtisodiy jarayonlarida ro'y berayotgan salbiy jarayonlar haqida so'z borganda shubhasiz, muhokamalar globallashuv jarayoniga borib taqaladi. Marginal shaxslarning ham oshib borish yoshlarning turli g'ayri tabiiy norasmiy marginal guruhlarga kirishi oqibatida vujudga keladi.

Xususan, Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng amalga oshirilayotgan olamshumul tadbirlardan biri o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama rivojlangan insonlar qilib tarbiyalash yo'lida uzoqni ko'zlab qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"dir.

Mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, millat uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan ya'ni sog'lom avlodni voyaga yetkazish masalasi muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu vazifani hal qilishda ijtimoiy tarbiyaning barcha yo'nalishlari xususan, axloqiy tarbiya, muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarni har tomonlama tarbiyalash ularda ma'naviy axloqiy fazilatlarni va jismoniy sifatlarni shakllantirish, oliy his-tuyg'ularni tarkib toptirish sotsiologlarning oldiga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

O'qituvchilar jamoasi har qancha urinishlaridan qat'iy nazar, ta'lim jarayonida xulqi og'ir yoshlar uchrab turadi. Hozirgi kunda bunday o'quvchi-yoshlar bilan yakka-yakka ishlash usuli yaratilgan fel-atvordagi nuqsonlarning hatti-harakati nosog'lomligining oldini olish va tuzatish yo'llari ishlab chiqilgan. Xulqi og'ir injiq xulqi yomon yoshlarning kelib chiqishning bir qator sabablari mavjud.

Bola xulqida muayyan sharoitning ta'siri bilan paydo bo'lgan o'jarlik va nojo'ya qiliqlar mavjudligi uning o'sish darajasini hisobga olib munosabatda bo'lish zarurligini bildiradi. Bola xarakterida vujudga keladigan inqirozning sababarlari.

Kattalar bolaning jismoniy va aqliy imkoniyatini, xohish va istagini mustaqil holda turmushda qaror toptirishga intilishni, ayrim kuzga tashlangan qiyinchiliklarni bartaraf qilishga urinishni, o'z holicha ish tutishni cheklashlaridir.

Kattalar yoshlar ra'yiga, mustaqilligiga qarshi turmasdan mumkin qadar istagiga, intilishga yordam bersalar, uning shaxsini shakllantirish jarayonidagi qiyinchilik o'z-o'zidan barham topadi. Ya'ni marginallashish xususiyatlari vujudga kelmaydi.

Oilaviy muhitning nosog'lomligi, o'qitishdagi nuqsonlar, otanada sotsiologik bilimlarning yetishmasligi, ishyoqmaslik bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimlay bilmaslik jamoatchilik orasidagi kamchiliklar ham xulqi og'ir yoshlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Xo'sh, xulqi og'ir yoshlarning ko'plarida qanday ijobiy hislatlar shakllanadi. Ular nihoyatda g'ayratli, aytish mumkinki hayotsevar bo'ladi. Tolstoy tasvirlagan oq xarrak o'simlikning bo'yunini qanchalik aylantirmang u baribir o'savergani kabi, xulqi og'ir yoshlar ham shunday, uni qancha koyimang urishmang, u o'zini ajoyib kuchini saqlab qoladi. Bu kuch uni ajoyib qiliqlar qilishga undayveradi. U odatda jismonan chiniqqan, haddan tashqari chidamli bo'ladi. Xulqi og'ir yoshlar o'rtoqlarini ishonchini ko'proq qadrlaydi. Shu sababli keskin vaziyatda unga ishonsa bo'ladi.

Yaxshilik axloqiy soha sifatida ijtimoiy shart sharoitlarga bog'liq bo'ladi. U hamisha insonga bo'lgan munosabatdir.

Hozirgi notinch va murakkab zamonamizda norasmiy yoshlar guruhlarining kundan kun ko'payib borishi kishilarni qattiq istirobga

tashvishga solmoqda, g'ayritabiiy vahimi, behayolik illati, jinoyat hidi anqib turganday noxush kechinmalar og'ushi sari yetaklamoda. Marginal guruhlarning tarixi juda uzun, chunki uzoq ajdodlarimizning turmush tarzida qimorbozlik, giyohvandlik, bangilik kabi illatlar atrofida behisob yigitlar ishtirok etganlar. Kattalarga taqlid qilish ularning bevosita tazyiqi ostida ana shunday guruhlarning safiga tasodifan kirib qolganlar. Insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichida u yoki bu ko'rinishga ega bo'lgan norasmiy yoshlarning birikmalari ko'p davrlardan beri hukm surib kelayotir. Ana shu boisdan bugungi kunga kelib, norasmiy yoshlar guruhining keng quloch yoyishi tasodifiy hol emas balki, tabiiy ehtiyojning mevasi xolos.

Ko'p yillar davomida ijtimoiy hayotimizda erkin, mustaqil fikrlash, ijodiy mulohaza yuritish, baholash imkoniyatidan mahrum bo'lgan yoshlar asta-sekin o'zlarining norasmiy guruhlari tuzishga kirishdilar. Ma'muriy byurokratik apparat va uning bevosita homiylari rasmiy yoshlar uyushmalari shaxsiy pozitsiyasiga ega bo'lgan, tashabbuskor ijodkor induvidial shaxsni shakllantirishdan ko'ra, itoatkor, ichki tug'yonga ega bo'lmagan "robot" toifasiga xos yigit va qizlar bilan ishlashni maqbul ko'rdilar. Natijada yoshlar o'z orzu istaklari, istiqbol rejaları, ijodiy izlanishlari, iste'dodlari va aqliy imkoniyatlari, siyosiy qarashlarini ro'yobga chiqarish, ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirish maqsadida norasmiy guruhlar safiga qo'shila bordilar. Mafkurada va siyosatdonlikda qotib qolganlikning hukm surishi, yoshlarning qiziqishini inobatga olmaslik ularni to'lqinlantiruvchi muammolarning cheklab o'tish, oshkoralikning yo'qligi, so'z va matbuot erkinligining nochorligi norasmiy guruhlar faoliyatiga keng yo'l ochib berdi.

Norasmiy yoshlar guruhi insoniyat tarixida yangi oqim emas, balki, ijtimoiy taraqqiyotning barcha pallalarida vujudga kelgan muayyan davrning ta'sirchan kuchi sifatida ijobiy rol o'ynagan. Yoshlarning hayotda o'z o'rnini topish, nimalarga qodir ekanliklarini namoyish qilish, ommaning diqqat e'tiborini o'zlariga tortish asnosida jamoatchilik o'rtasida tezroq ommabop insonga aylanish istagi asosiy turtki vazifasini o'tadi. Aqliy imkoniyatlari va tashkilotchilik qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish maqsadi-bu o'rinda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ota-onalar, jamoatchilik rasmiy yoshlar uyushmasining aqidaparastligi, va'zxonligi, o'git-nasihatlariga bog'lanib qolganliklari

o'smir va o'spirinlarda noxush kechinmalarni vujudga keltiradi, kayfiyatiga salbiy ta'sir qiladi. Ular o'zlari uchun yoqadigan, ko'ngli sevgan ishlarni amalga oshirish maqsadida, bo'sh vaqtni qiziqarli va sermahsul o'tkazish maqsadida norasmiy guruhlar tuzishga harakat qiladilar.

Ijtimoiy hayotda muloqot taqchiligini to'ldirish uchun o'smir va o'spirinlar o'z tenqurlari bilan u yoki bu xususiyatga ega bo'lgan muammolarni hal qilish niyatida o'zaro norasmiy yoshlar guruhiga birlashadilar. Rasmiy uyushmalar faoliyatidan norozilik alomati sifatida ular shunday guruhlariga borib qo'shiladilar.

Hatto umumiy o'rta maktab, litseylari ichki faoliyatida iliq shaxslararo munosabatning yetishmasligi opazitsion guruhlarini keltirib chiqardi. Yaxlit jamoaning ayrim guruhlariga ajralib ketish hollari norasmiy yoshlar guruhi safini kengayishiga olib keldi. Chunki o'z taqdiridan norozi, alamzada yoshlar qiziqroq narsalar bilan shug'ullanish uchun o'zlariga maslakdosh izlaydilar. Bundan boshqa ularda na iloj, na imkon bor.

O'smir va o'spirinlarning shaxs sifatida ijtimoiylashuvi davrida o'z-o'zini tanitish, turmushda o'z o'rnini topish ishtiyoqi kuchayadi. Vujudga kelgan bunday holat mazkur jarayonni yanada tezlashtiradi.

Dastlabki norasmiy yoshlar guruhi moda fidoyisi, musiqa shinavandalari, sport ishqibozlari tariqasida vujudga kela boshladi. Marginal holatga tushib qolganliklarini o'zlari tasavvur ham qilisha olmaydi. Ular jamoatchilik fikrini o'zlariga qaratish uchun turlicha vositalardan foydalanadilar: rangba-rang kiyim kiyish antiqa shoeh turmagi qilish, qomat tutish, ko'cha va maydonlarga tomoshalar ko'rsatish, siyosatdonlik qilish, rok musiqa, ansanbl (Rembo) shou, va hokazo. Ular an'anaviy tarbiya uslublariga qarshi "erkin tarbiya, erka intilish tuyg'usini yoshlar orasida targ'ib qilishga kirishganlar va bu borada qat'iy intilishlar mavjuddir.

Tenqurlari davrasidan do'st orttirish ehtiyoji maktabdagi mojarolar, nizolar, oilada o'zaro kelishmovchilik katta yoshdagi odamlar hatti-harakatidan norozilik turmush istiqbolining nursizligi, mehnat bilan ta'minlanishning zaifligi, pul topish ishtiyoqi va shunga o'xshash omillar ommaviy ravishda marginal yoshlar guruhi ko'lamini kengaytirdi.

Hozirgi kunda norasmiy yoshlar guruhini bir nechta toifalarga ajratish mumkin.

1. Ijtimoiy-siyosiy muammolar bilan shug'ullanuvchi guruhlar siyosatdonlar. Ularning asosiy maqsadi xalq xaloskorlari dasturidan tortib, to burjua huquqiy demokratiyasigacha musulmon fundamentalizimidan tortib, to huquqiy sotsialistik davlatgacha ko'rishlarda o'ziga xoslik mavjudligi yuzasidan bahs yuritishdan iboratdir. Mazkur guruh a'zolari qayerlardandir munozara uchun materiallar topadilar, ma'lumotlar to'playdilar fikr-mulohaza bildiradilar. Buning bilan mamlakat ichida va butun dunyoda yuritilayotgan davlat siyosatiga ayrim siyosatdon arboblarga nisbatan o'z pozitsiyalarini belgilashga harakat qiladilar yutuq hamda kamchiliklari yuzasidan mulohaza yuritadilar Mazkur guruh a'zolarining yig'inlari o'zaro yig'inlari va tortishuvlari faqat siyosatga borib taqaladi.

2. Tub islohotchilar guruhi Islohotchilarning bosh maqsadi yoshlar o'rtasida tashviqot ishlarini olib borish emas, balki voqelik ichiga bevosita aralashish u orqali ijtimoiy muhitda keskin o'zgarishlar yasashdan iboratdir. Bosh maqsaddan kelib chiqqan holda ushbu guruh a'zolari o'zlarining yaqqol vazifalarini belgilaydilar.

❖ G'arbning ta'siriga (modasi, musiqasi, xulqi, urf-odati va boshqalar) qarshi tinimsiz ravishda kurashish;

❖ Ijtimoiy hayotda uchraydigan jinoyatchilik, poraxo'rlik, xalq mulkini talon taroj qilishga va kelishuvchanlikka qarshi qat'iy kurash ochish;

❖ Uzoqni ko'zlab harakat rejasini tuzish;

❖ Zo'rlik bilan terror orqali turmushdagi illatlarni yo'qotish;

❖ Davlat qarori va farmonlarini zo'rlik bilan turmushga joriy qilish va boshqalar bilan shug'ullanadilar. Islohotchilar guruhining a'zolari g'arbda keng tarqalgan hissi, panki kabi guruhlariga qarshi ayovsiz kurash olib boradilar. Jinoyatchi, poraxo'r, muttaham kishilarni qo'rqitish, kaltaklash, uzun soch va soqol qo'yg'an, bachkana qiyingan, ortiqcha taqinchoq osgan yoshlarni qo'rqitish, kiyimini yirtish, taqinchoqlarini uzib tashlash kabi ijtimoiy va qoidalarga zid hatti-harakatlar bilan o'z maqsadlariga erishishga intiladilar. Goho o'ta his-tuyg'uga berilib, jinoyatga qo'l uradilar, ahyon-ahyonda millatchilik ko'rishlarini yo'l qo'yadilar va hokazo.

3. Milliy qadriyat va obidalarni asrash, atrof-muhit musaffoligi uchun kurash guruhi-millat va tabiat fidoyilari keng tarqalgan marginal guruhlar qatoriga kiradi.

Fidoiylar guruhining harakat dasturiga mana bunday vazifalar kiritilgan:

➤ Yam-yashil dov-daraxtlarni qo'riqlash, "yashil qo'riqchilar" ommaviy harakati;

➤ Ommaga ekologik madaniyatni singdirish;

➤ Tarixiy obidalar va yodgorliklarni saqlab qolish;

➤ Suv havzalarining ifloslashuviga yo'l qo'ymaslik;

➤ Zararli korxonalar faoliyatini jilovlab turish kabilar;

Mazkur norasmiy guruh a'zolarining bosh maqsadi - insonning yuksak taraqqiyotini ta'minlashdan iborat. Harakat dasturidagi asosiy o'rin tabiatga ziyon keltiruvchilarni jazolash, tabiatni yovuz niyatli kishilardan qo'riqlashga ajratilgan.

Turmush tarzi marginal guruhi. Bunday yoshlarning norasmiy guruhi a'zolari chet elda hammaga ma'lum "xippi va pank" nomlari bilan mashg'ul o'g'il qizlarning izdoshlaridir. Vatanimizning yirik shaharlarida oz bo'lsada lekin shunday tabiatli yoshlarning marginal guruhi hukm suradi. Ularning turish turmushi, hatti-harakati ajnabiy tengdoshlariga aynan taqlid qilishdan iborat bo'lsada, lekin iqlim sharoitiga moslashmaganligi bilan biroz farq qiladi.

Jumladan, xippilar – har bir inson ijodiy fikr yuritish qobiliyati va imkoniyatiga ega, u erkin, o'z erki qo'lida, har qanday aqidaparastlikdan uzoqroqdir degan qoidaga amal qiladilar. Xippilar uzun soch qo'yadilar, peshonabog' bog'laydilar. Har ikkala guruhga xos yoshlar, musiqa asboblari, sahna kiyimlari bilan to'da-to'da bo'lib, shahar bo'ylab aylanadilar. Janjalni yoqtirmaydilar. Siyosat bilan esa shug'ullanmaydilar, vaqtni xush o'tkazish ezgu niyati bilan yashaydilar.

Ruhoniy -aqidaparastlar guruhi.

Bir nechta mustaqil ko'rinishlarga ega.

✧ Muqaddas Krishna shuuri- Hind rivoyati bo'yicha;

✧ Buddistlar;

✧ Sektantlar;

✧ Babtistlar;

✧ Aqidaparastlar;

✧ Tushga irim-sirimga, duo va afsunga ishonuvchilar.

Ushbu yoshlarning norasmiy guruhiga xos yoshlar dunyoda sodir bo'layotgan jamiki narsalarga diniy mistik ma'no berishga harakat

qiladilar, bu yo'lda duolar, afsunlar ijobiy ta'sir etishiga odamlarni ishontirishga intiladilar. Lekin ular jinoiy ishga qo'l unmaydilar.

Hozirgi zamon yoshlari o'zlarining qiziqishlariga qarab yoshlarning norasmiy guruhiga birikmoqdalar. Bunday yoshlarning norasmiy guruhi shaharda ham, qishloqda ham faoliyat ko'rsatmoqda. Ularni mana bunday shartli guruhlarga ajratish mumkin.

1. Zamonaviy musiqa. (roq shou) ishqibozlari
2. Rokerlar.
3. Oliftalar.
4. Temir bezakchilar.

Ular jamoatchilik uchun hech qanday xavf xatar keltirmasada, ko'cha qoidalari va osoyishtalikni buzishga olib keladi. Yoshlarning norasmiy guruhi a'zolari o'zlarining dunyoqarashlari e'tiqodlari, pozitsiyalari bilan xilma-xildir³⁰.

Nazorat savollari:

1. Xulqi og'ishgan bolalarning ota-onalari bilan amaliyotchi psixologning faoliyati qanday?
2. O'smir va oila munosabatlaridagi ota-ona va bola munosabatlarini me'yorlashtirish bo'yicha konsultativ yordam berish usullarini sanab bering.
3. O'smirni vaqtni to'g'ri taqsimlashga qanday o'rgatiladi?
4. Marginallikning rivojlanishi turli og'ma norasmiy guruhlarning kengayishini tuhuntirib bering?

³⁰ Jo'rayev J.R. Sotsiologiyada marginal shaxs tushunchasi. Magistrlik dissertatsiyasi ishi. T. 2008 y.

GLOSSARIY

Abstraksiya – shunday tafakkur operatsiyasidirki, bu operatsiya yordami bilan moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlarini farqlab olib, ana shu xususiyatlardan narsa va hodisalarning muhim bo‘lmagan ikkinchi darajali xususiyatlarini fikran ajratib tashlaymiz. Abstraksiya jarayonida obyektidan ajratib olingan belgi, alomatning o‘zi tafakkurning mustaqil obyekti bo‘lib qoladi. Abstraksiya operatsiyasi tahlil natijasida vujudga keladi

Abstrakt tafakkur – narsalarning mohiyatini aks ettiruvchi va so‘zlarda ifodalovchi tushunchalarga tayanib fikr yuritishdir. Algebra, trigonometriya, fizika, chizma geometriya, oily matematika masalalarini yechish mahalida fikr yuritish, mulohaza bildirish, abstrakt tafakkurga xos misollardir.

Abuliya – bu miya patologiyasi zaminida yuzaga keladigan faoliyatga intilishning yo‘qligi, harakat qilish yoki uni bajarish uchun qaror qabul qilish zarurligini tushungan holda shunday qilolmaslikdir. Abuliya (yunon. Abule - irodani inkor etmoq) - eng oddiy, osongina masalalar bo‘yicha ham ma‘lum qarorga kelish qobiliyati yo‘qligida namoyon bo‘ladigan o‘ta irodasizlik. Irodaning yo‘qolishi o‘ta xafsalasizlik.

Abuliya va apraksiya – psixikasi og‘ir kasallangan odamlarga xos, nisbatan kamyob hodisalardir. Pedagog kundalik ishda duch keladigan irodaning sustligi, odatda, miya patologiyasi bilan emas, balki noto‘g‘ri tarbiya bilan belgilanadi, shu sababli bolalar va o‘smirlar shaxsini maqsadga muvofiq shakllantirish natijasida to‘la bartaraf etilishi mumkin.

Adaptasiya – yohud moslashuv - sezgi organlari sezgirligining qo‘zg‘atuvchi ta‘siri ostida o‘zgarishi demakdir. Adaptasiya (yoki moslashish) ikki turga bo‘linadi: a) negativ adaptasiya; b) pozitiv adaptasiya. Pozitiv adaptasiyada kuchsiz qo‘zg‘atuvchi ta‘siri ostida sezgirlik oshadi. Ko‘rish analizatorida pozitiv adaptasiya, qorong‘ulik adaptasiyasi deyiladi. Negativ adaptatsiya ikki xil bo‘ladi: a) qo‘zg‘atuvchining davomiy ta‘siridan sezgirlik yo‘qoladi. Masalan, qo‘limizga yuk qo‘yilsa sezamiz, ammo vaqt o‘tishi bilan sezmay qolamiz. b) kuchli qo‘zg‘atuvchi ta‘siridan sezgirlikning susayishi. Masalan, qorong‘u xonadan birdaniga chiqib qolsak, avvaliga hech narsa ko‘rmaymiz, vaqt o‘tishi bilan sezgirlik pasayib biz normal ko‘ramiz.

Adaptatsiya darajasi fenomeni – qo'zg'ovchilarning aniq darajasiga moslashish va oqibatda aynan shu darajada sodir bo'ladigan o'zgarishlarga javob berish hamda diqqatni qaratish.

Adekvatlik (lot, adeqvatus tenglashtirilgan) – teng, o'xshash, muvofiq kelmoq. Mas., javoblarning adekvatlash va hok.)

Afaziya (yunon. A - inkor yuklamasi, phasia - nutq) – bosh miya qobig'ining ayrim qismlarini zararlanishi natijasida nutqining izdan chiqishidan iborat psixopatologik nuqson.

Afefobiya – boshqa insonlarning yaqinlashuvidan qo'rqish.

Affekt – lotincha so'z bo'lib, ruhiy hayajon, ehtiros degan ma'noni anglatadi. Affektlar ko'pincha to'satdan paydo bo'ladi va ba'zan bir necha minut davom etadi. Affekt holatida kishini ongini tasavvur qilish, fikr qilish qobiliyati torayadi, susayib qoladi. Affektlar vaqtida odamning harakatlari kutilmagan tarzda portlash singari birdaniga boshlanib ketadi. Ba'zan affektlar tormozlanish holati tarzida namoyon bo'ladi va bunday holatda organizm bo'shshib, harakatsiz bo'lib va shalvirab qoladi. Bunday holat ko'pincha odam birdaniga qo'rqqanida, to'satdan quvonganida va shu kabi holatlarda o'zini yo'qotib qo'yish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Affekt holatini boshlanishida shaxs insoniy qadriyatlarining barchasidan uzoqlashib, o'z hissiyotining oqibati to'g'risida ham o'ylamaydi, hatto tana o'zgarishlari, ifodali harakatlar bilinmay boradi. Kuchli zo'riqish oqibatida mayda kuchsiz harakatlar barham topadi. Tormozlanish miya yarim sharlari po'stini to'liq egallay boshlaydi, qo'zg'alish po'stloq osti nerv tugunlaridan oraliq miyada avj oladi, xolos. Buning natijasida shaxs hissiy kechinmasiga (dahshat, g'azab, nafratlanish, umidsizlik va hokazolar) nisbatan o'zida kuchli hohish sezadi.

Affektiv komponent – ustanovka obyektiga nisbatan subyekt his qiladigan real hissiyotlar (simpatiya, antipatiya, loqaydlik kabi emotsional munosabatlar);

Affektiv shok reaksiyalari – bemor maqsad yo'nalishini yo'qotadi, vahima va qo'rquvga tushadi. Ular be'mani harakatlar qiladi, turgan joylariga mo'ljal yo'qoladi. Bu qo'zg'alish 15-25 daqiqa davom etadi. Yoki aksincha bemor qo'rquvdan butunlay harakatsiz bo'lib qoladi, gapira olmaydi, bir joyda qotib qolib atrofdagilarga befarq bo'lib qoladi. Stupor bir necha soatdan 2-3 kungacha davom etadi. Bu holatda bemor kechinmalari xotirasida suqlanmaydi.

Affektiv-kommunikativ funksiya – inson emotsional sohasining regulyatsiya qilinishini ta'minlash vazifasi. Muloqot inson emotsional

holatlarining eng muhim determinatsiyasidir. Chunki turli tuman emotsional holatlar muloqot jarayonida paydo bo'ladi va o'zgaradi.

Afferentatsiya (lot. afferens (afferentis) - keltiruvchi) – tashqi va ichki qo'zg'atuvchilar orqali sezgi a'zolariga ta'sir etish asosida paydo bo'lgan nerv tizimiga kelib turish jarayoni.

Afsus-nadomat – shaxsiy aybni bilish, o'zining o'tmishi, hozirgi kundagi kamchiliklariga, salbiy munosabat bildirish.

Agglyutinatsiya (lot. Agglutinate – yopishtirmoq, yelimplamoq) – mavjud obraz va tasavvur qismlarini bir-biriga “yopishtirib” qo'shish asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat xayol faoliyati. Mas., suv parisi obrazi. Agglyutinatsiya – “yelimlash” degan ma'noni bildirib, unda turli qismlarni bitta qilib yangi obraz yaratiladi. Masalan: yalmog'iz kampir, suv parisi, kentavr, ssfinks obrazlari va boshqalar.

Aglofobiya – og'riqdan qo'rqish.

Agorafobiya – jamoat joyida yolg'iz qolishdan qo'rqish.

Agrafiya (yunon. A - inkor yuklamasi, grapho - yozaman) – nutqdagi turli buzilishlar natijasida yozuvning izdan chiqishi.

Agrafiya (yunon. A - inkor yuklamasi, grapho - yozaman) nutqdagi turli buzilishlar natijasida yozuvning izdan chiqishi. Agrafiyada odam yozish qobiliyatini butunlay yo'qotadi yoki so'zlarda harflarni tushurib qoldiradi, harflarni qo'sha olmaydi. Agrafiya katta odamlarda bosh miya po'sti faoliyatining buzilishi natijasida ro'y bersa, bolalarda u duduqlik natijasida kelib chiqadi.

Agressiya – kimgadir zarar yetkazish uchun yo'naltirilgan jismoniy yoki verbal (nutqdi) xulq. Laboratoriya eksperimentlarida agressiya deganda hissiyotga ta'sir qilish uchun elektr toki bilan zarba berish yoki so'z bilan nafsoniyatga tegish tushuniladi. Agressiyaning bunday sotsial-psixologik ta'rifiga ko'ra, odam aggressiv bo'lmagan holda qaysar bo'lishi mumkin.

Agroziya – idrokning buzilishi. Agrafiya miyaning ma'lum bir jarohatlanishida natijasida sodir bo'ladi.

Akarofobiya – mayda hashorat yoki hayvonlardan qo'rqish.

Akmeologiya (yunon. Akme yuksak pog'ona, ziyraklik, yuqori, logos – tushuncha ta'limot) – tibbiyot, ijtimoiy va tabiiy fanlarning tutashuvida maydonga kelib, fenomenologiyani, inson taraqqiyotining qonuniyat va mexanizmlarini, insonning kamolotga erishish pog'onasida uning bu taraqqiyoti ancha yuqori darajaga erishuvini o'rganadigan fan.

Aksedental qobiliyatlari (lot. Akседentio - tutib olish) – odamning xavf-xatarsiz, saranjom-sarishta faoliyatda bo'lish qobiliyati.

Aksedentomning yoshlarning kasb tanlashi va kasbga yo'llashdagi amaliy ahamiyati katta.

Akseleratsiya (lot. Acceleratio - tezlashish) – bolalar va o'smirlarda oldingi avlodga nisbatan bo'y nisbati va jinsiy taraqqiyotining tezlashishi, jadallashishi.

Aksentlash (yunon. Accentys – urg'u) – narsalarning ayrim qismlarini boshqa qismlariga nisbatan haddan tashqari kichraytirish yoki kattalashtirish asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat xayol faoliyati.

Aksentlashtirish – ayrim belgilarni ta'kidlash orqali obrazlar yaratish. Masalan: o'rtoqlik hazillari. Aksentlashtirish badiiy adabiyotlarda juda ko'p qo'llaniladi.

Akvafobiya – suvdan, suzishdan qo'rqish.

Alahlash – psixik qo'zg'alishning ko'rsatkichi bo'lib, noto'g'ri xulosa, fikr, qarashlarni tashkil etadi uni tuzatib bo'lmaydi.

Aleksiya (yunon. A - ankor, lexis – so'z) – o'qishning buzilishi. Miya chap yarim shari po'stloq qismining turli bo'limlari jarohatlanishi natijasida o'qishning izdan chiqishi yoki o'qishni egallashga qobiliyatning yo'qligi.

Alkogolizm – bu spirtli ichimliklarni suiste'mol qirish natijasida alkogolga ruhiy va jismoniy qaramlik holatiga tushish, alkogol ichishga yengib bo'lmas darajada istak bilan kechadigan kasallikdir. Alkogolizm sabablari: 1. Ijtimoiy omil - jamiyat farovonligi va kriminal holat; 2. Ruhiy omil – spirtli ichimliklar va surrogatlar iste'moli qilish natijasida ichki a'zolarni tug'ma nuqsonlari o'sib bormoqda va ruhiy yetuksizlikga olib kelmoqda.

Alkogolli deliriy – oq alaxlash kasallik oldidan bemor kunlab, haftalab uyqusi buzilib – dahshatli tushlar, qo'rquv, tez-tez uyg'onishlar, kunduzlari xavotirlik va cho'chishlar bilan kechadi. Kasallik avjga chiqqan davrda to'la uyqusizlik fantastik illyuziyalar haqiqiy ko'rish gallyutsinatsiyalari rivojlanadi. Bemor ko'ziga hasharotlar, baliqlar, ilonlar, itlar, o'liklarni ko'radilar. Gallyutsinatsiyalar mazmuni bemor xulq-atvoridan, harakatidan vasvasaviy gaplari bilan ifodalanadi. Xayoli o'ta buzuluvchan, mimikasi o'ta o'zgaruvchan bo'ladi. Ta'qib qilish vasvasa g'oyalari asosan ko'p uchraydi. Tashqi hodisalarga vaqt va joyga bo'lgan mo'ljallarining yo'qolishi kuzatiladi. Deliriy 3-5 kundan 1-2 haftagacha davom etilishi mumkin.

Aloqa – makon yo vaqtda bir-biridan muayyan masofada uzoqlikda joylashgan ikki yoki bir necha hodisa yo obyektning o'zaro bog'lanish hodisasi.

Alsgemer kasalligi – bu kasallik - qarilik oldi aqli pastligining boshlang'ich shakli hisoblanadi. U 55-65 yoshdan boshlanadi. Kasallik belgilari: 1) Xotira buzilishi vaqt o'tishi bilan chuqur aqliy zaiflik rivojlanadi; 2) Bemorlar joyga nisbatan mo'ljalni yo'qotadilar: o'z uyini, xonasini topa olmaydilar; 3) Nutq buziladi, tutqanoqlar tutishi mumkin; 4) Ta'qib qilish, zaharlanish vasvasa g'oyalari, eshitish ko'rish gallyutsinatsiyalari kuzatiladi.

Altruizm – kimgadir ongli shaxsiy egoistik manfaatlar bilan bog'liq bo'lmagan yordam ko'rsatish istagi. Altruizm (lot. Alter – boshqa) - shaxs qabul qilgan qadriyatlar yo'nalishi bo'lib, bunda uning ma'naviy bahosi mezoni va asosiy mohiyatida o'zga odamning yoki ijtimoiy guruhning qiziqishlari yotadi.

Amaliy psixologiya – ijtimoiy amaliyotning turli sohalaridagi amaliy vazifalarni hal qilishda foydalaniladigan amaliy bilimlar va texnologiyalar majmuasidir. Amaliy psixologiyaning muhim xususiyati shundaki, u yoki bu vazifalar ularning manfaatlari uchun hal etilayotgan iste'molchi yoki buyurtmachini hamisha ko'rsatish mumkin.

Amaliy qobiliyat – praktik aqlning yuksak darajada rivojlanganligini, fahm-farosatning kuchliligi, iroda va yetuk kirishuvchanlikni o'z ichiga oladi. Amaliy qobiliyatga konstruktiv-texnikaviy qobiliyat, boshqaruvchanlik qobiliyati, shu jumladan tashkilotchilik va boshqalar kiradi.

Ambitsiya (lot. Ambito) – manmanlik, o'ta o'zini sevish, o'z-o'zi bilan faxrlanish, o'z-o'ziga baho berish.

Ambivalentlik – lotincha har tomonlama kuchga ega ma'nosini anglatib kishining bir obyektning o'ziga nisbatan bir vaqtning o'zida paydo bo'ladigan bir-biriga qarama-qarshi emotsional irodaviy holatdir.

Amensiya – barcha turdagi mo'ljalning buzilishi ya'ni bemor vaqtni, joyni va o'z-o'zini to'g'ri anglay olmaydi. Fikrlari bir-biri bilan bog'liq emas, gaplari uzuq-yuluq, kayfiyati o'zgaruvchan bo'ladi. Amneziya (lot. A - inkor etish, mnesus - xotira) – miyaning turli qismlarining jarohatlanishi natijasida xotiraning yo'qolish holati. Amneziya – xotira yo'qolishi. Turlari: a) Retrograd amneziya – bemor ruhiy kasallikgacha bo'lgan voqealarni esdan chiqaradi. b) Anterograd amneziya – ruhiy buzulishlardan keyin bo'lgan voqealarni esdan chiqarish. c) Fiksatsion amneziya – kundalik voqealarni esdan chiqarish. Masalan: o'z ismini, turar joyini esdan chiqaradi.

An'ana – avloddan-avlodga o'tib boradigan va muayyan jamiyat, sinf, ijtimoiy guruhlar ichida uzoq vaqt saqlanadigan ijtimoiy madaniy

meros elementlari. Muayyan ijtimoiy tartib - qoidalar, axloq normalari, qadr-qimmatlar, g'oyalar. Urf-odatlar marosimlar va shu kabilar.

Anal bosqich – psixoseksual taraqqiyotning ikkinchi bosqichi bo'lib, unda bola ichaklar faoliyatini nazorat qilish va lazzatlanishni axlatni tutib turish va o'z vaqtida chiqarishga jamlaydi.

Anal xarakter – Freyding anal bosqich taraqqiyotida tutilib qolgan shaxs tipi haqidagi konsepsiyasi. Bunday xarakterga ega bo'lgan odam bahil, qaysar, hamma narsani g'amlovchi (anal - ushlab turuvchi tip) yoki qahrli, tartibsiz va shafqatsiz (anal - agressiv tip) bo'ladi.

Analitik psixologiya – psixologiyadagi oqim, unga 1913 yili K.G.Yung asos solgan. U psixikani idealistik talqin etib, ong bilan g'ayrihuuriylikning o'zaro kompensatsiyasiga asoslangan o'z-o'zini boshqaruvchi tizim deb qaraydi; shunga ko'ra ong va g'ayrihuuriylik integratsiyasi shaxsning bir butunlikka erishishi individuallashish yo'lidir, A.p. psixopatologiya va psixoterapiya, shuningdek, falsafa, antropologiya, madaniyat tarixi, etnologiya, mifologiya va b. fanlar bilan bog'liq va ularga ta'sir ko'rsatgan.

Analiz – obyektning u yoki bu tomonlarini, elementlarini, xossalarini, bog'lanishlarini, munosabatlarini va boshqa shu kabilarni ajratib olib, o'rganilayotgan obyektning har xil komponentlarga (tarbiyaviy qismlarga) bo'lish demakdir. Analiz - shunday bir tafakkur operatsiyasidirki uning yordami bilan biz narsa va hodisalarni fikran yoki amaliy jihatdan xususiyatlarini tahlil qilamiz. Analiz jarayonida butunning uning qismlariga va elementlariga bo'lgan munosabati aniqlanadi.

Anginofobiya – bo'g'ilish yoki nafas tiqilishidan, ko'krak sanchig'i hurujidan qo'rqish.

Animizm (lot. anima - jon) – odam, hayvonot, o'simlik, predmetlarda mustaqil jon borligi haqidagi tasavvur tizimi. A. ibtidoiy din va hozirgi barcha dinlarning asosiy elementidir.

Anoreksiya – ovqatdan bosh tortish. Shizofreniya, depressiv holatlarda, nevrozlarda uchraydi – darhol shifoxonaga yotqizish kerak.

Antikateksis – instinktlarning qondirilishiga imkon bermaydigan to'sqinlik.

Antisipatsiya (lot, anticipatio oldindan bilish, payqash) - odamning hodisalar rivoji, hatti-harakat natijalarini oldindan ko'ra olish qobiliyati.

Antromorfizm (yunon. Anthropos - odam, morphe - shakl) – hayvonlarni odamga xos psixik xususiyatlar va qobiliyatlarining borligi haqidagi tasavvur. Hayvonlarning xulqini antromorfik talqin qilish

odamning hayot va faoliyatida ijtimoiy omillarning yetakchi rolini inkor etadi.

Antropogenez (lot. Anthropos - odam, genesis - tug'ilish) - odamning kelib chiqish jarayoni.

Apatiya - beparvolik, hayotga qiziqishning yo'qolishi. Ular atrofdagilarga to'satgan tashlashishi mumkin. Apatiya (yunon. Apatheia - hissiyotsizlik) - kishining tevarak-atrofdagi olamga nisbatan hech qanday qiziqishsiz befarq holati.

Appersepsiya (lot. ar - ga, qarashli, perceptio - idrok) - shaxs idrokining avvalgi bilim va tajribalariga hamda uning umumiy qiziqish, havaslariga bog'liqligi. Appersepsiya - idrok faqat qo'zg'alishga emas, balki idrok etayotgan subyektning o'ziga ham bog'liqdir. Alohida holda ko'z ham, quloq ham idrok etmaydi, balki konkret tirik kishi idrok etadi va idrokda hamisha idrok etuvchi kishi shaxsining hislatlari, uning idrok etilayotgan narsalarga munosabati, kishining ehtiyojlari, qiziqishlari, intilishlari, istaklari va his-tuyg'ulari u yoki bu tarzda aks etadi. Idrokning kishi psixik hayoti mazmuniga, uning shaxsiga xos xususiyatlarga bog'liqligi appersepsiya nomi bilan yuritiladi.

Aql - insonning ma'naviy va ruhiy faoliyatida barcha oliy narsalar hodisalarni qanday bo'lsa, aynan shunday holda bilish qobiliyati, mavhum fikrlash va tushunchalar yaratish xususiyati.

Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish - insonda yangi harakat, obraz va tushunchalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq ko'p qirrali murakkab o'zgarishlar haqidagi ta'limot. U bir necha bosqichdan iborat: harakatning asoslarini tahminiy tuzish orqali ifodalash; harakatning moddiy shaklda tarkib topishi; ijtimoiylashgan kuchli tashqi nutq; harakatning tashqi va ichki nutqda shakllanishi; nihoyat, oxirgi natijani interiorizatsiyasi (aqliy xarakterlar).

Aqlning sertashabbusligi - insonning o'z oldiga yangi muammo, aniq maqsad va konkret vazifalar qo'yishni, ana shularning barchasini amalga oshirishda, nihoyasiga yetkazishda yechimni qidirishda usul va vositalarni shaxsan o'zi izlashi, aqliy zo'r berib intilishi, ularga taaluqli qo'shimcha belgi va alomatlarini kiritishdan iborat bosqichlarning namoyon bo'lishini nazarda tutamiz.

Asab tizimi - hayvon va odam organizmining barcha funksiyalarini o'zaro hamda tashqi muhit bilan to'g'rilab, uyg'unlashtirib turuvchi a'zolar tizimi. U organizmning ichki muhitida ro'y beradigan o'zgarishlar va tashqi muhit ta'sirida qo'zg'alib, turli a'zolarga ta'sir etgan holda ularning faoliyatini kuchaytirib yoki susaytirib turadi.

Assotsiativ avtomatizm – fikrlarning nasliy tezlashuvi yoki sekinlashuvi ya'ni xayoliy, tovushsiz gaplashishlar, telepatik fikran aloqalar, fikrlarni uzatish eshitish va ko'rish gallyutsinatsiyalari kuzatiladi.

Assotsiativ psixologiya – XVII-XIX asrlarda maydonga kelgan psixologiya fanining yo'nalishi. U tushuntirishning asosiy yo'llari tariqasida assotsiatsiyadan foydalanadi. Psixik hodisalarning mohiyati sifatida talqin etiladi. U ko'proq Angliyada tarqalgan.

Assotsiativ tajriba – kishi psixik holatining tajribalar hosil qilgan assotsiatsiyalarini aniqlashga qaratilgan tajriba metodi. A.t. birinchi marta nemis psixologi V.Vundt tomonidan qo'llanilgan.

Assotsiatsiya (lot. associatio - birlashtirmoq) – psixik hodisalar orasidagi o'zaro bog'lanish, u ma'lum qonunlar bo'yicha tarkib topadi (jumladan, fazodagi yondoshlik, xronologik o'xshashlik, qarama - qarshilik va b.).

Astenik – (yunoncha so'zdan olingan bo'lib, kuchsizlik, zaiflik ma'nosini bildiradi) emotsiyalar o'zining sustligi, motorli, kuchsizligi bilan tavsiflanadi. Bunday hissiy holat deb atashadi. Bunday hissiyot insonni bo'shashtiradi, uni xayolga cho'mdiradi, xayolparast qilib qo'yadi. Shu sababdan favqulotda shaxsdagi befoyda emotsional kechinmaga, uyalish, vijdon azobi, andisha esa qo'rqqolikka aylanib qolishi xavfi kuchli.

Astenik sindrom – bu sindromlar – o'ta charchash holatidir, tez jahli chiqish va beqaror kayfiyat jismoniy va ruhiy zaiflik, uyqu buzilishi bilan kechadigan holatdir. Bemorlarda aqliy faoliyat, xotira, pasayib, bosh og'rig'i kuzatiladi. Ular jahldor, injiq tasirchan, yig'lamsiramgacha boradi. Bemor yorug' chiroqni, o'tkir hid, baland tovushni ko'tara olmaydi. Qon bosimi ko'tariladi, puls tezlashadi, kuchli ter ajralishi, ich surilish, ishtaha pasayishi, erkaklarda – jinsiy mayl susayadi, ayollarda jinsiy sovuqlik paydo bo'ladi.

Asteniya (yunon. Astheneia - kuchsizlik, holsizlik) – kuchli toliqish va organizmning madorsizligida namoyon bo'ladigan asabiy psixik holsizlanish. Bunda odamning uyqusi buziladi va kayfiyati beqaror bo'ladi.

Atributsiyaning fundamental xatosi – kuzatuvchilarning xulqqa vaziyatning ta'sirini kamsitib, dispozitsiya (ichki shaxsiy sifatlar) ta'sirini bo'rttirib baholashi (shuningdek, u mos kelish ishonchi deb ham ataladi. Biz aksariyat odamning xulqi uning dispozitsiyalariga mos keladi deb hisoblaymiz).

Attraksiya – (lotincha soʻz – attrahere – yoqtirish, oʻziga jalb etish) – bu bir insonning boshqa bir insonga ijobiy munosabati asosida yoqishi va yoqtirish, oʻzaro mobillikni tushuntiruvchi emotsional hisdir.

Audivizual idrok (ing. audio – eshitmoq vision – koʻrmoq) – bir vaqtning oʻzida ham eshitib, ham koʻrib idrok qilish.

Autistik tafakkur – insonning xohish va istaklarini amalga oshirish bilan bogʻliq ravishda sodir boʻladi. Amalga oshirilishi lozim boʻlgan tafakkur harakatlari oʻsha shaxsning oʻz tilaklarini roʻyobga chiqarishga yoʻnaltirilgan fikr yuritilishdan iborat individuallik yoki individualistik tafakkurdir.

Autizm – turli shakllarda namoyon boʻladigan real borliqdan ketish. Bemorlar kasallik boshidanoq atrofdagilardan ajragan, jim yuradi, odamlar bilan kam muomalada boʻladi, majbur boʻlganda sovuq muomalada boʻladi. Ayrim hollarda bemorlar niqobda yuradilar: katta qora koʻzoynak, keng shlyapa uzun soch soqol. Kasallikni ogʻir kechishda bemorlar sababsiz oʻqish va ishini tashlaydilar uydan chiqmay qoladilar, koʻp vaqtni oʻrinda oʻtkazadilar. Baʼzi hollarda shahardan chiqib ketadilar, oʻrmon togʻlarda yashaydilar, ular oʻzlari bilan ovora boʻlib, oʻz xayollari bilan yashaydilar.

Autsayder (ingl. Outsider - begona) – ijtimoiy psixologiya atamasi boʻlib, psixologik sigʻisha olmaganligi tufayli guruh tomonidan inkor etilgan aʼzo.

Avtomatizm (yunon. Automatos - oʻz-oʻzidan sodir boʻladigan) – ihtiyorinuz yoki anglanmagan holda amalga oshiriladigan harakatdir.

Axloqiy barkamollik – eng oliyanob xarakter xislati, har qanday sharoitda ham axloqiy talablariga qatʼiy rioya qilinadigan axloqiy eʼtiqod.

Axloqiy hislar – odamning boshqa kishilarga, jamoa va oʻzining ijtimoiy burchlariga boʻlgan munosabatlarida ifodalanadi. Inson bu hislarni kechirar ekan, maʼlum axloqqa, yaʼni ijtimoiy axloq-qoidalari va normalari majmuiga asoslanib, boshqa kishilarning hatti-harakatlariga yoki ruhiy hususiyatlariga hamda oʻzining hatti-harakatlariga baho beradi.

Axloqiy xavotir – Individuumning Egosi (“Men”) Super-Ego (Yuqori-Men) tomonidan jazolanish xavfi tugʻilganda u his qiladigan uyat va aybdorlik hissi.

Bavositalik – borliqdagi narsa va hodisalarning yordamchi vositalarini qoʻllash orqali namoyon boʻladigan bilish usuli (mas., haroratni termometr orqali aniqlash).

Bazaviy ijtimoiy ustanovkalar – ular shaxsning umumiy yo‘nalishini belgilaydi va ularni o‘zgartirish e‘tiqodlar va dunyoqarashlarni o‘zgartirish demakdir.

Beixtiyor esda qoldirish - qiziqish katta rol o‘ynaydi. Bizning oldingi tajribamiz bilan bog‘liq narsa va hodisalar beixtiyor oson esda qoladi. Biz ba‘zi bir faktlarni bilsak, ular haqida tushunchaga ega bo‘lsa, shu faktlarga tegishli bo‘lgan hamma narsalar oson esda qoladi.

Bilish – olamning inson ongidagi in‘ikos etish jarayoni, inson o‘zini qamrab olgan atrof-muhit to‘g‘risida bilish va tasavvurga ega bo‘lmay turib, faoliyatning biron bir turi bilan shug‘ullana olmaydi. Bilishning mahsuli natijasi bilim bo‘lib, har qanday kasbni egallash faqat bilim orqali ro‘y beradi. Bilish - psixik aks ettirish jarayoni, bilimlarni egallash va o‘zlashtirishni ta‘minlaydi, bilishga qiziqish – aqliy intellektual hislar mahsuli, bu odamning tevarak-atrofdagi olamni bilish ehtiyoji tariqasida namoyon bo‘ladi.

Biogenetik qonun (yunon bios - hayot, genesis - kelib chiqmoq) – psixologiyada E.Gekkel tomonidan ochilgan biologik qonun bo‘lib, unga ko‘ra ontogenez filogenezni takrorlaydi deb hisoblanadi. Odam psixikasining ontogenezda birinchi signallar tizimiga tayangan holda amaliy faoliyat asosida avval oddiy ehtyojlarni qondirishdan boshlanib, keyin emotsiya va bilim rivojlanadi, so‘ngra ikkinchi signallar tizimi asosida ong shakllanadi, deb hisoblaydi.

Biografik metod (yunon. bios - hayot, grapho - yozaman, ko‘rsataman) – odamni uning tarjimai holi bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlar orqali o‘rganish usuli.

Biologik ehtiyojlar – bu fiziologik (tashnalik, ochlik, uyqu), jinsiy, moslashuv ehtiyojlari.

Biologik shartlanganlik osttuzilishi – miya morfologik va fiziologik xususiyatlariga muayyan darajada bog‘liq bo‘lgan patologik o‘zgarishlarni, shaxsning yosh, jins xususiyatlarini va uning tipologik holatlarini birlashtiradi.

Birinchi signal tizimi – narsa va hodisalarning sezgi a‘zolariga bevosita ta‘sir etishi natijasida bosh miya yarim sharlari qobig‘ida hosil bo‘ladigan shartli muvaqqat nerv bog‘lanishlari, u sezgi va idrok turlarida namoyon bo‘ladi.

Birlamchi jarayon – tug‘ma ehtyojlarni fantaziyada qondirish. Asosiy ehtiyojni qondirish bilan assotsiatsiya qilinadigan obyekt obrazini shakllantirganda individuumning keskinligi kamayishini izohlaydigan psixologik fenomen.

Bixeviorizm – psixologiyada dastavval AQSHda hayvonlarda o‘tkazilgan kuzatishlarning (E.Torndayk, D.Uotson va boshqalar) natijasi sifatida paydo bo‘lgan yo‘nalishdir. Bixeviorizmning negizini psixologik tadqiqot predmeti sifatida psixikani va ongni inkor etish yotadi. Faqat xulq-atvorgina tadqiqot predmeti deb tan olinar, psixologiyaga esa xulq-atvor va muhitning o‘zaro nisbati qonuniyatlarini tadqiq etish tavsiya qilinar edi. Bixevioristning fikricha, psixologiyaning vazifasi hissiyot organlariga ta’sir qiladigai omil - stimul (S) ni, ya’ni qo‘zg‘atuvchi (gap qistirish, o‘q otish, kartina ko‘rsatish va shu kabilar) ni bilgan holda unga javob, ta’sir - reaksiya (R) qanday bo‘lishini yoki ta’sirotni bilgan holda uning qaysi bir omilga javob tariqasida yuz berganini oldindan aytib berishdan iborat emish. Klassik bixeviorizmning formulasi - $S \rightarrow R$ dir. Bixevioristik psixologiyaning mexanistikligi izchildir: odam - bu xuddi hayvonlar kabi, psixikaga egami, yo yo‘qligidan qat’iy nazar, u qo‘zgatuvchilarga javob beradigan o‘ziga xos bir mashinadir.

Bixevorial meditsina – salomatlik va kasalliklar haqidagi bixevorial va tibbiy bilimlar birgalikda foydalaniladigan fanlararo soha.

Bixevorial tasdiq – ijtimoiy kutishlar odamlarni ayrim harakatlar qilishga majbur qiladi, natijada ularning xulqi boshqalarni shu kutishlarni tasdiqlash uchun undashga sabab bo‘ladi.

Borliq – obyektiv olanning ongdan holi bo‘lgan holda mavjudligini bildiruvchi falsafiy tushuncha.

Bosh miya – markaziy nerv tizimining old (yuqori, oliy) qismi bo‘lib, u bosh miya qobig‘ida joylashgan oliy nerv tizimining moddiy asosi. B.m.ning o‘rtacha og‘irligi (odamniki) 1470 g. Bosh miya - markaziy nerv tizimining old (yuqori, oliy) qismi bo‘lib, u bosh miya qobig‘ida joylashgan oliy nerv tizimining moddiy asosi.

Bosh miya katta yarim sharlari - bosh miyaning ikki pallasi. Uning ustki qismi uchun chuqur bo‘lmagan o‘nqir cho‘nqirlardan iborat. B.m.k.ya.sh. orqa, old, yon, orolcha, orqa umurtqalarga bo‘linadi. Miya nerv kataklari neyronlardan iborat bo‘lib, ikki katta yarim sharlar po‘stlog‘ini tashkil etadi. Miyadagi oq suyuqlik neyron o‘simtalaridan tarkib topib, miya yo‘llarini ko‘rsatib turadi.

Burch - shaxsning axloqiy vazifasi bo‘lib, u odamda vijdonni uyg‘otadi.

Dadillik – kishining hayot va omonligi uchun omon bo‘lgan kishilarni yengishda ko‘rinadigan iroda kuchidir.

Daktilologiya – (yunon, dactylos - barmoq logos - ta’limot) - harflar va so‘zlarni qo‘l barmoqlarining turli holatlari yordamida ifodalashdan

iborat maxsus nutq shakli. D, kar soqovlarga ta'lim-tarbiya berishda va ularning o'zaro fikr almashuvlarida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Daltonizm (ingliz kimyogari va fizigi dalton nomidan) – ko'z pardasidagi hujayralar funksiyasining buzilishi natijasida qizil rangi ajrata olmaslikdan iborat ko'ruv sezgisining nuqsoni.

Dangallik – psixik xususiyat bo'lib, u uchta turda namoyon bo'ladi. Irodaviy zo'r berishni talab qiluvchi, faoliyatni bajarishni istamaslik, ana shu faoliyatsizlikdan zavq qilish.

Daraja boshlang'ich, yengil daraja – mast odam sergap, xushchaqchaq, tanqidsiz va bo'lar bo'lmasga kuladi o'z muvozanatini yo'qotadi. Kayfiyati tez uzgaruvchan ya'ni jahldor, tajovuzkor va urishqoq bo'lib qoladi. Bu holatda bajarilayotgan ishlarning hajmi va sifati pasayadi. Ishtaha ochilib, jinsiy moyillik oshadi.

Debillik – aql zaiflikning yengil darajasi. Ular mustaqil hayot kechirishlari, kasb egallashi, oilali bo'lishi mumkin. zehning pastligi tanqidiy qobiliyatining pasayishi, sudlashuvchilar xususiyatlarga olib keladi. Bunday bemorlar passiv qonunbuzarlar bo'lib chiqadi. Intelektni pastligi tufayli o'ta ishonuvchan, o'zini xatolarini tuzatishga noqobil o'zining xarakterlarini biron-bir maqsadga yo'naltira olmasliklari bilan xarakterlanadi. Oligofreniyada ruhan yetishimovchilikdan tashqari jismoniy yetishimovchilik ya'ni tana a'zolarining yaxshi rivojlanmaganligi bolalikda qayd etiladi va nuqsonlar uchraydi.

Deduksiya (lot. deductio - keltirib chiqarish) – umumiy hukmlardan yakka hukmlarga qarata borish orqali mantiqiy hulosa chiqarishdan iborat tafakkur shakli.

Deduktiv xulosa chiqarishda – umumiy va yakka hukmlardan yakka yoki juz'iy hukm keltirib chiqariladi. Misol uchun barcha metallar elektr tokini o'tkazadi. Temir metaldir. Demak, temir ham elektr tokini o'tkazadi.

Defektologiya (lot. Defectus - yetishmaslik, yunon. logos - ta'limot) – jismoniy va psixik nuqsonli bolalarning psixik xususiyatlarini o'rganadigan fan.

Deindividualizatsiya – o'z-o'zini anglashning yo'qolishi va baholash qo'rquvi; anonimlikni ta'minlaydigan va alohida individga diqqatni tortmaydigan guruhli vaziyatlarda paydo bo'ladi.

Deliriy – bemor o'z shaxsini to'g'ri anglay oladi lekin vaqt va joyga nisbatan mo'ljali to'g'ri bo'lmaydi. Bemor bir narsalarni o'zidan olib tashlaydi, ushlab ko'radi, nutqi sekin valdirash, tushunarsiz shaklda bo'ladi. Deliriy bir necha daqiqadan, soatlar haftalargacha davom etadi.

Demensiya – bemor yangi bilim va odatlarni o‘rganish, ma’lumot olish tushunchasi va aqliy xulosa qilish buziladi. Avvalgi o‘rgangan bilim va tajribalari pasayadi yoki umuman yo‘qoladi. Aqlpastlik xafaqon kasalligida, miya zaxmida uchraydi.

Depersonalizatsiya (lot. depersona - shaxs bo‘lmoq yo‘q qilmoq) – shaxsning bo‘linishi, unda shaxsiy “men” hissining yo‘q bo‘lishi.

Depressiv holatlar – nevrozlarda uchraydi, ruhiy bemorlik belgilari shakllanishida ishtirok etadi.

Depressiv qo‘zg‘alish – kuchli qayg‘u va parishonlikdan chiqa olmasdan hayotdan umid uzilgandek ruhiy holat, ya’ni bemor ingrashlari, ovozi boricha yig‘lanishlari va o‘zlariga jarohat yetkazishlari mumkin.

Depressiv realizm - yengil depressiya holatida (o‘z “Men”i foydasiga emas) obyektiv mulohazalar, atributsiya va bashoratlar tuza oladigan odamlar tendensiyasi.

Depressiv stupor – harakat va nutq faoliyatlari tormozlanishi. Shizofreniya va psixozlarda uchraydi.

Depressiya (lot. depressio ruhan tushish) – tushkunlik kayfiyati odamda intilishlarning susayishi, harakatlarning tormozlanishi bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladigan ruhiy holat.

Desentratsiya (log. Decentrum - yangidan kashf etmoq) – qo‘shimcha rad qilish, bir yerga yig‘ish, D. genetik epistemeologiyaning asosiy tushunchalaridan biri. U egotsentrizمنى rad qilib, yangi obraz, tushucha va fikrlarni boshqa kishilar fikriga qo‘shilgan holda yangidan kashf qilishni anglatadi.

Deserebratsiya (lot, de...- ajralish, cerebrum - miya) – bosh miyaning o‘zakka oid qismi kesilishi natijasida oraliq miya va markaziy nerv tizimining yuqori qismlarini pastki qismlaridan ajratish metodi. D qo‘llanilgan hayvonlarda muvozanatni ta‘minlab turuvchi reflekslar yo‘qoladi. D.dan so‘ng egiluvchan bo‘g‘inlar qisqaradi va natijada rigidlik vujudga keladi.

Determinizm – bizning butun xulqimiz qandaydir hodisalar ta‘siriga bog‘liq va shuning uchun erkin namoyon bo‘lmaydi deb tasdiqlash. Determinizm (lot, determinare - aniqlamoq) – tabiatdagi barcha narsalar, shu jumladan, psixik hodisalarning ro‘y berishi obyektiv sabablar va qonunlar bilan belgilanadi degan ta‘limot. Determinizm prinsipi tabiat va jamiyat hodisalari, shu jumladan, psixik hodisalarning obyektiv sabablar bilan belgilanishi haqidagi ta‘limotdir. Shu boisdan psixika, ongning obyektiv borliq va nerv sistemasi bilan belgilanishi ilmiy

psixologiyaning buyuk yutug'i hisoblanadi. Shuning uchun determinizm psixikaning turmush tarzi bilan belgilanishini va turmush tarzi o'zgarishiga mutanosib ravishda u ham o'zgarishini anglatadi.

Dezinformatsiya samarasi – hodisaning sodir bo'lishida ishtirok etgan odam u haqda yolg'on axborot oladi va keyinchalik bu dezinformatsiyani bo'lib o'tgan hodisa haqidagi o'z xotirasiga kiritib qo'yadi.

Differensial psixologiya – (lot. differentia - farq) psixologiya fanining bir qismi bo'lib, kishilar o'rtasidagi individual psixologik farqlarni o'rganadi.

Diffuz guruh (lot. diffusio tarqalish) – odamlarning tasodifiy birlashuvi natijasida hosil bo'lgan guruh.

Dilkashlik – shaxsning doimo jamoa bilan birga bo'lishga, jamoa a'zolarining ko'nglini topa bilishga intilishdan iborat ijobiy xarakter hislati.

Din psixologiyasi – diniy ong xususiyatlari, tizimi va funksiyalarining ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganuvchi psixologiya tarmog'i.

Dinamik stereotip (yunon. dynamikos - kuchli, stereos - qattiq tipos - iz) – bosh miya katta yarimsharlarining faoliyatini yaxlitlab turish turi bo'lib, u shartli reflekslarning ketma-ketligini ta'minlab turadi. D.s. inson odatlari, mehnat malakalarining fiziologik asoslaridir.

Dinamik stereotip (yunon. dynamikos - kuchli, stereos - qattiq tipos - iz) – bosh miya katta yarim sharlarining faoliyatini yaxlitlab turish turi bo'lib, u shartli reflekslarning ketma-ketligini ta'minlab turadi.

Direktiv – majburiy hamkorlik hukm suruvchi joylarda mavjud bo'ladi.

Disforiya – kayfiyatning pasayishi sababsiz va urush qidiradigan holat.

Dismneziya – bunga a) xotiraning pasayishi - gipomneziya aql zaiiflikda uchraydi. b) xotiraning kuchayishi - giperamneziya (moniakal, paranooyal sindromlarda uchraydi) kiradi.

Dismorfofobiya – tashqi ko'rinishdagi tasavvur qilingan nuqsonlardan qo'rqqish.

Divergent tafakkur – fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi.

Do'q po'pisa, qo'rqitish – moddiy, ma'naviy va boshqa zarami yetkazishga qaratilgan har xil turdagi tahdid harakat.

Do'stlik – o'zaro bir-birini tushunuvchi ikki inson o'rtasida yuzaga keluvchi emotsional ijobiy hisdir, odatda bir jins vakillari orasida yuzaga keladi.

Dominanta (lot. Dorainans - hukmron) – markaziy nerv tizimining vaqtincha hukmron qismini bo'lib, boshqa qismlar faoliyatini tormozlaydi.

Dualizm (lot. duafis - ikki yoqqلامي) – borliq ham moddiy, ham ruhiy bo'lgan ikki asosdan tashkil topgan deb hisoblovchi falsafiy ta'limot bo'lib, psixofizik parallelizm konsepsiyasining asosidir.

Dunyo obrazi – insonga dunyoda harakatlana olish uchun mo'ljal bo'lib xizmat qiladigan olam to'g'risidagi, boshqa kishilar, o'zi va o'z faoliyati to'g'risidagi bir butun, yaxlit ko'p darajali tasavvurlari tizimidir. Bu subyektiv kechinmalar tilida yaratilgan tashqi dunyoning ichki modelidir. Ta'kidlash lozimki, bu olamni idrok qilish natijasida hosil bo'lgan, ichki rejaga noavtomatik tarzda ko'chirilgan obrazlar emas, balki hayotiy faollikning har biri keyingi momentidagi hodisalarni bashorat qila oladigan, chuqur anglanmagan taxminlar asosida aktiv qurilgan tizimdir. O'zini va tashqi olamni faol o'zlashtirish davomidagi tekshirish usullari bilan (sinov va xatolar) yaratiladi.

Dunyoqarash – odamning tevarak-atrofdagi olamga va unda o'zining tutgan o'rniga qarashlaridan kelib chiqqan tizim. Kishilarning falsafiy, siyosiy, ilmiy, diniy, aqliy va estetik qarashlari yig'indisi. Dunyoqarash - tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni ma'lum bir qolipda. o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o'rin egallashga chorlaydi. Dunyoqarash - shaxsning shaxsligini (individ emas), uning ma'naviyatini, ijtimoiylashuvi darajasini ko'rsatuvchi kuchli motivlardandir. Shuning uchun ham uning shakllanishi va o'zgarishi masalasi muhim masalalardan bo'lib, hamma vaqt va davrlarda ham o'ta dolzarb bo'lib kelgan.

Dushmanlik agressiyasi – nafrat tufayli uyg'onadigan va shaxsiy maqsadga aylangan agressiya.

E'tiqod – maslakni amalga oshirish, shaxsning kundalik ehtiyojiga aylangan intilishi, hatti-harakati. E'tiqod – shaxning shunday ongli yo'nalishki, unga o'y-qarashlari, prinsiplari va dunyoqarashga mos tarzda yashashga imkon beradi, e'tiqodning predmeti turlicha bo'ladi. Vatanga, dinga, fanga, kasbga, axloqiy normalarga, oilaga, go'zallika va shunga o'xshash.

E'tiqodlar mustahkamligi – biror bir odamning birlamchi tasavvurlarining mustahkamligi. E'tiqodning asosi diskreditatsiya

qilinganda (obro'sizlantirilganda) ham, e'tiqodning haqiqiy bo'lganligining izohi saqlanib qolaveradi.

Edip kompleksi (lotin. *complotus* – aloqa) – bolaning o'z onasini otasidan raqib sifatida rashq qilish.

Edip yoki Elektra kompleksi – Fallik bosqichida paydo bo'ladigan, bolaning qarama-qarshi jinsdagi ota yoki onasi bilan jinsiy qo'shilishga intilishi, o'zi bilan bir jinsdagi ota yoki onasi tomonidan tahdidni his qilishi va vaqti kelib ziddiyatni o'zini o'zi bilan bir jinsdagi ota yoki onasi bilan identifikatsiya qilish orqali bartaraf qilishidan iborat jarayon. Bola qarama-qarshi jinsdagi ota yoki onasiga nisbatan erotik hissiyotni, o'zi bilan bir jinsdagi ota yoki onasiga nisbatan esa rashkni boshdan kechiradi.

Effektor (lot. *effektirus* ma'lum natija beruvchi) – reflektor tizimning (mushak va tomirlardagi) ish bajaruvchi qismi, qabul qiluvchi reseptorlardan farq qiladi.

Efferent nerv (lot. *efferrens* - olib chiquvchi, *neugon* - asab) – nerv impulslarini markaziy nerv tizimidan ish bajaruvchi a'zolarga o'tkazuvchi nerv.

Egizaklar metodi - bir xil irsiyat, egizak bolalarni qiyoslab tadqiq qilish. Bu metodni F.Galton taklif qilgan.

Ego - psixoanaliz nazariyasida ijtimoiy dunyo bilan samarali hamkorlik qilish uchun zarur bo'ladigan idrok, tafakkur, malaka va psixik faollikning boshqa hamma ko'rinishlarini o'z ichiga oladigan shaxs qurilmasining qirrası.

Ego-ideal – ota-onalar tomonidan bolaga o'rgatilgan o'z-o'zini takomillashtirishning aniq standartlaridan iborat Super Egoning bir qirrası. Individ o'z-o'zini baholash va mag'rurlik hissining o'sishiga olib keladigan maqsadlarga erishishga intilganda Ego - idealdan foydalanadi.

Egoizm – (Ehtimol har qanday xulqning asosida yotadigan) shaxsiy farovonlikni yaxshilashga intilish. Boshqalarning farovonligini yaxshilashni maqsad qilib qo'yadigan altruizmga teskari. Egoizm (lot. *ego* - men) - xudbinlik bo'lib, shaxsning o'z qiziqishlari va ehtiyojlarini boshqa shaxslar va ijtimoiy guruh qiziqishlari bilan qiziqmay, ulardan yuqori ko'rishi. Egoizmining rivojlanishi va shaxs yo'nalishida ustivor bo'lishi tarbiyadagi jiddiy xatoliklar natijasidir.

Egotsentrik nutq (lot. *Ego* - men, *centrum* - markaz) – nutq faoliyati bo'lib, bog'cha bolasining o'yini bilan birga olib boriladigan va bolalarning o'z-o'ziga qaratilgan nutqi.

Ehtiros – muayyan faoliyat turiga kuchli intilish bilan bog‘liq davomli va barqaror emotsional holat. Ehtiroslar kishidagi barqaror his-tuyg‘ularning alohida turini tashkil etadi. Odamlarning bajarayotgan ishiga va hayotida yuz berayotgan narsalarga nisbatan ichki munosabati boshdan oxirigacha barqaror tus kasb etadi, doimiy harakat qiluvchi kuchga aylanadi. Bu kuch kishi tomonidan uni hayajonlantirgan narsa qanday idrok etilishi, tasavvur qilinishi va xayolga keltirilishi, uning bir-biri bilan almashib turadigan hissiyotlarni, affektlarni, kayfiyatlarni qanday boshdan kechirishi xususiyatlarini belgilaydi. Bu kuch muayyan harakatlarga da‘vat etuvchi va qaror topgan his-tuyg‘uga mos kelmaydigan hatti-harakatlarga qarshi qudratli to‘siq sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, his-tuyg‘u kishining tafakkur va faol faoliyat ko‘rsatishi jarayoniga jalb etilgan bo‘ladi. Kishining fikrlari va hatti-harakatlari yo‘nalishini belgilaydigan barqaror, chuqur va kuchli his-tuyg‘u ehtiros deb ataladi.

Ehtirosli muhabbat – boshqa odam bilan aloqaga kuchli moyillik holati. Ehtirosli sevishganlar bir-birlari bilan butunlay band bo‘ladilar, sevganlarining muhabbatiga erishganlarida ekstaz holatiga tushadilar, uni yo‘qotganlarida esa g‘am-anduhlarining chegarasi bo‘lmaydi.

Ehtiyoj – jonli mavjudotning tobe ekanligini ifoda etuvchi va mazkur shart-sharoitlarga nisbatan faolligini namoyon qiluvchi holat tariqasida ifodalaniladi. Ehtiyoj - odam va hayvon faolligining asosiy manbai, aniq sharoitlar bilan bog‘liq zaruriyatning ichki holati.

Ekspektatsiya (ing. Expectation - kutish) – individdan ijtimoiy rollarni talablariga muvofiq bajarilishini kutish.

Eksperiment - tajriba (lot. experimentum - namuna, tajriba)-psixologiyaning asosiy metodlaridan, o‘zgaruvchan mustaqil psixik holatlarning boshqa nomustaqil holatlariga ta’sir etishdagi aniq ma’lumotlarga tayanadi.

Eksperimental tadqiqot – bir yoki bir necha omillar (mustaqil o‘zgaruvchan qiymatlar)ni manipulyatsiya qilib va boshqalarini nazorat qilib (o‘zgarishsiz qoldirib), sabab-oqibat haqidagi ma’lumotlarni aniqlaydigan tadqiqot.

Ekstaz – o‘zini haddan tashqari baxtli sezish.

Eksteriorizasiya (lot. exterior - tashqiga aylanish) – ichki psixik faoliyatning tashqi amaliy faoliyati, jonli mushohadaga aylanishi.

Eksternallik-internallik – (lot. externus – tashqi va internus - ichki) individdning muayyan joyga nisbatan joylashishi, insonning o‘z

faoliyatining ma'suliyati tashqi kuchlar (eksternallik yoki o'zining shaxsiy qobiliyati va urinishlariga (internallik) qo'shib qo'yishi.

Ekstirpatsiya (lot. Extirpatio - ildizi bilan olib tashlash) – biror bir a'zo yoki uning bir qismini olib tashlash.

Ekstremial (log. extremus - so'nggi, keskin) – oxirgi, o'ziga xos, ilojisi bo'lmagan holat.

Ekstroreseptiv sezgilar – tashqi olamdagi narsa va hodisalarning turli xususiyatlari haqida darak beruvchi sezgilar, mas., ko'rish, eshitish, hid va ta'm bilishdan iborat tashqi sezgilar. Tashqi muhitdagi narsalar va hodisalarning xususiyatlarini aks ettiradigan hamda tananing yuzasida reseptorlari bo'lgan eksterotseptiv sezgilar. Ekstrotseptorlarni ikkita guruhga aloqa bog'laydigan kontakt va distant retseptorlarga ajratish mumkin. Aloqa bog'laydigan retseptorlar ularga ta'sir qiladigan obyektlar bilan bevosita aloqa bog'lagan paytda quzatiladi; badanning tegishi orqali sezish, ta'm bilish retseptorlari shular jumlasidandir. Distant retseptorlar uzoqdagi obyektдан keladigan qo'zg'atishdan ta'sirlanadi; distant retseptorlarga ko'rish, eshitish, hid bilish reseptorlari kiradi.

Ekstrovertlik – ayrim kishilarning xarakterini belgilab beruvchi xysysiyat. Kishining nihoyatda xushchaqchaqligi, ochiq ko'ngilligi va boshqa kishilarga zavq bilan qarashlarida, ularga qiziqishlarida namoyon bo'ladi.

Ekzogen stupor – bosh miyaning infeksiya yoki zaharlanish ta'sirida vujudga kelgan xarakatsizlanish holati.

Ekzopsixika – shaxsning tashqi muhitga nisbatan munosabatini, shaxsga qarama-qarshi bo'lgan barcha jihatlarini, shaxslararo va obyektiv munosabatini belgilaydi. "Ekzopsixika" esa o'z tarkibida shaxs munosabatlarining tizimini va uning qiziqishlari, mayllari, ideallari, maslagi, ustunlik qiluvchi, hukmron hissiyotlarini, egallagan bilimlarni, tajribalarni va shu singarilarni qam-rab oladi. "ekzopsixika" ijtimoiy voqeliklar ta'siri ostida yuzaga keladi, tarkib topadi va takomillashib boradi.

Elektroensefalograf – (yunon. elektron - qahrabo, enkephalos - miya, grapho - yozaman) miyaning biotoklarini yozib oluvchi asbob.

Elektroensefalogramma (EEG) (yunon. elektron - qahrabo, enkephalos - miya, gramma – chiziq) maxsus elektroensefalograf asbobi yordamida miyaning bioelektrik faolligini tekshirish usulining mahsuloti.

Elementar (sodda) sensor psixika bosqichi – A.N.Leontev ta'rificha, tashqi muhit obyektning u yoki bu sifatiga qarab javob

beraveradi. Bu oddiy sezish bosqichidir. K.E.Fabri fikricha, oddiy sensor psixikaning ikki - past va yuqori darajasiga ajratiladi. Ko'pgina bir hujayralilar hamda ayrim ko'p hujayralilarda psixik rivojlanishning past darajasi kuzatiladi. Bunda psixik faollikning oddiy turlari namoyon bo'ladi. Elementar psixikaning yuqori bosqichida ko'p hujayrali umurtqasizlarda namoyon bo'ladi.

Elementar ustanovkalar (set) – oddiy, elementar ehtiyojlar asosida ko'pincha ongsiz tarzda hosil bo'ladigan ustanovkalar. Ularni o'zgartirish uchun moddiy shart - sharoitlarni va odamdagi ehtiyojlar tizimini o'zgartirish kifoya.

Emotsional qayta o'rganish – davolashning oxirgi bosqichida qo'llaniladigan, patsientga o'zi anglagan narsani kundalik hayotida o'zgartirishga erishish uchun foydalanishiga yordam beradigan psixoanalitik usul.

Emotsional stress – ta'qiq qilish, falokat, hayotiy o'zgarishlar (oilaviy mojarolar, to'satdan ishdan bo'shatish yaqin kishisini yo'qotish, uzoq muddatli sevgidan qutila olmaslik sababli, xavf ostida qolganda, atrofdegilar tomonidan noto'g'ri munosabat qilinganda va hokazolarda) ko'rinadi. Olimlar o'tkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, falokat, hayotiy o'zgarishlar, kundalik tashvishlar ko'proq stresslar hisoblanadi.

Emotsional xotira – his-tuyg'uga xos xotiradir. His-tuyg'ular hamisha bizga ehtiyojlarimiz va qiziqishlarimiz qanday qondirilayotgani, bizning tevarak-atrofdagi olamga munosabatimiz qanday yo'lga qo'yilganligi haqida xabar berib turadi. Shuning uchun ham hissiy xotira har bir kishining hayoti va faoliyatida juda muhim ahamiyatga egadir. His etilgan va xotirada saqlab qolingan tuyg'ular yohud harakatga chorlovchi, yoki o'tmishda salbiy kechinmalarga sabab bo'lgan harakatlardan tiyilishga undovchi signallar tarzida amal qiladi. Boshqa bir kishiga hamdard bo'lish, kitob qahramoni kechinmalari bilan yashay bilish qobiliyati hissiy xotiraga asoslanadi. Hissiy xotira - ma'lum bir ma'noda xotiraning boshqa turlariga qaraganda kuchliroq bo'lishi mumkin. Qachonlardir bo'lib o'tgan va batamom esdan chiqib ketgan voqealardan, o'qilgan kitoblardan, ko'rilgan kinofilmlardan ba'zan taassurot, his-tuyg'ugina qolishini har kim o'z tajribasidan biladi. Lekin bu xildagi tuyg'u ham qup-quruq narsa emas. Aynan uning uchun ham u bog'lanishlar zanjirini kengaytirishdagi ilk tugun sifatida xizmat qilishi mumkin.

Emotsional-kognitiv – borliq muhitning turli tomonlarini shaxs qanday emotsional his qilishi va o'zida shu olamning emotsional manzarasini yaratishi.

Emotsiya (nor. *emavere* – uyg'otish, to'liqlantirish) - odam yoki hayvonlarning subyektiv ifodalangan ichki yoki tashqi qo'zg'ovchilar ta'siriga javob reaksiyasi. Emotsiya - odatda tashqi alomatlarini yaqqol namoyon bo'ladigan his-tuyg'ularni, ichki kechinmalarni ifodalanishidan iborat psixik jarayonni yuzaga kelishining aniq shaklidir, deb ta'riflanadi. Emotsiya - shaxsning voqelikka o'z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir. Keltirilgan ta'riflardan ko'rinadiki, hissiyot tushunchasi emotsiyaga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, shaxsning kundalik hayoti, turmush tarzidagi barcha jabhalarni qamrab oladi.

Emotsiyalar va motivatsiya – atrofimizda sodir bo'layotgan hodisalar, bizni o'rab turgan odamlar va ularning hatti-harakatlarini ruhan qanday qabul qilib, ularga bildiradigan hissiy munosabatlarimizni bildiruvchi sifatlarimiz bo'lib, ular ayni vaziyatlardagi real holatlarimizdan va ularning ongimizda aks etishidan kelib chiqadi.

Empatiya – boshqa odamning his-tuyg'ularini jo'shqin ravishda kechirish; o'zini uning o'rniga qo'yishga harakat qilish, hamdardlik. Empatiya - insoning o'zini xayolan suhbatdoshi o'rniga qo'yish orqali uning kechinmalari va hissiyotlarini tushunishga intilishi. Bunda insonning emotsional muammolariga yondashishi tushuniladi. Bu boshqa odam hissiyotlari va kechinmalariga hamdard bo'la olishdir. Bir tomondan ob'ektni tushunishda uni o'rniga o'zini qo'ya olishi muhim bo'lsa, ikkinchi tomondan uning ichki hissiyotlarini tushunish unga hamdard bo'la olish ham muhimdir. Empatiya (yunon. *empathia* - birgalikda dardlashmoq) – boshqa odamlarning psixik holatlarini tushunish va ularga hamdardlik qilish qobiliyati. Empatiya (yunon. *empathia* - birgalikda dardlashmoq) – boshqa odamlarning psixik holatlarini tushunish va ularga hamdardlik qilish qobiliyati.

Endokrin bezlar (yunon.- *endon* - ichida, *krino* - ajrataman) – qon hamda limfalarga garmonlar ishlab chiqaruvchi ichki sekreksiya bezlari.

Endopsixika – shaxsning psixik tuzilishining ichki qismlari sifatida psixik elementlar va funksiyalarning o'zaro bog'likligi aks ettiriladi. Uning negizida insonning nerv-psixologik tuzilishi bilan "endopsixik" aynan bir narsa degan tushunchani tasdiqlash yotadi, go'yoki u odam shaxsining ichki mexanizmini yuzaga keltiradi. Endopsixika o'z

navbatida shaxsning ta'sirlanishi, xotira, tafakkur, xayol kabi bilish jarayonlarining xususiyatlarini, irodaviy zo'r berish xislatlarini, ixtiyorsiz harakatlarni va shu kabi fazilatlarini aks ettiradi. Tabiiy omilga (asosga) ega bo'lgan "endopsixika" biologik shart-sharoitlarga bog'liqdir.

Entropiya – "Har qanday energetik tizim muvozanat holatiga intiladi" deb tasdiqlovchi termodinamika qonuni. Psixoanaliz nazariyasida entropiya har qanday tirik mavjudotga o'zlari paydo bo'lgan jonsiz holatga qaytishga intilish xos, degan ma'noni anglatadi.

Entuziazm (yunon entusiasmos) – biror bir maqsadga erishishda ruhiy yuksalish, ruhan ko'tarilish tashabbus ko'rsatish.

Epigenetik tamoyil - odam o'z taraqqiyotida albatta butun insoniyat uchun umumiy bo'lgan qat'iy ketma-ketlik bosqichlaridan o'tadi, deb taxmin qilish. Har bir bosqich biologik yetilish va ayni bosqich tomonidan odam oldiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar bilan birga keladigan inqirozda namoyon bo'ladi.

Epileptik qo'zg'alish – bemor jahl va o'ta zardali kayfiyatda dahshatli harakatlar sodir etib tan jarohati, hatto o'ldirishlari mumkin.

Epistemologiya – (yunon episteme - bilim, logos - ta'limot - J.Piaje "genetik psixologiya"ning Jeneva maktabi) tomonidan ishlab chiqilgan tafakkurni tadqiq qilish yo'nalishining asosiy maqsadi ontogenez va filogenez ma'lumotlarini sintez qiluvchi olamni bilishning umumiy nazariyasini yaratishdan iborat. Olamni bilishni rivojlantiruvchi ijtimoiy omillarni pesh qilish tufayli ushbu faraz to'la rivoj topadi.

Ergograf (yunon. ergon - ish, grapho - yozaman) – ayrim mushak yoki mushaklar guruhining ishini o'lchovchi asbob. Charchash yoki tiklanish jarayonlarini o'rganish uchun qo'llaniladi.

Erkin assotsiatsiya – individuum qanchalik absurd, sharmandali va mantiqsiz bo'lmasin, kallasiga nima kelsa, shuni erkin gapirishi jarayonida ongsizlikni o'rganadigan psixoanalitik usul.

Erogen zonalar – Badanning ichki va tashqi to'qimalari birlashadigan va taranglik hamda qo'zg'alish manbai bo'lgan nuqtalari.

Erotik holat (yunon. erotikos – ishqiy, shahvoniy) – jinsiy ehtiyoj bilan bog'liq holat.

Esda olib qolish – yangi qabul qilingan axborotlarni oldin egallangan bilim va tajribalar bilan bog'langan holda esda saqlashga qaratilgan psixik faoliyat.

Esga tushirish – xotira jarayonlaridagi biri, buning natijasida oldin esda olib qolingan bilimlarni faollashtirish yuzaga keladi.

Etika (yunon. ethos – urf-odat, xususiyat) – axloqiylik, ma’naviylik haqidagi ta’limot.

Etnopsixologiya (yunon. ethnos - qabila, xalq, psyche - ruh logos - ta’limot) – psixologiya fanining sohasi, odam psixikasining etnik xususiyatlarini, milliy xarakterini, milliy o’zligini anglash, etnik stereotip singari funksiyalarini shakllanish qonuniyatlarini o’rganadi.

Etnotsentrizm – O’z etnik guruhi va madaniyatining ustunligiga ishonch va mos ravishda boshqa guruhlarni nazarpisand qilmaslik.

Evrastika (yunon. heurisko - topaman) – haqiqatni topish san’ati, nazariy tadqiqotlardagi mantiqiy usullar va metodik qoidalar tizimi. E. - samarali, mahsuldor ijodiy tafakkurni o’rganuvchi fan tarmog’i.

Eydetik - eydetizm (yunon. eidos - obraz) – ba’zi individlarning (eydstiklar) avval idrok qilingan narsa va hodisalarni barcha tomonlari bilan esda qoldirish qobiliyati.

Eyforiya – kayfiyatning ko’tarilishi (qarilik jihazida, alkogol va giyohlardan mast bo’lishda uchraydi) fikrlash jarayonining sekinlashishi bilan kechadi.

Faktlarga qarshi tafakkur – sodir bo’lishi mumkin bo’lgan, lekin sodir bo’lmagan, tasavvurdagi muqobil senariylar va natijalar.

Fallik bosqichi – jinsiy organlar lazzatlanish va huzur qilishning asosiy manbaiga aylanadigan psixoseksual taraqqiyotning uchinchi bosqichi.

Fallik xarakteri – taraqqiyotning fallik bosqichida tutilib qolgan shaxs tipining Freyd tomonidan berilgan ta’rifi. Bunday shaxs tipiga ega bo’lgan katta yoshdagi odam qo’pollik, eksgibitsionizm, o’ta mag’rurlik va raqobatchilik bilan ajralib turadi. (eksgibitsionizm – umumiy mazmuni doimiy diqqat markazida bo’lishga intilish; jinsiy mazmuni – ijtimoiy noma’qul sharoitlarda o’z jinsiy organini namoyish qilishga intilish).

Falokat – bu notinchlik, urush, yer qimirlash, suv toshqinlari, avtohalokatlar va hokazo. Bularning hanumasi inson ruhiy holatiga juda katta salbiy ta’sir ko’rsatadi. Olimlar shuni ta’kidlashadiki, qattiq yer qimirlashi, suv toshqinlari, yong’in bo’lishi kabi falokatlarning inson ruhiyatiga katta ta’sir ko’rsatishi natijasida xavotirlanish darajasi yuqori bo’lishi kuzatiladi.

Fantastik xayol – amalga oshmaydigan xayol turidir.

Fantaziya – hayolning borliqdan, haqiqatdan biroz uzoqlashuv jarayonidir.

Faoliyat – inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni faoliyat deb yuritiladi. Ya'ni, faoliyat - inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan, hamda tashqi olamni va o'z-o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o'ziga xos faollik shaklidir. Faoliyat - inson hayotining uning voqeilikka nisbatan faol munosabatining ro'yobga chiqish shakli. harakat - maqsadga muvofiq yo'nal-tirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi ongli faoliyat tarkibiy qismlari va motivlaridan iborat. Faoliyat - insongagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishga, uni qayta ko'rishga yo'naltirilgan faolligi. Faoliyat - insongagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishga, uni qayta ko'rishga yo'naltirilgan faolligi. Faoliyat - insoniyatga xos ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli, paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishga, uni qayta qurishga yo'naltirilgan faolligidir. Faoliyat – insonning voqeilikni, o'zini o'zi ijodiy o'zgartirish, takomillashtirish, mukammallashtirishga yo'naltirilgan faolligi. Psixologik jihatdan ichki ehtiyojni qondirish deya talqin etiladi.

Faoliyat - kishining anglangan maqsad bilan boshqarilib turiladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligidir.

Faraz – ma'lum masalani yechishning taxmini, uning loyihasi.

Farq qilish chegarasi – qo'zg'ovchilar o'rtasidagi bilinar - bilinmas farqni sezish. Bu avvalgi qo'zg'ovchilar bilan keyingi qo'zg'ovchilar o'rtasidagi qandaydir farq borligini seza olishda ifodalanadi.

Farq qilish chegarasi – qo'zg'ovchilar o'rtasidagi bilinar-bilinmas farqni sezish. Bu avvalgi qo'zg'ovchilar bilan keyingi qo'zg'ovchilar o'rtasidagi qandaydir farq borligini seza olishda ifodalanadi.

Fatal (lot. fatalis - mash'um, qochib bo'lmaydigan taqdir) – qochib bo'lmaydigan, oldini olib bo'lmaydigan hodisa.

Fazoi idrok qilish – kishining o'zini qurshab turgan muhitni chamalashining muqarrar shartlaridan bo'lib, uning ushbu muhit bilan o'zaro birgalikdagi harakatida katta rol o'ynaydi. U obyektiv ravishda mavjud bo'lgan fazoning aksini ifoda etadi va obyektlarnipg shakli, hajmi va o'zaro birgalikda joylashuvi, ular sathi, o'lisligi va io'nalishlarining idrok etilishini o'z ichiga oladi. Kishining muhit bilan o'zaro birgalikdagi harakati uning uchun xos bo'lgan koordinator sistemasi bilan birgalikda kishi gavdasining o'zini ham qamrab oladi. Sezuvchan odamning o'zi fazoda muayyan o'rin egallaydigan va ma'lum

bir fazoviy belgilari (o'lchami, shakli, gavdaning uchala o'lchovi, harakatlarning fazodagi yo'nalishi) mavjud bo'lgan moddiy gavda ham demakdir.

Fazoni idrok qilish – voqelikdagi narsa va hodisalarning fazoda egallagan o'rnini, shaklini, miqdorini, bir-biriga nisbatan munosabatlar bilish jarayonining shaklidir. Voqelikni idrok qilish orqali inson borliq to'g'risida, uning xususiyatlari, hajmi, masofasi (ich tomonni, chuqurligi) yuzasida muayyan ma'lumotlar, xossalar, axborotlar to'plash, ularni farqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Fazoni idrok qilish – voqelikdagi narsa va hodisalarning fazoda tutgan o'rnini, shaklini, miqdorini uch o'lchov asosida (balandlik, kenglik, uzunlikda) bevosita aks ettirish.

Fenomen (yunon. phainomenon - yuz beruvchi, sodir bo'luvchi) – his-tuyg'ular tajribasi bilan payqaladigan hodisani anglatuvchi tushuncha;

Figura va fonning ilgari xarakterga bog'liqligi qonuni – (idrokda) bu qonunning ma'nosi: odam ilgari tajribasida bo'lgan, bevosita to'qnash kelgan narsalarini idrok qilishga moyil bo'ladi. Agar biror predmetni u ilgari figura sifatida idrok qilgan bo'lsa, demak, keyingi safar ham uni aynan figuraday idrok qiladi, agar fon bo'lgan bo'lsa, tabiiy, fonda qabul qiladi.

Fiksatsiya – Frustratsiya yoki ota-onalarning beparvoligi tufayli shaxs taraqqiyotining ilk psixoseksual bosqichda to'xtab qolishi.

Filogenez (yunon.. phyle - qabila, urug', genesis - paydo bo'lish) – muayyan tirik mavjudot turining yerda hayot boshlanganidan keyingi evolyutsion taraqqiyot jarayoni. Psixologiyada inson psixikasining o'zgarishlari, uning inson evolyutsiyasi va madaniyati bilan bog'liqligi tushuniladi. Individual taraqqiyot - ontogenez va tarixiy taraqqiyot - filogenez - jonli tabiatning ajralmas tomonlaridir.

Fiziognomika (yunon. physis - tabiat, gnomon - biluvchi) – insonning tashqi ko'rinishi va uning biror shaxs turiga mansubligi o'rtasidagi qat'iy bog'liqlik.

Fiziologik stress – bu o'ta jismoniy zo'riqish, biror og'riq, qo'rquv, kasalliklar natijasida vujudga keladi. Fiziologik stress organizm o'ta zo'riqishi, temperaturaning baland yoki past bo'lishi, nafas olishning qiyinlashishi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, ba'zida odam organizmida qattiq og'riq bo'lganda, og'riq nimadan kelib chiqqanligini tushunib yeta olmaslik oqibatida odamda qo'rquv, xavotirlanish paydo bo'ladi va stress holatiga olib keladi.

Flegmatik – senzitivligi sust, hissiy qo'zg'aluvchanligi oz, kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Ammo bir narsa yuzasidan qattiq kulganda u vazminligicha qolaveradi. Katta ko'ngilsiz hodisa yuz berganda ham osoyishtaligini buzmaydi. Imo-ishoralari oz, harakatlari ifodasiz. G'ayrati ishchanligi bilan ajralib turadi. Yuksak faolligi oz, reaktivligidan ancha ustunlik qiladi. Chidamliligi, matonati, o'zini tuta bilish bilan ajralib turadi. Flegmatik (yunon. flegma balg'am, shilimshiq modda) - temperament turlaridan biri. Bu harakatlarning sekinligi, barqarorligi, emotsional holatlarning tashqi ko'rinishlari kuchli emasligida namoyon bo'ladi.

Fobiya – biror vaziyat, hodisa predmetga nisbatan vujudga keladigan birmuncha turg'un va asossiz qo'rquvdir. Fobiya bilan aziyat chekuvchilar qo'rquvlariga sabab bo'luvchi predmet yoki vaziyat haqida hatto o'ylaganlarida ham ularni vahima qamrab oladi. Fobiya insonlarning normal hayot kechirishlariga to'sqinlik qilib, shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Fobiya qo'rquvdan kuchli va turg'un holda namoyon bo'lishi. qo'rquv uyg'otuvchi obyektдан qochish istagining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Fon – idrok qilinadigan narsani o'rab turgan boshqa narsa, jism yoki hodisalarga nisbatan obyekt hisoblanib, obyektning atrofdagilariga deyiladi.

Fototropizm – bu tirik organizmning yorug'lik ta'sirida harakatga kelishidir. Masalan, yoz kuni tungi chiroq yorug'ligiga mayda chivinlarning uchib kelishi.

Frenologiya (yunon. phren - ong, logos - ta'limot) – odamda u yoki bu xildagi qobiliyatlarining o'sganligini bosh suyagining tuzilishiga qarab aniqlash mumkin degan nazariya. Bu nazariya avstriyalik vrach F.Gall tomonidan tavsiya etilgan.

Frenologiya (yunon. phren - ong, logos - ta'limot) – odamda u yoki bu xildagi qobiliyatlarining o'sganligini bosh suyagining tuzilishiga qarab aniqlash mumkin degan nazariya. Bu nazariya avstriyalik vrach F.Gall tomonidan tavsiya etilgan.

Freydizm – XX asrda maydonga kelgan psixologik yo'nalish. Unda inson xulqining asosiy harakatlantiruvchi kuchi ongsiz, instinktiv mayldir deb hisoblanib, ongning yetakchilik roli kamsitiladi. Bu nazariyaning asoschisi avstriyalik psixolog, psixiatr Z.Freyddir.

Frustrasiya (yunon, frustration - aldanish, behuda ko'rish, xafagarchilik, rejalarning izdan chiqishi) – kishining maqsadga erishish yo'lida uchraydigan, obyektiv ravishda yengib bo'lmaydigan yoki

subyektiv ravishda shunday tuyuladigan qiyinchiliklar tufayli paydo bo'ladigan psixik holati. Frustratsiya - istiqboli anglaydigan kishiga xos ta'bi xiralik, kechinmalarga qarama-qarshi o'laroq ruhsizlik holati frustratsiya deb ataladi. Bu kishi maqsadiga erish yo'lida real tarzda bartaraf etib bo'lmaydi deb hisoblangan yoki shunday deb idrok etiladigan to'sqinliklarga, g'ovlarga duch kelgan hollarda yuz beradi. Frustratsiyaning yuz berishi shaxsning xulq-atvorida va uning o'zini anglashida turli xil o'zgarishlarga olib keladi.

Funksional psixologiya (lot. functio - bajarish) – psixika va shaxsga ayrim psixik funksiyalarning yig'indisidir deb qarovchi psixologiya fani yo'nalishi.

G'azab – jahl chiqishidan iborat emotsional holat. Shaxsning ehtiyojlarini qondirish jarayonida biror bir to'siqlarga duch kelganda yuz beradi.

G'azablanish – odatda affekt tarzida kechadigan va subyekt uchun g'oyat muhim ehtiyojni qondirish borasida jiddiy to'siq paydo bo'lgani oqibatida kelib chiqadigan, ifodalanishiga ko'ra salbiy tarzdagi hissiy holatdir. Iztirob chekishdan farqli o'laroq, g'azablanish stenik tusda bo'ladi (ya'ni, garchand qisqa muddatli bo'lsa ham, hayotiy kuch-g'ayratlarni oshirib yuboradi).

Gafefobiya – boshqa odamlarning yaqinlashishi, tegishidan qo'rqish.

Gallyutsinatsiya – voqelikdagi narsa va hodisalarning tana a'zolarini qabul qilish analizatorlarga bevosita ta'sir etmasdan inson ongida turli obrazlarning (ovozlarning eshutilishi, sharpalarning sezilishi) xayolan, fikran paydo bo'lishidan iborat idrokning psixopatologik (ruhiy xastalik) hodisasiga aytiladi.

Gebefrenik shakli – asosiy belgi ahmoqlik va tajovuzkorlik turadi. Bemorlar ko'pincha bemehrlilik namoyon qiladi va jinnilik qilib qonli jinoyatlar sodir qiladi.

Gemotropizm - tirik organizmning quyosh nuri ta'siri ostida harakat qilishga moyilligidir. Masalan, kungaboqar o'simligining quyosh nuri tomon harakatlanishi.

Gender – psixologiyada “erkak”, “ayol” tushunchasiga aniqlik kirituvchi sotsial-biologik tavsifnoma. Jins biologik kategoriya bo'lganligi uchun sotsial psixologlar aksariyat hollarda biologik asoslangan gender farqlarini “jinsiy farqlar” sifatida qarashadi.

Gender roli – erkaklar va ayollar uchun ulardan kutiladigan xulq (norma) namunalari to'plami.

Generalizatsiya (lot. Generalis - umumiy, asosiy) – ma'lum bir munosabatlarga o'xshash ta'sirotlarning, shartli va shartsiz reflekslarning umumlashuvi.

Genetik metod (denetikos - kelib chiqishga oid, methodos - tekshirish, tadqiqot) – psixik holatlarning paydo bo'lishi va ularning quyidan yuqoriga qarab rivojlanishi jarayonini o'rganish usullari.

Genetik psixologiya (yunon. Denetikos - kelib chiqishga oid) odamning individual psixologik xususiyatlarining kelib chiqishi, ularning shakllanishida genotip va muhitning roli o'rganadi.

Genetika (yunon. Genetikos - kelib chiqishga oid) - organizmlarning kelib chiqishi, o'zgarishi, ularni boshqarish metodlari haqidagi fan.

Genezis (yunon. genesis – tug'ilmokq, vujudga kelmoq rivojlanmoq) – biror bir hodisa yoki narsa rivojlanishi jarayonining qonuniyatlarini aks ettiruvchi tushuncha.

Geniallik (lot. genius – aql zakovat, buyuk iste'dod) - shaxsning eng yuksak darajadagi ijodiyoti bilan o'zini namoyon qilish hodisasi.

Genital bosqich – psixoseksual taraqqiyotning to'rtinchi va oxirgi bosqichi bo'lib, bunda yetuk geteroseksual munosabatlar shakllanadi (bosqich o'smirlikdan umrning oxirigacha davom etadi).

Genital xarakter – Freyd tomonidan ideal psixik salomatlikni belgilash uchun kiritilgan atama. Xarakterning bunday tipi seksuallikning me'yoriy darajasiga ega bo'lgan, boshqalar bilan intim munosabatlarga qobil, o'z sarmahsul faoliyati bilan janiyatga hissa qo'shadigan individumlarda uchraydi.

Genlar (yunon. genos - kelib chiqish) – irsiy materialning birligi, u irsiy belgining shakllanishini ta'minlaydi. G. ning yig'indisi genotipni tashkil etadi.

Genlar muhandisligi – molekulyar biologiyaning bir bo'limi bo'lib, genetik va biologik metodlar orqali yangi genlarning birikmasini paydo qildirishga qaratilgan.

Genotip (yunon. genos - kelib chiqish, typos - namuna) – otanadan farzandga o'tadigan genlar majmui, irsiy asosi.

Gerontopsixologiya (yunon. gerontio - qari odam) – psixologiya tarmoq qarilik davri psixologiyasini o'rganadi. **Gerontoriliya** – qariyalarga nisbatan seksual mayl sezish.

Geshtalt (nem. Gestalt - obraz, shakl) – "Geshtaltpsixologiya"ning asosiy atamasi bo'lib, psixik hodisalarni yaqqol idrok etishda foydalanilgan.

Geshtaltpsixologiya (nem. gestalt - obraz, shakl) – hozirgi zamon chet el psixologiya maktablaridan biri bo'lib, XX asrning 30 yillarida Olmoniyada bunyodga kelgan. Bular murakkab psixik hodisalarni tushuntirish uchun hodisalarning bir butunligini asos qilib oladilar. Asoschilari - M. Vertxeymer, V. Kyoler, N. Koffka.

Geterosgaz – odamlar shaxsiy o'sishga intilish, stimuly (rag'bat)larni qidirish va o'z-o'zini amalga oshirishga intiladilar, deb tasdiqlash.

Giperbolizasiya - obrazlarni kattalashtirish yoki kichiklashtirish shuningdek, alohida qismlarni o'zgartirishdir. Masalan: Gulliver, liliput, Alpomish, Rustam pahlavon obrazlari kabilar.

Giperbuliya – iroda faolligining kuchayishi. Bemorlar sergap, serharakat bo'lsada, ishni chalg'uvchanligi tufayli oxirigacha yetkazmaydilar.

Giperesteziya – umumiy sezish qobiliyatining ortib ketishi. Masalan: odatdagi yorug'lik ko'zni qamashtiradi, tovumlar quloqni qar qilgandek, eshik yopilishi o'q otilgandek bemorga tuyuladi, xidlar juda o'tkir tuyuladi. Bu xolatlar o'tkir psixozlarda, o'ta charchagan kishilarda namoyon bo'ladi.

Gipersenzitivlik (yunon. Hyper - o'rta baland, lot. Sensus - sezgi) – o'ta sezuvchanlik.

Giperstenik asteniya – bemorga jahldorlik, jizzakilik, chidamsizlik, o'zini tuta olmaslik xosdir.

Gipertareoz - qalqonsimon bezlarning kuchaytirilgan funksiyasi.

Gipesteziya – umumiy sezish qobiliyatining pasayib ketishi. Atrof-muhit xuddi tumandek noaniq, buyumlar rangsiz, ovozlari bo'g'iqlashadi, hamma narsa jonsiz, xarakatsiz, qotib qolgandek tuyuladi.

Gipnopediya (yunon. hypnos – uyqu, paideia - ta'lim) – uyqu vaqtida ta'lim-tarbiya berish.

Gipnoz - (yunon. hypnos – uyqu) – bosh miyaning ba'zi markazlarini tormozlash natijasida kishilarda va hayvonlarda maxsus ravishda hosil qilinadigan sun'iy uyqu. G. davolash maqsadlarida ham foydalanilishi mumkin.

Gipobuliya – irodaning pasayib ketishi sababli faollik va harakat qobiliyati susayadi.

Gipoteza – o'rganilayotgan hodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan asosli taxmin tarzidagi bilim shakli.

Gipostenik asteniya – bemor befarq, behol, kamharakat va tez charchaydigan bo'ladi.

Gnostik (yunop. Gnosis - bilim, ta'lim) - butun borliqni bilishgayo'naltirilgan faoliyat.

Gomeostaz - Odamlar zo'riqishni kamaytirishga va ichki muvozanat holatini saqlashga intiladilar, deb tasdiqlash.

Gomofobiya - insonlardan, gomoseksualizmdan qo'rqish.

Gumoral (lot. humos - suyuqlik) - organizmning o'zidagi suyuqliklar bilan bog'liqligi, mas., qon limfalar.

Haddan oshish - berilayotgan materialning ortib ketishi natijasida paydo bo'ladigan salbiy his.

Hamkorlar - raqobat talab qilmaydigan ishni alohida-alohida bajaradigan, individual, bir vaqtda ishlaydigan odamlar guruhi.

Hamkorlik normasi - odamlar ularga yordam berganlarga zarar keltirishdan ko'ra, ko'proq yordam berishadi, deb kutish.

Harakat - maqsadga muvofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi. Harakat ongli faoliyatlarning tarkibiy qismlari va motivlaridan biridir.

Harakat akseptori (lot. acceptot - qabul qiluvchi) - markaziy nerv tizimida bo'ladigan harakatlar natijasini belgilab beruvchi neyrodinamik modeli. Bu model harakatlarning asosiy harakteristikasini o'z ichiga olib, xarakatlarni boshqarishda ishtirok etadi.

Harakat idroki - idrok etilayotgan obyektни tekshirish va uning o'ziga aynan o'xshaydigan nusxasining yaratishga yo'naltirilgan o'ziga xos harakatdir. Idrokning muhim qismi harakatlantiruvchi, (motor) jarayonlardan iboratdir. Narsani paypaslab his etadigan qo'llarning harakatlari, narsaning ko'rinadigan shaklini kuzatuvchi ko'zlarning harakati, eshitiladigan, ovoz chiqaradigan hiqildoqning harakati va hokazolar shular jumlasiga kiradi.

Harakat komponenti - subyektning obyektga nisbatan real sharoitlarda amalga oshirishi mumkin bo'lgan harakatlari majmui (xulqda namoyon bo'lish).

Harakat xotirasi - inson faoliyatining har bir turida ruhiy faollikning u yoki bu ko'rinishlarini ustunlik qilishida kuzatiladi. Masalan, harakat, hissiyot, idrok, aql-zakovat kabi ruhiy faoliyatning ko'rinishlari mavjuddir. Ana shu ruhiy faollik turlarining har biri tegishli harakatlarda va ularning mahsulotlarida o'z ifodasini topib harakatlarda, hissiy kechinmalarda, tuyg'ularda, obrazlarda, timsollarda, fikr va mulohazalarda aks etadi.

Hayajonlanish - (lot. emoveo - hayratga solmoq, hayajonga solmoq) - psixik hodisalarning alohida toifasi bo'lib, subyekt tomonidan

bu hodisalar, predmetlar va vaziyatlar insonning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun bevosita qiziqqon kechinmalari ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Hayot instinkti – Freydning “odamlar o'z-o'zlarini saqlashga intilishadi” degan g'oyasi.

Hayotiy ma'nolar – bu inson uchun uning borliq bilan befarq bo'lmagan shunday aloqalari majmuasiki, ularda insonning uni o'rab olgan voqeilikdan obyektiv bog'liqligi sifatida ham, uning ehtiyojlari va intilishlari ko'rinishida ham o'z aksini topadi. Biz kundalik hayotimiz davomida hattoki, ko'p hollarda o'zimizning turmush psixologi ekanligimizni ham unutgan holda ulardan juda ko'p foydalanamiz. Bu o'rinda “turmush” so'zidan tashqari “kundalik psixologiya” yoki “odatiy psixologiya” deyish ham mumkin. Turmush (odatiy) psixologiyasi kundalik ong tarkibiga kiradi.

Hayotiy o'zgarishlar – bu insonni hayotida yuz beradigan voqea va hodisalardir. Masalan, yaqin kishisining halok bo'lishi, kutilmaganda ish o'rnini yo'qotishi, ajralishlar va hokazo. Agarda inson bir qancha inhirozli vaziyatni boshidan o'tkazsa, qattiq kasallanishi va hattoki o'limga ham olib kelishi mumkin.

Hayratlanish – to'satdan ro'y bergan holatlardan hissiy jihatdan ta'sirlanishning ijobiy yoki salbiy jihatdan aniq-ravshan ifoda etilmagan belgisidir. Hayratlanish diqqat-e'tiborni o'ziga tortgan obyektga qaratilgan holda barcha oldingi hissiyotlarni tormozlantirib qiziqish tusini olishi mumkin.

Hid bilish sezgisi – sezgi turi, xillarini aks ettirish jarayoni. Uning analizatori burun to'sig'ining shilliq pardasida joylashgan va uning markazi bosh miya po'stloq qismidadir.

Himoya mexanizmlari – individuumni xavotir va aybdorlik hissi kabi noxush emotsiyalardan himoya qiluvchi anglanmagan reaksiyalar. Odamga xavf soluvchi impulslarni berkituvchi yoki buzib ko'rsatuvchi ego - himoya xususiyati.

Hissiy ton – hissiyot sezgi yoki idrok jarayonida shaxsning idrok qilingan narsaga, hodisaga munosabatini ifodalovchi maxsus emotsional bo'yoq yoqimli va yoqimsiz kechinma bevosita sezgi yoki idrok bilan bog'langan hissiyot. Hissiy ton - sezgi yoki idrok jarayonida shaxsning idrok qilingan narsa va hodisaga munosabatini ifodalovchi maxsus hissiy bo'yoq yoqimli yoki yoqimsiz idrok bilan bog'langan hissiyot, deb ta'riflanadi.

Hissiy tunglik – bemor hech narsa bilan qiziqmay qoladi, oila a'zolari, yaqinlariga sovuq muammoalada bo'ladi, ya'ni atrof muhitga butunlay befarq bo'ladi. Kasalliklar doimo mudroq holda yuradilar tashqi ko'linishi, nutqi murakkablashgan, yangi so'zlar tuzadilar, noo'rin kumishadi. Bemorda gallyutsinatsiyalar va vasvasalar paydo bo'ladi.

Hissiyot – odamning yuksak ehtiyojlarini qondirish yoki qondirmaslik qobiliyatining mavjudligi va psixik obraz yarata olish natijasida uning tevarak-atrofidagi olamga bo'lgan munosabatlarining ongda aks ettirilishidan iborat jarayon. Hissiyot deb – tashqi olamdagi narsa va hodisalarga bo'lgan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishga aytiladi. Hissiyot-shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida kelib chiqadigan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalardan iborat. Hissiyot - odamda, tirik mavjudotlar miyasida, ya'ni shaxslarning ehtiyojlarini qondiruvchi va unga monelik qiluvchi obyektlarga nisbatan uning munosabatlarini aks ettirish ma'nosida qo'llaniladi.

His-tuyg'u – insonning nisbatan barqarorligi, umumiyligi, uning shaxs sifatidagi taraqqiyoti davomida shakllangan ehtiyojlari va (xususan) qadriyatlariga mosligi bilan farq qiladigan yuksak o'zaro madaniy bog'langan hissiyotlaridir. His-tuyg'ular – kishining o'z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg'ul bulayotganiga nisbatan o'zicha turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir. His-tuyg'ular - voqelikni aks ettirishning o'ziga xos shakllaridan biridir. Agar bilish jarayonlarida narsalar va voqelikdagi hodisalar aks etsa, his-tuyg'ularda esa subyektning o'ziga xos ehtiyojlari bilan, qo'shilib, o'zi bilib olayotgan va o'zgartirayotgan narsalarga va voqelik hodisalariga nisbatan uning munosabati aks etadi.

His-tuyg'u yoki hissiyot xotirasi – his-tuyg'ular, ruhiy kechinmalar, hissiyotlar, ehtiyojlarimiz va qiziqishlarimiz qanday qondirilayotganligidan, atrofimizdagi narsa va hodisalarning xususiyatiga nisbatan munosabatimiz qay tarzda amalga oshirilayotganligidan doimo xabar berib turish imkoniyatiga ega. Shuning uchun har bir kishining hayoti va faoliyatida hissiy xotira turi juda katta ahamiyat kasb etadi.

His-tuyg'ular – milliy an'ana, urf-odat, qadriyatga asoslangan hislar tizimi.

Hukm - narsa va hodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikrga aytiladi. Hukm – tafakkur -

usullaridan, u narsa va hodisalar o'rtasida o'zapo biron-bir bog'lanishlarning borligini tasdiqlash yoki inkor qilinishda ifodalanadi. Hukm - tafakkur usullaridan, u narsa va hodisalar o'rtasida o'zapo biron - bir bog'lanishlarning borligini tasdiqlash yoki inkor qilinishda ifodalanadi. Hukm – voqelikdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi yoki ularning xususiyatlari va belgilari o'rtasidagi bog'lanishlarning aks ettirilishi demakdir.

Ichiqoralik – kishining baxilligi va o'zganing omadini ko'ra olmaslik, rahmdillikka qarama - qarshi, hasadgo'ylik, g'arazgo'ylikdan iborat salbiy xarakter xislati.

Ichki faollik – bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (moddalar almashinuvi, qon aylanish, nafas olish, bosim o'zgarishlari) hamda, ikkinchi tomondan, bevosita psixik jarayonlar, ya'ni aslida ko'rinmaydigan, lekin faoliyat kechishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'z ichiga oladi.

Ichki iroda – Kishining ichki to'siqlarni yenga olish, o'zini boshqarish va o'z ustidan hukmronlik qila olish qobiliyati odatda deb ichki iroda yuritiladi.

Id – Mazmuni nasliy yo'l bilan olingan omillardan iborat bo'lgan shaxs tuzilishining qirrasini. Id o'ta sezgir, irrasional va har qanday cheklashlardan holi.

Identifikatsiya (lot. identifisage - tenglashtirmoq) - shaxsning o'zini o'zga odam bilan emotsional va boshqa tomondan tenglashtirishi. Identifikatsiya – u kishiga tenglashtirish, baravarlash ma'nosini anglatib. insonning o'zini xayolan suhbatdoshi o'rniga qo'yish orqali uning fikrlari va tasavvurlarini tushunishga intilishi.

Ideomotor akti (yunon. idea - g'oya, tushuncha lot. motor - harakatta keltiruvchi aktus - harakat) – muskullar harakati haqidagi tasavvurlarning real harakatlarga aylanishiga ta'siri.

Idiotiya – eng chuqur aql zaifligi. Nutq va fikrlash butunlay rivojlanmagan, ular atrof-muhitda mo'ljal olmaydi, ota-onasini tanimaydi, ularga nisbatan befarq bo'ladi. Ular yaqin kilishlar nazorati va parvarishiga muhtoj.

Ierarxiya (yunon. hieros – muqaddas, akhe - hokimiyat) – narsa va hodisalarni ketma-ketlik bilan bir-biriga teng bo'ysundirish usuli (mas., motivlar I.si). Ikkilanish - ijod jarayonida “ha” va “yo'q”larni bir-biriga taqqoslash natijasida yuz beradigan tafakkur turi.

Ijodiy tafakkur – murakkab bilish faoliyatidan biri bo'lib, tadrijiy ravishda izchil o'zaro bog'langan jarayonlardan tashkil topadi, dastavval

savollar tug'iladi, vazifa aniqlanadi, masalani yechish va savollarga javob qidirish jarayoni vujudga keladi.

Ijodiy xayol – deb tajribamizda bo'lmagan va voqelikning o'zida ham uchratmagan narsa va hodisalar haqida tasavvur hamda obrazlar yaratishdan iborat xayol turiga aytiladi. Ijodiy xayol murakkab aks ettirish jarayoni bo'lib, odamning hayotida juda katta ahamiyatga egadir. Odam o'zining ijodiy xayoli orqali biror yangi, shu paytgacha ko'rilmagan narsa yaratadi. Masalan: Yozuvchi asari uchun tipik obraz yaratganda uning xayoli ijodiy bo'ladi. Tadqiqotchining biror tadqiqot ustida ishlaganida ham uning xayoli ijodiy bo'ladi.

Ijtimoiy ehtiyojlar – bu mehnat qilish, bilish, estetik va axloqiy-ma'naviy ehtiyojlar.

Ijtimoiy norma – shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq-atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan xarakteristikalar talablaridir.

Ijtimoiy o'rganish nazariyasi – ijtimoiy xulqli kuzatish va bajarib ko'rish vositasida, mukofotlash va jazolash bilan ta'sir ko'rsatib o'rganamiz, deb hisoblovchi nazariya.

Ijtimoiy qiziqish – shaxsiy maqsadlardan ko'ra ko'proq jamiyat manfaatlarini uchun boshqalar bilan o'zaro hamkorlikda namoyon bo'ladigan insoniyatga nisbatan muhabbat hissi.

Ijtimoiy reprezentatsiyalar – hamma tomonidan qabul qilingan e'tiqodlar. Bizning qarashlarimiz va madaniy mafkuramizni o'z ichiga oladigan, ko'pchilik tomonidan ma'qullanadigan g'oya va qadriyatlar. Bizning ijtimoiy reprezentatsiyalarimiz bizga dunyoni izohlashga yordam beradi.

Ijtimoiy sanksiya – normalarning shaxs xulqida nomoyon bo'lishni nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmi. Ijtimoiy sanksiyalar - normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri obyektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz.

Ijtimoiy tajriba osttuzilishi – ta'lim natijasida shaxsiy tajribada egallangan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar va odatlarni qamrab oladi.

Ijtimoiy taqqoslash – o'z fikr va qobiliyatlarini o'zini boshqalar bilan taqqoslash orqali baholash.

Ijtimoiy ustanovka – shaxsning atrof-muhitida sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarni, obyektlarni, ijtimoiy guruhlariga ma'lum tarzda

idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o'rnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida odamlardagi dunyoqarashni ham o'zgartirishga aloqador kategoriya.

Ijtimoiy yalqovlik – odamlarning umumiy maqsad uchun o'z kuchlarini birlashtirganlarida individual mas'uliyatga nisbatan kamroq jon kuydirishlari.

Ijtimoiylashuv - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayonidir. Sodda til bilan aytganda, ijtimoiylashuv – har bir shaxsning jamiyatga qo'shilishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta'sirini qabul qilgan holda, har bir harakati va muomalasida uni ko'rsatishi va kerak bo'lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o'z navbatida o'zgalarga ta'sirini o'tkaza olishi jarayonidir. Ijtimoiylashuv – inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayoni.

Illyuziya - (lot. *illusio* - aldash) – borliqning noto'g'ri idrok etilishi. Illyuziya - bizga ta'sir qilayotgan narsalarni yanglish idrok qilish demakdir. Odatda ikki xil illyuziya farqlanadi: a) obyektiv illyuziya; b) subyektiv illyuziya. Obyektiv illyuziya – hamma odamlar uchun umumiy xarakterga ega bo'lib, uni geometrik illyuziya deb ham yuritiladi. Obyektiv illyuziya biz idrok qilayotgan narsalarning o'zaro bir-biriga ta'siri tufayli yuz beradi. Illyuziyaning bu turi har xil geometrik shakllarni idrok qilishda juda yaqqol ko'rinadi. Illyuziya – tana azolarimizga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarni noto'g'ri (noadekvat) idrok qilishdan iborat bilish jarayonining hodisasi. Illyuziyalar 3 turda bo'ladi: 1) ko'ruv – affektiv; 2) eshituv (verbal). 3) pareydolik – fantastik ko'ruv illyuziyasida.

Imbetsillik – o'rtacha darajadagi aql zaiflik. Nutq yomon rivojlangan, so'z boyligi 20-200 tagacha, qarindoshni taniydi, qo'rquv nimaligini biladi, o'zlarini idora qilish odoblariga o'rgatish mumkin.

Imidj - shaxsning boshqalar tomonidan tan olinadigan o'ziga xos xususiyatlari.

Imkoniyatlar – faoliyatning muvafaqqiyatli amalga oshirishini ta'minlovchi tizim, o'zaro ta'sir etuvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan turlicha qobiliyatlar.

Implikasiya – (lot. *implicatio* chatishish, chigallanish) – “agar”, “unda”, “bunda” kabi bog'lovchilar; - yordamida ikkita murakkab gap fikrini bir-biriga mantiqan bog'lash operatsiyasi.

... bo'linmas ayrim jins, shaxc) - biologik
... huvchi alohida tirik mavjudot.

Individual yondashuv - odamga uning individualligini hisobga olgan holda yondashishdan iborat pedagogik usul.

Individualizm - guruh maqsadlariga nisbatan o'z shaxsiy maqsadlariga ustunlik berish konsepsiyasi. Bunda o'z-o'zini identifikatsiya qilish o'zini guruh bilan o'xshatish orqali emas, balki shaxsiy atributsiyalar vositasida amalga oshiriladi.

Individuallik - insonning individ, faoliyat subyekt va shaxs sifatidagi betakror xususiyatlari tizimidir. Individuallikning mavjud bo'lishi insonning ta'lim, tarbiya, u bilan faol munosabatidagi individual yondashuvining asosi hisoblanadi. "Har bir kishigacha yetib boorish" - bunday yondashuvning idealidir. Individuallikni inkor etish (nodonlik, ishonch yoki kam anglangan harakat tufayli, masalan, texnik yoki umumilmiy g'oyalarning oddiy formulalariga sig'inish oqibatida) zaruriy tarzda bir qator salbiy oqibatlarga olib keladi (shaxslararo va shaxslar ichidagi keskinlik, ixtirolar, ruhiy jarohatlar, nizolar ishtirok etganlarning asabiy holatlari va ta'lim, tarbiya, mehnatdagi past samaradorlik natijalari sifatida). Individuallik - har qaysi inson betakror o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shaxsning o'ziga xos qirralarining mujassamlashuvi individuallikni vujudga keltiradi. Individual shaxsning intellektual, emotsional va irodaviy sohalarida namoyon bo'ladi.

Induksiya - (log. inductio - keltirib chiqarish) - juz'iy yoki yakka hollardan umumiyga, ayrim dalillardan umumlashmalarga qarab boradigan, induktiv xulosa chiqarishga asoslangan mantiqiy bilish metodi, tafakkur shakli. Neyrofiziologiyada esa markaziy nerv tizimining biron markazida qo'zg'alish paydo bo'lsa, u boshi markazlarda tormozlanishning kelib chiqishiga, tormozlanish esa qo'zg'alishning kelib chiqishiga sababchi bo'lishidan iborat qonuniyat, nerv tizimining bironta joyida sodir bo'lgan jarayonning ikkinchi xildagi jarayonni keltirib chiqarishiga bir vaqtdagi nerv tiziminingma'lum jarayon ta'siri to'xtashi bilanoq yuzaga keladigan jarayonga ketma - ketlik I.si deyiladi. Tormozlanishning qo'zg'alishni keltirib chiqarishiga salbiy deyiladi.

Induktiv xulosa chiqarish - bu xulosa chiqarishning shunday mantiqiy usulidirki, bunda bir necha yakka va ayrim hukmlardan umumiy hukmga o'tiladi, yoki ayrim fakt va hodisalarni o'rganish asosida umumiy qonun va hoidalar yaratiladi.

Infantilizm – (lot. *infantis* – bolalaracha, bolalarga xos) ba’zi katta yoshdagi odamlarning gavda tuzilishi va psixik funksiyalarida bolalik xislatlarining saqlanib qolishdan iborat psixofiziologik nuqson.

Informasion ta’sir – boshqa odamlarning reallik haqidagi mulohazalarini qabul qilish natijasida paydo bo’ladigan konformizm.

Informasion-kommunikativ funksiya – axborot almashinuvini ta’minlash vazifasi. Axborot almashinuvi turli belgilar tizimlari orqali amalga oshiriladi. Odatda verbal va noverbal kommunikatsiya farqlanadi.

Informatika – (lot. *Informatio* – tushuntirmoq) – fan tarmog’i bo’lib, u ilmiy axborotlarning tuzilishi va umumiy xususiyatlarini o’rganib, ularni qidiradi, yig’adi, qayta ishlaydi, takomillashtiradi, saqlaydi va kishi faoliyatining zarur jabhalarida qo’llaydi.

Informatsion stress – axborotlarni haddan tashqari ko’p qabul qilish vazifalarni bajarishda bir qancha yechimlar bo’lsa-da, aniq ulardan qaysi birini tanlash yuqori darajadagi shiddat bilan qaror qabul qilishdagi ikkilanishi natijasida kelib chiqishi mumkin. Axborotlarni haddan tashqari ko’p qabul qilish oqibatida odam psixikasi zo’riqadi (charchaydi) va buyrak usti bezlaridan stressli garmonlar ko’p ishlab chiqara boshlaydi. Haddan tashqari zo’riqish natijasida miyada tormozlanish yuz beradi va oqibatda tanglikka olib kelgan axborotgina miyada aks etaveradi. Miya boshqa axborotlarni tashqi ta’sirni qabul qila olmay qoladi. Bu ba’zi hollarda salbiy yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Miyada stressga olib kelgan axborot tormozlanib, saqlanib qolganda tanglik holatining yuqori nuqtasiga chiqqanda tanglik holatidan chiqib ketolmay o’z joniga qasd qilishgacha olib kelishi mumkin.

Insayt xatosi – biron-bir odamning natija ma’lum bo’lib bo’lgandan so’ng o’zining oldindan ko’ra bilish qobiliyatini bo’rttirishi, shuningdek, “men shunday bo’lishini bilardim” fenomeni sifatida ham mashhur.

Insof – insonning muayyan jamiyatda amal qilayotgan axloq me’yorini nazorat qilish va axloqiy baholash.

Inson – tushunchasiga aniq tarif berish uchun olamda mavjud bo’lgan boshqa biologik mavjudodlardan ajralib turuvchi eng muhim xususiyatlarni aniqlash zarur.

Insoniylik psixologiyasi – psixologiya yo’nalishi bo’lib, o’z tadqiqotining bosh yo’nalishi sifatida shaxs kechinmalari va uning qaytarilmasligini tan oladi.

Insonporvarlik – gumanizm odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish

... g'oyatari bilan sug'orilgan dunyoqarash.

Instinkt – (lot. *instinctus* uyg'onish) - murakkab shartsiz refleksi, u xulq-atvorning tug'ma yig'indisi, tashqi yoki ichki ta'sirotlarga javoban hosil bo'ladi. I. organizm hayotiy ehtiyojlarining qondirilishi munosabati bilan namoyon bo'ladigan, nasldan-naslga o'tadigan tug'ma harakatlar tizimi. Mas., tuxumdan endi yorib chiqqan jo'ja atrofdagi tuproq-haslarni titib, cho'qilab o'ziga don qidira boshlaydi. Instinkt - tug'ma, organizm to'qimalari darajasida lokallashgan, tashqi namoyon bo'lishga va keskinlikni bartaraf qilishga intiladigan qo'zg'alish holati. Freydning fikricha, instinkt organizm tug'ma qo'zg'alish holatining mayllar shaklida ifodalanadigan psixik namoyon bo'lishidan iborat.

Instinktiv xulq – o'rganish bilan bog'liq bo'lmagan, shu turning hamma vakillarida namoyon bo'ladigan tug'ma xulq.

Instrumental agressiya – qandaydir boshqacha maqsadga erishish vositasi bo'lgan agressiya.

Integral – (lot. *integer* - butun) uzviy bog'liq butunlik, birlik.

Intellekt, aql – inson hayoti davomida bilish faolligiga tegishli bo'lgan barqaror o'ziga xos va rivojlanib boruvchi xususiyatlar va sifatlar tizimi, uning ichki va tashqi hayotiy holatlar, jumladan, ijtimoiy muhitda ham oqilona mo'ljal ola bilishdir. Odatda subyektning faoliyat sohasiga bog'liq holda sotsial intellekt, texnik intellekt, gumanitar intellekt, verbal, ya'ni og'zaki, noverbal intellektlarni farqlashadi.

Intellektual bosqich – yuksak darajada rivojlangan nerv tizimiga ega bo'lganlar, ya'ni odamsimon maymunlarga xosdir.

Intensiya – (lot. *intenio* - intilish) - ongning, tafakkurning biron - bir obyektga yo'nalganligi.

Interiorizatsiya (lot. *interior* - ichki) - tashqi amaliy harakatlarning ichki aqliy amallarga aylanish jarayoni.

Interpretatsiya – 1) Ilmiy interpretatsiyada shakllantiriladigan model nazariy bo'lib, ma'lumotlarni umumlashtirish, o'zaro bog'liklikda izohlash; 2) Kognitiv interpretatsiyada model akliy sxema bo'lib, uning tarkibidagi barcha stimullar aniqlanadi, tasniflanadi va unga nisbatan reaksiya paydo bo'ladi.

Intervyu (interview - suhbat) – bu ijtimoiy psixologiya metodi bo'lib, qo'yilgan savollarga berilgan javob tariqasida axborotlarni to'plash usuli.

Intilish – hali differensiyalashmagan, yetarli darajada anglanilmagan ehtiyojdan iborat faoliyat motividir. Masalan, kishi kimgadir intilishni

boshdan kechirayotib, o'z intilishining obyektini ko'rganda, u bilan gaplashganda mamnun bo'ladi va shu sababli beixtiyor bu uchrashuvga intiladi. Lekin ba'zida huzur-halovatga sabab bo'lgan narsani u anglamaydi. Intilish sal-pal, noaniqdir.

Introspeksiya (lot. introspectere - ichiga qarayman) – kishining o'z-o'zini kuzatishi.

Introspektiv psixologiya (lot. introspectue - ichiga qarayman) – ruhiy hodisalarni o'rganishda ularning sabablarini fiziologik mexanizmlarini obyektiv ravishda qo'zg'atish va tahlil qilish zarurligini inkor qilib, faqat o'z-o'zini kuzatish metodikasiga asoslangan subyektiv psixologiyasi.

Intuitiv tiplar – bu shunday toifali kishilarki, ularda ko'pincha xissiyotlar mantiqdan ustun keladi va miya faoliyati bo'yicha ham o'ng yarim sharlar faoliyati chapnikidan ustunroq bo'ladi. Ko'rib, his qilib, yorqin emotsional munosabat shakllantirilmaguncha, bunday odamlar biror xususda fikrlarini bayon eta olmaydilar.

Intuitsiya (lot. intueri - yaxshilab, diqqat bilan qaramoq) – voqelikni bilishning bevosita haqiqatga aylanishi bilan amalga oshiriladigan alohida usul bo'lib, uning yordamida muammoli vaziyatlar yechimini topish mumkin, u ijodiy faoliyat mexanizmi sifatida tushuntiriladi.

Invalyutsion melanxoliya – kasallik ko'proq ayollarda klimakterik davrda boshlanadi, uning asosiy sindromi tashvishli - qayg'uli depressiya bo'lib, ko'pincha o'z-o'zini ayblash, o'z-o'zini o'ldirish va ipoxondrik vasvasa g'oyalarning qo'shilishi bilan uchraydi. Kasallikning boshlang'ich belgilari bu noo'rin bezovtalik, o'zini yo'qotib qo'yish, sust kayfiyat, noaniq qo'rquv sifatida namoyon bo'ladi. Bemorlar doimo bezovta harakatda bo'lib, o'zlarini timdalashadi, sochlarini yulishadi. Betinchlik boshqa palataga o'tganda kuchayadi. Idrok qilish buzilishi natijasida atrofda gilarining suhbatida o'ziga qaratilgan ayblashlar eshitilidi, nazarida uni kamsitishadi, urishishadi. Invalyutsion melanxoliya ko'p oylar yillar davom etadi.

Invalyutsion paranoid – kasallik surunkali kechadi. Kasallik tiniq ong va tashqi tomondan o'zgarmagan xulq-atvor fonida asta-sekin rivojlanadi. Asosiy belgisi vasvasa g'oyalari va gallyutsinatsiyadir. Bemorlar qo'shnilar, tanishlar ularga aytalab noxushliklar keltirib chiqarishganga shikoyat qiladilar sud organlariga shikoyat bilan murojaat qiladilar. milisiyaga boradilar. Bemorlar nazarida qo'shnilar ularning narsalarini buzayotgani, kalitlar va maxsus vositalardan foydalanib yashirinch a u yga kirayotgani va boshqa xavfli ishlar qilishiga

stanogini yanada takomillashtirish to'g'risida o'ylaydi, o'z ish grafigini yana qayta ko'rib chiqadi, har bir harakatini hisobga oladi va hokazo.

Isterik psixopatiya – atrofdagilarni e'tibor markazida bo'lishi uchun har qanday imkoniyatlarni ishlatadilar, bachkana kiyinadilar, xursand va xafa bo'lishi namoyishkorona bo'ladi.

Isterik psixoz – belgilari: a) ongning torayishi ya'ni hodisalar xotirada saqlanmaydi; b) bemor harakatlari namoyishsimon: kulgi, yig'i, qo'shiq aytish birdanicha tutqanoqqa aylanishi mumkin; c) oddiy bilimlarni yo'qotish, savollarga noto'g'ri javob berish; g) yosh bolalarga xos xulq atvorni paydo bo'lishi; d) kuchli siqilish, jahldorlik, tushkunlik xolatlarini paydo bo'ladi.

Iztirob chekish – hozirga qadar qondirilish ehtimoli ozmi-ko'pmi darajada mavjud deb tasavvur qilib kelingan hayotiy muhim ehtiyojlarning qondirilishi mumkin emasligi haqida aniq yoki shunday tuyulgan axborot olinishi bilan bog'liq salbiy hissiy holatdir. U ko'pincha hissiy zo'riqish (stress) shaklida boshdan kechiriladi. Iztirob chekish astenik hissiyotlar (kishini bo'shashtiradigan) tusida bo'ladi.

Jamiyat – tabiatning bir qismi, borliqning alohida shaklini ifodalaydigan falsafiy tushuncha odamlar uyushmasining maxsus shakli kishilar o'rtasida amal qiladigan ko'plab munosabatlar majmuasidir.

Jamoa – maqsadlari jamiyat maqsadiga mos keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhi.

Jamoaning negizi – umumiy fikr, maqsad va ishlab chiqarishga taalluqli qarorlarni shakllantiruvchi jamoa a'zolari.

Jestlar – insonning qo'l harakatlari bo'lib, u orqali insonning ichki holati, biror bir obyektga munosabati va tashqi olamga yo'nalganligi ifodalanadi. U yoki bu xalqlarda jestlar turlicha qabul qilinadi. Italyan va fransuzlar o'z muloqotlarini jestlarsiz tasavvur eta olmaydilar. O'zbek xalqida nutqda jestlardan foydalanish yaxshi odat sifatida qabul qilinmaydi. Lekin shuni ham ta'kidlash lozimki, noverbal kommunikatsiya og'zaki nutqda aytilmay qolgan fikrlarni ifoda etish imkonini beradi.

Jirakanish – shaxslararo munosabatlarda ro'y beradigan va subyektning hayotiy nuqtai nazarlari, qarashlari va xulq-atvoriga nomutanosibligi oqibatida hosil bo'ladigan salbiy hissiy holatdir. Keyingilari subyektning nazarida yaramas, taomildagi ma'naviy qoidalarga va estetik mezonlarga mos kelmaydigan bo'lib tuyuladi. Individning yoki u mansub bo'lgan guruhning personajlashmaganligi jirakanish oqibatlaridan biridir.

Jon - falsafiy tushuncha bo'lib, u jonli materia yaratilishining asosidir.

Karaxtlik ong buzilishi yengil darajasi – bemor tashqi ko'rinishi ma'nosiz bo'lib, uyquda yotgan kishilarni eslatadi. Atrof muhitni anglay olmaydi, lekin bemor o'z shaxsini to'g'ri ko'rsatadi, faqat oddiy savollarga javob beradi, murakkabiga javob berolmaydi.

Kastratsiya qo'rquvi - kastratsiya lotincha atama, erkaklar urug'doni yoki ayollar tuxumdonini jarrohlik yo'li bilan olib tashlash, bichib qo'yish. Psixoanalizda erkaklar tashqi jinsiy organini kesib tashlash yosh o'g'il bolalarda otasi uning jinsiy organini onasiga nisbatan jinsiy raqobati uchun kesib tashlaydi degan qo'rquv hissi.

Kataleptik tutqanoq – bemor to'satdan (qo'rqitish, yorug' nur tovush ta'sirida) muskullar bo'shashib yiqilib tushadi.

Katanonik stupor – bemor har qanday tashqi ta'sirlarga reaksiya bermaydi. Hayot uchun xatarli vaziyatlarda ham (o't ketsa) yuz ko'zlarida qo'rquv alomatlarini paydo bo'lmaydi, qo'shimcha issiq suv yoki igna tegizilsa ham hech qanday javob olinmaydi.

Katarsis - emotsional bo'shanish. Agressiyani katarsis orqali shunday tushuntirish mumkin: individuum agressiv energiyani yoki agressiv harakat vositasida yoki tasavvurdagi agressiya hisobiga "ozod qilganda" agressiv qo'zg'alish susayadi.

Katatonik qo'zg'alish – kutilmaganda tushunib bo'lmaydigan harakatlar, kulgiga o'xshash holatlar, masxarabozlik qilishlari kuzatiladi. Ya'ni bir xil so'z va harakatni qayta-qayta takrorlash bilan kechadigan xarakat qo'zg'alish holatidir.

Katatonik shakli – belgilari katatonik stupor va katatonik qo'zg'alish (katatonik sindrom belgilari).

Katatonik sindrom - bu sindrom ikki qarama-qarshi buzilishlardan: katatonik stupor va katatonik qo'zg'alishdan iborat.

Katatonik stupor – xarakatsizlik va mutizm (jimlik) bilan namoyon bo'ladi. Ular uzoq vaqt (soatlab, kunlab) o'tiradilar, yotadilar yoki holatini o'zgartirmasdan turadilar. Mustaqil ovqatlanmaydilar, kiyintirganda qarshilik qiladilar. Shifokor qilgin degan takliflarni bajarmaydilar.

Kateksis - psixik energiyaning obyekt, g'oya yoki xulqqa yo'nalganligi.

Kayfiyat - birorta emotsiyaning barqaror kechishi. Kayfiyat – insonning psixik hayotida namoyon bo'ladigan, o'rtamiyona yoki zaif samaradorlikning nisbatan davomiy, barqaror, emotsional holati bo'lib, u

yoki bu hissiyotning ustunligi bilan xarakterlanadi. Kayfiyatlar ancha vaqt davomida kishining butun hatti-harakatiga tus berib turadigan umumiy hissiy holatini ifoda etadi. Kayfiyat shodu xurramlik yoki qayg'uli, tetiklik yoki lanjlik, hayajonli yoki ma'yuslik, jiddiy yoki yengiltaklik, jizzakilik yoki muloyimlik va hokazo tarzda bo'ladi. Kayfiyati yomon kishi o'rtog'ining haziliga yoki tanbehiga kayfiyati chog' vaqtidagiga qaraganda tamomila boshqacha munosabat bildiradi. Kayfiyat - shaxsning ruhiy jarayonlariga muayyan vaqt davomida tus berib turuvchi emotsional holatdir. Kayfiyat, ya'ni odamning xursand yoki g'amgin kayfiyati hech vaqt sababsiz maydonga kelmaydi. Odam bajarayotgan biror ishning mavaffaqiyatli tugashi yoki imtihondan yaxshi o'tish- yaxshi tetik kayfiyatni yuzaga keltiradi. Qilayotgan ishingizni oldinga yurmasligi yoki ishga berilgan yomon baho odamda ma'yuslik, kuchiga ishonmaslik kayfiyatini tug'diradi.

Klassifikasiyalash - bir turkum ichidagi narsalarning bir-biriga o'xshashligiga va boshqa turkumdagi narsalardan farq qilishiga qarab narsalarni turkumlarga ajratish tizimidir.

Klinik psixologiya - psixologik qiyinchiliklarni his qilayotgan odamlarni tekshirish, tashxis qo'yish va davolash.

Ko'chirish - agressiyani frustratsiya manbaidan boshqa nishonga o'tkazish. Yangi nishon odatda ijtimoiy jihatdan ma'qulroq bo'ladi.

Ko'nikma - bu hayvonlarda shartli bog'lanishlar asosida yuzaga keluvchi va avtomatik ravishda sodir bo'luvchi harakatlardir, ya'ni biror faoliyatni takrorlanib turishi natijasida asta-sekin hosil qilingan hatti-harakatlardir. Ko'nikma - odamning ma'lum ishni bajarishga tayyorligida ko'rinadigan qobiliyati.

Kognitiv dissonans - bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikkita fikr paydo bo'lganligini anglash vaqtida paydo bo'ladigan zo'riqish. Masalan, biz yetarlicha asosga ega bo'lmay turib, o'zimizning ustanovkalarimizga qarama-qarshi harakat qilganimizda yoki mantiq boshqasini talab qilib turganda boshqa variant foydasiga qaror qabul qilganimizda dissonans paydo bo'ladi.

Kognitiv komponent - ustanovka obyektiga aloqador bilimlar, g'oyalar, tushuncha va tasavvurlar majmui;

Kognitsiya (lot. *sognisio* - bilim, anglamoq) - tashqi muhitda o'zi va o'zining xulq - atvoriga taalluqli fikr, turli bilimlar.

Kolliziya (lot. *Collisio* - to'qnashuv) - qarama-qarshi qiziqish, intilishlar, fikrlar to'qnashuvi.

Koma – es-xushning to‘la yo‘qolishi tashqi ta‘sirotga javob ham yo‘qoladi. Bu holatlar–alkogol, narkomanlik, taksikomaniya, zaharlanishlarda jigar yetishmov-chiligida, miya o‘smalarida uchraydi.

Komfort (ing. somfort - qulaylik) – ishchi o‘rinlarining qulay shart – sharoitlari.

Kommunikasion qobiliyatlar – kishining boshqa odamlar bilan bo‘ladigan muloqotni yaxshilaydigan va birgalikdagi faoliyatda psixologik qovushuvchanlikni ta‘minlaydigan qobiliyat.

Kommunikatsion qobiliyatlar – kishining boshqa odamlar bilan bo‘ladigan muloqotni yaxshilaydigan va birgalikdagi faoliyatda psixologik qovushuvchanlikni ta‘minlaydigan qobiliyat.

Kommunikatsiya – tirik va o‘lik tabiatdagi tizimlar o‘rtasida axborot almashinuvini anglatadi. Kommunkasiya (lot. communio - aloqa, fikr olishuv ma‘lumot berish) - til va boshqa belgilar vositasida axboro berish.

Kompetentlilik – o‘zining shaxsiy muvaffaqiyati va foydasidan kelib chiqib, atrofdagilar bilan samarali o‘zaro hamkorlik qilish qobiliyatini anglatadigan kuch va ishonchda ifodalanadigai psixosotsial sifat.

Konfabulyatsiya (lot. confabulatio – suhbat, gaplashish) – yorqin obrazli xarakterga ega bo‘lgan yolg‘on fantastik fikrni bildirish.

Konflikt – Idrok qilinadigan harakat va maqsadlar nomuvofiqligi.

Konformizm (lat. conformis – o‘hshash, mos keladigan) – inson tomonidan o‘zining haqligiga ichidan shubhalanmaydigan fikridan nosamimiy ravishda qaytish tufayli boshqalarning fikrlarini (ehtimol, noto‘g‘ri bo‘lsa ham) tanqidsiz qabul qilish.

Konformizm – Guruhning real yoki tasavvurdagi bosimi ostida xulq yoki e‘tiqodlarni o‘zgartirish.

Konformlik (lot. corformis o‘xshash, mos) – individnng guruh fikrlariga tegishli tomondangina qo‘shilib, ichki tomondan esa qo‘shilmay o‘z fikrida qolishi, guruhga ongli raviyda moslashishi.

Konkretlashtirish – hodisalarni ichki bog‘lanish va munosabatlardan qat‘iy nazar bir tomonlama ta‘kidlashdan iborat fikr yuritish operasiasidir. Umumiy mavhum belgi va xususiyatlarni yakka yolg‘iz ob‘ektlarga tadbiiq qilish bilan ifodalanadigan fikr yuritish operasiasii insonning barcha faoliyatlarida faol ishtirok etadi.

Konsepsiya (lot, consepio idrok etmoq) – faoliyat maqsadlari o‘z ichida saqlanib qolgan, faqat o‘zi uchungina xizmat qiladigan moslashishdan qo‘zg‘alish holatiga o‘tish qobiliyati.

Konvergensiya – biror narsaga qaraganda ikkala ko‘z soqqasining qanshar tomon bab-barobar burilishidir. Konvergensiya masofani, chuqurligini aniq, to‘liq idrok qilishga imkon beradi.

Korrelyatsion tadqiqotlar – o‘zgaruvchi qiymatlar o‘rtasida pay-do bo‘ladigan tabiiy aloqalarni o‘rganish.

Kundalik ong – kishilarning bevosita kundalik tajribasiga asoslanadigan va ular mansub bo‘lgan sotsial jamoalarda hukmronlik qiluvchi tasavvurlar, bilimlar, tushunchalar va harakatlarning yig‘indisidir.

Kundalik tashvishlar – bu ish joylarida sodir bo‘ladigan qiyinchiliklar, o‘qish joylaridagi o‘quvchilarning o‘quvchilarga, o‘qituvchilarning o‘qituvchilarga noto‘g‘ri munosabatda bo‘lishlari, imtihonlarni muvaffaqiyatsiz yakunlanishi va hokazolarda namoyon bo‘ladi. Kundalik tashvishlar mayda stresslarni kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin, mayda stresslar to‘planib borib inson sog‘liqiga ta‘sir ko‘rsatadi. Jumladan, qon bosimining oshishi, yurak faoliyatining buzilishi va

Labillik (lot. labilis – beqaror, o‘zgaruvchan) – nerv xujayralarining tezlik bilan qo‘zg‘alish holatidan tormozlanish va tormozlanishdan qo‘zg‘alish holatiga o‘tish xususiyati.

Latent davr – libidoning mudroqdik va diqqatning o‘z jinsiga mansub tengdoshlari bilan munosabatlarda qiziqish va malakalarni rivojlantirishga jamlanadigan davri. **Layoqat** - nerv tiziminnig ba'zi irsiy determinlashgan anatomfiziologik xususiyati. Odamda qobiliyatlarni tarkib toptirish va rivojlanishining dastlabki yakka tug‘ma, tabiiy zaminidir.

Lazzatlanish tamoyili - reallikning cheklashlari yoki talablariga qaramasdan har qanday istak va ehtiyojlarni shu zahoti qondirishni talab qiladigan yo‘nalish.

Levofobiya – insondan chap tarafda turgan narsalardan qo‘rqish.

Libido – Asosan jinsiy xulqdan lazzat qidiradigan psixik energiyaning bir qismi (seksual energiya).

Limbik tizim – bosh miyaning ayrim emotsional jarayonlar bilan bog‘liq qismlarining umumiyliqi.

Limfa (lot. lymph - namlik) – kimyoviy tarkibiga ko‘ra qon plazmasiga yaqin lekin oqsillari kam suyuqlik. Limfatik tizim bo‘yicha aylanadi va to‘qimalararo makonni to‘ldirib turadi. To‘qimalar uchun oziq muhim hisoblanadi.

Lokomotsiya (lot. lokus - joy motio - harakat) – inson va hayvon organizmining erkin faoliyatini ta'minlovchi harakatlar yig'indi.

Lokus nazorat - (lot. lokus joy) - odamning o'z faoliyati natijalariga javobgarligini tashqi kuchlardan ko'rish (eksternal, tashqi lokus nazorati) yoki o'zining qobiliyatlarini intilishlardan ko'rish xislati (internal, ichki lokus nazorati).

Longityud tadqiqot (ing. longitude - uzoq muddat) - tekshiriluvchilarni uzoq muddat va doimiy ravishda o'rganish. Longityud tadqiqot (ing. longitude – uzoq muddat) - tekshiriluvchilarni uzoq muddat va doimiy ravishda o'rganish. L.t. Odamdagi individual va yosh davrlardagi o'zgarishlarni qayd qiladi.

Ma'lumot - bir tartibga kiritilgan bilim, ko'nikma va malakalarnio'zlashtirish jarayoni hamda natijasi. M. olishning asosiy yo'li o'quv muassasalarida yoki mustaqil o'qishdan iborat.

Ma'lumotlarning chizma tasviri – tadqiqot davomida psixik hodisalarning o'zgarish xarakterini ko'rsatuvchi chiziqli tasvirlar.

Madaniyat - odamlarning katta guruhi uchun umumiy bo'lgan, avloddan-avlodga uzatiladigan tushunchalar, mayllar, odatlar va xulq xususiyatlari.

Manikal qo'zg'alish – bemor juda gagdon, tez va palapartish gapirishadi, bir fikrni oxiriga yetkazmay boshqasiga o'tishadi. O'z imkoniyatlariga keragidan ortiq baho berishadi.

Manipulyatsiya (lot. manipulus – siqim, xovuch) - bir yoki har ikkala qo'lning ma'lum bir vazifani bajarish maqsadidagi harakati.

Mantiq - to'g'ri fikrlash qonunlari shakllari fan; tafakkurga xos ichki qonuniyatlar, ketma-ketlik, izchillik.

Maqsad - inson faoliyati so'nggi natijasining obrazi sifatida namoyon bo'ladi va ehtiyojlarini amalga oshirilishidir. Maqsad - kishining shu paytda ma'qul yoki zarur deb topgan ish harakatini tasavvur etish demakdir. Masalan, inson pedagogika universitetiga kirib o'qishni zarur deb topdi yoki viloyatga ish bilan borib kelish zarurligini tushundi, deylik. Bularning hammasida kishining maqsadi o'z-o'zidan zohir bo'layotganga o'xshaydi, ba'zan esa bu maqsad bir qadar fikr yuritish natijasida yuzaga keladi.

Mardlik – o'zini puxta bilish dadillik, qat'iatlik, chidam va toqat paytlarida namoyon bo'ladigan kuchli iroda.

Mastlikning dipressiv affekti bilan kechadigan turi - belgilari: kayfiyat pasayadi, g'amlik, bezovtalanish, o'ziga suiqasd qilish, fikrlarining paydo bo'lishi bilan kechadi. Oddiy mastlik holatida shaxslar

qo'lg'a olinganda qarishilik ko'rsatadilar milisiya xodimlari bilan janjal qilishadi.

Mastlikning eksploziv turi - belgilari: arzimas sabab bilan paydo bo'ladigan qisqa vaqt davom etadigan. Jahldorlik, norozolik holati bilan o'rin almashinadi.

Mastlikning epileptoid turi – bemor uzoq vaqt uxlay olmaydilar, qo'shimcha alkogol ichgandan so'ng uxlab qoladilar. Bemor atrofdagi kishilarga qaratilgan jahldorlik tajanglik bilan harakat qo'zg'alishlar paydo bo'ladi.

Mastlikning isterik turi: belgilari harakat buzilishlari ya'ni mast odam o'z qo'llarini qayishtirib bezovtalanadi, o'z-o'ziga yengil jarohatlar yetkazadi yoki isterik tutqanoq holatiga tushadi. Bemor o'zini oddiy ichuvchigina emas, jinni sifat qilib, ko'rsatishga harakat qilishadi. Bu holat uzoq davom etadi.

Mastlikning o'rtacha, og'irlik darajasi - Mastning tasavvurlari qashshoqlashib diqqati pasayadi, fikrlashi susayadi, ko'tarinki kayfiyat xafachilik bilan almashinadi. Mast kishi o'z qobiliyatini yuqori baholaydi, o'z-o'ziga tanqid pasayadi. Vaziyatga qisman to'g'ri baho berilishi natijasida agressiya harakatlar qiladi. Ataksiya – muvozanat buzilishi dizartriya belgilari namoyon bo'ladi. Nutq talfuzi buzilishi natijasida bir so'zni qayta-qayta takrorlaydi.

Mastlikning og'ir darajasi - muvozanat buzilishi natijasida ishonchisizlik bilan qo'pol qadam tashlash paydo bo'ladi. Bemor joyda, vaqtda va atrofda noto'g'ri yo'naladi. Bemorda tutqanoq, beixtiyor axlat va siydik ajratilishi kuzatiladi. Bosh aylanish, ko'ngil aylanish qayt qilish kabi holatlar paydo bo'ladi, nafas olish, yurak tomirlar sistemasining faoliyati pasayadi. Mastlik holatida qonunni buzgan shaxs qanday og'ir holatda bo'lsin aybdor analadi.

Mavhumlashtirish - alohida biror xususiyatni ajratib, boshqalaridan fikmi chalg'itish, ayrim xossani mavhumlashtirish.

Maxsus insoniy qobiliyatlar - ijtimoiy-tarixiy tabiatga ega bo'lib, ijtimoiy hayot va taraqqiyotni ta'minlaydi. Maxsus insoniy qobiliyatlar o'z navbatida umumiy va xususiy qobiliyatlarga bo'linadi.

Mayl - shaxs qiziqishlari va fikrlarining biror faoliyat bilan shug'ullanishga jalb etilganligi, shaxsda kuchli istak, hohish tarzida namoyon bo'lib, bajo keltirilganda odamga mamnuniyat baxsh etadi. Mayl – tug'ma sezgi, nasldan o'tadigan biologik xususiyat-instinkdir. Ya'ni qachon talab ongli ravishda sezilsa, qachon maqsad va unga

erishish yo'llari aniq bo'lsa shunda hohishlar haqida gapiriladi. Mayning buzilishlari qo'yidagilardan iborat:

Mazmun – bevosita hissiy kechinmalar davomida yoki ongda aks etuvchi qandaydir obyekt o'rtasidagi munosabatni xira bo'lsada anglash va subyekt hohishlariga ko'ra paydo bo'ladigan psixik yaxlitlikdir. Bir narsa men uchun kerak, ehtiyoji bor, boshqasi esa – yuq, kerakmasligini e'tiborga olib, aytishadiki, «bu men uchun mazmunga ega» yoki «buning men uchun mazmuni yo'q» tashqaridan qaraganda bir narsa bo'lib tuyulgan yumush (o'ra qazish) yollangan yer qazuvchi uchun daromad qilish mazmuniga ega, arxeolog uchun qandaydir buyuk tarixiy muammoni yechish, tasodifiy yo'lovchi uchun esa piyodalar yo'lining buzilayotganligi unga qandaydir buzg'unchilik mazmuniga ega bo'lib tuyuladi.

Mazoxizm – bu seksual sherigi tomonidan iztirob yetkazilganda, kamsitilganda seksual qoniqish olish.

Me'yor – obyektning sifat va miqdoriy jihatlari o'zaro bog'liqligini anglatadigan, mazmukn va shakl imkoniyat va voqeilik o'rtasidagi zaruriy uyg'unlik ta'minlanishini ifodalaydigan falsafiy tushuncha.

Me'yordan tashqari g'amxo'rlik - bolalarda o'z-o'zini nazorat qilishning rivojlanishi haqida yetarli darajada yoki umuman qayg'urmaydigan ota-onalar xulqini ifodalovchi atama.

Meditatsiya (lot. meditatio- fikrlash) - inson psixikasini va ongini jamlangan holga keltirish maqsadida unga aqliy ta'sir o'tkazish. Bu holatda tana bo'shashgan, hissiy kechinmalar va tashqi muhit ta'sirlaridan holi bo'ladi.

Melanxolik - yuksak senzitivlik xususiyatiga ega. Sezgirligi yuksak (sezgi chegaralari yuqori). Arzimagan sababga ko'ra, ko'zlaridan yosh oqib ketaveradi. Nihoyatda arazchan, sekin yig'laydi. Samimiy, juda oz kuladi, faolligi sust. o'ziga ishonmaydi, tortinchoq, ozgina qiyinchilik tug'iladigan bo'lsa, ho'lini yuvib qo'ltig'iga urib g'o'ya qoladi. G'ayratsiz qat'i emas. Diqqati tez chalg'iydi, barqaror emas. Psixik tempi sust. Rigid (qotib qolgan). Introvertlik xususiyatiga ega.

Melanxolik (yunon. Melas - qora, chole - o't, safro) - temperament turlaridan, psixik faollikning sust, tez ta'sirlanuvchanlik, hatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur ta'sirotga berilishi bilan xarakterlanadi.

Melanxoliya (yunon, melas qora, chole - o't, safro) - ma'yus kayfiyat. harakatlarning sekinlashuvi, umuman, psixik faollik va fikrlash qobiliyatining pasayishi bilan xarakterlanadigan psixopatologik holat (q. Depressiya).

Men - «Men», «U», «Oliy Men» Freyd ta'limoti bo'yicha shaxs strukturasi. «Men» - o'zini cheklash, sublimatsiya, regressiya kabi himoya vositalari yordamida shaxsning real muhitta moslashish, «U» - shaxsning bevosita qondirilishi zarur bo'lgan biologik mayllaridan iborat shaxs tuzilishi. «Oliy men» ->Super ego». Z.Freyd bo'yicha shaxs tuzilishi bo'lib, shaxsning ijtimoiy muhitga moslashishi davomida yuzaga chiqqan ijtimoiy cheklanishlar va qadriyatlaridan iborat.

Men - falsafiy tushuncha bo'lib, shaxs o'ziga hisob beradigan va mas'uliyatni his qiladigan, rejalashtirilgan xarakter subyektini bildiradi. «Men» ongsiz mayllar paydo bo'lishining senzori hisoblanadi. Sivilizatsiya va ijtimoiy munosabatlar taraqqiyoti davomida «Men» madaniyat tomonidan shakllantiriladi, ya'ni jamiyatdagi madaniy va axloqiy munosabatlar har bir odamga ta'sir qiladi, u bilan qo'shib ketib, subyektiv «Men» ni tashkil qiladi.

Men - konsepsiya (lot. conceptio - qabul etish - odamning o'zi to'grisida nisbatan barqaror, aniqlangan, o'z kechinmalarida ifodalanadigan taassurotlar tizimi).

Men - konsepsiya (lot. conceptio - qabul etish - odamning o'zi to'grisida nisbatan barqaror, aniqlangan, o'z kechinmalarida ifodalanadigan taassurotlar tizimi, m.k.si asosida odam boshqalar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi va o'ziga bo'lgan munosabatni belgilaydi).

Men-struktura - Odamning o'z-o'ziga taalluqli bo'lgan ma'lumotni qayta ishlashni tashkil qiladigan va yo'naltiradigan o'z-o'ziga ishonch.

Mentalitet - individ yoki ijtimoiy guruhning millatning o'ziga xos tafakkur tarzi, voqelikni ma'lum bir tarzda tushinishi va va birlikda xarakat qilishga tayyorligi va moyilligi. Mentalitet (ing. Mentahty - o'ziga-xoslik) - psixik xususiyatlar, sifatlar va jarayonlarning o'ziga xos tuzilishi, yig'indisi, shaklini anglatuvchi umumlashgan tushuncha. Odatda tafakkurning o'ziga xos uslubi aqliy yondashish yoki nuqtai nazarning betakror bir turini belgilash uchun foydalaniladi (mas. milliy o'zbek M.i. ijtimoiy guruhga mansub ziyolilar M.i. yoshlar M.i. va boshqalar).

Mielin (yunon. myelos - iliq)- nerv tolalarnnnng yumshoq qobig'i tarkibiga kiruvchi yog'simon moddalar aralashmasi.

Milliy o'z-o'zini anglash - o'z milliyligini anglash, milliy qadriyat va urf - odatlarga hurmatda bo'lish.

Milliy stereotip (yunon. Stereos - qattiq typos - iz shakl) - ma'lum illatning obrazi bo'lib, u o'zida o'sha millatga xos shaxs xususiyatlari, madaniyati, xulq - atvorini namoyon qiladi.

Milliy xarakter (yunon. karakter - xususiyat, belgi) - biror bir millatga xos xususiyatlar.

Monizm (yunon. monos - bir) - dualizmga qarama - qarshi o'laroq dunyodagi barcha hodisalarning asosini bitta narsa yo materiya yo ruh tashkil qiladi deb ta'lim beruvchi falsafiy ta'limot.

Morfema (yunon. morfus - shakl) grammatik atama bo'lib, u so'zning eng kichik qismini ifodalaydi.

Morfologiya (yunon. morfus - shakl, fan) - inson tanasi tuzilishining rivojlanishi va faoliyatini o'rganuvchi fan.

Moriya - o'ta ko'tarinki ruhiy holat, tentaknoma harakatlar bilan kechadi.

Moslashish bosqichida buyrak usti bezlari kattalashadi, organlar va to'qimalarning ishlashi sekinlashadi. Agar stressni keltirib chiqaruvchi omil organizmga kuchli ta'sir etsa etmasa shu holat uzoq vaqt saqlanib qoladi. Agar ta'sir kuchli bo'lsa, uchinchi bosqich boshlanadi.

Moslik - kishilardan harakat qilish kelishuvini va yaxshi o'zaro bir-birini tushunishini talab qiladigan birgalikda ishlash, vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish qobiliyati.

Motiv - kishini faoliyatga undaydi va unga mazmun baxsh etadi. Motiv - shaxsdagi u yoki bu xulq - atvorga nisbatan turgan moyillik. Motiv (lot. movere - harakatga keltirmoq) - ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab. Motiv (lot. movere - harakatga keltirmoq) - ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab. Motiv - ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab. Motiv - bu kishini faoliyatga undovchi kuch, sabab yoki ehtiyojlar yig'indisidan iboratdir. Motiv tushunchasiga olimlar tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi: A.Maslouning fikricha, motiv bu ehtiyojlar yig'indisidir.

Motivatsion - irodaviy - ma'lum xarakterlar va xulqni amalga oshirishga undovchi kuchlar. Demak, bizning munosabatlarimiz ma'lum ma'no va mazmun kasb etgan munosabatlar bo'lib, ularning har birida bizning xissiy kechinmalarimiz aks etadi va xarakterimiz namoyon bo'ladi.

Motivatsiya - inson xulq - atvori, uning bog'lanishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Motivatsiya - inson xulq-atvori, uning bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Bu tushuncha u yoki bu shaxs xulqini tushuntirib berish kerak bo'lganda ishlatiladi, ya'ni: "nega?", "nima uchun?", "nima maqsadda?", "qanday manfaat yo'lida?"

degan savollarga javob qidirish - motivatsiyani qidirish demakdir. Demak, u xulqning motivasion tasnifini yoritishga olib keladi. Motivatsiya keng ma'noda inson hayotining (uning xulq-atvori, faoliyatining) murakkab ko'p qirrali boshqaruvchisi deb qaraladi.

Motivatsiya - insonni faoliyatga undashning murakkab, ko'p darajali tizimi bo'lib, u o'zida ehtiyojlarni, motivlarni, qiziqishlarni, ideallarni, intilishlarni, ustanovkalarni, emotsiyalarni, normalarni, qadriyatlarni mujassamlashtiradi.

Motivlar kurashi - maqsadlarga erishish yo'llarini va vositalarini tanlash sharoiti ba'zan ichki kurash xarakteriga ega bo'ladi, bu kurashda turli kuch va jozibaga ega bo'lgan bir necha motiv maydonga chiqadi. Shuning uchun ham bu jarayon deb yuritiladi. Motivlar kurashi (lot. motivus - harakatchan) - qaror qabul qilish bilan bog'liq irodaviy harakatlar bosqichi.

Motor kinetik avtomatizm - bemorda shunday ishonch hosil bo'ladiki, u tashqi kuchi ta'sirida xarakati va faoliyatining boshqarishini yo'qotib qo'yayotgandek tuyuladi. Ular tashqi ta'sir ostida boshqaning hohishga ko'ra qo'llari ko'tariladi, kallalari buriladi, chopishga majbur bo'ladi. Bemorlarda nutq harakati ya'ni lab va tillarning buyurilgan, majburlab, zo'r lab, eshitarli qilib so'z va gapni gapirish kuzatiladi.

Motor ustanovka - tayyorgarlikda harakatning ustunligi qobiliyati moyilligidir. Masalan, bahor kelishi bilan qashoratlarning jonlanib harakatga kelishi.

Mudroqlik samarasi - xabarning kechikkan ta'siri; biz xabarni eslaymizu, unga ishonmaslik sababini unutmaganimizda paydo bo'ladi.

Muhit - tirik organizmning yashash sharoiti, tirik organizmlar hayotini belgilovchi omildir.

Mukofotlovchi istaralilik nazariyasi - kimning xulqi biz uchun foydali bo'lsa yoki kim biz uchun foydali voqealar bilan bog'liq bo'lsa, shu odamlar bizga yoqishi haqidagi nazariya.

Muloqot - hamkorlikda faoliyat ehtiyoji bilan taqazolangan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirish jarayoni. Muloqot - sub'ektlarning belgilar tizimi orqali o'zaro ta'sirlanishuvi. Muloqot ikki va undan ortiq kishilar o'rtasidagi axborot ayriboshlash, o'zaro ta'sir va bir-birini tushunishdan iborat jarayon sifatida e'tirof etiladi. Muloqot - shaxs individual rivojlanishi jarayonida namoyon bo'ladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri. Bu faoliyat insondagi kuchli ehtiyojlardan biri - inson bo'lish, odamlarga o'xshab gapirish, ularni tushunish, sevishtirish, o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan ehtiyojlaridan kelib

chiqadi. Shaxs o'z taraqqiyotini aynan shu faoliyat turini egallashdan boshlaydi va nutqi orqali (verbal) va nutqsiz vositalar (noverbal) yordamida boshqa faoliyat turlarini mukammal egallashga zamin yaratadi.

Munosabat vasvasasi – bemor o'z yaqinlariga shubha va ishonchsizlik bilan qaray boshlaydi, ya'ni unga nisbatan munosabatini o'zgartirgandek tuyuladi. Uning ustidan kulib, yomon niyatli g'azabli ko'zlar bilan qarasha yotgandek bo'ladi.

Munosabatning o'zgarishi (deformatsiya) – bu munosabatlardagi shunday o'zgarishlarki (buzilish, qiyinchiliklar, yanglishishlar), ular munosabatdagi samaradorlikning pasayishi yoki buzilishiga, hamkorliklarning sog'lig'iga, ularning obro'siga yoki ruhiy osoyishtaligiga, moddiy qadriyatlariga va boshqalarga putur yetkazadi. O'zgarishlarni ularning turiga qarab turlicha tushunish mumkin: mas., mening ustimdan kulishayotgani uchun bizning begona ekanligimizni, bizning do'st emasligimiz, bir-birimizni tushuna olmasligimizni, meni masxara qilishayotganligi va ko'plab boshqa narsalarni anglay boshladim.

Muskul - harakat sezgilarining fizik sababi muskullarga ta'sir etuvchi narsalarning mexanik tazyiqi va gavda harakatlaridir.

Muskul-harakat sezgilari motor sezgilar - nomlanib, ularga og'irlikni, qarshilikni, organlar harakatini bilish sezgilari kiradi. Ularning organlari-gavda muskullari, paylar, bo'g'imlardan iboratdir. Organlarning tarkibida sezuvchi nervlarning chekka tarmoqlari mavjud bo'lib, ularning ta'sirida harakat va statik sezgilar vujudga keladi.

Mustaqillik - bevosita rahbarliksiz yo rahbarning amaliy yordamisiz o'z faoliyatini bir tizimga keltirish, rejalashtirish, nazorat qilish va boshqarish qobiliyati.

Nafrat – ehtiyoj, hohish, qadriyatlarga qat'iy ravishda salbiy munosabatni ifoda etuvchi shaxs tuyg'usi.

Nafratlanish - obyektlar (narsalar, odamlar, holatlar va boshqalar)ga yaqinlashish (jismonan birgalikda harakat qilish, munosabat jarayonida aloqa bog'lash va shu kabilar) subyektning mafkuraviy, ma'naviy yoki estetik prinsiplari va yo'l-yo'riqlariga keskin zid kelib qolishi oqibatida ro'y beradigan salbiy hissiy holatdir. Nafratlanish, agar u g'azablanish bilan qo'shilib ketadigan bo'lsa, shaxslararo munosabatlarda hujum g'azablanishni sabab qilib, nafratlanishga esa «biron kishidan yoki biror narsadan qutilish» istagini bahona qilib ko'rsatiladigan tajovuzkor xulq-atvorga sabab bo'lishi mumkin.

Narkoleptik tutqanoq - birdan boshlanadi, bemor to'xtatib bo'lmaydigan uyquga ketadi. U noqulay joy bo'lsa ham uxlab qoladi. Yurganda, ovqatlanayotgan, ishlayotganda uxlab qoladi.

Narkomaniya (yunon, narke - esankirash, qotib qolish, mania - aqlsizlik, berilish) - narkotik vositalarni qabul qilish natijasida vujudga keladigan kasallik. Oz miqdorda qabul qilish eyforiyani, kattasi esa narkotik uyquni, serrayib qotib qolishni yuzaga keltiradi.

Nazorat illyuziyasi - aslida nazorat qilib bo'lmaydigan hodisalarni shaxsiy nazoratim ostida yoki yana ham kuchliroq nazorat qilinyapti deb idrok qilish.

Nazorat lokusi - odamlar o'z hayotlarini shaxsiy intilishlari va harakatlari orqali «ichkaridan» yoki tasodiflar va tashqi kuchlar orqali «tashqaridan» nazorat qilinadi deb idrok qilishlari darajasi.

Negativizm (lot. negativus - inkor etadigan) - bolalar psixologiyasida atrofdagi kishilarga nisbatan bolaning sababsiz qarshilik ko'rsatishi. N. ikki xil bo'lib, passiv (o'jarlik) - taklif qilingan faoliyatning bola tomonidan bajarilmasligi, faol shaxsiy negativizm - bolalarning, qarama - qarshi xarakterga ega bo'lgan faoliyatni bajarishi. Negativizm - yaqin kishilarining iltimosini sovuq qiliqlar, teskari bajarish.

Nervlar - (lot. neuron - tola, ip) - tizimchasimon murakkab tuzilma, nerv tolalari tutami, ular miyani va nerv tushunchalarini tananing boshqa a'zolari bilan bog'laydi. Nervlar - tizimchasimon murakkab tuzilma, nerv tolalari tutami, ular miyani va nerv tushunchalarini tananing boshqa a'zolari bilan bog'laydi.

Nevrotik xavotir - Ego nazorat qilib bo'lmaydigan instinktiv mayllar tahdidi ostida bo'lganda individ tomonidan his qilinadigan qo'rquv ko'rinishidagi emotsional javob (Id — (U ong osti) dan kelayotgan impulslar Ego ga noxushlik keltiradi degan qo'rquv).

Neyron (lot. neuron - tola, ip) - asab tizimining asosiy tuzilishi va funksional birligi, u asab katakchalari, to'qima va undan uzoqlashuvchi o'simtalardan iborat. N.lar markaziy asab tizimiga reseptorlardan qo'zg'oluvchanlikni uzatib turadi (xissiy n.lar) va markaziy asab tizimidan ijro etuvchi a'zolarga javob berishni ta'minlaydi harakat N.i bir qancha asab to'qimalarini uzoq birlashtiradi. **Neyron** (lot. neuron - tola, ip) - asab tizimining asosiy tuzilishi va funksional birligi, u asab katakchalari, to'qima va undan uzoqlashuvchi o'simtalardan iborat.

Neyronpsixologiya - muayyan psixik jarayonlar sodir bo'lishini ta'minlaydigan neyron tarmoqlarini o'rganuvchi fan.

psixofiziologiyaning oliy psixik funksiyalar miya mexanizmini o'rganadigan qismi.

Nigilistik vasvasada – bemor o'zini ichki a'zolarini sezib turganligini, yurak urmayotganligi, o'pka nafas olmayotganligini, o'zi o'lganligini, tirik murda ekanligini boshqalarga tushuntirmoqchi bo'ladilar.

Nizo - o'zaro ta'sir ko'rsatayotgan kishilarning qarama - qarshi qiziqishi.

Normalar - umum tomonidan qabul qilingan va kutiladigan xulq qoidasi.

Normativ ta'sir - odamning e'tibor qozonish uchun boshqalarning istaklarini qondirish istagiga asoslangan konformizm.

Noverbal ta'sir - "nutqsiz"dir. Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir - birlariga nisbatan tutgan o'rinlari, xolatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir - birini bevosita xis qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir - birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Masalan, agar uchrashuvning dastlabki daqiqalarida o'rtog'ingiz sizga qaramay, atrofga alanglab, "Ko'rganimdan biram xursandman", desa, ishonasizmi?

Nufuz - shaxsning ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan fazilati, qadr - qimmati hamda atrofdagi boshqa kishilarga nisbatan ta'sirchanligi.

O'g'irlanish vasvasasi – bkmor uni o'g'irlar katta zarar yetkazishganini aytadi. Bu vasvasa qarilik aqli pastligi va serebral aterosklerozda uchraydi.

O'lchov natijalarining qiymati - o'lchov natijalarining aniqligini ko'rsatadigan son.

O'lim instinkti - Freydning «odamlar o'z-o'zini vayron qilish va o'lim istagi bilan faollashishadi» deb ataluvchi g'oyasi (aksariyat tashqi tomondan agressiya ko'rinishida ifodalanadi).

O'rgatuvchi yoki shakllantiruvchi eksperiment - psixologiya metodi, unda shaxsdagi zaruriy psixik jarayon yoki sifatlar rejali ravishda shakllantiriladi.

O'rin almashtirish - mohiyati haqiqiy obyekt tomonidan o'ch olinish ehtimoli tufayli hissiyot va impulslarni butunlay boshqa odamga yo'naltirishdan iborat bo'lgan himoya mexanizmi. Masalan, o'qituvchi tomonidan tanqid qilingan talaba o'z g'azabini yotoqxo-nadagi qo'shnisiga sochadi.

O'rtachaga qaytish - eng yuqori natijalar yoki o'ziga xos xulq o'rtacha ko'rsatkichga qaytishga intilishini bildiruvchi statistik ko'rsatkich.

O'ta charchash bosqichi - organizmda kuzatilayotgan yutuqlarga ko'ra bosqich xavotirli bosqichga yaqin. Bunda odatda organizm kasallanadi.

O'ta ezmalik - bemor asosiy mavzuga bog'liq bo'lmagan hodisa va voqealar ustida ko'proq gap yuritadilar. (epilepsiyada uchraydi).

O'ta qimmatli g'oyalar - ahamiyati katta bo'lmagan xulosa, fikr g'oya va tassavurlarni bemor o'zi uchun juda katta ahamiyatli deb biladi. Atrofdagilar uni tan olmasliklarini yomonniyatlar, ko'rolmaslik deb tushunadi. Ma'lum vaqtdan keyin o'ta qimmatli g'oyalar jadalligini yo'qota boshlaydi va butunlay yo'qoladi. O'ta qimmatli g'oyalar depressiya sindromida, psixopatiyada uchraydi.

O'tkir alkogol gallyutsinozi - qo'qqisdan boshlanib, uyqudan oldin eshitish gallyutsinatsiyalari paydo bo'ladi. Bemor hatti - harakatlari «ovoz», «tovushlarga» mos kelib ularning bezovta bo'lishi xavotirga tushishi mavhum xavf xatarga qarshi choralarni izlash hollari kuzatiladi. Bemor agressivligi oshib atrofdagilarga xavfli bo'lib qoladi. Kasallik uzoq vaqt davom etishi mumkin.

O'ylar - insonning hayotidagi kelajak hayot manzaralarini aks ettiradigan shirin tasavvurlari, fantaziya va orzu-niyatlaridir.

O'zaro bir-birini to'ldirish - go'yoki ikkita odam o'rtasidagi o'zaro munosabatlar chog'ida har ikkalasining bir-birini to'ldirish holati paydo bo'ladi. O'zaro bir birini to'ldirish haqidagi munozarali faraz, aynan qiziqishlari turlicha bo'lgan odamlar bir-birlariga intilishadi, chunki bu narsa ularga bir-birlarini to'ldirishga imkon beradi deb tasdiqlaydilar.

O'zaro bog'liqlik illyuziyasi - individ tomonidan aslida yo'q o'zaro munosabatlarni idrok qilish yoki o'zaro munosabatlarni aslidagidan ko'ra yaqinroq deb idrok qilish.

O'zaro harakat - bitta omilning (masalan, biologik) boshqa omilga (masalan, atrof-muhitga) ta'siri samarasi.

O'zaro induksiya - nerv jarayonlarinig qo'zg'alish va tormozlanishning o'zaro ta'siri.

O'zaro o'z-o'zini oshkor qilish - ishonchli suhbat paytida o'zaro oshkoralik uyg'onishi.

O'zgarmas ma'lumotning idrok qilinmasligi qonuni - muntazam ta'sir etuvchi ma'lumot ongda uzoq ushlab turilmaydi.

O'zgaruvchanlik - individning butun hayoti davomida shaxs beto'xtov o'zgarishga uchrab boradi deb tasdiqlash.

O'ziga bino qo'yish fenomeni - aniqlikdan ko'ra ko'proq ishonish xususiyati, ya'ni o'z e'tiqodlarining to'g'riligiga ortiqcha baho berish.

O'zini asrash instinkting aynishi - o'ziga shikast yetkazadi. (terisini kuydirish, turli buyumlar bilan o'zini jarohatlash);

O'zini oqlashning yetarli emasligi samarasi - tashqi oqlash «yetarli bo'lmagan» holatda o'z xulqini ichki oqlash yo'li bilan dissonansni kamaytirish.

O'zini oshkor qilish - boshqa odam oldida yashirin kechinma va hissiyotlarini oshkor qilish, yorilish.

O'zlashtirilgan chorasizlik - odam yoki hayvon doimiy qaytarilayotgan noxush hodisalarni nazorat qila olish imkoniyatini his qila olmagan holatlarda o'zlashtiriladigan chorasizlik va mutelik.

O'z-o'zini anglash - individning o'zi haqida nisbatan barqaror anglangan tasavvurlar tizimi. Uning asosida individ odamlar bilan o'z munosabatini o'rganadi. O.o.a. ning shakllanishi jamiyatning ongli a'zosini tarbiyalashning zarur shartlaridan biridir.

O'z-o'zini ayblash vasvasasida - bemor o'zini gunohkor, jinoyatchi deb biladi, shuning uchun o'zini jazolanishga, qiynoqlarga, o'limga loyiq deb tan oladi. Suisidal urinishlarga mayl (o'zini o'ldirish) kuzatiladi.

O'z-o'zini idrok qilish nazariyasi - shaxsiy ustanovkalaridagi ishonchsizlik bizni ular haqida «o'zimizni kuzatish» - ustanovkalar namoyon bo'ladigan vaziyatlar va xulqimizni tekshirish orqali xulosa chiqarishga majbur qiladi deb hisoblovchi nazariya.

O'z-o'zini ishontirish - o'z-o'ziga qaratilgan ishontirish jarayoni, bunda ishontiruvchi subekt va obyektning birligi namoyon bo'ladi.

O'z-o'zini kuzatish - odamning o'z psixik holatlari bilan o'z hatti - harakatlarini o'rganishdan iborat usul.

O'z-o'zini taqdim qilish - o'z-o'zini namoyon qilish harakati va kimningdir ideallariga mos tushadigan taassurot yoki yoqimli taassurot uyg'otish uchun yo'naltirilgan xulq.

O'z-o'zini tuta bilish - shaxsning muayyan sharoitlarda ortiqcha fikr, his - tuyg'u, hatti - harakatlarini ongli ravishda tiyib turish, o'z fikr, hissiyot va harakatlarini maqsadga muvofiq yo'naltira olishdan iborat irodaviy xarakter xislati.

O'z-o'zining xulqini boshqarish - faollikni boshqarish darajasi. Bunda shaxs o'z xulq-atvorini qabul qilgan qaroriga ko'ra boshqarib, zarur hollarda faoliyatdagi nuqsonlarni tuzatdi.

Obsessiv (yopishmoq holatlar) sindromi - bemor ixtiyorsiz, uning hohishiga qarshi paydo bo'ladigan shilqim yopishqoq fikrlar, tasavvurlar, xotiralar, qo'rquvlar, intilishlar va xarakatlar qiladi. Bemor o'zining ahvolini, noo'rin gaplarini tushunadi, ammo o'zini yenga olmaydi va shifokor yordamiga muhtoj. U irim sirimlarga beriluvchan bo'lib qoladi. «Shunday qilib», «demak», «keyin» kabi so'zlarni ko'p ishlatadilar. Bu sindrom nevrozlarda, psixopatiyada, shizofreniyada kuzatiladi.

Odam - sut emizuvchilar sinfiga daxldorlik, biologik jonzod ekanligi odamning o'ziga xos xususiyatidir. Tik yurishlik, qo'llar-ning mehnat faoliyatiga moslashganligi, yuksak taraqqiy etgan miya-ga egaligi, sut emizuvchilar tasnifiga kirishi uning o'ziga xos to-monlarini aks ettiradi. Ijtimoiy jonzod sifatida odam ong bilan qurollanganligi tufayli borliqni ongli aks ettirish qobili-yatidan tashqari o'z qiziqishlari va ehtiyojlariga mutanosib tarzda uni o'zgartirish imkoniyatiga ham egadir.

Odam- "odam-mashina" tizimi - muhandislik psixologiyasining o'rganish predmeti, bunda odam - operator moddiy ne'matlarni ishlab chiqish jarayonida texnik qurilmalar bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi. Axborotni qayta ishlashni, boshqarishni ham o'rganadi.

Odamning ichki dunyosi - shaxsning dunyoqarashi, g'oyalari, ideallari, orzulari, qadriyatlarini yig'indisi.

Odamovilik - odamlarga qo'shilmay, ko'pchilikni yoqtirmay, yakka holda yashashni afzal ko'rish.

Oddiy mastlik - oddiy mastlik bu alkogol kirganda yuzaga keladigan, etil spirtidan o'tkir zaharlanishdir. Alkogol markaziy nerv tizimiga ta'sir etib, oliy nerv faoliyatini ishdan chiqaradi. Oddiy mastliklikning kechishining 3 darajasi mavjud.

Odob - jamiyatda e'tirof etilgan xulq. O. shaxsning o'zgalar bilan munosabatida namoyon bo'ladi.

Oila - turmush qurish, qarindosh - urug'chilik asosidagi kichik guruh. Uning a'zolari yagona yashash sharoiti, o'zaro yordam va axloqiy javobgarlik asosida birlashadi.

Oldindan aks ettirish - psixik aks ettirish usullaridan biri. U ma'lum jarayonning o'sib rivojlanib borishini oldindan ko'ra bilish imkoniyatini yaratadi. O.a.e. mexanizmi P.K.Anoxin tomonidan kashf etilgan.

Oldindan mo'ljallanmaganligi bilan farq qiladigan tabiiy xulq-atvordan farqli o'laroq, faollik ixtiyoriyligi bilan, ya'ni ongli ravishdagi maqsadga muvofiq harakatning shartlilikligi bilan farq qiladi. Faollik bir daqiqalik vaziyat talabi bilan, unga moslashuv, berilgan chegaralarda harakat qilish istagi bilan yuzaga keltirish mumkin va mumkin emas, u vaziyatdan ustunligi bilan, ya'ni asos qilib olingan ma'lumotlarning, kishining vaziyat talablari darajasiga ko'tarila olish, asosiy vazifaga nisbatan ziyod maqsadlarni qo'ya bilish qobiliyati (qaltis ish uchun tavakkal qilish), ijodiy jo'shqinlik va boshqadar) bilan yuzaga keltirish mumkin va mumkin emas.

Oligofreniya – umumiy intellekt rivojining yetishmovchiligi bilan tavsiflanadi. Ular voqea va hodisalarni kuzatib chuqur tahlil etib umumlashtirib, to'g'ri xulosa chiqarolmaydilar. Bilim doirasi tor, mulohazalari yengil va o'ta sodda, eslash qobiliyatiga ega bo'lmaydilar. Ularda atrof muhitga tanqidiy qarash pasayadi.

Oligofrenologiya (yunon. oligos - kam, phren – aql, lodos- ta'limot) – aqli zaiflik, psixik funksiyalarning taraqqiyotdan ortda qolishini o'rganuvchi fan.

Oliy nerv faoliyati turi - oliy nerv faoliyati xususiyatlarining barqaror yig'indisi (kuchi, vazminligi, harakatchanligi va boshqalar). By asosan nerv tizimining xususiyatlari yig'indisi bilan ifodalanadi.

Oliy psixik funksiyalar (yunon. psyche – puxiy, lot. functio - bajarish) - odamning hayoti davomida shakllanadigan murakkab psixik jarayonlar tizimi.

Oltinchi sezgi - odamdagi asosiy besh sezgidan tashqari har xil holatlarda namoyon bo'ladigan sezgi. U biror konkret analizatorning funksiyasi bilan bog'liq bo'lmaydi. - mas., sportchi suzuvchilarda suvni sezish.

oluvchi va ularni o'zi uchun qabul qiluvchi kishilar guruhidir.

Oneyroid – ongning tushsimon, fantastik vasvasaviy buzilishi. Bemor ko'z oldida paydo bo'layotgan voqealar tushga o'xshaydi. Bemor atrofdagi voqealardan bexabar, o'z-o'zini anglash buziladi. Yuz ifodasi bir xil qotib qoladi.

Ong – hayvonlar psixikasidan farqli ravishda butun inson psixikasini ifodalashda foydalaniladigan termin. Inson psixikasi (ong) belgililik (ong «hujayrasi» belgilarning murakkab tizimini hosil qiladi), qurollilik (istagan ong birligi predmetlar dunyosini aks ettirish vositasi sifatida foydalaniladi), predmetlilik (tashqi dunyo elementlari bilan mutanosibligi va qat'iy uyushganlik (belgilar va qurollar tizimi ko'plab

o'zaro mutanosib kategoriyalarni vujudga keltiradi) xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Ong - obyektiv borliqni psixik aks etgirishning faqat insongagina xos yuqori usuli. Odamlarning ijtimoiy tarixiy faoliyati vositasida paydo bo'lgan. Ong - ob'ektiv borliqni psixik aks etgirishning faqat insongagina xos yuqori usuli. Odamlarning ijtimoiy tarixiy faoliyati vositasida paydo bo'lgan. Ong - Psixikaning yuqori bosqichi faqat insongagina xos bo'lgan, uning eng yuksak darajasi hisoblanmish ongda o'z aksini topadi. Ong psixikani yaxlit tarzda ifodalovchi yuksak shakli hisoblanib, inson-ning yakka va hamkorlik faoliyatining (muloqot nutq, til vositasida, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning mahsuli sifatida yuzaga keldir. U ijtimoiy mahsul bo'lishidan tashqari, unga muayyan munosabat bildirish maqsadni ko'zlash, o'zlikni anglash kabilarni namoyon etish imkoniyatiga egadir.

Ong bilan faoliyat birligi prinsipi - psixologiya fanida qabul qilinishi shunday ma'noni anglatadi: a) ong bilan faoliyat bir-biriga qarama-qarshi voqelik emas; b) ong bilan faoliyat aynan biror-biriga o'xshash ham emas; v) ong bilan faoliyatning birligi ularning hukm surishi mexanizmidir; Faoliyat o'zining tuzilishi bo'yicha ichki va tashqi tarkiblariga ega bo'lsa-da, voqelik tashqi ifodasi bilan ajralib turadi. Ong bo'lsa faoliyatning ichki rejasini, uning dasturiy jabhasini aks ettiradi. Real vaqtlarning o'zgaruvchan (rivojlanishini anglatuvchi) modeli ongda yuzaga keladi, odam atrof-muhit bilan munosabatga kirishganda undan mo'ljal oladi, natijada nuqsonlarga yo'l qo'ymaydi. Faoliyat ong yordamida amalga oshadi va o'z navbatida ong mazkur jarayonda takomillashadi (muammo va uning yechimi variatsiyalar, invariantlar turtki vazifasini o'ynaydi).

Ong oldi - har qanday (ayni) paytda individuum anglamaydigan, lekin ozgina qiyinchilik yoki umuman qiynalmasdan (masalan, tug'ilgan kuningiz) anglanishi mumkin bo'lgan fikr va hissiyotlar.

Ong osti holatlari - aktual ravishda anglab olinmaydigan psixik jarayonlar va psixik holatlar yig'indisi. Odanning hatti -harakatlari va uning ongi mazmuniga ta'sir etishga qodir.

Ongni sumerik (nomoshomsimon) **buzilishi** - bu xushning birdaniga va qisqa vaqt davomida qorong'ilashuvi. Bemor tashqi ko'rinishi - besaramjom, bezovta, g'azabli bo'ladi. Ularga ovozlar eshitiladi, ko'rish gallyutsinatsiyalari paydo bo'ladi. Uydan chiqadilar, adashib qoladilar, transportga minib uydan uzoqlashishi mumkin. Atrofdagilarga sog'lom kilishdek tuyuladi.

Ongning birinchi xossasi - bu anglash demakdir. Inson ongi tevarak atrofdagi tashqi olamga doir bilimlar yig'indisidan iboratdir. Anglash tashqi olamdagi narsalarni tushunish bo'lib, uning tarkibiga muhim bilish jarayonlari kiradi.

Ongning ikkinchi xossasi - binoan, ongda ob'ekt bilan sub'ekt o'rtasidagi aniq farq o'z ifodasini topadi, ya'ni odam «men» degan tushunchani «men emas» tushunchasidan farqini ajratadi. Odam o'zini bilish qobiliyatiga ega bo'lgan, ya'ni psixik faoliyatda o'z-o'zini tekshira oladigan yagona mavjudotdir.

Ongning to'rtinchi xossasi - asosan turli munosabatlardan ongli ravishda turli his-tuyg'ular yuzaga keladi. Ong kishilar munosabatlarining yig'indisidir.

Ongning uchinchi xossasi - asosan ong yordami bilan odamning maqsadni ko'zlash faoliyati ta'minlanadi. Faoliyat maqsadlarini yaratish ongning vazifasiga kiradi. Bunday faoliyat motivlari yuzaga keladi va chamalab ko'riladi, irodaviy qarorlar qabul qilinadi, harakatlarni bajarish yo'llari hisobga olinadi.

Ongsizlik - bu shunday psixik jarayonlar va hodisalar yig'indisiki, unda inson o'z hatti-harakatlariga javob bermaydi, anglamaydi. Bunga tush ko'rish, ba'zi patologik hodisalar, alaxlash, gallyutsinasiya kabilar kiradi. **Ongsizlik** - ijtimoiy nojoiz ziddiyatlar va mayllarni o'zida jamlagan psixika sohasi. Bu ziddiyat va mayllar erkin assotsiatsiya-lar va tushlarni ta'birlash yordamida ong sohasiga olib chiqilishi mumkin. Odamning o'zi anglamagan holda, avtomatik tarzda bajaradigan, uyqu, gipnoz, lunatiklik holatidagi harakatlari ongsiz hisoblanadi. Ongsizlik dialektikaning birinchi qonuniga ko'ra ongga antogonistik, siqib chiqarilgan tabiiy tug'ma harakatlarning makoni hisoblanadi. Ongsizlik tug'ma bo'lib, odamning butun xulqini belgilab beradi. **Ongsizlik** - kishini o'zini tuta olmaydigan qilib so'yadigan ta'sirotlar bilan bog'liq, psixik jarayonlar, harakatlar va holatlar yig'indisidir. Psixik holat (bundan shu narsa ravshanki psixika tushunchasi «ong», «ongli» tushunchalariga qaraganda kengroqdir) sifatidagi ongsizlik voqelikni aks ettirishning shunday bir shakli hisoblanadiki, bunda harakat vaqti va o'rnini mo'ljal qilish yaxlitligi yo'qoladi, hatti-harakatning nutq yordamida boshqarilishi buziladi. Ongsizlikda, onglilikdan farqli o'laroq, kishi o'zi bajarayotgan xarakatlarni maqsadga muvofiq tarzda nazorat qila olmaydi, ularning natijasini baholay olishi ham amri maholdmr. Ongsizlikka kuyidagi psixik hodisalarni kiritish mumkin: uyqu paytida yuz beradigan psixik hodisalar (tush ko'rish); sezilmandigan, lekin

haqiqatan ham ta'sir ko'rsatadigan qo'zg'atuvchilarga («subsensory» yoki «subektiv») javob reaksiyalari: oldinlari ongli harakat bo'lib, lekin takrorlanaverib avtomatlashib ketgan va shunga kura endilikda anglanilmaydigan bo'lib qolgan harakatlar; faoliyatga undovchi, ammo maqsad hissidan anglanmaydigan ayrim mayllar va xokazo. Ongsizlik hodisalariga bemor kishining psixikasida ro'y beradigan ba'zi bir patologik hodisalarni — alaxlash, ko'ziga no'q narsalar ko'rinishi va shu kabilarni ham qo'shish mumkin. Shularga asoslanib, ongsizlikni onga qarama-qarshi deb hisoblash, uni hayvonlar psixikasiga tenglashtirish noto'g'ri bo'lur edi. Ongsizlik — bu kishining xuddi ong kabi o'ziga xos psixik qiyofasidirki, u kishi miyasida borliqning yetarli darajada bir xil bo'lmagan, qisman aksi tarzida inson hayotining ijtimoiy shart-sharoitlari bilan borliq holda paydo bo'lgandir.

Ontogenez (yunon. on, ontos - asl, tub, genesis – tug'ilish, paydo bo'lish) - organizmning individual rivojlanishi. Tirik mavjudotningpaydo bo'lgan davridan to oxirigacha bo'lgan davrdagi o'zgarishlar majmui.

Operativ xotira (lot. operatio - harakat) - xotira turlaridan biri. By ma'lum faoliyatni bajarish jarayonida ifodalanadi, uzoq muddatli xotiradan vaqtincha foydalanadi. Operativ xotira inson tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan faol tezkor harakatlar, usullar uchun xizmat qiluvchi jarayonni anglatuvchi mnemik holat operativ xotira deb ataladi. Hozirgi zamon psixologiyasida ushbu holatni namoyon qilish uchun quyidagi misol keltiriladi. Matematik amalni bajarishga kirishar ekanniz, biz uni muayyan bo'laklarga ajratib hal qilishni maqsad qilib qo'yamiz. Shu boisdan oraliq natijalarni yodda saqlashga intilamiz, nihoyasiga yaqinlashgan sari ayrim materiallar esdan chiqa boshlaydi.

Optatsiya – (lotincha so'z – ortatio – xoxish, tanlov) tanlov bosqichi. Odan tomonidan professional taraqqiyotning bosqichi tanlanishidir deb e'tirof etiladi. 11-12 yoshlar, 14-18 yosh davrlarni o'z ichiga oladi.

Optimizm – kechayotgan voqea va hodisalar jarayoniga nisbatan bildirilgan ikki xil qarama – qarshi fikrlar yoki munosabatlarni yaxshilikka yo'yish.

Oral bosqich - qiziqish va lazzatlanishning asosiy manbai og'iz bo'lgan psixoseksual taraqqiyotning birinchi bosqichi.

Oral xarakter. Freydning taraqqiyotning oral bosqichida tutilib qolgan shaxs tipi haqidagi konsepsiyasi. Shunday tipga ega bo'lgan shaxs tipi passivlik, tobelik, ishonuvchanlik (oral — passiv) yoki negativizm (boshqalarning takliflariga qarshilik ko'rsatish — passiv

negativizm yoki ko'rsatma va buyruqlarga teskari harakat qilish — aktiv negativizm), boshqalarni ekspluatatsiya qilish va sarkazm (boshqalarni yerga urish, ustidan kulish), oral - sadist (boshqalarga og'riq va aziyat yetkazishdan lazzatlanish) sifatlari bilan ajralib turadi.

Orientasiya refleksi (lot. oriens - sharq reflexus - aks etish) - shartsiz refleksning bir turi, u har qanday yangi qo'zg'ovchi ta'siriga birinchi bo'lib javob beradi.

Orientatsiya refleksi (lot. oriens - sharq reflexus - aks etish) - shartsiz refleksning bir turi, u har qanday yangi qo'zg'ovchi ta'siriga birinchi bo'lib javob beradi.

Ortiqcha berilib ketish - ortiqcha qiziqish, ko'ngil bilan ish ko'rish.

Orzu - odamning voqelikni o'zgartirishga qaratilgan ijodiy kuchlarini hayotga tatbiq qilishning zarur shartlaridandir. Orzu hayotni ilmiy ko'ra bilishning elementidir. Orzu - shaxsning o'zi uchun yoqimli bo'lgan istiqbol obrazlarni ongida yaratishdan iborat xayol turi. Orzu shaxsning ehtiyojlari, istak va intilishlari bilan bevosita bog'liq. Orzular - insonning kelajak to'g'risidagi, xayoliga kelgan va u uchun muhimroq ehtiyojlar va qiziqishlarni ro'yobga chiqarish borasidagi rejalaridir.

Ovoza, mish-mish - shaxslararo aloqa qilishning o'ziga xos turi bo'lib, kimdir tomonidan o'ylab topilgan, asoslanmagan voqeaning ko'pchilikka tarqalishi.

Ovqat maylning aynishi - Bemor yeb bo'lmaydigan narsalarni iste'mol qiladi - ko'mir. Tuproq, odam ajratmalari;

Pantomimika - inson tanasi yoki uning qismlari yordamida ifodalanadigan harakatlar tizimidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kundalik muloqot jarayonida so'zlar 7% ni, tovushlar va intonasiya 38% ni, nutqsiz muloqot esa 55% ni, tashkil qiladi. **Pantomimika** (yunon. panto - mimos - hamma narsaga taqlid qiluvchi) - inson gavdasining mimika, imo - ishora, intonatsiyalar bilan birga uning psixik holatini, ayniqsa, his - tuyg'ularini ifodalovchi harakatlari.

Paralingvistik va ekstralingvistik belgilar tizimi - bu lokalizasiya tizimi bo'lib, u ovoz sifatida diapozonini nutqdagi pauzalar, yo'tal, yig'i, kulgu, nutq tempida namoyon bo'ladi.

Paralingvistik ta'sir - bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyatsiya, tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan xarakatlar, nidolar

kiradi. Shunga qarab, masalan, do'stimiz bizga biror narsani va'da berayotgan bo'lsa, biz uning qay darajada sanimiyligini bilib olamiz. Kuyib - pishib, ochiq yuz va dadil ovoz bilan "Albatta bajaraman!", desa ishonamiz, albatta.

Paralogizm (yunon. paralogismos – to'g'ri fikrlash qoidalarini buzish mantiqiy xatoga yo'l qo'yish natijasida noto'g'ri xulosa chiqarish.

Paramneziya – soxta xotira uch turi mavjud: a) Konfabulyatsiya – xotiradagi bo'shliqlarni unitilgan axborotlar, uydirma, fantastik hodisalar bilan to'ldiriladi. b) Psevdo reminessensiya – xotiradagi bo'shliqlarni bo'lib o'tgan lekin boshqa vaqtda bo'lgan hodisalar bilan to'ldirishi. v) Kriptoamneziya – xotiradagi bo'shliqlarning boshqalardan eshitgan voqealar bilan to'ldirish.

Paramneziya (yunon. rara - oldida, yonida mnosis - eslash) - sodir bo'layotgan voqealarning qachonlardir boshdan kechirilgandek bo'lib tuyulishidan iborat xotira kasalligi.

Paranoyal psixopatiya – belgilari: ishonchsizlik, gumonsirash, o'zlariga ortiqcha bino qo'yish, o'z manfaatlarini ko'lab ish tutish, o'z fikrlarini o'tkazish.

Parapsixologiya (Yunon. para - oldida, yonida, psyche – pyh) lodos - ta'limot) - psixologik tadqiqot sohalaridan biri, sezgi a'zolari ishtirokisiz idrok qilish shakllarini, shu bilan birga tirik mavjudotning fizik hodisalarga mushak kuchisiz ta'sir etish turlarini o'rganadi. M., muammosi bahcra molik sohadir.

Parishonxotirlik - diqqatni uzoq vaqt davomida jadal bir narsaga qaratishga layoqatsizlikda, diqqatning osongina va tez-tez bo'linib turishida namoyon bo'lishi mumkin. Parishonxotirlikning bu ko'rinishi ko'pincha ish qobiliyati susayib ketishining va xulq-atvordagi uyushmaganlikning sabablaridan biri hisoblanadi. Parishonxotirlikning sabablari har xildir. Parishonxotirlik shaxsning barqaror hislati sifatida ixtiyoriy diqqatning sustligi - ko'rsatkichi hisoblanadi va noto'g'ri tarbiya natijasi (bolaning erkalatib yuborilishi, jazolanmasdan qolishi, taassurotlarning har xilligiga odatlanish va boshqalar) bo'lishi mumkin. Bu xildagi parishonxotirlikka karshi, avvalo, shaxsda irodaviy fazilatlarini shakllantirish yo'li bilan kurash olib borish kerak. Doimo parishonxotirlikni bola salomatligining yaxshi emasligi, nerv sistemasining umuman buzilganligi bilan izohlash mumkin. Parishonxotirlik haddan tashqari, hissiy hayajonlanish yoxud charchash oqibati sifatida qisqa muddatli bo'lishi ham mumkin. So'nggi holatda u ko'pincha o'qish kuni va haftasining oxirida namoyon bo'ladi.

Pedagogik ish tajribasida diqqatni tarbiyalash maqsadida parishonxotirlikning barcha sabablari va xususiyatlari inobatga olinishi shart.

Patologik mastlik - ichkilikdan so'ng yuzaga keladigan esi kirarli-chiqarli holat ko'rinishdagi qisqa muddatli o'tkir psixozga patologik mastlik deyiladi. Belgilari: ongning namoshomsimon o'zgarish kuzatiladi. Bemor atrofdagi vaziyatga daxshat darajasigacha yetib boruvchi qo'rquv, bezovtalanish va illyuzor vasvasaviy ko'rinishda qabul qiladi. Xushi o'zgargan joyda, vaqtda noto'g'ri yo'naladi, atrofdagilar bilan kilishib ketmaydi, yakkalikni xush ko'radi. Patologik mastlik qanday tez boshlangan bo'lsa, shunday tez tugaydi, ba'zan u uyquga o'tadi va bo'lib o'tgan voqealar xotirada qolmaydi. Patologik mastlikning 2 turi mavjud: a) epileptoid b) paranoid yoki gallyo'sinator. a) Epileptoid turi belgilari: Kuchli harakat qo'zg'alishi, xushning chuqur buzilishi nutq o'zgarib umuman yo'qoladi. Bunday holatlar shaxsni nafaqat og'ir jarohatga, balki o'limga olib borishi mumkin. b) Paranoid va gallyo'sinator turi. Belgilari: mast ko'ziga qo'rqinchli gallyutsinatsiyalar, siymoli vasvasalar, psixomotor qo'zg'alish, qo'rquv va jahl affektleri bilan kuzatiladi. Patologik mastlikda tashxis qo'yishangda tekshiriluvchini qonunbuzarlikdan so'ng o'zini tutishi, hatti-harakati muhim ahamiyatda ega. Patologik mastlik turida shaxslar qo'lga olinganda bo'lib o'tgan voqealarga befarq bo'ladilar, ularning xotirjamligi vaziyatga to'g'ri kelmaydi. Ular atrofga qo'rquv bilan alanglashadi, nimanidir eslamochi bo'ladilar, ularga murojaat qilinganda cho'chib tushadilar. Umumiy jismoniy lanjlik, tez charchash kuzatiladi. Patologik mastlik bir necha soat davom etib shaxsda uyquga ketish bilan tugallanadi. Bunday holatda jinoyat sodir etsa «aqli noraso» deb topiladi.

Patopsixologiya (yunon. pathos - azoblanish, psixologiya) - psixologiyaning bo'limi, u bosh miya zararlanishi yoki uning yetarlicha rivojlanmaganligi natijasida kelib chiqadigan psixik kasalliklarni o'rganadi, psixiatriya bilan uzviy bog'liq.

Pedagogik muloqot - o'qituvchining o'quvchi bilan muloqotda bo'lishi. P.m. ta'sirchanligi o'qituvchining nazokati va muloqot qobiliyatining rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Penis (erkaklar jinsiy a'zosi)ga rashk qilish. Psixoanaliz nazariyasida qizaloqning penisga ega bo'lish mayli va o'zida shunday a'zo yo'qpigini anatomik kashf qilishi.

Perseptiv - ya'ni bular shunday harakatlarki, ularning oqibatida atrofda predmetlar va hodisalar to'g'risida yaxlit obraz shakllanadi;

Perseptiv bosqich bo'lib, u tashqi, ob'ektiv voqelikni yaxlit aks etishi bilan xarakterlanib, alohida oddiy sezish turi emas. K.E.Fabrining fikricha, perseptiv psixikani ham ikki darajasi mavjud. Past darajaga yuqori darajali umurtqasizlar kiradi. Perseptiv psixikaning quyi bosqichida mavjud bo'lgan hayvonlar uchun ijobiy ta'sir etuvchilarni faol izlash xususiyati xosdir.

Perseptiv harakatlar (lot. regsertio - idrok etmoq) - idrok jarayonining asosiy tuzilishi birligi, buidrok obyektlarini bilib olishva uni xotira obrazlari bilan solishtirishdan iborat.

Perseptiv tizim - idrokning muayyan jarayonini ta'minlovchi analizatorlar yig'indisi.

Pik kasalligi - kasallik 50-60 yoshda yuzaga keladi. Belgilari: 1) fikrlashning buzilishi ya'ni o'z holatiga tanqid bo'lmaydi; 2) bemor xarakatida qo'pol xatoliklar qiladi; 3) atrofdagilar gaplarini bilmasdan qaytaraveradilar - exolaliya. Kasallik asta - sekin rivojlanadi.

Piktogramma (lot. piktus rangli tasvir, yunon. gramma yozuv belgisi) - bevosita eslab qolishni o'rganishda foydalaniladigan grafik obrazlar majmuasi.

Polifagiya (bulemiya) - ishtahaning kuchayishi. Bosh miya organik ishkastlanishida qandli diabet qarilidagi esi pastlikda uchraydi.

Praksik hislar - inson amaliy hayotining istalgan sohasi maqsadga muvofiq aqliy faoliyatiga, shaxsning ularga nisbatan muayyan munosabatda bo'lish sohasiga aylanib qoladi. Bu birinchi navbatda biror maqsadni anglabgina qolmay, uni e'tirof etadigan yoki inkor qiladigan maqsadlarga erishish yo'llarini baholaydigan ta'sir qilish usullari va ko'lamlarini ma'qullaydigan va ma'quilamaydigan, ularni to'g'ri tanlanganligiga shubhalanadigan, nihoyat muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik hissini kechiradigan mehnat faoliyatida kuzatiladi.

Prayming. Xotirada maxsus assotsiatsiyalarni faollashtirish.

Predikatlar mantig'i - muhokama yuritish jarayonlarining muloxazalarning ichki strukturasi kelib chiqib tahlil qiladigan mantiqiy sistema. U muloxg'azalar mantig'ini o'z ichiga oladi. Predikatlar mantig'i tili muloxazalar mantig'i tiliga qo'shimcha simvollar kiritish yordamida hosil qilinadi.

Professiografiya (lot, professio - kasb, yunon. Grapho - yozaman) - kasblarning ijtimoiy - psixologik va boshqa xususiyatlarini o'rganadigan yo'nalish.

Proforientatsiya – (lot. Proffesio - kasb, oriens – sharq) - yoshlarni hohish - istaklari, qiziqishlari, qobiliyatlariga qarab xalq xo'jaligi mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda psixologik - pedagogik va tibbiy kasbga yo'naltirish.

Proprioreseptiv sezgilar - tanamiz va gavdamizning holati hamda harakatlari haqida ma'lumot (axborot, xabar) beruvchi muskullarda, bog'lovchi paylarda, mushaklarda joylashgan sezgilar. Proprioreseptiv sezgilar - reseptorlari mushaklarda va paylarda o'rnatilgan proprioreseptiv sezgilar; ular gavdamizning harakati va holati haqida axborot berib turadi. Harakatni sezuvchan, proprioreseptiv sezgi turi, shuningdek kinesteziya deb, tegishli reseptorlar esa kinestetik yoki kinestetik deb ataladi.

Proyektsiya — individuum o'zining nojoiz istaklarini boshqalarga tegishli deb hisoblaydigan himoya mexanizmi.

Proyektiv metod (lot. Prjektus - oldinga tashlangan, yunon. methodos – tadqiqot) - shaxsni tadqiq qilish metodlaridan biri. Bu metodda mas., tajriba vaziyatlarida rasmlar idrok qilinib, uning talqini beriladi.

Psixiatriya (yunon, psyche - jon, iatreia - davolash) – psixik kasalliklar, ularning paydo bo'lish sabablari, uning oldini olish, hamda davolash haqidagi fan.

Psixika - bu yuksak darajada tashkil topgan materiyani tashkil qiluvchi xossasi (xususiyati), subyekt tomonidan obyektiv borliqni faol aks ettirish, mazkur borliq manzaralarini subyekt o'zidan uzoqqa tirmay ifodalashi, xuddi shu asnda o'z xulqini va faoliyatini shaxsan boshqarishdir. Psixika - inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni) ongli tarzda aks ettirishimizni, ya'ni bilishimiz, anglashimizni ta'minlaydi. Psixika (yunon. psychikos - ruhiy) - yuksak darajada tashkil topgan materiya - miyaning funksiyasi. Uning mohiyati tuyg'ular, idrok, tasavvur, fikrlar, iroda va boshqalar ko'rinishida aks ettirishdan iborat.

Psixikaning ijtimoiy-madaniy asosga proektsiya qilinishi - Freydning bu nazariyasi marksistlar tomonidan keskin tanqid qilingan. Darwin nazariyasiga tayangan holda, «ontogenez filogenezning qaytarilishi» hisoblanadi, ya'ni organizmning individual taraqqiyoti butun turning taraqqiyotini qaytaradi. Shunday qilib, odamning taraqqiyotini kuzatib, jamiyatning qanday rivojlanishini aytib berish mumkin, chunki insonning taraqqiyoti jamiyat taraqqiyotini aynan takrorlaydi.

Psixoanaliz – ruhiy xastalikni davolash usuli va psixologik ta'limot. Psixoanaliz - Freyd tomonidan yaratilgan taraqqiyot, dinamika va o'zgarishlarning shaxs qurilmasi haqidagi nazariya. Psixoanalizda xulqni boshqarishda biologik va anglanmaydigan omillarga katta e'tibor beriladi. Shuningdek inson xulqi o'z asosiga ko'ra irrashional va Id (U-ong osti), Ego (Men-individual ong) va Super-Ego (Yuqori-Men, ijtimoiy ong, madaniyat)ning o'zaro harakati natijasidan iborat deb tasdiqlanadi.

Psixodinamik nazariya - anglanmaydigan gtsixik yoki emotsional motivlarni inson xulqining asosi deb ta'kidlaydigan pazariya.

Psixodrama (yunon. Drama harakat) – guruhiiy psixoterapiya turi bo'lib, bunda ishtirokchilar navbatma - navbat aktyor va tomoshabin rovida bo'lishadi. Bu rollar ular uchun shaxsiy ahamiyatli turmush vaziyatlarida noadekvat hissiy holatlarning oldini olish, ijtimoiy idrokni shakllantirish, o'z-o'zini yanada chuqurroq bilishga xizmat qiladi. D.Moreno tomonidan ilk bor qo'llanilgan.

Psixofarmakologiya– (Yunon. famakon - dori - darmon logos – ta'limot) psixologiya tarmog'i, odam psixakasiga dori – darmon vositalarining ta'sirini o'rganadi.

Psixofizik o'zaro ta'sir - psixofizik muammoni hal qilishda fiziologik hodisalar psixik hodisalarni, psixik hodisalar esa o'z navbatida fiziologik hodisalarni keltirib chiqaradi deb, psixikaning ob'ktiv borliqning aksi miyaning funksiyasi ekanligini inkor qiluvchi dualistik qarash. Bu konsepsiya odamning yaxlit jonzot sifatida o'z xulq - atvorini psixik boshqarishini ilmiy nuqtai nazardan tushuntirilishi bilan sig'ishmaydi.

Psixofizik parallelizm (yunon, parabelos – yonma - yon boruvchi) - psixofizik muammo talqini, bunga ko'ra psixik va fiziologik jarayonlar bir - biriga bog'lanmagan holda sodir bo'ladi va bir - biriga ta'sir etmagan paralel hosil bo'ladi.

Psixofizika (yunon. phisus – tabiat) - psixologik bo'limlaridan, psixik xususiyat va qonuniyatlarining fiziologik asoslarini o'rganadi.

Psixofiziologiya - psixologiya va neyrofiziologiyannng psixikani, uni neyrofiziologik asoslari bilan birga o'rganishga hamkorlikdagi sohasi.

Psixogen qo'zg'alish – qo'qqisdan kuchli ruhiy ta'sirlar – falokat, mol mulkni yo'qotish, portlash natijasida odam muhitga mo'ljalini yo'qotadi, qo'rquv girdobiga tushib qochadi, yo'llarni tanlamaydi, yonib

ketayotgan odamday betartib harakat bajaradi. Bu holat bir necha minutdan bir necha soatgacha davom etadi.

Psixogen stupor – qoʻrquv, dahshatli, hodisalar, kuchli falokatlar, yaqin kishisining bemahal oʻlimi natijasida harakatlanish qobiliyati yoʻqolib qoladi. Bemorga ruhiy jarohat qanday holatida taʼsir etsa, shu holatda qotib qoladi. Savollarga javob bermaydi, oʻzi qoʻrquv holida boʻladi.

Psixogenetika (yunon. pseche – ruh genetikos – tugʻilishga, kelib chiqishga oid) - odamning individual psixologik xususiyatlarini kelib chiqishda va shakllanishda genotip va muhitning rolini oʻrganadi.

Psixogigiena (yunon. Psyche – ruh higienos - shifobaxsh) - umumiy gigienaning insonning nerv - psixik salomatligini saqlash va mustahkamlash tadbirlarini ishlab chiqaradigan boʻlimi.

Psixokorreksiya (ing. Konectio – toʻgʻrirlamoq - shaxsning psixik rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish usullarini qoʻllash jarayoni.

Psixolingvistik (lot. Lingua - til) - psixologiyada ilmiy yoʻnalish, jarayonlari va uning idrok qilinishi mazkur tilning, tizimi bilan taqozolanganligini oʻrganadi.

Psixologik aks ettirish shakllari osttuzilishi - ijtimoiy turmush jarayonida shakllanuvchi bilish jarayonlarining individual xususiyatlari.

Psixologik qiyofa - shaxsning alohida xususiyatlari bilangina emas, balki umumiy sifatlari, xarakteri va qobiliyatlari bilanyoʻnalganmaslagi taʼsiri ostida boʻlgan psixikjarayonlar va holatlarningoʻziga xosligiibelgilovchi tugʻma zehn va tajribalari.

Psixologik salomatlik- insonningruhiyosoyishtaligi, oʻz-oʻzini boshqara bilish, mustahkamkayfiyat, murakkab vaziyatlarga tez moslashib, undan chiqqa bilish, qisqavaqt ichida ruhiy osoyishtalikni tiklay olish qobiliyatiga egaboʻlishi.

Psixologik stress - odamning ruhiy holatiga voqealarni taʼsiri tufayli paydo boʻladigan stress. Psixologik stress informasion stress va emotsional stress turlariga ajraladi.

Qoʻrquv – odamning oʻziga yoki yaqin kishilariga taalluqli boʻlgan haqiqiy yoki xayoliy xavf - xatarga nisbatan qaytaradigan emotsional reaksiyasidir. Qoʻrquv yuzning oqarishi, badanning titrashi va boshqa bir qancha ixtiyorsiz tovushlar, harakatlar bilan ifodalanadi. Qoʻrquv xavf- xatardan qochish yoki harakatsiz turib qolish holatida ham namoyon boʻlishi mumkin. Qoʻrquv - subyekt oʻzining xotirjam hayot kechirishiga ziyon yetishi mumkinligi haqida, unga real tarzda tahdid solayotgan yoki tahdid solishi mumkin boʻlgan xavf-xatar haqidagi

xabarni olishi bilan paydo bo'ladigan salbiy hissiy holatdir. Eng muhim ehtiyojlari bevosita blokada (muhosara) qilinishi natijasida ro'y beradigan iztirob chekish hissiyotidan farqli o'laroq, kishi qo'rquv hissiyotiga berilganda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkinligini faqat ehtimoliy tarzda bo'ladi va ushbu (ko'pincha yetarlicha ishonarli bo'lmagan yoki bo'rttirib yuborilgan) prognozga binoan harakat qiladi. Shu o'rinda «Qo'rqqanga qo'sha ko'rinadi» degan xalq maqolini eslatish mumkin. Qo'rquv hissiyoti stenik tusda ham, astenik tusda ham bo'lishi («Qo'rqqanidan oyoqlari qaltirardi»), yoxud hissiy zo'riqishlar tarzida, yohud ruhan astoydil tushkunlikka berilgan va havotirlangan tarzda, yohud affektiv holatga tushgan tarzda (dahshatli qo'rquv hissiyotning eng so'nggi turidir) kechishi mumkin.

Qo'zg'aluvchan psixopatiya – belgilari kuchli xissiy qo'zg'aluvchanlik, injiqlik, jahldorlik. Ularga urushqonlik chaqimchilik va arazgo'ylik xosdir. Bemorlar atrofdagilar fikri bilan hisoblashmaydilar.

Qo'zg'atuvchanlik, qo'zg'aluvchanlik – tashqi qo'zg'ovchi omillar ta'sirida fiziologik holatlarin o'zgartirib yuborish qobiliyati. Barcha tirik mavjudotga xos xususiyat.

Rashk vasvasasi – hech qanday sababsiz hamma narsadan umr yo'ldoshini bevafoqlik isbotini topishga harakat qilishadi.

Ratsionalizatsiya - individuumsa o'z muvaffaqiyatsizliklarini haqiqatga yaqinroq oqlashga imkon beradigan himoya mexanizmi.

Reaksiya – (lot. re - qarshi, actio - harakat) – psixologiya va fiziologiyada ichki va tashqi muhitning turli ta'sirilariga a'zolarining javob reaksiyasi.

Reaksiya tempi - turli xususiyatli psixik reaksiyalar va jarayonlarning kechish tezligiga, nutq sur'atiga, farosatlilikiga, aql tezligiga asoslanib xulosa chiqariladi.

Reaktiv depressiyalar – belgilari umidsizlik, ishonchsizlik, xafachilik. Bemor xayolida faqat sodir bo'lgan baxtsizlik bo'ladi. Bemor o'z holatiga tanqid bilan qaraydi va bo'lib o'tgan hodisaga tegishli odamlarni ayblaydi. Bu holat 2-3 oy davom etishi mumkin.

Reaktiv qurilma - bir xil impuls va hissiyotlarni cheklash, ularga qarama-qarshi impuls va hissiyotlarni kuchaytirish yo'li bilan xavotirlanish darajasini pasaytirishga imkon beradigan himoya mexanizmi.

Sadizm – seksual sherigiga og'riq tan jarohatlari yetkazish jarayonida seksual qoniqish.

Sangvinik (yunon. Sanguis qon) - temperament turlaridan. By tur chaqqon, harakatchan, taassurotlari tez-tez o'zgarib turadigan, boshqa kishilarga nisbatan dilkashlik va mexribonlik qilish hislatlari bilan tavsiflanadi. Sangvinik yuksak reaktivlik. Bo'lar-bo'lmas narsalarga qattiq xoxolab kulaveradi. Muhim bo'lmagan fakt qattiq jahlini chiqaradi. Diqqatini jalb qilgan hamma narsalarga tetik va zo'r qo'zg'alish bilan javob beradi. Imo-ishoralari va harakatlari yaqqol ko'rinib turadi. Uning aft-basharasiga qarab kayfiyatining qandayligini, narsalarga yoki odamga bo'lgan munosabatlarini bilish oson. Diqqatini tez bir joyga to'playdi.

Sarosima - psixik holat, unda tashqi ta'sirlar natijasida kishida, ta'sirlap guruhida umumiy o'quv va ushbu vaziyatdan chiqish holatini qidirish xususiyati paydo bo'ladi.

Seksual instinkt - Freyding "odamlar seksual qoniqish yoki lazzatlanishga intilishadi" degan g'oyasi.

Semantik (yunon. bildiradigan, ifodalaydigan) - ma'noli, so'zini ma'nosiga qaratilgan, ma'noga ega bo'lgan nutq. Chet el mualliflari asosan ijtimoiy, psixik va fiziologik stress shakllarini

Senestopatiya - tananing turli sohalaridan noxush sezgilarni sezish. Bular xuddi kuyish, bosim, tirnash, og'riqlardir. Bosh miya jiddiy shikatlenganda, shizofreniyada uchraydi.

Sensibilizatsiya - analizatorlarning o'zaro munosabati va mashq qilishi natijasida sezgirlikning kuchayishidir. Sensibilizasiyaning adaptasiyadan farqi: Adaptasiyada sezgirlik oshadi yoki kamayadi, sensibilizasiyada esa faqat oshadi; adaptasiyada sezgirlikning o'zgarishi tashqi chegaralarga bog'liq bo'lsa, sensibilizasiyada psixologik, fiziologik holatlarga bog'liq bo'ladi.

Sensor avtomatizm - bemorning ichki a'zolarida og'riqlar, og'irlik, yoqimsiz xis tuyg'ular paydo bo'ladi.

Sensor sezgilar (lot, sensus - sezgi, his) - sezgi a'zolariga taalluqli sezgilar.

Sensor ustanovka - tayyorgarlikda idrokning ustunligi qobiliyati

Senzitiv yosh davrlari - yoshningo'sish davrlari. Bunda ma'lum yosh davriga xos psixik xususiyat va jarayonlar, yuqori darajada yaxshi rivojlanadi. Oldindan yoki kechikib kelgan senzitiv yosh davri ta'lim jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir etadi.

Senzitivlik - (lotincha Sensus - sezish, his qilish degan ma'no anglatadi). Senzitivlik yuzasidan insonda birorta psixik reaksiyani hosil qilish uchun zarur bo'lgan o'ta kuchsiz tashqi taassurot kuchiga qarab

mulohaza yuritiladi, jumladan, sezgilarning paydo bo'lishi uchun kerak qo'zg'ovchining ozgina kuchi (ularning quyi chegarasi), ehtiyojlar qondirilmasligining sezilar-sezilmas darajasi (shaxsga ruhiy azob beruvchi) mujassamlashadi.

Seskanuvchanlik - tirik organizmlarning ta'sirlarga biologik ahamiyata ega javob qaytarish qobiliyati.

Shaxs - inson aktivligiga xos psixik boshqaruvchilarning maxsus insoniy tizimi, psixikadagi shunday barqaror funksional tizimki, uning yordamida inson o'zi istiqomat qiladigan muhitda tashabbuskor, maqsad sari intiluvchan bo'libgina qolmasdan, balki yaxshilashga ham qodir bo'ladi. Inson shaxs sifatidagi fazilatlarni egallaganligining asosiy belgisi uning turli hatti-harakatlarni sodir qila olish qobiliyati, ya'ni bir-birini inkor etuvchi imkoniyatlarni tanlash, o'z hayoti hamda o'zгалar hayoti bilan ham bog'liq bo'lgan ko'plab muhim momentlarni sarhisob qila olishi, o'z hatti-harakatlari uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga ola bilishi kabilardir.

Shizofreniya - bu surunkali o'sib boruvchi ruhiy kasallikdir. Shizofreniyada fikrlash va xissiyot faoliyati buziladi, aql zaiflik paydo bo'ladi. Shizofreniya ko'pincha yoshlarda 20-25 yoshda uchraydi. Shizofreniyaning uchta asosiy belgisi bor: autizm, ruhiyatni ajralishi, xissiy to'nglik.

Shizoid psixopatiya - kam gap, atrofdagi kishilar, ota-onasi bilan qiyin til topishadi, bolaligida hech kimga aralashmaydi, o'zlari o'ynaydilar, atrofdagilarga sovuq muomalada bo'lib befarq bo'ladi.

Simpatiya - o'zaro yoqtirib qolish, bu sevgining ilk bosqichi hisoblanadi. Bunda asosan sevgi obyektning tashqi jozibasi rol o'ynaydi.

Simulyatsiya (lot. simulatio - yolg'on) - odamin biror kasal bilan og'rimay turib, o'zini yolg'ondan kasallikka solishi.

Sinesteziya - bir analizatorning qo'zg'alishi ta'siri ostida boshqa analizatorga xos sezgining hosil bo'lishidir. Sinesteziya sezgilarning har xil turlarida kuzatiladi. Tovush qo'zg'atuvchilari ta'sir qilganda subyektda ko'rish obrazlari paydo bo'lganida ko'pincha ko'rish-eshitish sinesteziyasi uchraydi. Har xil odamlarda bu sinesteziyalarda muvofiqlik bo'lmaydi, lekin ular alohida har bir odam uchun aytarlicha turg'un hisoblanadi. Sinesteziya - qo'zg'atuvchining bir analizatorga ta'siri bilan boshqa analizatorga xos sezgining paydo bo'lishidir. Ko'rish, eshitish sinesteziyasi ko'proq uchraydi. Sinesteziyalar har bir shaxs uchun doimiy bo'ladi. Masalan, kompozitorlardan Skrebin, A.F.Lest, N.Rimskiy Korsakovlarda «rangdor eshitish» qobiliyati bo'lgan. Demak,

sinesteziya ikki sezgining bir sezgi bo'lib qo'shilishidir. «Masalan, «shirin so'z», «bag'ri tosh».

Sinkretizm (yunon. sinkretismos - birlashish) - biror bir narsaning boshlang'ich holatini harakterlovchi bir butunlik bo'linmaganlik.

Sintez - (yunon. sintbasis - birikish, qo'shilish) - tafakkurning yagona analitik - sintetik jarayonida yakka hodisalarni umumiyashtirishga qaratilgan fikr yuritish operatsiyasi. Sintez - shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, biz narsa va hodisalarning analizda bo'lingan, ajratilgan ayrim qismlarini, bo'laklarini sintez yordami bilan fikran va amaliy ravishda birlashtirib, butun holiga keltiramiz. Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlari va bo'laklarini bir butun qilib ho'shishdan iborat aqliy faoliyat ekanligi ta'rifdan ko'rinib turibdi. Analiz aqliy bo'lgani kabi sintez ham amaliy xarakter kasb etadi.

Siqib chiqarish - noxush fikr va impulslarni ong darajasiga yetib borishiga to'sqinlik qiladigan himoya mexanizmi.

Sirkulyar shakli - manikal va depressiv holatlar almashinishi kuzitaladi, xurujdan so'ng ruhiyat nuqsoni chuqurlashadi.

Sistemalashtirish - tizimga solish shundan iboratki, bunda ayrim narsalar, faktlar, hodisa va fikrlar muayyan tartibda makondagi, vaqtdagi tutgan o'miga yoki mantiqiy tartibda joylashtiriladi. Shu sababli makon, xronologiya va mantiqiy belgilar asosida tizimga solish turlariga ajratiladi. Mebelning xonadagi joylashtirilishi, daraxtning boqqa o'tkazilishi, makoniy tizimga namuna bo'la oladi. O'tmishda bo'lib o'tgan voqealarning vaqtga qarab tizimga solishning namunasi bo'la oladi. Matematikaga, falsafaga, mantiqqa doir darsliklarda ilmiy materiallarning joylashtirilishi mantiqiy tizimga solishning namunasi.

Sistemali yondashish - psixikani oddiy elementar yig'indisiga kiritib bo'lmaydigan murakkab birlik deb qarashni talab etuvchi g'oya.

Skepsis (yunon, skepsis - shubha, qarab chiqish) - ishonmaslik, shubhalanmoq.

So'z - mantiqiy tafakkur - tafakkur turlaridan, bu mantiqiy operatsiyalar, omillar yordamida tushunchalar orqali ifodalanadi.

Somatik (yunon. Soma - tana) - tananing funksiyalar bilan bog'liq bo'lgan holatlari.

Sotsial individ - barcha kishilar uchun umumiy bo'lgan, belgilar, qurollar bilan ishlashda bog'liq bo'lgan maxsus insoniy tavsiflarni aks ettirish, jamiyatda qabul qilingan norma va qoidalarni hisobga olish, sotsial vazifalarni bajarishdir. Gap shaxsiy yoki individual jihatlar to'g'risida ketayotgani yo'q.

Sotsial muhit – insonning aniq maqsadlar rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosi.

Sotsializatsiya (lot. Societas - jamiyat, yunon; metreo - o'lchayman) – o'zaro munosabatlar tizimi bilan psixologik qovushuvchanlikni aniqlash maqsadida guruh va jamoalardagi shaxslararo munosabatlarni o'rganishdan iborat psixologik tadqiqot metodi (J.Moreno).

Spontan - do'stlik, muhabbat va shu kabi munosabatlar bilan taqozolangan bo'ladi.

Spontanli (lot. spotanlus - o'z-o'zidan) - o'z-o'zidan yuzaga keladigan holat.

Stazibazifobiya – vertikal joylashuv va yurishdan qo'rqish.

Stazifobiya – turishdan qo'rqish.

Stenik hislar - shaxsning hayot faoliyatini kuch-g'ayratining orttiradigan barcha bilish jarayonlarini faollashtiradigan ijobiy hissiyot turi. Aksariyat hollarda xushxabar, muvaffaqiyat shaxsda stenik xususiyatli emotsiyalarni vujudga keltiradi.

Stenik hislar (yunon. sthenos kuch) - shaxsning faoliyatini oshiruvchi xislar (mas., xursandchilik va x.k.)

Stereotip - odamlar guruhining shaxsiy sifatlar haqidagi fikri. Stereotiplar haddan tashqari umumlashgan, noaniq va yangi informatsiyaga rezistent bo'lishi mumkin.

Stereotipizatsiya - grekcha o'zgarishsiz, takrorlanish degan ma'noni bildirib, insonning suhbatdoshini tushunishga intilishi yo'lida muayyan shablondan foydalanishi. Stereotipizatsiya ma'lum yoki taxminan ma'lum bo'lgan voqealarni tiklash, nisbat berish yo'li bilan xulk normalarini tasniflash va ularning sabablarini izohlash demakdir. Ba'zan muomala jarayonida noto'g'ri stereotip vujudga keladi.

Stimul (lot. Stimulus – xalacho'p) - retseptorlarda qo'zg'alishni vyjudga keltiradigan tashqi yoki ichki ta'sir.

Stress - inson organizmini haddan tashqari zo'riqish natijasida paydo bo'ladigan tanglik jarayonidir. Stress ko'rinishiga qarab ikki turga ajratiladi: 1.**Konstruktiv** - biz turidagi (ko'pchilik orasida); 2.**Destruktiv** - men turidagi (yakka shaxs o'zi bilan) kechadigan jarayon. Stress holatini oddiy tilda aytadigan bo'lsak, bu insonlarda kechadigan tushkunlik holatidir. Insonning aqliy jihatlari va fiziologik tizimida stress holati bo'lmasligi mumkin emas. Bular ko'p hollarda muloqotlarda va boshqa ijtimoiy jarayonlarda yuz beradi. Stressni fiziologik va psixologik turlari mavjud. Stress - psixologik ta'rifiga ko'ra affektiv holatga yaqin turadigan, lekin boshdan kechirilishining davomlilikiga

ko'ra kayfiyatlarga yaqin bo'lgan his-tuyg'ular boshdan kechirilishining alohida shakli kuchli hayajonlanish (stress) holati (inglizcha - tashqi ko'rsatish, zo'riqish degan so'zdan olingan)dan, yohud hissiy zo'riqishdan iboratdir. Hissiy zo'rikish xavf-xatar tug'ilgan, kishi xafa bo'lgan, uyalgan, taxlika ostida qolib ketgan va shu kabi vaziyatlarda ro'y beradi. Hissiy bo'ronning jadalligiga hamisha ham erishilavermaydi, kishining kuchli hayajonlanish vaqtidagi holati hatti-harakat va nuqtning bir xil vaziyatlarda betartib tarzda faolligi namoyon bo'ladigan, boshqa bir paytda esa qat'iyat bilan harakat qilinishi kerak bo'lgan holatlarda sustkashlikka, faoliyatsizlikka erk beriladigan darajada izdan chiqishi bilan belgilanadi. **Stress** - tushunchasining mazmuni mohiyati borasida qator ta'riflar uchraydi. Jumladan, A.V.Petrovskiy tomonidan stress-affektiv holatga yaqin turadigan, lekin boshdan kechirilishining davomiyligiga ko'ra kayfiyatlarga yaqin bo'lgan his-tuyg'ularni boshdan kechirilishining alohida shaklidir, deb ta'rif beriladi. Profssor E.G'oziyevning umumiy psixologiya kitobida yozilishicha, stress-og'ir jismoniy va murakkab aqliy yuklamalar ishlarning me'yorida oshib, ketib xavfli vaziyatlar tug'ilganida, zaruriy chora-tadbirlarni zudlik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zo'rig'ishlar sifatida ko'rsatiladi.

Sublimatsiya - Idning impulslari ijtimoiy ma'qul faollikka yo'naltiriladigan o'rin almashtirish shakli.

Suggestiya (lot. Suggestio ishontirish) - kishining psixik sohasiga ta'sir ko'rsatish jarayoni. Bunda idrok qilinayotgan narsa va hodisalarga nisbatan kishida ongli anglash va tanqid susayadi.

Super-Ego - Interiorizatsiyalashgan madaniy-ijtimoiy normalar. Psixoanaliz nazariyasida shaxs qurilmasidagi etik yoki axloqiy qatlam; jazolash va rag'batlantirish vositasida ota-onadan olingan ijtimoiy norma va xulq standartlarining individuum tomonidan internalizatsiya qilinishi (internalizatsiya - e'tiqod, qadriyat, ustanovka, amaliyot, standart va hokazolarni o'ziniki deb qabul qilish yoki ularga moslashish).

Surunkali alkogolizm - bu spirtli ichimliklarga xirs qo'yish bilan, alkogol iste'mol qilish to'xtaganda humor sindromi paydo bo'lishi va shaxs o'zgarishi bilan kechadigan xastalikdir. Uning ijtimoiy oqibatlaridan yo'l transport hodisalarning ashish borishi kiradi. Ma'lumotlarga ko'ra o'ta xavfli jinoyatlarning 40% ti mast holida sodir qilinadi.

Surunkali alkogolizmning birinchi bosqichi - boshlang'ich deb nomlanadi belgilari: a) miqdoriy nazoratning yo'qolishi; b) alkogolga

chidamliligini o'sishi; v) xotira yo'qolishi. Alkogolning 1 bosqichi 50% - 25 yoshgacha shakillanadi bu bosqich 1 yildan 6 yilgacha davom etadi. Bemorlar ichkilik ichish maqsadida marosimlar o'ylab topadilar, hamma ishni tashlab dasturxon yozish bilan ovora bo'lishladi. Agar ichkilik ichishga ma'lum to'siqlar paydo bo'lsa, bemorning ruh-kayfiyati tushib ketadi, ular jahllanadilar, qoniqarsiz bo'lib qoladilar. Alkogolga chidamlilikning oshib borishi shunda ko'rinadiki, bunda birinchi qabul qilingan spirtli ichimlik miqdori avvalgi mast xolatiga olib kelmaydi. Avvaldek mast bo'lish uchun ichkilik miqdorini 2-3 barobar oshirib ichadilar, ikilikka chidamlilikning oshishi qayt qilishning yo'qolishi bilan kuzatilib o'rta yoki og'ir darajadagi mastlikka olib keladi.

Surunkali alkogolizmning ikkinchi bosqichi - belgilari: abstinensiya, xolatining paydo bo'lishi, mastliklikni o'zgargan turlari rivojlanadi, shaxsning avvalga xususiyatlari o'tkirlashadi. Bu bosqichda ichkilikka bo'lgan talab yanada kuchayadi, ya'ni ichimlik miqdori nazorati buzilishi kuzatiladi. Ikkinchi bosqich ko'pincha 25-35 yoshlarda shakillanadi, 60% da 10 yil davomida kechishi kuzatiladi. Ikkinchi bosqichda eyforiya qisqarib psixopatsimon buzilishlar uchraydi. Oilaga mehnatga qiziqishi yo'qoladi. Intelekt pasayadi, o'z xulqiga tanqidiy munosabat pasayadi, ya'ni bexayolik beandishalik o'rinsiz qiliqlar qiladi.

Surunkali alkogolizmning uchinchi bosqichi og'ir daraja - bemorlarning 68% ni 45 yoshga to'g'ri keladi. Belgilari: karaxtlik, umumiy xotira yo'qolishi bir oz spirtli ichimlik ichsa, darrov mast bo'ladi. Bemor harakati beso'naqaylashib, atrof muhitga beparvo bo'lib uyqudan bosh ko'tarmaydilar, savollarga darrov javob bermaydilar, ish qobiliyati pasayadi, xotira pasayadi, ko'p oila a'zolari ajrashib ketadi. Barcha ichki organlarida tuzalmaydigan darajada o'zgarishga uchraydi.

Ta'm bilish - sezgi turi (shirin, achchiq - chuchuk, tuzli). Analizator til o'zagidagi nerv tugunlari hamda bosh miya po'stloq qismidagi ta'm bilish markazidadir.

Tahlil - tafakkur qilish usuli, bunda murakkab obyektlar qismlarga bo'lib o'rganiladi.

Tajovuz - bir odamga, odamlar guruhiga jismonan yoki ruhan zarar ko'rsatishga qaratilgan yakka yoki jamoa xulqining hatgi - harakati. T. odamning qadr - g'azab, dushmanlik, ko'ra olmaslik kabi emotsional holatlarida namoyon bo'ladi.

Takaburlik - manmanlik, o'ziga ortiqcha baho berib, o'zgalarni mensimaslikdan yoki kamsitishdan iborat salbiy xarakter hislati.

takrorlashdan iborat xotira.

Termotropizm - tirik organizmning issiqlik ta'siri ostida harakat qilishga

Tutqanoq – bu birdan boshlanadigan, tez o'tadigan titrash bilan kechadigan holatdir.

Tuyush - idrok turlaridan biri, bu taktil va muskul - harakat sezgilaridan iborat.

Xarakter - mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan, faoliyat usullarida namoyon bo'ladigan, shaxsning turli sharoitlarga munosabati bilan belgilanadigan individual psixologik xususiyatlari yig'indisi tushuniladi. Xarakter xususiyatlarining namoyon bo'lishi har bir tipik vaziyat, hissiy kechinmalarning individual o'ziga xos xususiyati shaxs munosabatlariga bog'liq. Xarakterning intellektual, hissiy va irodaviy xislatlarini ajratish mumkin. Xarakter deganda shaxsda muhit va tarbiya ta'sirida tarkib topgan va uning irodaviy faoliyatida, atrofdagi olamga o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan individual xususiyatlarni tushunamiz. Xarakterning juda ko'p xususiyatlari odamning ish harakatlarini belgilovchi chuqur va faol moyillik hisoblanadi. Mana shu moyilliklarda xarakter xislatlarining undovchilik kuchi namoyon bo'ladi. Odam xarakter xislatlarining ana shunday undovchilik kuchi tufayli ko'pincha ob'ektiv sharoitlarga zid ish qiladi va mutlaqo maqsadga nomuvofiq harakat usullarini qo'llaydi. Xarakter xislatlari ma'lum tarzda harakat qismlariga, ba'zan esa sharoitga qarama-qarshi harakat qilishga undar ekan, ular hayotiy qiyin daqiqalarda yaxshiroq namoyon bo'ladilar va bu xarakterni, shuningdek barkamol avlodni tarbiyalashning muhim vazifasidir. Shaxsning qa'tiyatlilik, tanqidiylik, fahm- farosat, kuzatuvchanlik kabi xislatlari intellektual, quvnoqlik, mehribonlik hissiy-irodaviy sifatlarga kiradi. Xarakter - ijtimoiy muhitda shaxsning xulq-atvor uslubini aniqlaydi. Odamning ruhiy hayoti shakli va mazmuni unda namoyon bo'ladi. Xarakter tizimi irodaviy va ma'naviy sharoitlarga ajraladi.

Xarakter aksentuatsiyasi (yunon. karakter - xususiyat, belgi, lot. accentus – urg'u) - xarakterning alohida xususiyatlarini haddan tashqari ifodalanishi (psixopatiyaga yaqin namoyonlashuvi). Xarakter aksentuatsiyasi - biror xususiyatning boshqalari zarariga kuchli rivojlanishi va atrofdagilar bilan munosabatlarning yomonlashuviga olib kelishidir. Xarakter aksentuatsiyasi turli darajada yengil va hatto psixopatiya darajasigacha bo'lishi mumkin. o'smirlar orasida xarakter aksentuatsiyasi ko'p (50-80%) uchraydi. Xarakterning aksentuatsiyasi - xarakterning u yoki bu xususiyati miqdoriy ifodaliligi oxirgi marraga

yetib va normaning eng oxirgi chegarasiga borib qolganda xarakterning aksentuatsiyasi (ortiqcha urg'u berilishi) deb ataladi. Xarakterga ortiqcha urg'u berilishi ayrim xarakter xususiyatlarining kuchayishi natijasi sifatida normaning oxirgi variantlaridan biri sanaladi. Bunda individda boshqalariga nisbatan barqarorlik bo'lgani holda bir xil stressogen (qattiq hayajonlanuvchi) omillarga zaiflik ortishi kuzatiladi. Xarakterning aksentuatsiyasi o'ta noqulay vaziyatlarda patologik buzilishlarga va shaxs xulq-atvorining o'zgarishlariga, psixopatiyaga olib borishi (xarakter shaxsning adekvat ijtimoiy adaptasiyaga to'squinlik qiluvchi va amalda takrorlanmaydigan patologiyasi, garchi to'g'ri davolash sharoitlarida ba'zi tuzatishlarga berilsa ham) mumkin, lekin uni patologiyaga oid deb hisoblash noo'rindir. K.Leongard tomonidan xarakter aksentuatsiyasi muammosi o'rganilib uni shaxsda namoyon bo'lishiga qarab quyidagilar tasniflanadi: Gipertim tip - haddan tashkari aloqaga kirishuvchan, ko'p gapiradi, imo-ishora, mimikaga boy, suhbat mavzusini burib yuborishga moyil, ko'pincha xizmatga doir va ommaviy majburiyatlarni unutib qo'rganligi sababli ziddiyatlar kelib chiqadi. Distim tip - kamgap, muloqotga kirishishga qiynaladi, pessimist, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, uyda yolg'iz qolishni yoqtiradi. Sikloid tip - kayfiyati tez o'zgarishga moyil, kayfiyati yaxshi paytda - gipertim, yomon paytda distim tipga o'xshab qoladi. Qo'zg'aluvchan tip - muloqotda passiv, verbal va noverbal reaksiyalari sust, qaysar, ba'zan urushqoq, ko'pincha turli mojarolarning tashabbuskori. Kuchaytiruvchi tip - kamgap, aql o'rgatishni yoqtiradi, yuqori natijalarga erishishni hohlaydi, tez xafa bo'ladi, shubhalanuvchan, qasoskor. Kichik-kichik muammolarni kattalashtirishga, bo'rtirishga moyil. Pedant tip - ziddiyatlarga kam qo'shiladi, ko'pincha passiv holatda bo'ladi, atrofda qilargalarga ko'plab rasmiy talablar qo'yadi, tartibli, jiddiy ishonchli xodim. Xavotirli tip - kamgap, odamovi, o'ziga ishonmaydi, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, tinchliksevar, o'z-o'zini tanqid qiladi. Topshiriqlarni vaqtida bajaradi. Emotiv tip - tor doiradagi kishilar bilan muloqotga kirishishni yoqtiradilar, xafa bo'lsa tashqaridan sezdirmaslikka harakat qiladi, mehribon, hamxo'r, ma'suliyatni his qiladi. Boshqalarning yutuqlaridan quvonadi. Namoyishkorona (demonstrativ) tip - muloqotga tez kirishadi, yetakchilikka intiladi, hokimiyat va maqtoovni yoqtiradi, boshqalarni o'ziga jalb qila oladi, noyob tafakkurga, xulq-atvorga ega. Ekzaltirlashgan tip - o'ta muloqotga kirishuvchan, ko'p gapiradi, qiziquvchan, do'stlari va yaqinlarga e'tiborli, boshqalarga yordam beradi, did-farosatli, samimiy.

Ekstrovertlashgan tip - muloqotga kirishuvchan, do'stlari ko'p, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, boshqalarni diqqat bilan eshitish mumkin. Topshiriqlarni vaqtida bajaradi. Introvertlashgan tip - muloqotga kirishishga qiynaladi, «ichimdagini top», falsafiy fikr yuritishni yoqtiradi, qat'iyatli, e'tiqodi mustaqkam, qaysar, tafakkuri qotib qolgan. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonida xarakter aksentuatsiyasini tarbiyalash va tuzatish mumkin.

Xarakter tipi - Freyd tomonidan odamlarni psixoseksual taraqqiyotning aniq darajasida tutilib qolishga mos holda tasnif qilinishi.

Xarakter xislatlari - har bir kishida irodaning ayrim sifatleri umr bo'yi mustahkamlanib, shu odamning xususiy sifatleri (ya'ni doimiy xislatlari) bo'lib qolishi mumkin. Shaxsning bu o'ziga xos xususiyatlari xarakter xislatlari deb ataladi. Xarakter xususiyatlari - to'rtta tizimi farqlanadi. Jamoa va ayrim odamlarga bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi xususiyatlar (yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik va shu kabilar). Mehnatga bo'lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: (mehnatsevarlik, yalqovlik, vijdonlilik, mehnatga ma'suliyat yoki ma'suliyatsizlik bilan munosabatda bo'lishi kabilar). Narsalarga bo'lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: (ozodalik va ifloslik, narsalar bilan ayab yoki ayamadan munosabatda bo'lish kabilar). Odamning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini ifodalovchi xususiyatlar (izzat-nafslilik, shuhratparastlik, mag'rurlik, o'zini katta olish, kamtarlik kabilar).

Xavotirlanish - individning boshdan kechirish jarayoni bo'lib, u aniqmas bir xavf oldidan paydo bo'ladi.

Yalqovlik - kishining qininchiliklarni yengishdan bosh tortishga intilishi, irodaviy kuch-g'ayrat ko'rsatishni qat'iy ravishda istamasligi iroda sustligining eng tipik ko'rinishidir. Shunisi diqqatga loyiqki, boshqa barcha hollarda qandaydir kamchiliklarini tan olishga unchalik moyil bo'lsalar ham, bu defekttni juda oson tan oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ambrumova A.G., Pustovalova L.I. Semeynaya diagnostika v suisidologicheskoy praktike. – M., 1983.
2. Averin V.A. Psixologiya lichnosti: Uchebnoe posobie. – SPb.: Izd-vo Mixaylova V.A., 1999.
3. Boeree C. G Personality Theories. Psychology Department Shippensburg University. 1997
4. Duane P.Schults. Theories of Personality. Wadsworth, a division of Thomson Learning, Inc. Copyright © 2005.-550 p.
5. Ensiklopediya glubinnoy psixologii / Pod red. A. M. Bokovikova. – M., 2001.
6. Eydemiller E.G., Yustiskis V. Psixologiya i psixoterapiya semi. – SPb., 1999.
7. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. T.: O'qituvchi, 2010.
8. Galinullina Z.X. Marginali: ponyatie i empiricheskaya realnost. Avtoreferat diss. kand. sotsiol. nauk. Kazan. 1996;
9. George Boeree.C. Personality Theories/ Sigmund Freud. Psychology Department Shippensburg University/ Original E-Text-Site: [<http://www.ship.edu/%7Ecgboree/perscontents.html>]. P.6.
10. King M., Koen U., Sitrenbaum Ch. Gipnoterapiya vrednix privichek. – M., 1998.
11. Kleyberg Yu.A. Psixologiya deviantnogo povedeniya: Ucheb. posobie dlya vuzov. – M., 2001.
12. Klöninger S. Teoriya lichnosti: poznanie cheloveka. -SPb.: Piter. 2003. -720 s.
13. Komilova N.G'. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi: Uslubiy qo'llanma. – T., 2008.
14. Kulakov S.A. Diagnostika i psixoterapiya addiktivnogo povedeniya u podrostkov: Ucheb.-metod. posobie. – M., 1998.
15. Martin D. Psixologicheskie eksperimenti .Sekreti mexanizmov psixiki.-Spb.: praym-EVROZNAK, 2004-480 s.
16. Maslou A. Motivatsiya i lichnost. – SPb.: Piter, 2003. – 352s.
17. Mendeleevich V.D. Psixologiya deviantnogo povedeniya. M. 2004.
18. Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – 910 p.
19. Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010. – R. 553-593.

20. Narkomaniya: Metod, rekomendatsii po preodoleniyu narkozavisimosti / Pod red. A. N. Garanskogo. – SPb., 2000.

21. Nelson-Djouns R. Teoriya i praktika konsultirovaniya. SPb.: Piter, 2000. – 464 s.

22. Nishanova Z.T., Tulyaganova. Sh.T. O'smirlik davrida qo'rquv holatlarining namoyon bo'lishi: Uslubiy qo'llanma. – T., 2009.

23. Obshaya psixoloriya: v 7 t.: uchebnik dlya stud. vissh. ucheb. Pod red. B. Bratusya. – M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2007.

24. Olimov L.Ya va boshq. Psixodiagnostika. T.: Turon zamin-ziyo. 2014. – 288 b.

25. Olimov L.Ya. va boshq. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. B.: Buxoro viloyat bosmaxonasi. 2018. – 178 b.

26. Ovcharova R.V. Texnologii prakticheskogo psixologa obrazovaniya: Uchebnoe posobie dlya studentov vuzov i prakticheskix rabotnikov. – M.: “Sfera”, 2000

27. Parens G. Agressiya nashix detey. – M., 1997

28. Psixologiya destruktivnix kultov: Profilaktika i terapiya kultovix travm // Jurnal prakticheskogo psixologa. Spes. vip. – M., 2000. – № 1-2.

29. Psixologiya i lechenie zavisimogo povedeniya / Pod red. S. Daulinga. – M., 2000.

30. Psixosotsialnaya korreksiya i rehabilitatsiya nesovershennoletnix s deviantnim povedeniem / Pod red. S.A. Belichevoy – M., 1999.

31. Psixoterapevticheskaya ensiklopediya / Pod red. B. D. Karvasarskogo. – SPb., 1998.

32. Skoroxodova A.A. Graffiti: znachenie, motivi, vospriyatie // Psixologicheskij jurnal, 1998. № 1. S. 144-155.

33. To'laganova G.K. Deviant xulq psixokorreksiyasi. T. 2015.y.

34. Xell L., Zigler D. Teorii lichnosti. SPb.: Piter, 1997. – 608 s.

35. Xoll K., Lindsey G. Teorii lichnosti. M., 1998.- 796 s.

36. Zmanovskaya E.V. Deviantologiya: (Psixologiya otkloniyayushegosya povedeniya): Ucheb. posobie dlya stud. vissh. ucheb. zavedeniy.- M., 2003. – 288 s.

Internet manbalar:

www.koob.ru

www.psychology.ru

MUNDARIJA

Kirish	3
--------------	---

I BOB. XULQI OG‘ISHGAN BOLALAR PSIXOLOGIYASI KURSINING SHAKLLANISH TARIXI

1.1. Fanning predmeti, maqsad, vazifalari.....	4
1.2. Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi va fanlar tizimida tutgan o‘rni.....	6

II BOB. IJTIMOY ME‘YORLARNING SHAXS XULQ-ATVORIGA TA‘SIRI

2.1. Ijtimoiy me‘yor haqida tushuncha.....	16
2.2. Ijtimoiy me‘yorga ta‘sir etuvchi omillar.....	17
2.3. Ijtimoiy og‘ishish va uning sababalari.....	20

III BOB. SHAXS OG‘ISHGAN XULQINING MEXANIZMLARI

3.1. Shaxs og‘ishgan xulqining determinatsiyasida ijtimoiy va tabiiy birlik.....	23
3.1.1. Psixologiyada shaxs fenomeni	23
3.1.2. Klassik psixoanaliz va uning modifikatsiyalari	29
3.1.3. K.Yung va uning Analitik psixologiyasi	35
3.1.4. A.Adlerning “Individual psixologiyasi”	37
3.1.5. Bixeviorizmning asosiy g‘oyasi	39
3.1.6. Sotsial o‘rganishlar nazariyasi.....	44
3.1.7. Gumanistik psixologiyada shaxs	46
3.1.8. Shaxsning ekzistensial psixologiyasi.....	52
3.1.9. Turli xil psixologiya maktablarining shaxs nazariyalari... ..	57
3.2. Deviant axloqqa ekzistensial-gumanistik yondashuvlar ..	71
3.3. Og‘ma xulq-atvorning psixodinamik aspektlari	77
3.4. Og‘ma xulq-atvor – o‘rganish mahsuli sifatida	84
3.5. Og‘ma xulq-atvorning tahlil qilish sxemasi	101

IV BOB. SHAXS OG‘ISHGAN XULQINI PSIXOLOGIK TASNIFLASH

4.1. Og‘ishgan xulqni psixologik tasniflash	106
---	-----

4.2. Axloqiy og‘ishishlarni tasniflash muammosi	108
4.3. Axloqiy fenomenlarni qiyosiy tavsifnomasi.....	115

V BOB. SHAXS TAJOVUZKOR AXLOQINING SHAKILLANISH SHART-SHAROITLARI VA NAZARIYALARI

5.1. Tajovuz va tajovuzkor axloq	117
5.2. Agressivlik (tajovuzkorlik) barcha asoslarning asosi sifatida	121
5.3. Shaxs agressiv xulq-atvorining shakllanish sharoitlari	131
5.4. Agressiya va delinkvent xulq-atvor.....	139

VI-BOB. DELINKVENT AXLOQ SHAXS OG‘ISHGAN XULQINING SHAKLI SIFATIDA VA QONUNGA QARSHI MOTIVATSIYA

6.1. Delinkvent axloq mazmun-mohiyati va shakllanishi.....	143
6.2. Delinkvent xulq-atvor shakllanishinig sharoitlari.....	146
6.3. Qonunga qarshi motivatsiya.....	153
6.4. Antijimoiy shahs tushunchasi	155

VII-BOB. SHAXS TOBE AXLOQINING TAVSIFNOMASI

7.1. Konseptual modellar	162
7.2. Shaxs tobe axloqining omillari.....	166
7.3. Narkomaniya. Quvvatlovchi markazlarning shakllanishi va gedonik komponentlar bilan kechuvchi ehtiyoj sikli.....	171
7.4. Ichkilikbozlik haqida.....	186

VIII BOB. SUITSIDNING SHAKLLANISH KONTSEPTSIYASI, SUITSIDAL MOTIVATSIYA

8.1. Suitsidal axloq tushunchasi va tipologiyasi	190
8.2. E.Dyurkgeym “O‘z-o‘zini o‘ldirish” nazariyasi asoschisi sifatida	209
8.3. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida o‘z joniga qasd qilishning nazariy sabablari, mavjud muammolari	214
8.4. O‘z joniga qasd qilishning profilaktikasi.....	217
8.5. Suitsidal xulq-atvorning psixodiagnostikasi.....	222

8.6. Tibbiy-psixologik qayta tiklanish o'z joniga qasd qilishni profilaktika qilish omili.....	224
8.7. Suiqasdning turlari, haqiqiy suiqasdlik xulqi va suiqasdlik holatining dinamik rivojlanishi	227
8.8. Bolalar va o'smirlar suitsidining sabab va motivlari	232
8.9. O'smirlik davridagi ijtimoiy psixologik xususiyatlari xulq-atvordagi buzilishlarning namoyon bo'lish formalari	245

IX BOB. SHAXS OG'ISHGAN AXLOQINING PSIXODIAGNOSTIKASI

9.1. Xulqi og'ishgan bolalar bilan olib boriladiganpsixodiagnostik ishlarning o'ziga xos jihatlari va tamoyillari.....	254
9.2. Deviant xulqli yoshlarning hayotiy mezonlarini tahlil qilish	254
9.3. Deviant xulqli o'smir xulq-atvor yo'nalishining tahlili	255
9.4. O'smirlarning ma'naviy-axloqiy va huquqiy me'yorlar haqidagi tushunchalari psixodiagnostikasi	257
9.5. Deviant xulqli o'smirlarning o'zaro muloqotidagi qarama-qarshiliklar va kelishmovchiliklar	258
9.6. Janjalli xulqning tashxisi	262
9.7. O'smirlarning deviant xulqqa moyilligi diagnostikasi.....	267

X BOB. SHAXS OG'ISHGAN AXLOQINING PREVENSIYASI VA INTERVENSIYASI

10.1. Og'ishgan hulqning preventsiyasi va interventsiyasi bo'yicha umumiy tushuncha	330
10.2. Shaxs og'ishgan xulqiga ijtimoiy-psixologik ta'sir	331
10.3. Og'ishgan hulqning turli shakllarida ijtimoiy psixologik aralashuv strategiyalari	335

XI BOB. SHAXS OG'ISHGAN XULQINING PSIXOLOGIK KORREKSIYASI

11.1. Ijobiy sabablarni rag'batlantirish.....	341
11.2. Hissiy holatlarni korrektsiyalash usullari. O'z-o'zini boshqarish usullari	342

11.3. Kognitiv usul. Istalmagan axloqni so'ndirish usuli. Ijobiy axloqni shakllantirish usullari	359
--	-----

XII BOB. XULQI OG'ISHGAN BOLALARNING OTA-ONALARI BILAN AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING FAOLIYATI

12.1. O'smir va oila munosabatlaridagi ota-ona va bola munosabatlarini me'yorlashtirish bo'yicha konsultativ yordam berish usullari.....	369
12.2. O'smirni vaqtni to'g'ri taqsimlashga o'rgatish.....	373
12.3. Marginal shaxs tushunchasi va marginallik maqomi.....	388
12.4. Marginalning ijtimoiylashuv muammolarini o'rganishda sotsiomadaniy yondashuvlar.....	394
12.5. Marginallikning rivojlanishi turli og'ma norasmiy guruhlarning kengayishi (deviant xulq atvor)	403
Glossariy	410
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	488

Qaydlar uchun

Qaydlar uchun

O'quv nashr

L.YA.OLIMOV, A.M.NAZAROV

XULQI OG'ISHGAN BOLALAR PSIXOLOGIIYASI

O'quv qo'llanma

«Tafakkur avlodi» nashriyoti, 2020

Muharrirlar:	Abdukamol Abdujalilov
Texnik muharrir:	Yunusali O'rinov
Badiiy muharrir:	Shoimov Zuxriddin
Musabhiha:	Dilfuza Beknazarova
Dizayner:	Yunusali O'rinov

Nash.lits. № 2013-975f-3e5e-d1e5-
f4f3-8537-2366, 20.08.2020 y.

Terishga 24.08.2020-yilda berildi. Bosishga 7.11.2020-yilda
ruxsat etildi. Bichimi: 60x84 1/16. Ofset bosma. «Times New
Roman» garniturasida. Shartli b.t. 31.0. Nashr b.t. 28.83.

Adadi 300 nusxa. Buyurtma №27.

Bahosi shartnoma asosida.

«Tafakkur avlodi» nashriyoti, 100190, Toshkent shahri,
Yunusobod-9, 13-54. e-mail: tafakkur_avlodi@mail.ru

«Tafakkur avlodi» MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Toshkent shahri, Olmazor tumani, Nodira ko'chasi, 1-uy.
Telefon: +99890 000-33-93



**«Tafakkur avlodi»
nashriyoti**

ISBN 978-9943-6691-2-3



9 789943 669123